O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

K.B. URAZOV, S.V. VAXIDOV

BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI

Darslik

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT - 2011

УДК: 657.1 (075)
ББК: 65.052.21
U 62
Urazov K.B.
Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: 5340900-buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik/ K.V.Urazov S.VC/Vaxidov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot un-ti, Samarqand iqtisodiyot va seryis in-ti. -T.: Adib, 2011. - 496 b.
I. Vaxidov, S.V.

Darslikda iqtisodiyotning qurilish, qishloq xo'jaligi, avtotransport, savdo, umumiy ovqatlantirish kabi muhim tarmoqlari va sohalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari yoritilgan. Alohida e'tibor ushbu tarmoq va sohaga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga, ularda aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, yakuniy moliyaviy natijalar, soliq va to'lovlar hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdagi xususiyatlarga qaratilgan.

5340900 «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Undan, shuningdek iqtisodiyotga oid boshqa ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, magistrlar, amaliyotchi buxgalterlar va auditorlar ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir i.f.d., professor B.A. Xasanov

Taqrizchilar: i.f.d., professor M.Q. Pardayev (SamISI)
i.f.d., professor Z.T. Mamatov (TMI)

Ахборот ресурс маркази
ИТБ № Ук 2941
ТошДАУ ТашГАУ

ISBN 978-9943-317-32-1
УДК:657.1(075)
ББК 65.052.21я73

© "ADIB NASHRIYOTI" МЧЖ, 2011
© Urazov K.B., Vaxidov S.V.

O'bekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi va Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetining 80 yilligiga bag'ishlanadi.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyoti ravnaqida uning har bir tarmog'i va sohasi o'z o'rniga ega. Chunonchi, respublikamizda 2009 - yilda yaratilgan 48097,0 mlrd. so'mlik yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning 46,1 foizi tovarlar ishlab chiqarish sohasiga, 47,2 foizi xizmatlar ko'rsatish sohasiga, 6,7 foizi esa mahsulotlar hamda eksport-import operatsiyalaridan olingan sof soliqlarga to'g'ri keldi[1]. Agar o'n yil oldin, ya'ni 2000 - yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 - yilda bu ko'rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashkil etdi, xizmatlar bo'yicha bu raqam 37 foizdan 49 foizga o'sdi. Qishloq xo'jalining ulushi esa 30,1 foizdan 17,5 foizga tushdi[2].

Iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari bir-biridan farqli jihatlarga ega. Ushbu farqli jihatlar ularni boshqarish uchun kerakli bo'lgan axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash va uzatish vositasi bo'lgan buxgalteriya hisobiga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy hol. Aynan shular boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobini maxsus fan sifatida o'rganilishi va o'qitilishini taqozo etadi.

«Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari» fanining asosiy maqsadi iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida buxgalteriya hisobining asosiy xususiyatlarini ochib berish, talabalarda turli tarmoq va sohalarga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

---

[1] Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010. – 49-50-b.

[2] Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

E'tiborlaringizga havola etilayotgan ushbu darslik «Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari» fanining namunaviy dasturiga muvofiq tayyorlangan. U «Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishidagi bakalavrlarga mo'ljallangan.

Darslik o'z ichiga to'rtta bo'limni olgan, bu bo'limlarda iqtisodiyotning alohida tarmoq va sohalariga, chunonchi qurilish, qishloq xo'jaligi, avtotransport va savdo tarmoqlariga tegishli turli xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari yoritilgan.

Darslikning **«Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari»** nomli birinchi bo'limida ushbu sohaga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, ularning texnik, texnologik, iqtisodiy va boshqa jihatdan mavjud bo'lgan xususiyatlari, ushbu xususiyatlarning buxgalteriya hisobini tashkil qilishga ta'siri ko'rsatib berilgan. Alohida e'tibor qurilish mashinalari ish faoliyati, ularni saqlash xarajatlari, amortizatsiyasi, qurilish materiallari, qurilish va qurilish - montaj ishlarining bajarilishi, buyurtmachilarga topshirilishi, daromadlarni tan olish va bajarilgan ishlar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari, soliq va to'lovlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni hisob va hisobotda aks ettirishdagi xususiyatlarga qaratilgan.

Darslikning **«Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari»** nomli ikkinchi bo'limida qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar, chunonchi asosiy podani shakllantirish, ko'p yillik o'simliklar, o'stirishdagi va boquvdagi mollar, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish xarajatlari, ularni tannarxini aniqlash, yordamchi va umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, soliq to'lovlari va yakuniy moliyaviy natijalarni shakllantirish, ularni hisob va hisobotda aks ettirishdagi xususiyatlar ochib berilgan.

Darslikning **«Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari»** nomli uchinchi bo'limi transport sohaga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish xususiyatlariga bag'ishlangan. Unda, chunonchi, avtotransport vositalari, ularning ish faoliyati, amortizatsiyasi, yoqilg'i, yog'lash materiallari, ehtiyot qismlar hisobini yuritish tartibi, Shuningdek, avtotransport xizmatlaridan olinadigan daromadlarni tan olish va bajarilgan ishlar tannarxini

kalkulyatsiya qilish usullari, soliqlar va to'lovlar, yakuniy moliyaviy natijalarning shakllantirilishi hamda ularni hisob va hisobotda aks ettirishdagi xususiyatlar ochib berilgan.

Darslikning **«Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari»** nomli to'rtinchi bo'limi ulgurji va chakana savdo, Shuningdek umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlar, ularning kirimi va sotilishi, savdo ustamalari, olingan daromadlar, xarajatlar, soliq to'lovlari, yakuniy moliyaviy natijalarning shakllantirilishi hamda ularni hisob va hisobotda aks ettirishdagi xususiyatlarga bag'ishlangan.

Darslikning har bir bobi oxirida yoritilgan mavzuga doir tayanch atama va iboralar, o'z -o'zini nazorat qilish maqsadida testlar, xolatiy masalalar berilgan, shuningdek mavzularni chuqur o'zlashtirishga ko'maklashadigan me'yoriy hujjatlar, davriy adabiyotlar va boshqa manbalar ro'yxati keltirilgan.

Darslikning 1, 3, 4-bo'limlari iqtisod fanlari doktori, professor K.B. Urazov tomonidan yozilgan, uning 2-bo'limi esa mualliflar tomonidan hamkorlikda tayyorlangan.

Darslikdan joy olgan ayrim mavzular respublikamizda buxgalteriya hisobi bo'yicha chop etilgan boshqa darslik va o'quv qo'llanmalarida yetarlicha o'z aksini topmagan. Shu bois, mualliflar taqrizchilarga, darslikni chop etilishida ko'maklashgan barcha hamkasabalarga, shuningdek uni yanada boyitish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini beruvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirib qoladilar.

I bo'lim. QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI

1-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

1.1. Qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida qurilish tarmog'i muhim o'rini tutadi. Aynan ushbu tarmoqqa kiruvchi qurilish tashkilotlari orqali iqtisodiyotning barcha sohasiga real investitsiyalar kiritiladi. Qurilish tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohasida yangi quvvatlarni qurish, ishga tushirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash, rekonstruktsiya qilish, kengaytirish, ta'mirlash va boshqa shu kabi ishlarni amalga oshirishning bosh ijrochisi hisoblanadi.

Mamlakatimizda qurilishga qilinayotgan investitsiyalar yildan yilga oshib bormoqda. Chunonchi, 2009- yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 12531,9 mlrd.so'mni yoki 2008 - yilda qilingan investitsiya hajmiga nisbatan 124,8 foizni tashkil qildi. Kiritilgan investitsiyalarning 75,7 foizi ishlab chiqarish sohasiga, qolgan 24,3 foizi esa noishlab chiqarish sohasiga to'g'ri keldi[3].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilangan xalq xo'jaligi tarmoqlari klassifikatoriga muvofiq qurilish tashkilotlarining alohida turlariga quyidagi tarmoq kodlari ajratilgan:

- **60000** -Qurilish;
- **61000** -Pudrat va xo'jalik usulida qurilish, montaj va boshqa ishlarni olib boruvchi umumqurilish va ixtisoslashgan tashkilotlar;
- **62000** -Ishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni kapital ta'mirlashni bajaruvchi tashkilotlar;
- **63000** - Noishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni ta'mirlash, aholi buyurtmasiga ko'ra yashash joylarini ta'mirlash va qurish ishlarini bajaruvchi tashkilotlar;
- **65000** - Burg'ulash ishlarini bajaruvchi tashkilotlar;
- **66000** - Loyiha, loyiha-qidiruv va qidiruv tashkilotlari;

[3]Статическое обозрение Узбекистана за 2009 год.- Ташкент, 2010 .

- **69000** - Qurilish xo'jalik boshqarmalari

Qurilish tashkilotlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

Mulkiy shakli va yuridik maqomiga ko'ra qurilish tashkilotlari ochiq aksiyadorlik jamiyatlari (OAJ), mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ), xususiy korxonalar (firmalar) va davlat unitar korxonalari bo'lishi mumkin. Ushbu maqomdagi qurilish tashkilotlarni tuzish va ular faoliyatini yuritish respublikamizda bu turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi qonunlar va qonun osti hujjatlari, Shuningdek ushbu tashkilotlarning ta'sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Nomlanishiga ko'ra ham qurilish tashkilotlari turlichadir. Chunonchi, ularning eng keng tarqalgan nomi bo'lib xarakatlanuvchi mexanizatsiyalashgan kolona (XMK–PMK) hisoblanadi. Qurilish tashkilotlariga bundayin nomni berilishi negizida ularning qurilish, qurilish - montaj va boshqa ishlarga doir o'z faoliyatini bevosita buyurtma berilgan joylarda maxsus harakatlanuvchi texnik vositalar, mashina va mexanizmlar yordamida amalga oshirishlari yotadi. Bundan tashqari qurilish tarmog'ida xususiy qurilish firmasi, shu'ba qurilish korxonasi, qurilish kompaniyasi, qurilish tresti kabi nomlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ham mavjud.

Faoliyat yuritish doirasiga ko'ra qurilish tashkilotlari tarmoq va tarmoqlararo qurilish tashkilotlariga bo'linadi. Tarmoq qurilish tashkilotlari xalq xo'jaligining alohida olingan tarmoqlarida o'z faoliyatini yuritadilar.

Ixtisoslashganligiga ko'ra qurilish tashkilotlari maxsus va universal tashkilotlar bo'lib hisoblanadi. Masalan, qurilish tashkilotlarining metro qurilishi, uy qurilishi, yo'l qurilishi, ko'prik qurilishi va boshqa shu kabi maxsus ixtisoslashgan turlari mavjud. Ayrim qurilish kompaniyalari (trestlari) ko'p tarmoqli, ya'ni universal tashkilotlar bo'lib hisoblanadi.

Xodimlarining soniga ko'ra qurilish tashkilotlari mikrofirmalar, kichik korxonalar, o'rta va yirik korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning qonun hujjatlariga ko'ra qurilish tarmog'ida mikrofirmalar bo'lib xodimlarining soni 20 ta gacha, kichik korxonalar bo'lib xodimlarining soni 50 ta gacha bo'lgan korxonalar hisoblanadi.

Ta'sischilarining tarkibiga ko'ra qurilish tashkilotlarini mahalliy va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarga bo'lish mumkin. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qurilish tashkilotlari ustav kapitalining miqdori

eng kamida 150000 AQSH dollari miqdorida bo'lishi lozim. Ushbu ustav kapitali miqdori mahalliy va xorijiy ta'sischilar mablag'laridan tashkil topadi.

Qurilish ishlarini bajarishdagi o'rniga ko'ra qurilish tashkilotlari bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlarga bo'linadi.

Bosh pudratchi tashkilot – buyurtmachi bilan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni olib borish bo'yicha asosiy shartnomani tuzgan hamda uning bajarilishini to'liq o'z zimmasiga olgan qurilish tashkiloti.

Subpudratchi tashkilot – bosh pudratchining buyurtmachiga bajarib berishi lozim bo'lgan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarning bir qismini bosh pudratchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan bajarib beruvchi tashkilot.

Tanlangan soliq rejimiga ko'ra qurilish tashkilotlari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq rejimlarida ishlovchi korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalar hisoblangan qurilish tashkilotlari ixchamlashtirilgan soliq to'lovlari rejimida ishlashi mumkin. Yirik va o'rta qurilish tashkilotlari, odatda, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar.

Qurilish tashkilotlari faoliyati respublikamizning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga bo'linadi. Asosiy faoliyatga buyurtmachilar uchun bajarilgan qurilish, qurilish-montaj ishlari, jihozlarni o'rnatish, rekonstruksiya, kengaytirish, modernizasiya qilish, obodonlashtirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari, Shuningdek o'z maqsadlarida foydalanish va sotish uchun mo'ljallangan qurilish materiallari va moslamalarini ishlab chiqish va shu kabi boshqa ishlar kiradi. Asosiy bo'lmagan faoliyatga qurilish tashkilotlarining moliyaviy, investisiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Qurilish tashkilotlari asosiy faoliyatiga kiruvchi ishlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qurilish ishlari deganda yangi bino va inshootlarni yaratilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi. Yangi bino va inshootlarni yaratilishi o'z ichiga loyihalashtirish, qurishga tayyorgarlik, ta'minot, qurish, foydalanishga topshirish kabi jarayonlarni oladi. Har bir jarayon qurilishga doir ma'lum ishlardan tashkil topadi va o'zining pirovard natijasiga ega bo'ladi.

Qurilishning *loyihalashtirish* jarayonida yangi bino va inshootlarni qurishning texnik, texnologik, geodezik, topografik va barcha boshqa

jihatlari o'rganiladi, ularning aniq parametrlari va o'lchamlari belgilanadi. Qurilish loyihasi, odatda, maxsus loyihalashtirish muassasalari (institutlar) tomonidan buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga asosan ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan loyiha quriladigan obyekt joylashgan hududning shaharsozlik bosh loyihasi talablariga zid bo'lmasligi lozim. Shu bois ham yangi obyektlarni qurishdan oldin ularning loyihalari O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasining joylardagi boshqarmalari va bo'limlari tomonidan ko'rib chiqiladi va ma'qullanadi. Loyihalashtirish jarayonining natijasi bo'lib yangi quriladigan obyektning barcha texnik-iqtisodiy parametrlarini ifodalovchi loyihasi va qurish smetasi hisoblanadi. Qurish smetasida obyektni qurish bilan bog'liq barcha ishlarning hajmi, ularning belgilangan me'yor va tartiblarga muvofiq hisoblangan qiymati ko'rsatiladi. Loyiha qiymati pudratchi va buyurtmachi o'rtasida tuziladigan shartnoma qiymatini belgilashga asos bo'ladi.

Qurishga tayyorgarlik va uning ta'minot jarayoni buyurtmachi va pudratchi tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum ishlardan tashkil topadi. Bu ishlarni bajarish bo'yicha tomonlarning majburiyatlari tuzilgan shartnomada o'z aksini topadi. Masalan, buyurtmachi bu jarayonda o'z zimmasiga qurish uchun kerakli bo'lgan materiallarni pudratchiga yetkazib berish, oldindan to'lov summasining kelishilgan qiymatini (loyiha qiymatining 15 foizidan kam bo'lmagan qismini) quruvchi tashkilotining hisob raqamiga o'tkazib berish kabilarni oladi. Pudratchi tashkilot qurish uchun kerakli texnika va jihozlarni qurilish maydonchasiga yetkazish, ularni qurish ishlari uchun tayyorlash va shu kabi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Obyektni qurish jarayoni qurilishning titul ro'yxatida ko'rsatilgan ishlarni bosqichma-bosqich loyihani bajarish jadvaliga (grafigiga) muvofiq amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Qurilish obyektlarining bitkazilgan, lekin buyurtmachiga hali topshirilmagan qismi tugallanmagan ishlab chiqarish (qurilish ishlari) hisoblanadi.

Qurilgan obyektni foydalanishga topshirish qurilishning yakuniy jarayonidir. Bu jarayon qurilishga doir loyihadagi barcha ishlar tugatilgach, tuzilgan maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi va mos ravishda «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng qurilgan obyekt pudratchi uchun bajarilgan (sotilgan) ish, deb hisoblanadi.

Qurilish ishlari o'z ichiga montaj ishlarini ham oladi. Shu bois ushbu ishlar qurilish-montaj ishlari ham deb ataladi.

Jihozlarni o'rnatish ishlari deganda jihozlar, uskunalar va boshqa konstruksiyalarni yig'ish, o'rnatish va foydalanishga tushirish bilan bog'liq ishlar majmuasi tushuniladi. Chunonchi, bino va inshootlarni qurishda bajariladigan jihozlarni o'rnatish ishlari tarkibiga ko'tarish-tushirish qurilmalari (lift, eskalator va boshqalar)ni, isitish, sovutish, yoritish, suv berish, havoni almashtirish, sanitariya-gigiena texnikasi qurilmalarini o'rnatish, yig'ish, o'tkazish, izolyatsiya qilish va shu kabi boshqa ishlar kiritiladi.

Kengaytirish deganda pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning xarakatdagi bino va inshootlariga qo'shimcha ishlab chiqarish obyektlarini qurish, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi sexlarning maydonchalarini ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida kengaytirish bilan bog'liq ishlar tushuniladi. Kengaytirish ishlariga, shuningdek buyurtmachilarni uzoq muddatli aktivlari tarkibiga kiritiladigan va alohida balansga ajratilmaydigan filiallari va ishlab chiqarish bo'linmalarini qurish ham kiritiladi. Kengaytirish ishlari xuddi yangi qurilish singari loyihadagi barcha ishlar tugatilgach, pudratchi tomonidan buyurtmachiga «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida topshiriladi. Ushbu hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng kengaytirishga doir ishlar pudratchi tashkilot uchun bajarilgan (sotilgan) deb hisoblanadi.

Rekonstruksiya deganda pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning xarakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarini dastlabki holatini kengaytirmasdan qayta o'zgartirib chiqish tushuniladi. Rekonstruksiyadan asosiy maqsad bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy darajasini ilmiy-texnika progressi yutuqlari asosida ko'tarish;
- harakatdagi ishlab chiqarish obyektlari quvvatini oshirish;
- ishchi xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning mehnat unumdorligini oshirish;
- texnik bo'g'inlardagi disproporsiyalarni yo'qotish.

Rekonstruksiya ishlari loyihadagi barcha ishlar tugatilgach, pudratchi tomonidan buyurtmachiga «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida topshiriladi. Ushbu

hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng rekonstruksiya ishlari pudratchi tashkilot uchun bajarilgan (sotilgan) ish deb hisoblanadi.

Modernizatsiya qilish deganda pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning xarakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarini, texnika va texnologik liniyalarini eng zamonaviy ilmiy va texnik yutuqlar asosida yangilash hamda almashtirish tushuniladi. Modernizasiya qilishning asosiy maqsadi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish, uning texnik-iqtisodiy darajasini ilmiy-texnika progressi yutuqlari asosida yuksaltirish;
- harakatdagi eski ishlab chiqarish obyektlarini yangilash va shu asosda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish;
- ishlab chiqarish quvvatlari unumdorligini oshirish, texnik va texnologik liniyalarda ishlovchi xodimlar mehnat unumdorligini keskin oshirish.

Modernizatsiya qilish ishlari loyihadagi barcha ishlar tugatilgach, pudratchi tomonidan buyurtmachiga «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida topshiriladi. Ushbu hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng modernizatsiya qilish ishlari pudratchi tashkilot uchun bajarilgan (sotilgan) ish deb hisoblanadi

Obodonlashtirish deganda pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarga ularda foydalanishda bo'lgan yer maydonchalarining ko'rinishini yaxshilash, yerosti o'tkazmalarini qurish, transport vositalarini to'xtab turish joylarini tashkil qilish, yer maydonchalarini temir panjaralar bilan o'rash, yurish yo'lkalarini qurish kabi ishlar tushuniladi. Obodonlashtirish ishlari boshqa ishlar singari loyihadagi barcha ishlar tugatilgach, pudratchi tomonidan buyurtmachiga «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida topshiriladi. Ushbu hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng obodonlashtirish ishlari pudratchi tashkilot uchun bajarilgan (sotilgan) deb hisoblanadi.

Ta'mirlash ishlari deganda pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarga asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan obyektlarni texnik-ishlab chiqarish holatini ishchi holatda ushlab turish, ularning texnik-iqtisodiy darajasini saqlash maqsadlarida bajarilgan ishlar tushuniladi. Bu ishlar, odatda, buyurtmachilar bino va inshootlarining miqdoriy hajmini kengaytirmaydi. Biroq, ta'mirlash ishlari buyurtmachilarda mehnat sharoitlarini, atrof - muhit muhofazasini yaxshilashga imkon beradi.

Ta'mirlash ishlari boshqa ishlar singari shartnomada nazarda tutilgan barcha ishlar tugatilgach, pudratchi tomonidan buyurtmachiga «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida topshiriladi. Ushbu hujjat imzolangan va tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari pudratchi tashkilot uchun bajarilgan (sotilgan) deb hisoblanadi.

Shunday qilib, qurilish tashkilotlari tomonidan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun bajariladigan qurilish ishlari tarkibi turli-tumandir. Ularning asosiylariga[4] quyidagilar kiradi:

- qurilish titul ro'yxatiga kiritilgan bino va inshootlarni qurishga doir barcha ishlar, ular bilan bog'liq bo'lgan temir-beton metallar, yog'och va boshqa qurilish konstruksiyalarini o'rnatish va montaj ishlari, minorali va boshqa kranlar uchun kranosti yo'llari qurish va buzish ishlari;
- gaz, suv, elektr - energiyasi, issiqlik, kanalizatsiya, havoni tozalash ta'minotiga doir ishlar;
- neft va gaz quvurlarini yotqizish, elektr quvvati va aloqa liniyalari kabellarini yotqizish va o'tkazish ishlari;
- ko'prik, yo'l, suv osti-texnik tonnellarini qurish va o'tkazish ishlari;
- sanitariya-gigiyena texnikasi va jihozlarini o'rnatish ishlari;
- bino, inshoot va uskunalarga asos (fundament) va tayanch konstruksiyalarini o'rnatish, qozon pech va boshqa agregatlar atrofiga qoplamalar yasash ishlari;
- qurish uchun yer maydonlarini tayyorlash, tozalash, eski buta va daraxtlarni kesish va olib tashlash, kovlash, yerni quritish va loyihada belgilangan ko'rinishga yetkazish ishlari;
- shahar va qishloq joylari hududlarini ko'kalamzorlashtirish hamda obodonlashtirishga doir qurilish ishlari;
- suv chiqarish, ularni oqizish quvurlarini o'rnatish ishlari;
- eroziya, sel ko'chmalariga qarshi va boshqa tabiatni muhofaza qilish inshootlarini qurish, qirg'oqlarni mustahkamlash va botqoqlarni quritish ishlari;
- qurilishiga aloqador parmalash, shurflash, suvni tortib olish va shu kabi boshqa geologik va gidrogeologik ishlar.

Qurilish tashkilotlarining asosiy faoliyatiga kiruvchi ushbu ishlar ularning xususiyatlariga ko'ra litsenziyalashtiriladigan va litsenziyalashtirilmaydigan

[4]**Izoh:** qurilish ishlarining to'liq ro'yxati qurilish normalari va tartibiga oid hujjatlar, shuningdek qurilishga oid maxsus adabiyotlarda keltirilgan.

turlarga bo'linadi. Masalan, mudofaa obyektlarini, ko'prik va tonnellarni, magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini, balandliklarda joylashgan obyektlarni loyihalashtirish, qurish va ta'mirlash ishlari litsenziyalashtiriladigan faoliyat hisoblanadi. Bunday qurilish ishlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya faqat maxsus ixtisoslashgan qurilish tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan beriladi. Maxsus loyihalashtirishni talab qilmaydigan va litsenziya olish lozim bo'lmagan qurilish, qurilish-montaj, obodonlashtirish, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari bilan barcha turdagi qurilish tashkilotlari shug'ullanishlari mumkin.

Qurilish tashkilotlari va buyurtmachilar o'rtasida qurilish ishlariga doir pudrat shartnomalarini tuzishda hozirgi paytda tender (tanlov) usuli keng tarqalgan. Chunonchi, davlat budjetidan markazlashtirilgan tarzda moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari (maktablar, litseylar, kollejlar, harbiy qismlar, shifoxonalar va boshqalar) bo'yicha pudrat shartnomalarini tuzish maxsus «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalari orqali tanlov savdolari asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu tanlov savdolarida barcha mulkiy va tashkiliy-huquqiy turdagi qurilish tashkilotlari qatnashish huquqiga egadirlar. Buning uchun ular injiniring kompaniyalariga tanlov savdosida qatnashish bo'yicha ofertalar (takliflar)ni kiritishlari hamda tegishli tanlov hujjatlarini taqdim etishlari lozim. Tanlov savdosida qatnashish uchun qurilish tashkilotlari «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalari tomonidan qo'yilayotgan quyidagi talablarga mos kelishlari lozim:

- ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarga ega bo'lishlari;
- tanlovga qo'yilgan obyektga o'xshash inshootlarda ishlash tajribasi va ko'nikmalariga ega bo'lishlari;
- shartnoma tuzish yuzasidan fuqoralik-muomala, huquqiy layoqat va vakolatlarga, o'zaro ishonchga ega bo'lishlari;
- tanlovga qo'yilgan obyekt qurilishini olib borish uchun markazlashtiriladigan mablag'lardan tashqari o'z mablag'lariga ega bo'lishlari;
- budjet oldida boqimanda qarzlarga ega bo'lmasligi;
- joriy majburiyatlar bo'yicha to'lov qobiliyatiga ega bo'lishligi va boshqalar.

«Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalari orqali tanlov savdolari asosida amalga oshiriladigan qurilish ishlariga doir pudrat shartnomalari qurilish ishlari rejalariga kiritilgan hamda ular uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxatlariga muvofiq holda tuziladi.

Bosh pudratchi qurilish ishlarining hajmi va xususiyatlariga ko'ra injiniring kompaniyalari roziligi bilan alohida ishlarni amalga oshirishlari uchun o'zlarining subpudratchilarini belgilashlari ham mumkin. Ushbu holda bosh pudratchi va subpudratchilar o'rtasidagi munosabatlar tuzilgan subpudrat shartnomalari asosida belgilanadi.

Quriladigan obyektning loyiha-smeta hujjatlari (titul ro'yxati, uskuna, material va buyumlarni yetkazib berish jadvali, moliyalashtirish grafigi va boshqalar) tuzilgan pudrat shartnomasining tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi. Ushbu hujjatlarga amal qilish va ularda ko'rsatilgan shartlarni bekamu-ko'st bajarilishini ta'minlash buyurtmachilar hamda qurilish tashkilotlarining bevosita majburiyatlari hisoblanadi.

1.2. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari

Qurilish tashkilotlari o'z faoliyatini xo'jalik hisob-kitobi asosida yurituvchi, ya'ni o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlovchi, olgan daromadlari evaziga barcha xarajatlarini qoplovchi va pirovard natijada foyda oluvchi korxonalar sifatida buxgalteriya hisobining muhim subyektlari bo'lib hisoblanadi. Qurilish tashkilotlari xo'jalik faoliyatining turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va muomalalar, erishilgan moliyaviy natijalar, shuningdek xo'jalik faoliyatini olib borilishini ta'minlovchi aktivlar, bu aktivlarni tashkil topish manbalari buxgalteriya hisobi obyektlarini tashkil etadi. Bu obyektlarni kuzatish, ular to'g'risidagi axborotlarni nazorat va tahlil qilish hamda tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalari bo'lib hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari bevosita ular tomonidan bajariladigan qurilish, qurilish-montaj, jihozlarni o'rnatish, kengaytirish, rekonstruktiya qilish, obodonlashtirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq olib borilganligi va bunda belgilangan me'yor va tartiblarga amal qilinganligini nazorat qilish, qurilish ishlariga ketgan sarf-xarajatlarni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish, ular

asosida qurilish jarayonlari sintetik va tahliliy hisobini yuritish, tugallanmagan qurilish ishlari qiymatini to'g'ri aniqlash, tugallangan ishlar qiymatini aniq baholash va kalkulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshishini ta'minlash buxgalteriya hisobi oldida turgan eng muhim vazifalardir.

Qurilish ishlarining xususiyatlari qurilish tashkilotlarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Chunonchi, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi narxi qimmat maxsus texnika turli mexanik va elektr jihozlar, yuk tashish mashinalari, maxsus bino va inshootlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishi lozim.

Qurilish ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli qurilish materiallarining qurilish maydonchalariga o'z vaqtida kelib tushishiga, ular bo'yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to'g'ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi qurilish ishlarining tannarxiga, ularni bajarishdan olinadigan daromadlar va to'lanadigan soliqlarga, qurilish tashkilotining sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to'g'ri baholash, materiallar holati va harakati ustidan usluksiz nazoratni olib borish, ular kirimi va chiqimiga doir hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo'yadi.

Qurilish ishlari hajmi va qiymatiga ko'ra katta miqdorda mablag' talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Shu bois ham qurilish ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ularni moliyalashtirilish manbalarining mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Qurilish ishlari, odatda, buyurtmachidan oldindan olingan to'lov va keyingi to'lovlar, Shuningdek pudratchi tashkilotning o'z mablag'lari yoki ular tomonidan olingan bank kreditlari evaziga amalga oshiriladi. Qurilish ishlarini moliyalashtirilishining ushbu xususiyatlari pudratchi tashkilotlarda pul mablag'larini maxsus schotlarda akkumulyatsiya qilishni (to'plashni), ulardan oqilona foydalanishni, oldindan to'lov va keyingi to'lov summalarini buyurtmachilardan o'z vaqtida kelib

tushishini, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'larni olish va qaytarish muomalalarini usluksiz nazorat qilishni, ularni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirishni, pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini belgilangan tartiblarga rioya qilgan holda olib borishni taqozo qiladi.

Qurilish ishlari boshqa ishlardan farqli o'laroq jamoa mehnatiga tayanadi, ya'ni ularni olib borishda mehnatni tashkil qilishning brigada shakli keng qo'llaniladi. Mos ravishda bajarilgan ish va xizmatlarga haq to'lashda ham mehnatning brigada shakli asos qilib olinadi. Qurilish ishlarining yaxlit brigada a'zolari tomonidan bajarilishi jami hisoblangan ish haqini, unga qo'shimchalarni brigada a'zolari o'rtasida ularning mehnatdagi haqiqiy ishtirokiga mos tarzda to'g'ri taqsimlab chiqish va hisobini yuritish vazifasini qo'yadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish tashkilotlari, ularning ta'sischilari, investorlari va boshqa ishtirokchilarining pirovard maqsadi bo'lib foyda olish hisoblanadi. Qurilish tashkilotlari hisob tizimi foyda ko'rsatkichlarini milliy pul birligida real aniqlash imkonini berishi va aks ettirishi lozim.

1.3. Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari

Qurilish tashkilotlari boshqa xo'jalik yuritish subyektlari singari respublikamiz qonun hujjatlari asosida o'zlarining hisob siyosatini ishlab chiqishlari hamda unga amal qilishlari lozim. Ushbu hisob siyosatida qurilish tashkiloti rahbariyati tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobining tashkiliy shakli, xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari, aktivlar, majmuriyatlar va xususiy kapital elementlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishi, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar va tamoyillar aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Qurilish tashkilotlarining hisob siyosati ichki va tashqi foydalanuvchilarga ular faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tegishli shakl va mazmunda yig'ish, qayd etish, guruhlash va jamlash hamda ularni o'z vaqtida yetkazib berish talablariga javob berishi kerak.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi respublikamizning «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» qonuni (7-moddasi)da ko'rsatilgan to'rtta shakldan birida tashkil etilishi mumkin.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkiliy shaklini belgilashda bu tashkilotlarning katta-kichikligi, ularning maqomi muhim rol o'ynaydi. Yirik qurilish tashkilotlarida bajariladigan hisob-kitob ishlari hajmi katta

bo'lganligi uchun buxgalteriya tarkibi alohida bo'limlardan, masalan, moddiy boyliklar hisobi bo'limi, mehnat va unga haq to'lash hisob-kitobi bo'limi, qurilish ishlari hisobi bo'limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo'limi va boshqalardan tashkil topadi. Buxgalteriya bo'limlari ish faoliyatiga bosh buxgalter rahbarlik qiladi va mas'ul hisoblanadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi qurilish tashkilotlarida, odatda, maxsus hisob bo'linmasi tashkil qilinmaydi. Ularda shartnoma asosida ishga qabul qilingan buxgalterga barcha hisob-kitob ishlarini yuritish yuklatiladi.

Qurilish tashkilotlari xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi ixtisoslashgan buxgalterlik firmasi yoki auditorlik tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnomaga muvofiq olib borilganda, ular buxgalteriya hisobini respublikamiz qonun hujjatlariga muvofiq ravishda olib borilganligi uchun qurilish tashkilotlari oldida shartnoma shartlariga asosan javobgar va mas'ul hisoblanadilar.

Qurilish tashkilotida buxgalteriya hisobi uning rahbarining o'zi tomonidan yuritilganda u buxgalteriya hisobini respublikamiz qonun hujjatlariga muvofiq ravishda olib borilganligi uchun bevosita javobgar va mas'ul hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning tanlab olingan shakli, shuningdek ushbu shaklda hisob ishlarining bajarilishini tartibga solib turuvchi ichki me'yoriy hujjatlar tizimi belgilanadi. Bunday ichki me'yoriy hujjatlar, odatda, buxgalteriya to'g'risida Nizom, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, buxgalterlar o'rtasida funksional majburiyatlarning taqsimoti, mehnat shartnomalari, ixtisoslashgan buxgalterlik firmalari yoki auditorlik tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarida daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalari (foyda va zararlari) ko'rsatkichlarini tan olish va hisobini yuritishning bir qancha usullari mavjud. Chunonchi, daromadlarni qurilish ishlari yoppasiga tugagandan so'ng, bosqichma-bosqich, qurilish navbatlari bo'yicha tan olish va hisobga olish mumkin. Qurilish tashkilotlari tomonidan bu usullardan qaysi biri tanlab olinganligi yoki ularning har birini qaysi turdagi ishlar uchun qo'llanilishi hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Bajarilgan qurilish ishlarining tannarxi, shuningdek olingan foyda summasi ularga sarflangan materiallar qiymatini baholash usullariga

bevosita bog'liq. Bunday usullar bo'lib, respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq FIFO, AVEKO, identifikatsiyalash usullari hisoblanadi. Belgilangan tartibga ko'ra qurilish tashkiloti ushbu usullarning barchasidan foydalanishlari mumkin. Biroq, bir xil nomdagi TMZlar bo'yicha bir vaqtning o'zida baholashning turli usullarini qo'llash mumkin emas. Shu bois ham, qurilish tashkilotlari o'zlarining hisob siyosatida TMZlar qiymatini baholashning tanlangan usullarini ularning turlari bo'yicha ko'rsatishlari hamda unga amal qilishlari lozim.

Qurilish ishlarining bir necha yillarga cho'zilib ketishi hisobot yilining oxirida tugallanmagan qurilishni inventarizatsiya qilish va qiymatini baholashni, shuningdek unga sarflangan xarajatlarni to'g'ri taqsimlashni taqozo etadi. Bu xususiyat qurilish tashkilotlari hisob siyosatida tugallanmagan qurilish hajmini inventarizatsiya qilib chiqish, uning qiymatini baholash tartibini aniq belgilashni talab etadi.

Qurilish ishlari bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishi buyurtmachi tashkilotlarning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buyurtmachi korxonalar to'lov qobiliyatini yo'qotish riskining mavjudligi qurilish tashkilotlarida dargumon debitorlik qarzlarni bevosita yoki tashkil qilinadigan maxsus rezerv evaziga hisobdan chiqarish usullaridan birini hisob siyosatida belgilab qo'yishni talab etadi.

Bajariladigan ishlar (xizmatlar) qurilish tashkilotlari bo'linmalarida (qurilish maydonchalari, sexlar, omborlar va boshqa javobgarlik markazlarida) turli boshlang'ich hujjatlarni tuzishni, ular aylanishini tashkil qilishni, shuningdek boshlang'ich hujjatlar asosida tegishli hisob registrlarini yuritishni taqozo etadi. Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan boshlang'ich hujjatlar, ularni tuzish, taqdim etish va ishlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida keyingi boblarda alohida to'xtalamiz.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi jurnal-order, memorial-order, bosh-jurnal va ixchamlashtirilgan shakllardan birida qo'lda yoki zamonaviy kompyuterli texnologiyalarga asoslanilgan holda yuritilishi mumkin. Hozirgi paytda aksariyat qurilish tashkilotlarida qo'llanilayotgan hisob shakli bo'lib jurnal-order shakli hisoblanadi. Bu shaklda ishlatiladigan hisob registrlarining schotlar bo'yicha taqsimoti 1.1-va 1.2-jadvallarda keltirilgan.

1.1-jadval

Qurilish tashkilotlarida qo'llaniladigan jurnal-orderlar

shakl t/r	Qaysi schotlarning krediti bo'yicha
1-s	5000 «Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar»
2-s	5100 «Hisob-kitob schotidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar» 5200 «Chet el valutasidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar»
3-s	5500 «Bankdagi maxsus schotlardagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar»
4-s	6800 «Qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schotlar» 7800 «Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarni hisobga oluvchi schotlar»
6-s	6000 «Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar»
7-s	6970 «Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar»
8-s	6100 «Ajratilgan bo'linmalar, sho''ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar» 6300 «Olingan bo'naklarni hisobga oluvchi schotlar» 6400 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha) 6600 «Ta'sischilarga bo'lgan qarzni hisobga oluvchi qarzlar» 6900 «Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schotlar»
10-s	1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» 2000 «Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar» 2300 «Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar» 2500 «Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» 2600 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsizliklarni hisobga oluvchi schotlar» 2700 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni hisobga oluvchi schotlar» 3100 «Kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» 3200 «Kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» 6500 «Sug'urta va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga oluvchi schotlar» 6700 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schotlar»
11-s	9030 «Ishlar bajarishdan va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» 9200 «Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» 9300 «Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» 9410 «Sotish xarajatlari» 9420 «Boshqaruv xarajatlari» 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»
12-s	8300 «Ustav kapitalini hisobga oluvchi schotlar» 8400 «Qo'shilgan kapitalni hisobga oluvchi schotlar» 8500 «Rezerv kapitalini hisobga oluvchi schotlar» 8700 «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schotlar» 8800 «Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schotlar» 8900 «Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlarini hisobga oluvchi schotlar»
13-s	0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar» 0200 «Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar» 0400 «Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar» 0500 «Nomoddiy aktivlarni eskirishini hisobga oluvchi schotlar»
15-s	6200 «Kechiktirilgan majburiyatlar (daromadlar)ni hisobga oluvchi schotlar» 9800 «Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydani ishlatilishini hisobga oluvchi schotlar» 9900 «Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar»
16-s	0700 «O'rnatilmagan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schotlar» 0810 «Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schotlar»

1.2-jadval

Qurilish tashkilotlarida qo'llaniladigan yordamchi va ishlov qaydnomalari

Shakl tartib raqami	shakl nomi	Qaysi schotlarning debeti bo'yicha
1-s	Qaydnoma	5000 «Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlar»
2-s	Qaydnoma	5100 «Hisob-kitob schotidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi Schotlar»
5-s	Qaydnoma	Olinadigan schotlar to'g'risida tahliliy ma'lumotnoma
6-s	Qaydnoma	Ta'minotchi va pudratchilarga to'langan bo'naklar (fakturasiz kelgan va yo'ldagi materiallar) to'g'risida tahliliy ma'lumotnomalar
7-s	Qaydnoma	Budjetga oldindan to'lov va boshqa debitorlik qarzlar to'g'risida tahliliy ma'lumotnoma
10-s	Qaydnoma	Moddiy qiymatliklarning harakati (pul o'lchovi birligida)
15-s	Qaydnoma	Vaqtinchalik binolar, inshootlar va moslamalarning tahliliy hisobi
16-s	Ishlov qaydnomasi	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish, ular tannarxi hisob-kitobiga doir tahliliy ma'lumotnomalar
RT-2	Ishlov qaydnomasi	Ish haqini taqsimlanishining hisobi
RT-5s	Ishlov qaydnomasi	Hisoblangan ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, ularning taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash
RT-7	Ishlov qaydnomasi	Asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiyasi)ning taqsimoti

Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining muhim tarkibiy qismi moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobini yuritish uchun tasdiqlangan ishchi schotlar rejasi hisoblanadi. Qurilish tashkilotlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishchi schotlar rejasida nazarda tutilishi lozim bo'lgan ayrim schotlar va ularning yuritilish tartibiga keyingi boblarda alohida to'xtalamiz.

Tayanch iboralar

Qurilish ishlari - bu yangi bino va inshootlarni yaratilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Jihozlarni o'rnatish ishlari - bu jihozlar, uskunalar va boshqa konstruktsiyalarni yig'ish, o'rnatish va foydalanishga tushirish bilan bog'liq ishlar majmuasi.

Kengaytirish - bu pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning xarakatdagi bino va inshootlariga qo'shimcha ishlab chiqarish obyektlarini qurish, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi sexlarning maydonchalarini ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida kengaytirish bilan bog'liq ishlar.

Rekonstruktsiya – bu pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning harakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarini dastlabki holatini kengaytirmasdan qayta o'zgartirib chiqish.

Modernizatsiya – bu pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarning harakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi obyektlarini yangilash, mashina va mexanizmlar hamda texnik vositalarning foydalanish muddatlari va mehnat unumdorligini oshirishga imkon beruvchi qismlarini almashtirish.

Obodonlashtirish - bu pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarga ularda foydalanishda bo'lgan yer maydonchalarining ko'rinishini yaxshilash, yerosti o'tkazmalarini qurish, transport vositalarini to'xtab turish joylarini tashkil qilish, yer maydonchalarini temir panjaralar bilan o'rash, yurish yo'lkalarini qurish kabi ishlar.

Ta'mirlash – bu pudrat shartnomasiga ko'ra buyurtmachilarga asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan obyektlarni texnik-ishlab chiqarish holatini ishchi holatda ushlab turish, ularning texnik-iqtisodiy darajasini saqlash maqsadlarida bajarilgan ishlar.

Qurilish tashkiloti - bu o'z faoliyatini xo'jalik hisobi asosida yurituvchi yuridik shaxs.

Bosh pudratchi tashkilot – bu buyurtmachi bilan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni olib borish bo'yicha asosiy shartnomani tuzgan hamda uning bajarilishini to'liq o'z zimmasiga olgan qurilish tashkiloti.

Subpudratchi tashkilot – bu bosh pudratchining buyurtmachiga bajarib berishi lozim bo'lgan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarning bir qismini bosh pudratchi bilan tuzilgan shartnomaga asosan bajarib beruvchi tashkilot.

Buyurtmachi – bu bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlar tomonidan shartnomalar asosida bajariladigan qurilish, qurilish-montaj, kengaytirish, rekonstruktsiya, modernizatsiya, obodonlashtirish, ta'mirlash va boshqa ishlarning xaridori.

Pudrat shartnomasi - bu bosh pudratchi va buyurtmachi o'rtasida qurilish, qurilish-montaj, kengaytirish, rekonstruktsiya, modernizatsiya, obodonlashtirish, ta'mirlash va boshqa ishlarni bajarish shartlari, talablari, o'zaro hisob-kitoblar va jihatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yuridik hujjat.

Injiniring kompaniyasi – davlatning hududiy boshqaruv organlari huzurida davlat Budjetidan markazlashtirilgan tarzda moliyalashtiriladigan

qurilish obyektlari (maktablar, litseylar, kollejlar, harbiy qismlar, shifoxonalar va boshqalar) bo'yicha pudrat shartnomalarini tuzishda «yagona buyurtmachi xizmati» funksiyasini bajaruvchi maxsus davlat tashkiloti.

Tender (tanlov) – bu «yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalari orqali davlat Budjetidan markazlashtirilgan tarzda moliyalashtiriladigan qurilish obyektlari (maktablar, litseylar, kollejlar, harbiy qismlar, shifoxonalar va boshqalar)ni qurish, rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish, kengaytirish, ta'mirlash kabi ishlarni bajarish borasida pudrat tashkilotlarni aniqlash uchun o'tkaziladigan tanlov savdolari.

Oferta qurilish loyihasi - injiniring kompaniyalariga tanlov savdosida qatnashish bo'yicha takliflarni o'zida mujassamlashtiruvchi tanlov hujjati.

Qurilish smetasi - bu qurilish ishlarini bajarishga ketadigan sarf-xarajatlarni o'zida ifoda etuvchi hujjat

Qurilish hisobi - bu makon va zamonda yuz bergan va berayotgan qurilish ishlarini miqdor jihatdan o'lchash va sifat jihatdan tavsiflash vositasi.

Qurilish tashkilotining hisob siyosati - bu qurilish tashkiloti rahbariyati tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobining tashkiliy shakli, xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishi, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan ichki me'yoriy hujjat.

Nazorat qilish uchun test savol-javoblari

1. Qurilish - bu:

a) xalq xo'jaligining tarmog'i;
b) jarayon;
v) faoliyat turi;
g) oldingi barcha javoblarning barchasi to'g'ri.

2. Qurilish tashkilotlari:

a) aksiyador jamiyatlari bo'lishi mumkin emas;
b) kichik korxona bo'la olmaydi;
v) mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lishi mumkin emas;

g) oldingi barcha javoblar noto'g'ri.

3. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi obyektlariga kiradi:

a) aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital;

b) xo'jalik faoliyati turlari;

v) xo'jalik faoliyati natijalari;

g) yuqoridagi javoblarda keltirilganlarning barchasi.

4. Qurilish tashkiloti hisob siyosatini:

a) Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi;

b) Moliya Vazirligi tasldiqlaydi;

v) «O'zdavarxitektqurilish» AK tasdiqlaydi;

g) Qurilish tashkilotining rahbar organi tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashtirish to'g'risida», 2000-yil 25-may (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003 - yil 12 - sentyabr, 395-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Qurilish sohasida hisobotni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 24-sentyabr, 4095-son.

6. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos. O'z.R. AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 475.

7. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot. O'zR AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

8. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

2-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

2.1. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi

Qurilish ishlarini turli mehnat qurollari hamda vositalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Chunonchi, yerosti va ustidagi, turli chuqurlik va balandliklardagi ishlarni bajarish uchun qurilish tashkilotlariga harakatlanuvchi kranlar, buldozerlar, ekskavatorlar, beton qorish mashinalari, bo'yoq va ohak purkagich apparatlar, elektr randa va arralar hamda boshqa shu kabi maxsus texnika, mashina va mexanizmlar kerak bo'ladi. Bundan tashqari, qurilishga kerakli bo'lgan ko'p miqdordagi materiallarni tayyorlash, saqlash va ularni qurilish maydonchalariga o'z vaqtida yetkazib berish turli ta'minot, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarning bajarilishini ta'minlovchi binolar, inshootlar, transport va boshqa mehnat vositalariga ega bo'lishlikni taqozo etadi. Bularning barchasi qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarni muhim ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Bu, o'z navbatida, qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakati, ulardan samarali foydalanish, mehnat qurollari va vositalarining eskirishi va yangilanishi ustidan uzluksiz nazoratni o'rnatish, shuningdek ular hisobini o'z vaqtida va to'g'ri yuritish talabini qo'yadi.

Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi obyekti sifatida turlicha tasniflash mumkin (2.1-jadval).

Ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra qurilish tashkilotlarining barcha asosiy vositalarini ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalariga ajratish mumkin. Ishlab chiqarish asosiy chunonchi, bevosita qurilish ishlarini olib borishda ishtirok etadigan mehnat qurollari va vositalari, masalan maxsus qurilish mashinalari va mexanizmlar, texnika, transport vositalari, bino va inshootlar hisoblanadi. Noishlab chiqarish asosiy vositalariga ma'muriyat binosi, ofis mebellari, kompyutyerlar, boshqaruvga xizmat qiladigan transport vositalari, shuningdek boshqa ijtimoiy-madaniy maqsadlarda foydalanilayotgan obyektlar kiradi.

Ishlab chiqarishni borishiga ta'sir ko'rsatuvchanligiga ko'ra qurilish tashkilotlarining barcha asosiy vositalari ishlab chiqarishga faol va nofaol ta'sir ko'rsatadigan asosiy vositalarga bo'linadi. Maxsus qurilish

mashinalari va mexanizmlari, transport vositalari, ayrim xo'jalik inventarlari ishlab chiqarishga katta ta'sir ko'rsatadigan asosiy vositalar hisoblanadi. Bino va inshootlar, mebel va ayrim jihozlar ishlab chiqarishga bevosita faol ta'sir ko'rsatmaydigan asosiy vositalarga kiradi.

2.1-jadval

Qurilish tashkilotlari asosiy vositalarining tasnifi

Tasniflash belgisi	Asosiy vositaning turi
1. Ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra	• ishlab chiqarish asosiy vositalari; • noishlab chiqarish asosiy vositalari
2. Ishlab chiqarishni borishiga ta'sir ko'rsatuvchanligiga ko'ra	• faol ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalar; • nofaol ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalar
3. Mulkiy kimga tegishligiga ko'ra	• xususiy asosiy vositalar; • vaqtinchalik foydalanishga olingan asosiy vositalar
4. Sotib olish va kelib chiqish manbalariga ko'ra	• sotib olingan asosiy import vositalar; • sotib olingan mahalliy asosiy vositalar; • o'z kuchi bilan yaratilgan asosiy vositalar; • ta'sis badali sifatida kiritilgan asosiy vositalar; • bepul kelib tushgan asosiy vositalar
5. Sotib olingandagi holatiga ko'ra	• butkul yangi asosiy vositalar; • oldinlari foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar
6. Real holatiga ko'ra	• ishlatilayotgan asosiy vositalar; • kapital ta'mirlashdagi asosiy vositalar; • konservatsiya qilingan asosiy vositalar; • zaxiradagi o'rnatilmagan jihozlar; • sotishga tayyorlangan asosiy vositalar; • tugatishga tayyorlangan asosiy vositalar; • ijaraga berilgan asosiy vositalar
7. Alohida ishlarni bajarishga mo'ljallanganligiga ko'ra	• maxsus asosiy vositalar; • universal asosiy vositalar; • aralash maqsaddagi asosiy vositalar;
8. Turi va ko'rinishiga ko'ra	• yer va yer uchastkalari; • bino va inshootlar; • mashina va mexanizmlar; • ofis mebellari va jihozlari; • kompyutyerlar; • transport vositalari; • ishchi xayvonlar; • ko'p yillik o'simliklar; • boshqa asosiy vositalar

Mulkiy kimga tegishligiga ko'ra qurilish tashkilotlari asosiy vositalari xususiy va vaqtinchalik foydalanishga (ijaraga) olingan asosiy vositalarga bo'linadi.

Sotib olish va kelib chiqish manbalariga ko'ra qurilish tashkilotlarining asosiy vositalari turli xil bo'ladi, masalan xorijiy davlatlardan sotib olingan (import) va respublikamizda ishlab chiqarilgan asosiy vositalar, o'z kuchi bilan yaratilgan asosiy vositalar, ta'sis badali sifatida kiritilgan asosiy vositalar va bepul kelib tushgan asosiy vositalar.

Sotib olingandagi holatiga ko'ra qurilish tashkilotlari asosiy vositalarini yangi va oldinlari foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarga taqsimlash mumkin.

Real holatiga ko'ra qurilish tashkilotlari asosiy vositalari ishlatilayotgan (ekspluatatsiyadagi), kapital ta'mirlashdagi, konservatsiya qilingan, zaxiradagi, sotishga va tugatishga tayyorlangan, ijaraga berilgan asosiy vositalarga ajratiladi. Sotishga va tugatishga tayyorlangan asosiy vositalar alohida qismlarga ajratilgan holda saqlanishi mumkin.

Alohida ishlarni bajarishga mo'ljallanganligiga ko'ra qurilishda qo'llanilayotgan asosiy vositalar maxsus, universal va aralash maqsaddagi asosiy vositalarga bo'linadi. Kranlar, beton qorish mashinalari, temir va taxta kesish va burg'ulash jihozlari, kovushli ekskavatorlar, grederlar va shu kabi ayrim qurilish texnikalari maxsus asosiy vositalar hisoblanadi. Traktorlar, buldozyerlar, ayrim transport vositalari, bino va inshootlar universal xarakterga ega bo'ladi.

Turi va ko'rinishiga ko'ra qurilish tashkilotlarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobi, moliyaviy va statistika hisobotlarini tuzishda barcha xo'jalik yuritish subyektlari uchun umumbelgilangan guruhlarga ajratiladi. Ushbu guruhlar hamda ularga kiruvchi asosiy vositalar, chunonchi, quyidagilar hisoblanadi: yer va yer uchastkalari; bino va inshootlar; mashina va uskunalar; ofis mebellari va jihozlari; kompyutyerlar; transport vositalari; ishchi xayvonlar; ko'p yillik o'simliklar; boshqa asosiy vositalar.

Qurilish tashkilotlari asosiy vositalarini boshqa belgilari bo'yicha ham tasniflash mumkin. Chunonchi, soliq solishga munosabatiga ko'ra ular mol-mulk solig'iga tortiladigan va mol-mulk solig'iga tortilmaydigan asosiy vositalarga ajratiladi. Amortizatsiya qilinishiga ko'ra ular Soliq kodeksida belgilangan turli me'yorlar bo'yicha eskirishi hisoblanadigan va mos ravishda turli muddatlarda (5 yildan 20 yilgacha) xizmat ko'rsatadigan asosiy vositalarga bo'linadi.

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- qiymatidan qat'i nazar xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan buyumlar – stol ustiga qo'yiladigan kalkulyatorlar, yoritgichlar, yozuv uskunalari, taqvimnomalar;

- vaqtinchalik foydalanish uchun qurilgan yo'lkalar va boshqa moslamalar (notitul inshootlar).

Qurilish tashkilotlari o'zlarining asosiy vositalari qiymatini 5-son BHMS «Asosiy vositalar»da keltirilgan tartibda baholashlari, shuningdek joriy hisobda ularni boshlang'ich (tiklangan) qiymatida, buxgalteriya balansida esa qoldiq qiymatida aks ettirishlari lozim.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati ularni sotib olish baholari (o'z kuchi bilan qurish yoki ishlab chiqarish tannarxi) hamda barcha sotib olish, tashib keltirish, rasmiylashtirish, o'rnatish, ishga tushirishga doir qo'shimcha xarajatlardan tashkil topadi. Boshlang'ich qiymatni topish maxsus «Asosiy vosita boshlang'ich qiymatining hisob-kitobi»ni tuzish asosida amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitobning yaxlit shakli respublikamizning harakatdagi me'yoriy hujjatlarida belgilanmagan. Uni quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiq (2.2- jadval).

2.2- jadval

«Tasdiqlayman»

Rahbar_____

Asosiy vosita boshlang'ich qiymatining hisob-kitobi

Nomi- beton qorish mashinasi

T/r	Hujjat		Operatsiya mazmuni	Summa	Korr. schotlar	
	№	sana			Dt	Kt
1.	2	5.01.07	Minsk zavodi, mashina qiymati	18000000	0820	6010
2.	36	15.01.07	Bojxona to'lovlari	4200000	0820	6990
3.	6	15.01.07	A. Xaydarovning avans hisoboti	800000	0820	6970
4.	41	15.01.07	«Rauf» brokerlik kontorasi	200000	0820	6990
5.	25	15.01.07	Samarqand temir yo'l uzeli	600000	0820	6990
6.	12	15.01.07	Avtoyo'l	1200000	0820	6990
7.	26	15.01.07	Samarqand DAN	50000	0820	6990
			Jami	25050000	0130	0820

Bosh hisobchi _____

Ushbu hisob-kitob sotib olingan asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati bo'yicha kirim qilinishiga, ular bo'yicha inventar kartochkalarni yuritishga,

shuningdek mehnat qurollari va vositalarini joriy hisob registrlari hamda hisobotlarda aks ettirishga asos bo'ladi.

2.2. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakatining hisobi

Qurilish tashkilotlari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari asosiy vositalarning sintetik va tahliliy hisobini respublikamizning qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida olib borishlari lozim.

21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga muvofiq asosiy vositalarning sintetik hisobi 0100 «Asosiy vositalar hisobi schotlari» tizimida ochiladigan schotlarda olib boriladi.

0110 «Yer» schotida qurilish tashkilotlari ixtiyoriga qonun hujjatlariga muvofiq mulk sifatida berilgan yer uchastkalari aks ettiriladi.

0120 «Binolar, inshootlar va uzatish qurilmalari» schotida quyidagi tarkibdagi asosiy vositalar hisobi yuritiladi:

- ***binolar*** – bu ishlab chiqarish, ma'muriy boshqaruv va boshqa ijtimoiy-maishiy maqsadlarda foydalaniladigan binolar (sexlar, omborlar, yuvinish xonalari, laboratoriya, idora, garaj, o't o'chirish deposi va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlovchi obyektlar). Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan barcha kommunikatsiyalar, ya'ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta'minoti, lift, yong'inga qarshi va signalizatsiya qurilmalari, telefon aloqasi simlari tizimlari ham kiritiladi.

- ***inshootlar*** – ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo'l shoxobchalari, nasos stansiyalari, sement va suv havzalari va sig'imlari, asfaltlangan yo'llar va yo'lkalar.

- ***uzatish qurilmalari*** – elektr liniyalar, gaz, suv, bug' o'tkazuvchi quvurlar va boshqalar.

0130 «Mashina va uskunalar» schotida yerga mustahkam o'rnatiladigan va relsda yurituvchi kranlar va elektrokranlar, ekskavatorlar, buldozyerlar, beton qorish mashinalari, transportyerlar, ko'tarish-tushirish qurilmalari, grederlar, burg'ulash, arralash, randalash, temir-tersaklarni kesish, ulash, bo'yoq, ohak va suv purkash apparatlari hamda stanoklari, issiqlik pechlari, kompressorlar, o'lchov tarozilari va boshqa maxsus mashina hamda uskunalarning hisobi olib boriladi.

0140 «Mebel va ofis jihozlari» schotida shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko'chirish apparatlari, uyali aloqa vositalarining hisobi yuritiladi.

0150 «Kompyutyer uskunasi va hisoblash texnikasi» schotida kompyutyerlar va ularga o'rnatiladigan periferiya qurilmalari (printer, skaner, modem va boshqalar)ning hisobi olib boriladi.

0160 «Transport vositalari» schotida yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, avtobuslar, traktorlar, pritseplar va boshqa transport vositalari hisobga olinadi.

Asosiy vositalarning tahliliy hisobi 13-jurnal-orderda, shuningdek har bir inventar obyektning kodi (tartib raqami) bo'yicha kartochkalarda yoki kitobda (OS-7 shakl «Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi», OS-9 «Asosiy vositalarning inventar ro'yxati») yuritiladi. Ushbu kartochka va kitoblar asosiy vositalar kelib tushganda ochiladi va ularning butun foydali xizmat muddati davri davomida saqlanadi.

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar yangi kapital investitsiyalarni kiritish, bepul olinishi, ta'sis badali sifatida kirim qilinishi evaziga ko'payishi, shuningdek ularning boshlang'ich qiymati qayta baholash hisobidan oshishi mumkin.

Kapital investitsiyalar – bu qurilish tashkilotlarining yangi obyektlarni qurishga, eski obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga, shuningdek asosiy vositalarni sotib olishga sarflagan mablag'lari majmuasi. Xalqaro standartlarda va O'zbekiston Respublikasining milliy standartlarida (5-son BHMS) bu xarakterdagi xarajatlar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini ko'paytiradigan xarajatlar deb tan olinadi.

Kapital investitsiyalar xarakteriga ko'ra ichki investitsiya hisoblanadi, ular bevosita qurilish tashkiloti qudratini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lardir.

Qurilish tashkilotlari o'z maqsadlaridagi kapital investitsiyalarni ikki usulda amalga oshirishlari mumkin: pudrat usulida va xo'jalik usulida. Ushbu usullarda amalga oshirilgan kapital investitsiyalarning hisobi 0810 «Tugallanmagan qurilish», 0820 «Asosiy vositalarni sotib olish», 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar» schotlarida olib boriladi.

0810 «Tugallanmagan qurilish» schotining debetida qurilish tashkilotlari tomonidan sarflangan kapital qo'yilmalar to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi, kreditida esa kapital investitsiya summasini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritilishi aks ettiriladi. Schotning

qoldig'i debet tomonida bo'lib, u tugallanmagan qurilishga to'g'ri keladigan kapital qo'yilmalar summasini ko'rsatadi.

0820 «Asosiy vositalarni sotib olish» schotining debetida ta'minotchidan qabul qilingan asosiy vositaning qiymati, shuningdek uni tashib keltirish, o'rnatish, montaj qilish va boshqa xarajatlar aks ettiriladi, kreditida esa schotning debetida to'plangan summani asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritilishi ko'rsatiladi. Debet va kredit aylanmalari summalari teng bo'lganligi uchun bu schot saldoga ega bo'lmaydi.

0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar» schotida yuqoridagi schotlarga kiritilmagan kapital investitsiyalar, jumladan asosiy vositalarni kengaytirishga, rekonstruksiya va modernizatsiyasiga sarflangan kapital qo'yilmalar hisobga olinadi. Bu xarakterdagi qo'yilmalarning summalari kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dalolatnomalari asosida harakatda bo'lib kelgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi.

Qurilish tashkilotlariga asosiy vositalar yuqori tashkilotdan, boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul kelib tushishi ham mumkin. Bunday asosiy vositalar shartnomalar, schot-fakturalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida qabul qilinadi. Ushbu hujjatlar asosida bepul olingan asosiy vositalarga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari»;

Kredit 8530 «Qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mol-mulk».

Bepul berilgan asosiy vositalarni tashib keltirish xarajatlari ularning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi va bu hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Debet 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar»;

Kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar».

Bir vaqtning o'zida:

Debet 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari»;

Kredit 0890 «Boshqa kapital quyilmalar».

Qurilish tashkilotlariga ta'sis hujjatlari (ustav, ta'sis shartnomasi)ga asosan ta'sischilardan qabul qilingan asosiy vositalar schot-faktura va qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar asosida quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari»

Kredit 4610 «Ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha ta'sischilarning qarzlari»

Chet el investorlaridan ta'sis badali sifatida korxona ro'yxatdan o'tgandan keyingi sanalarda kelib tushgan asosiy vositalar bo'yicha valuta

kursini o'zgarishi sababli qo'shilgan kapital vujudga keladi. Bunday holda korxona ro'yxatdan o'tgan sanadagi kurs bo'yicha ta'sischidan qabul qilib olingan asosiy vosita qiymatiga yuqorida keltirilgan yozuv beriladi. Haqiqatda kelib tushgan sana va korxona ro'yxatga olingan sanadagi kurslar o'rtasidagi farq summasi korxonaning qo'shilgan kapitaliga olib boriladi va unga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari»

Kredit 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqlari».

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarni qayta baholash ikki usulda, ya'ni bozor baholaridan kelib chiqqan holda to'g'ridan to'g'ri eski qiymatni bozor qiymatigacha yetkazish yoki eski qiymatni belgilangan koeffitsientlarga ko'paytirish yo'li bilan yangi qiymatga chiqish usullarida amalga oshiriladi. Yangi va eski qiymatlar o'rtasidagi farq qayta baholash qiymatini tashkil etadi. Ushbu summa ijobiy son bilan chiqsa, u asosiy vositalarning qiymatini oshirilganligini, manfiy son bilan chiqsa, u asosiy vositalar qiymatini pasaytirilganligini bildiradi. Qayta baholash natijasi inventarizatsiya qaydnomasi asosida hisobda aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning qiymati oshirilganda, yangi va eski boshlang'ich qiymatlar o'rtasidagi ijobiy farq buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari»;

Kredit 8510 « Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

Qayta baholashda mos ravishda asosiy vositaning jamlangan eskirish summasi ham yuqorida keltirilgan ikki usulning biri bo'yicha qayta hisoblanadi. Eskirish summasi oshirilganda unga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»;

Kredit 0211- 0290 «Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schotlari».

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati qayta baholashda pasaytirilganda yangi va eski qiymatlar o'rtasidagi salbiy farq summasi ikki usulda hisobdan chiqariladi.

1-usul. Qurilish tashkilotida oldindan asosiy vositalarni qayta baholash natijasida rezerv kapitali shakllantirilgan bo'lsa, u holda pasaytirilgan qiymat shu rezerv kapitali evaziga hisobdan chiqariladi. Bunda, mos ravishda, quyidagi yozuvlar qilinadi:

a) boshlang'ich qiymatlar o'rtasidagi salbiy farq summasiga:

Debet 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»;

Kredit 0111-0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari».

b) eskirish summalari o'rtasidagi salbiy farq summasiga:

Debet 0211- 0290 «Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schotlari»;

Kredit 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

2-usul. Rezerv kapitali mavjud bo'lmagan holda qo'llaniladi. Bu holda qayta baholash natijasida asosiy vositalarning qiymatlari o'rtasidagi salbiy farq summasi qurilish tashkiloti xarajatiga olib boriladi va u hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

a) boshlang'ich qiymatlar o'rtasidagi salbiy farqqa:

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»;

Kredit 0111- 0190 «Asosiy vositalar hisobi schotlari».

b) eskirish summalari o'rtasidagi salbiy farqqa (storno yozuvi):

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»;

Kredit 0211- 0290 «Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schotlari».

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar ularning sotilishi, tugatilishi, bepul berilishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi va boshqa chiqimlari hisobidan kamayishi mumkin. Ushbu operatsiyalar hisobda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bilan aks ettiriladi (2.3-jadval).

Umumdavlat soliqlarini to'lovchi qurilish tashkilotlarida sotilgan asosiy vositalarning sotish qiymati (Sq) qoldiq qiymat (Qq)dan katta bo'lsa (Sq > Qq), u holda ular QQS to'lovchi hisoblanadi. Agar sotish qiymati (Sq) qoldiq qiymat (Qq)dan kichik bo'lsa (Sq < Qq) yoki ular o'zaro teng bo'lsa (Sq = Qq), u holda qurilish tashkilotlari QQS to'lovchi hisoblanmaydilar. Asosiy vositalarni ta'sis badali sifatida kiritilishi ham Soliq kodeksiga muvofiq QQSga tortilmaydi.

Asosiy vositalarni sotishdan ko'rilgan zararlar, agar bu asosiy vositalar 3 yildan kam ishlatilgan bo'lsa, Soliq kodeksiga muvofiq (22–modda) foyda solig'i bo'yicha soliq bazasiga qayta qo'shiladi.

Asosiy vositalarni tugatish ularning to'liq amortizatsiya qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'i nazar ekspluatatsiya qilish holati yo'qotilgan hollarda amalga oshiriladi. Buning uchun qurilish tashkiloti rahbari buyrug'i bilan likvidatsiya komissiyasi tuziladi. Likvidatsiya komissiyasi tarkibiga korxona xodimlaridan tashqari qiziquvchi organlar (hokimiyat va boshqalar) vakillari ham kiritilishi mumkin. Komissiya likvidatsiya natijalarini maxsus likvidatsiya dalolatnomasi (OS-4 shakl) bilan rasmiylashtiradi. Ushbu dalolatnoma likvidatsiya natijalarini buxgalteriya hisobi schotlarida yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirishga asos bo'ladi.

2.3-jadval

Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar chiqimiga doir operatsiyalarni schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1. Asosiy vositalarning sotilishi					
1.	Asosiy vositani sotish qiymatiga (QQSsiz)	500000	4010	9210	Shartnoma, schot-faktura
2.	QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi va soliq solish obyekti mavjud bo'lsa)	100000	4010	6410	Shartnoma, schot-faktura
3.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000	9210	0111-0190	Shartnoma, schot-faktura
4.	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000	0211-0290	9210	Shartnoma, schot-faktura
5.	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000	8510	9210	Hisob-kitob
6.	Sotishdan olingan foyda	550000	9210	9310	Hisob-kitob
7.	Sotishdan ko'rilgan zarar		9430	9210	Hisob-kitob
2. Asosiy vositalarning tugatilishi					
1.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	6000000	9210	0111-0190	Tugatish dalolatnomasi
2.	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	5000000	0211-0290	9210	Tugatish dalolatnomasi
3.	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	250000	8510	9210	Hisob-kitob
4.	Tugatish xarajatlari	100000	9210	6710, 6520, 6990	Tugatish dalolatnomasi, qaydnomalar
5.	Tugatishdan olingan materiallar	200000	1090	9210	Tugatish dalolatnomasi, kirim dalolatnomasi
6.	Tugatishdan olingan foyda	-	9210	9310	Tugatish dalolatnomasi
7.	Tugatishdan ko'rilgan zarar	650000	9430	9210	Tugatish dalolatnomasi
3. Asosiy vositalarning bepul berilishi					
1.	Asosiy vositani bepul berish qiymatiga	50000	4010	9210	Shartnoma, schot-faktura
2.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000	9210	0111-0190	Shartnoma, schot-faktura
3.	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000	0211-0290	9210	Shartnoma, schot-faktura
4.	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000	8510	9210	Hisob-kitob
5.	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasina	50000	9430	4010	Shartnoma, schot-faktura
4. Asosiy vositalarning ta'sis badali sifatida kiritilishi					
1.	Asosiy vositani ta'sis badali sifatida berilgan qiymatiga	700000	0610-0690	9210	Shartnoma, schot-faktura
2.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000	9210	0111-0190	Shartnoma, schot-faktura
3.	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000	0211-0290	9210	Shartnoma, schot-faktura
4.	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000	8510	9210	Hisob-kitob
5.	Olingan foyda	650000	9210	9310	Hisob-kitob, schot-faktura

2.3. Qurilish mashinalari va mexanizlari ish faoliyatining hisobi

Qurilish tashkilotlarida maxsus mashina va mexanizmlar ish faoliyatini alohida hisobga olib borishning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, maxsus qurilish mashina va mexanizmlarining qimmat turishi ulardan unumli va samarali foydalanish talabini qo'yadi;

ikkinchidan, qurilish mashina va mexanizmlaridan qurilish ishlarini bajarishda faqat tegishli bosqichlarda va maqsadlarda ishlatilishi ular ish faoliyatini har bir qurilish obyekti bo'yicha hisobini olib borishni taqozo etadi;

uchinchidan, ularning qurilish maydonchalariga yetkazib kelinishi, o'rnatilishi va ishlatilishi ma'lum texnika va mehnat xavfsizliklari shartlariga qat'i amal qilishni, maxsus tayyorgarlikni, kasbiy mahoratni, shuningdek bu maqsadlar uchun qo'shimcha sarf-xarajatlarni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda qurilish mashinalari va mexanizmlari ish faoliyatini hisobga olish uchun maxsus me'yoriy hujjatlar qabul qilingan emas. Qurilish tashkilotlarida bugungi kunda qurilish mashinalari va mexanizmlari ish faoliyatining hisobiga doir dastlabki hujjatlar, ularni tuzish, ishlovdan o'tkazish sobiq SSSR davrida tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga asoslanilgan holda amalga oshirilmoqda.

Qurilish mashina va mexanizmlari ish faoliyatini aks ettiruvchi boshlang'ich hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

- ko'tarish krani ishi haqida bildirgi (ESM -1 shakl);
- qurilish mashinasi yo'l varaqasi (ESM-2 shakl);
- qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi (ESM-3 shakl);
- qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi-naryad (ESM-4 shakl);
- qurilish mashinasi (mexanizmi) ishi hisobi kartasi (ESM-5 shakl);
- qurilish mashinalari (mexanizmlari) ishi hisobi jurnali (ESM-6 shakl);
- bajarilgan ishlar (xizmatlar) to'g'risida ma'lumotnoma (ESM-7 shakl).

ESM-1 shakl, ESM-2 shakl, ESM-3 shakldagi hujjatlar balansida maxsus qurilish mashinalari va mexanizmlariga ega bo'lgan va ular yordamida boshqa tashkilotlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan qurilish tashkilotlarida qo'llaniladi.

Ko'tarish krani ishi haqida bildirgida (ESM -1 shakl) uning qaysi obyektda ishlagani va bajargan ishining turlari, miqdori, sarflagan vaqti va boshqa ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu bildirgi asosida ko'tarish, krani

tomonidan bajarilgan ishning qiymati to'g'risida ma'lumotnoma tuziladi. Ma'lumotnoma bosh pudratchi tomonidan imzolanadi va uning muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu hujjat bosh pudratchi va ko'tarish kranida ishlarni bajargan ixtisoslashgan qurilish tashkiloti o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirishga asos bo'ladi.

Qurilish mashinasi yo'l varaqasi (ESM-2 shakl) mashinistga obyektga yetkazish oldidan to'ldiriladi. Unda mashinaning nomi, texnik ma'lumotlari, mashinistning ismi-sharifi, unga berilgan topshiriqlar, topshiriqni bajarishga kirishish va uni yakunlash muddatlari ko'rsatiladi.

Qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi (ESM-3 shakl)da xuddi ESM -1 shakl dagidek boshqa qurilish mashinalari (beton qorish, ekskavator, buldozer, greder va shu kabilar) tomonidan har bir obyektda bajarilgan ishlarning turlari, miqdori, sarflagan vaqti va boshqa ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu bildirgi qurilish mashinalari tomonidan bajarilgan ishning qiymati to'g'risida ma'lumotnomani tuzishga asos bo'ladi. Bu ma'lumotnoma ham bosh pudratchi tomonidan imzolanadi, uning muhri bilan tasdiqlanadi hamda bosh pudratchi va ixtisoslashgan qurilish tashkiloti o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirishga ascs bo'ladi.

ESM-4 shakl, ESM-5 shakl va ESM-6 shakldagi hujjatlar o'z balansida qurilish mashinalari va mexanizmlari bo'lgan barcha turdagi qurilish tashkilotlarida qo'llaniladi.

Qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi-naryad (ESM-4 shakl) natural o'lchov birliklarida o'lchanadigan topshiriqlar va bajarilgan ishlarni rasmiylashtirish va hisobga olish uchun qo'llaniladi. Bu bildirgi qurilish tashkilotida qurilish mashinalari va mexanizmlari uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan bir nusxada tuziladi va mashinstlar qo'liga topshiriladi. Topshiriqlar va ishlar haqiqatda bajarilgach, buyurtmachi korxona bildirgida topshiriq va ishlarni qabul qilib olganligini imzolaydi va muhr bilan tasdiqlaydi. Ushbu bildirgi nafaqat bajarilgan ishlarni hisobga olishga, balki mashinistlarga ish haqini hisoblash uchun ham asos bo'lib hisoblanadi.

ESM-5 shakl va ESM-6 shakldagi hujjatlar yirik va kichik qurilish mashina va mexanizmlarining har kunlik ish faoliyatini hisobga olish va nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Bajarilgan ishlar (xizmatlar) to'g'risida ma'lumotnoma (ESM-7 shakl) maxsus qurilish mashinalari va mexanizmlari tomonidan bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. U pudratchi va buyurtmachilar (bosh

pudratchi va subpudratchilar) o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'luvchi schot-fakturalarga ilova qilinadi.

Qurilish mashinalari va mexanizmlari tomonidan bajarilgan ishlar ushbu texnika yordamida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar uchun daromad olishning asosiy manbai hisoblanadi. Bunday tashkilotlarda qurilish mashinalari va mexanizmlari tomonidan bajarilgan ishlar ularni tasdiqlovchi hujjatlar (ESM-7, schot-faktura) asosida hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9030 «Bajarilgan ish va xizmatlardan olingan daromadlar».

Qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni olib borayotgan pudratchi tashkilotlarda qurilish mashinalari va mexanizmlari tomonidan bajarilgan ishlar qiymati umumpudrat ishining tarkibiy qismi hisoblanadi va uning tannarxiga kiritiladi.

2.4. Qurilish mashinalari va mexanizlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining hisobi

21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga muvofiq pudratchi tashkilotlar qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari hisobini 2500-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida olib borishlari lozim. Qurilish tashkilotlari ushbu maqsadda o'zlarining ishchi schotlar rejasida maxsus schotni, masalan, 2510-«Qurilish mashinalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlari» schotini ochishlari ham mumkin. Ushbu schotga qurilish mashina va mexanizmlarining turlari yoki guruhlari bo'yicha alohida tahliliy schotlarni ochish maqsadga muvofiq. Bu schotlarning debetida qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilishga doir barcha xarajatlar guvohlik beruvchi hujjatlar asosida to'planadi, kreditida esa sarflangan xarajatlarni hisobdan chiqarilishi, ya'ni ularning tegishli obyekt tannarxiga kiritilishi aks ettiriladi.

Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari o'z ichiga quyidagi moddalarni oladi:

- qurilish mashinalari va mexanizmlarini boshqaruvchi xodimlar (mashinistlar, haydovchilar)ga hisoblangan ish haqi;

- ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- material xarajatlari (yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar, xo'jalik materiallari va shu kabilar);
- amortizatsiya xarajatlari;
- joriy va kapital ta'mirlash;
- turli xizmatlar (elektr energiya, suv, gaz, isitish, bug', transportirovka, ijara va boshqa xizmat turlari).

Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiyasiga doir ushbu turdagi xarajatlar hisobda quyidagicha aks ettiriladi (2.4-jadval):

2.4-jadval

Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1	Hisoblangan, ish haqi -kran mashinistiga -buldozer haydovchisiga -bo'yoq purkagich apparati xodimlariga	 400000 200000 300000	 2521 2522 2523	 6710 6710 6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
2	Hisoblangan ijtimoiy sug'urtaga ajratma (hisoblangan ish haqi summasidan 25 % miqdorida) -kran mashinistiga -buldozer haydovchisiga -bo'yoq purkagich apparati xodimlariga	 100000 50000 75000	 2521 2522 2523	 6520 6520 6520	Hisob-kitob
3	Sarflangan materiallar -kran uchun -bulodozer uchun -bo'yoq purkagich apparati uchun	 300000 100000 100000	 2521 2522 2523	 1010- 1090	Material hisoboti
4	Hisoblangan amortizatsiya -kran uchun -buldozer uchun -bo'yoq purkagich apparat uchun	 150000 80000 50000	 2521 2522 2523	 0230 0230 0230	Hisob-kitob
5	Ijara haqi summasiga (buldozer kovushi uchun)	100000	2522	6910	Hisob-kitob
6	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari (kran bo'yicha)	1000000	2521	2310	Hisob-kitob
7	Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga -kran uchun -buldozer uchun -bo'yoq purkagich apparati uchun	 1946000 528000 522000	 2010 2010 2010	 2521 2522 2523	Hisob-kitob

Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari, odatda, ular hisobot davrida qaysi obyektda ishlatilgan bo'lsa, o'sha obyekt tannarxiga kiritiladi. Agar hisobot davrida qurilish mashinalari va mexanizmlaridan bir nechta obyektlarda foydalanilgan bo'lsa, u holda ushbu xarajatlar qurilish obyektlari o'rtasida maxsus hisob-kitob asosida taqsimlab chiqiladi. Xarajatlarni qurilish obyektlari o'rtasida taqsimlab chiqish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

(1) dastlab hisobot davrida qurilish mashinalari va mexanizmlariga sarflangan jami xarajatlar ularning har biri bo'yicha yuqorida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari asosida topib olinadi;

(2) qurilish mashinalari va mexanizmlarining hisobot davrida barcha obyektlarda ishlagan jami ish vaqti (mashina/soat) bildirgi-naryadlar va ma'lumotnomalar asosida topiladi;

(3) mashina va mexanizmlarning 1 soatlik ishiga to'g'ri keladigan xarajat summasi topiladi, buning uchun jami xarajatlar jami ishlangan mashina/soat miqdoriga bo'linadi;

(4) bir soatga to'g'ri keluvchi xarajatlarni mashina va mexanizmlarni har bir qurilish obyektida haqiqatda ishlagan vaqtiga ko'paytirish yo'li bilan ular tannarxiga kiritiladigan xarajatlar summasi topiladi.

Misol. *Aytaylik, yuqorida keltirilgan jadvaldagi xarajatlar qurilish tashkilotida qurilish ishlari olib borilgan uchta obyektga taalluqlidir. Ko'tarish kranining ish vaqti 240 soat va u «A» obyektga tegishli, buldozerning ishlagan jami ish vaqti 200 soat, shundan: «A» obyektga –96 soati, «B» obyektga 64 soati va «V» obyektga 40 soati tegishli. Bo'yoq purgagich apparatidan foydalanish vaqti 150 jami soat, uning 86 soat «B» obyektga va 64 soati «V» obyektga tegishlidir.*

Ushbu ma'lumotlarga va yuqorida izohi berilgan tartibga asosan qurilish mashinalari va mexaizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari qurilish obyektlari bo'yicha quyidagicha taqsimot qilinadi (2.5-jadval).

Ushbu taqsimot asosida aniqlangan xarajatlar mos ravishdagi qurilish obyektlari tannarxiga kiritiladi va 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish» schotiga ochilgan tegishli tahliliy schotlarda aks ettiriladi.

2.5-jadval

Qurilish mashinalari va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining qurilish obyektlari o'rtasidagi taqsimoti

Mashina va mexanizm turi	Vaqt sarfi, soat	Xarajat, so'm		Shundan obyekt bo'yicha					
		jami	1 soat-lik	A		B		V	
				vaqt, soat	summa, so'm	vaqt, soat	summa, so'm	vaqt,soat	summa, so'm
Kran	240	1946000	8103,3	240	1946000	-	-	-	-
Buldozer	200	528000	2640	96	253440	64	168960	40	105600
Bo'yoq purkash apparati	150	522000	3265,5	-	-	86	280833	64	241167
Jami	590	2996000	x	336	2199440	150	449793	104	346767

2.5. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash usullarini qo'llash xususiyatlari

Qurilish tashkilotlari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari asosiy vositalari bo'yicha ularning eskirishini 5-son BHMS «Asosiy vositalar»da nazarda tutilgan usullar bo'yicha umumbelgilangan amortizatsiya me'yorlari asosida hisob-kitob qilishlari lozim. Asosiy vositalar turlari yoki guruhlari bo'yicha eskirish hisoblashning tanlab olingan usullari, shuningdek qo'llaniladigan amortizatsiya me'yorlarining aniq miqdorlarini qurilish tashkilotlari o'zlarining hisob siyosatida belgilab olishlari mumkin. Quyida qurilish tashkilotlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularda eskirish hisoblash usullarini ayrim asosiy vositalar turlari bo'yicha qo'llash tartibiga to'xtalamiz.

Bir maromda eskirish hisoblash usuli. Bu usulni qo'llash cheklanmagan. Lekin, uni qurilish ishlarini olib borilishiga faol ta'sir o'tkazmaydigan asosiy vositalar bo'yicha qo'llash, odatda, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, bu usulni bino va inshootlar, mebel va ofis jihozlari, kompyuterlar bo'yicha qo'llash mumkin.

Ushbu usulning mohiyati shundaki, unda asosiy vositaning amortizatsiyalanadigan qiymati bo'lib: (1) boshlang'ich qiymat yoki chamalangan tugatish qiymati chegirib tashlangandan keyin qolgan boshlang'ich qiymat hisoblanadi; (2) yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni belgilangan yillik amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish, oylik amortizatsiya summasi esa yillik amortizatsiya summasini 12 ga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Misol. *Binoning boshlang'ich qiymati 10000000 so'm deylik. Tugatish qiymati 1-holatda 10 foiz miqdorida belgilangan, 2-holatda esa ko'zda tutilmagan. Yillik amortizatsiya me'yori – 5 foiz.*

Demak, binoning amortizatsiyalanadigan qiymati 1-holatda 9000000 so'mni (10000000- 10000000*10%), 2-holatda esa 10000000 so'mni tashkil etadi. Yillik amortizatsiya summasi 1-holatda 450 ming so'mni (9000000*5%), 2-holatda esa 500000 so'mni (10000000*5%) tashkil etadi. Oylik amortizatsiya summasi 1-holatda 37500 so'mni (450000/12), 2-holatda esa – 41667 so'mni (500000/12)ni tashkil qiladi. Bu usulga ko'ra qurilish tashkilotida 20 yildan so'ng 1-holatda binoning 9000000 so'mlik boshlang'ich qiymati to'liq tiklanadi, 1000000 so'mlik qiymati tiklanmasdan qoladi. 2-holatda esa binoning qiymati 20 yildan so'ng to'liq tiklanadi.

Ish hajmiga mutanosib hisoblash usuli. Bu usulni, odatda, qurilish ishlarini olib borilishiga faol ta'sir o'tkazadigan asosiy vositalar bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, uni qurilish mashinalari va mexanizmlari, transport vositalari bo'yicha qo'llash mumkin. Ushbu usulda asosiy vositaning amortizatsiyalanadigan qiymati bo'lib ham boshlang'ich qiymat yoki chamalangan tugatish qiymati chegirib toshlangandan keyin qolgan boshlang'ich qiymat hisoblanadi. Yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni 1 birlik bajariladigan ishga to'g'ri keladigan amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Misol. *Kranning boshlang'ich qiymati 40000000 so'm deylik. Tugatish qiymati 1-holatda 5 foiz, ya'ni 2000000 so'm belgilangan, 2-holatda esa ko'zda tutilmagan. Kranning ish faoliyati uning foydali xizmat muddatida (aytaylik, 10 yil ichida) ishlagan vaqt miqdori bilan o'lchanadi. Ushbu vaqt miqdori 20000 soat, kranning haqiqatda ishlagan vaqti bildirgi-naryad bo'yicha birinchi yilda 3000 soat, deylik.*

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida kran bo'yicha amortizatsiya quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

Birinchi holatda. (1) 1 soatlik amortizatsiya me'yori 1900 so'm (38000000/20000); (2) birinchi yilda hisoblanadigan amortizatsiya summasi 5700000 so'm (1900*3000).

Ikkinchi holatda. (1) 1 soatlik amortizatsiya me'yori 2000 so'm (40000000/20000); (2) birinchi yilda hisoblanadigan amortizatsiya summasi 6000000 so'm (2000*3000).

Qurilish mashinalari va mexanizmlari bo'yicha hisob-kitob qilingan eskirish summasi qurilish tashkilotlarida ularning qaysi obyektlarda ishlaganligiga qarab o'sha obyektlarning tannarxiga kiritiladi.

Eskirishni ish hajmiga mutanosib ravishda hisoblash usulini transport vositalari bo'yicha qo'llashda ish birligi bo'lib, ular tomonidan bajarilgan yuk aylanmasi (t/km), bosib o'tilgan yo'l (km) yoki naryadda bo'lgan ish vaqti (soat) hisoblanadi.

Eskirishni hisoblashning kumulyativ usuli. Ushbu usulda asosiy vositaning amortizatsiyalanadigan qiymati bo'lib ham boshlang'ich qiymat yoki chamalangan tugatish qiymati chegirib toshlangandan keyin qolgan boshlang'ich qiymat hisoblanadi. Yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Amortizatsiya me'yori sifatida xizmat yillari sonini xizmat yillari sonlarining yig'indisiga nisbati olinadi. Faqat ushbu nisbat birlik qo'llanishda teskari holda ishlatiladi.

Misol. *Kranning boshlang'ich qiymati 40000000 so'm deylik. Tugatish qiymati 1-holatda 5 foiz, ya'ni 2000000 so'm belgilangan, 2-holatda esa ko'zda tutilmagan. Kranning xizmat muddatida 10 yil. Xizmat yillari sonlari yig'indisi 55 (1+2+3+4+5+6+7+8+9+10), mos ravishda amortizatsiya hisoblashda me'yor sifatida olingan sonlar nisbati: 1-yil uchun 10/55; 2-yil uchun 9/55, 3-yil uchun 8/55 va shu tarzda 10 yil uchun 1/55.*

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida kran bo'yicha amortizatsiya quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

Birinchi holatda. 1-yil uchun 6909090 so'm (38000000*10/55; 2-yil uchun 6218182 (38000000*9/55) va shu tarzda 10-yilda 690909 (38000000*1/55).

Ikkinchi holatda. 1-yil uchun 7272727 so'm (40000000*10/55; 2-yil uchun 6545454 (40000000*9/55) va shu tarzda 10-yilda 727273 (40000000*1/55).

Ko'rinib turibdiki, kumulyativ usul yuqorida keltirilgan ikkita usuldan farqli o'laroq asosiy vositalarni tezlashtirilgan holda amortizatsiya qilinishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq kumulyativ usulni qo'llash mol-mulk solig'ini kam to'lashga olib keladi, chunki ushbu soliq bazasi asosiy vositalarning qoldiq qiymati hisoblanadi. Biroq, kumulyativ usul bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi, agar

u bir maromda hisoblash usulida hisoblangan eskirish summasidan katta bo'lsa, u holda o'rtadagi farq summasi daromad (foyda) solig'i bazasiga qayta qo'shiladi.

Eskirishni qoldiq qiymatdan hisoblash usuli. Ushbu usulda asosiy vositaning amortizatsiyalanadigan qiymati boshlang'ich qiymat hisoblanadi. Yillik amortizatsiya summasi belgilangan yillik amortizatsiya me'yorining ikki baravari miqdorida topiladi. Chunonchi, birinchi yilda u boshlang'ich qiymatdan, keyingi yillardan boshlab esa yil oxiriga qolgan qoldiq qiymatdan hisoblanadi. Xizmat muddatining oxirgi yilida amortizatsiya summasi tugatish qiymatidan tashqari bo'lgan miqdorda hisoblanadi.

Misol. *Kraz yuk tashish mashinasining boshlang'ich qiymati 12000000 so'm deylik. Tugatish qiymati 200000 so'm. Xizmat muddati 5 yil, yillik amortizatsiya me'yori 20 %.*

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida Kraz yuk tashish mashinasi bo'yicha amortizatsiya ushbu usulda quyidagicha hisob-kitob qilinadi (2.6-jadval).

2.6-jadval

Yuk tashish mashinalari bo'yicha eskirishni qoldiq qiymatdan hisoblash usuli

Yillar	Amortizatsiya-lanadigan qiymat	Amortizatsiya me'yori, %	Yillik amortizatsiya summasi	Jamlangan amortizatsiya summasi	Qoldiq qiymat
1	12000000	40	4800000	4800000	7200000
2	7200000	40	2880000	7680000	4320000
3	4320000	40	1728000	9408000	2592000
4	2592000	40	1036800	10444800	1555200
5	1555200	-	1355200	11800000	200000

Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish maqsadidagi barcha asosiy vositalarning hisoblangan eskirishi summasini bevosita asosiy ishlab chiqarish schotiga olib borib bo'lmaydi. Bunga sabab shundaki, ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar qurilish tashkiloti tomonidan olib borilayotgan barcha qurilish ishlariga bir vaqtning o'zida xizmat qilishi mumkin. Shu bois, ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summalari dastlab 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotida yoki 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida alohida ochilgan tahliliy schotlarda aks ettiriladi.

Hisobot oyi oxirida yuqoridagi schotlarda aks ettirilgan amortizatsiya ajratmalari qurilish ishlari olib borilayotgan obyektlar o'rtasida maxsus hisob-kitob asosida taqsimlanadi. Amortizatsiya xarajatlarini qurilish

obyektlari o'rtasida taqsimlab chiqish turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Ular ichida eng keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

1) amortizatsiya summasini har bir obyekt bo'yicha olingan sof tushumning jami sof tushumdagi hissasiga qarab taqsimlash;

2) amortizatsiya summasini asosiy vositalarning hisobot davrida har bir obyektda ishlagan ish vaqti (bajargan ishi)ni jami ishlagan ish vaqtidagi (yoki jami bajargan ishlaridagi) hissasiga qarab taqsimlash;

3) amortizatsiyasi summasi qurilish tashkilotlari hisob siyosatida belgilangan boshqa tartiblarda taqsimlash.

Ushbu ma'lumotlarga va yuqorida izohi berilgan tartibga ko'ra ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar amortizatsiyasi taqsimotini quyidagicha hisob-kitob qilish mumkin (2.7-jadval). Bunday taqsimot ma'lumotlari RT-7 shakldagi ishlov qaydnomasida o'z aksini topadi.

2.7-jadval

20__ yil _____ oyi uchun amortizatsiya ajratmalarini qurilish obyektlari o'rtasida taqsimlash hisob-kitobi

№	Asosiy vositalar guruhi	Jami amortiza-tsiya summasi	Shu jumladan obyektlar bo'yicha					
			A		B		V	
			%	Summa	%	summa	%	summa
1	Bino va inshootlar	200000	15	30000	25	50000	60	120000
2	Mashina va asbob-uskunalar	600000	100	600000	-	-	-	-
3	Yuk tashish transportlari	300000	10	30000	30	90000	60	180000
4	Avtobuslar	150000	20	30000	40	60000	40	60000
5	Boshqa asosiy vositalar	400000	5	20000	80	320000	15	60000
	Jami	**1650000**		**710000**		**520000**		**420000**

Yuqorida keltirilgan taqsimot asosida aniqlangan amortizatsiya xarajatlari mos ravishdagi qurilish obyektlari tannarxiga kiritiladi va 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotiga ochilgan tahliliy schotlarda aks ettiriladi.

Tayanch iboralar

Qurilish mashinalari va uskunalari – bu yerga mustahkam o'rnatiladigan va relsda yurituvchi kranlar va elektrokranlar, ekskavatorlar, buldozerlar, beton qorish mashinalari, transporterlar, ko'tarish-tushirish qurilmalari, grederlar, burg'ulash, arralash, randalash, temir-tersaklarni kesish, ulash, bo'yoq, ohak va suv purkash apparatlari hamda stanoklari,

issiqlik pechlari, kompressorlar, o'lchov tarozilari va boshqa maxsus mashina hamda uskunalar.

Transport vositalari - bu yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, avtobuslar, traktorlar, pritseplar va boshqa transport vositalari.

Kapital investitsiya – bu qurilish tashkilotlarining yangi obyektlarni qurishga, eski obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga, shuningdek asosiy vositalarni sotib olishga sarflagan mablag'lari majmuasi.

Ko'tarish krani ishi haqida bildirgi - bu ko'tarish kranining qaysi obyektda ishlagani va bajargan ishining turlari, miqdori, sarflangan vaqt va boshqa ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi, shuningdek bosh pudratchi va ko'tarish kranida ishlarni bajargan ixtisoslashgan qurilish tashkiloti o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirishga asos bo'luvchi boshlang'ich hujjat.

Qurilish mashinasi yo'l varaqasi – bu mashinistga qurilish mashinasini qurilish obyektiga yetkazish oldidan to'ldiriladigan, shuningdek o'zida mashinaning nomi, texnik ma'lumotlari, mashinistning ismi-sharifi, unga berilgan topshiriqlar, topshiriqni bajarishga kirishish va uni yakunlash muddatlari ko'rsatiladigan boshlang'ich hujjat.

Qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi beton qorish, ekskavator, buldozer, greder va shu kabi qurilish mashinalari tomonidan har bir obyektda bajarilgan ishlarning turlari, miqdori, sarflagan vaqti va boshqa ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi, qurilish mashinalari tomonidan bajarilgan ishning qiymati to'g'risida ma'lumotnomani tuzishga hamda bosh pudratchi va ixtisoslashgan qurilish tashkiloti o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirishga asos bo'luvchi boshlang'ich hujjat.

Qurilish mashinasi va mexanizmi ishi to'g'risida bildirgi-naryad – bu natural o'lchov birliklarida o'lchanadigan topshiriqlar va bajarilgan ishlarni rasmiylashtirish va hisobga olish uchun qo'llaniladigan, topshiriqlar va ishlar haqiqatda bajarilgach, bajarilgan ishlarni hisobga olishga, shuningdek mashinistlarga ish haqini hisoblash uchun asos bo'luvchi boshlang'ich hujjat.

Bajarilgan ishlar (xizmatlar) to'g'risida ma'lumotnoma – bu maxsus qurilish mashinalari va mexanizmlari tomonidan bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi hujjat bo'lib, u pudratchi va buyurtmachilar (bosh pudratchi va subpudratchilar) o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'luvchi schot-fakturalarga ilova qilinadi.

Qurilish mashinalarini saqlash va ekspluatatsiya qilish xarajatlari – bu qurilish mashinalari va mexanizmlari mashinistlari va haydovchilariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, material xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, joriy va kapital ta'mirlash hamda turli xizmatlar qiymatining yig'indisi.

Qurilish mashinalari va mexanizmlariga hisoblangan eskirish (amortizatsiya) summasi – bu qurilish tashkilotlari tomonidan mavjud qurilish mashinalari va mexanizmlari uchun qonun hujjatlarida, shuningdek hisob siyosatida nazarda tutilgan usullar hamda amortizatsiya me'yorlari asosida hisoblangan eskirish summasi.

Nazorat uchun test savol-javoblari

1. Qurilish mashina va uskunalariga kirmaydi:

a) ko'tarish krani;
b) ekskavator;
v) buldozer;
g) avtobus.

2. Qurilish mashinasini sotib olish qiymati 10000000 so'm, tashib keltirish xarajati 200000 so'm, olingan kreditga to'langan foiz - 150000 so'm, vositachilik xarajatlari – 600000 so'm, rasmiylashtirish xarajatlari – 500000 so'm, o'rgatish xarajatlari 400000 so'm. Qurilish mashinasining boshlang'ich qiymatini toping

a) 10000000 so'm;
b) 10150000 so'm;
v) 11700000 so'm;
g) 11300000 so'm.

3. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida qurilish mashinasini kirim qilinishiga buxgalteriya yozuvini bering.

a) Debet 0160 Kredit 6010 10000000 so'mga;
b) Debet 0130 Kredit 6010 11300000 so'mga;
v) Debet 0130 Kredit 0820 11700000 so'mga;
g) Debet 0160 Kredit 0820 11700000 so'mga

4. 2-test ma'lumotlari asosida qurilish mashinasiga qilingan kapital investitsiyaga kiritilmaydigan summani va uni aks ettiruvchi yozuvni toping.

a) Debet 0820 Kredit 6010 10000000 so'm;

b) Debet 0820 Kredit 6990 1300000 so‘m;
v) Debet 9610 Kredit 6920 150000 so‘m;
g) Debet 0820 Kredit 6990 400000 so‘mga

5. Ko‘tarish kranining ish faoliyati o‘lchanadi:

a) ko‘targan yuk vazni bilan;
b) bosib o‘tgan yo‘l uzunligi bilan;
v) ko‘tarish-tushirishlar soni bilan;
g) mashina-soat miqdori bilan.

6. Kovushli ekskavatorni ekspluatatsiya qilish xarajati 600000 so‘m. Jami ishlagan vaqti bir oyda 200 soat, shundan A obyektda 100 soat, B obyektda 60 soat, V obyektda 40 soat. Buldozerning ekspluatatsiya qilish xarajati summasi obyektlar o‘rtasida qanday usulda taqsimlanadi?

a) Ishlagan vaqtiga qarab;
b) To‘g‘ridan to‘g‘ri;
v) Teng taqsimlanadi;
g) Rahbar xohlagan tarzda.

7. 6-testda keltirilgan ma’lumotlar asosida buldozerni ekspluatatsiya qilishga ketgan xarajatlarning V obyekt tannarxiga olib boriladigan summasini toping.

a) 180000 so‘m; b) 120000 so‘m;
v) 600000 so‘m; g) 300000 so‘m.

8. 6-testda keltirilgan ma’lumotlar asosida buldozerni ekspluatatsiya qilishga ketgan xarajatlarning A obyekt tannarxiga olib boriladigan summasiga buxgalteriya yozuvini bering.

a) Debet 2010 Kredit 2520 180000 so‘mga;
b) Debet 2010 Kredit 2520 120000 so‘mga;
v) Debet 2010 Kredit 2520 600000 so‘mga;
g) Debet 2010 Kredit 2520 300000 so‘mga.

9. Kovushli ekskavatorni ekspluatatsiya qilish muddati 10 yil. Boshlang‘ich qiymati 20000000 so‘m. Tugatish qiymati 1000000 so‘m. Amortizatsiya bir maromli usulda hisoblanadi. 5 – yil oxiriga jamlangan amortizatsiya summasini toping.

a) 10000000 so‘m;
b) 9500000 so‘m;
v) 10500000 so‘m;

g) 20000000 so'm.

10. 9-test ma'lumotlari asosida 1-yil uchun amortizatsiya summasini toping va unga buxgalteriya yozuvini bering.

a) 1900000 so'mga Debet 2310; Kredit 0230;

b) 2000000 so'mga Debet 2310; Kredit 0230

v) 2100000 so'mga Debet 2310; Kredit 0230;

g) 1900000 so'mga Debet 3190; Kredit 0230.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi», 2008.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Kapital qurilishda xo'ja4lik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 12-sentabr, 395-son.

5. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zR AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 475.

7. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998 - yil 14 - avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

8. BHMS № 5 «Asosiy vositalar». O'zR AV tomonidan 2004-yil 20-yanvarda ro'yxatga olingan, № 1299.

9. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob.- T.: Moliya, 2002.

10. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. -T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

11. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

3-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA MATERIALLAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

3.1. Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallarning tasnifi, tavsifi va baholanishi

Qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni belgilangan muddatlarda tugatilishi va buyurtmachilarga topshirilishida muhim omillardan biri bo'lib qurilish tashkilotlarida turli xildagi hamda tegishli miqdordagi materiallarning mavjudligi hisoblanadi. Ularga qurilish materiallari, yoqilg'i, moylash materiallari, xo'jalik inventarlari va boshqalar kiradi.

Qurilish tashkilotlarining moddiy ta'minot bo'limlari materiallarni o'z vaqtida va kerakli miqdorda kelib tushishini ta'minlashlari, moddiy javobgar shaxslar esa ularning butligini va sifatini buzmasdan saqlashlari hamda qurilish maydonchalariga talab qilingan muddatlarda va miqdorlarda yetkazib berishlari lozim.

Qurilish tashkiloti buxgalteriyasiga materiallarning holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish, ularni to'g'ri va o'z vaqtida tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligini ta'minlash, bu boyliklarning sintetik va tahliliy hisobini yuritish, ular to'g'risidagi axborotlarni foydalanuvchilarga o'z vaqtida berish kabi muhim vazifalar yuklatiladi.

Qurilish tashkilotlarida foydalaniladigan materiallarni turli belgilari bo'yicha tasniflash va tavsiflash mumkin. Materiallar hisobini to'g'ri yuritishda, ayniqsa, ularni quyidagi belgilari bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishda tutgan o'rniga ko'ra qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallar asosiy va yordamchi materiallarga bo'linadi.

Asosiy materiallar deganda obyektlarni qurish, montaj qilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va obodonlashtirish kabi ishlarni bajarishda bosh rolni o'ynovchi materiallar tushuniladi. Ularga sement, g'isht, taxta, bolar, armatura, truba, linoleum, marmar, granit, mix, oyna, ohak, bo'yoq, gips va shu kabi ko'plab boshqa materiallar kiradi. Ushbu materiallarsiz qurilish ishlarini olib borib bo'lmaydi. Shu bois ham ushbu asosiy materiallarning mavjudligi, ularning butligi, harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish buxgalteriya hisobi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Yordamchi materiallar deganda qurilish ishlarida bosh rolni o'ynamaydigan, lekin ularning bajarilishida qo'shimcha tarzda ishlatiladigan

materiallar tushuniladi. Bunday materiallar, masalan, pegmentlar, sinka, to'l, yoqilg'i-moylash materiallari, o'rov materiallari va shu kabilar hisoblanadi.

Ko'rinishi, jismi va nomlanishiga ko'ra qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallarni ko'plab turlarga ajratish mumkin, masalan, temir va yog'och materiallari, shisha materiallar, suyuq va qattiq jismli materiallar va boshqalar.

Saqlash usuliga ko'ra qurilish tashkilotlarida materiallarni ochiq va yopiq usullarda saqlanadigan materiallarga bo'lish mumkin. Masalan, g'isht, temir, truba, tosh va shu kabi materiallar ochiq ko'rinishda turli maydonchalarda saqlanadi. Sement, ohak, gips, lak, bo'yoqlar va boshqa shu kabi materiallar yomg'ir va qor tegmaydigan, namiqmaydigan joylarda, shuningdek maxsus saqlash moslamalarida (sisterna, bochka va boshqalarda) saqlanadi.

Saqlash muddatiga ko'ra qurilish materiallari muddati chegaralangan va muddati chegaralanmagan turlarga bo'linadi. Masalan, sement, ohaq, gips, bo'yoqlar va shu kabi ayrim materiallar ma'lum muddatlardan keyin o'z sifatini yo'qotadi. Shu bois ular belgilangan muddatgacha saqlanishi lozim. Ko'pchilik qurilish materiallari o'z sifatini uzoq muddatlarda yo'qotmaydi, masalan marmar, granit, temir-tersaklar, yog'och, bolar va shu kabilar. Biroq, moddiy javobgar shaxslar ushbu materiallarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, masalan zanglash, eroziya, qurib qolish, namiqish, shishib ketish, yorilish kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymasliklari lozim.

Kimga tegishliliga ko'ra qurilish ishlarida ishlatilayotgan materiallarni pudratchi qurilish tashkilotning va buyurtmachi tashkilotning materiallariga bo'lish mumkin. Birinchi turdagi materiallar asosida bajarilgan ishlar pudratchi tashkilotning o'z materiallari asosida bajarilgan hisoblansa, ikkinchi turdagi ishlar esa buyurtmachilar materiallari asosida bajarilgan ishlar hisoblanadi. Har ikkala holatda ham sarflangan materiallar qurilish obyektining qiymatiga (tannarxiga) kiritiladi. Agar qurilish ishlari buyurtmachilarning bergan materiallari asosida bajarilgan bo'lsa, u holda ularning qiymati o'zaro hisob-kitoblar summasiga kiritilmaydi.

Ishlab chiqilganligiga ko'ra qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallar o'zi ishlab chiqqan va o'zi ishlab chiqmagan materiallarga bo'linadi. Chunonchi, qurilish tashkilotining yordamchi ishlab chiqarish

bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan va qurilish obyektlarida ishlatilgan g'isht, blok, eshik, ramka, turli moslama va konstruksiyalar o'z ishlab chiqarishidan olingan qurilish materiallari hisoblanadi. Sotib olingan, buyurtmachilardan, ta'sischilardan va boshqa tashqi shaxslardan kelib tushgan materiallar o'zi ishlab chiqmagan materiallar hisoblanadi.

Vujudga keltirgan mamlakatiga ko'ra qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallar mahalliy materiallar va xorijdan keltirilgan materiallarga bo'linadi.

Materiallar hisobini to'g'ri yuritishning muhim shartlaridan biri bo'lib ular qiymatini to'g'ri baholash hisoblanadi. Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq qurilish tashkilotlarida materiallarning hisob bahosi bo'lib ularning tannarxi hisoblanadi. Qurilish materiallarining tannarxi ularning kelib tushish manbasiga ko'ra turli elementlardan tashkil topadi. Chunonchi, sotib olingan materiallarning tannarxi o'z ichiga ularning sotib olish baholaridagi qiymatini hamda sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, bojxona to'lovlari, sertifikatlash, brokerlarning xizmat haqlari va boshqalar)ni oladi. Sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasini materiallar qiymatiga qo'shish yoki qo'shmaslik qurilish tashkilotining bu soliqning to'lovchisi yoki to'lovchisi emasligiga bog'liq. QQS to'lovchi qurilish tashkilotlarida ta'minotchilarga (bojxonaga) to'langan QQS summasi materiallar qiymatiga kiritilmaydi, balki budjetga to'lanadigan QQS summasini topishda kamaytirishga olib boriladi. Ixchamlashtirilgan soliq rejimida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish tashkilotlarida sotib olishda ta'minotchilarga (bojxonaga) to'langan QQS summasi bevosita materiallar qiymatiga (tannarxiga) kiritiladi.

O'z ishlab chiqarishidan olingan materiallar tannarxi ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha moddiy, mehnat va boshqa xarajatlardan tashkil topadi. Bunda bir birlik materialning o'rtacha tannarxi kalkulyatsiya qilish yo'li bilan qurilish materiallarini ishlab chiqishga sarflangan xarajatlarning jami summasini jami ishlab chiqilgan materiallarning miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

Ta'sischilardan olingan hamda beg'araz (bepul) kelib tushgan materiallarning tannarxi deganda ularning shartnomalarda ko'rsatilgan baholardagi qiymati tushuniladi.

Turli manbalardan olingan materiallar omborlarda va qurilish maydonchalarida FIFO, AVEKO yoki bir o'zini identifikatsiyalash usullaridan biri asosida hisoblangan qiymati (tannarxi) bo'yicha hisobdan chiqarib boriladi.

FIFO usulda qurilish materiallarining chiqimi (qurilish ishlariga sarfi va boshqa chiqimlari) ularning kelib tushish ketma-ketligidagi qiymati (tannarxi) bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, 20__ yil 1-may holatiga omborda 10 tonna har bir tonnasining kirim bahosi 80000 so'm bo'lgan jami 800000 so'mlik sement mavjud bo'lgan, may oyida ularning tushumi quyidagicha bo'lgan deylik:

Hujjat		Miqdori, t.	Bahosi	Summasi
№	Sana			
125	5 may	30	85000	2550000
142	15 may	20	90000	1800000

May oyida 55 tonna sement qurilish ishlariga sarflangan bo'lsa, u holda sementning qurilish tannarxiga kiritilgan qiymati FIFO usul bo'yicha 4700000 so'mni (10*80000 + 30*85000 + 15*90000), 1-iyun holatiga omborda qolgan sementning qiymati 450000 so'mni (5*90000) tashkil etadi.

AVEKO usulida materiallarning bosh qoldig'i va kirimi asosida ularning o'rtacha bahosi aniqlanadi. Keyin ushbu o'rtacha baho sarflangan va qoldiq materiallarga ko'paytirilib, mos ravishda ularning qurilish qiymati (tannarxi)ga kiritilgan hamda qoldiqda qolgan qismlarining qiymati topiladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra 1 tonna sementning AVEKO usul bo'yicha o'rtacha bahosi 85833,33 so'mni [(800000 + 2550000 + 1800000) : (10 + 30 + 20)], qurilishga sarflangan sementning qiymati 4720833 so'mni (55*85833,33), oy oxirida qolgan sementning qiymati esa 429167 so'mni (5*85833,33)ni tashkil qiladi.

Materiallar qiymatini baholashning bir o'zini identifikatsiya qilish usuli, odatda, yakka (individual) tarzda yaratilgan va o'z analogiga ega bo'lmagan materiallarga (moslamalar, konstruksiyalarga) taalluqlidir. Bunday materiallar qaysi baholarda olingan bo'lsa, o'sha baholarda hisobdan chiqariladi.

3.2. Qurilish tashkilotlarida materiallar harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi

Qurilish tashkilotlarida materiallar harakatini hujjatlashtirish ularning kelib tushish manbalariga, tashib keltirish shartlari va usullariga, shuningdek nima maqsadlarda chiqim qilinganligi va boshqa holatlarga bevosita bog'liqdir. Ushbu maqsadlarda qo'llaniladigan boshlang'ich hujjatlar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi uchun qo'llaniladigan boshlang'ich hujjatlar klassifikatori

№	Boshlang'ich hujjat nomi	Tuzuvchi shaxslar	Foydalanuvchilar	Taqdim etish muddati
1	Ishonchnoma	Buxgalteriya	Buxgalteriya, ta'minot bo'limi	Olingandan so'ng 10 kun ichida
2	Materiallarni qabul qilish dalolatnomasi (M -7 shakl)	Ombor mudiri	Buxgalteriya, ta'minot bo'limi	Joriy oyning oxirgi kuni
3	Omborga kirim qilish orderi (M-4 shakl)	Ombor mudiri	Buxgalteriya, ta'minot bo'limi	Joriy oyning oxirgi kuni
4	Limit-zabor varaqasi (M-8 shakl)	Ombor mudiri	Buxgalteriya, uchastka boshliqlari, masterlar	Joriy oyning oxirgi kuni
5	Talabnoma (M- 11 shakl)	Uchastka boshliqlari, masterlar	Buxgalteriya uchastka boshliqlari, masterlar	Har kuni
6	Ichki almashuv nakladnoyi (M-15-shakl)	Ombor mudirlari	Buxgalteriya, boshqa bo'linmalar	Har kuni
7	Schot-faktura	Sotish bo'limi	Buxgalteriya, boshqa bo'linmalar	Har kuni
8	Inventarlarni hisobdan chiqarish to'g'risida dalolatnoma	Uchastka boshliqlari, masterlar	Buxgalteriya, boshqa bo'linmalar	Joriy oyning oxirgi kuni
9	Materiallar harakati to'g'risida hisobot (M-19)	Ombor mudirlari	Buxgalteriya, boshqa bo'linmalar	Joriy oyning oxirgi kuni
10	Qurilishda asosiy materiallar sarfi to'g'risida hisobot (M-29)	Uchastka boshliqlari, masterlar	Buxgalteriya, boshqa bo'linmalar	Joriy oyning oxirgi kuni

Quyida materiallar harakatiga doir ayrim asosiy boshlang'ich hujjatlarni tuzish va ulardan foydalanish tartiblariga qisqacha to'xtalamiz.

Qurilish tashkilotlariga materiallar asosan ta'minotchilardan, bosh pudratchi va subpudratchilardan, buyurtmachilardan, ta'minot-savdo korxonalaridan kelib tushadi. Materiallar ta'sischilardan ularning ustav

kapitalidagi ulushi sifatida, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan beg'araz moliyaviy yordam sifatida olinishi ham mumkin.

Ta'minotchilardan (qurilish materiallari kombinatlari, zavodlar, ta'minot-savdo korxonalari va boshqalardan) qurilish materiallari shartnomalar asosida sotib olinadi. Qurilish tashkiloti ta'minotchilardan materiallarni olish uchun o'zining ishonchli vakili (ekspeditor) nomiga ishonchnoma beradi. Bu vakil qurilish materiallarini ta'minotchidan qabul qilib olish, uni yuklash, jo'natish, yetkazib kelishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Ta'minotchi korxona qurilish tashkiloti vakili qo'liga yuklab jo'natilgan materiallar bo'yicha schot-faktura va unga ilova qilinadigan yuk-transport hujjatlarini (TTN, temir yo'l nakladnoyi, vagon spetsifikatsiyasi, sifat sertifikati va boshqalarni) taqdim etadi.

Materiallarning buyurtmachilardan, bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlardan olinishi ham yuqorida keltirilgan tartibga o'xshash tarzda hujjatlashtiriladi. Qurilish materiallarini ta'sischilardan kirim qilinishi ta'sis shartnomasi, baholar kelishuvi bayonnomasiga muvofiq tuzilgan schot-fakturalar va ularga ilova qilingan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotida kelib tushgan materiallar rahbarning farmoyishiga ko'ra omborlarga yoki bevosita qurilish maydonchalaridagi maxsus joylarga miqdor va sifat jihatdan qabul qilinadi. Tashib keltirishda turli qo'shimcha xarajatlar qilingan materiallar bo'yicha qurilish tashkiloti buxgalteriyasi maxsus «Kirim dalolatnomasi»ni tuzadi. Ushbu hujjat materiallarni sotib olish qiymati (tannarxi) bo'yicha hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Qurilish tashkilotlarida kelib tushgan materiallarning ombor hisobi partion, navli yoki qoldiq usullar bo'yicha olib boriladi. Buning uchun mos ravishdagi partion kartalar, kartochkalar yoki kitoblar ochiladi. Ushbu ombor hisobi registrlariga kirim qilingan materiallarning miqdori, narxi, summasi va boshqa belgilari to'g'risidagi ma'lumotlar schot-fakturalar va kirim dalolatnomalari asosida yoziladi.

Omborlardan materiallar qurilish maydonchalariga talabnomalar, ichki nakladnoylar, limit-zabor qaydnomalari asosida beriladi. Bu hujjatlar ikki nusxada tuziladi hamda mas'ul xodimlar (bosh injener, hisobchi), shuningdek materiallarni bergan va olgan moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi.

Qurilish maydonchalarida omborlardan olingan materiallar uchun moddiy javobgar shaxslar masterlar, prorablar yoki brigadirlar hisoblanadi. Ushbu moddiy javobgar shaxslar bo'ynidagi materiallarning qurilish

ishlariga sarflanishi maxsus hisobot (M-29 shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Ishlatilmagan materiallar qurilish maydonchalaridan omborlarga ichki nakladnoylar bilan qaytariladi.

Materiallarning chetga chiqib ketishi (sotilishi, bepul berilishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi), shuningdek yaroqsiz holatga kelganligi uchun hisobdan chiqarilishi faqat qurilish tashkiloti rahbarining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Ushbu hollarda materiallarning ombordan chiqib ketishi schot-fakturalar bilan ikki nusxada rasmiylashtiriladi.

Yaroqsiz holatga kelgan materiallarning hisobdan chiqarilishi dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.Materillarning omborlardan berilishi va boshqa barcha chiqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar guvohlik beruvchi hujjatlar asosida partion kartalar, kartochkalar yoki ombor kitobiga qayd etiladi.Qurilish tashkilotlarida ombor mudirlari materiallarning holati va harakati bo'yicha hisob siyosatida belgilangan muddatlarda material hisobotlarini tuzadilar.

Ta'kidlash joizki, respublikamizda qurilish tashkilotlari uchun material hisobotining yaxlit shakli tasdiqlangan emas. Qurilish tashkilotlarida hozirgi kunda ham sobiq ittifoq tizimi davrida ushbu maqsadlar uchun tasdiqlangan maxsus hisobot shaklidan (M-19-shakl) foydalanib kelinmoqda. Biroq, qurilish tashkilotlari amaliyotida bu hisobotni aynan tasdiqlangan shaklda tuzilmayotganligini, aksincha uni turli o'zgartirilgan ko'rinishlarda tuzish holatlarini uchratish mumkin. Chunonchi, ayrim qurilish tashkilotlarida materiallar hisoboti faqat sonli ko'rinishda, boshqalarda esa sonli-summa ko'rinishda tuzilmoqda.

Materiallar hisobotini (M-19 shakl) sonli-summa ko'rinishda quyidagicha yuritish tavsiya etilgan (3.2-jadval).

3.2-jadval

M-19 shakl

Materiallar harakati to'g'risida hisobot

201 __yil _____ oyi uchun

№	Material nomi	O'lchov birl	Baho	Bosh qoldiq		Kirim		Chiqim		Oxirgi qoldiq	
				soni	summa	soni	summa	soni	summa	soni	summa
1	Sement	t	80000	2	160000	10	900000	6	510000	6	550000
2	Qum	Kub. m	3000	3	9000	10	35000	8	27077	5	16923
	Jami				169000		935000		537077		566923

Hisobotni ushbu ko'rinishda yuritishga hozirgi kunda qurilish tashkilotida materiallarni hisobdan chiqarishda qabul qilingan baholash usullari katta ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, Fifo usulini qo'llash ushbu

hisobotni bir qancha varaqlardan iborat bo'lishiga olib keladi. Chunki, bu usulga ko'ra materiallar nomi bir xil bo'lsa-da, lekin sotib olish narxlari turlicha bo'lganligi uchun alohida qatorlarda ko'rsatiladi.

AVEKO usulini qo'llash hisobot varaqlari sonini kamayishiga olib keladi. Chunki, bunda materiallar nomi bir xil bo'lganligi uchun, ularning bahosidan qat'iy nazar, bir qatordan yoziladi. Bu usulda materiallar holati va chiqimining summaviy miqdori hisobotda o'rtacha baholarda ko'rsatiladi.

Materiallar hisoboti ikki nusxada tuziladi. Uning birinchi nusxasi barcha kirim va chiqim hujjatlari bilan birgalikda buxgalteriyada qoladi, buxgalter tomonidan tekshirilgan va rahbar tomonidan tasdiqlangan ikkinchi nusxasi esa ombor mudiriga qaytariladi.

Qurilish tashkiloti buxgalteriyasida materiallar hisoboti va unga ilova qilingan boshlang'ich hujjatlar ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik va tahliliy hisobini yuritishga asos bo'lib hisoblanadi.

3.3. Qurilishga sarflangan materiallar to'g'risida hisobotni tuzish va unga ishlov berish tartibi

Qurilishga sarflangan bevosita material xarajatlar to'g'risida axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi asosiy hujjat bo'lib «Qurilishda asosiy materiallar sarfi to'g'risida hisobot» (M-29 shakl) hisoblanadi. Bu hisobotning shakli va uni tuzish tartibi sobiq Ittifoq Markaziy statistika boshqarmasining 1982-yil 24-noyabrdagi 613-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Quyida hozirgi vaqtda ham qurilish tashkilotlarida qo'llanilayotgan mazkur hisobotning mazmuniga qisqacha to'xtalamiz.

M-29-shaklli hisobot ikkita bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limi «Materiallarga bo'lgan me'yoriy talab va bajarilgan ishlar hajmi», ikkinchi bo'limi esa «Asosiy materiallar haqiqiy sarfini ishlab chiqarish me'yorlari bo'yicha aniqlangan sarflar bilan taqqoslanishi» deb ataladi.

Hisobotning 1-bo'limi ikki qismdan (chap va o'ng qismdan) iborat. Uning chap qismida (1- 6-ustunlar) bajariladigan qurilish ishlarining turlari, o'lchov birligi, hajmi, bir birlik ishga ketadigan materiallarning me'yoriy sarfi, materiallarga bo'lgan jami me'yoriy talab va yil boshiga haqiqatda bajarilgan ishlarning hajmi ko'rsatiladi. Hisobotning o'ng qismida (7-10-ustunlar) hisobot oylari bo'yicha haqiqatda bajarilgan ishlarning hajmi va materiallarning me'yor bo'yicha sarfi ko'rsatiladi. Ushbu hisobotning birinchi qismi, odatda, yil boshiga qurilish ishlari boshlanishi oldidan

to'ldiriladi, ikkinchi qismi esa qurilish ishlari bajarilayotgan davrda oyma-oy to'ldirib boriladi.

M-29-shakl

Trest, boshqarma_____
Qurilish tashkiloti rahbari _____

Qurilishda asosiy materiallar sarfi to'g'risida hisobot

Ishning boshlanish sanasi _____
Ishning tugash sanasi _____

I. Materiallarga bo'lgan me'yoriy talab va bajarilgan ishlar hajmi

T/r	Ish turi va material nomi	O'lchov birligi	Bir birlik ishga material-ning me'yoriy sarfi	Ish hajmi va material-ga bo'lgan me'yoriy talab	Shu jumladan yil boshiga haqiqatda bajarilgan ish hajmi	Oylar bo'yicha bajarilgan ish hajmi va materiallarning me'yoriy sarfi			
						Yan-var	Fev-ral	...	De-kabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

II. Asosiy materiallar haqiqiy sarfini ishlab chiqarish me'yorlari bo'yicha aniqlangan sarflar bilan taqqoslanishi

Material, konstruk-siya va buyum nomi	O'lchov birligi	Yil boshidan boshlab				_____ oy			
		chiqim		me'yor-dan chet-lanish (Q_3-)	tan-narxga kiri-tilsin	chiqim		me'yor-dan chet-lanish (Q_3-)	tan-narxga kiri-tilsin
		me'yor bo'yich a	haqi-qatda			me'yor bo'yich a	haqi-qatda		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Prorab (master)_____
Tekshirdim: ICHB injeneri_____ Buxgalter _____
Bosh injener_____

M-29 shaklli hisobotning 1-bo'limini tuzish va to'ldirib borish bevosita qurilish tashkilotining ishlab chiqarish bo'limining funksiyasi hisoblanadi. Bu bo'limda hisobotning dublikati qurilish ishlari boshlangandan to uni yakunlangungacha saqlanadi. Qurilish ishlari oldidan tayyorlangan hisobotning ikki nusxasi qurilish ishlari bo'yicha mas'ul va moddiy javobgar shaxs (prorab, master)larga beriladi.

Hisobotning 2-bo'limi qurilish maydonchalaridagi moddiy javobgar shaxslar (prorab, master) tomonidan to'ldiriladi. Bu bo'limda qurilish

ishlarini bajarishga haqiqatda ketgan materiallar sarfi, ushbu sarflarni belgilangan me'yordagi sarflardan chetlanishlari (tejalganligi yoki ko'p sarflanganligi) to'g'risidagi ma'lumotlar oyma-oy ko'rsatiladi. Materiallar haqiqiy sarflarining me'yoriy sarflardan kam qismi hisobotda minus ishorasi bilan, ko'p qismi esa plyus ishorasi bilan yozilishi kerak. Me'yordan chetlanishlar bo'lmaganda, hisobotning mos ravishdagi satrlariga tire belgisi qo'yiladi. Materiallar sarfida belgilangan me'yorlarga nisbatan yo'l qo'yilgan chetlanishlar bo'yicha moddiy javobgar shaxslar (prorab, master) batafsil tushuntirish xati yozishlari, unda chetlanishlarni qanday sabablarga ko'ra yuz berganligini asoslab berishlari lozim. Ushbu tushuntirish xati hisobotga ilova qilinadi.

Moddiy javobgar shaxslar (prorab, master) tomonidan tuzilgan va imzolangan M-29 shaklli hisobot barcha guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar bilan birga dastlab qurilish tashkilotining ishlab chiqarish bo'limida, so'ngra buxgalteriyada tekshirishdan o'tadi. Ishlab chiqarish bo'limining mas'ul xodimi (injener) haqiqatda sarflangan materiallar miqdorini bo'limda qolgan dublikatdagi me'yorlarga mosligini, shuningdek me'yordan chetlanishlarning asosligini tekshiradi. Buxgalteriyada haqiqatda sarflangan materiallarning miqdori guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlarda to'g'ri ko'rsatilganligi, shuningdek materiallar sarfining M-19 hisobot chiqimidagi ma'lumotlarga mos kelishligi tekshiriladi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar to'liq asosga ega bo'lmagan hollarda mas'ul injener va buxgalter tomonidan hisobotga tuzatishlar kiritiladi. Hisobot bu xodimlar tomonidan to'liq tuzatilgandan so'ng imzolanadi.

Materiallar belgilangan me'yorlarga nisbatan kam sarflangan hollarda qurilish ishlari tannarxiga haqiqatda sarflangan miqdorda qo'shilishi lozim. Materiallarning belgilangan me'yorlardan ortiq sarflanishi hollarida qo'shimcha sarflar qurilish ishlari tannarxiga faqat qurilish tashkiloti rahbarining ruxsati bilan kiritiladi. Chunonchi, rahbar materiallar sarfining qurilish tannarxiga olib boriladigan miqdorini hisobotning «**Tannarxga kiritilsin**» nomli ustunchalarida (mos ravishda 6,10- va boshqa ustunchalarda) belgilaydi va shundan so'ng hisobotni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

M-29 hisobotining yuqorida keltirilgan qisqacha sharhidan ko'rinib turibdiki, u qurilish tashkilotlari boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bu hisobot qurilish tashkiloti rahbariyati va ishlab chiqarish

bo'limi tomonidan qurilishga sarflanishi kerak bo'lgan aniq materiallar me'yoriy miqdorining mavjudligi ustidan uzluksiz nazoratni olib borilishiga, haqiqatda sarflangan materiallar miqdorini belgilangan me'yordan chetlanish sabablari va aybdorlarini topishga hamda tegishli qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Buxgalteriyada M-29 shaklli hisobot sarflangan materiallar qiymatini bajarilgan qurilish ishlarining haqiqiy tannarxiga kiritishga, materiallar sarfi hisobini yuritishga asos bo'ladi.

3.4. Qurilish tashkilotlarida materiallarning sintetik va ahliliy hisobi

Qurilish tashkilotlarida materiallarning sintetik hisobi 21-son BHMSga muvofiq 1000 «Materiallar hisobi schotlari» tizimida ochiladigan quyidagi schotlarda yuritilishi lozim:

1010 «Xomashyo va materiallar»;
1020 «Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar»;
1030 «Yoqilg'i»;
1040 «Ehtiyot qismlar»;
1050 «Qurilish materiallari»;
1060 «Idish va idishbop materiallar»;
1070 «Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar»;
1080 «Inventar va xo'jalik jihozlari»;
1090 «Boshqa materiallar»

Ushbu aktiv schotlarning debetida material boyliklarning hisobot davr boshidagi qoldig'i va hisobot davrida turli manbalardan kirim qilinishi va boshqa sabablar evaziga ko'payishi, kreditida esa ularning qurilish ishlariga sarflanishi va boshqa turli chiqimlari (sotilishi, bepul berilishi va shu kabilar) evaziga kamayishi aks ettiriladi.

Moddiy boyliklarning kirimi va chiqimi yuqorida nomlari zikr etilgan schotlarda hisob bahosida aks ettiriladi. Hisob bahosi ularning sotib olish qiymati (haqiqiy tannarxi), reja tannarxi, o'rtacha baho va boshqalar hisoblanadi. Materiallar bo'yicha tanlab olingan hisob bahosining aniq turi qurilish tashkiloti hisob siyosatida belgilanadi.

Qurilish tashkilotlari materiallar kirimini ikki usulda olib borishlari mumkin: (1) bevosita usul; (2) bilvosita usul.

Materiallar hisobining bevosita usulida ularning barcha manbalardan kirim qilinishi materiallar hisobi schotlarining (1010-1090

schotlar) debetida to'g'ridan-to'g'ri aks ettiriladi. Ushbu usulda materiallarning turli manbalardan kelib tushishi va ular kirimini 1010-1090 schotlarda aks ettirish tartibi 3.3-jadvalda keltirilgan.

Materiallar hisobining bilvosita usulida ularning ta'minotchi tashkilotlardan xarid qilinishi, o'z sexlaridan kirim qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar dastlab 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetida to'planadi. Bunda materiallarning kelib tushish manbalarini ifodalovchi schotlar (6010, 6990, 2310 va boshqalar) kreditlanadi. Moddiy boyliklarning omborlarga kirim qilinishi 1510 schotning kreditida va 1010-1090 schotlarning debetida aks ettiriladi. Bu usulda materiallarning hisob bahosidagi qiymati va xarid qiymati o'rtasidagi farq summasi hisobot davrida alohida 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida hisobga olinadi. Hisobot davri oxirida materiallar qiymatidagi farq summalari quyidagicha hisobdan chiqariladi:

(1) kelib tushgan materal boyliklarning xarid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan past bo'lganda:

Debet 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish»;

Kredit 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar».

3.3-jadval

Materiallar kirimini schotlarda aks ettirish (bevosita usul)

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	Ta'minotchilardan sotib olinganda: - materiallar qiymatiga (QQSsiz): - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa)	5000000 1000000	1010-1090 4410	6010 6010	Shartnoma, schot-faktura
2.	Ichki tizim korxonalaridan olinganda: - materiallar qiymatiga (QQSsiz) - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa)*	5000000 1000000	1010-1090 4410	6110-6120 6110-6120	Shartnoma, schot-faktura
3.	Bepul kelib tushganda	600000	1010-1090	8530	Shartnoma, schot-faktura
4.	Ta'sischilardan kelib tushganda	500000	1010-1090	4610	Shartnoma, schot-faktura
5.	Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarga	50000	1010-1090	6990	Shartnoma, schot-faktura, kirim dalolatnomasi
6.	O'z ishlab chiqarish sexlaridan kirim qilinganda	2550000	1010-1090	2310	Kirim dalolatnomasi
7.	Asosiy vositalarni tugatishdan olingan materiallarga	60000	1090	9210	Tugatish dalolatnomasi
8.	Materiallarning ichki almashuviga	2000000	1010-1090	1010-1090	Nakladnoy

* Agar qurilish tashkiloti ixchamlashtirilgan yagona soliq to'lovchisi hisoblansa, u holda ta'minotchilarga to'langan QQS ham materiallar qiymatiga kiritiladi va unga alohida ushbu mazmundagi buxgalteriya yozuvi qilinmaydi.

(2) kelib tushgan materal boyliklarning xarid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan yuqori bo'lganda:

Debet 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar»

Kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish»

1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida to'plangan materiallarning hisob bahosidagi qiymati va xarid qiymati o'rtasidagi farq summasi xarajatlarni aks ettiruvchi schotlarning (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9430) debetiga sarflangan materiallarning hisob bahosiga mutanosib tarzda qo'shimcha yozuv yoki qizil yozuv (storno) asosida hisobdan chiqariladi.

Materiallarning qurilish ishlariga sarflanishi, shuningdek ularning sotilishi, bepul berilishi, boshqa korxonalarga ta'sis badali sifatida kiritilishi, ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi, shunindek turli boshqa chiqimlari guvohlik beruvchi hujjatlar asosida hisobda quyidagicha aks ettiriladi (3.4-jadval).

Qurilish tashkilotlarida materiallarning tahliliy hisobi moddiy javobgar shaxslar bo'yicha hisob bahosida 10-s qaydnomasida yuritiladi. Bu qaydnoma 3 ta bo'limdan iborat. Uning 1-bo'limi sotib olingan materiallarning haqiqiy tannarxi hamda ularning hisob bahosidagi qiymati o'rtasidagi chetlanish summasining hisobi uchun mo'ljallangan. Ushbu chetlanishni hisob-kitob qilish va ular hisobini 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida yuritish uchun 10-s qaydnomasiga materiallarning kirimi to'g'risidagi ma'lumotlar 6-s jurnal-order va boshqa jurnal-orderlar yozuvlari asosida ko'rsatiladi. Materiallar va ular qiymatidagi farqlarning bosh qoldig'iga doir ma'lumotlar qaydnomaning 2- va 3-bo'limlaridan olinadi. Shundan so'ng, materiallar va ular qiymatidagi farqlarning bosh qoldiqlari va kirimi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida (mos ravishda ularning haqiqiy tannarxi hamda hisob bahosidagi qiymatlari bo'yicha) xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farq summasi va foizi aniqlanadi.

Materiallarning xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farqning o'rtacha foizi **(O'f)** quyidagicha topiladi:

$$O'f = \frac{Fo + Fd}{Mo + Md} \times 100\ \%$$

bu yerda:

Fo va **Fd** – materiallarning xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farqning mos ravishda oy boshiga qoldig'i va kirim qilingan qismiga to'g'ri keluvchi summasi (yoki 1610 «Materiallar qiymati

o'rtasidagi farq» schotining mos ravishdagi bosh qoldig'i va debet aylanmasi summalari);

Mo va **Md** – materiallarning hisob bahosidagi oy boshiga bo'lgan bosh qoldig'i va kirimining qiymati (yoki 1000 «Materiallar» schotining hisob bahosi bo'yicha mos ravishdagi bosh qoldig'i va debet aylanma summalari).

3.4-jadval

Qurilish tashkilotlarida materiallarning ishlatilishi va boshqa chiqimlarini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	Materiallarning ishlab chiqarishga sarflanishi	3000000	2010, 2310, 2510	1010-1090	M-29 shaklli hisobot, material hisoboti
2.	Materiallarning sotilishi: - sotish qiymatiga (QQSsiz); - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa); - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga ; - sotishdan olingan foydaga; - sotishdan ko'rilgan zararga	 500000 100000 400000 100000 -	 4010, 4010 9210 9220 9430	 9220 6410 1010-1090 9320 9220	Shartnoma, schot-faktura hisob-kitoblar, material hisoboti
3.	Materiallarning bepul berilishi: - berish qiymatiga (QQSsiz); - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa); - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga ; - sotishdan ko'rilgan zararga	 500000 100000 500000 600000	 4010 4010 9220 9430	 9220 6410 1010-1090 4010	Shartnoma, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
4.	Ta'sis badali sifatida berilishi: - kiritish qiymatiga (QQSsiz); - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa); - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	 500000 100000 500000	 0610-0690 0610-0690 9220	 9220 6410 1010-1090	Shartnoma, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
5.	Materiallarning ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi: - berish qiymatiga (QQSsiz); - QQS summasiga (agar korxona QQS to'lovchi bo'lsa); - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	 500000 100000 500000	 6710 6710 9220	 9220 6410 1010-1090	Ariza, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti

Materiallar sarfiga to'g'ri keladigan ularning xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farq summasi (**Fs**) quyidagicha topiladi:

Fs = Ms * O'f / 100 %

bu yerda: **Ms** – materiallar chiqimining hisob bahosidagi qiymati

Misol: *1050 «Qurilish materiallari» schotining hisob bahosida qiymati oy boshiga 10000000 so'm, 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotining debet qoldig'i 250000 so'm. Hisobot oyida kirim qilingan materiallarning qiymati (QQSsiz): (a) hisob bahosida 15000000 so'm; (b) haqiqiy tannarxi (xarid qiymati) bo'yicha 16000000 so'm. Hisobot oyida qurilishga sarflangan materiallarning hisob bahosidagi qiymati 20000000 so'm.*

Ushbu misolda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha:

1) materiallarning xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farqning o'rtacha foizi 5 foizga teng bo'ladi:

O'f = (250000 + 1000000) / (10000000 + 15000000)* 100% = 5 %;

2) qurilishga sarflangan materiallarga to'g'ri keladigan ularning xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farq summasi 1000000 so'mga teng bo'ladi:

Fs = 20000000 * 5 % / 100 % = 1000000 so'm.

10-s qaydnomaning 2-va 3- bo'limlarida har bir moddiy javobgar shaxs bo'yicha materiallarning boshlang'ich va oxirgi qoldig'i, shuningdek ularning kirim va chiqimi hisob baholarida aks ettiriladi. Chunonchi, bu bo'limlarda materiallarning chiqimi ularning hisobdan chiqarilish yo'nalishlarini ifodalovchi sintetik schotlar hamda tahliliy schotlarning aniq moddalari bo'yicha ko'rsatiladi. Qaydnomaning materiallar chiqimini ifoda etuvchi yig'ma ma'lumotlari korrespondensiyalanadigan sintetik hamda tahliliy schotlar bo'yicha 10-s jurnal-orderga o'tkaziladi. Bu jurnal-orderda qurilish ishlariga sarflangan materiallarning qiymati materiallar harakati va sarfi to'g'risidagi hisobotlarda (M-19 va M-29 shaklli hisobotlar) ko'rsatilgan xarajat obyektlari bo'yicha taqsimlab chiqiladi.

Qurilish tashkilotlarida ta'minotchilar bilan sotib olingan materiallar bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va tahliliy hisobi 6-s jurnal-orderda yuritiladi. Ushbu jurnal-orderga yozuvlar xronologik tarzda

ta'minotchilardan olingan materiallarga guvohlik beruvchi schot-fakturalar asosida amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlari qurilish ishlarini buyurtmachilarning o'zlari taqdim etgan materiallar hamda o'rnatishga mo'ljallangan uskunalar asosida ham bajarishlari mumkin. Agar ushbu boyliklarni buyurtmachi tomonidan berilishi qurilish ishlari shartnomalarida ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda ular qurilish tashkilotlarida balansdan tashqari 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» va 005 «O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar» schotlarida hisobga olinadi. Bu schotlarga yozuvlar faqat bir tomonlama qilinadi. Chunonchi, materiallar va uskunalarning buyurtmachilardan olinishi ushbu schotlarning debetida, sarflanishi esa kreditida aks ettiriladi.

Qurilish tashkilotlarida buyurtmachilardan qurilish ishlarida foydalanish uchun olgan materiallar va uskunalar bo'yicha material hisoboti alohida yuritiladi. Bu materiallar va uskunalar faqat buyurtmachilarga tegishli qurilish ishlariga sarflanadi. Olingan materiallar va uskunalarning sarfi M-29 shaklli hisobot va unga ilova qilingan hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Buyurtmachilardan olingan materiallar va uskunalarning qiymati qurilish ishlarining umumiy smeta qiymatiga kiritiladi, ya'ni ular pudratchi va buyurtmachi o'rtasida tuziladigan «Qurilish ishlarini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi»da (KS 2-shakl) hamda «Bajarilgan ishlar qiymati va xarajatlar to'g'risida ma'lumotnoma»da (KS-3 shakl) buyurtmachilar tomonidan taqdim etilgan materiallar va uskunalar qiymati alohida qatorlarda ko'rsatiladi, biroq ular o'zaro hisob-kitoblarda to'lov summasiga kiritilmaydi.

3.5. Qurilish tashkilotlarida materiallar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uni natijalarining hisobi

Qurilish tashkilotlarida materiallarni inventarizatsiya qilish, uning natijalarini aniqlash, hujjatli rasmiylashtirish va hisobga olish respublikamizda qabul qilingan BHMS 19 «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish»da keltirilgan tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Ushbu standartga asosan qurilish tashkilotlarida tovar-moddiy boyliklarning rejali inventarizatsiyasi hayili kamida bir marta o'tkaziladi. Moddiy boyliklarni o'g'irlash va talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda, favquloddagi hodisalar yuz berganda, shuningdek boshqa kutilmagan voqealar sodir bo'lganda rejadan tashqari inventarizatsiyalar o'tkazilishi mumkin.

Tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi qurilish rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan doimiy va ishchi inventarizatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladi.

Inventarizatsiyada moddiy boyliklarning mavjud holati ularni sanash, tortish, o'lchash va shu kabi boshqa usullar yordamida aniqlanadi. Sanash, tortish, o'lchash uchun moddiy boyliklar dastlab bunga imkon berish holatiga keltiriladi. Chunonchi:

- taxtalar enining o'lchov birligiga (20 mm, 30 mm, 40mm, 50 mm) qarab taxlab chiqiladi;
- bolarlar ularning uzunligi va diametriga qarab guruhlanadi;
- mixlar ularning uzunligiga qarab guruhlarga ajratiladi;
- shifer va tunukalar ularning eni hamda bo'yining o'lchamiga qarab ajratiladi;
- g'ishtlar kvadrat holatiga keltirilgan holda taxlanadi;
- havzada saqlanayotgan sement havza yuzasini aniqlash uchun bir tekisga keltiriladi;
- trubalar va armaturalar diametriga qarab saralanadi;
- qum va shag'al ularni kubometr holda o'lchash holatiga keltiriladi;
- qurilish maydonchalarida ishlatilayotgan har xil vaqtinchalik notitul moslamalar (qoliplar, konstruksiyalar, yo'lkalar, devorlar, yuvinish va sanitariya xonalari) ularning o'lchamlari, baholangan qiymatiga qarab guruhlarga ajratiladi;
- buyurtmachiga tegishli bo'lgan materiallar va o'rnatishga mo'ljallangan uskunalar alohida joylarga taxlanadi.

Xuddi shu tarzda boshqa materiallar ham ularning real miqdorini aniqlashga imkon beruvchi holatga keltiriladi.

Inventarizatsiya komissiyasi a'zosi material boyliklarning aniqlangan real miqdorini inventarizatsiya varaqlariga (Inv-3 shakl) yozib boradi. Inventarizatsiya varaqlarining har bir beti komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi. Inventarizatsiya yakunlangach, buxgalteriyada inventarizatsiya varaqalari ma'lumotlari va materiallar hisobi kartochkalari yoki kitoblari ma'lumotlari taqqoslanib, inventarizatsiya natijalari aniqlanadi. Bunday taqqoslash natijalari «Taqqoslash qaydnomasi» (Inv-19 shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu qaydnomaga buxgalter va moddiy javobgar shaxs imzo qo'yadi, u rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan taqqoslash qaydnomasi ma'lumotlari inventarizatsiya natijalarini hisobga olishga asos bo'lib hisoblanadi.

Bir xil nomdagi, lekin qiymati bo'yicha o'zaro farq qiladigan materiallar, konstruksiyalar, moslama va buyumlar bo'yicha rahbarning ruxsati bilan kamomadlarni ortig'i bilan qoplanishiga ruxsat etiladi. Bunda hisobda materiallarning faqat qiymatlari bo'yicha farq kamomad yoki ortiqcha sifatida aks ettiriladi.

Inventarizatsiyada materiallar bo'yicha aniqlangan ortiqchalar qurilish tashkilotining foydasiga olib boriladi va ular hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 1000 «Materiallar hisobi schotlari» (mos schotlar);

Kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar».

Materiallar bo'yicha aniqlangan kamomadlar hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

1) aniqlangan kamomadning umumiy summasiga:

Debet 5910 «Kamomadlar va boyliklarning buzilishidan yo'qotishlar»;

Kredit 1000«Materiallar hisobi schotlari» (mos schotlar).

2) moddiy javobgar shaxs bo'yniga olib borilgan kamomad summasiga:

Debet 4730 «Moddiy zararlarni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarning buzilishidan yo'qotishlar».

3) korxona zarariga olib borilgan kamomad summasiga:

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarning buzilishidan yo'qotishlar.

Inventarizatsiya aniqlangan kamomadlar moddiy javobgar shaxslardan naqd pul yoki ularning ish haqlaridan ushlab qolish yo'li bilan undirib olinadi.

Tayanch iboralar

Asosiy qurilish materiallari – bu obyektlarni qurish, montaj qilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va obodonlashtirish kabi ishlarni bajarishda bosh rolni o'ynovchi qurilish materiallari.

Yordamchi qurilish materiallari – bu qurilish ishlarida bosh rolni o'ynamaydigan, lekin ularning bajarilishida qo'shimcha tarzda ishlatiladigan qurilish materiallari.

---

[5]Izoh: QQS to'lovchi qurilish tashkilotlarida ta'minotchilarga (bojxonaga) to'langan QQS summasi materiallar qiymatiga kiritilmaydi, balki budjetga to'lanadigan QQS summasini topishda kamaytirishga olib boriladi. Ixchamlashtirilgan soliq rejimida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish tashkilotlarida sotib olishda ta'minotchilarga (bojxonaga) to'langan QQS summasi bevosita materiallar qiymatiga (tannarxiga) kiritiladi.

Qurilish materiallari tannarxi – bu ularning sotib olish baholaridagi qiymatini hamda sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, bojxona to'lovlari, sertifikatlash, brokerlarning xizmat haqlari va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtirgan qiymati[5].

Qiymatdan chetlanish - qurilish materiallarining xarid qiymati va hisob baholaridagi qiymati o'rtasidagi farq.

Talabnoma – bu qurilish materiallarini omborlardan qurilish maydonchalariga yetkazib berishda prorab, master yoki brigadir tomonidan tuziladigan boshlang'ich hujjat bo'lib, unda kerakli materialning nomi, markasi, miqdori ko'rsatiladi.

Limit-zabor varag'i - bu qurilish materiallarini omborlardan qurilish maydonchalariga yetkazib berishda ma'lum muddatga (5 kunga, 10 kunga, 1 oyga) ochilgan boshlang'ich hujjat bo'lib, unda kerakli materialning nomi, markasi, miqdori berilgan kunlar bo'yicha ko'rsatiladi hamda hisobot davr oxirida jamlanadi.

Qurilish materiallari sarfi to'g'risida hisobot – bu sarflangan materiallar qiymatini bajarilgan qurilish ishlarining haqiqiy tannarxiga kiritishga, materiallar sarfi hisobini yuritishga asos bo'luvchi moddiy javobgar shaxslar (prorab, master yoki brigadir) tomonidan tuziladigan hamda rahbar tomonidan tasdiqlanadigan hisobot.

Inventarizatsiya - bu moddiy boyliklarning mavjud holatini ularni sanash, tortish, o'lchash va shu kabi boshqa usullar yordamida aniqlash.

Materiallar hisobi - bu qurilish materiallari kirimi va chiqimi, shuningdek ularning davr boshi va oxiriga bo'lgan holatini soniy va summoviy ko'rinishda tegishli registrlarda yuritish tizimi.

Nazorat qilish uchun test savol – javoblari

Xo'jalik situatsiyasi

1050 «Qurilish materiali» schotining oy boshiga qoldig'i hisob bahosi bo'yicha 5000000 so'm, 1610 «Materiallar qiymatidagi farq» schotining debet qoldig'i 100000 so'm. Hisobot oyida 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetida ta'minotchilardan kirim qilingan materiallarning sotib olish bahosidagi qiymati 12000000 so'm, shu jumladan QQS – 2000000 so'm. Bundan tashqari materiallarning tashib keltirish xarajatlari 300000 so'm, vositachilik xarajatlari – 400000 so'm. Materiallarning hisob bahosidagi kirim

qiymati 10500000 so'm. Hisobot oyida qurilish ishlariga sarflangan materiallarning hisob bahosidagi qiymati 8000000 so'm.

Ushbu situatsiya bo'yicha quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1. Hisobot oyida kirim qilingan qurilish materiallarining haqiqiy tannarxiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 1510 Kredit 6010 10000000 so'mga;
b) Debet 1510 Kredit 6010 10700000 so'mga;
v) Debet 1510 Kredit 6010 10300000 so'mga;
g) Debet 1510 Kredit 6010 10400000 so'mga.

2. Qurilish materiallarini hisob bahosida kirim qilinishiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 1050 Kredit 1510 10000000 so'mga;
b) Debet 1050 Kredit 1510 10700000 so'mga;
v) Debet 1050 Kredit 1510 12000000 so'mga;
g) Debet 1050 Kredit 1510 10500000 so'mga

3. Qurilish materiallari uchun ta'minotchilarga to'langan QQS summasiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 1050 Kredit 6010 2000000 so'mga;
b) Debet 1050 Kredit 6410 2000000 so'mga;
v) Debet 4410 Kredit 6010 2000000 so'mga;
g) Debet 6410 Kredit 1050 2000000 so'mga

4. Hisob bahosida qurilish ishlariga sarflangan materiallar qiymatiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 2010 Kredit 1510 8000000 so'mga;
b) Debet 2010 Kredit 1050 8000000 so'mga;
v) Debet 2310 Kredit 1050 8000000 so'mga;
g) Debet 2310 Kredit 1510 8000000 so'mga.

5. Kirim qilingan materiallarnin hisob bahosidagi qiymati va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasi teng:

a) 12000000 - 8000000 = 4000000 so'mga;
b) 10700000 - 10500000 = 200000 so'mga;
v) 12000000 - 10500000 = 1500000 so'mga;
g) 10000000 -10500000 = -500000 so'mga.

6. Kirim qilingan materiallarning hisob bahosidagi qiymati va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 1610 Kredit 1510 4000000 so'mga;
b) Debet 1610 Kredit 1510 200000 so'mga;
v) Debet 1610 Kredit 1510 1500000 so'mga;
g) Debet 1610 Kredit 1510 - 500000 so'mga.

7. Materiallarning hisob bahosi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farqning o'rtacha foizi quyidagicha topiladi:

a) Fo' = (100000 + 200000) / (5000000 + 10500000) x 100 % = 1,94 %;
b) Fo' = (100000 + 4000000) /(5000000 + 10500000)x 100 % = 26,5 %;
v) Fo' = (100000 + 1500000) / (5000000 + 10500000)x 100 % = 10,32 %;
g) Fo' = (100000 + (-500000))/ (5000000 + 10500000)x 100 % = - 2,58 %;

8. Qurilishga sarflangan materiallarga to'g'ri keladigan materiallar qiymati o'rtasidagi farq summasi teng:

a) 8000000 *1.94 % = 155200 so'mga;
b) 8000000 *26.5 % = 2120000 so'mga;
v) 8000000 *10,32 % = 825600 so'mga;
g) 8000000 *(-2,58%) = -206400 so'mga.

9. Qurilishga sarflangan materiallarga to'g'ri keladigan materiallar qiymati o'rtasidagi farq summasi buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 2010 Kredit 1610 155200 so'mga;
b) Debet 2010 Kredit 1610 2120000 so'mga;
v) Debet 2010 Kredit 1610 825600 so'mga;
g) Debet 2010 Kredit 1610 - 206400 so'mga.

10. Oy oxirida qurilish materiallarining (1050 schot) hisob bahosidagi qoldig'i teng bo'ladi:

a) 7500000 so'mga; b) 9000000 so'mga;
v) 7000000 so'mga; g) 7700000 so'mga.

11. Oy oxirida qurilish materiallari qiymatidagi farq summasining (1610 schot) qoldig'i teng:

a) 1980000 so'mga;
b) 144800 so'mga;
v) 774400 so'mga;
g) 606400 so'mga.

12. Oy oxirida qurilish materiallarini xarid qilish schotining (1510 schot) qoldig'i teng:

a) 0 so'mga;

b) 4000000 so'mga;
v) 100000 so'mga;
g) 200000 so'mga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi», 2008.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 12-sentabr, 395-son.

5. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Qurilish sohasida hisobotni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 24-sentabr, 4095-son.

7. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zR AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 475.

8. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998 - yil 14 - avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

9. BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR. AV tomonidan 2006 - yil 17- iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

10. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002 - yil 23- oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

11.Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

12. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

4-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH BO'YICHA HISOB - KITOBLAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

4.1. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari

Qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish ishlarini bajarish ularda turli ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislar jamoasini shakllantirishni, shuningdek mos ravishda ular mehnati hamda mehnatiga haq to'lash tizimlarini tashkil qilishni taqozo etadi.

Qurilish tashkilotlarida ishlovchi xodimlar ikkita guruhga bo'linadi: (1) asosiy xodimlar; (2) asosiy bo'lmagan xodimlar.

Asosiy xodimlar deganda qurilish tashkilotlarining shtat jadvalida belgilangan lavozimlarni egallab turgan xodimlar tushuniladi. Bunday xodimlar tarkibiga injener-loyihachilar, injener-quruvchilar, prorablar, masterlar, mexaniklar, elektriklar, slesarlar, ganchkorlar, pardozlovchilar, taxtaga ishlov beruvchi va ulardan turli tayyor moslamalar yasovchi ustalar, g'isht teruvchilar, ombor mudirlari, ta'minotchilar va shu kabi boshqa xodimlar kiradi.

Asosiy bo'lmagan xodimlar deganda individual mehnat shartnomasiga ko'ra alohida ishlarni bajarish uchun vaqtinchalik ishga olingan xodimlar tushuniladi.

Qurilish tashkilotlarida xodimlarni ishga olish va ishdan bo'shatish, ular bilan mehnat sharnomalarini tuzish hamda uni bekor qilish Respublikamiz qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlarining xodimlar bo'limi ishga qabul qilingan xodimlar hisobini belgilangan tartibda yuritadi. Qurilish ishlari olib borilayotgan joylarda xodimlarning ishga kelishi, ular tomonidan bajarilgan ishlarning dastlabki hisobi registrlari (ishga chiqish hisobi tabeli, naryadlar, hisobotlar, ma'lumotnomalar, dalolatnomalar)ni tuzish hamda yuritish uchastka boshlig'lari (prorablar, masterlar, brigadirlar)ga yuklatiladi.

Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash vaqtbay va ishbay shakllarda amalga oshiriladi. Ushbu shakllarning qo'llanilishi qurilish tashkilotining ichki me'yoriy hujjatlari (jamoa va individual mehnat shartnomalari) bilan tartibga solinadi.

Ish haqi hisoblashning vaqtbay shakli asosan ma'muriy-boshqaruv hamda injener-texnik xodimlar uchun qo'llaniladi. Ushbu shaklda mehnatga

haq to'lash uchun asos bo'lib qurilish tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan shtat jadvali, tarif razryadi, tarif razryadi bo'yicha belgilangan maosh, xodimlarning haqiqatda ishlagan vaqti hisobi tabeli hisoblanadi.

Ma'muriy-boshqaruv hamda injener-texnik xodimlarga hisobot oyida hisoblanadigan asosiy ish haqi ularga belgilangan maoshni shu oydagi ish kunlari soniga bo'lish va haqiqatda ishlagan kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Hisobot oyida to'liq ishlagan xodimlarga asosiy ish haqi belgilangan maosh miqdorida hisoblanadi.

Mehnat va jamoa shartnomalarida ma'muriy-boshqaruv hamda injener-texnik xodimlarga erishilgan yutuqlar uchun qo'shimcha tarzda mukofotlar berish ham ko'zda tutiladi. Shu bois, vaqtbay shakl boshqachasiga vaqtbay-mukofotli shakl ham deb ataladi. Xodimlarga beriladigan mukofotning miqdori qurilish tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan belgilanadi.

Ish haqi hisoblashning ishbay shakli bevosita qurilish ishlarini olib boruvchi xodimlar uchun qo'llaniladi. Bunday xodimlarga ishchilar, maxsus mashina va mexanizmlarni boshqaruvchi mashinistlar, transport vositalarining haydovchilari, masterlar, prorablar, brigadirlar va boshqalar kiradi. Ushbu shaklda mehnatga haq to'lash uchun asos bo'lib qurilish tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan shtat jadvali, tarif razryadi, tarif razryadi bo'yicha belgilangan maosh, bir birlik ish uchun tasdiqlangan mehnat haqi me'yori (rastsenka), xodimlarning haqiqatda ishlagan vaqti hisobi tabeli, bajarilgan ish hajmi to'g'risida hisobotlar, bildirgi-naryadlar, ma'lumotnomalar va dalolatnomalar hisoblanadi.

Qurilish ishlari, odatda, jamoa, ya'ni brigada tomonidan bajariladi. Bajarilgan ishlar yaxlit jamoaning (brigadaning) mehnati sifatida tavsiflanadi. Mos ravishda hisoblangan ish haqi ham jami jamoa (brigada) uchun hisoblangan ish haqi hisoblanadi. Ish haqini hisoblashning bunday tizimi adabiyotlarda *«akkord», «akkord-naryad»* tizimi, deb ham e'tirof etiladi.

Akkord tizimda hisoblangan asosiy ish haqi, mukofatlar va boshqa qo'shimchalar dastlab jami brigada uchun yaxlit tarzda belgilanadi. Ish haqining jami miqdori brigada tomonidan haqiqatda bajarilgan ishning hajmini, bir birlik ish uchun belgilangan mehnat haqi me'yoriga (rassenkaga) ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Korxona rahbari buyrug'i bilan belgilangan mukofot va boshqa qo'shimcha to'lovlar ham yaxlit brigadaga tegishli hisoblanadi.

Asosiy va qo'shimcha ish haqlari brigada a'zolarining o'rtasida ularning umumiy bajarilgan ishdagi hissasiga, ya'ni mehnatda ishtirok koeffitsiyenti (MIK)ga qarab taqsimlanadi. Ushbu koeffitsient brigada kengashi majlisi qarori bilan belgilanadi va maxsus bayonnoma ko'rinishida buxgalteriyaga taqdim etiladi.

Misol. *Brigada a'zolariga dekabr oyida «A» obyektda bajargan ishlari uchun naryad asosida 500000 so'm ish haqi hisoblangan, shuningdek 300000 so'm mukofot belgilangan. Brigada a'zolarining tarkibi, egallagan lavozimlari, razryadlari, tabel bo'yicha ishlagan vaqti, brigada kengashi yig'ilishining qarori bo'yicha belgilangan mehnatda ishtirok etganlik koeffitsientlari 4.1-jadvalda keltirilgan.*

4.1-jadval

Brigada a'zolarining mehnatda ishtirok koeffitsiyenti asosida ishlagan vaqtining hisob-kitobi

№	Familiya, ismi sharifi	Lavozimi	Razryadi	Ishlagan vaqti, soat	Mehnatda ishtirok koeffits. (MIK)	MIK bilan hisoblangan ish vaqti
1.	Davirov D	Brigadir	6	175	1,3	227,5
2.	Xalikov A.	Ishchi	5	175	1	175
3.	Shirinov B	Ishchi	3	175	1,1	192,5
4.	Jabborov S	Ishchi	3	140	0,7	98
5.	Olimov A	Ishchi	2	154	0,9	138,6
	Jami			**819**		**831,6**

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida dastlab MIK bilan hisoblangan bir birlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan asosiy ish haqi va mukofot summasi topib olinadi. Bizning misolimizda bu ko'rsatkich:

1) asosiy ish haqi bo'yicha 601,25 so'm (500000 / 831,6);

2) mukofot bo'yicha 360,75 so'm (300000 / 831,6).

Ushbu ma'lumotlar asosida asosiy ish haqi va mukofot pulining brigada a'zolari o'rtasidagi taqsimoti hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi (4.2-jadval):

Qurilish tashkilotlarida vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotganlik uchun beriladigan nafaqa, mehnat ta'tili va boshqa to'lovlar (moddiy yordam, kompensatsiyalar) umumbelgilangan tartibga asosan hisob-kitob qilinadi.

Qurilish tashkilotlarida hisoblangan ish haqidan ushlanmalar boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardagi kabi majburiy va ixtiyoriy ushlanmalarga bo'linadi. Majburiy ushlanmalarga xodimlar ish haqidan undiriladigan

4.2-jadval

Brigada a'zolari o'rtasida asosiy va qo'shimcha ish haqlarini taqsimlash hisob-kitobi

№	Familiya, ismi sharifi	MIK bilan hisoblangan ish vaqti	MIK bilan hisoblangan bir birlik ish vaqtiga to'g'ri keluvchi		Hisoblangan		Jami hisoblandi
			ish haqi	muko-fot	ish haqi	muko-fot	
1	Davirov D	227,5	601,25	360,75	136784	82071	218855
2	Xalikov A.	175	601,25	360,75	105219	63131	168350
3	Shirinov B	192,5	601,25	360,75	115741	69444	185185
4	Jabborov S	98	601,25	360,75	58923	35354	94277
5	Olimov A	138,6	601,25	360,75	83333	50000	133333
	Jami	**831,6**			**500000**	**300000**	**800000**

daromad solig'i, 4 foizlik pensiya fondiga ushlanma, 1 foizlik jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti schotiga ushlanma, sud ijro hujjatlari asosida amalga oshiriladigan ushlanmalar, berilgan bo'nak va boshqalar kiradi. Ixtiyoriy ushlanmalarga xodimlarning arizasiga ko'ra ushlanadigan turli to'lovlar, hayriyalar kiradi. Respublikamiz qonunlariga ko'ra ish haqidan ushlanmalarning jami miqdori xodimlar oylik ish haqining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Ish haqidan undiriladigan barcha ushlanmalarning hisob-kitoblari umumbelgilangan tartiblarda amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlari boshqa korxonalar singari ish haqini berishning bo'nakli va bo'naksiz tizimlarini qo'llaydilar. Bo'nakli tizim qo'llanilganda oyning birinchi yarmi tugagach, xodimlarga oylik ish haqining 50 foizigacha miqdorda bo'nak qaydnomalar asosida beriladi. Bo'naksiz tizim qo'llanilganda ish haqi faqat hisobot oyi tugagach qaydnomalar asosida beriladi.

Qurilish tashkilotlari buxgalteriyasi mehnatga haq to'lashga doir barcha hisob-kitob ma'lumotlarini ish haqi kitobida, xodimlarning shaxsiy varaqalarida yoki hisob-to'lov qaydnomalarida mujassamlashtiradi. Ushbu registrlarda keltirilgan ma'lumotlar ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va tahliliy hisobini yuritishga asos bo'ladi.

4.2. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va tahliliy hisobi

Qurilish tashkilotlari mehnatga haq to'lash hisob-kitoblarning sintetik hisobini 6700 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan 6710 «Mehnat haqi bo'yicha

xodimlar bilan hisoblashishlar» va 6720 «Deponentlangan ish haqi» schotlarida yuritishlari lozim.

4.3-jadval

Qurilish tashkilotlarida ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	Qurilish ishlari uchun hisoblangan bevosita ish haqi summasiga	3000000	2010	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
2.	Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga hisoblangan ish haqi summasiga	1500000	2310	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
3.	Umumishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan ish haqi summasiga	1000000	2510	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
4.	Kapital investitsiyalarga kiritilgan ish haqi summasiga	2000000	0810-0890	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
5.	O'z asosiy vositalarini tugatish uchun hisoblangan ish haqi summasiga	100000	9210	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
6.	Korxona hisobidan hisoblangan mehnatga layoqatsizlik kunlari uchun hisoblangan nafaqa, moddiy yordam va konpensatsiyalar summasiga	500000	9430	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
7.	Rezerv hisobidan hisoblangan mehnat ta'tili summasiga	600000	8910	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
8.	Ma'muriy-boshqaruv xodimlariga hisoblangan ish haqi summasiga	1200000	9420	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
9.	Sotish xarajatlariga olib borilgan ish haqi summasiga	300000	9410	6710	Hisob-to'lov qaydnomasi
10.	Ish haqidan ushlangan daromad solig'i summasiga	2100000	6710	6410	Hisob-to'lov qaydnomasi
11.	1 foizlik jamlanib boruvchi pensiya ta'minotiga ushlanma summasiga	104000	6410	6990	Hisob-to'lov qaydnomasi
12.	2,5 foizlik pensiya fondiga ushlanma summasiga	250000	6710	6520	Hisob-to'lov qaydnomasi
13.	Sud ijro hujjatlari asosidagi ushlanmalarga	120000	6710	6990	Hisob-to'lov qaydnomasi
14.	Yetkazilgan zararlarning ushlanishiga	25000	6710	4730	Hisob-to'lov qaydnomasi
15.	Arizaga muvofiq turli to'lovlar uchun ushlanmalarga	265000	6710	6990	Hisob-to'lov qaydnomasi
16.	Deponent qilingan ish haqi summasiga	500000	6710	6720	Deponent hisobi kartochkalari
17.	Kassadan berilgan ish haqi va deponent haqi summasiga	4500000	6710, 6720	5010	To'lov qaydnomasi, chiqim kassa orderi

Ushbu passiv schotlarning bosh va oxirgi qoldiqlari mos ravishda hisobot oyining boshi va oxirida qurilish tashkilotining o'z xodimlari oldidagi

to‘lanmagan ish haqi hamda deponentlangan ish haqi bo‘yicha qarzini ko‘rsatadi. Bu schotlarning kreditida mos ravishda qurilish tashkilotining ish haqi bo‘yicha qarzini ko‘payishi, debetida esa ushbu qarzning kamayishi quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi (4.3-jadval).

Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblarning tahliliy hisobi qurilish tashkilotlarining alohida olingan javobgarlik markazlari (qurilish obyektlari, qurilish ishlari turlari, xarajat moddalari) bo‘yicha 10-s jurnal-orderda olib boriladi.

4.3. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to‘lash xarajatlarining taqsimoti

Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to‘lashga ketgan sarf-xarajatlarni ikkita guruhga ajratish mumkin: (1) qurilish ishlari tannarxiga kiritiladigan xarajatlar; (2) qurilish ishlari tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.

Qurilish ishlari tannarxiga kiritiladigan mehnat haqi xarajatlari. Bu guruhga kiruvchi xarajatlar, o‘z navbatida, yana ikki turga bo‘linadi: (1) qurilish ishlari tannarxiga olib boriladigan bevosita mehnat haqi xarajatlari; (2) qurilish ishlari tannarxiga olib boriladigan bilvosita mehnat haqi xarajatlari.

Qurilish ishlari tannarxiga olib boriladigan bevosita mehnat haqi xarajatlariga aniq qurilish ishi uchun uni olib borgan ishchi xodimlarga hisoblangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqlari kiritiladi. Bitta qurilish obyekti bo‘yicha hisoblangan mehnat haqi xarajatlari boshqa qurilish obyektiga doir mehnat haqi xarajatlariga kiritilishi mumkin emas. Bunday xarajatlar buxgalteriyada 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti doirasida har bir qurilish ishlari obyekti uchun ochilgan mos tahliliy schotlarda aks ettirilishi lozim.

Qurilish ishlari tannarxiga olib boriladigan bilvosita mehnat haqi xarajatlariga barcha qurilish obyektlariga taalluqli bo‘lgan hamda ular o‘rtasida taqsimlanishi lozim bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari kiradi. Bunday xarajatlar bo‘lib, jumladan, qurilish mashina va mexanizlarining boshqaruvchilariga (mashinistlarga) hisoblangan ish haqi, yordamchi avtoxo‘jalik xodimlariga hisoblangan ish haqi va shu kabilar hisoblanadi. Ushbu turdagi yordamchi xo‘jaliklar hisobot oyida turli qurilish obyektlariga xizmat ko‘rsatganligi uchun hisoblangan ish haqi xarajatlarini u yoki bu qurilish obyekti tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib borib bo‘lmaydi. Shuning

uchun bu xo'jaliklar bo'yicha hisoblangan ish haqi xarajatlari dastlab 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» va 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotlarida to'planadi, so'ng hisob siyosatida belgilangan tartibga ko'ra tegishli qurilish ishlari o'rtasida taqsimlanadi hamda mos ravishda ularning tannarxiga kiritiladi.

Hisobot oyida mehnatga haq to'lash xarajatlarini qurilish ishlari o'rtasida quyidagicha hisob-kitob qilinadi (4.4-jadval). Ushbu ma'lumotlar RT-2 hamda RT-5s shaklli ishlov qaydnomalarida o'z aksini topadi.

4.4-jadval

20__yil _____ oyi uchun mehnatga xaq to'lash xarajatlarini qurilish obyektlari o'rtasida taqsimlash hisob-kitobi

№	Xarajat schotlari	Jami amortiza-tsiya summasi	Shu jumladan obyektlar bo'yicha					
			A		B		V	
			%	summa	%	summa	%	summa
1	2010 «Asosiy ishlab chiqarish»	6000000		3000000	-	2000000	-	1000000
2	2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»	2000000	50	1000000	20	400000	30	600000
3	2510 «Umum ishlab chiqarish xarajatlari»	3000000	10	300000	30	900000	60	1800000
	Jami	**11000000**	-	**4300000**	-	**3300000**	-	**3400000**

Qurilish ishlari tannarxiga kiritilmaydigan mehnat haqi xarajatlari. Bu xarajatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Kapital investitsiyalar tarkibiga kiradigan mehnatga haq to'lash xarajatlari. Bunday xarajatlar xo'jalik usulida olib borilgan kapital investitsiyalarga doir mehnatga haq to'lash xarajatlari hisoblanadi. Ular qurilish tashkilotlarida 0800 «Kapital qo'yilmalar» schotining debetida aks ettiriladi hamda kapital qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va modernizatsiya ishlari yakunlangach, mos ravishda, asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklangan) qiymatiga kiritiladi.

2. Asosiy vositalarni tugatishdan olinadigan daromadlar hisobidan qoplanadigan ish haqi xarajatlari. Bu turdagi xarajatlar 9210 «Asosiy vositalarning chiqimi» schotining debetida aks ettiriladi. Tugatishdan daromad ko'rilmaganda tugatish uchun hisoblangan ish haqi xarajatlari qurilish tashkilotlari uchun qo'shimcha zarar olib keladi va u, mos ravishda, 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schotiga yopiladi.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan mehnatga haq to'lash xarajatlari. Ushbu xarajatlar bo'lib bajarilgan qurilish ishlarini sotish (9410 schot), ma'muriy-boshqaruv (9420 schot), shuningdek boshqa operatsion xarajatlarga (9430 schot) kiritilgan ish haqi xarajatlari hisoblanadi. Ular qurilish tashkilotining sotishdan olgan yalpi foydasi hisobidan qoplanadi va mos ravishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga yopiladi.

Tayanch Iboralar

Asosiy xodimlar- bu qurilish tashkilotlarining shtat jadvalida belgilangan lavozimlarni egallab turgan xodimlar, ya'ni injener-loyihachilar, injener-quruvchilar, prorablar, masterlar, mexaniklar, elektriklar, slesarlar, ganchkorlar, pardozlovchilar, taxtaga ishlov beruvchi va ulardan turli tayyor moslamalar yasovchi ustalar, g'isht teruvchilar, ombor mudirlari, ta'minotchilar va shu kabi boshqa xodimlar.

Asosiy bo'lmagan xodimlar - bu individual mehnat shartnomasiga ko'ra alohida ishlarni bajarish uchun vaqtinchalik ishga olingan xodimlar.

Qurilish ishlari, odatda, jamoa, ya'ni brigada tomonidan bajariladi. Bajarilgan ishlar yaxlit jamoaning (brigadaning) mehnati sifatida tavsiflanadi. Mos ravishda hisoblangan ish haqi ham jami jamoa (brigada) uchun hisoblangan ish haqi hisoblanadi. Bunday tizim adabiyotlarda *«akkord», «akkord-naryad»* tizimi, deb ham e'tirof etiladi.

Akkord tizim – bu ish haqi yaxlit jamoa (brigada) uchun hisoblash va jamoa (brigada) a'zolari o'rtasida ularning mehnatda ishtiroki koeffitsiyentiga ko'ra taqsimlash tizimi

Mehnatda ishtirok koeffitsiyenti – bu brigada a'zolarining umumiy bajarilgan ishdagi hissasining nisbiy miqdori.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning ishbay shaklida ish haqi hisoblashga asos bo'ladi:

a) naryad;
b) bildirgi-naryad;
v) bir birlik ish uchun haq to'lash me'yori;
g) yuqoridagilarning barchasi.

2. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning ishbay shakli qo'llaniladi:

a) ma'muriy-boshqaruv xodimlari uchun;
b) bosh injener uchun;
v) quruvchilar uchun;
g) yuqoridagilarning barchasi uchun.

3. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning vaqtbay shaklida ish haqi hisoblashga asos bo'ladi:

a) naryad;
b) tabel, tarif razryadi bo'yicha maosh;
v) tarif razryadi;
g) yuqoridagilarning barchasi.

4. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning vaqtbay shakli qo'llaniladi:

a) ma'muriy-boshqaruv xodimlari uchun;
b) masterlar uchun;
v) quruvchilar uchun;
g) yuqoridagilarning barchasi uchun.

5. Qurilish ishlari uchun mehnatga haq to'lashning keng tarqalgan shakli - bu:

a) vaqtbay shakl;
b) akkord-naryad shakl;
v) individual shakl;
g) ishbay-vaqtbay shakl.

6. Mehnatda ishtirok etish koeffitsiyentini belgilaydi:

a) direktor;
b) brigada kengashi;
v) ishchining o'zi;
g) bosh buxgalter.

7. 2007-yil yanvar oyida qurilish brigadasi a'zolariga (4 kishiga) hisoblangan jami ish haqi 600000 so'm. Jami sarflangan vaqt 600 kishi/soat. Xodimlar ishlagan vaqt: 1-ishchi – 180 soat, 2-ishchi 140 soat, 3-ishchi 160 soat, 4-ishchi 120 soat. O'rtacha oylik ish vaqti brigada a'zolari uchun 560 kishi/soat. Ish haqidan quyidagilar ushlangan: daromad solig'i o'rtacha 20 % miqdorida; pensiya fondiga – 2,5 %; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti schotiga – 1 %.

1-ishchining mehnatda ishtirok koeffitsiyenti (MIK) va ish haqi summasini toping:

a) MIK 1,2; ish haqi 150000 so‘m;
b) MIK 1,29; ish haqi 180000 so‘m;
v) MIK 1,30; ish haqi 216000 so‘m;
g) to‘g‘ri javob yo‘q.

8. 7-test ma’lumotlariga ko‘ra 2-ishchiga hisoblanadigan ish haqi summasini toping:

a) 140000 so‘m;
b) 130620 so‘m;
v) 150000 so‘m;
g) 139950 so‘m

9. 7-testda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha brigada a’zolariga hisoblangan jami ish haqi summasiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 2010 Kredit 6710 6000000 so‘mga;
b) Debet 2310 Kredit 6710 6000000 so‘mga;
v) Debet 2510 Kredit 6710 6000000 so‘mga;
g) Debet 9420 Kredit 6710 6000000 so‘mga.

10. 7-testda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha brigada a‘zolariga hisoblangan ish haqidan ushlanadigan daromad solig‘i summasini toping va unga buxgalteriya yozuvini bering:

a) Debet 6410 Kredit 6710 120000 so‘m;
b) Debet 6710 Kredit 6410 120000 so‘m;
v) Debet 2010 Kredit 6410 120000 so‘m;
g) Debet 6720 Kredit 6410 120000 so‘m

11. 7-testda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha brigada a’zolariga hisoblangan ish haqidan pensiya fondiga 2,5 foizlik ushlanma summasiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 6710 Kredit 6410 15000 so‘m;
b) Debet 6710 Kredit 6510 15000 so‘m;
v) Debet 6710 Kredit 6520 15000 so‘m;
g) Debet 6720 Kredit 6520 15000 so‘m

12. 7-testda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha brigada a’zolariga hisoblangan ish haqidan jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotiga 1 foizlik ushlanma summasiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 6710 Kredit 6990 6000 so‘m;
b) Debet 6710 Kredit 6410 6000 so‘m;

v) Debet 6410 Kredit 6520 6000 so'm;

g) Debet 6720 Kredit 6410 6000 so'm

13. 7-testda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha brigada a'zolari qo'liga tegadigan jami ish haqi summasini toping:

a) 459000 so'm;

b) 465000 so'm;

v) 480000 so'm;

g) 474000 so'm

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'z.R. AV tomonidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

6. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: «Moliya», 2002.

7. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

8. Xasanov N.X., Xaydarov Sh.U. va boshqalar. Korxonalarda ish haqi.– T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.

5-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA QURILISH ISHLARI TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH XUSUSIYATLARI

5.1. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi

Qurilish tashkilotlarida pudrat shartnomalariga ko'ra bajarilayotgan qurilish ishlari ularning asosiy ishlab chiqarishini tashkil qiladi. Ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar esa bajarilgan qurilish ishlarining tannarxini tashkil etadi.

Qurilish ishlari tannarxiga kiradigan xarajatlarning tasnifi, guruhlari va aniq moddalarining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»ga muvofiq bo'lishi lozim.

Ushbu nizomga ko'ra qurilish ishlari tannarxiga kiradigan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bevosita va bilvosita (ustama) xarajatlarga bo'linadi. Ushbu turdagi xarajatlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra beshta guruhga ajratiladi va ularning tarkibiga quyidagi xarajat moddalari kiritiladi (5.1-jadval).

Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotida olib boriladi. Ushbu schot doirasida har bir qurilish obyekti xarajatlari hisobi uchun alohida tahliliy schotlar ochiladi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti doirasida tahliliy schotlarning ochilishi, yuritilishi hamda yopilishi misol tariqasida 5.2-jadvalda keltirilgan.

(5.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki,) 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotining debetida qurilish ishlarining oy boshiga va oxiriga bo'lgan qoldig'i, ya'ni tugallanmagan qurilish qiymati (tannarxi), oy mobaynida qurilish ishlariga ketgan haqiqiy sarf-xarajatlar ko'rsatiladi. Ushbu schotning kreditida buyurtmachilarga topshirilgan qurilish ishlarining tannarxi (sotish tannarxi) aks ettiriladi.

Qurilish ishlari buyurtmachilarga bosqichma-bosqich topshirilgan hollarda qurilish tashkilotlarida hisobot davri oxiriga to'g'ri keladigan tugallanmagan qurilish qiymati (tannarxi) inventarizatsiya yo'li bilan

5.1-jadval

Qurilish ishlari tannarxiga kiritiladigan asosiy ishlab hiqarish xarajatlari

Xarajat guruhi	Xarajat moddalari	Boshlang'ich hujjatlar va hisob registrlari
Bevosita material xarajatlari	Qurilish ishlariga bevosita sarflangan qurilish materiallari, yarim fabrikatlar va buyumlar, yoqilg'i va moylash materiallari, xo'jalik inventarlari va boshqa materiallar	• Material hisoboti (M-19); • Material sarfi hisoboti (M-29); 10-s jurnal-order
Bevosita mehnat haqi xarajatlari	Qurilish ishlarini bevosita olib borgan qurilish brigadalari a'zolariga hisoblangan asosiy ish haqi va mukofotlar	• naryadlar; • tabellar; • hisob-to'lov qaydnomalari; • 10-s jurnal-order
Bevosita mehnat haqi fondidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	Qurilish ishlarini bevosita olib borgan qurilish brigada a'zolari ish haqi fondidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	• ijtimoiy sug'urtaga ajratma hisob-kitobi 10-s jurnal-order
Amortizatsiya ajratmalari	Qurilish ishlarini olib borishda bevosita ishtirok etgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi	• amortizatsiya hisob-kitobi; • 10-jurnal-order
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita ustama xarajatlar)	1. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan materiallar qiymatidagi farqlar; 2. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan turli xizmatlar (loyihalashtirish, sertifikatlash va transport xizmatlari, gaz, suv va elektr quvvati bilan ta'minlash, ta'mirlash va boshqa xizmatlar) 3. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan me'yordagi yo'qotishlar; 4. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish chiqarish xarajatlari; 5. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilgan kelgusi davr xarajatlari; 6. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.	• schot-fakturalar; • dalolatnomalar; • buxgalteriya hisob-kitoblari; • 10-s jurnal-order; • boshqa hujjatlar va registrlar

aniqlanadi. Inventarizatsiya qaydnomasida ko'rsatilgan tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati (tannarxi) 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotiga ochilgan tahliliy schot (qurilish obyekti)da hisobot davri oxiridagi qoldiq sifatida ko'rsatiladi. Bu holda buyurtmachilarga topshirilgan ishlar bosqichining haqiqiy tannarxi (sotish tannarxi) obyekt uchun ochilgan 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotining bosh qoldig'iga uning debet aylanma summasini qo'shish hamda hisobot davri oxiriga qo'rsatilgan qoldiqni ayirish yo'li bilan topiladi.

5.2-jadval

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

20__ yil _____oyi uchun

Tahliliy schot - «Do'stlik kompleksi»

Debet				Kredit			
№	Operatsiya mazmuni (xarajat moddasi)	Korr. schot	Summa	№	Operatsiya mazmuni	Korr. schot	Summa
	Bosh qoldiq		**65000000**	7	**Topshiril-gan qurilish ishining tannarxi**	**9130**	**78900000**
1	Material sarfi	1030. 1610	6000000 500000				
2	Ish haqi	6710	3000000				
3	Ijtimoiy sug'urta	6520	720000				
4	Amortizatsiya	0200	180000				
5	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	2310	1500000				
6	Umumishlab chiqarish xarajatlari	2510	2000000				
	Jami		**13900000**		**Jami**		**78900000**
	Oxirgi qoldiq		**0**				

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari sintetik va tahliliy hisobining asosiy registri bo'lib 10-s jurnal-order hisoblanadi. Ushbu jurnal-order har bir qurilish obyekti (tahliliy schot) bo'yicha ochiladi. Shuningdek, qurilish tashkiloti buxgalteriyasi barcha olib borilgan qurilish ishlari xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarini jamlash uchun yig'ma 10-s jurnal-orderni ham yuritadi. Ushbu yig'ma jurnal-orderda asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga doir hisob ma'lumotlarini tahliliy schotlar (qurilish obyektlari) bo'yicha yig'ish tartibi ko'rgazmali tarzda 5.3-jadvalda keltirilgan.

5.3-jadval

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining yig'ma hisobi

Xarajat moddalari schotlari	Jami		Shu jumladan qurilish obyektlari bo'yicha					
			A (2010)		B (2020)		V (2030)	
	Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt
Bosh qoldiq	**85000000**		**65000000**		**15000000**		**5000000**	
1000	9000000		6000000		2000000		3000000	
1610	900000		500000		100000		300000	
6710	4500000		3000000		1000000		500000	
6520	1080000		720000		240000		120000	
6010	110000		-		60000		50000	
6990	175000		-		100000		75000	
0200	265000		180000		60000		25000	
0500	40000		-		40000		-	
2310	2550000		1500000		800000		250000	
2510	3100000		2000000		700000		400000	
3190	75000		-		75000		-	
Jami	**23795000**	**8862000**	**13900000**	**78900000**	**5175000**		**4720000**	**9720000**
Oxirgi qoldiq	**20175000**		**0**		**20175000**		**0**	

Yig'ma 10-s jurnal-order ma'lumotlari qurilish tashkilotida 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti bo'yicha bosh kitobni yuritishga asos bo'ladi. Chunonchi, bosh kitobning debetida korrespondensiyalanuvchi schotlar bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar yig'ma 10-s jurnal-orderda barcha qurilish obyektlari (tahliliy schotlar) bo'yicha keltirilgan mos ravishdagi xarajat moddalari summalarining yig'indisiga teng kelishi lozim.

5.2. Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi

Qurilish tashkilotlarida **yordamchi ishlab chiqarish** deganda qurilish ishlarining olib borilishida bevosita va bilvosita ishtirok etadigan yordamchi hamda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish bo'linmalarining faoliyati tushuniladi. Ularga, chunonchi, quyidagilar kiradi:

(1) qurilish materiallari, detallari, konstruksiya va moslamalarini tayyorlash sexlari (yog'och materiallar, temir-tersaklar, beton, g'isht plitalari, granit toshlar, bitum, asfalt va shu kabi boshqa materiallarga ishlov berish sexlari yoki ustaxonalari);

(2) energiyaning turli xillari (elektr energiyasi, bug' va boshqalar) bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi bo'linmalar;

(3) transport xizmatlarini ko'rsatuvchi bo'linmalar (avtoxo'jalik, garaj, ustaxonalar);

(4) ta'mirlash ishlarini olib boruvchi bo'linmalar;

(5) qurilish ishlarini loyihalashtirish, tajriba konstruktorlik ishlarini olib boruvchi bo'linmalar.

(6) qurilish ishlari bilan band xodimlarga maishiy, tibbiy, sanitariya-gigiyena, ovqatlanishni tashkil qilish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish bo'linmalari.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining yig'ma sintetik hisobi bosh kitobda 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotida olib boriladi. Ushbu schotning debetida va kreditlanadigan korrespondensiyalanuvchi schotlarda (1000, 6710, 6520, 0200, 6000, 6990 va boshqalar) mos ravishda yordamchi ishlab chiqarishga ketgan material, ish haqi, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya, turli xizmatlar va boshqa sarf-xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi. 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotining kreditida yordamchi ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, qurilish materiallari, konstruksiyalar, moslama va

buyular, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlarga ketgan jami sarf-xarajatlarning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Maxsus qurilish konstruksiyalari va moslamalarini yasash sexlari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lishi mumkin. Bu hollarda 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schoti qoldiqqa ega bo'ladi. Qolgan hollarda ushbu schotning debetida to'plangan summa mos ravishdagi boshqa schotlarga o'tkaziladi va u shu yo'l bilan yopiladi.

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotining yopilishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

(1) yordamchi ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar olinganda:

Debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(2) yordamchi ishlab chiqarishdan yarim tayyor mahsulotlar olinganda:

Debet 2110 «Yarim tayyor mahsulotlar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(3) yordamchi ishlab chiqarishdan qurilish materiallari, konstruksiyalar, moslamalar, xo'jalik jihozlari olinganda:

Debet 1000 «Materiallar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(4) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari kapital investitsiya sifatida tan olinganda:

Debet 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(5) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari summasini asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilganda:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(6) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini davr xarajatlari hisobi schotlariga o'tkazilganda:

Debet 9400 «Davr xarajatlarini hisobga olib boruvchi schotlar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilishi uning alohida moddalarini aniq qurilish obyektlari tannarxiga bevosita olib borish yoki hisob siyosatida keltirilgan tartibga muvofiq taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ularni taqsimlab

chiqish tartibi yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining ayrim moddalari bo'yicha oldingi boblarda yoritilgan.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va ular taqsimotining tahliliy hisobi har bir yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'linmalari bo'yicha 10-s jurnal-orderda alohida yuritiladi.

5.3. Qurilish tashkilotlarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimoti

Qurilish tashkilotlari o'zlarining hisob siyosatida belgilangan tartibga muvofiq umumishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan xarajatlar hisobini 2500 «Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» tizimida alohida olib borishlari mumkin. Ushbu schotlar tizimida ochiladigan maxsus schotlarda, chunonchi, quyidagi xarajatlar aks ettiriladi:

a) qurilish mashinalari va uskunalarini saqlash hamda ularni ekspluatatsiya qilish xarajatlari;

b) ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari;

v) ishlab chiqarishga doir asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;

g) ishlab chiqarishdagi mol-mulkni sug'urtalash xarajatlari;

d) ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish va saqlash xarajatlari;

e) ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga olish xarajatlari;

j) ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan ishlab chiqarish xodimlariga hisoblangan mehnat haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

z) umumishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Hisobot oyi mobaynida 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotining debetida va mos ravishdagi boshqa schotlarning kreditida nomlari yuqorida zikr etilgan xarajat moddalari bo'yicha ma'lumotlar jamlanadi. Oy oxirida ushbu schotning debetida to'plangan xarajatlar qurilish tashkiloti hisob siyosatida keltirilgan tartibga muvofiq asosiy ishlab chiqarish (2010 schot) va yordamchi ishlab chiqarish (2310 schot) xarajatlariga olib boriladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash tartibini ularning alohida moddalari, chunonchi, qurilish mashinalari va uskunalarini saqlash hamda ularni ekspluatatsiya qilish xarajatlari, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari misolida 2-bobda ko'rib chiqqan edik. Xuddi

shunga o'xshash yoki qabul qilingan boshqa tartiblarga ko'ra umumishlab chiqarish xarajatlarining qolgan moddalari ham mos ravishdagi qurilish obyektlari o'rtasida taqsimlanishi lozim.

Umumishlab chiqarish xarajatlari va ular taqsimotining tahliliy hisobi umumishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'linmalari bo'yicha 10-s jurnal-orderda alohida moddalari bo'yicha yuritiladi.

5.4. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari

Qurilish tashkilotlarida qurilish ishlarining reja tannarxi, normativ tannarxi va haqiqiy tannarxi hisob-kitob qilinadi. Reja yoki normativ tannarx, odatda, qurilish ishlari boshlanishidan oldin hisob-kitob qilinadi. Haqiqiy tannarx qurilish ishlari yakunlanganda va buyurtmachilarga topshirilayotganda aniqlanadi.

Qurilish ishlarining reja, normativ va haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish bir qancha maqsadlarda, chunonchi: (1) qurilish ishlariga ketishi kerak bo'lgan va haqiqatda ketgan sarf-xarajatlar summasini; (2) tugallanmagan qurilish qiymati (tannarxi)ni; (3) qurilish ishlari sotish tannarxini; (4) sotishdan kutilayotgan va haqiqatda olingan yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) summasini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Shuningdek, qurilish ishlari haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish reja tannarx yoki normativ tannarxga nisbatan yuz bergan chetlanishlarni aniqlashga, ushbu chetlanishlar bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham, qurilish ishlari haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish qurilish jarayonini hisobga olishning yakuniy bosqichida bajariladigan zarur ishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Qurilish ishlarining haqiqiy tannarxi turli usullarda kalkulyatsiya qilinishi mumkin. Amaliyotda eng keng tarqalgan usullar buyurtmali, jarayonli va hissali (tugallanish foizi) usullar hisoblanadi.

Buyurtmali usulda bajarilgan har bir qurilish ishi xarajat obyekti sifatida qaraladi. Uning haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish qurilish obyektiga (buyurtmaga) ochilgan 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotida to'plangan hisob ma'lumotlari asosida obyekt (ish) buyurtmachiga topshirilgandan keyin amalga oshiriladi. Ushbu schotning debetida alohida korrespondensiyalanuvchi schotlar bo'yicha ko'rsatilgan yig'ma ma'lumotlar buyurtmaga ochilgan kalkulyatsiya kartochkasining tegishli xarajat moddalarini to'ldirishga asos bo'ladi (5.4-jadval).

5.4-jadval

Qurilish ishlari haqiqiy tannarxi va uni reja (normativ) tannarxdan chetlanishi hisobi kalkulyatsion kartochkasi

№	Xarajat moddasi	Reja (normativ) bo'yicha	Haqiqatda	Chetlanish (+,-)
1.	Material xarajatlari	35300000	35750000	450000
2.	Ish haqi xarajatlari	25000000	24650000	-350000
3.	Ijtimiy sug'urta	6250000	6162500	-87500
4.	Amortizatsiya ajratmalari	1600000	1475500	-124500
5.	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	6100000	5460000	-640000
6.	Umumishlab chiqarish xarajatlari	5750000	5402000	-348000
7.	**Jami tannarx**	**80000000**	**78900000**	**-1100000**
8.	**Shartnoma qiymati**	**120000000**	**120000000**	**0**
9.	Shundan QQS	20000000	20000000	0
10.	**Yalpi foyda**	**20000000**	**21100000**	**1100000**
11.	Davr xarajatlari	8000000	8600000	600000
12.	**Qurilishga doir soliqgacha foyda summasi**	**12000000**	**12500000**	**500000**

Kalkulyatsion kartochkaning alohida ustunchalarida xarajat moddalari bo'yicha ularning reja yoki normativ miqdori hamda yuz bergan chetlanishlar ko'rsatiladi. Kartochka ma'lumotlari qurilish ishi xarajatlarini qay darajada to'g'ri rejalashtirilganligi yoki ular bo'yicha normativlarning to'g'ri belgilanganligiga baho berishga, reja yoki normativlardan chetlanishlarning sabablari, aybdorlari va boshqa jihatlarini aniqlashga, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi.

Jarayonli usul qurilish ishlarini tashkil qiluvchi ma'lum jarayonlar, chunonchi loyihalashtirish, qurishga tayyorlash, obyektni qurish, jihozlarni o'rnatish, sinash va topshirish kabi jarayonlar tannarxini aniqlashda qo'llaniladi. Har bir jarayonga ketgan haqiqiy sarf-xarajatlar majmuasi uning haqiqiy tannarxini tashkil etadi. Ushbu haqiqiy tannarx summasi keyingi jarayon uchun tugallanmagan qurilish qiymati bo'lib hisoblanadi. Qurilish ishlarini buyurtmachilarga jarayonlar bo'yicha topshirish pudrat shartnomalarida ko'zda tutilgan hollarda tugallangan jarayonning haqiqiy tannarxi buyurtmali usulda keltirilgan tartibda kalkulyatsiya qilinadi. Ushbu kalkulyatsiya ma'lumotlari topshirilgan jarayon qiymatini sotish tannarxi sifatida hisobga olish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Hissali usul (yoki tugallanish foizi usuli) pudrat shartnomalariga ko'ra qurilish ishlarini buyurtmachilarga tugallanish foiziga ko'ra topshirish ko'zda tutilganda qo'llaniladi. Qurilishning tugallanish foizi hisobot oyining oxirida

jami haqiqatda ketgan sarf-xarajatlarni qurilish ishlarining smeta tannarxiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali topiladi. Ushbu hisob-kitob asosida topilgan qurilish ishlarining haqiqiy tannarxi buyurtmachilarga topshirilgan ishlarning tannarxi (sotish tannarxi) sifatida hisobga olinadi.

Tayanch iboralar

Qurilish ishlari tannarxi – bu qurilish tashkilotlarida pudrat shartnomalariga ko'ra bajarilgan qurilish ishlariga sarflangan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi.

Qurilish ishlarining reja tannarxi kalkulyatsiyasi – bu qurilish ishlariga sarflanadigan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari asosida ularning reja tannarxini aniqlash.

Qurilish ishlarining haqiqiy tannarxi kalkulyatsiyasi – qurilish ishlariga haqiqatda sarflangan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari asosida ularning haqiqiy tannarxini aniqlash.

Buyurtmali usul - haqiqiy tannarxni bajarilgan har bir qurilish ishi (buyurtma) uchun aniqlash usuli.

Jarayonli usul - qurilish ishlarini tashkil qiluvchi ma'lum jarayonlar, chunonchi loyihalashtirish, qurishga tayyorlash, obyektni qurish, jihozlarni o'rnatish, sinash va topshirish kabi jarayonlar haqiqiy tannarxini aniqlash usuli.

Hissali usul (yoki tugallanish foizi usuli) - pudrat shartnomalariga ko'ra qurilish ishlarini buyurtmachilarga tugallanish foiziga ko'ra topshirishdagi haqiqiy tannarxini aniqlash usuli.

Kalkulyatsion kartochka – qurilish ishlarining reja (normativ) va haqiqiy tannarxini tashkil qiluvchi xarajat moddalari hamda ular bo'yicha yuz bergan chetlanishlarni o'zida ifodalovchi hisob registri.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kirmaydi:

a) brigada a'zolariga hisoblangan ish haqi;
b) sarflangan material xarajatlari;
v) loyihalashtirish xarajatlari;
g) hisob xodimlariga hisoblangan ish haqi.

2. Qurilish tashkilotlarida bilvosita xarajatlarga kiradi:

a) ma'muriy-boshqaruv xodimlariga hisoblangan ish haqi;
b) bosh injenerga hisoblangan safar xarajatlari;
v) qurilish mashinalarini saqlash xarajatlari;
g) yuqoridagilarning barchasi.

3. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinadi:

a) 3190 schotda;
b) 2010 schotda;
v) 2310 schotda;
g) 2510 schotda.

4. Tugallangan qurilish ishining haqiqiy tannarxi:

a) ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini o'z ichiga oladi;
b) haqiqatda ketgan ishlab chiqarish xarajatlaridir;
v) umumishlab chiqarish xarajatlaridan iborat;
g) yuqorida keltirilgan barcha xarajatlardan iborat.

5. Qurilish ishlari tannarxining tahliliy hisobi:

a) qurilish tashkiloti bo'yicha yaxlit yuritiladi;
b) har bir qurilish ishi bo'yicha yuritiladi;
v) yuritilmaydi;
g) jami qurilish ishlari bo'yicha bosh kitobda yuritiladi.

6. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari:

a) 2010 schotda hisobga olinadi;
b) qurilish ishlari tannarxiga kiritiladi;
v) 2510 schotda hisobga olinadi;
g) hisobga olinmaydi.

7. Umumishlab chiqarish xarajatlari:

a) 2010 schotda hisobga olinadi;
b) taqsimlanadi va qurilish ishlari tannarxiga kiritiladi;
v) 2310 schotda hisobga olinadi;
g) 3190 schotda hisobga olinadi.

8. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilishdan maqsad:

a) davr xarajatlarini chegaralash;
b) talon-tarojlikka yo'l qo'ymaslik;
v) sotish tannarxini real hisoblash;
g) soliqni yashirish yo'lini izlab topish.

9. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usulida tannarx:

a) jami tashkilot bo'yicha topiladi;

b) har bir buyurtma bo'yicha topiladi;

v) har bir jarayon bo'yicha topiladi;

g) topilmaydi

10. Buyurtmachiga topshirilgan qurilish ishining haqiqiy tannarxiga buxgalteriya yozuvi beriladi:

a) Debet 2010 Kredit 2310

b) Debet 3190 Kredit 2010;

v) Debet 9130 Kredit 2010;

g) Debet 9030 Kredit 2010.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR. AV tomonidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

6. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: «Moliya», 2002.

7. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

8. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: «Iqtisod- moliya», 2005.

6-bob. QURILISH ISHLARINI BAJARISHDAN OLINGAN DAROMADLAR VA ULARGA DOIR HISOB-KITOBLARNING HISOBI

6.1. Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlar hisobi

Qurilish ishlarini bajarishdan olinadigan daromadlar qurilish tashkilotlarida foyda olishning asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning 2-son BHMS «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar»ga muvofiq qurilish ishlaridan olingan daromadlarni tan olish va buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ular quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

birinchidan, qurilish tashkiloti tomonidan daromadga egalik qilish huquqi bajarilgan qurilish ishlarining buyurtmachilarga topshirilganligiga guvohlik beruvchi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi;

ikkinchidan, olinadigan daromadning summasi aniq bo'lishi;

uchinchidan, bajarilgan ishlardan kelib tushgan yoki kelib tushadigan tushum qurilish tashkilotining aktivlarini ko'payishiga yoki uning majburiyatlarini kamayishiga olib kelishiga to'liq ishonch bo'lishi;

to'rtinchidan, buyurtmachi qabul qilib olgan qurilish ishi uchun pudratchi oldidagi majburiyati summasini so'zsiz tasdiqlashi.

Qurilish tashkilotlarida qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlarni tasdiqlovchi asosiy hujjat «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma – schot-faktura» hisoblanadi. Ushbu hujjat pudratchi va buyurtmachi tomonidan imzolangandan so'ng rasmiy kuchga ega bo'ladi.

«Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» sobiq KS-2 shakl «Bajarilgan ishlarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma» va KS-3 shakl «Bajarilgan ishlar va xarajatlar to'g'risida ma'lumotnoma» o'rniga kiritilgan yagona hujjatdir. U kamida ikki nusxada tuziladi. Ma'lumotnoma–schot-fakturaning bir nusxasi pudratchida qoladi, ikkinchi nusxasi esa buyurtmachiga topshiriladi. Investorlarning talablariga ko'ra ularga ham ushbu hujjatning alohida nusxalari taqdim etiladi. Ma'lumotnomani tuzishga asos bo'lib bajarilgan ishlar hisobi jurnali (KS-6 shakl) ma'lumotlari hisoblanadi. Ushbu jurnal qurilish tashkilotida har bir obyekt bo'yicha yuritiladi. Jurnalda

qurilish ishlarini boshlanish va yakunlanish sanasi, ularni borish jarayoni, ketma-ketlikda bajarilgan texnologik ishlarning o'lchamlari, belgilangan me'yor va rassenkalar bo'yicha aniqlangan qiymati va boshqa jihatlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi.

Bajarilgan qurilish ishlari pudratchi, buyurtmachi, investorlar va boshqa qiziquvchi organlar vakillari kiritilgan tarkibdagi komissiya tomonidan qabul qilinadi. Qurilish ishlarini qabul qilib olish obyekt loyihasida ko'rsatilgan talablar, me'yorlar va tartiblar asosida ularni kuzatish, o'lchash, sinab ko'rish, sifatini aniqlash hamda tegishli mutaxassislarning xulosalari asosida amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan olinadigan daromadlarning hisobi ularni tan olish usuliga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu usullar quyidagilar hisoblanadi:

1. To'liq tugallanish usuli; 2. Tugallanish foizi usuli; 3. Bosqichli usul;

BAJARILGAN ISHLAR (QILINGAN XARAJATLAR) QIYMATI TO'G'RISIDA MA'LUMOTNOMA – SCHOT-FAKTURA

_____
(davr)

Pudratchi_____ **Buyurtmachi**_____

_____ _____

Manzili_____ **Manzili**_____

Telefon _____ **Telefon** _____

Hisob raqam_____ **Hisob raqami**_____

_____ _____

STIR_____ **STIR**_____

XXTUT_____ **XXTUT**_____

Obyekt nomi va manzili_____

Shartnoma _____

Jami shartnoma qiymati _____

Hisobot davri _____**dan** _____ **gacha**

Hujjat № va sanasi _____

T/r	Ishga tushiriladigan kompleks, bosqich, obyekt, bajariladigan ish turi, jihozlar, xarajatlar	O'lchov birligi	Ish va xarajatlarning hajmi (natural ko'rsatichlarda)		Shartnomaviy joriy baholardagi qiymati (ming so'mda)	
			Jami	Shu jumladan joriy yilga ish grafigi bo'yicha	Jami	Shu jumladan joriy yilga
1	2	3	4	5	6	7

Bajarilgan ishlar								
Ish boshidan boshlab			Yil boshidan boshlab hisobot oyi bilan birga			Shu jumladan hisobot oyida		
Natur. ko'rsatkich	Jami ish hajmiga nisbatan foiz	Joriy shartnoma baholarda (ming so'm)	Natural ko'r-satkich	Jami ish hajmiga nisbatan foiz	Joriy shartnoma baholarda (ming so'm)	Natural ko'r-satkich	Jami ish hajmiga nisbatan foiz	Joriy shartnoma baholarda (ming so'm)
8	9	10	11	12	13	14	15	16

Pudratchi tashkilot rahbari_____
Pudratchi tashkilot bosh hisobchisi_____
M.O'.
Buyurtmachi tashkilot vakili _____
M.O'.

To'liq tugallanish usulida bajarilgan ishlardan olingan daromadlar qurilish ishlari to'liq yakunlangan va buyurtmachiga topshirilgandan so'ng yuqorida nomlari zikr etilgan dalolatnoma va ma'lumotnomalar asosida tan olinadi. Qurilish ishlari to'liq yakunlanmaguncha unga sarflangan barcha xarajatlar tugallanmagan qurilish sifatida hisobga olib boriladi. «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida bajarilgan ishlardan olingan daromad summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 4010 «Olinadigan schotlar»;

Kredit 9030 «Bajarilgan ish va xizmatlardan daromad»

Tugallanish foizi usuli qo'llanilganda dastlab yaxlit qurilish obyektining tugallanish foizi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich jami ketgan sarf-xarajatlarni qurilish obyektining smeta tannarxiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Topilgan tugallanish foizi qurilish ishining tugallangan qismiga to'g'ri keluvchi daromad qismini topishga asos bo'ladi. Qurilishning tugallangan qismiga to'g'ri keluvchi daromad uning jami smeta bo'yicha kelishuv qiymatini (QQS siz) tugallanish foiziga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali topiladi.

Misol. *Aytaylik, qurilish obyektining shartnoma qiymati 60000000 so'm, shundan QQS (20 %) 10000000 so'm. Demak, qurilish obyekti bo'yicha sof tushumning shartnoma qiymati 50000000 so'm (60000000 – 10000000). Qurilish obyektining smeta bo'yicha tannarxi 35000000 so'm. Qurilishning tugallangan qismining haqiqiy tannarxi 28000000 so'm.*

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra:

(1) qurilishning tugallanish foizi – 80,0 % (28000000 / 35000000);

(2) qurilishning tugallangan qismiga to'g'ri keluvchi yalpi tushum – 48000000 so'm (60000000 * 80 % / 100 %);

(3) qurilishning tugallangan qismiga to'g'ri keluvchi sof tushum (daromad) - 40000000 so'm (50000000 * 80 % / 100 %);

(4) qurilishning tugallangan qismiga to'g'ri keluvchi QQS summasi 8000000 so'm (48000000- 40000000).

Daromadlarni tugallanish foizi asosida tan olish usulida qurilishning tugallangan qismining qiymati va tugallanish foizi pudratchi hamda buyurtmachilar tomonidan imzolangan «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» bilan tasdiqlanadi. Ushbu hujjat asosida qurilish tashkilotida bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromad hamda QQS summalariga yuqorida keltirilgan mos ravishdagi buxgalteriya yozuvlari beriladi.

Bosqichli usul qurilish obyektining tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich topshirish hollarida qo'llaniladi. Bu usulni qo'llashning asosiy shartlaridan biri qurilish loyihasi va qurilish loyiha-smeta hujjatlarida uning alohida olingan tarkibiy qismlarining shartnoma qiymati hamda smeta tannarxini alohida belgilanganligi hisoblanadi. Bunday holatlarda qurilish obyektining alohida olingan tarkibiy qismi (bosqichi)ga doir daromad va tannarx to'g'risidagi ma'lumotlar «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» hamda KS-6 shakldagi hisob registrlari bilan tasdiqlanadi. Ushbu hujjatlar asosida qurilish ishining alohida bosqichini bajarishdan olingan daromad va QQS summalariga yuqorida keltirilgan mos ravishdagi buxgalteriya yozuvlari beriladi.

Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromadlarning tahliliy hisobi 16-s ishlov qaydnomasida yuritiladi. Ushbu ishlov qaydnomasida tahliliy ma'lumotlar buyurtmachilar hamda ular uchun bajarilgan qurilish ishlarining turlari bo'yicha mujassamlashtiriladi.

6.2. Qurilish ishlari bo'yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi

Qurilish tashkilotlari tomonidan olib boriladigan pudrat ishlarini moliyalashtirishning asosiy manbai, buyurtmachilarning mablag'lari hisoblanadi. Qurilish ishlarining belgilangan muddatlarda boshlanishi, olib

borilishi va tugatilishi bevosita buyurtmachilar tomonidan shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga bog'liq. Shuningdek, bajarilgan ishlar uchun hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishi qurilish tashkilotlarining moliyaviy holatiga, chunonchi, ularning o'z majburiyatlari bo'yicha to'lov qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ham qurilish tashkilotlarida buyurtmachilar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ustidan doimiy nazoratni olib borish, ularni o'z vaqtida amalga oshirini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish tashkilotlari bajariladigan va haqiqatda bajarilgan ishlar bo'yicha o'z buyurtmachilari bilan uch turdagi hisob-kitoblarni olib borishlari mumkin. Bular:

(1) bo'nak sifatida olingan pul mablag'lari bo'yicha hisob-kitoblar;

(2) qurilish ishlari uchun olingan materiallar bo'yicha hisob-kitoblar;

(3) bajarilgan ishlar uchun yakuniy hisob-kitoblar.

Qurilish ishlarining boshlanishi oldidan buyurtmachilar shartnomada belgilangan shartlarga ko'ra qurilish ishlari loyiha-smeta qiymatining kamida 15 foiz miqdorini pudratchi tashkilot schotiga oldindan to'lov, ya'ni bo'nak sifatida o'tkazib berishlari lozim. Qurilish tashkilotlarida buyurtmachilar bilan olingan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar» schotida hisobga olinadi. Qurilish tashkiloti schotiga buyurtmachilardan kelib tushgan bo'nak summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar».

Olingan bo'naklar buyurtmachilar tomonidan haqiqatda bajarilgan ishlar uchun yakuniy hisob-kitoblar qilinishida kamaytirishga olib boriladi. Ushbu kamaytirish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar»;

Kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»

Qurilish ishlarini bajarish buyurtmachilarning materiallari asosida amalga oshirilishi mumkin. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra buyurtmachilarning pudratchilarga qurilish ishlari uchun bergan materiallari buyurtmachilar uchun boshqa aktivlarni sotish sifatida (Debet 4010 Kredit 9220, 6410), pudratchi tashkilotlar uchun esa sotib olish operatsiyasi sifatida (Debet 1050, 4410 Kredit 6010) tan olinadi. Bunday holatlarda qurilish tashkilotlarida buyurtmachilardan olingan materiallar uchun

kreditorlik qarzlarini bajargan ishlari uchun vujudga kelgan debitorlik qarzlari bilan qoplashlari ta'qiqlanadi. Ushbu mazmundagi barter operatsiyalariga faqatgina inqirozga uchragan hollarda sud qarori asosida o'zaro qarzlarni qoplash maqsadida ruxsat etilishi mumkin. Sud qaroriga asosan pudratchilar va buyurtmachilar o'rtasidagi o'zaro qoplangan qarzlar summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar»;

Kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

Qurilish tashkilotlarining buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarining tahliliy hisobiga doir ma'lumotlar turli registrlarda o'z aksini topadi. Chunonchi, buyurtmachilar bilan yakuniy hisob-kitoblar to'g'risidagi barcha tahliliy ma'lumotlar 5-s va 16-s qaydnomalarida, olingan bo'naklar 8-s jurnal-order va 2-qaydnomada, olingan materiallar bo'yicha hisob-kitoblar 6-s jurnal-order va 10-s qaydnomada keltiriladi.

6.3. Qurilish ishlarini bajarishda bosh pudratchi va subpudratchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar hisobi

Qurilish ishlari ikki tomonlamali hamda ko'p tomonlamali (uch va undan ko'p tomonlar ishtirokidagi) shartnomalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Ikki tomonlamali shartnomada, odatda, pudratchi va buyurtmachi ishtirok etadi. Ko'p tomonlamali shartnomalarda esa bosh pudratchi, subpudratchilar va buyurtmachi ishtirok etadi.

Ikkinchi turdagi shartnoma shartlariga ko'ra pudratchi qurilish ishlarining alohida tarkibiy qismlarini subpudratchilarni jalb qilish yo'li bilan bajarish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bu holda subpudratchini jalb etgan pudratchi tashkilot bosh pudratchi hisoblanadi. Bosh pudratchi qurilish ishlari uchun buyurtmachi oldida yaxlit tarzda mas'ul va javobgar hisoblanadi. Buyurtmachi shartnoma shartiga ko'ra o'z talablarini faqat bosh pudratchiga qo'yadi. Bosh pudratchi, o'z navbatida, tuzilgan subpudrat shartnomalariga ko'ra talablarini subpudratchilar oldiga qo'yadi. Alohida ishlarni bajarish bo'yicha subpudratchilar buyurtmachining o'zi tomonidan tanlangan hollarda, odatda, bosh pudratchi subpudratchilar tomonidan bajarilgan ishlar uchun buyurtmachi oldida javobgar hisoblanmaydi.

Ko'p tomonlamali shartnomalarda mos ravishda bosh pudratchi va subpudratchilarning buyurtmachi bilan hisob-kitoblari ham turlicha belgilanishi hamda amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, buyurtmachi bosh

pudratchi va subpudratchilar bilan hisob-kitoblarni alohida-alohida amalga oshirishi yoki subpudratchilar bilan bo'ladigan barcha hisob-kitoblar faqat bosh pudratchi orqali bajarilishi mumkin.

Bosh pudratchining subpudratchilar bilan hisob-kitoblari ularning yaxlit bir tizimga kirish yoki kirmasligiga ham bog'liq. Yaxlit bir tizimni tashkil qiluvchi bosh pudratchi va subpudratchi tashkilotlar o'rtasida bajarib berilgan ishlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar bosh pudratchida 6100 «Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarda hisobga olinadi. Bir tizimni tashkil etmaydigan bosh pudratchi hamda subpudratchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning hisobi bosh pudratchi tashkilotda 6010 «Ta'minotchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» schotida olib boriladi.

Bosh pudratchi subpudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ishlarni «Bajarilgan ishlarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma» (KS-2 shakl) va «Bajarilgan ish qiymati va xarajatlar to'g'risida ma'lumotnoma» (KS- 3 shakl) asosida qabul qilib oladi. Ushbu hujjatlar asosida subpudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ishlar bosh pudratchida quyidagi yozuvlar bilan tugallanmagan qurilish tannarxiga kiritiladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar».

6100 «Ajratilgan bo'linmalar, shuba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar»

Subpudratchiga bajarilgan ish uchun to'lovning o'tkazib berilishi bosh pudratchida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar»,

6100 «Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar»

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti»

Bosh pudratchida subpudratchilar bilan o'zaro hisob-kitoblarning tahliliy kitobi 6-s jurnal-orderda ularning har biri bo'yicha alohida yuritiladi.

Tayanch iboralar

Qurilish ishlaridan olingan daromad - bu qurilish tashkiloti tomonidan bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish ishlarining guvohlik beruvchi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan qiymati (QQSsiz).

«Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» - bu qurilish tashkilotlarida qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlarni tasdiqlovchi asosiy hujjat.

To'liq tugallanish usuli - bu bajarilgan ishlardan olingan daromadni qurilish ishlari to'liq yakunlangan va buyurtmachiga topshirilgandan so'ng «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura» asosida tan olish usuli.

Tugallanish foizi usuli – bu bajarilgan ishlardan olingan daromadni uning jami smeta bo'yicha kelishuv qiymatini (QQS siz) tugallanish foiziga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali topish usuli.

Bosqichli usul – bu qurilish obyektining tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich topshirishdan olingan daromadni qurilish loyihasi va qurilish loyiha-smeta hujjatlarida uning alohida olingan tarkibiy qismlarining shartnoma qiymati hamda smeta tannarxi asosida topish usuli.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromadlar kiradi:

a) asosiy faoliyatdan olingan daromadlarga;
b) asosiy faoliyatdan olingan qo'shimcha daromadlarga;
v) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga;
g) investitsiya faoliyatidan olingan daromadlarga.

2. Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan daromadlar hisobi:

a) 9010 schotda yuritiladi;
b) 9020 schotda yuritiladi;
v) 9030 schotda yuritiladi;
g) 9910 schotda yuritiladi.

3. Qurilish tashkilotlarida qurilish ishlari bo'yicha daromadlar hisobi:

a) kassa metodiga asoslanib yuritiladi;
b) hisoblash tamoyiliga asoslanib yuritiladi;
v) taqqoslama baholarda yuritiladi;
g) reja baholarda yuritiladi.

4. Qurilish ishlaridan olingan daromadlar hisobini yuritishga asos bo'ladi:

a) KS-8 shaklli dalolatnoma;
b) KS- 2 shaklli dalolatnoma va KS-3 shaklli ma'lumotnoma;
v) KS-6 shaklli jurnal;
g) 10-s jurnal-order.

5. Qurilish ishlaridan olingan daromadlarni tan olish usullariga kirmaydi:

a) yaxlit tugallanish usuli;
b) tugallanish foizi usuli;
v) bosqichli usul;
g) indeks usuli.

6. Qurilish tashkilotlarida qurilish ishlaridan olingan daromad summasiga:

a) QQS summasi kiradi;
b) QQS summasi kirmaydi;
v) mol-mulk solig'i summasi kiradi;
g) aksiz solig'i summasi kiritiladi.

7. Subpudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlar qiymati bosh pudratchi tashkilot uchun:

a) daromad hisoblanadi;
b) tannarxga kiritiladigan xarajat hisoblanadi;
v) davr xarajati hisoblanadi;
g) yordamchi ishlab chiqarish xarajati hisoblanadi.

8. Quyidagi yozuvlarning qaysi biri bosh pudratchi va subpudratchi tashkilot o'rtasidagi barter operatsiyasi yuz berganligini ifodalaydi?

a) Debet 9220 Kredit 1050;
b) Debet 1050 Kredit 4010;
v) Debet 6010 Kredit 4010;
g) Debet 1050 Kredit 1050.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Qurilish sohasida hisobotni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 24-sentabr, 4095-son.

6. BHMS № 2 «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar». O'zR. AV tomonidan 1998-yil 26-avgustda ro'yxatga olingan, № 483.

7. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR. AV tomonidan 2002 yil 23 oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

8. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: «Moliya», 2002.

9. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

10. To'laxo'jaeva M.M. va boshqalar. Moliyaviy hisob. – Toshkent, Pragma korporatsiyasi, 2004.

11. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

12. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

7- bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA YAKUNIY MOLIYAVIY NATIJALAR, SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLARNING HISOBI

7.1. Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi

Qurilish tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ular olgan foyda (yoki zarar) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarning shakllanishi va hisobga olinishi respublikamizda «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom», Shuningdek 1, 2, 3 va 21- sonli BHMSlar bilan tartibga solingan.

Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq qurilish tashkilotlari faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi foyda (zarar)lar quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

***1.* Sotishdan foyda (Fs) yoki zarar (Zs).** Bu ko'rsatkich quyidagicha topiladi:

$$Fs\ (Zs) = St - Ts$$

Bu yerda: **St** – sof tushum, **Ts** – sotish tannarxi.

Qurilish tashkilotlarining sof tushumi ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromadlardan, shuningdek o'zlari ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlardan iborat bo'ladi. Bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromadlar hisobiga oldingi bobda batafsil to'xtalgan edik. Quyida qurilish tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar hisobini yuritish tartibiga qisqacha to'xtalamiz.

Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar deganda maxsus sotish uchun ishlab chiqarilgan turli konstruksiyalar, moslamalar, detallar, qurilish materiallaridan yasalgan plitalar, sementli g'isht-bloklar, eshik, dereza va shu kabi to'liq tayyor holga keltirilgan boshqa buyumlar tushuniladi. Ushbu tayyor mahsulotlar subpudratchilarning va boshqa tashkilotlarning buyurtmalari asosida, shuningdek aholi uchun erkin sotuvga chiqarish maqsadlarida ishlab chiqariladi.

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish qurilish tashkilotlarining maxsus sexlari yoki yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga doir xarajatlarning hisobi 2000 «Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar» yoki 2300

«Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarda olib boriladi. Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar qurilish tashkilotining hisob siyosatida belgilangan hisob bahosida 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schotida hisobga olinadi. Hisob bahosi tayyor mahsulotlarning yakka o'zini identifikatsiyalash (yoki buyurtmali) usulda aniqlangan reja (normativ) tannarxi yoki hiqiqiy tannarxi hisoblanadi.

Hisobot oyida ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarning omborlarga hisob baholarida kirim qilinishiga buxgalteriyada quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar»;

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» yoki;

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

Oy oxirida ishlab chiqarish xarajatlarining haqiqiy summasi aniqlangandan so'ng tayyor mahsulotlarning turlari bo'yicha ularning bir birligiga to'g'ri keladigan haqiqiy tannarxi kalkulyatsiya qilish yo'li bilan topiladi. Omborlarga qabul qilingan tayyor mahsulotlarning hisob baholaridagi qiymati va ularning haqiqiy tannarxi bo'yicha qiymati o'rtasidagi farq summasiga yuqoridagi buxgalteriya yozuvi qo'shimcha tarzda (agar ularning hisob bahosidagi qiymat haqiqiy tannarxdan past bo'lgan bo'lsa) yoki qizil yozuv (storno) usulida (agar ularning hisob bahosidagi qiymat haqiqiy tannarxdan yuqori bo'lgan bo'lsa) beriladi.

Tayyor mahsulotlar subpudratchi va boshqa tashkilotlarga shartnomalarda ko'rsatilgan sotish baholarida jo'natiladi. Sotilgan tayyor mahsulotlarga schot-faktura asosida quyidagi buxgalteriya yozuvlari beriladi:

(1) sotish bahosidagi qiymatiga (QQSsiz):

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar».

(2) QQS summasiga:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar».

Tayyor mahsulotlarning aholiga naqd pulga sotilishiga kirim kassa orderi asosida quyidagi buxgalteriya yozuvlari beriladi:

(1)sotish bahosidagi qiymatiga (QQSsiz):

Debet 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari»;

Kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar».

(2) QQS summasiga:

Debet 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar».

Naqd va naqdsiz pulga sotilgan tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi bo'yicha hisobdan chiqarilishiga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi»;

Kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar».

Sotilgan tayyor mahsulotlar bo'yicha xaridorlar bilan hisob-kitoblarning tahliliy hisobi 5-s qaydnomada ularning har biri bo'yicha alohida-alohida yuritiladi.

2. Asosiy faoliyatdan foyda (Faf) yoki zarar (ZAF). Ushbu ko'rsatkich quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Faf\ (Zaf) = Fs\ (Zs) - Dx + Bod}$$

Bu yerda: **Dx**- davr xarajatlari; **Bod** – asosiy faoliyatdan olingan boshqa operatsion daromadlar.

Qurilish tashkilotlarining davr xarajatlari deganda ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotish, ma'muriy-boshqarish va boshqa operatsion faoliyatga doir xarajatlar tushuniladi. Ushbu xarajatlar ma'lum hisobot davrida yuz beradi, shuning uchun ular hisobot davri xarajatlari deb ham ataladi.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlarida davr xarajatlarining hisobi 9410 «Sotish xarajatlari», 9420 «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari», 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» va 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotlarida olib boriladi. Ushbu schotlarda aks ettiriladigan xarajatlarning tarkibiy elementlari «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»da keltirilgan. Chunonchi, qurilish tashkilotlarida sotish xarajatlarining asosiy moddalariga reklama xarajatlari, mahsulot, ish va xizmatlarni sotish bilan bog'liq safar xarajatlari, ish va xizmatlarni sotishga oid xodimlarga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, tayyor mahsulotlarni sotishga tegishli asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiyasi) summasi, transport xarajatlari va boshqalar kiradi. Sotish xarajatlari 9410 «Sotish xarajatlari» schotining debetida va bu xarajatlarning aniq turini ifodalovchi boshqa schotlarning (masalan, 1000, 5010, 5110, 6710, 6520, 6990 va shu kabilar) kreditida aks ettiriladi.

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlariga qurilish tashkilotining boshqaruv apparati xodimlariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, safar xarajatlari, telefon aloqasi va boshqa shu

kabi boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari 9420 «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari» schotining debetida va aniq xarajatlarni ifodalovchi boshqa schotlarning (0200, 0500, 1000, 5010, 5110, 6710, 6520, 6990) kreditida aks ettiriladi.

9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schotida yil mobaynida qurilish tashkilotlarining umumxo'jalik faoliyatiga doir davr xarajatlari (moddiy yordam, kompensatsiyalar, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv solig'i, pensiya fondiga, yo'l fondiga, maktablarni rivojlantirish fondiga majburiy ajratmalar, mulkni sotishdan va berishdan ko'rilgan zararlar va boshqa shu kabi operatsion xarajatlar) aks ettiriladi. Bunda operatsion xarajatlarning aniq moddalarini ifodalovchi boshqa schotlar (1000, 5010, 5110, 6400, 6710, 6520, 6990, 9210, 9220) kreditlanadi.

«Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotining debetida yil mobaynida qurilish tashkilotlarining kelgusi faoliyatini rivojlantirishga sarflangan davr xarajatlari (yangi ishlab chiqarishni va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga, boshqaruv tizimini yaxshilashga sarflangan va boshqa shu kabi operatsion xarajatlar) aks ettiriladi. Ushbu turdagi davr xarajatlari soliq qonunchiligiga ko'ra kelgusi 10 yil ichida bir maromda soliq bazasidan maxsus hisob-kitob asosida chiqarib boriladi. Kelgusida soliq bazasidan chegirib boriladigan xarajatlar bu schotning debetida va boshqa schotlarning (masalan, 1000, 5110, 5010, 6010, 6710, 6520, 6990 va shu kabilar) kreditida aks ettiriladi.

Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlarini o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus balansdan tashqari 012 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotida belgilangan muddatda ko'rsatib boriladi.

Qurilish tashkilotlarining asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlariga ularning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, materiallarini sotishdan foyda, undirilgan jarimalar, voz kechilgan kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli ijaradan daromadlar, beg'araz qaytarilmaydigan moliyaviy yordam, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar, o'tgan yillarning foydasi kabilar kiradi.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlari asosiy faoliyatidan olingan qo'shimcha daromadlar 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarda hisobga olinadi, chunonchi:

- **9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda»** schotining kreditida o'z asosiy vositalarini sotishdan va boshqa chiqimlaridan olingan foyda summasi aks ettiriladi. Bunda 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schoti debetlanadi.

- **9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda»** schotining kreditida materiallar, xo'jalik inventarlari va nomoddiy aktivlarni sotishdan hamda boshqa chiqimlaridan olingan foyda summasi aks ettiriladi. Bunda 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schoti debetlanadi.

- **9330 «Undirilgan jarimalar, penya va ustamalar»** schotining kreditida turli xo'jalik shartnomalari shartlarining buzilishi natijasida, shuningdek ko'rsatilgan zararlarning qoplanishi evaziga olingan daromad (foyda) summasi aks ettiriladi. Bunda mos ravishda jarimani kelib tushganligi, ushlanganligi yoki hisoblanganligini aks ettiruvchi schotlar, masalan 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari», 5110 «Hisob-kitob schoti», 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar», 4860 «Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar» debetlanadi.

- **9340 «O'tgan yillar foydasi»** schotining kreditida hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillarning foydasi aks ettiriladi. Bunday foyda, masalan, muddatidan oldin hisobdan chiqarib yuborilgan debitorlik qarzlarning tiklangan yoki kelib tushgan summasi, ortiqcha hisoblab yuborilgan xarajatlarni kamaytirilishi va boshqalar hisoblanadi. Bunda mos ravishda o'tgan yillar foydasini tiklanganligini ko'rsatuvchi schotlar, masalan 5010 «Kassadagi milliy valutadgi pul mablag'lari», 5110 «Hisob-kitob schoti», 4000 «Olinadigan schotlar» debetlanadi.

- **9350 «Qisqa muddatli ijaradan daromadlar»** schotining kreditida qisqa muddatli ijaradan olingan daromad summasi 4820 «Qisqa muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar» schoti bilan korrespondensiyalashgan holda aks ettiriladi.

- **9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar»** schotining kreditida muddatida (3 yildan oshiq muddatda) undirib olinmagan qarzlarni qurilish tashkiloti foydasiga o'tkazishdan olingan daromadlar mos ravishda kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi schotlar (6010, 6110, 6710, 6720, 6900 va boshqalar) bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

- **9370 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari»** schotining kreditida asosiy faoliyatga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan (sog'liqni saqlash

bo'linmasi, sartoroshxona, kutubxona, bolalar bog'chasi, sauna, sanatoriylar, oshxona, mehmonxona, sport komplekslari va boshqalar) olingan daromadlar aks ettiriladi. Bunda olingan yoki hisoblangan daromadlarni aks ettiruvchi schotlar, masalan, 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari», 5110 «Hisob-kitob schoti», 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schotlari debetlanadi.

- **9380 «Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam»** schotining kreditida turli yuridik va jismoniy shaxslardan qaytarib bermaslik sharti bilan olingan moliyaviy yordam summalari aks ettiriladi. Bunda olingan yordamning turini aks ettiruvchi schotlar, masalan, 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari», 5110 «Hisob-kitob schoti», 0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar schoti», 1000 "Materiallarni hisobga oluvchi schotlar" va boshqa schotlar debetlanadi.

- **9390 «Boshqa operatsion daromadlar»** schotining kreditida yuqorida keltirilgan schotlarga olib borilmagan boshqa operatsion daromadlar, masalan inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar, turli qoplama summalar va boshqalar aks ettiriladi. Bunda mos ravishda TMZ va pul mablag'larini aks ettiruvchi schotlar (0100, 1000, 2800, 2900, 5000 va boshqalar) debetlanadi.

Qurilish tashkilotlarida asosiy faoliyatdan olingan qo'shimcha daromadlarning tahliliy hisobi ularning turlari va boshqa boshqaruv uchun zarur segmentlari bo'yicha 11-s jurnal-ordyerda olib boriladi.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (Fux) yoki zarar (Zux). Ushbu ko'rsatkich quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Fux\ (Zux) = Faf\ (Zaf) + Fmf - Zmf,}$$

bu yerda: **Fmf** – moliyaviy faoliyatdan olingan foyda;

Zmf - moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlari moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlar 9500 «Moliyaviy faoliyatdan daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarda hisobga olinadi. Bu schotlarning kreditida moliyaviy faoliyatga doir daromadlar, ya'ni royalti, dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar, valutalar kurslari farqidan daromadlar, uzoq muddatli ijaradan daromadlar va qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar hisoblash tamoyiliga muvofiq aks ettiriladi.

Royalti ko'rinishidagi daromadlar deganda qurilish tashkilotlarining nomoddiy aktivlarini, masalan qurilish bo'yicha loyihalar, me'yor va tartiblar (standartlar to'plami), litsenziyalar va boshqalarni ijaraga berishdan va

hamkorlikda foydalanishdan olingan daromadlar tushuniladi. Ushbu daromadlarni hisoblanishi 4850 "Olinadigan royalti" schotining debetida va 9510 "Royalti ko'rinishidagi daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Dividendlar – bu qurilish tashkilotining aksiyalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalari uchun hisoblangan daromad. Ushbu daromadni hisoblashga asos, o'zga aksiyadorlik jamiyatlarining qurilish tashkilotiga dividend hisoblanganligi to'g'risidagi yozma xabarnomasi hisoblanadi. Ushbu xabarnomada jami hisoblangan dividend summasi, undan ushlangan dividend solig'i summasi va to'lanadigan dividend summasi aks ettiriladi. Agar xabarnomada dividend solig'ini ushlanmaganligi uqtirilgan bo'lsa, u holda ushbu soliqni dividend olgan qurilish tashkiloti to'lashi lozim. Hisoblangan didivend ko'rinishidagi daromadlar 4840 "Olinadigan dividendlar" schotining debetida va 9520 "Dividend ko'rinishidagi daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Foizlar ko'rinishidagi daromadlar deganda qurilish tashkilotining boshqa yuridik shaxslarga bergan qarzlari va kreditlari uchun hisoblangan foizlar tushuniladi. Ushbu foizlar summasi tuzilgan shartnomalar asosida hisoblanadi. Foiz ko'rinishida hisoblangan daromadlar 4830 "Olinadigan foizlar" schotining debetida va 9530 "Foizlar ko'rinishidagi daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Valutalar kurslari farqidan daromadlar deganda qurilish tashkilotining valuta schotida saqlanayotgan chet el valutasi va chet el valutasidagi debitorlik qarzlar bo'yicha hisoblangan ijobiy kurslar farqi tushuniladi. Ushbu daromad har oyning oxirida 5210 "Mamlakat ichidagi valuta schotlari", 5220 "Chet eldagi valuta schotlari", 4000 "Olinadigan schotlar", 4300 "Ta'minotchi va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schotlar" va boshqa chet el valutasida hisobi yuritilgan debitorlik qarzlar schotlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki e'lon qilgan kurslar asosida hisoblanadi. Hisoblangan ijobiy kurslar farqi yuqorida keltirilgan schotlarning debetida va 9540 "Valutalar kurslari farqidan daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Uzoq muddatli ijaradan daromadlar deganda mulkni bir yildan ko'p muddatga ijaraga berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Ushbu daromadning summasi tuzilgan lizing (ijara) shartnomasi asosida hisoblanadi. Hisoblangan daromad summasi 4830 "Olinadigan foizlar", 6230 "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar" schotlarining debetida va 9550 "Uzoq muddatli ijaradan daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar deganda uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar qiymatini oshirish natijasida vujudga kelgan daromadlar tushuniladi. Bunday daromadlar qayta baholash dalolatnomalari asosida hisoblanadi. Hisoblangan daromad summasi 0600 "Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar", 5800 "Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar"ning debetida va 9560 "Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning tahliliy hisobi ularning turlari va boshqa boshqaruv uchun zarur segmentlari bo'yicha 11-s jurnal-orderda olib boriladi.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlarida moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarning hisobi quyidagi schotlarda olib boriladi:

- **9610 «Foiz ko'rinishidagi xarajatlar»** - ushbu aktiv, vaqtinchalik (tranzit) schotning debetida va 6920. Hisoblangan foizlar» schotining kreditida yil mobaynida olingan qarzlar va kreditlarga doir hisoblangan xarajatlar aks ettiriladi.

- **9620 «Valutalar kurslari farqidan zararlar»** - ushbu aktiv, vaqtinchalik (tranzit) schotning debetida yil mobaynida balansning valuta moddalarini ifodalovchi schotlarga doir operatsiyalar bo'yicha kurslar o'rtasidagi salbiy farqdan ko'rilgan zararlar aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu zararlarni ifodalovchi schotlarning (4010, 4310, 5020, 5210, 5220, 6010, 6310 va boshqa schotlar) kreditida aks ettiriladi.

- **9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar"** - ushbu aktiv, vaqtinchalik (tranzit) schotning debetida yil mobaynida qurilish tashkiloti tomonidan aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va boshqa schotlarning (masalan, 1000, 5110, 5010, 6710, 6520, 6990) kreditida aks ettiriladi.

- **9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar"**- ushbu aktiv, vaqtinchalik (tranzit) schotning debetida yil mobaynida qurilish tashkilotining moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlari, masalan moliyaviy investitsiyalarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar va boshqa xarajatlar aks ettiriladi Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va boshqa schotlarning (0600, 5800, 6990) kreditida aks ettiriladi.

4. Soliqqacha foyda (Fst) yoki zarar (Zst). Bu ko'rsatkich quyidagicha topiladi:

Fst (Zst) = Fux (Zux) + Ff –Fz,

bu yerda: **Fd** –favquloddagi foyda; **Fz** – favquloddagi zararlar.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlarida favquloddagi daromadlarning hisobi 9710 "Favquloddagi foyda" schotining kreditida, favquloddagi zararlarning hisobi 9720 "Favquloddagi zararlar" schotining debetida hisobga olinadi. Favqulodda olingan yoki hisoblangan foydaning turlarini ko'rsatuvchi schotlar, masalan 0100, 0400, 0700, 1000, 2800, 2900 va boshqa schotlar debetlanadi. Favquloddagi hodisalardan ko'rilgan zararlarning aniq moddalarini ko'rsatuvchi schotlar, masalan, 0100, 0400, 0700, 1000, 2900 va boshqa schotlar kreditlanadi.

5. Sof foyda (sf) yoki sof qoplanmagan zararlar (SZ).

Sf (Sz) = Fst (Zst) –Ds – Aj,

bu yerda: **Ds** – daromaddan olinadigan soliqlar (foyda solig'i, infrastrukturani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi);

Aj – foydadan boshqa ajratmalar.

21-son BHMSga muvofiq qurilish tashkilotlarida hisobot yilning foydasi (zarari)ni topish barcha daromad va xarajatlarni 9900 «Yakuniy moliyaviy natija»" schotida aks ettirish va ushbu schotning debet va kredit aylanmalari summasini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Jumladan, daromadlarni aks ettiruvchi barcha schotlar (9010-9030, 9310-9390, 9510-9590, 9710)ning kreditida to'plangan summa yil oxirida 9900 «Yakuniy moliyaviy natija» schotning kreditiga, xarajatlarni aks ettiruvchi barcha schotlar (9110-9130, 9410-9440, 9610-9690, 9720)ning, shuningdek foydanning ishlatilishini aks ettiruvchi schotlar (9810-9820)ning debetida to'plangan summa yil oxirida 9900 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining debetiga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet 9010-9030, 9310-9390, 9510-9590, 9710 **Kredit** 9900;

Debet 9900 **Kredit** 9110-9130, 9410-9440, 9610-9690, 9720, 9800.

Qurilish tashkilotlarining hisobot yilida erishgan sof foydasi yil yakuni bilan hisobot yilning taqsimlamagan foydasini aks ettiruvchi schotga quyidagicha o'tkaziladi:

Debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»;

Kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)».

Qurilish tashkilotlarining hisobot yilida ko'rgan zarari yil yakuni bilan buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8710 «Hisobot darvining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija».

Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning tahliliy hisobi 15-s jurnal-orderda olib boriladi.

7.2. Qurilish tashkilotlarini soliqqa tortishning xususiyatlari va ularning hisobi

Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qurilish tashkilotlari tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra umumdavlat soliqlarini yoki ixchamlashtirilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadilar. Ixchamlashtirilgan yagona soliq rejimida faoliyat ko'rsatishi uchun, birinchi bobda ta'kidlanganidek, qurilish tashkilotlari kichik biznes subyektlariga kiritish mezonlari talablariga mos kelishi lozim. Kichik biznes subyektlariga kiruvchi qurilish tashkilotlari umumdavlat soliqlarini to'lovchilari sifatida ham faoliyat ko'rsatish huquqiga egadirlar.

Qurilish tashkilotlari to'laydigan umumdavlat soliqlarini buxgalteriya hisobi obyekti sifatida turlicha tasniflash mumkin (7.1-jadval).

7.1-jadval

Qurilish tashkiloti to'laydigan soliqlarning tavsifi

t/r	Soliqning nomi	Budjet turi	Bevosita / bilvosita-ligi	To'g'ri/ egri soliqligi	Olib boriladigan schotlarining turi
1.	QQS	Respublika	Bilvosita	Egri	Olinadigan schotlarni hisobga oluvchi schotlar
2.	Foyda solig'i	Respublika	Bevosita	To'g'ri	Daromadning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlari
3.	Mol-mulk solig'i	Mahalliy	Bevosita	To'g'ri	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar
4.	Yer solig'i	Mahalliy	Bevosita	To'g'ri	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar
5.	Suv solig'i	Respublika	Bevosita	To'g'ri	Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar
6.	Infrastruk-turani rivojlanti-rish solig'i	Mahalliy	Bevosita	To'g'ri	Daromadning ishlatili-shini hisobga oluvchi schotlar
7.	Dividend solig'i	Respublika	Bilvosita	Egri	Dividend bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schotlar
8.	Xodimlar daromadidan soliq	Respublika	Bilvosita	Egri	Ish haq bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schotlar

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qurilish tashkilotlari to'laydigan soliqlar bevosita va bilvosita yoki, mos ravishda, to'g'ri va egri soliqlarga, respublika budjetiga va mahalliy budjetga to'lanadigan soliqlarga, olinadigan schotlar, xarajatlar, daromadlarni ishlatilishi hamda xodimlar va ta'sischilar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schotlarga olib boriladigan soliqlarga bo'linadi.

Bevositalar soliqlar yoki to'g'ri soliqlar deganda qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan soliqlar tushuniladi. Ushbu soliqlar xarajatlarni ko'paytirish yoki olingan daromadning bir qismini undirish hisobidan pirovard natijada erishiladigan sof foyda summasini kamaytirishga olib keladigan soliqlar hisoblanadi. Davlatimiz soliq siyosati negizida bu soliq turlari yukini doimiy kamaytirib borish, ularning rag'batlantirish rolini oshirish yotadi.

Bilvositalar soliqlar yoki egri soliqlar deganda qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan soliqlar tushuniladi. Ushbu soliqlar sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar bahosi ustiga Budjet foydasi uchun qo'yiladigan ustamalardir. Dividend va xodimlar daromadlaridan undiriladigan soliqlarning egri soliqlar guruhiga kirishiga sabab shundaki, ular qurilish tashkilotlari xarajatlarini ko'paytirish yoki olingan sof foydani kamaytirishga olib kelmaydi. Qurilish tashkilotlari dividend va xodimlar daromadidan soliqlarni budjetga o'tkazib berishda beg'araz xizmat ko'rsatuvchilar bo'lib hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlarida bevosita va bilvosita soliqlarni hisob-kitob qilish, ularni budjetga o'tkazib berish respublikamiz Soliq kodeksida belgilangan umumiy tartiblarga asosan amalga oshiriladi. Shu bilan birga qurilish ishlarining uzoq muddatlarda olib borilishi, ularni bosh pudratchi va subpudratchilar tomonidan o'z kuchiari bilan hamda hamkorlikda bajarilishi, daromadning bosqichma-bosqich yoki yoppasiga topshirish usullaridan biri bo'yicha tan olinishi, shuningdek boshqa jihatlar ayrim soliqlarning hisob-kitob qilinishida o'ziga xos xususiyatlar borligidan darak beradi. Quyida qurilish tashkilotlarida QQS, daromad (foyda) solig'i va yagona soliq to'lovini hisob-kitob qilish hamda ularni hisobga olishdagi xususiyatlarga to'xtalamiz.

QQS hisob-kitobi va hisobi. Uzoq davom etadigan ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga

tushirish-sozlash kabi ishlarni bajaruvchi pudratchi tashkilotlarda QQS bo'yicha soliq solish obyekti bo'lib bajarilgan va buyurtmachilar tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob hujjatlariga kiritilgan ishlarning shartnomaviy narxlardagi qiymati hisoblanadi.

Qurilish ishlari pudratchi yoki subpudratchi tashkilotlar tomonidan pudratchi (subpudratchi) va buyurtmachilar taqdim etgan materiallar asosida bajarilganda, ushbu materiallarning qiymati kiritilgan holda bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi. Bunda qurilish ishlariga sarflangan moddiy resurslar bo'yicha to'langan QQSning summasi ishni bajargan pudratchi tashkilotlarda budjet oldidagi to'lovlarni kamaytirishga olib boriladi.

Pudratchi tashkilotlar subpudratchi tashkilotlarga moddiy-texnika resurslarini (qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur materiallar, konstruksiyalar, buyumlar, namunaviy asbob-uskunalar, apparaturalar, standartlashtirilmagan texnologik va energetik asbob-uskunalar, shu jumladan maxsus materiallarni) bir obyekt qurilishi doirasida sotganida, ularga QQSni kiritmasdan, qo'llanadigan narx va tariflardan kelib chiqqan holda sotiladigan moddiy-texnika resurslarining qiymati soliq solinadigan aylanma hisoblanadi.

Markazlashtirilgan manbalar (budjet pul mablag'lari, davlat budjeti tarkibida konsolidatsiyalanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari (budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari), hukumat qarorlari bilan belgilanadigan boshqa manbalar) hisobidan moliyalanadigan obyektlarni "ipidan ignasigacha" qurish chog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar obyekt foydalanishga topshirilishiga qadar pudratchining balansida qayd etiladi va pudratchida QQS bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilmaydi.

Tugallanmagan qurilish bo'yicha xarajatlar pudratchida obyektni loyihada nazarda tutilgan ishlarning barcha hajmini bajarish, shu jumladan maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlari, obyektni texnologik va muhandislik uskunalari bilan butlash bo'yicha foydalanishga topshirish dalolatnomasiga ko'ra QQS bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilishi kerak. Bunda, pudratchida tugallanmagan qurilish xarajatlari bo'yicha kamaytirishga olib boriladigan QQSning summasi bo'lib, ushbu xarajatlarni soliq solinadigan aylanmaga kiritilishi chog'ida schot-fakturalar bo'yicha olingan soliq summasi hisoblanadi.

Pudratchi tashkilotlarda bajarilgan va buyurtmachilarga topshirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keladigan QQS summasi belgilangan stavka (20 foiz) bo'yicha ikkita usulda quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

(1) - usul. Soliqqa tortiladigan aylanma QQSsiz belgilanganda:

Sqqs = Say x S / 100 (1)

bunda: **Sqqs** - buyurtmachilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

(2)-usul. Soliqqa tortiladigan aylanmada QQS ham hisobga olinganda:

Sqqs = Tq x S / (S + 100) (2)

bunda: **Tq** - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan qurilish ishlari qiymati.

Misol: *Bajarilgan va buyurtmachiga topshirilgan qurilish ishining qiymati bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumotnoma-schot-faktura bo'yicha QQS bilan birgalikda 240 mln. so'm, deylik.*

Ushbu misol bo'yicha sotishdan olingan QQS summasi (2)-formulaga asosan topiladi va u 40 mln. so'mni (240 * 20 % / 120 %) tashkil etadi. Bu holda bajarilgan qurilish ishining QQSsiz sotish qiymati 200 mln. so'mdan (240 - 40) iborat bo'ladi.

QQS summasi qurilish ishining QQSsiz sotish qiymatidan (1)-formula bo'yicha hisoblanganda ham 40 mln. so'mni (200 * 20% / 100 %) tashkil etadi.

Pudratchi tashkilotlarda bajarilgan qurilish ishlariga to'g'ri keladigan QQS summasi «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura»da alohida qatorda ko'rsatiladi. QQS summasi buyurtmachilardan olinadigan schotlarning jami summasiga kiritiladi. Hisoblangan QQS summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 4010 «Olinadigan schotlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Pudratchi tashkilotlarda budjetga to'lanadigan QQS summasi bajarilgan ishlarga to'g'ri keluvchi QQS summasidan ta'minotchilar (subpudratchilar)ga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar hamda schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasini ayirish yo'li bilan topiladi.

21-son BHMSga muvofiq ta'minotchilar (subpudratchilar)ga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar va schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasi hisobot davri mobaynida

4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'planadi. Bunda 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar», 6100 «Ajratilgan bo'linmalar, shuba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» schotlari kreditlanadi.

Hisobot davri tugagandan keyingi oyning 15 sanasigacha pudratchi tashkilotlar davlat soliq organlariga QQS hisob-kitobini belgilangan shaklda taqdim etishlari lozim. Ushbu hisob-kitob asosida 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'plangan summa kamaytirishga olib boriladi hamda unga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Oldingi hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan QQS summasining hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan soliq summasidan ortiq bo'lgan summasi vujudga kelgan hollarda ko'rsatilgan ortiqcha summa hisobot davridan keyingi davrda kamaytirishga olib boriladi. Kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi hisoblangan QQS summasidan ortiq bo'lganida, unda bunday ortiqcha summa (manfiy saldo) qurilish tashkilotiga uning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda qaytariladi. Bunda ushbu ortiqcha summa qurilish tashkilotining shaxsiy schotida ortiqcha to'lov sifatida emas, balki manfiy saldo sifatida hisobga olinadi. Ortiqcha to'langan QQS summasining qurilish tashkilotiga qaytarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Pudratchi tashkilotlarni Budjetga QQS bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Daromad (foyda) solig'i hisob-kitobi va uning hisobi. Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qurilish tashkilotlarida boshqa xo'jalik yuritish subyektlaridagi kabi daromad (foyda) solig'ini hisob-kitob qilish

uchun «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»da nomlari keltirilgan foyda (zarar) ko'rsatkichlaridan tashqari soliqqa tortish maqsadida yana ikkita quyidagi foyda ko'rsatkichi hisoblash yo'li bilan topiladi. Bular:

- **Soliqqa tortiladigan daromad (Std)**

$$Std = Fst\ (Zst) + Stx + Sbx + Bom - Gr - Schx - D - F,$$

bu yerda: **Stx** – soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar;
Sbx – hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar;
Schx – soliq bazasidan hisobot davrida chegiriladigan xarajatlar;
Bom – beg'araz olingan mulk;
Gr – olingan grant va subsidiyalar;
D – olingan dividendlar;
F – olingan foizlar

- **Soliqqa tortiladigan foyda (Stf)** – bu soliqqa tortiladigan daromaddan foyda (daromad) solig'ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foyda summasi, ya'ni :

$$Stf = Std - I,$$

bu yerda : **I** – imtiyoz sifatida soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar.

Soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar deganda «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga muvofiq moliyaviy natijalarni shakllantirishda soliqqacha foyda summasini kamaytirishga olib borilgan, hisobotda sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tarkibida aks ettirilgan xarajatlar (masalan, me'yordan ortiq ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, me'yordan ortiq vakillik xarajatlari, moddiy yordam va kompensatsiyalar, uyali aloqa xizmatlari xarajatlari, qurilish tashkilotining asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotish va boshqa chiqimlaridan ko'rilgan zararlar va boshqalar) tushuniladi. Bunday xarajatlarning to'liq ro'yxati Soliq Kodeksning 147-moddasida keltirilgan. Soliq qonunchiliga asosan qurilish tashkilotlari soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq mustaqil

hisoblashlari, ularning summasini foyda (daromad) solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar deganda 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schotda aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Ushbu xarajatlar foyda (daromad) solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi.

Soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar deganda Soliq Kodeksning 146-moddasiga muvofiq o'tgan hisobot yilida soliq bazasidan chegirilmagan, lekin keyingi hisobot davridan boshlab 10 yil muddat mobaynida soliq bazasidan chegirilib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Soliq qonunchiligi hujjatlariga asosan qurilish tashkilotlari soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlarni Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq maxsus hisob-kitob yordamida mustaqil hisoblashlari va ma'lumotnoma bilan tasdiqlashlari, ularning summasini foyda (daromad) solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Beg'araz olingan mulk deganda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan haqi to'lanmaslik sharti bilan olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatishga mo'ljallangan jihozlar, materiallar) tushuniladi.

Grantlar deganda qurilish tashkilotiga davlat (xukumat) hamda nodavlat, chet el, xalqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun berilgan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi tushuniladi. Grant mablag'lari qat'i belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.

Olingan dividendlar va foizlar Soliq qonunchiligiga muvofiq alohida 10 foizlik dividend solig'iga tortilishi munosabati bilan foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadi. Shuning uchun ularning summalari foyda (daromad) solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi. Ushbu daromadlardan dividend solig'ini undirilganligi to'g'risida ma'lumotlar ularni bergan yuridik shaxslarning ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanishi lozim.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar sifatida soliqqa tortiladigan daromad summasidan chegirib tashlanadigan xarajatlarning turlari, imtiyoz me'yorlari Soliq kodeksi va foyda solig'ini hisoblash va to'lash bo'yicha yo'riqnomada ochib berilgan.

Foyda solig'i (Nf) summasi korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi summasini **(Stf)** soliq me'yoriga **(Sm)** ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi, ya'ni:

$$Nf = Stf * Sm : 100\%$$

Hisob-kitob asosida hisoblangan foyda summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9810 «Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Pudratchi tashkilotlarni Budjetga foyda solig'i bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi va hisobi. Mikrofirma va kichik korxonalar maqomidagi qurilish tashkilotlari uchun yagona soliq to'lovi yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash o'rniga joriy etilgan. Ushbu soliqni to'lovchi qurilish tashkilotlarida materiallar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinganda ta'minotchi va subpudratchi tashkilotlarga to'langan QQS summasi material boyliklar (ishlar, xizmatlar) qiymatiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi qurilish tashkilotlari ixtiyoriy tarzda ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga navbatdagi chorak boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmay, yangi barpo etilayotgan mikro va kichik korxona maqomidagi qurilish tashkilotlari esa - faoliyatni amalga oshirishni boshlashga qadar topshiriladigan ariza asosida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari mumkin. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bosh tortish navbatdagi yil boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmasdan ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan ariza asosida navbatdagi yilning boshidangina amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash obyekti bo'lib qurilish tashkilotlarining barcha faoliyat turlaridan olgan yalpi tushumi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi summasi yalpi tushum summasini ushbu soliqning belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Bunda, ixtiyoriy tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi Budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, biroq yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdoriga kamayadi.

Yagona soliq to'loviga tortiladigan yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. O'z kuchlari bilan bajarilgan qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv ishlarining hajmi.

2. Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar, ya'ni: a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, peniyalar, neustoykalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari; b) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar daromadlari; v) renta daromadi, qurilish tashkiloti huzuridagi oshxonalardan tushumlar, boshqa xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tushumlar; g) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotishdan daromadlar; d) kreditorlik va deponentlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar; e) tovar-moddiy boyliklarini qo'shimcha baholash; j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan, tekinga olingan mol-mulk; z) qisqa muddatli ijaradan daromadlar; i) ilgari chiqarib tashlangan xarajatlarni qoplash tariqasida olingan daromadlardan tashqari boshqa operatsion daromadlar;

3. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, ya'ni: a) olingan royalti va kapital transferti; b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar; v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja); g) chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar (musbat va manfiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo), bunda manfiy kurs farqi summasi musbat kurs farqi summasidan oshib ketgan holda oshib ketish summasi yagona soliq to'lovini hisoblab chiqayotganda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi; d) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar; e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar;

4. Favqulodda daromadlar.

Soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushumdan chiqarib tashlanadi:

a) ixtyoriy ravishda o'z arizasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

b) davlat subsidiyalari summasi;

v) davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

g) to'lov manbaida soliq to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatlar (ma'lumotnoma) mavjudligida dividendlar va foizlar.

Yagona soliq to'lovi har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisob-kitobni topshirish muddatidan kechiktirmay to'lanadi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schotida yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Pudratchi tashkilotlarni budjetga yagona soliq to'lovi bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

7.3. Qurilish tashkilotlarida majburiy ajratmalar, yig'imlar va ushlanmalarning hisobi

Umumdavlat soliqlarini to'lovchi qurilish tashkilotlari soliq to'lovlaridan tashqari davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga turli ajratma va ushlanmalarni amalga oshiradilar (7.2-jadval).

7.2-jadval

Qurilish tashkilotlarining 2010 - yilda to'laydigan majburiy ajratmalari, ushlanmalari va to'lovlari

Maqsadli fondlar turi	Majburiy ajratma turi		Majburiy ushlanma va to'lov turlari	
	ajratma bazasi	stavka	ushlanma (to'lov) bazasi	stavka
Pensiya fondi	1. Bajarilgan ishlardan olingan sof tushum 2. Hisoblangan ish haqi fondi	1,0 % 25,0 %	1. Hisoblangan ish haqi fondi	4,0 %
Yo'l fondi	1. Bajarilgan ishlardan olingan sof tushum	1,5 %	1. Sotib olingan avtotransportning xarid qiymatidan[1] a) yengil avtomobillar bo'yicha b) yuk tashish mashinalari va avtobuslar bo'yicha	 Eng kamida 6 % Eng kamida 20 %
Maktab ta'limini rivojlantirish fondi	1. Bajarilgan ishlardan olingan sof tushum	1 %		

[1]Avtomobillarning foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan belgilangan foizda hisoblangan summadan kichik bo'lgan taqdirda

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning hisob-kitoblari tasdiqlangan shakllarda tuziladi va belgilangan muddatlarda davlat soliq idoralariga taqdim etiladi. Ushbu hisob-kitob ma'lumotlari davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi.

Pensiya fondi, Respublika yo'l fondi va maktab ta'limini rivojlantirish fondiga bajarilgan ishlardan olingan sof tushumga nisbatan mos ravishda belgilangan stavkalarda hisoblangan majburiy ajratmalar summasi hisobot oyida hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Pensiya fondiga hisobot davrida hisoblangan ish haqi fondiga nisbatan belgilangan stavkada hisoblangan majburiy ajratma summasi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet Xarajat schotlari (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9210, 0810) ;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Xodimlarga hisoblangan ish haqidan pensiya fondiga 4 foizlik stavkada majburiy ushlanmaning ushlab qolinishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6710 «Xodim bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Respublika yo'l fondiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari uchun to'langan majburiy yig'im summasi 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq ularning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi va hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0820 «Asosiy vositalarni sotib olish»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning o'tkazib berilishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Yagona soliq to'lovi rejimida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish tashkilotlari yuqorida nomlari keltirilgan majburiy ajratmalarning to'lovchilari hisoblanmaydilar.

Tayanch iboralar

Qurilishda sotishdan olingan foyda (zarar) – bajarilgan ishlardan olingan sof tushum va ularning sotish tapnnarxi o'rtasidagi farq summasi.

Qurilishda davr xarajatlari - qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarni sotish, ma'muriy-boshqarish va boshqa operatsion faoliyatga doir xarajatlar.

Qurilishda asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar – qurilish tashkilotlarining asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, materiallarini sotishdan foyda, undirilgan jarimalar, voz kechilgan kreditorlik qarzlari, qisqa muddatli ijaradan daromadlar, beg'araz qaytarilmaydigan moliyaviy yordam, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar daromadlari, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar, o'tgan yillarning foydasi kabi daromadlar (foyda)ning majmuasi.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) – asosiy faoliyatdan olingan foyda va boshqa daromadlar yig'indisidan davr xarajatlari summasini ayirishdan keyin qolgan summa.

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) – asosiy faoliyatdan olingan foyda va moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar yig'indisidan moliyaviy faoliyatga doir xarajatlari summasini ayirishdan keyin qolgan summa.

Soliqqacha foyda (zarar) – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda va favquloddagi foyda yig'indisidan favquloddagi zararlar summasini ayirishdan keyin qolgan summa.

Sof foyda (zarar) – soliqqacha foyda summasidan foydadan (daromaddan) undiriladigan soliqlar summasini ayirishdan keyin qolgan summa.

Royalti ko'rinishidagi daromadlar – qurilish tashkilotlarining nomoddiy aktivlarini, masalan qurilish bo'yicha loyihalar, me'yor va tartiblar (standartlar to'plami), litsentziyalar va boshqalarni ijaraga berishdan va hamkorlikda foydalanishdan olingan daromadlar.

Dividendlar – qurilish tashkilotining aksiyalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalari uchun hisoblangan daromad.

Foizlar ko'rinishidagi daromadlar - qurilish tashkilotining boshqa yuridik shaxslarga bergan qarzlari va kreditlari uchun hisoblangan foizlar.

Valutalar kurslari farqidan daromadlar - qurilish tashkilotining valuta schotida saqlanayotgan chet valutasi va chet el valutasidagi debitorlik qarzlar bo'yicha hisoblangan ijobiy kurslar farqi.

Uzoq muddatli ijaradan daromadlar - mulkni bir yildan ko'p muddatga ijaraga berishdan olingan daromadlar tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar – uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar qiymatini oshirish natijasida vujudga kelgan daromadlar.

Foiz ko'rinishidagi xarajatlar - yil mobaynida olingan qarzlar va kreditlarga doir hisoblangan xarajatlar.

Valutalar kurslari farqidan zararlar - yil mobaynida balansning valuta moddalarini ifodalovchi schotlarga doir operatsiyalar bo'yicha kurslar o'rtasidagi salbiy farqdan ko'rilgan zararlar.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar - yil mobaynida qurilish tashkiloti tomonidan aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar - aktiv yil mobaynida qurilish tashkilotining moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlari, masalan moliyaviy investitsiyalarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar va boshqa xarajatlar.

Bevosita soliqlar yoki to'g'ri soliqlar - qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, ya'ni xarajatlar ko'payishiga yoki olingan daromadning bir qismini undirish hisobidan pirovard natijada erishiladigan sof foyda summasini kamaytirishga olib keladigan soliqlar.

Bilvosita soliqlar yoki egri soliqlar – qurilish tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmaydigan, ya'ni sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar bahosi ustiga budjet foydasi uchun qo'yiladigan soliqlar.

Soliqqa tortiladigan foyda – soliqqa tortiladigan daromaddan foyda solig'ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foyda summasi.

Beg'araz olingan mulk - bu boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan haqi to'lanmaslik sharti bilan olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatishga mo'ljallangan jihozlar, materiallar).

Grantlar – qurilish tashkilotiga davlat (hukumat) hamda nodavlat, chet el, xalqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun berilgan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi.

Yagona soliq to'lovi – mikrofirma va kichik korxonalar maqomidagi qurilish tashkilotlari uchun barcha turdagi boshqa soliqlar, shuningdek

budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash o'rniga joriy etilgan soddalashtirilgan soliq.

Majburiy ajratmalar - Pensiya fondi, Respublika yo'l fondi va Maktab ta'limini rivojlantirish fondiga bajarilgan ishlardan olingan sof tushumga nisbatan mos ravishda belgilangan stavkalarda hisoblanadigan majburiy ajratmalar.

Majburiy ushlanmalar – Pensiya fondi hisoblangan ish haqi fondining qonun hujjatlarida belgilangan qismiga nisbatan belgilangan stavkalarda hisoblanadigan majburiy ushlanma summasi.

Qurilish tashkilotining hisobot davrida bajargan ish hajmi 600 mln. so'm (QQS bilan). Ta'minotchilarga to'langan QQS summasi 60 mln. so'm. Sotish tannarxi – 400 mln. so'm, davr xarajatlari – 70 mln. so'm, shundan soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar - 10 mln. so'm, olingan dividendlar (dividend solig'i ushlangan) – 1 mln. so'm, to'langan foizlar 2 mln. so'm, favquloddagi zararlar 4 mln. so'm, beg'araz olingan mulk - 5 mln.so'm. Foyda solig'i stavkasi – 10%.

Nazorat uchun test savol – javoblari

Ushbu xo'jalik situatsiyasida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1. Bajarilgan ishga to'g'ri keladigan QQS summasi teng:

a) 120 mln. so'm;
b) 100 mln. so'm;
v) 80 mln. so'm;
g) 83,3 mln. so'm.

2. Budjetga to'lanadigan QQS summasi teng:

a) 40 mln. so'm;
b) 60 mln. so'm;
v) 20 mln. so'm;
g) 20,3 mln. so'm.

3. Sotishdan olingan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9030 Kredit 6410 100 mln. so'mga;
b) Debet 4010 Kredit 6410 100 mln. so'mga;
v) Debet 4010 Kredit 6410 120 mln. so'mga;
g) Debet 9030 Kredit 6410 120 mln. so'mga.

4. Ta'minotchilarga to'lagan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 6410 Kredit 5110 100 mln. so'mga;
b) Debet 4410 Kredit 6010 60 mln. so'mga;
v) Debet 4410 Kredit 6410 60 mln. so'mga;
g) Debet 6410 Kredit 5110 40 mln. so'mga.

5. Kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 6410 Kredit 4410 40 mln. so'mga;
b) Debet 6410 Kredit 4410 60 mln. so'mga;
v) Debet 6410 Kredit 5110 60 mln. so'mga;
g) Debet 6410 Kredit 4410 20 mln. so'mga.

6. Qurilish tashkilotining sof tushumi teng:

a) 600 mln. so'mga;
b) 500 mln. so'mga;
v) 100 mln. so'mga;
g) 400 mln. so'mga.

7. Qurilish tashkilotining sotishdan olgan foydasi teng:

a) 600 mln. so'mga;
b) 500 mln. so'mga;
v) 100 mln. so'mga;
g) 400 mln. so'mga.

8. Qurilish tashkilotining asosiy faoliyatdan olgan foydasi teng:

a) 30 mln. so'mga;
b) 35 mln. so'mga;
v) 36 mln. so'mga;
g) 34 mln. so'mga.

9. Qurilish tashkilotining umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi teng:

a) 30 mln. so'mga;
b) 35 mln. so'mga;
v) 36 mln. so'mga;
g) 34 mln. so'mga.

10. Qurilish tashkilotining soliqqacha foydasi teng:

a) 30 mln. so'mga;
b) 35 mln. so'mga;
v) 36 mln. so'mga;
g) 34 mln. so'mga.

11. Qurilish tashkilotida soliqqa tortiladigan foyda summasi teng:
a) 39 mln. so'mga;
b) 40 mln. so'mga;
v) 43 mln. so'mga;
g) 30 mln. so'mga.

12. Qurilish tashkilotida foyda solig'i summasi teng:
a) 3,9 mln. so'mga;
b) 4,3 mln. so'mga;
v) 4,4 mln. so'mga;
g) 4,0 mln. so'mga.

13. Budjetga to'lanadigan foyda solig'i summasi aks ettiriladi:
a) Debet 9810 Kredit 6410 3,9 mln. so'mga;
b) Debet 9810 Kredit 6410 4,3 mln. so'mga;
v) Debet 9810 Kredit 6410 4,4 mln. so'mga;
g) Debet 9810 Kredit 6410 4,0 mln. so'mga.

14. Qurilish tashkilotining yo'l fondiga 1,5 foizlik ajratmasi summasi teng:
a) 9 mln. so'm;
b) 7,5 mln. so'm;
v) 6,0 mln. so'm;
g) 1,5 mln. so'm..

15. Qurilish tashkilotining pensiya fondiga 1 foizlik ajratmasi summasi teng:
a) 4,2 mln. so'mga;
b) 3,5 mln. so'mga;
v) 2,8 mln. so'mga;
g) 5,0 mln. so'mga.

16. Qurilish tashkilotining maktab ta'limini rivojlantirish fondiga 1,0 foizlik ajratmasi summasi teng:
a) 6 mln. so'mga;
b) 5,0 mln. so'mga;
v) 4,0 mln. so'mga;
g) 1,0 mln. so'mga.

17. Qurilish tashkilotida 9300 «Boshqa operatsion daromadlar» schotida aks ettiriladi:
a) 5 mln. so'm;

b) 6 mln. so'm;
v) 4 mln. so'm;
g) 1 mln. so'm.

18. Qurilish tashkilotida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining kredit aylanma summasi teng:

a) 500 mln. so'mga;
b) 501 mln. so'mga;
v) 506 mln so'mga;
g) 504 mln. so'mga.

19. Qurilish tashkilotida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet aylanma summasi teng:

a) 400 mln. so'mga;
b) 470 mln. so'mga;
v) 480 mln. so'mga
g) 472 mln. so'mga.

20. Qurilish tashkilotining hisobot yili sof foydasi aks ettiriladi:

a) Debet 9910 Kredit 8710 28 mln. so'mga;
b) Debet 9910 Kredit 8710 26 mln. so'mga;
v) Debet 9910 Kredit 8710 24 mln. so'mga
g) Debet 9910 Kredit 8710 25 mln. so'mga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnoma. O'zR AV tomonidan 2003- yil 29 - aprelda ro'yxatga olingan, № 1238 (keyingi o'zgartirishlar bilan).

6. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR AV tomonidan 1998- yil 26- avgustda ro'yxatga olingan, № 484.
7. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002- yil 23- oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.
8. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: Moliya, 2002.
9. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.
10. To'laxo'jayeva M.M. va boshqalar. Moliyaviy hisob. – Toshkent, Pragma korporatsiyasi, 2004.
11. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.
12. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

8-bob. QURILISH TASHKILOTLARIDA HISOBOT

8.1. Qurilish tashkilotlarida hisobotlarning turlari va ularni taqdim etish muddatlari

Qurilish tashkilotlarida, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari, hisob jarayonining yakuniy bosqichi moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hisoblanadi. Ushbu hisobotlar respublikamizda milliy valutada ming so'm birligida tuziladi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risida qonun (16-modda)ga muvofiq qurilish tashkilotlarining moliyaviy hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
- asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot;
- pul oqimlari to'g'risida hisobot;
- xususiy kapital to'g'risida hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Kichik biznes subyektlari hisoblangan qurilish tashkilotlariga moliyaviy hisobotni ixchamlashtirilgan tarzda tuzish va taqdim etishga ruxsat etiladi. Ushbu ixchamlashtirilgan moliyaviy hisobot o'z ichiga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot hamda izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarni oladi.

Qurilish tashkilotlarida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlaridagidek hisobot davri bo'lib taqvim yilning 1- yanvaridan 31- dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Taqvim yilining 1-oktabridan keyin davlat ro'yxatidan o'tgan qurilish tashkilotlari uchun birinchi hisobot yili davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan kelgusi yilning 31-dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda yuz bergan xo'jalik jarayonlari birinchi hisobot yiliga doir, deb tan olinadi va mos ravishda shu davrning moliyaviy hisobotiga kiritiladi.

Qurilish tashkilotlarining moliyaviy hisoboti quyidagilarga majburiy tarzda taqdim etiladi: soliq idoralariga; ta'sis hujjatlariga muvofiq mulk egalariga; davlat statistika organlariga; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari ularning tashkiliy-huquqiy maqomiga bog'liq. Chunonchi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qurilish tashkilotlari faqat yillik moliyaviy hisobotni tuzadilar va uni keyingi yilning 25- martigacha taqdim etadilar. Aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati

cheklangan jamiyat va xususiy korxonalar maqomidagi qurilish tashkilotlari yillik moliyaviy hisobotni keyingi yilning 15- fevraligacha taqdim etishlari lozim.

Kichik biznes subyektlariga kiruvchi qurilish tashkilotlari moliyaviy hisobotni faqat hisobot yili yakuni bo'yicha taqdim etadilar. Ushbu maqomga ega bo'lmagan boshqa turdagi tashkilotlar (xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalardan tashqari) yillik hisobotdan tashqari choraklik hisobotlarni ham tuzishlari va ularni choraklikdan keyingi oyning 25-sanasigacha tegishli organlarga taqdim etishlari kerak.

Qurilish tashkilotlari ularning maqomi va tashkiliy shakllariga qarab moliyaviy hisobotdan tashqari turli statistika hisobotlarini ham tuzadilar. Chunonchi, kichik biznes subyektlari hisoblangan qurilish tashkilotlari har chorakda 1-MB shaklda «Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti»ni tuzishlari va statistika organlariga taqdim etishlari lozim.

8.1-jadval

Kapital qurilishdagi statistik hisobotning birxillashtirilgan shakllari ro'yxati

T/r	Statistika hisoboti shakllarining nomi	Shaklning tartib raqami	Davriy - ligi	Kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar
1.	Yakka tartibda qurilgan uy-joy binolarini ishga tushirish to'g'risida hisobot	1-YATUJQ	yillik	Sobiq shakli saqlanib qoladi
2.	Ijtimoiy soha obyektlarining ishga tushirilishi va qurilish ishlarining bajarilishi to'g'risida hisobot	1-KS	yillik	Shakllar mazmuni O'z R Prezidentining 2003-yil 6-maydagi 3240-son Farmoniga va Farmonni bajarish yuzasidan qabul qilingan Hukumat qarorlariga muvofiq to'ldiriladi
3.	Qurilish ishlarining bajarilishi to'g'risida hisobot	1-KS	oylik	
4.	Loyiha-qidiruv ishlari qiymati to'g'risida hisobot	4-KS	yillik	
5.	Tugallanmagan qurilishlar ahvoli to'g'risida hisobot	8-KS	yillik	
6.	Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar to'g'risida hisobot	18-KS	yillik	
7.	Xarid qilingan asosiy qurilish materiallari, qismlar, konstruksiyalar va uskunalar narxi to'g'risida hisobot	9-KS	oylik	Yangidan kiritilgan (moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalari hisobiga qurilayotgan obyektlar bo'yicha taqdim etiladi)
8.	Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risida ma'lumotnoma – schot-faktura		oylik	2-KS va 3-KS shakllar o'rniga yangidan kiritilgan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-sentyabrda qabul qilingan «Qurilish sohasida hisobotni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 409-son qarori bilan qurilish tashkilotlari uchun statistika hisobotlarining birxillashtiriladigan va qisqartiriladigan shakllarining yangi ro'yxati, ularni tuzish va taqdim etish muddatlari tasdiqlangan. Ushbu statistika hisobotlarining birxillashtirilgan ayrim shakllarining ro'yxati 8.1-jadvalda keltirilgan.

Qurilish tashkilotlarida yuqorida keltirilgan jadvaldagi statistika hisobotlarini tuzish buxgalteriyaga yuklatiladi. Ularni tuzishga asos bo'lib bajarilgan ishlar, ularga ketgan sarf-xarajatlar, sotib olingan materiallar, konstruksiyalar, uskunalarga guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar, Shuningdek hisob registrlari ma'lumotlari hisoblanadi.

8.2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlari

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyruq bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish bo'yicha tartib»ga asoslaniladi. Quyida ushbu tartibga asoslanilgan holda moliyaviy hisobot shakllarining alohida moddalarini to'lg'azish xususiyatlariga to'xtalamiz.

Buxgalteriya balansi (1-shakl)

Asosiy vositalar nomli 012-satrda qurilish tashkilotlari balansida bo'lgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati aks ettiriladi. Ushbu satrda, chunonchi quyidagilar ko'rsatiladi:

- asosiy vositalarning mos ravishda boshlang'ich qiymatini hamda jamlangan eskirishini aks ettiruvchi schotlar (0110-0199 va 0210-0290)ning davr oxiridagi qoldiqlari summalarining farqi;
- belgilangan tartibga ko'ra asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarning, chunonchi lizing bo'yicha sotib olinadigan qurilish mashinalari va uskunalarining qoldiq qiymati (mos ravishda 0310 va 0299 schotlar qoldiqlari o'rtasidagi farq summasi);
- titulli vaqtinchalik bino va inshootlarning qoldiq qiymati. Ushbu aktivlarga kiruvchi bino va inshootlarning ro'yxati, ularning boshlang'ich qiymati, jamlangan eskirish summasi va qoldiq qiymati qurilish tashkiloti hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim, jumladan, ularning qoldiq

qiymati mos ravishda 0120 va 0220 schotlar tarkibida ochiladigan tahliliy schotlar qoldiqlari farqi summasidan iborat bo'lishi kerak.

Kapital qo'yilmalar nomli 100-satrda qurilish tashkilotlarining o'z maqsadlarida xo'jalik yoki pudrat usullarida olib borgan tugallanmagan kapital investitsiyalarining qiymati ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari nomli 150-satrda omborlarda (qurilish maydonchalarida) saqlanayotgan qurilish materiallari, konstruksiyalar, detallar, o'rnatiladigan jihozlarning hisob siyosatida belgilangan hisob baholaridagi qiymati aks ettiriladi. Ushbu satr summasi 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochilgan barcha schotlar qoldiqlarining yig'indisiga, shuningdek barcha moddiy javobgar shaxslarning hisobot davri oxiriga tuzgan material hisoboti (M-19-shakl) qoldiqlari yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Agar materiallarni sotib olish va tayyorlash alohida olingan 1510 schotda, ular qiymatidagi farqlar maxsus 1610 schotda yuritilgan bo'lsa, ushbu schotlarning qoldiqlari mos ravishda balansning bu satri summasida hisobga olinishi kerak.

Tayyor mahsulotlar nomli 170-satrda sotish uchun ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar (eshik, deraza, g'isht, detal, moslamalar va boshqa shu kabi mahsulotlar)ning haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

Kelgusi davr xarajatlari nomli 190-satrda qurilish tashkilotlarining hisobot davrida bajarilgan ishlar tannarxi va davr xarajatlariga tegishli bo'lmagan xarajatlari aks ettiriladi. Ushbu satrda qurilish tashkilotlari o'zlarining quyidagi xarajatlarini aks ettiradi:

- kelgusi davrda bajariladigan ishlar uchun olingan ruxsatnoma (litsenziya) to'lovlari;
- kelgusida joriy etilishi mumkin bo'lgan loyihalarni ishlab chiqarishga doir xarajatlar;
- kelgusi yilda chop etiladigan maxsus me'yoriy-texnik adabiyotlar uchun qilingan sarflar;
- kelgusi yil uchun o'tkazib qo'yilgan ijara to'lovlari;
- mavsumiy xarakterga ega bo'lgan ishlar uchun oldindan to'lovlar, chunonchi, qurilish mashinalari va uskunalarini konservatsiya qilish xarajatlari;
- yangi qurilish uchun kadrlarni jalb etish va tayyorlash xarajatlari;
- oldindan hisoblangan mehnat ta'tili xarajatlari;
- kelgusi yil uchun gazeta va jurnallar obunasi uchun to'lovlar;
- boshqa kelgusi davr xarajatlari.

Jami debitorlik qarzlar nomli 210-satrda qurilish tashkilotiga hisobot davri oxiriga qarzdor shaxslarning jami qarzlari ko'rsatiladi. Jami debitorlik qarzlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (220, 240, 250, 260, 270, 290, 300, 310) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib debitorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) nomli 450-satrda qurilish tashkilotining yil oxiridagi jami taqsimlamagan foydasi (qoplanmagan zarari) ko'rsatiladi. Ushbu summa o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va hisobot yilning sof foydasi (qoplanmagan zarari) summalaridan tashkil topadi. Qoplanmagan zararlar balansning ushbu satrida minus ishorasi bilan ko'rsatiladi.

Maqsadli tushumlar nomli 460-satrda qurilish tashkilotining turli maqsadlarda olingan grantlari, dotatsiyalari, subsidiyalari hamda soliqlar bo'yicha maqsadli imtiyozlar summalari aks ettiriladi.

Jami uzoq muddatli majburiyatlar nomli 490-satrda qurilish tashkilotlarining bir yildan ko'p muddatga olgan kreditlari va qarzlari bo'yicha majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami uzoq muddatli majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (500-590) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

Jami joriy majburiyatlar nomli 600-satrda qurilish tashkilotlarining bir yildan kam bo'lgan muddatga olgan kreditlari, qarzlari va boshqa majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami joriy majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (610-760) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib joriy kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

Qurilish tashkilotlari balans valutasining jami summasi aktivda va passivda alohida satrlarda (mos ravishda 390-satr va 780-satr) ko'rsatiladi.

Qurilish tashkilotlarining o'zlariga tegishli bo'lmagan aktivlar va passivlar balansda «Balansdan tashqari schotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot»da 790-920-satrlarda ko'rsatiladi. Bunday aktiv va passivlarga, chunonchi quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar (790-satr);
- qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (810-satr);
- o'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (830-satr);
- ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (890-satr);
- kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (900-satr);
- vaqtinchalik soliq imtiyozlari (910-satr);
- foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (920-satr).

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl)

Ushbu hisobotning asosiy maqsadi qurilish tashkilotlarining hisobot davrlaridagi daromadlari, xarajatlari, foyda va zararlari to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish hisoblanadi. Chunonchi, bunday ma'lumotlar hisobotda mos ravishda o'tgan yilning va hisobot yilning mos davrlari uchun ko'rsatiladi. Bu tartib mos hisobot davrlardagi o'zgarishlar tendensiyalarini o'rganish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tuzishga asos, qurilish tashkilotlarining barcha daromadlari va xarajatlari, foyda, uni ishlatilishi hisobi uchun mo'ljallangan vaqtinchalik (tranzit) schotlarning ma'lumotlari hisoblanadi. Hisobotning alohida satrlari quyidagi tartibda shakllantiriladi.

Satr kodi	Satr nomi	Satrni to'ldirish tartibi
010	Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan sof tushum	Bajarilgan qurilish ishlari, tayyor mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum hisobi uchun mo'ljallangan 9010,9030 schotlarning kredit aylanmasi summalari yig'indisidan qaytarilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) summalarini, berilgan chegirmalar summalarini (9040 va 9050-schotlarning debet aylanmasi summalari) ayirish orqali topiladi va daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi.
020	Sotilgan mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larning tannarxi	Bajarilgan qurilish ishlari va sotilgan mahsulotlar tannarxi hisobi uchun mo'ljallangan 9110,9130, 9140, 9150 schotlarning debet aylanmasi summalari yig'indisi xarajatlar ustunchasida ko'r-satiladi.
030	**Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)**	**010 va 020-satrlar summalarining farqi yoziladi. Ijobiy farq olingan foydani ko'rsatadi va u daromadlar ustunchasiga yoziladi. Salbiy farq sotishdan ko'rilgan zararni ifodalaydi va u xarajatlar ustunchasiga yoziladi.**
040	**Davr xarajatlari, jami**	**050, 060, 070, 080- satrlarning summalari yig'indisi ko'rsatiladi**
	Shu jumladan:	
050	Sotish xarajatlari	Sotish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9410 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi

060	Ma'muriy xarajatlar	Ma'muriy xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9420 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
070	Boshqa operatsion xarajatlar	Boshqa operatsion xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9430 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
080	Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	Kelgusida soliqqaa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9440 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
090	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	Asosiy faoliyatga doir boshqa daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9310 – 9390 schotlarning kredit aylanma summalari yig'indisi daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi
100	**Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)**	**030 satr – 040 satr Q 090 satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi**
110	**Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami**	**120, 130, 140, 150, 160-satrlar summalarining yig'indisi**
	Shu jumladan:	
120	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9520 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
130	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9530 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
140	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9550 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
150	Valuta kursi farqidan daromadlar	Valuta kursi farqidan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9540 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi uchun mo'ljallangan 9510, 9560, 9590 schotlarning kredit aylanma summalari yig'indisi daromadlar ustunchasiga yoziladi
170	**Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar**	**180, 190, 200, 210 satrlar summalarining yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi**
	Shu jumladan:	
180	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi

190	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
200	Valuta kursi farqidan zararlar	Valuta kursi farqidan zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9620- schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
210	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9630, 9690 schotlarning debet aylanma summalari yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
220	**Umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari)**	**100–satr+110-satr–170-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi**
230	Favquloddagi foyda va zararlar	Favquloddagi foyda hisobi uchun mo'ljallangan 9710 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga va favquloddagi zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9720 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
240	**Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)**	**220-satr (+ -) 230-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi**
250	Foyda solig'i	Foyda solig'i foydani ishlatilishi hisobi uchun mo'ljallangan 9810 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
260	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar hisobi uchun mo'ljallangan 9820,9830 schotlarning debet aylanma summalari xarajatlar ustunchasiga yoziladi
270	**Hisobot davrining sof foydasi (zarari)**	**240 –satr – 250-satr – 260-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi**

Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot (3-shakl)

Bu hisobotning asosiy maqsadi – qurilish tashkiloti asosiy vositalari, shuningdek ular eskirishining holati va harakati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni berish. Hisobot 12 ta ustunchadan iborat, uning 1 va 2-ustunchalarida asosiy vositalarni guruhlarining nomi va satr raqamlari ko'rsatiladi. 3, 4, 5, 6-ustunchalarida asosiy vositalar davr boshidagi qoldig'i, hisobot davridagi kirimi va chiqimi, davr oxiridagi qoldig'ining summalari boshlang'ich qiymat bo'yicha ko'rsatiladi. Hisobotning 7, 8, 9, 1-satrlari asosiy vositalar bo'yicha jamlangan eskirishning davr

boshidagi qoldig'i, uning hisobot davridagi ko'payishi va kamayishi, davr oxiridagi qoldig'i summalarini ko'rsatishga mo'ljallangan.

Hisobotning 11 va 12-satrlarida mos ravishda yil boshiga va yil oxiriga asosiy vositalarning qoldiq qiymat ko'rsatiladi. Hisobotning 010-satridan to 160-satrigacha yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosiy vositalarning alohida guruhlari bo'yicha beriladi. 170-satrda ushbu ma'lumotlar barcha asosiy vositalar bo'yicha jamlab ko'rsatiladi. Hisobotning 171- va 172-satrlarida qurilish tashkilotlari asosiy vositalarining holati va harakatiga doir ma'lumotlar ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ko'ra guruhlanib ko'rsatiladi.

Hisobotda asosiy vositalarga sarflangan keyingi investitsiyalar, shu jumladan tugallanmagan qurilish to'g'risidagi axborotlar ham ma'lumot tariqasida keltiriladi (180,181,182,183,190-satrlar).

Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobotni tuzishga asos bo'lib 0100 «Asosiy vositalar hisobi schotlari», 0200 «Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schotlari», 0300 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar hisobi schotlari», 0800 «Kapital quyilmalar hisobi schotlari»ining ma'lumotlari hisoblanadi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot (4-shakl)

Hisobotning asosiy maqsadi bo'lib qurilish tashkiloti hisobot davrida yuz bergan pul oqimlari (kirim va chiqim), shuningdek pul mablag'larining davr boshi va oxiridagi holati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish hisoblanadi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot ikki bo'limdan iborat. Uning birinchi bo'limida milliy valutadagi pul mablag'larining holati va harakati, ikkinchi bo'limida esa chet el valutasidagi pul mablag'larining holati va harakati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy e'lon qilgan kursi bo'yicha milliy valutada aks ettiriladi.

Hisobotda pul oqimlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar qurilish tashkiloti pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi faoliyat turlari bo'yicha ifoda etadi:

Asosiy (operatsion) faoliyat bo'yicha. Bu bo'limda bajarilgan qurilish ishlari, sotilgan tayyor mahsulot uchun tushumlar, tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlar uchun ta'minotchi va pudratchilarga to'langan to'lovlar, xodimlar nomidan to'langan daromad solig'i va boshqa to'lovlar, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, shuningdek asosiy faoliyatga doir boshqa turdagi to'langan pul mablag'lari mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (010-050 satrlar) aks ettiriladi. Chet el valutasidagi asosiy faoliyatga doir pul mablag'larining kirim va

chiqimi ma'lumotnomaning 261, 262, 264, 271, 273-ustunchalarida ko'rsatiladi.

2. Investitsiya faoliyati bo'yicha. Ushbu bo'limda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, shuningdek uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish hamda sotishga doir pul oqimlari mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (060-100 satrlar) ko'rsatiladi.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha. Bu bo'limda olingan va to'langan foizlar, olingan va to'langan dividendlar, aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushumlar, xususiy aksiyalarni sotib olishga sarflangan pul mablag'lari, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari, uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari, moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari mos ravishda kirim va chiqim ustunchalarida (110-180 satrlar) ko'rsatiladi. Chet el valutasidagi moliyaviy faoliyatga doir pul mablag'larining kirim va chiqimi ma'lumotnomaning 263, 272-ustunchalarida ko'rsatiladi.

Hisobotda daromad (foyda) va boshqa soliq to'lovlari alohida bo'limda (190-210 satrlar) ko'rsatiladi.

Har bir bo'limdan keyin hisobotning alohida satrlarida faoliyat turi bo'yicha sof pul kirimi/chiqimi ko'rsatiladi. Bu qurilish tashkilotida har bir faoliyat bo'yicha hisobot davrida ko'proq kirimga yoki chiqimga erishganlikni aniqlashga imkon beradi.

Hisobotning alohida satrida (220-satr) qurilish tashkilotining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining jami sof pul kirim/chiqimi barcha faoliyat turlari bo'yicha birgalikda ko'rsatiladi. Buning uchun barcha faoliyat turlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlarining guruhlangan summalari (050, 100, 180, 210-satrlar)ning farqi (Q,-) mos ravishda kirim yoki chiqim ustunida aks ettiriladi.

Hisobotning oxirgi ikkita satrida (230 va 240-satrlar) mos ravishda hisobot davrning boshi va oxirida mavjud pul mablag'larining qoldiq summalari ko'rsatiladi. Bunda 240-satrda ko'rsatilgan pul mablag'larining oxirgi qoldig'i 230-satrda ko'rsatilgan pul mablag'larining bosh qoldig'i va 220-satrda ko'rsatilgan hisobot davridagi pul mablag'larining sof kirim/chiqim summalari yig'indisi yoki ayirmasiga teng bo'lishi lozim.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot pul mablag'lari hisobi uchun mo'ljallangan schotlar (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) ma'lumotlari asosida tuziladi.

Xususiy kapital to'g'risida hisobot (5-shakl)

Ushbu hisobotning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga qurilish tashkilotining xususiy kapitalining holati va uning o'zgarishi to'g'risida pul o'lchov birligidagi ma'lumotlarni berish hisoblanadi.

Hisobot to'qqizta ustunchadan iborot. Uning 1 va 2-ustunlarida hisobotning ko'rsatkichlari va ularga biriktirilgan satrlarning raqamlari ko'rsatiladi. Hisobotning 3-8 ustunlari xususiy kapitalning alohida turlarining holati va harakatiga doir ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan.

Hisobotning har bir satrida xususiy kapitalning holati, ko'payishi va kamayishi, shuningdek turli boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar xususiy kapitalning elementlari hisobi uchun mo'ljallangan schotlardan (8300, 8400, 8500, 8600, 8700, 8800) olinadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma (2a- shakl)

Ushbu ma'lumotnomaning asosiy maqsadi – qurilish tashkilotining hisobot davri oxiriga bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotlarni turli belgilari bo'yicha guruhlab ko'rsatish. Ma'lumotnoma 12 ta ustunchadan iborat. Uning 2- ustunida debitorlar va kreditorlarning nomi, 3-ustunchada jami umumiy qarzlar, 4-ustunchada jami qarzlardan muddati o'tgani ko'rsatiladi. Ma'lumotnomaning 5-12 –ustunchalari qurilish tashkilotiga taalluqli bo'lmagan sabablar bo'yicha vujudga kelgan qarzlar to'g'risida axborotlarni berishga mo'ljallangan, jumladan:

5- va 6- ustunchalarda bunday qarzlarning mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

7- va 8- ustunchalarda hukumat qaroriga asosan oldindan haq to'lamay bajarilgan qurilish ishlari bo'yicha qarzlarning mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

9-va 10- ustunchalarda davlat resurslari va jamg'armalaridan ko'zda tutilgan xomashyo va materiallar bo'yicha o'tkazilgan bank to'lovlarining mos ravishda jami va muddati o'tgan summasi;

11- ustunchada hukumat qarori bo'yicha kechiktirilgan qarzlar;

12-ustunchada qonun hujjatlariga muvofiq bildirilgan da'volar bo'yicha sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan yoki xo'jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to'g'risida qaror chiqqan qarzlar summasi ko'rsatiladi.

Ma'lumotnomada ko'rsatilgan debitorlik qarzlarning umumiy summasi buxgalteriya balansining 110- va 210-satrlaridagi summalariga (alohida

bo'linmalarning qarzlaridan tashqari), shuningdek kreditorlik qarzlarning umumiy summasi buxgalteriya balansining 491-va 601-satrlaridagi summalariga mos kelishi shart.

Moliyaviy hisobotga yozilgan tushuntirish xatida qurilish tashkilotining hisob siyosatidagi o'zgarishlarning sabablari, moliyaviy-xo'jalik faoliyatida mavjud salbiy jihatlar, jumladan xo'jalik faoliyatini zarar bilan yakunlashga olib kelgan sabablar ochib beriladi. Bunday tushuntirishlar moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashda, shuningdek hisobot asosida to'g'ri boshqaruv qarorlar qabul qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar

Moliyaviy hisobot – bu qurilish tashkilotlarining ma'lum hisobot davrida erishgan natijalari hamda ularning mulkiy va moliyaviy holatini milliy valutada ifodalovchi axborotlarni jamlash usuli.

Hisobot davri – bu taqvim yilning 1- yanvaridan 31- dekabrigacha bo'lgan davr, taqvim yilining 1- oktabridan keyin davlat ro'yxatidan o'tgan qurilish tashkilotlari uchun birinchi hisobot yili bo'lib davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan kelgusi yilning 31- dekabrigacha bo'lgan davr.

Buxgalteriya balansining maqsadi – foydalanuvchilarga qurilish tashkilotining ma'lum bir sanaga mulkiy va moliyaviy holati to'g'risida milliy pul birligida axborot berish.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotning asosiy maqsadi – qurilish tashkilotlarining hisobot davrlaridagi daromadlari, xarajatlari, foyda va zararlari to'g'risidagi yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish.

Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobotning asosiy maqsadi – qurilish tashkiloti asosiy vositalari, shuningdek ular eskirishining holati va harakati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni berish.

Pul oqimlari to'g'risida hisobotning asosiy maqsadi – qurilish tashkiloti hisobot davrida yuz bergan pul oqimlari (kirim va chiqim), shuningdek pul mablag'larining davr boshi va oxiridagi holati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni aks ettirish.

Xususiy kapital to'g'risida hisobotning asosiy maqsadi – foydalanuvchilarga qurilish tashkilotining xususiy kapitalining holati va uning o'zgarishi to'g'risida pul o'lchov birligidagi ma'lumotlarni berish.

Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnomaning asosiy maqsadi – qurilish tashkilotining hisobot davri oxiriga bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotlarni turli belgilari bo'yicha guruhlab ko'rsatish.

Tushuntirish xati – qurilish tashkilotining hisob siyosatidagi o'zgarishlarning sabablari, moliyaviy-xo'jalik faoliyatida mavjud salbiy jihatlar, jumladan xo'jalik faoliyatini zarar bilan yakunlashga olib kelgan sabablarni ochib beruvchi qo'shimcha ma'lumotlar.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Bajarilgan ishlarga to'g'ri keladigan QQS qaysi hisobotda aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

2. Kelgusi davr xarajatlari qoldig'i qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

3. Qurilish tashkilotining sof tushumi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

4. Qurilish tashkilotining hisobot davr sof foydasi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

5. Qurilish tashkilotiga buyurtmachilardan kelib tushgan pul mablag'lari qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda;
g) pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda.

6. Qurilish tashkilotlarida muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnomada;
g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

7. Kichik biznes subyekti hisoblangan qurilish tashkilotlari moliyaviy hisobotni topshiradi:

a) har oyda;
b) har chorakda;
v) yil yakuni bo'yicha;
g) ikki yilda bir marta.

8. Kichik biznes subyekti hisoblangan qurilish tashkilotlari topshiradigan moliyaviy hisobot tarkibiga kirmaydi:

a) buxgalteriya balansi;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;
v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma;
g) pul oqimlari to'g'risida hisobot.

9. Qurilish tashkiloti buxgalteriya balansi asosida uning joriy to'lov qobiliyati darajasi (koeffitsiyenti) qanday topiladi?

a) balans valutasi summasi majburiyatlar summasiga bo'linadi;
b) joriy aktivlar summasi joriy majburiyatlari summasiga bo'linadi;
v) pul mablag'lari joriy majburiyatlar summasiga bo'linadi;
g) balans aktivi 2-bo'limi summasini balans passivi 2-bo'limi summasiga bo'lish yo'li bilan.

10.Qurilish tashkiloti o'z moliyaviy hisobotlarini majburiy topshirmaydi:

a) davlat soliq inspeksiyasiga;
b) davlat statistika organlariga;
v) xizmat ko'rsatuvchi bankga;
g) auditorlik tashkilotiga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Qurilish sohasida hisobotni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi., 2003- yil 24- sentyabr, 4095-son.

4. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zR AV tomonidan 1998 -yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 475.

5. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

6. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR AV tomonidan 1998 -yil 26 -avgustda ro'yxatga olingan, № 484.

7. BHMS № 9 «Pul oqimlari to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 1998-yil 4- noyabrda ro'yxatga olingan, № 519.

8. BHMS № 14 «Xususiy kapital to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 2004- yil 1 martda ro'yxatga olingan, № 36.

9. BHMS № 15 «Buxgalteriya balansi». O'zR AV tomonidan 2003- yil 20- martda ro'yxatga olingan, № 1226.

10. BHMS № 9 «Pul oqimlari to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 4- noyabrda ro'yxatga olingan, № 519.

11. «Choraklik va yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatlari to'g'risida nizom». O'zR AV tomonidan 2000 -yil 3- iyulda ro'yxatga olingan, № 942 (keyingi o'zgartirishlar bilan).

12. «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha tartib». O'zR AV tomonidan 2003- yil 24- yanvarda ro'yxatga olingan, № 1209 (keyingi o'zgartirishlar bilan).

13. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob- T.: «Moliya», 2002.

14.Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

15. Ochilov I.K., Qurbonboev.J.E. Moliyaviy hisob- T.: «Iqtisod-moliya», 2007.

16. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. — T.: O'qituvchi, 2004.

II bo'lim. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI

9-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

9.1. Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Qishloq xo'jaligi respublikamiz xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib kelgan va u shunday tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. Buning negizida turli sabablar yotadi. Chunonchi:

birinchidan, respublikamiz aholisining 60 foizi qishloq joylarda yashaydi. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini qishloq joylarda yashovchi aholini ish bilan ta'minlaydigan asosiy soha ekanligini bildiradi;

ikkinchidan, mamlakatimizning iqlim sharoiti va tabiiy resurslari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tez yetishtirish imkonini beradi;

uchinchidan, 26 milliondan ortiq aholisi bo'lgan respublikamizda odamlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini mahalliy sharoitlardan kelib chiqib hal etish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mamlakatimizning kun-sayin rivojlanib borayotgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari korxonalarini arzon va sifatli mahalliy xomashyo va materiallar bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi;

beshinchidan, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'pchilik turi boshqa mamlakatlarda yetarlicha emasligi, qishloq xo'jaligini nafaqat ichki maqsadlardagi, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqqa aylantirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ini respublikamizda rivojlantirish sabablari va imkoniyatlari nafaqat yuqoridagilar bilan chegaralanadi. Ular to'g'risida juda ko'p izohlar berish mumkin. Bu izohlar qishloq xo'jaligiga oid maxsus fanlarda atroflicha yoritilgan. Shu bois ham, yuqoridagi izohlar bilan

cheklangan holda, quyida qishloq xo'jaligi korxonalari buxgalteriya hisobining muhim subyektlari sifatidagi tashkiliy-huquqiy maqomlariga, ular faoliyatining hisob obyektlari sifatidagi xususiyatlariga to'xtalamiz.

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish respublikamizda qishloq xo'jaligi tarmog'ining quyi bo'g'inini tashkil qiluvchi subyektlarning tashkiliy va huquqiy maqomida turli o'zgarishlarga olib keldi. Ilgarilari asosan davlat va jamoa xo'jaliklaridan iborat bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari mustaqillik yillarida ko'p o'zgarishlarni boshidan o'tkazdi. Chunonchi, davlat xo'jaliklari tugatildi, ularning o'rniga shirkat xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi kooperativlari, agrofirmalar, dehqon-fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, shuningdek ularning uyushmalari tashkil qilindi.

Davlatimizning qishloq xo'jaligini isloh qilish borasidagi hozirgi siyosati negizida eng ustuvor yo'nalish sifatida yerni dehqonlarga, fermerlarga berish, shu asosda dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yotadi. 2006-yil oxiriga kelib respublikamizda fermer xo'jaliklarining soni 190 mingga yetdi, ularda 1,4 mln kishi mehnat qildi. Fermer xo'jaliklari hissasiga respublikamizda yetishtirilayotgan paxtaning 86 foizi, boshoqli don ekinlarining 75 foizi to'g'ri keldi. Birgina 2006-yilning o'zida 666 ta shirkat xo'jaliklarini qayta tashkil etish hisobidan 74 mingta fermer xo'jaligi tuzildi[7]. 2007-yil 1-chorak yakuniga kelib fermer xo'jaliklari soni yana 25,1 mingtaga ko'paydi[8].

2008-yildan boshlab respublikamizda fermer xo'jaliklarini birlashtirish asosida qayta tashkil qilish tadbirlari amalga oshirila boshlandi. Olib borilgan tashkiliy tadbirlar asosida kichik fermer xo'jaliklari soni qisqarib, ularning o'rniga 109,3 mingga yaqin yangi fermer xo'jaliklari tashkil etildi. 2008-yilning yakuniga ko'ra fermer xo'jaliklari hissasiga respublikamizda yetishtirilayotgan paxtaning 99,2 foizi, boshoqli don ekinlarining 81,4 foizi, kartoshkaning 18,1 foizi, sabzavotlarning 35 foizi, uzumning 55,2 foizi to'g'ri keldi[9].

Qishloq xo'jaligi korxonalarini buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida turlicha tasniflash mumkin. Ushbu tasnifiy belgilar ichida qishloq xo'jaligi korxonalarining turlari, sohasi, ixtisoslashganligi, xodimlarining soni, soliq to'lash rejimi muhim o'rin tutadi.

---

[7] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2006-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2007- yil, 13-fevral, № 31 (4184).

[8] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil birinchi chorak yakunlariga bag'ishlangan majlisi materiallari. //Xalq so'zi, 2007 yil, 13 fevral, № 31 (4184).

[9] Статистическое обозрение Узбекистана за 2009.

Turlariga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari fermer xo'jaliklariga, dehqon-fermer xo'jaliklariga, shirkat xo'jaliklariga, agrofirmalarga bo'linadi.

Sohasiga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek ushbu sohalarning har ikkalasiga ham doir bo'lgan korxonalarga bo'linadi.

Ixtisoslashganligiga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari dehqonchilik va chorvachilikning turli yo'nalishidagi korxonalarga bo'linadi. Masalan, chorvachilik sohasidagi qishloq xo'jaligi korxonalari qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik va boshqa shu kabi sohalarga ixtisoslashgan. Dehqonchilik sohasidagi qishloq xo'jaligi korxonalari bog'dorchilik, g'allachilik, tamakichilik va boshqa yo'nalishlardagi xo'jaliklarga bo'linadi. Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligining u yoki bu sohasiga, shuningdek aralash sohalarga doir korxonalar hisoblanadi.

Xodimlarining soniga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari mikrofirmalar, kichik korxonalar, o'rta va yirik korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning qonun hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jaligi tarmog'ida mikrofirmalar toifasiga kiruvchi xodimlarining soni 20 tagacha bo'lgan korxonalar, xodimlarining soni 50 tagacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi. O'rta va yirik qishloq xo'jalik korxonalari xodimlari sonining aniq miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanmagan.

Soliq to'lash rejimiga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq rejimlarida ishlovchi korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi hamda ularni qayta ishlovchi qishloq xo'jalik korxonalari faqat yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Sotib olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati, shuningdek savdo, vositachilik, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonalari ushbu faoliyat turlari bo'yicha xodimlarining soniga qarab umumbelgilangan soliqlar yoki ixchamlashtirilgan soliq to'lovini ham to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining eng muhim obyektlari bo'lib ularning faoliyat turlari, xo'jalik jarayonlari va operatsiyalari, mablag'lar, mablag'larni tashkil topish manbalari, daromad, xarajat, foyda va zararlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga bo'linadi. Ularning asosiy faoliyatiga bevosita qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq faoliyat, asosiy bo'lmagan faoliyatiga esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga bevosita aloqasi bo'lmagan moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha faoliyati ikki turga – dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Ushbu faoliyat turlari maxsus litsenziya talab qilmaydigan faoliyat hisoblanadi.

Dehqonchilik – bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xomashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Chorvachilik deganda mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Dehqonchilik va chorvachilik sohalarining buxgalteriya hisobi obyektlari sifatidagi xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatlari turli jarayonlardan tashkil topadi. Chunonchi, dehqonchilik o'z ichiga yerni shudgorlash va ekishga tayyorlash, urug'ni ekishga tayyorlash, urug'lik qadash, ekinni parvarishlash (sug'orish, yaganalash, chilpish, defoliatsiya qilish), hosilni terib olish va topshirish kabi xo'jalik ishlarini bajarishni talab qiladi. Chorvachilik mollarining tug'ilganligidan (sotib olinganligidan) boshlab, to ularni xo'jalik balansida turgan davri ichida parvarishlash, mahsulot (nasl) olish, mahsulotni topshirishgacha bo'lgan juda xilma-xil bo'lgan xo'jalik jarayonlarini bajarishni taqozo etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yuz berayotgan ushbu jarayonlar son va sifat jihatdan turli o'lchov birliklarida o'z aksini buxgalteriya hisobida topadi.

Ikkinchidan, dehqonchilik va chorvachilik boshqa ishlab chiqarish turlaridan o'zlarining davomiyligi, shuningdek mavsumiyligi bilan farq qiladi. Misol uchun paxtani yetishtirish faoliyati yerni ekishga tayyorlashdan tortib, to hosilni yig'ishtirib olgunga qadar kamida 7-8 oy mobaynida olib boriladi. Buzoqni katta ona mollar tarkibiga o'tkazish, uning birinchi tug'ish davri yetgunigacha bo'lgan davrni (odatda, kamida ikki-uch yil) o'z ichiga oladi, xo'kizchani katta mollar tarkibiga o'tkazish eng kamida 18 oy yoki 1,5 yil davom etadi. Demak, dehqonchilik va chorvachilikning davomiylik xarakteriga ega bo'lishligi ularga qilinayotgan sarflarni va olinadigan mahsulotlar davrlarini bir-biriga mos emasligini ko'rsatadi. Chunonchi, mahsulotni yetishtirishga ketadigan jonli va buyumlashgan mehnat sarflari

to‘xtovsiz ravishda butun yil mobaynida davom etadi, hosilni yig‘ishtirib olish esa yilning ma’lum davriga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z navbatida dehqonchilik va chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonini hisobot yili oylari bo‘yicha, shuningdek kelgusi davr uchun uzluksiz hisobga olib borish zaruratini tug‘diradi. Aksariyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning mavsumiy xarakterga ega bo‘lishi mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan notekis foydalanishga, shuningdek mavsumiy zaxiralarni yaratishni zarurat qilib qo‘yadi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligi korxonalarida yyetishtirilgan mahsulotlar asosiy va qo‘shimcha mahsulotlarga bo‘linadi. Tannarxni kalkulyatsiya qilish obyekti bo‘lib asosiy mahsulot hisoblanadi. Lekin qilingan xarajatlar ham asosiy, ham qo‘shimcha mahsulotga tegishli bo‘ladi. Shu bois ham, xarajatlarni asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida taqsimlash, ular har birining reja va haqiqiy tannarxlarini, kirim qiymatini va sotish baholarini to‘g‘ri aniqlash zarurati tug‘iladi. Chunonchi, bu ishlar har bir mahsulot turi bo‘yicha individual yondashishni talab qiladi.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi korxonalarida yyetishtirilgan mahsulotlar mavsum davomida faqat reja tannarxida kirim qilib boriladi. Ularning haqiqiy tannarxi, erishilgan moliyaviy natijalar faqat qishloq xo‘jalik taqvim yili tugagandan keyingina, buxgalteriya hisobida barcha turdagi daromad va xarajatlar to‘liq aks ettirilgandan so‘ng aniqlanadi.

Beshinchidan, yyetishtirilgan mahsulotlarning tez buzilishga moyilligi, maxsus saqlash joylarini talab etishi, ishlatilish maqsadi va boshqa jihatlari ularni turli usullarda kirim qilishni va xaridorlarga jo‘natishni taqozo etadi. Masalan, terilgan paxta bevosita daladan paxta punktlariga topshiriladi. Xuddi shunday tez buziladigan meva-sabzavotlar, poliz ekinlari, chorvachilik mahsulotlari ularni qayta ishlash korxonalariga bevosita daladan (fermalardan) yuklatiladi. G‘alla qishloq xo‘jaligi korxonasining omborlariga yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘alla qabul tayyorlov korxonalariga topshiriladi. Tez buzilmaydigan mevalar, poliz ekinlari, chorvachilik mahsulotlari qishloq xo‘jalik korxonalarining maxsus saqlash joylariga kirim qilinadi.

Oltinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo‘jaligi korxonalarida bu soha bo‘yicha ixtisoslikka ega bo‘lgan mutaxassislardan iborat bo‘lgan mehnat jamoalarini shakllantirishni, shuningdek ular mehnatiga haq to‘lashni turli shakllarda hamda tizimlarda tashkil etishni taqozo etadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining o‘ziga xos mutaxassislariga

agronomlar, zootexniklar, veterinarlar, miroblar, cho'ponlar, sut sog'uvchilar, traktorchilar, ishchilar va boshqalar kiradi. Qishloq xo'jaligi asosan jamoa mehnatiga tayanadi. Shu bois ham bu tarmoq korxonalarida mehnat va unga haq to'lashning brigada shakli keng qo'llaniladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoqning xususiyatlari qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini ham belgilaydi. shu bois ham, qishloq xo'jaligiga mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi maxsus fan sifatida o'rganiladi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida umumbelgilangan hamda tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan tartib-qoidalarga asoslangan hisob siyosatini shakllantirishni, shuningdek ushbu hisob siyosatiga qat'i amal qilish vazifasini qo'yadi.

9.2. Qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari bevosita buxgalteriya hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarida, ularda qo'llaniladigan schotlar rejasida, xo'jalik muomalalarini hujjatli rasmiylashtirilishida, hisob ma'lumotlarini qayd etish, guruhlash, jamlash va foydalanuvchilarga uzatishda, moliyaviy hisobot shakllari moddalarini to'ldirish tartibida hamda boshqa jihatlarida yorqin namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shakliga ushbu xo'jaliklarning katta-kichikligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi maxsus bo'linmani, ya'ni buxgalteriyani tashkil qilish yo'li bilan olib boriladi. Kichik qishloq xo'jaligi korxonalarida maxsus buxgalteriyani tuzish zarurati bo'lmaydi. Ularda hisob ishlari mehnat shartnomasi asosida ishga olingan yagona buxgalter tomonidan yuritiladi. Kichik fermer xo'jaliklarida hisob-kitob ishlarini bevosita xo'jalik rahbarining o'zi ham olib borishi mumkin. Shuningdek, ularda buxgalteriya hisobi tuzilgan shartnoma asosida professional xizmatlarni ko'rsatuvchi auditorlik tashkilotlari tomonidan ham yuritilishi respublikamiz qonunchilik hujjatlarida ta'qiqlanmagan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida yuz berayotgan jarayonlar, xo'jalik muomalalarini tizimli ravishda aks

ettirishga mo'ljallangan buxgalteriya hisobi schotlar rejasini qo'llashni taqozo etadi. Chunonchi, ularda olib borilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish faoliyati umumbelgilangan tartibdagi 2000 «Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schotlar» tizimida maxsus «Dehqonchilik» va «Chorvachilik» kabi schotlarni nazarda tutishni taqozo etadi. Ushbu schotlar tarkibida, o'z navbatida, alohida olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi uchun mo'ljallangan schotlar ochilishi ham mumkin. Qishloq xo'jaligi korxonalari «Dehqonchilik» va «Chorvachilik» schotlarida aks ettiriladigan xarajatlarning tarkibini belgilashda respublikamizda amalda bo'lgan «Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqari va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»da keltirilgan tartiblarga amal qilishlari lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu schotlarning ochilishi, yuritilishi va yopilishi tartiblariga keyingi boblarda alohida to'xtalamiz.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligi, yyetishtirilgan mahsulotlarning tannarxi, ularni sotishdan olingan moliyaviy natijalar qishloq xo'jaligi korxonalarida ta'minot va sotish jarayonlari to'g'ri tashkil etilganligiga, ishlab chiqarish zaxiralarining o'z vaqtida olinganligiga, ularni tegishli miqdorda mavjudligiga, butligi, sifati, sotib olish qiymati (tannarxi) hamda boshqa jihatlariga bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari holati, kirimi, sarfi va boshqa chiqimlari ustidan uzluksiz tizimli nazorat o'rnatishni talab etdi. Buning uchun ishchi schotlar rejasida ishlab chiqarish zaxiralari hisobi uchun mo'ljallangan maxsus schotlarni nazarda tutish, ularda materiallar holati va harakatiga doir ma'lumotlarni uzluksiz, hujjatli asosda jamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining bu xususiyatlari ularning ishchi schotlar rejasida «Urug'liklar», «O'g'it», «Yem-xashak» «Dori-darmonlar» va boshqalar shu kabi maxsus schotlarni ochish hamda yuritishni taqozo etadi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxiga sarflangan materiallar qiymatini (tannarxini) baholash usullari (FIFO, AVEKO) ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining hisob siyosatida ushbu ikkala usuldan tanlab olinganini yoki ularning har ikkalasini qaysi turdagi ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha qo'llash tartibini belgilab olishlari lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning uzoq davomiyligi hamda mavsumiyligi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisob-kitob qilish va inventarizatsiyadan o'tkazishning aniq tartibini belgilashni taqozo etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqqoniy tannarxini ular kirimi paytida aniqlash imkonining mavjud emasligi hisob siyosatida ular kirimi hisobini yil mobaynida reja yoki normativ tannarxi bo'yicha olib borish, yil oxirida esa mahsulotlarning haqqoniy tannarxi aniq bo'lgach, ular holati va harakatiga doir buxgalteriya yozuvlariga tuzatishlar kiritish tartibini o'rnatish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining daromadi asosan yyetishtirilgan mahsulotlarni sotishdan olinadi. Mahsulotlarni sotish davlat tomonidan qat'iy belgilangan narxlarda, shuningdek erkin bozor narxlarida amalga oshiriladi. Davlat tomonidan qat'iy belgilangan narxlar ayrim mahsulotlar bo'yicha, masalan paxta, g'alla, pilla, tamaki va boshqa umumdavlat ahamiyatiga molik qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, ularga davlatga topshirish rejasidan ortiq yyetishtirilgan mahsulotlarni (paxta va pilladan tashqari) erkin narxlarda naqd va naqd pulsiz, shuningdek mehnat haqi evaziga natural to'lov sifatida berish ruxsat etiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishning ushbu xususiyatlari sotishdan olingan daromadlarni hisoblash tamoyiliga asosan tan olish, ularni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirish hamda tegishli schotlarda aks ettirish tartiblariga qat'iy amal qilish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining asosiy vositalari, joriy aktivlari, xususiy kapital va majburiyatlarining tarkibi, ularni shakllantirish tartibi bo'yicha ham, bir tomondan, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan farqli jihatlarga ega. Chunonchi, asosiy podani shakllantirish, yosh mollarni asosiy podaga o'tkazish, texnika va transport vositalarini dala ishlari, terim mavsumlariga tayyorlash, xususiy mulkni ustav kapitaliga kiritish, olingan foydani ishlatish, paychilar o'rtasida taqsimlash kabilardagi xususiyatlar qishloq xo'jaligi korxonalarining hisob siyosatida ular hisobini yuritish tartiblarini aniq ifodalashni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yuz berayotgan xo'jalik operatsiyalarini hujjatli rasmiylashtirish turlicha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, traktorlarda yerni shudgor qilish, paxta qatorlariga texnika yoki qo'l mehnatida ishlov berish, urug'lik qadash, mineral o'g'itlash, yem-

xashaklarni mollarga ozuqa ratsioni hamda belgilangan ozuqa kunlari bo'yicha sarflashdagi xususiyatlar ushbu operatsiyalarni rasmiylashtirish uchun mo'ljallangan boshlang'ich hujjatlar klassifikatorini qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida ishlab chiqishni hamda ularga to'liq amal qilish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobining umumbelgilangan shakllaridan birini tanlab olishlari mumkin. Bunday shakllar bo'lib buxgalteriya hisobining memorial-order, jurnal-order, kompyuterlashtirilgan shakl, soddalashtirilgan shakllar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi o'zlarining 2008- yil 21- yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan maxsus «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida nizom»ni tasdiqladilar. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008- yil 26- martda 1781-son bilan ro'yxatga olindi. Ushbu Nizomga muvofiq fermer xo'jaliklari uchun maxsus moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy schotlar rejasi tasdiqlandi. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shakllar bo'yicha yuritilishi mumkin:

a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli;

b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.

Fermer xo'jaligi o'zining ishlab chiqarish va boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda ushbu tavsiya etilgan ikkita shakldan birini mustaqil tanlaydilar.

Nizomga muvofiq fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining tanlangan shaklidan qat'iy nazar, hisobot davrining xo'jalik operatsiyalari xronologik tartibda «Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali»da ro'yxatga olib boriladi. Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali kitob shaklida yuritiladi, unda xo'jalik operatsiyalarining qayd etilishi va hisobi hisobot davri uchun oylar yoki choraklar kesimida yuritiladi. Bunda, xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali tikilgan va raqamlangan bo'lishi shart. Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalining so'nggi varag'ida fermerning imzosi bilan "Mazkur jurnalda ..... varaq raqamlangan" deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Buxgalteriya hisobining oddiy shaklida fermer xo'jaliklarida xo'jalik operatsiyalari hisobini yuritish uchun maxsus "Xo'jalik operatsiyalarini hisobga

olish kitobi" registri qo'llaniladi. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida operatsiyalar hisobi butun hisobot yili davomida yuritiladi. Bunda, xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi tikilgan va raqamlangan bo'lishi shart. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobining so'nggi varag'ida fermerning imzosi bilan "Mazkur Kitobda ..... varaq raqamlangan" deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida xo'jalik operatsiyalari natijalari aktivlarni, majburiyatlarni, xususiy kapitalni, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga oluvchi schotlarda aks ettiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yozuvlar tizimli tartibda «Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali»da keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi kombinatsiyalashgan registr hisoblanadi, unda fermer xo'jaliklari tomonidan qo'llaniladigan barcha schotlar mavjud bo'ladi va ularning har birida xo'jalik operatsiyalari hisobini yuritish imkoniyatini yaratadi. Bunda, balansning tegishli moddalarining mazmunini asoslab berish uchun u yetarli darajada batafsil bo'lishi lozim. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida har bir qo'llanilayotgan buxgalteriya schoti uchun aniq buxgalteriya schotlari bo'yicha o'tgan yillarning tajribasini hisobga olgan holda, xo'jalik operatsiyalarining kutilayotgan hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum betlar ajratiladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi "20__ yil "___"_____ dagi qoldiq" qatorida aktivlarning, majburiyatlarning va xususiy kapitalning har bir turi bo'yicha hisobot davrining boshida mavjud bo'lgan qoldiq summasi yozuvi bilan ochiladi. Aktiv schotlarning qoldig'i ushbu schotlarning debetida, passiv schotlar bo'yicha qoldiq esa ushbu schotlar kreditida yoziladi.

Har bir qatorda tegishli buxgalteriya schoti bo'yicha yozuvlar xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari (provodkalari) ma'lumotlari asosida pozitsiya usulida xronologik ketma-ketlikda amalga oshiriladi.Har bir oyning (chorakning) oxirida xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yakun chiqariladi va unga asosan fermer xo'jaligi faoliyatining natijasi aniqlanadi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schotlarning qoldiqlari 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi»ga o'tkaziladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning hisobot davridagi aylanmasi 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ga o'tkaziladi.

Buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shaklini yuritishda buxgalteriya hisobining quyidagi hisob qaydnomalaridan foydalaniladi:

a) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasi;

b) moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasi;

v) kapital qo'yilmalarni hisobga olish qaydnomasi;

g) tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasi;

d) boquvdagi va o'stirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi;

e) xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

j) boshqa debitorlik qarzlarini hisobga olish qaydnomasi;

z) pul mablag'larini hisobga olish qaydnomasi;

i) mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

k) hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

l) mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;

m) boshqa majburiyatlarni hisobga olish qaydnomasi;

n) xususiy kapitalni hisobga olish qaydnomasi;

o) hisobot davri xarajat (sarf)larini hisobga olish qaydnomasi;

p) dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;

r) chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;

s) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi;

t) sof foyda (zarar)ni hisoblash qaydnomasi;

u) xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasi.

Alohida obyektlar hisobi uchun mo'ljallangan ushbu qaydnomalarning yuritilish tartibiga keyingi boblarda alohida to'xtalamiz.

9.3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari

Davlatimiz tomonidan iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida olib borilayotgan tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligiga ham dahldordir. Dehqonchilik va chorvachilik sohalari moddiy texnika bazasini

yangi texnika va texnologiyalar kiritish asosida yaxshilash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish va rekonstruksiya qilish, suv ta'minoti va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash buxgalteriya hisobi oldiga ushbu ishlarga ketgan sarf-xarajatlarni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlari sintetik va tahliliy hisobini yuritish, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini to'g'ri aniqlash, sotilgan mahsulotlar tannarxini aniq kalkulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish kabi muhim vazifalarni qo'yadi.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlari fermer xo'jaliklarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Chunonchi, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turadigan qishloq xo'jaligi texnikasi, omborxonalar, maxsus bino va inshootlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishi lozim.

Qishloq xo'jaligi ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli xomashyo va materiallarning o'z vaqtida kelib tushishiga, ular bo'yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to'g'ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxiga, ularni sotishdan olinadigan daromadlarga, fermer xo'jaliklarining sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi korxonalarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to'g'ri baholash, materiallar holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish, ular kirimi va chiqimiga doir hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi ishlari boshqa ishlardan farqli o'laroq kollektiv mehnatga tayanadi, ya'ni ularni olib borishda mehnatni tashkil qilishning brigada shakli keng qo'llaniladi. Mos ravishda bajarilgan ish va xizmatlarga haq to'lashda ham mehnatning brigada shakli asos qilib olinadi. Qishloq xo'jaligi ishlarining yaxlit brigada a'zolari tomonidan bajarilishi jami hisoblangan ish haqini, unga qo'shimchalarni brigada a'zolari o'rtasida ularning mehnatdagi haqiqiy ishtirokiga mos tarzda to'g'ri taqsimlab chiqish va hisobini yuritish vazifasini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'z faoliyatini yuritishda xo'jalik hisobi tamoyiliga asoslanuvchi subyektlar hisoblanadi, ya'ni ular o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashlari, olgan daromadlari evaziga xarajatlarini to'liq qoplashlari va pirovardida foyda olishlari lozim. Bu tamoyilga amal qilish talabi buxgalteriya hisobi tizimi oldiga daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini milliy pul birligida tizimli aks ettirishdek muhim vazifani qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari boshqa korxonalar singari davlatimizning soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlar va ajratmalarning to'lovchilari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi tizimi qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan to'lanadigan tegishli soliqlar va majburiy ajratmalarni to'g'ri hisoblanishi, ularni o'z vaqtida Budjetga o'tkazib berilishiga xizmat qilishi lozim.

Tayanch iboralar

Qishloq xo'jaligi - mamlakatimizning kun-sayin rivojlanib borayotgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari korxonalarini arzon va sifatli mahalliy xomashyo va materiallar bilan ta'minlashlashga, shuningdek aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan iqtisodiyot tarmog'i.

Fermer xo'jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Dehqon-fermer xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan, yuridik shaxsni tashkil etgan va tashkil etmagan holda faoliyat yuritadigan oilaviy mayda tovar xo'jaligi.

Dehqonchilik - – bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xomashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Dehqonchilik jarayoni o'z ichiga yerni shudgorlash va ekishga tayyorlash, urug'ni ekishga tayyorlash, urug'lik qadash, ekinni parvarishlash (sug'orish, yaganalash, chilpish, defoliatsiya qilish), hosilni terib olish va topshirish kabi xo'jalik ishlarini oladi.

Chorvachilik deganda mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Chorvachilik jarayoni mollarning tug'ilganligidan (sotib olinganligidan) boshlab, to ularni xo'jalik balansida turgan davri ichida parvarishlash, mahsulot (nasl) olish, mahsulotni topshirishgacha bo'lgan turli xo'jalik jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasining hisob siyosati - bu qishloq xo'jaligi korxonasi rahbari tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobining tashkiliy shakli, xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishi, tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan ichki me'yoriy hujjat.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining quyi bo'g'ini - bu

a) qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;
b) qishloq xo'jaligi boshqarmalari;
v) qishloq xo'jaligi korxonalari;
g) tuman fermerlar uyushmasi.

2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining sohalari

a) chorvachilik;
b) dehqonchilik;
v) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
g) yuqorida keltirilganlarning barchasi.

3. Tuxum yetishtirish kiradi

a) qishloq xo'jaligi tarmog'iga;
b) qishloq xo'jaligi sohasiga;
v) mahsulot olish yo'nalishiga;
g) yuqorida javoblarda keltirilganlarning barchasiga.

4.Qishloq xo'jaligining buxgalteriya hisobiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlariga kiradi:

a) mavsumiylik;
b) davomiylik;
v) xarajat va mahsulot olish davrlarining mos emasligi;
g) yuqorida keltirilganlarning barchasi.

5. Fermer xo'jaligi:

a) o'z hisob siyosatiga ega bo'lishi shart;

b) o'z hisob siyosatiga ega bo'lishi shart emas;
v) o'z hisob siyosatini boshqalardan ko'chirib oladi;
g) hisob siyosatini umuman yuritmaydi.

6. Fermer xo'jaligi:

a) buxgalteriyaga ega bo'lishi shart;
b) buxgalteriya hisobini yuritishi shart emas;
v) xohlagan shaklda hisobni yuritadi;
g) hisobni faqat kompyuterda yuritishi kerak.

7. Qishloq xo'jaligi korxonasida hisob:

a) memorial-order shaklda yuritilishi mumkin;
b) jurnal-order shaklda yuritilishi mumkin;
v) ixchamlashtirilgan shaklda yuritilishi mumkin;
g) yuqorida keltirilganlardan biri bo'yicha yuritililishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 -yil 17- martdagi qarori, № PQ-304.

4. «2007-yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 15- noyabrdagi qarori, № PQ-512.

5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

6. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

7. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 14 -avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

8. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. Sanaev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari. –T.: Mehnat, 1991. - 104 b.

10-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

10.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarni tasniflash, tavsiflash, baholash hamda hisobini yuritish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun belgilangan umumiy tartiblarga asoslanadi. Shu bilan birga asosiy vositalarning o'ziga xos tarkibi, ularning maqsadi, ishlatilishi va boshqa jihatlari ular hisobida ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjudligidan darak beradi. Bu xususiyatlar qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobiga o'ziga xos vazifalarni ham yuklaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- asosiy vositalarni boshqaruv, nazorat, hisob va hisobot talablaridan kelib chiqib, tegishli guruhlarga ajratish, har bir guruh bo'yicha unga kiruvchi asosiy vositalar tarkibini aniq belgilash;
- kirim qilingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, tiklangan qiymati va qoldiq qiymatini aniq hisob-kitob qilish;
- asosiy vositalar harakatiga doir operatsiyalarni to'g'ri va o'z vaqtida tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- asosiy vositalar eskirishi, ularga doir keyingi sarflarni mazmun va mohiyatidan kelib chiqib tegishli schotlarda hisobga olish;
- asosiy vositalar holati va harakatini hisob va hisobotda to'g'ri aks ettirish;
- asosiy vositalarning mavjudligi va butligini ta'minlash, samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida ularni belgilangan muddatlarda inventarizatsiya qilish;
- yaroqsiz holga kelgan, samara bermaydigan asosiy vositalarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida barcha asosiy vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

(1) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mo'ljallangan asosiy vositalar – omborlar, shiyponlar, mashina va asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, xo'jalik inventarlari;

(2) qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga mo'ljallanmagan asosiy vositalar – ma'muriyat binosi, ofis mebeli va jihozlari, kompyutyerlar, boshqaruvga xizmat qiladigan yengil avtomobillar, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarni guruhlashda ishchi va mahsuldor hayvonlar alohida guruhga ajratiladi. Ushbu guruhga ishchi kuchi sifatida ishlatiladigan hamda mahsuldor hayvonlar (ot, tuya, xo'kiz, tanalar, eshaklar, ona mollar) kiradi. Bu guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi maxsus 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schotida yuritiladi. Qolgan guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi, barcha tarmoqlardagi singari, 21-son BHMSda nazarda tutilgan mos ravishdagi schotlarda olib boriladi.

Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarning hisob bahosi, ularning boshlang'ich qiymati hisoblanadi. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar ularning qoldiq qiymatida aks ettiriladi. O'z xo'jaligida boqilgan, shuningdek chetdan xarid qilingan mahsuldor va ishchi hayvonlarni asosiy vositalarga kirim qilishda boshlang'ich qiymat bo'lib ularni parvarishlashga (sotib olish) ketgan jami xarajatlarning birgalikda olingan qiymati (tannarxi) hisoblanadi.

Asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan ko'p yillik ekinlar (mevali bog'lar, tokzorlar, choy plantatsiyalari, ixota o'rmonlari va shu kabilar)ning boshlang'ich qiymati, ularning yoshidan qat'i nazar, nihollar qiymati hamda nihollarni ekish, parvarish qilish va o'stirishga sarflangan xarajatlardan tashkil topadi.

Yerlarni yaxshilashga yo'llangan kapital qo'yilmalar, chunonchi, botqoq yerlarni quritish, sho'rni quvishga qilingan investitsiyalar joriy yilda sarflangan tegishli xarajatlarning haqiqiy miqdori bo'yicha baholanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqa turdagi asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati umumbelgilangan tartiblarga ko'ra aniqlanadi.

Kirim qilingan asosiy vositalarga ular bo'yicha yakka tartibda yoki guruh bo'yicha yuritiladigan hisob kartochkalari (kitobi) ochiladi. Ushbu hisob kartochkalari (kitobi) asosiy vositalarning qishloq xo'jalik korxonalarida foydali xizmat muddati davomida saqlanadi. Ularga asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, eskirishi va qoldiq qiymatini o'zgarishiga doir, Shuningdek joriy va kapital ta'mirlanishiga oid ma'lumotlar yozib boriladi.

10.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarning kirimi va chiqimini rasmiylashtirishda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan boshlang'ich hujjatlarning namunaviy shakllaridan foydalaniladi. Chunonchi, yangi qurilishdan olingan asosiy vositalar, yordamchi xo'jaliklardan olingan ko'p yillik o'simliklarning nihollari qabul qilish-topshirish dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Mollarni bir guruhidan ikkinchi guruhga o'tkazishga «Guruhdan guruhga o'tkazish dalolatnomasi» tuziladi.

Ta'minotchilardan naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan sotib olingan asosiy vositalar schot- fakturalar asosida kirim qilinadi.

Chorva mollarini, ko'p yillik o'simliklarni aholidan bozorlarda naqd pulga sotib olish kirim kvitansiyalari bilan rasmiylashtiriladi. Ularning sotib olish baholari bozorlar ma'muriyatining o'rtacha baholar to'g'risidagi ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga asosiy vositalarni ta'sischilardan kirim qilinishi ta'sis shartnomalarida ko'rsatilgan baholarda amalga oshiriladi va schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan bepul olingan asosiy vositalar shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda schot-fakturalar asosida kirim qilinadi.

Barcha kirim qilingan asosiy vositalar tegishli moddiy javogar shaxslarga biriktiriladi. Moddiy javobgar shaxslar bo'lib brigadirlar, ferma, mudirlari, cho'ponlar, shiypon mudirlari, ombor mudirlari va boshqa mas'ul shaxslar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga kirim qilingan asosiy vositalarning sintetik hisobi 0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ularning alohida guruhlari uchun ochilgan schotlarda yuritiladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ushbu schotlarni yuritish tartibi birinchi bo'limda qurilish tashkilotlari misolida keltirilgan tartibga to'liq o'xshaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari balansidan asosiy vositalar turli sabablarga ko'ra chiqarilishi mumkin. Chunonchi, ularni balansdan chiqarish to'liq eskirganligi, foydalanishga yaroqsiz holatga kelganligi, tabiiy ofat, kasalligi va boshqa sabablarga ko'ra o'lganligi, katta yoshli mahsuldor va ishchi hayvonlarni brakka chiqarish, boquvdagi mollar tarkibiga o'tkazish, shuningdek asosiy vositalarni sotish natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalarni foydalanishga yaroqsizligini aniqlash hamda ularni hisobdan chiqarishni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish maqsadlarida maxsus komissiyalar tuziladi. Yaroqsiz holatga kelgan asosiy vositalar tugatish va hisobdan chiqarish dalolatnomalari asosida balansdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotish, bepul berish, ta'sis badali sifatida kiritish schot-faktura bilan rasmiylashtiriladi.

Asosiy vositalarni balansdan chiqarishga doir operatsiyalar hisobi birinchi bo'limda qurilish tashkilotlari misolida ko'rib chiqilgan tartiblarga to'liq o'xshaydi. Sotilgan asosiy vositalarning sotish qiymati ularning qoldiq qiymatiga mos kelmagan hollarda olingan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlanadi. Olingan foyda 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schotida, ko'rilgan zarar esa 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schotida hisobga olinadi.

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi texnikalari, chunonchi qimmat turuvchi xorijdan olingan kombaynlar, traktorlar, shuningdek ko'p yillik mevali bog'lar, tokzorlar uzoq muddatli ijaraga berish yo'li bilan ham sotilmoqda va hisobdan chiqarilmoqda. Ushbu operatsiyalar hisobda quyidagicha aks ettiriladi (10.1-jadval).

10.1-jadval

Qishloq xo'jaligi texnikalari va ko'p yillik o'simliklarni uzoq muddatli ijaraga sotib olish sharti bilan berilishiga doir operatsiyalarni schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Korr.schot		Asos
		Dt	Kt	
1.	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatida hisobdan chiqarilishiga	9210	0160, 0180	Shartnoma, schot faktura
2.	Asosiy vosita bo'yicha hisoblangan jamlangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	0260, 0280	9210	Shartnoma, schot faktura
3.	Asosiy vosita bo'yicha uzoq muddatli ijaraga berilgan mulkning kelishuv qiymatidagi debitorlik qarz summasiga	0920	9210	Shartnoma, schot faktura
4.	Ijaraga berilgan mulk bo'yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismiga	4810	0920	Shartnoma, schot faktura, hisob-kitob
5.	Ijaraga berilgan mulk bo'yicha har oyda shartnoma asosida hisoblanadigan foiz summasiga	4830	9530	Shartnoma, schot faktura, hisob-kitob
6.	Ijara bo'yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismi summasini kelib tushishi yoki naqd olinishiga	5110, 5010	4810	Bank ko'chirmasi, kirim kassa orderi
7.	Ijara bo'yicha foiz summasini kelib tushishi yoki naqd olinishiga	5110, 5010	4820	Bank ko'chirmasi, kirim kassa orderi

Asosiy vositalar tarkibidan katta yoshli mahsuldor va ishchi hayvonlarning, bog'lar hamda tokzorlarning mahsuldorlikni kamayishi, kasallanishi, lat yeyishi, o'lishi natijasida balansdan chiqarilishiga tegishli veterinariya va agronomiya xulosalari olinadi. Agar ushbu asosiy vositalar sug'urtalangan bo'lsa, ularni balansdan chiqarish natijasida ko'rilgan zararlar sug'urta tushumi hisobidan qoplanadi.

Sug'urta tashkilotining qoplash bo'yicha o'z bo'yniga olgan qarziga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 4890 «Boshqa debitorlik qarz»;

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqimi».

Sug'urta to'lovining kelib tushishiga:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4890 «Boshqa debitorlik qarz».

10.3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kirimining hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan olib boriladigan kapital investitsiyalarning muhim turlaridan biri, asosiy podani shakllantirishga qilingan kapital sarflar hisoblanadi.

Asosiy podani shakllantirishga kapital investitsiyalar deganda mollarni yosh hayvonlar guruhidan katta hayvonlar guruhiga o'tkazishgacha ularni o'stirish va parvarishlashga qilingan xarajatlar, shuningdek katta hayvonlarni chetdan xarid qilish, tashib keltirish va bu bilan bog'liq barcha boshqa xarajatlarning majmuasi tushuniladi.

Asosiy podani shakllantirishga yo'naltirilgan kapital investitsiyalarning hisobi 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schotida yuritiladi. Ushbu schotda, chunonchi, quyidagi xarajatlar hisobga olinadi:

- asosiy podaga o'tkaziladigan xo'jalikdagi yosh mahsuldor va ishchi hayvonlarni o'stirish bo'yicha xarajatlar;
- asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdagi va ishchi hayvonlarning sotib olish qiymati;
- hayvonlarni yetkazib kelish bilan bog'liq sarflar;
- boshqa shaxslardan bepul olingan katta yoshdagi hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'liq sarflar.

Yosh hayvonlar asosiy podaga o'tkazilgunga qadar 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» schotida hisobga olinadi. Hisobot davrida ularni

asosiy podaga o'tkazish haqiqiy vazniga ko'ra reja tannarxi bo'yicha amalga oshiriladi O'stirishdagi va boquvdagi mollarni asosiy podaga o'tkazish maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Tuzilgan dalolatnoma asosida buxgalteriyada quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0840 «Asosiy podani shakllantirish»;

Kredit 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar».

Bir paytning o'zida asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar mos ravishda ularning guruhlariga qarab hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

- ishchi hayvonlar guruhiga o'tkazilgan mollarga:

Debet 0170 «Ishchi hayvonlari»;

Kredit 0840 «Asosiy podani shakllantirish».

- mahsuldor hayvonlar guruhiga o'tkazilgan mollarga:

Debet 0171 «Mahsuldor hayvonlari»;

Kredit 0840 «Asosiy podani shakllantirish».

Hisobot yili oxirida o'stirishdagi va boquvdagi mollarning haqiqiy tannarxi aniq bo'lgach, ularning asosiy poda tarkibiga kirim qilingan reja tannarxidan farqi topiladi. Ushbu farq summasiga mos ravishda qo'shimcha yozuv yoki storno usullaridan biri bo'yicha yuqoridagi buxgalteriya yozuvlari beriladi. Aynan shu yo'l bilan asosiy podani shakllantirish xarajatlari, kirim qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlar qiymati ularning haqqoniy tannarxiga yetkaziladi.

Asosiy podani chetdan xarid qilish yo'li bilan shakllantirish xarajatlari bevosita 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schotining debetida to'planadi. Chunonchi, asosiy podaga kiritiladigan mollarni boshqa qishloq xo'jaligi korxonalaridan tuzilgan shartnomalar asosida sotib olinishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0840 «Asosiy podani shakllantirish»;

Kredit 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar».

Sotib olishga doir sarflangan qo'shimcha haqlar, masalan tend yerda qatnashish, vositachilik, transport xizmatlari haqlari summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 0840 «Asosiy podani shakllantirish»;

Kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar».

Asosiy poda aholidan bevosita bozorlardan ham naqd pulga sotib olinishi mumkin. Bu operatsiyalar hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

1. Asosiy podani sotib olish uchun kassadan hisobdor shaxsga bo'nak summasini berilishiga:

Debet 4290 «Xodimga berilgan boshqa bo'naklar»;

Kredit 5010 «Kassa».

2. Hisobdor shaxsga berilgan bo'nak summasini kapital investitsiya sifatida tan olinishiga

Debet 0840 «Asosiy podani shakllantirish»;

Kredit 4290 ««Xodimga berilgan boshqa bo'naklar».

3. Bir vaqtning o'zida sarflangan kapital investitsiyalarni kirim qilingan ishchi va mahsuldor hayvonlarning boshlang'ich qiymatiga kiritilishiga:

Debet 0170 «Ishchi hayvonlari»;

Kredit 0840 «Asosiy podani shakllantirish».

Asosiy podani shakllantirishga qilingan kapital sarflarning tahliliy hisobini turli maqsadlarda turlicha yuritish maqsadga muvofiq. Chunonchi, bunday tahliliy hisob qilingan xarajatlarni ishchi va mahsuldor hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shohli hayvonlar, cho'chqalar, qo'ylar, otlar va boshqalar) axborotlarni olish imkonini berishi kerak.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi korxonalarining ayrim hayvonlarni sotib olishga sarflagan mablag'lari asosiy podani shakllantirish xarajatlari sifatida tan olinmaydi. Chunonchi, parrandalar, quyonlar, qimmatbaho mo'ynali hayvonlar, asalarilar, qo'riqchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar, ularning qiymatidan qat'i nazar, asosiy poda tarkibida hisobga olinmaydi. Ular joriy aktivlar tarkibiga kiritiladi va mos ravishda 1100 «O'stirishda va boquvda mollar» schotida hisobga olinadi.

10.4. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarga åskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar, boshqa tarmoq korxonalari singari, amortizatsiyalanadigan va amortizatsiyalanmaydigan asosiy vositalarga bo'linadi.

Respublikamizda qabul qilingan 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq qishloq xo'jaligi korxonalarida amortizatsiya hisoblanmaydigan asosiy vositalarga quyidagilar kiritiladi:

- mulk sifatida sotib olingan yer uchastkalari;
- mahsuldor hayvonlar;

- qiymatidan qat'i nazar o'stirishdagi va boquvdagi mollar guruhiga kiritiladigan mollar (parrandalar, quyonlar, asalarilar, qimmatbaho mo'ynali hayvonlar, qo'riqchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar);
- to'liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar;
- belgilangan tartiblarga ko'ra konservatsiya qilingan asosiy vositalar;
- kutubxona fondi;
- muzey eksponatlari va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining boshqa asosiy vositalari umumbelgilangan tartibda, shuningdek hisob siyosatida ko'rsatilgan tartiblarga ko'ra amortizatsiyalanadi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi korxonalarida yillik amortizatsiya bino va inshootlar bo'yicha yillik 5 foiz, qishloq xo'jalik texnikasi va asbob-uskunalari, ofis mebeli va jihozlari, yuk tashish mashinalari, avtobuslar bo'yicha 15 foiz, kompyutyer texnikasi, yengil avtomobillar va yo'llarda ishlatiladigan avtotraktor texnikasi bo'yicha 20 foiz, suv chiqarish nasoslari, elektrdvigatellar, generatorlar, truboprovodlar bo'yicha 8 foiz miqdorida hisoblanadi. Demak, qishloq xo'jaligi korxonalarida ushbu asosiy vositalari bo'yicha eskirishni hisoblash me'yorlari va tartibi barcha boshqa tarmoqlar uchun belgilangan tartibga to'liq o'xshaydi. Biroq, ishchi hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar kabi asosiy vositalar bo'yicha eskirishni hisoblash masalasida turli munozalar tug'diradigan, shuningdek o'ziga xos yondashishlarni talab qiladigan asosiy vositalar hisoblanadi.

Respublikamiz Soliq kodeksiga muvofiq ishchi hayvonlar va ko'p yillik o'simliklar yiliga 10 foiz me'yorida amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar guruhiga kiradi. Lekin, ushbu asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini aynan o'n yil qilib belgilash juda ham nisbiydir. Odatda, ishchi hayvonlar o'n yil ham xizmat qilmasliklari yoki undan bir necha bor ko'p muddatda xizmat qilishlari mumkin. Ko'p yillik o'simliklarning qariyb yarim asr, hattoki bir asrgacha hosil beradigan turlarining borligi ham sir emas. Shu bois ham ishchi hayvonlar va ko'p yillik o'simliklar bo'yicha amortizatsiya hisoblash bo'yicha belgilangan muddatlarni eng kam xizmat muddati sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiqdir.

Chorva mollarini, odatda, bir vaqtning o'zida ham ishchi hayvonlar ham mahsuldor hayvonlar hisoblanadi. Masalan, ot yoki tuyani yuk tashish bo'yicha ishchi hayvon, nasl yoki mahsulot (go'sht, sut) berishiga ko'ra mahsuldor hayvon, deb atash mumkin. Shu bois ham, qishloq xo'jaligi korxonalarida ishchi hayvonlar bo'yicha amortizatsiya hisobini to'g'ri

yuritishning muhim shartlaridan biri bo'lib ushbu guruhga kiruvchi hayvonlarning tarkibi va ro'yxatini aniq belgilash hisoblanadi.

Ko'p yillik o'simliklar ham ekilganligidan hosil bermaydi. Ular, odatda, 2-3 yildan keyin hosilga kiradi. Shu bois ham, ushbu asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiyani ularni parvarishlash boshlangandan keyin qaysi muddatdan boshlab hisoblanish vaqtini aniq belgilash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida, boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq, ko'pchilik asosiy vositalar, ayniqsa traktorlar, pritseplar, suv quvurlari va nasoslari, generatorlar, yuk tashish mashinalari, ishchi hayvonlar hisobot davri davomida ham chorvachilik, ham dehqonchilik sohalariga xizmat ko'rsatishi mumkin. Traktorlar, pritseplar va yuk tashish transportlari ishlab chiqarish sohalaridan tashqari yyetishtirilgan mahsulotlarni xaridorlarga yuklab jo'natish va sotishga ham xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu xususiyat buxgalteriya hisobida asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summalarini mos ravishdagi sohalar, bu sohalarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarajatlari hamda sotishga doir xarajatlar o'rtasida taqsimlab chiqish zaruriyatini tug'diradi.

Asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summalarini taqsimlash va ular hisobini tegishli schotlarga olib borish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi korxonasining u yoki bu sohasiga bevosita aloqador asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summasi mos ravishdagi «Dehqonchilik» va «Chorvachilik» schotlariga olib boriladi. Bunda ushbu soha xarajatlariga olib borilgan eskirish summasini ifodalovchi summaga asosiy vositalarning mos ravishdagi guruhlari bo'yicha eskirishi hisobiga mo'ljallangan schotlar (0210-0290) kreditlanadi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi korxonasining har ikkala ishlab chiqarish sohasiga hamda sotish jarayoniga xizmat qiluvchi asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi dastlab 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida to'planadi. Shundan so'ng, hisob siyosatida ko'rsatilgan tartib-qoidalarga, masalan asosiy vositalarni alohida olingan sohalarga ko'rsatgan xizmatlariga ketgan vaqtiga ko'ra jami hisoblangan eskirish summasi mos ravishda «Dehqonchilik», «Chorvachilik», «Davr xarajatlari» schotlariga olib boriladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarining har bir sohasi bo'yicha «Dehqonchilik» va «Chorvachilik» schotlariga olib borilgan amortizatsiya

summalari ularda yetishtirilgan mahsulotlarning turlari o'rtasida tannarxni kalkulyatsiya qilishga asos qilib olingan tartib-qoidalarga ko'ra taqsimlab chiqiladi. Masalan, «Dehqonchilik» xarajatlariga olib borilgan amortizatsiya xarajatlari paxta, boshoqli don, poliz ekinlari va boshqa shu kabi mahsulotlar o'rtasida bo'lib chiqiladi. Xuddi shunday tartibda chorvachilik sohasiga to'g'ri keluvchi amortizatsiya xarajatlari bu sohada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, masalan, go'sht, sut, tuxum, jun va shu kabilar o'rtasida taqsimlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlariga kiritilgan amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari»;

Kredit 0200 «Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar».

Hisoblangan va umumxo'jalik xarajatlariga kiritilgan amortizatsiya xarajatlarining mos ravishda tegishli ishlab chiqarish va sotish jarayonlari xarajatlariga taqsimot asosida kiritilishiga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 2011 «Dehqonchilik»;

2012 «Chorvachilik»;

9410 «Sotish xarajatlari;

Kredit 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

Tayanch iboralar

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga mo'ljallangan asosiy vositalar – omborlar, shiyponlar, mashina va asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, xo'jalik inventarlari.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga mo'ljallanmagan asosiy vositalar – ma'muriyat binosi, ofis mebeli va jihozlari, kompyutyerlar, boshqaruvga xizmat qiladigan yengil avtomobillar, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari va boshqalar.

Qishloq xo'jalik texnikasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni terib olish va topshirish kabi xo'jalik ishlarini bajarishda qatnashadigan barcha turdagi texnik vositalar.

Ishchi va nasldor hayvonlar - otlar, tuyalar, ho'kizlar, sigirlar, buqalar, qo'ylar, echkilar, cho'chqalar va boshqa ishchi sifatida ishlatiladigan va nasl beradigan hayvonlar.

Ko'p yillik o'simliklar – daraxtlar, toklar, plantatsiyalar va boshqa ko'p yillik o'simliklar.

Yerni va boshqa asosiy vositalarni obodonlashtirishga sarflangan mablag'lar – yer uchastkalari kadastrini tuzish, shudgorlash, yerni yuvish,

ko'kalamzorlashtirish, reshyotkalar o'rnatish, suv havza va omborlarini tozalash va boshqa ishlarga sarflangan kapital qo'yilmalar

Asosiy vositalar hisoblanmaydigan hayvonlar- boquvdagi va o'stirishdagi yosh mollar.

Ishchi va mahsuldor hayvonlarning hisob qiymati – o'z xo'jaligida boqilgan, shuningdek chetdan xarid qilingan mahsuldor va ishchi hayvonlarni asosiy vositalarga kirim qilishda haqiqatda sarflangan mablag'lar miqdorida aniqlangan boshlang'ich qiymati.

Ko'p yillik o'simliklarning hisob qiymati –ko'p yillik ekinlarning yoshidan qat'i nazar, nihollarni sotib olish qiymati hamda ularni ekish, parvarish qilish va o'stirishga sarflangan xarajatlarini o'z ichiga olgan qiymati.

Hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi - mollarni bir guruhidan ikkinchi guruhga o'tkazishda tuziladigan asosiy boshlang'ich hujjat.

Asosiy podani shakllantirishga kapital investitsiyalar – mollarni yosh hayvonlar guruhidan katta hayvonlar guruhiga o'tkazishgacha ularni o'stirish va parvarishlashga qilingan xarajatlar, shuningdek katta hayvonlarni chetdan xarid qilish, tashib keltirish va bu bilan bog'liq barcha boshqa xarajatlarning majmuasi.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Asosiy vositaga kiradi:

a) buzoq;
b) sigir;
v) boquvdagi xo'kiz;
g) quyon.

2. Bozordan sotib olingan ishchi otning boshlang'ich qiymatiga kirmaydi:

a) sotib olish bahosi;
b) olingan mikrokredit uchun foiz to'lovi;
v) bozor ma'muriyati bergan ma'lumotnoma haqi;
g) otni tashib keltirishga to'langan haq.

3. Bozordan sotib olingan ishchi otning boshlang'ich qiymati aniqlanadi:

a) schot-faktura asosida;
b) kirim dalolatnomasi asosida;
v) boshlang'ich qiymatni aniqlash hisob-kitobi asosida;
g) yuqorida javoblarda keltirilganlarning barchasi asosida.

4. O'lgan ishchi va mahsuldor hayvonlar balansdan chiqariladi:

a) boshlang'ich qiymatida;

b) qoldiq qiymatida;

v) sotish baholarida;

g) qayta baholangan qiymatida.

5. Ko'p yillik o'simliklarga amortizatsiya hisoblanadi:

a) kirim qilingan kundan boshlab;

b) birinchi marta hosilgan kirgan oydan keyingi oydan boshlab;

v) bir yildan keyin;

g) hisobdan chiqarilgan kuniga

6. «Belorus» traktorining boshlang'ich qiymati 15 mln. so'm. Foydali xizmat muddati – 5 yil. Jami ishlash vaqti me'yori besh yilda 10000 soat. Hisobot yilida ishlagan vaqti jami 2100 soat, shundan dehqonchilik sohasida – 1600 soat, chorvachilik sohasida - 500 soat. Dehqonchilik sohasiga sarflangan vaqt miqdorlari quyidagicha taqsimlangan: a) paxta yetishtirishga -900 soat; b) g'alla yetishtirishga – 400 soat; v)poliz ekinlarini yetishtirishga -200 soat; g) yyetishtirilgan mahsulotlarni topshirish va sotih ishlariga – 100 soat.

Bir maromli usulda traktorning yillik amortizatsiya summasi teng bo'ladi:

a) 3 mln so'm;

b) 1,5 mln.so'm;

v) 2,25 mln. so'm;

g) 0,75 mln.so'm.

7. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilidagi amortizatsiya summasi teng bo'ladi:

a) 3000000 so'm;

b) 3150000 so'm;

v) 2400000 so'm;

g) 750000 so'm.

8. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilida chorvachilik xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha teng bo'ladi:

a) 3000000 so'm;

b) 3150000 so‘m;
v) 2400000 so‘m;
g) 750000 so‘m.

9. 6-testda keltirilgan ma’lumotlar asosida ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha hisobot yilida dehqonchilik xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha teng bo‘ladi:

a) 3000000 so‘m;
b) 3150000 so‘m;
v) 2400000 so‘m;
g) 750000 so‘m.

10. 6-testda keltirilgan ma’lumotlar asosida ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha hisobot yilida paxtachilik ishlab chiqari xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha teng bo‘ladi:

a) 3150000 so‘m;
b) 1350000 so‘m;
v) 1195200 so‘m;
g) 150000 so‘m.

11. 6-testda keltiriigan ma’lumotlar asosida ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha hisobot yilida qallachilik ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo‘yicha teng bo‘ladi:

a) 1350000 so‘m;
b) 600000 so‘m;
v) 60000 so‘m;
g) 120000 so‘m.

12. 6-testda keltirilgan ma’lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo‘yicha hisobot yilida poliz ekinlari ishlab chiqari xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi ish hajmiga proportsional hisoblash usuli bo‘yicha teng bo‘ladi:

a) 135000 so‘m;
b) 300000 so‘m;
v) 119520 so‘m;
g) 150000 so‘m.

13. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida ish hajmiga proporsional hisoblash usuli bo'yicha hisobot yilidagi davr xarajatlariga olib boriladigan amortizatsiya summasi teng bo'ladi:

a) 135000 so'm;

b) 300000 so'm;

v) 119520 so'm;

g) 150000 so'm.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. «Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 17- martdagi qarori, № PQ-304.

4. «2007-yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 15- noyabrdagi qarori, № PQ-512.

5. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

6. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5 -fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

7. BHMS №1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR. AV tomonidan 1998- yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

8. BHMS №5 «Asosiy vositalar». O'zR AV tomonidan 2004- yil 20 - yanvarda ro'yxatga olingan, № 1299.

9. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: «Moliya», 2002.

10. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

11. Sanaev N. S. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari. –T.: Mehnat, 1991. - 104 b.

12. Ochilov I.K., Qurbonboev J.E., Moliyaviy hisob. -T.: Iqtisod-Moliya, 2007.

13. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

11-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAXIRALARI HISOBINING XUSUSIYATLARI

11.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining tasnifi, tavsifi va baholanishi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari deganda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning moddiy negizini tashkil etuvchi xomashyo va materiallar tushuniladi. Xarakterlisi shundaki, qishloq xo'jaligi korxonalarining bir sohasidan olingan asosiy va qo'shimcha mahsulotlar ularning boshqa sohasi uchun xomashyo va material bo'lib ham hisoblanadi. Chunonchi, dehqonchilik sohasida yyetishtirilgan boshoqli donlar, beda, makkapoya, turli xas va xashaklar chorvachilik uchun ishlatiladigan ishlab chiqarish zaxiralari bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, chorvachilikdan olingan qo'shimcha mahsulotlar, masalan, nuri dehqonchilikda mineral o'g'itlar sifatida ishlatiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari buxgalteriyasiga ishlab chiqarish zaxiralari hisobi bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarish yuklatiladi:

- ishlab chiqarish zaxiralarini turli belgilari bo'yicha to'g'ri tasniflash va tavsiflash;
- ularning kirim va chiqim qiymatlarini to'g'ri shakllantirish;
- ishlab chiqarish zaxiralarining holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish;
- ishlab chiqarish zaxiralari harakatiga doir operatsiyalarni to'g'ri va o'z vaqtida tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish;
- ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tomonidan material hisobotlarini belgilangan muddatlarda tuzish va taqdim etilishini ta'minlash;
- ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha inventarizatsiyalarni belgilangan muddatlarda o'tkazish hamda ular natijalarida o'z vaqtida tegishli schotlarda aks ettirish;
- ishlab chiqarish zaxiralari sintetik va tahliliy hisobini yuritish;
- ishlab chiqarish zaxiralari holati va harakati to'g'risidagi axborotlarni foydalanuvchilarga o'z vaqtida yetkazish.

Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish zaxiralarini turli belgilari bo'yicha tasniflash va tavsiflash mumkin.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tutgan o'rniga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish zaxiralari asosiy va yordamchi ishlab chiqarish zaxiralariga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida **asosiy ishlab chiqarish zaxiralariga** dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarni yetishtirishda ishlatiladigan urug'liklar, mineral o'g'itlar, em-xashak, dori-darmonlar va shu kabi boshqa materiallar kiradi. Ushbu ishlab chiqarish zaxiralarisiz dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirib bo'lmaydi.

Yordamchi ishlab chiqarish zaxiralariga dehqonchilik va chorvachilikda ishlatiladigan turli xo'jalik materiallari, ehtiyot qismlar, yoqilg'i, moylash materiallari, idish va idishbop materiallar, plenkalar, o'rov materiallari va shu kabilar kiradi.

Saqlash usuliga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish zaxiralari ochiq va yopiq usullarda saqlanadigan materiallarga bo'linadi. Urug'liklar, mineral o'g'itlar, dorilangan don, dori-darmonlar maxsus joylarida va moslamalarda saqlanadi. Yontoq, karrak, somon, beda va shu kabi em-xashaklar ochiq joylarda, usti yopiq ayvonlarda, shuningdek omborlarda saqlanadi.

Kelib tushish manbalariga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish zaxiralari ularning o'zlari tomonidan yyetishtirilgan hamda chetdan sotib olingan guruhlarga ajratiladi. Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tomonidan o'z maqsadlarida ishlab chiqilgan ko'k massa, makkapoya, somon, arpa, bug'doy, urug'liklar o'z ishlab chiqarishidan olingan materiallar hisoblanadi. Ta'minotchilardan, ta'sischilardan va boshqa tashqi manbalar kelib tushgan ishlab chiqarish zaxiralari o'zi ishlab chiqmagan materiallar hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan mamlakatiga ko'ra dehqonchilik va chorvachilik sohalarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish zaxiralari mahalliy va xorijdan keltirilgan ishlab chiqarish zaxiralariga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlatiladigan har bir ishlab chiqarish zaxirasini nomi, navi, hosildorligi va boshqa jihatlari bo'yicha tasniflash hamda hisobga olish zarurati ham mavjud. Bu, chunonchi, urug'lik va o'g'itlarga bevosita tegishli. Olinadigan mahsulotning hosildorligi ushbu ishlab chiqarish zaxiralarining aniq navlariga, sepilgan mineral o'g'itlarning turiga bevosita bog'liqdir. Masalan, g'allachilikda ishlatiladigan urug'likning «Elita» navi boshqa navlarga nisbatan hosildorlikni ko'proq beradi.

Kartoshkaning ayrim mahalliy navlari 60-70 sentnergacha hosil bersa, uning Gollandiya navi respublikamizning iqlim sharoitida gektariga 400 sentnergacha hosil berishi mumkin. Xuddi shunday chigitning turli navlari paxtani tez yoki kech pishishiga, shuningdek har chanoqdan turlicha miqdorda hosil olinishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralariga turli maqsadlarda ishlatiladigan xo'jalik inventarlari va anjomlari ham kiradi. Bunday ishlab chiqarish zaxiralari bo'lib, chunonchi, dehqonchilik va chorvachilikda ko'p ishlatiladigan ketmon, kurak, panshaxa, tirnagichlar, xalatlar, qo'lqoplar, fartuklar, samavar, qozon, o'choq, kosa va tovoqlar, bidonlar, flyagalar, xaltalar, ip, arqon, to'l, brezent va shu kabi ko'plab boshqa turdagi xo'jalik inventarlari va anjomlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining muhim turlaridan biri – bu o'stirishdagi va boquvdagi mollardir. Chorvachilik ishlab chiqarishida ushbu ishlab chiqarish zaxiralari, bir tomondan ishlab chiqarish natijasi, ikkinchi tomondan esa, bevosita uning maxsus yo'nalishi hisoblanadi. Shu bois ham qishloq xo'jaligi korxonalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobining xususiyatlariga darslikning keyingi qismlarida alohida to'xtalamiz. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri ishlab chiqarish zaxiralari qiymatini to'g'ri baholash hisoblanadi. Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq ishlab chiqarish zaxiralarining hisob bahosi, ularning tannarxi hisoblanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi ularning kelib tushish manbaiga ko'ra turli elementlardan tashkil topadi. Chunonchi, sotib olingan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi o'z ichiga ularning sotib olish baholaridagi qiymatini hamda sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, bojxona to'lovlari, sertifikatlash, brokerlarning xizmat haqlari va boshqalar)ni oladi. Sotib olishda ta'minotchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi ham qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari qiymatiga qo'shiladi. Chunki, ular yyetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydilar. O'z ishlab chiqarishidan olingan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha moddiy, mehnat va boshqa xarajatlardan tashkil topadi. Bunda ishlab chiqarish zaxiralari bir birligining o'rtacha tannarxi kalkulyatsiya qilish yo'li bilan topiladi.

Ta'sischilardan, shuningdek bepul olingan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi ularning shartnomalarda ko'rsatilgan baholardagi qiymatidan tashkil topadi.

Turli manbalardan kelib tushgan ishlab chiqarish zaxiralari qishloq xo'jaligi korxonalarida, boshqa tarmoq korxonalaridagidek, FIFO yoki AVECO usullardan biri asosida hisoblangan qiymati (tannarxi) bo'yicha hisobdan chiqarib boriladi.

11.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarini ta'minotchilardan sotib olinishi, ta'sischilardan ta'sis badali sifatida kirim qilinishi, boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul olinishi xalq xo'jaligining boshqa tarmoq korxonalaridagidek schot-fakturalar, shuningdek ularga ilova qilinadigan turli hujjatlar (TTN, vagon spetsifikatsiyasi, sifat sertifikati, o'lchov-tahlil qaydnomalari, dalolatnomalar va boshqalar) bilan rasmiylashtiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini aholidan naqd pulga sotib olinishi hisobdor shaxslarning bo'nak hisobotlariga kiritilgan turli kvitansiyalar, dalolatnomalar, cheklar, bozorlar ma'muriyatlari tomonidan berilgan ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari chiqimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

- schot-faktura – ishlab chiqarish zaxiralarining turli boshqa korxonalarga va xodimlarga sotilishida;
- limit – zabor kartasi, talabnoma, nakladnoy – ishlab chiqarish zaxiralarining sarflanishida;
- mineral, organik va bakteriologik o'g'itlar, zaxarli ximikatlar va gerbitsidlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi – mineral va boshqa o'g'itlar, zaxarli ximikatlar va gerbitsidlarning sarflanishida.
- tovar-transport nakladnoyi – o'simlikchilik mahsulotlari tayyorlov tashkilotiga junatish (sotish)da;
- nakladnoy – ishlab chiqarish zaxiralarining ichki xo'jalik ehtiyoji uchun foydalanishda;
- yem-xashak sarflash qaydnomasi – chorva mollarini ozuqlantirish uchun yem-xashak sarflash vaqtida;

- urug'lik va ekish materiallarini sarflash dalolatnomasi –urug'lik va ko'chat materiallarini sarflashda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining saqlanishini ta'minlash uchun ombor xo'jaligi tashkil etiladi. Omborlar umumiy va maxsus omborlarga bo'linadi. Umumiy omborlarda korxona ehtiyoji uchun zarur inventarlar, qop-qanorlar, idishlar va boshqa material boyliklar saqlanadi. Maxsus omborlar ma'lum turdagi zaxiralarni saqlash uchun tashkil etiladi, masalan, yoqilg'i ombori, o'g'itlar ombori va h.k.

Ombor xo'jaligi tashkil etilishi, tegishli uskunalar bilan jihozlanishi uchun korxona rahbari mas'ul hisoblanadi. Omborda saqlanadigan zaxiralar uchun ombor mudiri moddiy-javobgar shaxs hisoblanadi. Ombor mudiri ombor xo'jaligi hisobini yuritadi. Bunday hisob registrlari "Ombor hisobi daftari" yoki "Ombor hisobi kartochkasi" hisoblanadi. Ushbu hisobotlar ishlab chiqarish zaxiralari kirimi va chiqimini aks ettiruvchi hujjatlar asosida yuritiladi.

11.3. Ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik hisobi 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» tizimiga kiruvchi schotlarda yuritiladi. Chunonchi:

-1010 "Xomashyo va materiallar" schotida o'z ishlab chiqarishida qayta ishlash uchun mo'ljallangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olib boriladi;

-1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar" schotida sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar hisobga olib boriladi;

-1030 "Yog'ilgi" schotida qishloq xo'jaligi korxonasi transporti va texnikasi uchun zarur bo'lgan barcha turdagi (qattiq va suyuq) yoqilg'ilar hisobga olib boriladi;

-1040 "Ehtiyot qismlar" schotida qishloq xo'jalik texnikasi uchun sotib olingan barcha turdagi ehtiyot qismlar hisobga olinadi;

-1050 "Qurilish materiallari" schotida qishloq xo'jaligi korxonasida turli maqsadlarda ishlatish uchun sotib olingan qurilish materiallari hisobga olinadi;

-1060 "Idish va idishbop materiallar" schotida barcha turdagi idishlar va idish materiallari (qoplar, bochkalar va boshqalar) hisobga olinadi;

-1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schotida qayta ishlash uchun boshka tashkilotlarga berilgan materiallar hisobga olib boriladi;

-1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari" schotida qishloq xo'jaligi korxonasidagi inventar va xo'jalik jihozlari hisobga olib boriladi;

-1090 "Boshqa materiallar" schotida yem-xashaklar, urug'lik, o'g'itlar, asosiy vositalarni tugatishdan olingan metallolom, eskirgan shinalar, qayta ishlangan moylar va boshqa materiallar hisobga olib boriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari kirimi va chiqimi yuqorida nomlari zikr etilgan schotlarda hisob bahosida aks ettiriladi. Hisob bahosi bo'lib ularning sotib olish qiymati (haqiqiy tannarxi), reja tannarxi, o'rtacha baho va boshqalar hisoblanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini tanlab olingan hisob bahosining aniq turi qishloq xo'jaligi korxonasi hisob siyosatida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari kirimining hisobi boshqa tashkilotlardagi singari bevosita va bilvosita usullardan biri bo'yicha olib boriladi. Chunonchi, bevosita usulda ularning barcha manbalardan kirim qilinishi materiallar hisobi schotlarining (1010-1090 schotlar) debetida to'g'ridan-to'g'ri aks ettiriladi. Bunda materiallarning kelib tushish manbalarini aks ettiruvchi schotlar (6010, 4290, 5010, 4610 va boshqalar) kreditlanadi.

Bilvosita usulda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining ta'minotchilardan, o'zining ishlab chiqarishidan kirim qilinishi dastlab 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetida aks ettiriladi. Bunda materiallarning kelib tushish manbalarini ifodalovchi schotlar (6010, 6990, 2310 va boshqalar) kreditlanadi. Material boyliklarning omborlarga kirim qilinishi 1510 schotning kreditida va 1010-1090 schotlarning debetida aks ettiriladi. Bu usulda materiallarning hisob bahosidagi qiymati va xarid qiymati o'rtasidagi farq summasi hisobot davrida alohida 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida hisobga olinadi. Hisobot davri oxirida materiallar qiymatidagi farq summalari quyidagicha hisobdan chiqariladi:

(1) kelib tushgan materal boyliklarning xarid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan past bo'lganda:

Debet 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish»;

Kredit 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar».

(2) *kelib tushgan material boyliklarning xarid bahosidagi qiymati (tannarxi) hisob bahosidan yuqori bo'lganda:*

Debet 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar»;

Kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish».

1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida to'plangan materiallarning hisob bahosidagi qiymati va xarid qiymati o'rtasidagi farq summasi xarajatlarni aks ettiruvchi schotlarning (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9430) debetiga sarflangan materiallarning hisob bahosiga mutanosib tarzda qo'shimcha yozuv yoki qizil yozuv (storno) asosida hisobdan chiqariladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining qishloq xo'jalik ishlariga sarflanishi, shuningdek ularning sotilishi, bepul berilishi, boshqa korxonalarga ta'sis badali sifatida kiritilishi, ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi, shunindek turli boshqa chiqimlari guvohlik beruvchi hujjatlar asosida hisobda quyidagicha aks ettiriladi (11.1-jadval).

11.1-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalarida materiallarning ishlatilishi va boshqa chiqimlarini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1	Materiallarning ishlab chiqarishga sarflanishi	5000000	2010, 2310, 2510	1010-1090	Material hisobotlari, dalolatnomalar
2.	Materiallarning sotilishi: - sotish qiymatiga; - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga; - sotishdan olingan foydaga; - sotishdan ko'rilgan zararga;	 500000 400000 100000 -	 4010, 9210 9220 9430	 9220 1010-1090 9320 9220	Shartnoma, schot-faktura hisob-kitoblar, material hisoboti
3.	Materiallarning bepul berilishi: - berish qiymatiga; - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga; - sotishdan ko'rilgan zararga	 500000 500000 500000	 4010 9220 9430	 9220 1010-1090 4010	Shartnoma, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
4.	Ta'sis badali sifatida berilishi: - kiritish qiymatiga; - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	 500000 500000	 0610-0690 9220	 9220 1010-1090	Shartnoma, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
5.	Materiallarning ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi: - berish qiymatiga; - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	 500000 500000	 6710 9220	 9220 1010-1090	Ariza, schot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining tahliliy hisobi ularning alohida turlari, chunonchi urug'lik va ekish materiallari, o'g'itlar, turli ximikatlar, dori-darmonlar va boshqalar bo'yicha alohida ochilgan tahliliy hisob registrlarida yuritiladi.

11.4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollar aylanma aktivlarning muhim turini tashkil etadi. Ularni boqish jarayonida jonli mehnat sarfi, yem-xashak va boshqa xarajatlar qilinadi. Ma'lum yoshga yetganidan so'ng, o'stirishdagi mollar asosiy podaga o'tkaziladi va, aksincha, asosiy podadan brak qilingan mollar boquvga qo'yilib, aylanma aktivlarga o'tkaziladi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar quyidagicha baholanadi:

- sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar reja tannarxida baholanadi;
- go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan buzoqlar tirik vaznini tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi;
- cho'chqachilikdan olingan cho'chqa bolalari tirik vaznini tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi;
- ishchi hayvonlardan olingan nasl ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib olib baholanadi;
- tuyalardan olingan nasl 120 ozuqa-kuni reja tannarxida baholanadi;
- parranda bolalari inkubatsiyaning sutkalik parranda reja tannarxida baholanadi.
- yangi asalari uyalari reja tannarxida baholanadi;
- chetdan sotib olingan o'stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, barcha sotib olish va tashib keltirishga ketgan xarajatlar qo'shib baholanadi;
- asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar balans bahosida baholanadi;
- asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar haqiqiy tannarxida baholanadi.

Har oyda o'stirishdagi va boquvdagi mollar vazni o'lchanib, ularning oshgan vazni evaziga yangi qiymati topiladi. Yil oxirida o'sgan vaznning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng, reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq topiladi, ushbu farq summasi tuzatish yozuvlari qilinib o'stirishdagi va boquvdagi mollarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1) o'stirishdagi va boquvdagi mollarning bosh soni oshishi va saqlanishi ustidan nazorat qilish;

2) poda tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olib borish;

3) o'stirishdagi va boquvdagi mollarni parvarishlash va boqish natijalarini to'g'ri aniqlash;

4) o'stirishdagi va boquvdagi mollar harakatini to'g'ri hujjatli rasmiylashtirish va ular hisobini o'z vaqtida belgilangan tartibda yuritish.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar harakati quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

1. *Tug'ilgan hayvon naslini kirim qilish dalolatnomasi (95- shakl).* Bu hujjat buzoq, cho'chqa, qo'y va ishchi hayvonlarning bolalarini kirim qilishda ferma mudiri yoki zootexnik tomonidan ikki nusxada tuziladi. Hujjatda nasl bergan hayvon kimga birkitilganligi, uning laqabi, raqami, tug'ilgan nasl soni, jinsi, berilgan tartib raqami, ajralib turadigan belgilari ko'rsatiladi.

2. *Hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi (97-shakl).* Bu hujjat korxona rahbari tomonidan tuzilgan komissiya tomonidan tuziladi. Unda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkazilgan hayvon turi, vazni, qaysi guruhdan qaysi guruhga o'tkazilganligi, kimga birkitilganligi ko'rsatiladi.

3. *Mollar vaznini tortish qaydnomasi (98-shakl).* Ushbu hujjat har oy oxirida tuziladi va unda har bir hayvonning oy boshi va oy oxiridagi vazni asosida o'sgan vazni aniqlanadi.

4. *Mollar va parrandalarni jo'natish-qabul qilish tovar-transport nakladnoyi (1-k/x(chor)).* Bu hujjatga asosan xaridor va buyurtmachilarga sotilgan hayvonlar hisobga olinib, jo'natilgan mollar bosh soni, tirik vazni va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

5. *Mollar va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (100-shakl).* Ushbu hujjat mollar so'yilganda, kasalligi tufayli nobud bo'lganda tuziladi, unda mollarning hisobdan chiqish sabablari ko'rsatiladi.

6. *Schot-faktura.* Bu hujjat o'stirishdagi va boquvdagi mollarning chetdan sotib olinishi va chetga sotilishida tuziladi. Nasldor bo'lgan yosh mollar bo'yicha schot fakturalarga ularning «nasldorlik guvohnomasi ilova qilinadi.

7. Sutkalik yosh parrandalarning chiqishi va saralash dalolatnomasi (106-shakl). Ixtisoslashgan xo'jaliklarda inkubatsiyadan chiqqan jo'ja va boshqa parrandalarni hisobga olishda tuziladi.

Chorvalik fermalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollarni hisobga olish daftari (34-shakl) yuritiladi. Ushbu daftarda yuqorida nomlari keltirilgan hujjatlar asosida hayvon va parrandalar tarkibidagi o'zgarishlar hisobi yuritiladi. Har oyning oxirida daftardagi ma'lumotlar jamlanadi ular asosida "Mollar va parrandalar harakati to'g'risida hisobot" (102-shakl) tuziladi. Ushbu hisobot ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi fermada, ikkinchi nusxasi boshlang'ich hujjatlar ilova qilingan holda buxgalteriyaga topshiriladi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollarning, chunonchi qoramol, cho'chqa, ishchi hayvonlar, qo'y va echkilarning bolalari, boquvga qo'yilgan hayvonlar, asosiy podadan brak qilinib bo'rdoqiga qo'yilgan hayvonlar, parrandalar, yovvoyi hayvonlar, quyonlar, asalari oilalari va boshqa hayvonlarning hisobi 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schotida olib boriladi. Ushbu hayvonlarni saqlash xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schotlar tizimining "Chorvachilik" schotida hisobga olib boriladi.

1110 "O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar" schotida ularning harakati quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi.

**mahsuldor hayvonlardan olingan nasl yoki ularning o'sgan vazni summasiga*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 2010 «Chorvachilik».

**ishchi hayvonlardan olingan nasl yoki ularning o'sgan vazni summasiga*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

**o'stirishdagi va boquvdagi mollarning ta'minotchilardan sotib olinishiga*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 6010 «Ta'minotchilarga to'lanadigan schotlar».

**mollarni bozorlardan berilgan hisobdor summa evaziga sotib olinishiga*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 4290 «Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar».

** asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar summasiga*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqimlari».

**ta'sischilardan ta'sis badali sifatida olingan mollarga:*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badali bo'yicha qarzlari».

**mollarning bepul olinishiga:*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 8530 «Beg'araz olingan mulk».

**o'stirishdagi mollarni boquvdagi mollar guruhiga o'tkazilishiga:*

Debet 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»;

Kredit 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar»

** yosh mollarning asosiy podaga o'tkazilishiga:*

Debet 0840 «Asosiy podani shaklantirilishi»;

Kredit 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar».

**sotilgan yosh va bo'rdoqidagi mollar summasiga:*

Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqimlari»;

Kredit 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar».

**inventarizatsiya natijasida kam chiqqan mollar summasiga:*

Debet 5910 «Kamomadlar»;

Kredit 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar».

1110 "O'stirishdagi va boquvdagi mollar" schoti bo'yicha tahliliy hisob o'stirishdagi va boquvdagi mollarning turlari, yoshi, jinsi, guruhlari bo'yicha olib boriladi.

Tayanch iboralar

Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish zaxiralari – dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarni yetishtirishda ishlatiladigan urug'liklar, mineral o'g'itlar, yem-xashak, dori-darmonlar va shu kabi boshqa materiallar.

Qishloq xo'jaligida yordamchi ishlab chiqarish zaxiralari – dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarni yetishtirishda ishlatiladigan turli xo'jalik materiallari, ehtiyot qismlar, yoqilg'i, moylash materiallari, idish va idishbop materiallar, plenkalar, o'rov materiallari va shu kabilar.

Xo'jalik inventarlari va anjomlari – dehqonchilik va chorvachilikda ko'p ishlatiladigan ketmon, kurak, panshaxa, tirnagichlar, xalatlar,

qo'lqoplar, fartuklar, samovar, qozon, o'choq, kosa va tovoqlar, bidonlar, flyagalar, xaltalar, ip, arqon, to'l, brezent va shu kabi ko'plab boshqa turdagi xo'jalik inventarlari va anjomlari.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar – ma'lum muddatgacha o'stirishda bo'lgan, shuningdek maxsus boquvda bo'lgan hayvon bolalari (buzoq, qo'zi, cho'chqa, jo'ja va shu kabilar).

Ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi – ularning sotib olish baholaridagi qiymatini hamda sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, bojxona to'lovlari, sertifikatlash, brokerlarning xizmat haqlari va boshqalar)ni oladi.

O'z ishlab chiqarishidan olingan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi - ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha moddiy, mehnat va boshqa xarajatlar majmuasi.

Ishlab chiqarish zaxiralari kirimi hisobining bevosita usuli – ularning barcha manbalardan kirim qilinishini materiallar hisobi schotlarining (1010-1090 schotlar) debetida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirish usuli.

Ishlab chiqarish zaxiralari kirimi hisobining bilvosita usuli – ularning barcha manbalardan kirim qilinishini dastlab 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schotining debetida, materiallar kirim qilingach esa 1510 schotning kreditida va 1010-1090 schotlarning debetida aks ettirish usuli.

Materiallarning hisob bahosidagi qiymati va xarid qiymati o'rtasidagi farq summasi - hisobot davrida alohida 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schotida hisobga olinadigan summa.

Tug'ilgan hayvon naslini kirim qilish dalolatnomasi (95- shakl) – buzoq, cho'chqa, qo'y va ishchi hayvonlarning bolalarini kirim qilishda ferma mudiri yoki zootexnik tomonidan ikki nusxada tuziladigan hujjat.

Hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi (97-shakl) -korxona rahbari buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan tuziladigan va hayvonlarni bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkazilganda ularning turi, vazni, qaysi guruhdan qaysi guruhga o'tkazilganligi, kimga birkitilganligini ko'rsatuvchi hujjat.

Mollar vaznini tortish qaydnomasi (98-shakl) - har oy oxirida har bir hayvonning oy boshi va oy oxiridagi vazni asosida o'sgan vaznini aniqlanash uchun tuziladigan hujjat.

Mollar va parrandalarni jo'natish, qabul qilish tovar-transport nakladnoyi (1-k/x(chor)) - xaridor va buyurtmachilarga sotilgan

hayvonlar bosh soni, tirik vazni va boshqa ma'lumotlarni o'zida ifodalovchi hujjat.

Mollar va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (100-shakl) – mollar so'yilganda, kasalligi tufayli nobud bo'lganda tuziladigan hujjat.

Schot-faktura - bu o'stirishdagi va boquvdagi mollarning chetdan sotib olinishi va chetga sotilishida tuziladigan hujjat.

Sutkalik yosh parrandalarning chiqishi va saralash dalolatnomasi (106-shakl) – ixtisoslashgan xo'jaliklarda inkubatsiyadan chiqqan jo'ja va boshqa parrandalarni hisobga olishda tuziladigan hujjat.

Chorvalik fermalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollarni hisobga olish daftari (34-shakl) – hayvon va parrandalar tarkibidagi o'zgarishlar hisobi yuritiladigan reestr.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. O'stirishdagi mollarga kirmaydi:

a) buzoq;
b) sigir;
v) boquvdagi xo'kiz;
g) quyon.

2. Bozordan sotib olingan buzoqning boshlang'ich qiymatiga kirmaydi:

a) sotib olish bahosi;
b) olingan mikrokredit uchun foiz to'lovi;
v) bozor ma'muriyati bergan ma'lumotnoma haqi;
g) buzoqni tashib keltirishga to'langan haq.

3. O'lgan yosh mollar balansdan chiqariladi:

a) boshlang'ich qiymatida;
b) qoldiq qiymatida;
v) sotish baholarida;
g) qayta baholangan qiymatida.

4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarga sarflangan yem-xashaklar hisobda qanday aks ettiriladi?

a) yem-xashak sarfi dalolatnomasi asosida;
b) chiqim nakladnoyi asosida;
v) schot-faktura asosida;
g) kirim nakladnoyi asosida.

5. O'lgan yosh mollar balansdan chiqariladi:

a) bildirgi asosida; b) hisobdan chiqarish dalolatnomasi asosida;

v) kirim dalolatnomasi asosida; g) so'yish dalolatnomasi asosida.

6. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning saqlash xarajatlari hisobda qanday aks ettiriladi?

a) 0840 «Asosiy podani shakllantirish» schotining debetida;

b) 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»schotining debetida;

v) 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotida;

g) 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999 -yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

4. BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR AV tomonidan 2006 - yil 17- iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

5. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

6. Sanaev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari.–T.: Mehnat, 1991.- 104 b.

7.Ochilov I.K., Qurbonboev J.E., Moliyaviy hisob.- T.: Iqtisod-Moliya, 2007.

8. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

12-bob. DEHQONCHILIK ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH

12.1. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi

Dehqonchilik - moddiy ishlab chiqarish bo'lib, o'z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi:

- *yerni ekishga tayyorlash* – shudgorlash, zaxni qochirish, juyaklash va boshqalar;
- *ekish* – niholni o'stirish, urug'ni ekishga tayyorlash, uni qadash, baranalash;
- *parvarishlash* – sug'orish, kultivatsiya, dorilash, chopish, yaganalash va boshqalar;
- *hosilni yig'ib olish* – hosilni terish, tashish, omborlarga topshirish va saqlash.

Mos ravishda, dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- yerni ekishga tayyorlash xarajatlari;
- ekish xarajatlari;
- ekinni parvarishlash xarajatlari;
- hosilni yig'ib olish, omborga yetkazish va uni saqlash bilan bog'liq barcha xarajatlar.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

Moddiyligiga ko'ra ular moddiy va nomoddiy bo'lgan xarajatlarga bo'linadi. Moddiy xarajatlar dehqonchilikka sarflangan urug'liklar, o'g'it, dori-darmonlar, yem-xashaklar va boshqa materiallar hisoblanadi. Moddiy bo'lmagan xarajatlarga ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya, sug'urta, ish va xizmatlarga doir xarajatlar kiritiladi.

Tannarxga kiritish usuliga ko'ra dehqonchilik xarajatlari bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi. Bevosita xarajatlar bo'lib dehqonchilikka sarflangan bevosita material xarajatlari, bevosita mehnat haqi xarajatlari va boshqa xarajatlar hisoblanadi. Bilvosita xarajatlarga amortizatsiya, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra dehqonchilik xarajatlari quyidagi besh guruhga ajratiladi:

**moddiy xarajatlar* – dehqonchilik ishlab chiqarishga sarflangan barcha material xarajatlari (urug'lik, o'g'it, dori-darmonlar, yem-xashaklar, yoqilg'i va boshqa materiallar);

**mehnat xarajatlari* - dehqonchilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha ish haqlari;

**ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar* – dehqonchilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqi fondidan Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;

**amortizatsiya* – dehqonchilik ishlab chiqarishga aloqador asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasi;

**boshqa xarajatlar* - dehqonchilik ishlab chiqarishga tegishli barcha yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari.

Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobotda (18-shakl) quyidagi moddalarga ajratilgan holda aks ettiriladi:

1. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
2. Urug'lik;
3. O'g'itlar;
4. O'simliklarni himoya qilish vositalari;
5. Ish va xizmatlar;
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
7. Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari;
8. Sug'urta to'lovlari;
9. Boshqa xarajatlar.

«Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar» moddasida bevosita ekin o'stirish bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillarga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjatlar asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o'tkaziladi. Qo'shimcha mehnat haqi summalari to'g'ri ish haqiga mutanosib taqsimlanadi.

«Urug'lik» moddasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflangan urug'liklar hisobga olinadi. Urug'larni ekishga tayyorlash, ularni ekish joyiga tashib keltirish xarajatlari urug'lar qiymatiga kiritilmaydi, balki ekinlarga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkaziladi.

«O'g'it» moddasida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun tuproqqa solinadigan o'g'itlar, shu jumladan sanoatda ishlab chiqiladigan mineral, bakterial va boshqa o'g'itlar hamda organik o'g'itlar xarajatlari hisobga olinadi. Xarajatlar tahliliy hisobga olishda mineral va organik o'g'itlar bo'yicha alohida aks ettiriladi. O'g'itlarni tayyorlash va yerga solish xarajatlari bevosita muayyan qishloq xo'jaligi ekiniga tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha o'tkazilib, bu moddaga kiritilmaydi.

«O'simliklarni himoya qilish vositalari» moddasida begona o'tlar, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashda ishlatiladigan pestitsid, kimyoviy dorilar, gerbitsid va boshqa kimyoviy, shuningdek biologik vositalarni xarid qilish va saqlash xarajatlari kiritiladi. Xo'jalikning o'zi bu vositalar bilan ko'chatlar, ekinlarga ishlov bergandagi xarajatlar moddalari bo'yicha ekinning tannarxiga o'tkaziladi.

«Ish va xizmatlar» moddasi o'z korxonasining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qonduruvchi yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari hamda shu korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarga haq to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizatsiyasi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, yoqilg'i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi.

Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi. Amortizatsiya xarajatlarini asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari tashkil qiladi. Amortizatsiya ajratmalari har oyda alohida «Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizatsiya» tahliliy schotida qayd etib boriladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi ekin va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu maxsus qaydnoma orqali rasmiylashtiriladi. «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizatsiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

«Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari» moddasida umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

«Sug'urta to'lovlari» moddasida qishloq xo'jaligi ekinlarining hosili va ko'p yillik ekinlar, qishloq xo'jalik hayvonlari, quyon, asalari oilalari va shu kabilar bo'yicha davlat majburiy sug'urta to'lovlariga oid xarajatlar hisobga olinadi. Bu to'lovlar tegishli ekinlarning tannarxiga bevosita olib boriladi. Bu moddada mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan bino, inshoot, mashina, uskuna, inventar va boshqa asosiy vositalarning sug'urta to'lovlari ham hisobga olib boriladi. Bunday sug'urta to'lovlari mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarga mutanosib ravishda ekin va mahsulot turlari bo'yicha taqsimlanadi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulotni ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko'rib chiqilgan moddalardan birortasi ham kiritilmaydigan xarajatlar aks ettiriladi.

12.2. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki hisobi ularning alohida moddalari bo'yicha quyidagi tartiblarga ko'ra va guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi (12.1-jadvalga qarang).

Dehqonchilik ishlab chiqarishning pirovard natijasi bo'lib yyetishtirilgan mahsulotlar hisoblanadi. Mahsulot tannarxiga ularning kirim qilish-topshirish joyigacha qilingan xarajatlar kiritiladi Mahsulotlarning kirim qilish-topshirish joyi quyidagilar hisoblanadi (12.2-jadval).

Dehqonchilik mahsulotlari kirimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

1. Don va boshqa mahsulotlarni daladan jo'natish reestri – donli ekin mahsulotlarini kirimi rasmiylashtiriladi.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelish kundaligi – sabzavot, meva, poliz mahsulotlarini kirim qilishda rasmiylashtiriladi.

3. Paxta terimi to'g'risida kunlik ma'lumot - paxta xomashyosini kirim qilishda tuziladi.

4. Dag'al va shirali ozuqalarni kirim dalolatnomasi - ozuqalarni kirim qilinishi rasmiylashtiriladi.

5. O'simlikchilik mahsulotlarini saralash va quritish dalolatnomasi – donli ekin mahsulotlarini saralashda rasmiylashtiriladi.

6. Don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi - donli ekin mahsulotlarini yig'ishtirib olish mavsumi davrida rasmiylashtiriladi.

12.1-jadval

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining hisob-kitob qilish tartibi

Xarajat moddalari	Hisobga olish tartibi	Guvohlik beruvchi hujjat
1. Mehnat xarajatlari	Naryad bo'yicha ishlangan soat miqdorini 1 soatlik tarifga ko'paytirish yo'li bilan topiladi	Naryad, tabel, hisob-to'lov qaydnomasi
2. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma	Hisoblangan ish haqini belgilangan stavkaga ko'paytirish yo'li bilan topiladi	Maxsus hisob-kitob
3. Urug'lik sarfi	Ekin turi bo'yicha ekilgan maydon hajmini 1 ga yerga sarflangan urug'lik miqdoriga va 1 kg urug'likning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi	Urug'lik sarfi dalolatnomasi
4. O'g'it sarfi	Ekin turi bo'yicha ekilgan maydon hajmini 1 ga erga sarflangan o'g'it miqdoriga va 1 t o'g'itning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi	O'g'it sarfi dalolatnomasi
5. Yoqilg'i sarfi	Ekin turlari o'rtasida qishloq xo'jalik texnikasi va boshqa transportlarning har bir sohada ishlagan vaqti miqdoriga (soatiga) qarab taqsimlanadi	Mexanikning raporti, naryadlar, yo'l varaqalari
6. Sug'urta to'lovlari	Har bir mahsulot turi bo'yicha hisoblangan sug'urta to'lovi bo'yicha	Sug'urta polisi, shartnoma
7. Ish va xizmatlar	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi	Bosh agronom tomonidan tuziladigan maxsus taqsimlash hisob-kitobi
8. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi	Maxsus taqsimlash hisob-kitobi
9.Umumishlab chiqarish xarajatlari	Hisob siyosatida belgilangan tartib bo'yicha taqsimlanadi	Maxsus taqsimlash hisob-kitobi

12.2 - jadval

Dehqonchilik mahsulotlarini kirim qilish- topshirish joylari

Mahsulot turi	Kirim-topshirish joyi
1. Paxta	Franko-dala
2. Don	Franko-dala (saqlash joyi)
3. Kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi	Franko-dala (saqlash joyi)
4. Mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi, dorivor efir moy ekinlari va gulchilik mahsulotlari	Franko-qabul qilish (saqlash) joylari
5. O't, zig'ir, sabzavot va boshqa ekinlar urug'lari	Franko-saqlash joylari
6. Oziqa uchun ko'k massa	Franko-iste'mol joyi
7. Somon, xashak	Franko-saqlash joyi

12.3. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va tahliliy hisobi

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2000 «Asosiy ishlab chiqarish schotlari» tizimida olib boriladi. Ushbu schotlar tizimida dehqonchilik sohalariga qarab quyidagi schotlarni ishchi schotlar rejasida ochish mumkin: 2011 «Paxtachilik»; 2012 «G'allachilik»; 2013 «Sabzavotchilik» va boshqalar.

Ishlab chiqarish xarajatlarining tahliliy hisobi dehqonchilik sohalarining yo'nalishlariga qarab yuritiladi. Masalan, 2013 «Sabzavotchilik» schoti bo'yicha quyidagi tahliliy schotlarni ochish mumkin: kartoshka; pomidor; piyoz; sabzi; karam va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining (2011, 2012, 2013) debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettiriladi. Bunda, mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidigi yozuvlar qilinadi:

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 1010-1090 - material xarajatlariga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 6710 - mehnat haqı xarajatlariga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 6510 - ekinlarni sug'urtalash xarajatlariga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 6010, 6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 2310 - yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishiga;

Debet 2011, 2012, 2013 **Kredit** 2510 - umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

Ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining kreditida hisobot yili davomida olingan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, ya'ni unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 2810 **Kredit** 2011, 2012, 2013.

Yil boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobot davri xarajatlariga kiritiladi. Yil oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish kuzgi ekinlarni ekish xarajatlari bo'yicha inventarizatsiya yo'li bilan topiladi.

Hisobot yili oxirida har bir soha bo'yicha yyetishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summalari hisob-kitob qilinadi.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi barcha mahsulotlar bo'yicha quyidagicha topiladi:

$$Tf = (Tx - Tr) \times Mts,$$

bu yerda:

Tf – bir birlik mahsulot reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farq summasi;

Tx – bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi;

Tr – bir birlik mahsulotning reja tannarxi;

Mts – yyetishtirilgan mahsulotning miqdori (ts.)

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi mos ravishda ishlab chiqarish xarajatlari schotlarida «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullari bo'yicha aks ettiriladi. Bunda reja tannarxi haqiqiy tannarxdan yuqori bo'lgan hollarda «qizil yozuv» usuli, reja tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo'lganda esa «qo'shimcha yozuv» usulidan foydalaniladi.

Qizil yozuvlar yoki qo'shimcha yozuvlarni qaysi korrespondentsiyalanadigan schotlarga berilishini aniqlashda yyetishtirilgan mahsulotlarning to'liq sotib yuborilganligi, ishlatilganligi hamda omborda tayyor mahsulot sifatida saqlanayotganligi e'tiborga olinishi kerak. Chunonchi, to'liq sotib yuborilgan mahsulotlar bo'yicha reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summalari bevosita 9130 «Sotish tannarxi» schotiga, qisman sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu farq ularning sotilgan va omborda saqlanayotgan qismlarini aks ettiruvchi schotlar o'rtasida taqsimlanishi lozim. O'z maqsadlarida ishlatilgan mahsulotlar (masalan, yem-xashaklarni chorva mollariga berilishi) bo'yicha reja tannarxi va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq mos ravishdagi ishlab chiqarish schotlariga olib borilishi kerak.

Barcha yyetishtirilgan mahsulotlar bo'yicha haqiqiy tannarx va reja tannarx o'rtasidagi farq summalarining hisob-kitobi hamda ularni tegishli schotlarda aks ettirish tartibi misol tariqasida 12.3-jadvalda keltirilgan.

12.3-jadval

Dehqonchilik tarmog'i sohalarida yetishtirilgan mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farq hisob-kitobi

Mahsulot	Miqdori, s.	1 birlik tannarxi, so'm			Summa, so'm	Korr. Schotlar	
		reja	haqiqat	farq (+,-)		Dt	Kt
Paxta	1500	38000	37000	-1000	-1500000	9110	2010
Don	2250	15500	14000	-500	-1125000	9110	2010
Don chiqiti a) sotilgan b) chorvaga	1000 800 200	7725	8000	+275	+275000 +220000 +55000	 9110 2020	 2010 2010
Somon a) sotilgan b) chorvaga	2300 300 2000	150	155	+5	+11500 +1500 +10000	 9110 2020	 2010 2010
Pomidor	350	10000	11000	+1000	+350000	9110	2010
Piyoz a) sotilgan b) qoldiq	200 150 50	20000	20600	+600	+120000 +90000 +30000	 9110 2810	 2010 2010
Karam	250	5000	6000	+1000	+250000	9110	2010
Kartoshka a) sotilgan b) qoldiq	200 150 50	32000	33500	+1500	+300000 +225000 +75000	 9110 2810	 2010 2010
Sabzi	320	8000	8500	+500	+160000	9110	2010

Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus «Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot»da (18-shakl) jamlanadi.

Buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shaklida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi quyidagi maxsus reestrlarda yuritiladi:

- «Hisobot davri xarajat (sarf)larini hisobga olish qaydnomasi»;
- «Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi».

12.4. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari

Dehqonchilik ishlab chiqarishida asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot tushunchalari bir- biridan farqlanadi.

Asosiy mahsulot deganda qishloq xo'jaligining ixtsoslashgan sohasini yuritishda yetishtirilishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi tushuniladi.

Yondosh mahsulot asosiy ekinlardan asosiy mahsulotlar bilan bir vaqtda olinadi va iste'mol xususiyatlariga ko'ra asosiy mahsulotga o'xshash mahsulotdir.

Yordamchi mahsulot - bu asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot.

Dehqonchilikda har bir alohida qishloq xo'jalik ekinidan olinadigan mahsulot turi kalkulyatsiya obyekti hisoblanadi. Bir ekindan ayni bir vaqtda turli xususiyatdagi mahsulot olinishi tufayli dehqonchilik mahsuloti tannarxini kalkulyatsiya qilishda bevosita va bilvosita usullardan foydalaniladi. Chunonchi, xarajatlarni mahsulot tannarxiga bevosita o'tkazish usuli bir ekindan faqat bitta mahsulot turi olinadigan hollarda foydalaniladi. Bunda bir birlikning tannarxi mazkur ekinni yetishtirishga sarflangan jami xarajatlar summasini olingan mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi. Ayrim qishloq xo'jalik ekinlaridan turli mahsulotlar olinganda alohida mahsulot turlari birligi tannarxini aniqlashda jami xarajatlarni umumiy bo'lgan belgilaridan birining miqdoriy qiymatiga mutanosib taqsimlash usuli qo'llaniladi.

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash xususiyatlarini ularning ayrim turlari bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Don ekinlari. Don ekinlarini ekish va yig'ishtirish xarajatlari (donni xirmonda tozalash va quritish xarajatlari qo'shilib) don, don chiqitlari va somonning tannarxini tashkil qiladi. Don va don chiqitlarning tannarxini aniqlash uchun, avvalambor, unga tegishli jami xarajatlarda somonning belgilangan qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar don va don chiqitlarining tannarxini tashkil etadi. Donning tannarxini aniqlash uchun don chiqitlari (laboratoriyada aniqlangan donning miqdoriga qarab) sof donga aylantiriladi. So'ngra ularga tegishli jami xarajatlar shartli don miqdoriga bo'linib 1 sentner (ts) donning tannarxi aniqlanadi. Yuqoridagi tartibga ko'ra don bo'yicha bir birlik (1 ts) mahsulotning haqiqiy tannarxi joriy hisob registrlari ma'lumotlari bo'yicha quyidagi formula asosida hisob-kitob qilinadi:

$$Th = \frac{(Xj - To) - S\,rt}{(D + CHdm)},$$

bu yerda:

Xj - jami xarajatlar (2012 schotning bosh qoldig'i va debet aylanmasi summalari birgalikda olinganda);

To - yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari;

Srt - somonning reja qiymati;

D - donning miqdori (ts.);

Chdm - chiqitning donga aylantirilgan miqdori (ts.).

O'z nabatida:

$$CHdm = \frac{Ch \times F}{100\ \%},$$

bu yerda: **Ch** – don chiqiti miqdori (ts.); **F** –chiqitdan don chiqish foizi.

Misol. *Kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib va tozalab olingandan keyin 1000 s don, 200 s don chiqiti va 600 s somon olingan, deylik. Ushbu xosilni yetishtirish va xirmonda tozalash uchun 13600000 so'm sarflangan. Somonning me'yoriy xarajatlar qiymati 600000 so'mni tashkil etadi. 1 s somonning tannarxi esa - (600000:600) 1000 so'mni tashkil etdi. U holda don va don chiqitiga tegishli xarajatlar 13000000 (13600000-600000) so'mga teng.*

*Don chiqiti (chori)ni donga o'tkazish foizi – 50 % desak, u holda donga aylantirilgan chiqit miqdori 100 ts (200*50 %), jami shartli don miqdori esa 1100 s (1000+100) ga teng.*

1 s shartli donning tannarxi 11818 so'mni (13000000 : 1100) tashkil etadi.

Somon kabi jo'xoripoya bargi, g'o'zapoya, kungaboqar tupguli, karam bargi, shox-shabba (tut) va boshqa yordamchi mahsulotlarning tannarxi ushbu mahsulotlarni yig'ishtirish, presslash, tashish, g'aramlash va tayyorlashga oid boshqa ishlar xarajatlari asosida belgilangan me'yorlar bo'yicha ularga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Poliz ekinlari. Poliz ekinlari bo'yicha xarajatlar umumiy holda olib borilganda ularning ayrim turlari bo'yicha 1se. hosilning tannarxi o'stirish va hosilni yig'ishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi. Bunda xarajatlar ayrim ekinlarga mahsulot realizatsiyasidan tushgan daromadga mutanosib taqsimlanadi. Chunonchi,

sabzavotchilik sohasida alohida mahsulot turiga to'g'ri keladigan haqiqiy xarajatlar (Mx) har bir mahsulot sotish qiymatini jami sabzavotlarni sotishdan olingan sof tushumdagi hissasiga (Sx) qarab quyidagicha aniqlanadi:

$$Mx = \frac{Xj \times Sx}{100\ \%},$$

o'z navbatida:

$$Sx = \frac{C\ m}{Sj\ m} \times 100\ \%$$

bu yerda:

Xj – jami xarajatlar;

Cm – har bir mahsulot bo'yicha sotish hajmi;

Sjm – jami mahsulotlar bo'yicha sotish xajmi.

Sabzavotchilik sohasiga sarflangan xarajatlarni yyetishtirilgan mahsulotlar o'rtasida taqsimlash tartibi misol tariqasida 12.4-jadvalda keltirilgan.

12.4-jadval

Sabzavotchilik sohasi xarajatlarini mahsulotlar o'rtasida taqsimoti

Mahsulot turi	Hosil, s	1 s. sotish bahosi, so'm	Sotish qiymati, so'm	Hissasi, %	Xarajat summasi, so'm	1 birlik mahsulot tannarxi, so'm
1	2	3	4	5	6	7
Pomidor	100	15000	1500000	9,1	1228550	12285
Piyoz	150	20000	3000000	18,3	2470610	16470
Karam	120	8000	960000	5,8	783035	6525
Kartoshka	200	45000	9000000	54,7	7384830	36924
Sabzi	110	18000	1980000	12,1	1633575	14850
Jami			**16440000**	**100,0**	**13500600**	

Izoh: a) 6-ustunda har bir mahsulot turlariga to'g'ri keladigan xarajatlar ularning sotish hajmini jami mahsulot sotishdagi hissasini (5-ustun) barcha mahsulot turlariga qilingan jami xarajatlar summasiga (6-ustunning jami summasiga) ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali topiladi; b) 7-ustunq 6-ustun / 2-ustun.

Makkajo'xori. 1 se. makkajo'xori donining tannarxini hisoblashda don qabul qilish punktlarida sutkalik o'rtacha namunalarni sutkadagi donning bazis namligini (makkajo'xori sutkasidagi donning bazis namligi 22 foiz ko'lamida qabul qilingan) hisobga olib yanchish natijasida aniqlangan so'talardan quruq donga o'tkazish xo'jalikning davlatga sotgan makkajo'xori so'talaridan bazis namlikdagi don chiqishining o'rtacha foizidan aniqlanadi. Bu foiz qabul qilingan don nakladnoylari registrlarining

ma'lumotlaridan olinadi. 1 s makkajo'xori donining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini jo'xoripoyalarini yig'ishtirish sarflari va qiymatini istisno qilib, don massasiga taqsimlab aniqlanadi.

Paxta. 1 s paxtaning tannarxi uni yetishtirish va yig'ishtirish (g'o'zapoya bundan mustasno) xarajatlari summasini uning hisobga olingan (konditsiya) miqdoriga taqsimlab aniqlanadi. Paxtaning tannarxi alohida navlar bo'yicha aniqlanganda xarajatlarning umumiy summasi uning xarid narxlarining qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Lavlagi. 1 s lavlagi ildiz mevasining ishlab chiqarish tannarxi (fabrikada ishlatiladigan va tug'anagi) ularni qand lavlagining (foydalaniladigan bargining qiymati xarajatlardan chegirib tashlangach) fizik massasiga bo'lib aniqlanadi.

Tamaki. Tamaki va moxorka xomashyosining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi va xomashyoning hisobga olingan massasidan kelib chiqib, xarajatlarni mahsulotning alohida turlariga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Urug'chilikda 1 s tamaki, moxorka xomashyosi, urug'ning tannarxi muayyan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli summasi va xomashyo, urug'ning hisobga olingan massasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kartoshka. 1 s kartoshkaning tannarxi kartoshkani yetishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni palak qiymatini chegirib, kartoshka hosiliga taqsimlab aniqlanadi.

Meva va uzumlar. 1 s meva va uzum tannarxi xarajatlarining umumiy summasini mahsulot massasiga (turlar, navlar bo'yicha) taqsimlab aniqlanadi.

Choy. Saralangan choy bargi tannarxini aniqlashda xarajatlarning umumiy summasidan dag'al choy bargi, kofein uchun tarkibiy material va urug'ning xarid narxlaridagi bahosi chegiriladi. 1 s saralangan choyning tannarxi shu mahsulotga o'tkazilgan xarajatlarni saralangan choy bargi massasiga bo'lib aniqlanadi.

Tayanch iboralar

Dehqonchilik - bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xomashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Dehqonchilik jarayonlari – bular yerni ekishga tayyorlash, ekish, parvarishlash, hosilni yig'ib olish kabi jarayonlar.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari – yerni ekishga tayyorlash xarajatlari, ekish xarajatlari, ekinni parvarishlash xarajatlari va hosilni yig'ib olish, omborga yetkazish va uni saqlash bilan bog'liq barcha xarajatlar majmuasi.

Urug'lik sarfi – ekin turi bo'yicha ekilgan maydon hajmini 1 ga yerga sarflangan urug'lik miqdoriga va 1 kg urug'likning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topilgan summa.

O'g'it sarfi – bu ekin turi bo'yicha ekilgan maydon hajmini 1 ga yerga sarflangan o'g'it miqdoriga va 1 kg o'g'itning haqiqiy tannarxiga ko'paytirish yo'li bilan topilgan summa.

Asosiy mahsulot - qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan sohasini yuritishda yetishtirilishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi.

Yondosh mahsulot - asosiy ekinlardan asosiy mahsulotlar bilan bir vaqtda olinadigan va iste'mol xususiyatlariga ko'ra asosiy mahsulotga o'xshash mahsulot.

Yordamchi mahsulot - asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot.

Bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi - qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishga sarflangan jami xarajatlar summasini olingan mahsulot miqdoriga nisbati.

Bir birlik mahsulotning reja tannarxi - qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishga sarflanadigan jami xarajatlar summasini olinadigan mahsulot miqdoriga nisbati.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi – bir birlik mahsulotning haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farqni jami yyetishtirilgan mahsulot miqoriga ko'paytirishda topilgan summa.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Dehqonchilikda xarajatlar obyekti bo'lib hisoblanmaydi:

a) bog'dorchilik;
b) polizchilik;
g) quychilik;
d) sabzavotchilik.

2. «Qahramon» fermer xo'jaligida 20__ yilda paxta va don yetishtirishga quyidagi xarajatlar qilingan:

Qo'shimcha ma'lumotlar:

1. 20__ yilda olingan yalpi hosil:

- paxta bo'yicha 600 s., 1 s. reja tannarxi 30 000 so'm;

- don bo'yicha: don 260 s., 1 s. reja tannarxi 20 000 so'm, don chiqiti 20 ts. (don chiqish foizi – 50 %), 1 s. reja tannarxi 10 000 so'm, somon 50 s., 1 ts reja tannarxi 4000 so'm.

2. O'rtacha 1 s. mahsulotning sotish bahosi: paxta 50 000 so'm, don 34 000 so'm, don chiqiti 17 000 so'm;

3. Donli ekinlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish yil boshiga 3000000 so'm, yil oxiriga 2900000 so'm.

4. Olingan paxta, don va don chiqiti to'liq sotilgan, somon esa, to'liq chorvaga berilgan.

Xarajat moddalari	Summasi
Ish haqi xarajatlari: - paxtaga - donga	 6000000 2000000
Ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma: - paxtaga - donga	 1440000 480000
Urug'lik: - paxtaga - donga	 1200000 560000
O'g'itlar: - paxtaga - donga	 3800000 1500000
Yoqilg'i va moylash materiallari: - paxtaga - donga	 2500000 680000
Sug'urta to'lovlari: - paxtaga - donga	 500000 100000
Ish va xizmatlar: - paxtaga - donga	 800000 200000
Yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari: - paxtaga - donga	 1100000 700000

Olingan paxtaning reja tannarxi summasini toping va unga buxgalteriya yozuvini bering.

a) Dt 2810 Kt2010 18000000;

b) Dt 2810 Kt2010 17340000;

v) Dt 9110 Kt2010 18000000 ;

g) Dt 9110 Kt2010 17340000.

3. 2-test ma'lumotlari asosida paxtaning haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farq summasini aniqlang va unga buxgalteriya yozuvini bering:

a) Dt 2810 Kt2010 420000 – qizil yozuv;
b) Dt 2810 Kt2010 660000- qo'shimcha yozuv;
v) Dt 9110 Kt2010 660000 – qizil yozuv;
g) Dt 9110 Kt2010 420000 – qo'shimcha yozuv.

4. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan somonning reja tannarxiga buxgalteriya yozuvi bering

A) Dt 1110 Kt 2010 200 000
B) Dt 2090 Kt 2010 200 000
V) Dt 2810 Kt 2010 300 000
G) Dt 9110 Kt 2010 200 000

5. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida 1 s donning haqiqiy tannarxini toping:

a) 22666,67 so'm;
b) 24333,33 so'm;
v) 20000,0 so'm;
g) 20866,67 so'm;

6. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida 1 sentner don chiqiti haqiqiy tannarxini toping:

a) 11333,33 so'm;
b) 12166,67 so'm;
v) 10000,0 so'm;
g) 10433,34 so'm;

7. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan donning reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasini toping va unga buxgalteriya yozuvi bering:

a) Dt 9010 Kt 2010 693334,2 so'm – qo'shimcha yozuv;
b) Dt 2810 Kt 2010 1126665,8 so'm – qizil yozuv;
v) Dt 2090 Kt 2010 1126665,8 so'm – qizil yozuv;
g) Dt 9110 Kt 2010 693334,2 so'm – qo'shimcha yozuv.

8. 2-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan don chiqiti reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasini toping va unga buxgalteriya yozuvi bering:

a) Dt 9010 Kt 2010 26666,6 so'm – qo'shimcha yozuv;
b) Dt 2810 Kt 2010 43333,4 so'm – qizil yozuv;
v) Dt 2090 Kt 2010 43333,4 so'm – qizil yozuv;
g) Dt 9110 Kt 2010 26666,6 so'm – qo'shimcha yozuv.

9. Qishloq xo'jaligi maqsulotlari hisobot yili mobaynida qaysi bahosiga ko'ra kirim qilinadi?

a) sotish baxolarida;

b) haqiqiy tannarxida;

v) reja tannarxida;

g) o'rtacha baxolarda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008-yil 21-yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008- yil 26- martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

5. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR.AV tomonidan 1998- yil 14 -avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

7. BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR AV tomonidan 1998- yil 28- avgustda ro'yxatga olingan, № 486.

8. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. Sanayev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari.–T.: Mehnat, 1991. - 104 b.

10. Sanayev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. –T.: «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi», 2006. - 145 b.

11.Do'stmurodov R., Masharipov O.Fermer xo'jaligidabuxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma. –T.: 2007. - 94 b.

12. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

13-bob. CHORVACHILIK ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH

13.1. Chorvachilik xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi

Chorvachilik dehqonchilik singari qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq oldida turgan bosh vazifa bo'lib aholini go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash, shuningdek ishlab chiqarish korxonalarini chorvachilikdan olinadigan xomashyo va materiallar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog'i o'z ichiga qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, pillachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik va boshqalarni oladi. Chorvachilikning har bir tarmog'i, o'z navbatida, turli guruhlarga bo'linadi. Chunonchi, respublikamizda keng tarqalgan chorvachilikning alohida tarmoqlari quyidagi guruhlarga ajratiladi (13.1-jadval).

13.1-jadval

Chorvachilik tarmoqlari va ularda xarajat obyektlari

Tarmoqlar	Xarajat obyektlari
1. Qoramolchilik	1. Sut yo'nalishida: • asosiy poda; • yosh va boquvdagi mollar. 2. Go'sht yo'nalishida • asosiy poda va sakkiz oygacha bo'lgan molar; • sakkiz oydan katta buqalar va boquvdagi molar
2. Qo'ychilik	Go'sht yo'nalishida • asosiy poda va sakkiz oygacha bo'lgan qo'ylar • sakkiz oydan katta qo'chqorlar va boquvdagi qo'ylar
3. Cho'chqachilik	1. Asosiy poda. 2. Ikki oydan to'rt oylikkacha bo'lgan cho'chqalar. 3. To'rt oylikdan kata cho'chqalar
4. Parrandachilik	1. Tuxum yo'nalishida 2. Go'sht yo'nalishida

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini xuddi dehqonchilik ishlab chiqarishdagidek turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin. Chunonchi, *iqtisodiy mazmuniga ko'ra* chorvachilik xarajatlari quyidagi uruhlarga ajratiladi:

**moddiy xarajatlar* – chorvachilik ishlab chiqarishga sarflangan barcha material xarajatlari (yem-xashak, dori-darmonlar, to'shash materiallari, yoqilg'i va boshqa materiallar);

**mehnat xarajatlari* - chorvachilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha ish haqlari;

**ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar* – chorvachilik ishlab chiqarish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqi fondidan Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma;

**amortizatsiya* – chorvachilik ishlab chiqarishga aloqador asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasi;

**boshqa xarajatlar* - chorvachilik ishlab chiqarishga tegishli barcha yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari.

Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi moddalarga ajratilgan holda aks ettiriladi:

1. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
2. Yem-xashak;
3. Dori-darmonlar;
4. To'shash materiallari;
5. Ish va xizmatlar;
6. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
7. Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari;
8. Sug'urta to'lovlari;
9. Boshqa xarajatlar.

«Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar» moddasida chorva mollarini o'stirish, parvarishlash, boqish, sog'ish, junni qirqish va shu kabi boshqa ishlar bilan band bo'lgan ishchilar mehnatiga haq to'lash, mehnat ta'tillariga haq to'lash hamda bu summalarga nisbatan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang'ich hujjatlar asosida bevosita tegishli chorva mollari va ish turlariga o'tkaziladi.

«Yem-xashak» moddasida chorva mollarini boqish uchun sarflangan yem-xashaklar hisobga olinadi.

«Dori-darmonlar» moddasida chorva mollarini parvarishlashda sarflangan dori-darmon preparatlari xarajatlari hisobga olinadi.

«To'shash materiallari» moddasida chorva mollari saqlanayotgan joylarda mollar tagiga to'shaladigan material xarajatlari kiritiladi.

«Ish va xizmatlar» moddasida chorvachilik fermalariga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarga haq to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizatsiyasi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, yoqilg'i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi.

Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o'zining ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Amortizatsiya xarajatlarini asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari tashkil qiladi. Amortizatsiya ajratmalari har oyda alohida «Chorvachilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlangan amortizatsiya» tahliliy schotida qayd etib boriladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi chorva mollari guruhlari va ish turlari bo'yicha taqsimlanadi va bu maxsus qaydnoma orqali rasmiylashtiriladi. «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizatsiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

«Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari» moddasida chorvachilikka doir umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

«Sug'urta to'lovlari» moddasida chorva mollarini sug'urta qilish xarajatlari hisobga olinadi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida chorvachilik ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko'rib chiqilgan moddalarga kiritilmagan xarajatlar aks ettiriladi.

13.2. Chorvachilik xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki hisobi ularning alohida moddalari bo'yicha guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi. Chunonchi:

- mehnat xarajatlari - chorva mollarini parvarishlash, boqish, so'yish va boshqa ishlarni bevosita olib boruvchi ishchilar (cho'ponlar, sut sog'uvchilar, jun qirqivchilar va boshqalar) tomonidan bajarilgan ishlarga guvohlik beruvchi naryad, tabel, sut sog'ish hisobi jurnali, hisob-to'lov qaydnomalari asosida hisobga olinadi;

- ijtimoiy sug'urtaga majburiy ajratmalar maxsus hisob-kitob asosida hisobga olinadi;

- yem-xashak xarajatlari «Yem-xashak sarflash qaydnomasi» (94-shakl) asosida hisob-kitob qilinadi;

- dori-darmonlar, to'shash materiallarining sarfi maxsus dalolatnomalar asosida hisobga olinadi;

- boshqa turdagi ishlab chiqarish xarajatlari tegishli hujjatlar asosida hisobga olinadi.

Chorvachilik tarmog'ida yetishtiriladigan mahsulotlar turli tumandir. Ularning asosiylari go'sht, sut, jun, tuxum, go'ng, nasl hisoblanadi. Aynan ushbu chorvachilik mahsulotlari va ularni yetishtirishga doir ishlar xarajatlar obyekti, mos ravishda, kalkulyatsiya obyekti bo'lib hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlari kirimi quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

1. Sut sog'ish hisobi jurnali ((112-shakl) va sut harakati qaydnomasi (114-shakl) - ushbu hujjatlar asosida sigirlarni sog'ishdan olingan sutning kunlik hisobi ferma mudirlari tomonidan yuritiladi.

2. Mollarni so'yish qaydnomasi (100-shakl) va nakladnoylar –mollarni so'yishda komissiya tomonidan tuziladi.

3. Junni qirqish va kirimi dalolatnomasi (116-shakl) – jun qirqish paytida komissiya tomonidan tuziladi.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari kirimi kundaligi (81-shakl) – asal, pilla, baliq va boshqa mahsulotlar bo'yicha yuritiladi.

5. Tuxumlarni qabul qilish va saralash dalolatnomasi ((109-shakl).

6. Tug'ilgan mollarni qabul qilish dalolatnomasi (95-shakl).

7. Mollar vaznini tortish qaydnomasi (98-shakl).

8. Tirik vaznning o'sishini aniqlash hisob-kitobi (98 a-shakl).

13.3. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va tahliliy hisobi

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2020 «Asosiy ishlab chiqarish schotlari» tizimida olib boriladi. Ushbu schotlar

tizimida chorvachilik sohalariga qarab turli schotlarni ishchi schotlar rejasida ochish mumkin. masalan: 2021 «Qoramolchilik»; 2022 «Qo'ychilik»; 2023 «Parrandachilik» va boshqalar.

Ishlab chiqarish xarajatlarining tahliliy hisobi chorvachilik sohalarining yo'nalishlariga qarab yuritiladi. Masalan, 2023 «Parrandachilik» schoti bo'yicha quyidagi tahliliy schotlarni ochish mumkin: tuxum; go'sht va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining (2021, 2022, 2023) debetida haqiqatda qilingan xarajatlar aks ettiriladi. Bunda, mos ravishda xarajatlarning moddalariga ko'ra quyidigi yozuvlar qilinadi:

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 1010-1090 - material xarajatlariga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 1110 – o'stirishda va boquvdagi o'lgan mollarning qiymatiga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 6510 - mollarni sug'urtalash xarajatlariga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 6010,6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 2310 - yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobdan chiqarilishiga;

Debet 2021, 2022, 2023 **Kredit** 2510 - umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

Ishlab chiqarish xarajatlari schotlarining kreditida hisobot yili davomida olingan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, ya'ni unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 2810 **Kredit** 2021, 2022, 2023.

Hisobot yili oxirida chorvachilik ishlab chiqarishining har bir sohasi bo'yicha yyetishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summalari hisob-kitob qilinadi.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi barcha mahsulotlar bo'yicha quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Tf = (Tx - Tr) \times Mts,}$$

bu yerda:

Tf – bir birlik mahsulot reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farq summasi;

Tx – bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi;

Tr – bir birlik mahsulotning reja tannarxi;

Mts – yyetishtirilgan mahsulotning miqdori.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summasi mos ravishda ishlab chiqarish xarajatlari schotlarida «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullari bo'yicha aks ettiriladi. Bunda reja tannarxi haqiqiy tannarxdan yuqori bo'lgan hollarda «qizil yozuv» usuli, reja tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo'lganda esa «qo'shimcha yozuv» usulidan foydalaniladi.

Qizil yozuvlar yoki qo'shimcha yozuvlarni qaysi korrespondentsiyalanadigan schotlarga berilishini aniqlashda olingan mahsulotlarning to'liq sotib yuborilganligi, ishlatilganligi hamda omborda tayyor mahsulot sifatida saqlanayotganligi e'tiborga olinishi kerak. Chunonchi, olingan naslning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summalari bevosita 1110 «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schotiga, to'liq sotib yuborilgan mahsulotlar bo'yicha reja tannarx va haqiqiy tannarx o'rtasidagi farq summalari bevosita 9130 «Sotish tannarxi» schotiga, qisman sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu farq ularning sotilgan va omborda saqlanayotgan qismlarini aks ettiruvchi schotlar o'rtasida taqsimlanishi lozim.

Buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shaklida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi quyidagi maxsus reestrlarda yuritiladi:

- «Hisobot davri xarajat (sarf)larini hisobga olish qaydnomasi»;
- «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi».

13.4.Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari

Chorvachilikdan olingan mahsulotlar asosiy va yordamchi mahsulotlarga bo'linadi.

Chorvachilik tarmog'ida asosiy mahsulot deganda chorvachilikning ixtsoslashgan sohasini yuritishda olinishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi tushuniladi. Chunonchi, qoramolchilikda bosh mahsulot go'sht, sut, nasl (buzoq), o'sgan vazn hisoblanadi. Parrandachilikda tuxum va parranda go'shti bosh mahsulot hisoblanadi. Qo'ychilikda bosh mahsulot, olingan qo'zi va jun hisoblanadi.

Chorvachilik sohasida yordamchi mahsulot deganda asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot tushuniladi, masalan go'ng, pat, qil, teri va boshqalar.

Chorvachilikda uning har sohasi, bu sohalarning alohida yo'nalishlarida kalkulyatsiya obyekti bo'lib turli mahsulotlar hisoblanadi. Quyida chorvachilikning ayrim sohalari va yo'nalishlarida mahsulot tannarxini aniqlash usullari va tartibiga to'xtalamiz.

Sut yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik. Sut yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik sohasida kalkulyatsiya obyekti sut va nasl (buzoq) hisoblanadi. Bu sohada tannarxni kalkulyatsiya qilish birligi 1 sentner sut hamda bir bosh nasl (buzoq) hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning tannarxini ikkita usulda aniqlash mumkin:

1-usul – shartli mahsulot tannarxi orqali hisoblash usuli.

2-usul – har bir mahsulot tannarxini individual hisoblash usuli.

1-usul sobiq sovet davrida keng tarqalgan usul edi. Unga muvofiq sut yo'nalishidagi qoramolchilikda sut asosiy mahsulot, nasl (buzoq) esa sutga tenglashtiriladigan shartli mahsulot, deb qaralar edi. Olingan nasl (buzoq) 1,5 koeffitsiyentda shartli mahsulotga, ya'ni sutga tenglashtirilar edi. 1 sentner sut va 1 bosh naslning tannarxini aniqlash uchun ushbu usulda dastlab sut yo'nalishidagi qoramolchilikka sarflangan jami haqiqiy xarajatlardan olingan yordamchi mahsulotlar (go'ng va boshqalar)ning qiymati chegirib tashlanadi. Shundan so'ng, topilgan haqiqiy xarajatlar sutga aylantirilib olingan mahsulotning shartli birlikdagi miqdoriga bo'linadi va shu yo'l bilan 1 sentner sutning tannarxi topiladi. 1 sentner sutning tannarxiga asoslangan holda keyin 1 bosh naslning qiymati baholanadi.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda asosiy mahsulot bo'lgan sut va nasl (buzoq) tannarxining 1-usulga muvofiq hisob-kitob qilish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqaylik. **Misol.** *Fermer xo'jaligining sut yo'nalishidagi asosiy podasini boqish va parvarishlash xarajati 32505 ming so'm. Yil mobaynida olingan mahsulotlar: sut 1200 s, buzoqlar – 40 bosh, go'ng 310 t va qil – 0,3 s. Bir tonna go'ngning reja tannarxi 4000 so'm, bir sentner qilning reja tannarxi 50000 so'm.*

Yuqoridagi shartli ma'lumotlar asosida quyidagi hisob-kitoblarni qilamiz.

(1). Yordamchi mahsulotning jami reja tannarxi 1255 ming so'm (310*4000 + 0,3*50000).

(2). Kalkulyatsiya qilinadigan shartli mahsulot (sut)ning miqdori 1260 sentner (1200 + 40*1,5).

(3). Bir sentner sutning tannarxi 24,8 ming so'm [(32505- 1255) / 1260].

(4). Jami buzoqlarning tannarxi 1488 ming so'm (60*24,8).

(5) Bir bosh buzoqning tannarxi 37,2 ming so'm (1488/40).

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingan sut va buzoqning tannarxini aniqlashning 2-usuli hozirgi paytda respublikamizda keng qo'llanilmoqda. Bu usulga muvofiq olingan sut va buzoq tannarxini aniqlash uchun dastlab sut yo'nalishidagi qoramolchilkka sarflangan jami haqiqiy xarajatlar (yordamchi mahsulotlar qiymati chegirilgan holda) aniqlanadi. Shundan so'ng jami haqiqiy xarajatlarning 10 foizi buzoq tannarxiga, qolgan 90 foizi sut tannarxiga olib boriladi. Yuqorida keltirilgan misoldagi ma'lumotlar asosida ushbu usulga ko'ra sut va buzoq tannarxi quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

(1) jami ishlab chiqarish xarajatlari – 32505 ming so'm;

(2) tannarxni hisoblashda chegirib tashlanadigan yordamchi mahsulotning qiymati 1255 ming so'm (310*4000 +0,3*50000);

(3) tannarxni hisoblashga asos qilib olinadigan haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari 31250 ming so'm (32505 – 1255);

(4) sutning jami tannarxi 28125 ming so'm (31250* 90 %);

(5) buzoqlarning jami tannarxi 3125 ming so'm (31250 *10 %);

(6) 1 s sutning tannarxi 23,4 ming so'm (28125/ 1200);

(7) 1 bosh buzoqning tannarxi 78,1 ming so'm (3125/40).

Yirik shoxli qoramollar bolalari hamda boquvdagi mollarni kelgusida parvarish (o'stirish)ga sarflangan xarajatlarni hisob-kitob qilishda kalkulyatsiya obyekti bo'lib ularning o'sgan vazni va tirik vazni hisoblanadi.

Hisobot yilida mollarning o'sgan vaznini (O'v) ularning har bir hisob guruhi bo'yicha quyidagi arifmetik qurilma asosida topish mumkin:

$$O'v = (Vdo + Vch) - (Vn + Vk + Vdb),$$

bu yerda:

Vdo – guruhga kiruvchi mollar boshining hisobot davri oxiridagi jami tirik vazni; **Vch** – guruhga kiruvchi mollarning hisobot davrida chiqimga olingan boshining jami tirik vazni (o'lgan mollarning tirik vaznisiz); **Vn** – hisobot davrida olingan naslning (mol bolalarining) tirik vazni; **Vk** – hisobot davrida chetdan o'stirishga va boquvga kirim qilingan mollarning tirik vazni; **Vdb** – hisobot davri boshiga jami mavjud mollarning tirik vazni.

Guruhga kiruvchi mollarning 1 sentner o'sgan vaznining tannarxi shu guruhga kiruvchi mollarni parvarishlash va o'stirishga qilingan ishlab chiqarish xarajatlaridan yordamchi mahsulotlar (go'ng va qil) qiymatini

chegirib tashlagandan so'ng qolgan summani hisobot davrida guruh bo'yicha aniqlangan o'sgan vazn miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

Guruhga kiruvchi mollar bo'yicha 1 sentner tirik vaznning tannarxi (Ttv) quyidagi arifmetik qurilma yordamida aniqlanadi[10]

$$Ttv = \frac{Tdbbq + To'b. + Tk + Tn}{Tvdo + Tvch},$$

bu yerda:

Tdbbq – guruhga kiruvchi mollarning davr boshidagi balans qiymati;

To'b – hisobot davrida guruhga kiruvchi mollarni o'stirish va parvarishlash xarajatlari (yordamchi mahsulotlar qiymatisiz); **Tk** – hisobot davrida chetdan kirim qilingan mollarning qiymati; **Tn** – joriy yilda olingan nasl (mol bolalari)ning qiymati; **Tvdo** –davr oxiriga guruhga kiruvchi mollarning jami tirik vazni; **Tvch** – hisobot davrida chiqimga olingan mollarning jami tirik vazni (o'lgan mollarning tirik vaznisiz).

O'stirishdagi va boquvdagi mollar bo'yicha 1 s o'sgan vazn va 1 ts tirik vazn tannarxini yuqorida keltirilgan arifmetik qurilma asosida kalkulyatsiya qilish tartibi 13.2-jadvalda keltirilgan.

13.2-jadval

O'stirishdagi va boquvdagi mollar bo'yicha 1 s o'sgan vazn va g s tirik vazn tannarxi kalkulyatsiyasi

Ko'rsatkichlar	Qoramollar soni	Tirik vazn, s	Tannarx, ming so'm
1. Yil boshiga qoldiq	**45**	**45**	**26400,0**
2. Hisobot yilda olindi:	**46**	**20**	**11878,0**
*nasl	40	5	1488.0
*o'sgan vazn	-	15	7790.0
*chetdan olindi	6	4	2600,0
3. Jami (1+2)	**91**	**65**	**38278,0**
4. Chiqim:	**16**	**24,3**	**14134,0**
*asosiy podaga o'tkazildi	10	15	8834,0
*sotildi va boshqa chiqimlar	5	9	5300,0
*o'ldi	1	0.3	-
4. Yil oxiriga qoldiq	**75**	**40,7**	**24144,0**
5 Tannarx:			
*1 s tirik vazn			588.90
*1 s o'sgan vazn			519.30

[10] Guruhga kiruvchi mollarning tirik vazni ularning har birini torozida tortish o'li bilan aniqlanadi va maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

13.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 sentner tirik vaznning tannarxi 588,9 ming so'mni (38278,0 / 65), 1 s o'sgan vaznning tannarxi 519,3 ming so'mni (7790,0 / 15) tashkil etgan. Guruhga kiruvchi mollar chiqimining qiymati, mos ravishda, (1) asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollar bo'yicha 8834,0 ming so'mni (15*588,90), (2) sotilgan va mollar bo'yicha 5300,0 ming so'mni (9*588,9) tashkil etgan.

Go'sht yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik. Go'sht yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik sohasida kalkulyatsiya obyekti bo'lib o'sgan vazn, 8 oygacha bo'lgan buzoqlar va tirik vazn, shuningdek 8 oydan oshgan yosh mollar hamda boquvdagi yirik mollar bo'yicha ularning o'sgan vazni va tirik vazni hisoblanadi.

8 oygacha bo'lgan buzoqlar bo'yicha 1 s o'sgan vaznning tannarxi quyidagi ketma-ketlikda va tartibda aniqlanadi.

(1). Asosiy poda (sigirlar va xo'kizlar), 2 yoshdan oshgan buqa va boquvdagi mollarni boqish va parvarishlashga, shuningdek 8 oygacha bo'lgan buzoqlarni parvarishlashga ketgan jami xarajatlar (yordamchi mahsulot qiymati chegirilgan holda) topiladi.

(2). 8 oygacha bo'lgan buzoqlarning hisobot davrida o'sgan vazni topiladi.

(3). Yuqoridagi tartibning 1-bandida topilgan jami summa 8 oygacha bo'lgan buzoqlarning o'sgan vazniga bo'linadi. Shu yo'l bilan topilgan summa 8 oygacha bo'lgan buzoqlar bo'yicha 1 s o'sgan vazning tannarxini tashkil etadi.

8 oygacha bo'lgan buzoqlar bo'yicha 1 s tirik vaznning tannarxini aniqlash uchun dastlab asosiy podaga ketgan sarf-xarajatlarga (yordamchi mahsulot qiymati chegirilgan holda) ushbu guruhga kiruvchi buzoqlarning hisobot yili boshidagi balans qiymati hamda chetdan olingan buzoqlarning qiymati qo'shilib ularning jami qiymati topiladi. Topilgan summani yil oxiridagi 8 oygacha bo'lgan buzoqlar hamda hisobot yilida chiqim bo'lgan (o'lganlardan tashqari) buzoqlarning jami vazniga bo'lish orqali 1 s tirik vaznning o'rtacha tannarxi aniqlanadi. Ushbu o'rtacha tannarx jami 8 oygacha bo'lgan buzoqlarning jami qiymatini, shuningdek emizikli buzoqlarning hisobot yili oxiridagi qiymatini aniqlashga asos bo'ladi.

8 oydan oshgan yosh mollar hamda boquvdagi yirik mollar bo'yicha ularning o'sgan vazni va tirik vaznining tannarxi ham yuqoridagi tartibga o'xshash tarzda aniqlanadi.

Qo'ychilik. Qo'ychilikda kalkulyatsiya obyekti bo'lib asosan o'sgan vazn (go'sht), tirik vazn, qo'zi, jun hisoblanadi. Asosiy mahsulotning tannarxi sohaga qilingan jami ishlab chiqarish xarajatlaridan yordamchi mahsulotlar (go'ng, o'lik tug'ilgan va tug'ilgandan keyin o'lgan qo'zilar terisi, texnik maqsadlarda ishlatilgan o'lgan mol go'shti) qiymatini ayirgandan keyin qolgan summadan iborat bo'ladi. Ushbu summa olingan mahsulotlar o'rtasida ularning sotish bahosi qiymatidagi hissasiga qarab taqsimlanadi.

Misol: Go'sht, jun va qo'zi yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaligining jami xarajatlari 285500 ming so'm. Olingan mahsulotlar: (1) o'sgan vazn (go'sht) 400 s; jun 100 s; olingan qo'zilar soni 500 bosh. Sotish hajmi (sotish baholarida): go'sht - 30000 ming so'm; jun -20000 ming so'm; qo'zi -3750 ming so'm.

Yuqoridagi misolda keltirilgan shartli ma'lumotlarga asosan qo'ychilikdan olingan mahsulotlar tannarxining hisob-kitobi 13.3-jadvalda keltirilgan.

13.3-jadval

Qo'ychilik sohasida mahsulot tannarxini aniqlash hisob-kitobi

Mahsulot turi	O'lchov birligi	Mahsulot soni	Mahsulotlarni sotish baholaridagi qiymati, ming so'm	Mahsulotning sotish hajmidagi hissasi, %	Ishlab chiqari xarajatlari, ming so'm	Bir birlik mahsulot tannarxi, ming so'm
Go'sht	s	400	300000	92,7	264658	661,6
Jun	s	100	20000	6,2	17701	177,0
Qo'zi	bosh	500	3750	1,1	3141	6,28
Jami	-	-	**323750**	**100,0**	**285500**	-

13.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'sgan vazn (go'sht)ning jami tannarxi 264658 ming so'mni (285500*92,7%), 1 sentner go'shtning tannarxi 661,6 ming so'mni (264658 /400), jun yetishtirishga sarflangan jami xarajatlar 17701 ming so'mni (285500*6,2%, 1 sentner junning tannarxi esa 177 ming so'mni (17701/100), qo'zi yetishtirishning jami tannarxi 3141 ming so'mni (285500*1,1%), olingan 1 bosh qo'zining tannarxi 6,28 ming so'mni (3141 /500) tashkil etgan.

Parrandachilik. Parrandachilikda ishlab chiqarishning turli yo'nalishlari hamda bosqichlariga qarab turlicha asosiy mahsulotlar olinadi. Chunonchi, tuxum yo'nalishidagi parrandachilik ishlab chiqarishining birinchi

bosqichida 1 kunlik jo'ja, ikkinchi bosqichida boquvdagi jo'jalarning o'sgan vazni, keyingi bosqichida esa olingan tuxum asosiy mahsulot hisoblanadi. Mos ravishda, ushbu mahsulotlar tannarxi kalkulyatsiya qilinadi.

1 kunlik jo'jalarning tannarxi inkubasiyaga qo'yilgan tuxumlar qiymati hamda inkubasiya xarajatlari (mehnat haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, elektr energiyasi, isitish va boshqa turdagi xarajatlar) birgalikda olingan summadan yordamchi maxsulot qiymatini chegirib tashlagandan so'ng qolgan summani olingan 1 kunlik jo'jalar soniga bo'lish orqali topiladi. Misol uchun, fermer xo'jaligi 21 kundan iborat inkubasion davrga qo'yilgan 50000 dona tuxumdan 49500 dona 1 kunlik jo'ja olgan, inkubasion sexning jami xarajatlari jami 20500 ming so'mdan iborat bo'lgan deylik. U holda 1 dona bir kunlik jo'janing tannarxi o'rtacha 414 so'mni (20500/49500) tashkil qiladi.

Bir kunlik jo'jalar kirim qilingan kundan boshlab, to 4-5 oygacha o'stirishdagi va boquvdagi mollar guruhiga kiritiladi. Ushbu davrda kalkulyatsiya obyekti bo'lib o'sgan vazn hisoblanadi. O'sgan vaznning tannarxini topish uchun o'stirishdagi va boquvdagi tovuqlarga sarflangan xarajatlar (yordamchi mahsulotlar qiymati chegirilgan holda) summasi hisobot davrida o'stirishdagi va boquvdagi tovuqlarning o'sgan vazni miqdoriga bo'linadi.

O'strishdagi va boquvdagi tovuqlarning tuxum beruvchi tovuqlar guruhiga o'tkazilgan kundan boshlab kalkulyatsiya obyekti bo'lib tuxum hisoblanadi. Bir birlik tuxum tannarxini topish uchun tuxum beruvchi tovuqlar guruhiga sarflangan jami ishlab chiqarish xarajatlari (go'ng, pat, qanot qiymati chegirilgan holda) jami yig'ishtirib olingan tuxumlar soniga bo'linadi.

Asalarichilik. Asal yo'nalishidagi asalarichilikda kalkulyatsiya obyekti bo'lib asal, asalari uyasi, asalari suti, yangi oila kabi asosiy va yondosh mahsulotlar hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda ularning barchasi belgilangan koeffitsiyentlarda shartli mahsulotga (asalga) o'tkaziladi. Shundan so'ng barcha turdagi shatrli mahsulotlarning jami shartli mahsulotdagi hissasi topiladi. Ushbu hissa asosida asalarichilikka sarflangan jami xarajatlar mahsulotlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi. Har bir turdagi shartli mahsulot bo'yicha topilgan xarajat shu turdagi mahsulotning olingan miqdoriga bo'linib, bir birlik mahsulotning tannarxi topiladi.

Baliqchilik. Baliqchilikda kalkulyatsiya obyekti bo'lib baliq va baliq bolalari hisoblanadi. Ushbu mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishda

ularning barchasi belgilangan koeffitsiyentlarda shartli mahsulotga (baliqqa) o'tkaziladi. Shundan so'ng barcha turdagi shatrli mahsulotlarning jami shartli mahsulotdagi hissasi topiladi. Ushbu hissa asosida baliqchilikka sarflangan jami xarajatlar mahsulotlar o'rtasida taqsimlab chiqiladi. Har bir turdagi shartli mahsulot bo'yicha topilgan xarajat shu turdagi mahsulotning olingan miqdoriga bo'linib, bir birlik mahsulotning tannarxi topiladi. Baliq bolalariga to'g'ri keladigan xarajatlar baliqchilik sohasi uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kelgusi hisobot davriga o'tkaziladi.

Tayanch iboralar

Chorvachilik - mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Chorvachilik tarmog'i sohalari - qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, pillachilik, asalarichilik, baliqchilik, pillachilik va boshqalar.

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari – mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni sotib olish, yetishtirish, parvarishlash bilan bog'liq barcha xarajatlar majmuasi.

Mehnatga haq to'lash xarajatlari - chorva mollarini parvarishlash, boqish, sovish va boshqa ishlarni bevosita olib boruvchi ishchilar (cho'ponlar, sut sog'uvchilar, jun qirqivchilar va boshqalar) tomonidan bajarilgan ishlar uchun hisoblangan ish haqi summasi.

Yem-xashak xarajatlari – chorva mollarini yetishtirish va parvarishlash uchun sarflangan yem-xashaklarning pulda ifodalangan qiymati.

Dori-darmonlar sarfi – chorva mollarini yetishtirish va parvarishlash uchun sarflangan dori-darmonlarning pulda ifodalangan qiymati.

To'shash materiallarining sarfi – chorva mollarini yetishtirish va parvarishlash uchun sarflangan to'shash materiallarining pulda ifodalangan qiymati.

Chorvachilik tarmog'ining asosiy mahsuloti - chorvachilikning ixsoslashgan sohasini yuritishda olinishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi (go'sht, sut, nasl, o'sgan vazn, tuxum, jo'ja, qo'zi, jun, baliq, asal va boshqalar).

Chorvachilik sohasida yordamchi mahsulot - asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot (go'ng, pat, qil, teri va boshqalar.

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Chorvachilik tarmog'iga quyidagilarning qaysilari kiradi:

a) qoramolchilik;
b) cho'chqachilik;
v) asalarichilik;
g) hammasi.

2. Chorvachilik tarmog'iga quyidagilarning qaysi biri kirmaydi:

a) qo'ychilik;
b) parandachilik;
v) yilqichilik;
g) to'g'ri javob yo'q.

3. Chorvachilik xarajatlari obyektlariga kiradi:

a) boquvdagi molar;
b) parrandalar;
v) asal;
g) hammasi.

4. 2021 «Qoramolchilik» schoti bo'yicha haqiqiy xarajatlar 10000000 so'm. O'sgan vazn 98 sentner, 1 s reja tannarxi – 105000 so'm, olingan go'ng – 1500 tonna (dehqonchilik tarmog'iga ishlatilgan), 1 tonna go'ngning reja tannarxi – 2000 so'm

O'sgan vazn reja tannarxini toping va unga buxgalteriya yozuvi bering:

a) 98*100000 = 9800000 (Dt 1110 Kt 2011);
b) 98*105000 = 10290000 (Dt 1110 Kt 2011);
v) 98*105000 = 10290000 (Dt 2810 Kt 2011);
g) 98*105000 = 10290000 (Dt 2010 Kt 2011).

5. 4 - testda keltirilgan ma'lumotlar asosida olingan go'ngga buxgalteriya yozuvini bering.

a) 1500* 2000 = 3000000 (Dt 2010 Kt 2021);
b) 1500* 2000 = 3000000 (Dt 2011 Kt 2820);
v) 1500* 2000 = 3000000 (Dt 2810 Kt 2021);
g) 1500* 2000 = 3000000 (Dt 2010 Kt 2010).

6. 4 - testda keltirilgan ma'lumot asosida 1 s vaznning haqiqiy tannarxini aniqlang:

a) (10000 / 98)*1000 = 102041 so'm;

b) ((10000 – 3000) / 98)*1000 = 71429 so'm;

v) ((10000 Q 3000) / 98)*1000 = 103653 so'm;

g) to'g'ri javob yo'q.

7. 4 va 9 - testlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'sgan vaznning haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farq summasini toping va unga buxgalteriya yozuvini bering:

a) (102041 – 105000) * 98 = 289982 so'm (Dt 2010 Kt 2010 qizil yozuv);

b) (71429 – 105000) * 98 = 3289985 so'm (Dt 1110 Kt 2010 qizil yozuv);

v) (105102 – 105000) * 98 = 9996 so'm (Dt 1110 Kt 2010);

g) to'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008-yil 2- yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 26-martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

5. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR. AV tomonidan 1998- yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

7. BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR. AV tomonidan 1998- yil 28- avgustda ro'yxatga olingan, № 486.

8. Sanayev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. –T.: «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi», 2006. - 145 b.

9.Do'stmurodov R., Mashari pov O.Fermer xo'jaligidabuxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma. –T.: 2007.- 94 b.

14-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA YORDAMCHI VA UMUMISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI

14.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning taqsimlanishi

Qishloq xo'jaligi korxonalarini yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari deganda qishloq xo'jaligi korxonasining asosiy faoliyat turlariga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tushuniladi. Ularning asosiylariga quyidagilar kiradi:

*mashina-traktor parki (MTP);

*ta'mirlash ustaxonalari;

*avtotransport xo'jaligi;

*elektr, gaz va suv ta'minoti xo'jaligi;

*ishchi hayvonlarni saqlash xo'jaligi va boshqalar.

Ushbu va boshqa turdagi yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha tarmoq va sohalariga xizmat ko'rsatadi. Bu xo'jaliklarning xarajatlari qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan yyetishtirilgan u yoki bu turdagi mahsulotlarni yetishtirishga bevosita taalluqli bo'lmaganligi uchun ularni dastlab alohida schotlarda yig'ish, so'ngra esa hisobot davri oxirida biror mezonga asosan taqsimlash zarurati tug'iladi. Bunday xarajatlar hisobi dastlab maxsus 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schotida olib boriladi. Ushbu schotning debetida yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklariga haqiqatda sarflangan xarajatlar to'planadi, uning kreditida esa yordamchi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning qishloq xo'jaligi korxonasining tarmoq va sohalari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish hamda sotish va boshqarish xarajatlari schotlari o'rtasida taqsimlanishi (hisobdan chiqarilishi) aks ettiriladi. Xarajatlar hisobini hisobot davrlari (oy, chorak, yil) mobaynida reja tannarxda yurituvchi korxonalarda 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schotining kreditida xarajatlar taqsimoti reja tannarxida hisobdan chiqarib boriladi va yilning oxirida haqiqiy xarajatlar aniq bo'lgach, kalkulyatsiya farqi «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullariga muvofiq ushbu schotning kreditida aks ettiriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining hisob siyosatiga ko'ra ishchi schotlar rejasida 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schoti

tizimida har bir yordamchi ishlab chiqarish bo'linmasi xarajatlari hisobi uchun alohida schotlarni ham ochishlari mumkin, masalan:

2311 «MTP xarajatlari»;

2312 «Ta'mirlar ustaxonasi xarajatlari»;

2313 «Avtotransport xo'jaligi xarajatlari»;

2314 «Suv xo'jaligi xarajatlari»;

2315 «Elektr ta'minoti xo'jaligi xarajatlari»;

2316 «Ishchi hayvonlarni saqlash xarajatlari»;

2317 «Boshqa yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari xarajatlari».

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari» schotlar tizimida ochilgan barcha schotlarni yuritishga turli boshlang'ich hujjatlar, oraliq va yig'ma hisob registrlari ma'lumotlari asos bo'lib hisoblanadi. Ularning asosiylariga quyidagilar kiradi:

1. «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisobot» (18b- shakl);

2. «Ta'mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobi jurnali»;

3. «Nuqsonlar va ularni bartaraf etishga ketgan sarf-xarajatlar qaydnomasi»;

4. Yo'l varaqalari, TTN, nakladnoylar;

5. «Transport xarajatlari yig'ma qaydnomasi»;

6. «MTPdan foydalanish xarajatlarining yig'ma qaydnomasi»;

7. Schot fakturalar;

8. Naryadlar va boshqalar;

«Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish taribi tug'risida nizom»ga ko'ra yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan schotlarda xarajatlar ularning quyidagi moddalari bo'yicha aks ettirilishi lozim:

*material xarajatlari;

*asosiy va qo'shimcha ish haqlari;

*ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

*amortizatsiya xarajatlari;

*boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan schotlarning har birining (2311, 2312, 2313, 2314 va boshqalar) debetida yuqorida keltirilgan xarajat moddalariga guvohlik beruvchi hujjatlar asosida quyidagi yozuvlar qilinadi:

Debet 2311-2317 **Kredit** 1010-1090 - material xarajatlariga;

Debet 2311-2317 **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;
Debet 2311-2317 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;
Debet 2311-2317 **Kredit** 6510 - sug'urtalash xarajatlariga;
Debet 2311-2317 **Kredit** 6010,6990 - ish, xizmat xarajatlariga;
Debet 2311-2317 **Kredit** 2510- umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

Har bir yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari schotining debetida to'plangan xarajatlar qishloq xo'jaligi korxonalarida qabul qilingan tartiblarga ko'ra dastlab asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari, ushbu tarmoqlar ichida alohida sohalar ichida esa mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanadi. Chunonchi:

***mashina-traktor parki xizmatlari** dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari xarajatlari schotlariga bevosita ko'rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida olib boriladi, misol uchun yerni shudgorlash, ekish, yagonalash, hosilni o'rib berish, yig'ish va tashish kabi xizmat haqlari bevosita dehqonchilik xarajatlariga olib boriladi; dehqonchilik xarajatlariga olib borilgan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari olingan mahsulotlar (paxta, bug'doy, sabzavotlar va boshqalar) o'rtasida ushbu mahsulotlarga ajratilgan yer maydonlari hajmiga, ko'rsatilgan xizmatlar soniga qarab taqsimlanadi.

***ta'mirlash ustaxonalari xarajatlari** ularning qaysi tarmoqqa va sohaga tegishliligiga qarab taqsimlanadi.

***ko'rsatilgan agrotexnik xizmatlar xarajatlari** ham xuddi yuqoridagi tartibga o'xshash tarzda tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanadi.

***suv ta'minoti xo'jaligi xarajatlari** jami sarflangan suv xarajatlarini ekin turlari o'rtasida ular egallagan maydonga, sug'orish soniga va suv sarfi me'yorlariga ko'ra bosh mirob tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida taqsimlab chiqiladi.

***elektr ta'minoti xo'jaligi xarajatlari** bosh energetik tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida tarmoqlar va sohalar, ular o'rtasida esa mahsulotlar bo'yicha taqsimlanadi.

***ishchi hayvonlarni saqlash xarajatlari** ularni qaysi tarmoqda foydalanilganlik vaqtiga, bajargan ishlari miqdoriga qarab taqsimlanadi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli xarajatlar schotlariga olib borilishiga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

a) asosiy ishlab chiqarish schotlariga olib borilganda:

Debet 2010 (tegishli schotlar) **Kredit** 2310 (tegishli schotlar);
b)kapital qurilish schotlariga olib borilganda:
Debet 0810,0890 **Kredit** 2310 (tegishli schotlar);
v)davr xarajatlari schotlariga olib borilganda:
Debet 9410,9420 **Kredit** 2310 (tegishli schotlar).

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi maxsus «Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi.

14.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi

Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari deganda ularning ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalariga umumiy holda tegishli bo'lgan hamda u yoki bu mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritib bo'lmaydigan, balki ularning tannarxiga bilvosita, ya'ni taqsimlash yo'li bilan olib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Odatda, qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini boshqarish, bir vaqtning o'zida turli tarmoq va sohalarga xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari va ularning turli sohalariga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagi moddalari bo'yicha guruhlanadi:

***asosiy va qo'shimcha ish haqi xarajatlari** – guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi mutaxassislari, xodimlari va ishchilariga, chunonchi, agranomlar, zootexniklar, vetvrach, vettexniklar, laboratoriya mudiri va xodimlari, brigadirlar, ferma mudirlari, hisobchilar, qorovullar va shu kabi boshqa umumishlab chiqarish maqsadidagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqlari kiritiladi;

***ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar** – guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi mutaxassislari, xodimlari va ishchilariga, chunonchi, agranomlar, zootexniklar, vetvrach, vettexniklar, laboratoriya mudiri va xodimlari, brigadirlar, ferma mudirlari, hisobchilar, qorovullar va shu kabi boshqa umumishlab chiqarish maqsadidagi xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar kiritiladi;

***mehnat himoyasi va texnika xavfsizligi xarajatlari** - guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasida mehnat himoyasi va texnika

xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarga sarflanadigan xarajatlar kiritiladi;

***xo'jalik inventarlari va buyumlariga doir xarajatlar** – guruhga dehqonchilik va chorvachilik sohasi xodimlariga berilgan maxsus kiyimlar, poyafzal, inventarlar, ishlatilgan vetpriborlar, dori-darmonlar va boshqa xo'jalik buyumlari qiymati kiritiladi;

***asosiy vositalar amortizatsiyasi va ularni saqlash xarajatlari»** - guruhga umumishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari, ularni saqlash, ta'mirlash, bino va inshootlarni isitish, yoritish, tozalash xarajatlari kiritiladi;

***dala shiyponlarini saqlash va ishchilarni ovqatlantirish xarajatlari»** - guruhga dehqonchilik tarmog'iga mo'ljallangan dalalarda joylashgan shiyponlar, palatkalar, vaqtinchalik notitul inshoatlarni saqlash, ulardagi asosiy vositalarga qilingan amortizatsiya ajratmalari, joriy va kapital ta'mirlash, ishchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash xarajatlari kiritiladi;

***boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari** – umumxo'jalik maqsadidagi asosiy vositalarni ijaraga olish, ularni sug'urta qilish, o'simliklar va mollarni karantin qilish va boshqa umumishlab chiqarishga doir tadbirlarga sarflangan xarajatlar kiritiladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun qishloq xo'jaligi korxonasining ishlab chiqarish bo'linmalari rahbarlari har oyda «Umumishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot» (18v-shakl) tuzadilar va uni buxgalteriyaga topshiradilar. Ushbu hisobotda belgilangan moddalar kesimida hisobot oyida va yil boshidan boshlab qilingan xarajatlar aks ettiriladi. Yil boshidan boshlab qilingan jami xarajatlar summasi hisobotning oldingi davr va hisobot oyi ma'lumotlarini jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining sintetik hisobi 2500 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida yuritiladi. Hisob siyosatida belgilangan tartibga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari ushbu schotlar tizimida quyidagi schotlarni ochishlari mumkin: 2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «Chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari». Ushbu aktiv schotlarning debetida nomlari yuqorida zikr etilgan moddalar bo'yicha haqiqatda sarflangan xarajatlar to'planadi. Bu schotlarning kreditida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Agar umumishlab chiqarish xarajatlari hisobini hisobot davrlari (oy, chorak, yil) mobaynida reja

tannarxda yuritilsa, u holda 2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «Chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schotlarining kreditida xarajatlar taqsimoti reja tannarxida hisobdan chiqarib boriladi va yilning oxirida haqiqiy xarajatlar aniq bo'lgach, kalkulyatsiya farqi «qizil yozuv» yoki «qo'shimcha yozuv» usullariga muvofiq ushbu schotlarning kreditida aks ettiriladi.

2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «Chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schotlarining tahliliy hisobi qishloq xo'jaligi korxonasi tarmoqlarining tarkibiy bo'linmalari (brigadalar, fermalar) bo'yicha 10 g va 10 d qaydnomalarda yuritiladi. Ushbu qaydnomalarga yozuvlar tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan «Umumishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida hisobot» (18v-shakl) ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu schotlarning kreditida bo'linmalar bo'yicha aks ettirilgan ma'lumotlar 10/2 jurnal-orderga o'tkaziladi.

2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «Chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schotlarining debetida yuqorida keltirilgan xarajat moddalariga guvohlik beruvchi hujjatlar asosida quyidigi yozuvlar qilinadi:

Debet 2510-2520 **Kredit** 1010-1090 - material xarajatlariga;

Debet 2510-2520 **Kredit** 6710 - mehnat haqi xarajatlariga;

Debet 2510-2520 **Kredit** 6520 - ijtimoiy sug'urta xarajatlariga;

Debet 2510-2520 **Kredit** 6510 - sug'urtalash xarajatlariga;

Debet 2510-2520 **Kredit** 6010, 6990 - ish, xizmat xarajatlariga;

Debet 2510-2520 **Kredit** 2310- yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga.

2510 «Dehqonchilik umumishlab chiqarish xarajatlari», 2520 «Chorvachilik umumishlab chiqarish xarajatlari» schotlarining debetida to'plangan xarajatlar qishloq xo'jaligi korxonalarida qabul qilingan tartiblarga ko'ra va mezonlarga (masalan, ishlovchi xodimlar ish haqlarining hissasi, yyetishtirilgan mahsulotlarni sotish baholaridagi qiymatining hissasi, yer maydonlarining hissasi va boshqalar) asosan taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasining alohida tarmoqlariga doir umumishlab chiqarish xarajatlari quyidagicha taqsimlanadi:

***dehqonchilik tarmog'ida** – umumxo'jalik xarajatlari brigadalar bo'yicha taqsimlanadi va hisob obyektlari (alohida olingan dehqonchilik mahsulotlari yoki mahsulot guruhlari) tannarxiga olib boriladi;

***chorvachilik tarmog'ida** - umumxo'jalik xarajatlari fermalar bo'yicha taqsimlanadi va hisob obyektlari (alohida olingan chorvachilik mahsulotlari yoki mahsulot guruhlari) tannarxiga olib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli xarajatlar schotlariga olib borilishiga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

a) asosiy ishlab chiqarish schotlariga olib borilganda:

Debet 2010 (tegishli schotlar) **Kredit** 2510,2520 (tegishli schotlar);

b) kapital qurilish schotlariga olib borilganda:

Debet 0810, 0890 **Kredit** 2510, 2520 (tegishli schotlar);

v) davr xarajatlari schotlariga olib borilganda:

Debet 9410, 9420 **Kredit** 2510, 2520 (tegishli schotlar).

Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi maxsus «Umumishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi.

Tayanch iboralar

Yodamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari - qishloq xo'jaligi korxonasining asosiy faoliyat turlariga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar.

Qishloq xo'jaligida yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklarining turlari - mashina-traktor parki (MTP); ta'mirlash ustaxonalari; avtotransport xo'jaligi; elektr, gaz va suv ta'minoti xo'jaligi; ishchi hayvonlarni saqlash xo'jaligi va boshqalar.

Mashina-traktor parki xizmatlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari xarajatlari schotlariga bevosita ko'rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida olib boriladi, misol uchun yerni shudgorlash, ekish, yagonalash, hosilni o'rib berish, yig'ish va tashish kabi xizmat haqlari bevosita dehqonchilik xarajatlariga olib boriladi; dehqonchilik xarajatlariga olib borilgan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari olingan mahsulotlar (paxta, bug'doy, sabzavotlar va boshqalar) o'rtasida ushbu mahsulotlarga ajratilgan yer maydonlari hajmiga, ko'rsatilgan xizmatlar soniga qarab taqsimlanadi.

Ta'mirlash ustaxonalari xarajatlari ularning qaysi tarmoqqa va sohaga tegishliligiga qarab taqsimlanadi.

Ko'rsatilgan agrotexnik xizmatlar xarajatlari tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanadi.

Suv ta'minoti xo'jaligi xarajatlari jami sarflangan suv xarajatlarini ekin turlari o'rtasida ular egallagan maydonga, sug'orish soniga va suv

sarfi me'yorlariga ko'ra bosh mirob tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida taqsimlanadi.

Elektr ta'minoti xo'jaligi xarajatlari bosh energetik tomonidan tuzilgan va xo'jalik rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob asosida tarmoqlar va sohalar, ular o'rtasida esa mahsulotlar bo'yicha taqsimlanadi.

Ishchi hayvonlarni saqlash xarajatlari ularni qaysi tarmoqda foydalanilganlik vaqtiga, bajargan ishlari miqdoriga qarab taqsimlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlari – qishloq xo'jalik tarmoqlari va sohalariga umumiy holda tegishli bo'lgan hamda u yoki bu mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritib bo'lmaydigan, balki ularning tannarxiga bilvosita, ya'ni taqsimlash yo'li bilan olib boriladigan xarajatlar.

Mehnat himoyasi va texnika xavfsizligi xarajatlari - dehqonchilik va chorvachilik sohasida mehnat himoyasi va texnika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarga sarflangan xarajatlar.

Dala shiyponlarini saqlash va ishchilarni ovqatlantirish xarajatlari - dehqonchilik tarmog'iga mo'ljallangan dalalarda joylashgan shiyponlar, palatkalar, vaqtinchalik notitul inshoatlarni saqlash, ulardagi asosiy vositalarga qilingan amortizatsiya ajratmalari, joriy va kapital ta'mirlash, ishchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash xarajatlari.

Boshqa umumishlab chiqarish xarajatlari – umumxo'jalik maqsadidagi asosiy vositalarni ijaraga olish, ularni sug'urta qilish, o'simliklar va mollarni karantin qilish va boshqa umumishlab chiqarishga doir tadbirlarga sarflangan xarajatlar.

Nazorat qilish uchun testsavol – javoblari

1. Yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari –bu:

a) asosiy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar;

b) mustaqil xo'jaliklar;

v) alohida tarmoqlar;

g) hammasi to'g'ri.

2. Ishchi hayvonlarni saqlash xarajatlari qaysi yozuvda to'g'ri va to'liq berilgan?

a) Debet 2010 Kredit 1010, 6710, 6520, 0200

b) Debet 2310 Kredit 1010, 6710, 6520, 6990, 0200

v) Debet 2510 Kredit 1010, 6710, 6520, 6990, 0200

g) Debet 2710 Kredit 1010, 6710, 6520, 6990, 0200

3. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari qishloq xo'jalik tarmoqlari o'rtasida qanday taqsimlanadi?

a) hisob siyosatiga ko'ra;

b) rahbarning buyrug'i bilan;

v) ma'lum mezonlar asosida;

g) A va V javob to'g'ri

4. 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schoti hisobot yili oxirida qaysi schotga yopiladi?

a) faqat 2510 schotga;

b) 2010, 2510 schotlarga;

v) 9010 schotga;

g) 2810 schotga.

5. Dala shiyponni saqlash xarajatlari qanday xarajatlar turiga kiradi?

a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga;

b) umumishlab chiqarish xarajatlariga;

v) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga;

g) davr xarajatlariga.

6.MTP xizmatlari qaysi guruh xarajatlarga kiradi?

a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga;

b) umumishlab chiqarish xarajatlariga;

v) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga;

g) davr xarajatlariga.

7. Chorvachilik tarmog'ida umumishlab chiqarish xarajatlari qanday taqsimlanadi?

a) chorva mollari o'rtasida

b) fermalar va chorvachilik mahsulotlari o'rtasida

v) yordamchi ishlab chiqarish xo'jaliklari o'rtasida

g) to'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008-yil 21-yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 26-martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

5. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR. AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

7. BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR. AV tomonidan 1998-yil 28- avgustda ro'yxatga olingan, № 486.

8. Do'stmurodov R., Masharipov O. Fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma– Toshkent, 2007.- 94 b.

15-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR KO'RSATKICHLARI, SOLIQLAR, MAJBURIY AJRATMALAR VA TO'LOVLAR HISOBI

15.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi

Sotishdan olingan daromad hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlar turli yo'llar bilan sotiladi. Chunonchi, paxta to'liq davlat buyurtmasi asosida davlatga tasdiqlangan sotish baholarida sotiladi. Yyetishtirilgan g'allaning 50 foizi davlatga tasdiqlangan sotish baholarida, qolgan qismi esa erkin kelishuv baholarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga sotiladi. Davlat buyurtmasi ro'yxatiga kirtilmagan barcha boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'zga yuridik shaxslarga tuzilgan shartnomalar asosida kelishuv narxlarida, shuningdek bozorlarda aholiga bozor baholarida sotiladi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi korxonalari yetishtirgan mahsulotlarini o'z xodimlariga mehnat haqi uchun natural to'lov sifatida ham berishlari, ularni boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida kiritishlari hamda bepul xayriya etishlari ham mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat buyurtmasi, shuningdek o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida sotish turli tayyorlov va qayta ishlovchi korxonalar, masalan, paxtani qabul qilish va qayta ishlash zavodlari, don mahsulotlari kombinatlari, jun zavodlari, yog'-moy kombinatlari va boshqa shu kabi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Davlat buyurtmasini bajaruvchi tashkilotlar, shuningdek boshqa sotib oluvchi yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi korxonalariga shartnomada ko'rsatilgan dastlabki to'lovni amalga oshiradilar. Bunday to'lovlarga qishloq xo'jaligi korxonalarida quyidagicha buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 6310 «Olingan bo'naklar».

Tayyorlov va qayta ishlovchi korxonalarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish schot-fakturalar va ularga ilova qilinadigan qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, tovar-transport nakladnoylari va boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjatlar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan daromadga quyidagicha buxgalteriya hisobi beriladi:

Debet 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

Shundan so'ng, dastlab, xaridorlardan olingan bo'naklar summasi yopiladi va unga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 6310 «Olingan bo'naklar»;

Kredit 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar».

Xaridorlardan oxirgi hisob-kitoblar bo'yicha qarzlarning kelib tushishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar».

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorlarda aholiga sotish, odatda, biriktirilgan moddiy javobgar mas'ul shaxslar (masalan, ombor mudirlari) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu moddiy javobgar shaxslar tomonidan bozorlarda aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini naqd pulga sotishdan olingan daromad kassaga kirim qilinadi. Kassa kirim orderi asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini naqd sotishdan olingan daromad summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5010 «Kassadagi pul mablag'lari»;

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z xodimlariga mehnat haqi uchun to'lash sotishdan olingan daromad hisoblanadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6710 «Mehnat haqi bo'yicha qarz»;

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida kiritilishiga ta'sis shartnomalari va schot-fakturalar asosida quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 0600 «Moliyaviy investisiyalar»;

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa yuridik shaxslarga bepul xayriya sifatida berilishiga tuzilgan shartnomalar hamda schot-fakturalar asosida quyidagi yozuvlar qilinadi:

a) bepul berilgan mahsulotlar qiymatiga:

Debet 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar».

b) bepul berilgan mahsulotlar bo'yicha qarzning hisobdan chiqarilishiga:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar».

Sotish tannarxining hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxining hisobi 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schotida yuritiladi. Hisobot yili davomida ushbu schotning debetida sotilgan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi»;

Kredit 2810 «Tayyor mahsulotlar».

Hisobot yili oxirida barcha haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari aniqlangach, sotilgan hamda omborlarda sotilmasdan qolgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Shuningdek, 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schotining debetida aks ettirilgan sotilgan mahsulotlarning reja tannarxidagi qiymati qo'shimcha yozuv yoki «storno» usullari bo'yicha haqiqiy tannarxidagi qiymatiga yetkaziladi. Bunda, chunonchi, reja tannarx haqiqiy tannarxdan katta bo'lsa, u holda «storno» yoki «qizil yozuv» usulida **Debet** 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» **Kredit** 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» yozuvi beriladi. Reja tannarx haqiqiy tannarxdan kichik bo'lsa, u holda «qo'shimcha yozuv» usulida **Debet** 9110 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» **Kredit** 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» yozuvi beriladi.

Davr xarajatlarining hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqa yuridik shaxslardagi singari davr xarajatlari asosan uchta guruhga bo'linadi: (1) sotish xarajatlari; (2) ma'muriy-boshqaruv xarajatlari; (3) boshqa operasion xarajatlar. Davr xarajatlarining tarkibi va ularning hisobini yuritishda qishloq xo'jaligi korxonalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 -yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga va 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga amal qilishlari lozim.

Sotish xarajatlariga qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq barcha turdagi xarajatlar, chunonchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarka va ko'rgazmalarini tashkil etishga, ularni reklama qilishga, kontraktlarni tuzishga, omborxonalarni saqlashga,

sotish bilan shug'ullanuvchi xodimlarga mehnat haqi va ijtimoiy to'lovlarga sarflangan hamda shu kabi boshqa xarajatlar kiradi. Sotish xarajatlari hisobi 9410 «Sotish xarajatlari» schotida olib boriladi. Bu schotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdagi xarajatlar to'planadi, bunda 0200, 1000, 6010, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9410 «Sotish xarajatlari» schoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga **Debet** 9910 «Moliyaviy natija» **Kredit** 9410 «Sotish xarajatlari» yozuvi beriladi.

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlariga qishloq xo'jaligi korxonalarining boshqaruv apparatini saqlashga doir xarajatlar, chunonchi, boshqaruv apparati xodimlariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy to'lov, amortizatsiya ajratmalari, xizmat safarlari, gazeta va jurnallarga obuna, kanselyariya tovarlari va boshqa shu kabi xarajatlar kiradi. Ma'muriy-boshqaruv xarajatlarining hisobi 9420 «Boshqaruv xarajatlari» schotida olib boriladi. Bu schotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdagi xarajatlar to'planadi, bunda 0200, 1000, 6010, 6970, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9420 «Boshqaruv xarajatlari» schoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga **Debet** 9910 «Moliyaviy natija» **Kredit** 9420 «Boshqaruv xarajatlari» yozuvi beriladi.

Boshqa operasion xarajatlarga qishloq xo'jaligi korxonalarining turli xayriya sifatida berilgan mulkini hisobdan chiqarilishi, to'langan penya va jarimalar, ko'rsatilgan moddiy yordamlar, bank xizmatlari uchun to'lovlar, auditorlik tekshiruvlari va turli konsalting xizmatlari uchun to'lovlar, sotish hajmiga nisbatan pensiya fondiga, maktab ta'limini rivojlantirish fondiga va avtoyo'l fondiga majburiy ajratmalar, sud xarajatlari, voz kechilgan debitorlik qarzlari va shu kabi boshqa xarajatlar kiradi. Boshqa operasion xarajatlari hisobi 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» schotida olib boriladi. Bu schotning debetida yuqorida keltirilgan barcha turdagi xarajatlar to'planadi, bunda 0200, 1000, 4010, 5010, 5110, 6010, 6970, 6990, 6710, 6520 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schotlar kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9430 «Boshqa operasion xarajatlari» schoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga **Debet** 9910 «Moliyaviy natija» **Kredit** 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» yozuvi beriladi.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga asosiy vositalar va boshqa aktivlar (nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, materiallar)ni sotishdan olingan foyda, joriy ijaradan olingan foyda, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalardan tushumlar, voz kechilgan kreditorlik qarzlar, beg'araz olingan moliyaviy yordam, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar va boshqa shu kabi qo'shimcha daromadlar kiradi. Ushbu turdagi daromadlarning hisobi 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schotlar tizimida ochilgan alohida schotlarning kreditida olib boriladi. Bunda 1000, 4800, 5010, 5110, 6010, 6900, 9210, 9220 va boshqa aniq daromadlarni ifodalovchi schotlar debetlanadi. Hisobot yili oxirida 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schoti yopiladi, ya'ni uning kreditida to'plangan summaga **Debet** 9300«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» **Kredit** 9910 «Moliyaviy natija» yozuvi beriladi.

Moliyaviy faoliyatga doir daromadlarning hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy faoliyatga doir daromadlarga dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar, uzoq muddatli ijaradan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar, xorijiy valutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha ijobiy kurs farqlari (tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarida) kiradi. Bu turdagi daromadlarning hisobi 9500 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar» schotlar tizimida ochilgan alohida schotlarning kreditida olib boriladi. Bunda 4010, 4800, 5020, 5200 va boshqa aniq daromadlarni ifodalovchi schotlar debetlanadi. Hisobot yili oxirida 9500 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar» schoti yopiladi, ya'ni uning kreditida to'plangan summaga **Debet** 9500«Moliyaviy faoliyat olingan daromadlar» **Kredit** 9910 «Moliyaviy natija» yozuvi beriladi.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarning hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarga olingan kredit va qarzlar uchun to'langan foizlar, uzoq muddatli ijara bo'yicha foiz to'lovlari, qimmatli qog'ozlarni chiqarishga doir xarajatlar, xorijiy valutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha salbiy kurs farqlari (tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarida) kiradi. Bu turdagi xarajatlarning hisobi 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» schotlar tizimida ochilgan alohida schotlarning debetida olib boriladi. Bunda 5200, 6010, 6900 va boshqa aniq xarajatlarni ifodalovchi schotlar

kreditlanadi. Hisobot yili oxirida 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» schoti yopiladi, ya'ni uning debetida to'plangan summaga **Debet** 9910 «Moliyaviy natija» **Kredit** 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar» yozuvi beriladi.

Foyda ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning hisobi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqa yuridik shaxslar singari beshta foyda ko'rsatkichi aniqlanadi va ular «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»da aks ettiriladi. Respublikamizda amalda bo'lgan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»ga muvofiq ushbu foyda ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

1.Sotishdan olingan foyda yoki zarar **(Fs) yoki (Zs)**

$$Fs\ (Zs) = St - S,$$

mos ravishda **Fs = agar St > S , Zs = agar St< S**

bu yerda:

St – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan sof tushum;

S –qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar **(Faf) yoki (Zaf)**

$$Faf\ (Zaf) = Fs\ (Zs) - Dx + Bod$$

bu yerda:

Dx- davr xarajatlari;

Bod – asosiy faoliyatdan olingan boshqa operasion daromadlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlar **(Fux) yoki (Zux)**

$$Fux\ (Zux) = Faf\ (Zaf) + Fmf - Zmf$$

bu yerda: **Fmf** – moliyaviy faoliyatdan olingan foyda;

Zmf - moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar.

4. Soliqgacha foyda yoki zararlar **(Fst) yoki (Zst)**

$$Fst\ (Zst) = Fux\ (Zux) + Ff - Fz$$

bu yerda:

Fd –favquloddagi foyda;

Fz – favquloddagi zararlar

5. Sof foyda yoki sof qoplanmagan zararlar (Sf) yoki (Sz)

$$Sf\ (Sz) = Fst\ (Zst) - Ds$$

Bu yerda: **Ds** – foydadan olinadigan soliqlar - foyda solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq (boshqa faoliyat turlari bilan

shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonalari uchun).

Yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi foyda (zarar) ko'rsatkichlarining yig'ma hisobi 9910 «Moliyaviy natija» schotida yuritiladi. Ushbu schotning kreditida barcha turdagi daromadlar, kreditida esa sotish tannarxi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar, favquloddagi zararlar hamda foydaning ishlatilishi aks ettiriladi. Hisobot davri oxirida bu schotning kredit va debet aylanmalari summasini o'zaro taqqoslash asosida yakuniy moliyaviy natija aniqlanadi. Agar kredit aylanma summasi debet aylanma summasidan katta bo'lsa, bu hisobot davrida olingan sof foydani, agar kredit aylanma summasi debet aylanma summasidan kichik bo'lsa, bu hisobot davrida ko'rilgan jami zararni bildiradi. Hisobot davrida olingan sof foydaning yopilishiga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 9910 «Moliyaviy natija»;

Kredit 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)».

Hisobot davrida ko'rilgan jami zararning yopilishiga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)»;

Kredit 9910 «Moliyaviy natija»

Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi qishloq xo'jaligi korxonasi paychilari yig'ilishi qaroriga asosan ular o'rtasida taqsimlanishi, shuningdek o'tgan yillarning foydasi tarkibida korxonada qoldirilishi mumkin. Ushbu xo'jalik operatsiyalari hisobda quyidagicha aks ettiriladi.

a) hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini paychilar o'rtasida taqsimlanishiga:

Debet 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)»;

Kredit 6610 «Ta'sischilarga dividendlar bo'yicha qarz».

b) hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini o'tgan yillar foydasiga kiritilishiga:

Debet 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)»;

Kredit 8720 «O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (zarari)».

Hisobot yilining jami zarari o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi, shuningdek rezerv kapitali evaziga qoplanishi mumkin: Ushbu xo'jalik operatsiyalari hisobda quyidagicha aks ettiriladi.

a) hisobot yilining jami zararining o'tgan yillar taqsimlanmagan foydasi hisobidan qoplanishiga:

Debet 8720 «O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (zarari)»;
Kredit 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)».

b) hisobot yilining jami zararining rezerv kapitali hisobidan qoplanishiga:

Debet 8520 «Rezerv kapitali»;
Kredit 8710 «Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasi (zarari)».

15.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi

Davlatimizning soliq siyosatida belgilangan tartib-qoidalarga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari soliq to'lovchilar sifatida uch guruhga bo'linadi: (1) yagona yer solig'ini to'lovchilar; (2) yagona soliq to'lovini to'lovchilar; (3) umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar.

Ushbu guruhlarga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari, shuningdek ular to'laydigan mos ravishdagi soliqlar o'zining obyekti, soliq stavkasi, hisob-kitobi, to'lash tartibi va boshqa jihatlari bo'yicha bir qancha xususiyatlarga ega. Quyida qishloq xo'jaligi korxonalari to'laydigan soliqlarni hisob-kitob qilish va ular hisobi xususiyatlariga to'xtalamiz.

Yagona yer solig'i

Soliq kodeksining 362-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilar hisoblanadi:

*qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;

*qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Soliq kodeksining ushbu moddasiga asosan bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida **qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar** jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizasiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Soliq Kodeksi 362-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi:

*o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

*yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etishi lozim. Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi. **Misol:** o'tgan yilda jami sof tushum 2 milliard sum, shundan o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan mahsulotni sotishdan olingan tushum (1) - holatda 600 mln. sum, (2) - holatda 1,5 milliard sum, deylik. Misol shartiga ko'ra, umumiy sof tushumda qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi (1)-holatda 30 %, (2) -holatda 75 %ni tashkil etadi. Demak, (1)-holatda ushbu qishloq xo'jalik korxonasi yagona yer solig'ini to'lovchisi hisoblanmaydi, chunki uning umumiy sof tushumida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi Soliq Kodeksining 362-modda uchinchi bandida belgilangan me'yordan past, aksincha (2)-holatda u yagona yer solig'i to'lovchisi hisoblanadi, chunki bu holatda qishloq xo'jaligi korxonasining umumiy tushumida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi belgilangan me'yordan yuqori.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob

bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak bo'ladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermay qo'ygan soliq davridan keyingi yilning birinchi fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etishi lozim. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi Soliq Kodeksida nazarda tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha u umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi. Umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi 362- moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq Kodeksi 350-moddasining birinchi qismiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan

mustasno. Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Yer uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi soliq solish obyekti, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati[11] soliq solinadigan baza hisoblanadi.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

*Soliq Kodeksi 362-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;

*ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

---

[11] ***Izoh:*** 1. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi. 2. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'i to'lovchilariga kiritiladigan baliqchilik xo'jaliklari tuman bo'yicha o'rtacha sug'oriladigan yerlar normativ qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig'ini to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq Kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilari uchun kalendar yil soliq davri bo'lib hisoblanadi. Kalendar yil uchun yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymatini yagona yer solig'ining belgilangan stavkasiga ko'paytirish orqali topiladi.

Misol: yagona yer solig'i to'lovchi «Sahovat» fermer xo'jaligi uchun ajratilgan jami yer uchastkasi 2009-yil 1-yanvar holatiga 242,4 ga, shundan:

*yo'llar, ariqlar va zovurlar o'tgan yer maydoni – 17,0 ga;

*ekin yerlari maydoni – 43,4 ga;

*bog' uchastkalari maydoni – 83,0 ga;

*uzumzorlar maydoni – 93,4 ga;

*ko'p yillik daraxtzorlar maydoni – 1,3 ga;

*bo'z yerlar maydoni – 4,3 ga.

1 ga yer uchastkasining normativ qiymati:

ekin yerlari maydoni uchun – 947,2 ming so'm;

*bog' uchastkalari maydoni uchun– 462,3 ming so'm;

*uzumzorlar maydoni uchun – 467,4 ming so'm;

*ko'p yillik daraxtzorlar maydoni uchun – 947,2 ming so'm;

*bo'z yerlar maydoni uchun 15,1 ming so'm.

Yagona yer solig'i stavkasi – 3,5 %, yagona yer solig'i to'lovidan ozod qilingan yer uchastkalari maydoni (bog'lar va uzumzorlar bo'yicha 176,4 ga yoki normativ qiymati 82026,1 ming so'm, soliqqa tortiladigan yer uchastkalari maydoni 49,0 ga yoki normativ qiymati 42404,8 ming so'm.

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlar asosida tuzilgan yagona yer solig'i hisob-kitobi 15.1-jadvalda keltirilgan.

15.1-jadvalda keltirilgan yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

15.1-jadval

«Saxovat» fermer xo'jaligi bo'yicha 2009-yil uchun yagona yer solig'i hisob-kitobi

№	Ko'rsatkich	Yer maydoni, ga	Yerning qiymati, ming so'm		Summa, ming so'mda
			1 ga uchun	Jami	
1.	Jami yer maydoni	242,4		X	
	Shundan:				
1.1.	Yo'llar, ariq va zovurlar	17,0	X	X	x
1.2.	Ekin yerlari maydoni	43,4	947,2	41108,5	
1.3.	Bog' uchastkalari maydoni	83,0	462,3	38370,9	
1.4.	Uzumzorlar maydoni	93,4	467,4	43655,2	
1.5.	Ko'p yillik daraxtzorlar	1,3	947,2	1231,4	
1.6.	Bo'z yerlar	4,3	15,1	64,9	
2.	Jami soliqqa tortiladigan yer uchastkalari (1- 1.1)	225,4		124430,9	
3.	Yagona yer solig'i stavkasi, %			3,5	
4.	Yagona yer solig'i summasi				4355,1
5.	Shundan:				
5.1.	Soliqdan ozod yerlar	176,4	X	82026,1	2870,9
5.2.	Soliq to'lanadigan yerlar	49,0	X	42404,8	1484,2

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1- dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Soliq Kodeski 369-moddasida belgilangan tartibga ko'ra yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

*hisobot yilining 1- iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi;

*hisobot yilining 1-sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;

*hisobot yilining 1-dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

Yagona yer solig'ining hisoblangan summasiga hisob-kitob asosida quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar;

Kredit 6410 «Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar».

Maqsadli ishlatish sharti bilan to'lovdan ozod etilgan yagona yer solig'i summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 6410 «Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar»;

Kredit 8840 «Soliq imtiyozlari».

Yagona yer solig'ining Budjetga o'tkazib berilishiga to'lov topshiriqnomasi asosida quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 6410 «Budjetga soliqlar bo'yicha qarzlar»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Yagona soliq to'lovi

Soliq Kodeksining 362-moddasida belgilangan shartlarga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari maqomiga mos kelmaydigan, asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar toifasiga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22- dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida» PQ-1245-son qaroriga binoan kichik korxonalar (xodimlarining soni 50 kishigacha) va mikrofirmalar (xodimlarining soni 20 kishigacha) toifasiga kiruvchi asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar toifasiga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari 6 % lik stavkada yagona soliq to'lovini to'laydilar. Asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat turlari bo'yicha bu turdagi korxonalar alohida hisob yuritishlari hamda yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalarda to'lashlari lozim.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari ixtiyoriy tarzda ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga navbatdagi chorak boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmay, yangi barpo etilayotgan mikro va kichik korxona maqomidagi qishloq xo'jaligi korxonalari esa faoliyatni amalga oshirishni boshlashga qadar topshiriladigan ariza asosida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari mumkin. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bosh tortish navbatdagi yil boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmay ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan ariza asosida navbatdagi yilning boshidangina amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash obyekti qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha faoliyat turlaridan olgan yalpi tushumi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi summasi yalpi tushum summasini ushbu soliqning belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Bunda, ixtiyoriy tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, biroq yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdoriga kamayadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yagona soliq to'loviga tortiladigan yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Naqd va naqdsiz pulga sotilgan mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi.

2. Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar, chunonchi:

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalar, neustoykalar hamda xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari;

b) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar daromadlari;

v) renta daromadi, avtotransport korxonasi huzuridagi oshxonalardan tushumlar, boshqa xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tushumlar;

g) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotishdan daromadlar;

d) kreditorlik va deponentlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar-moddiy boyliklarini qo'shimcha baholash;

j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan, tekinga olingan mol-mulk;

z) qisqa muddatli ijaradan daromadlar;

i) ilgari chiqarib tashlangan xarajatlarni qoplash tariqasida olingan daromadlardan tashqari boshqa operasion daromadlar;

3. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, chunonchi:

a) olingan royalti va kapital transferti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja);

g) chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar (musbat va manfiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo), bunda manfiy kurs farqi summasi musbat kurs farqi summasidan oshib ketgan holda yagona soliq to'lovini hisoblab chiqayotganda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi;

d) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;

e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

4. Favqulodda daromadlar.

Soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushumdan chiqarib tashlanadi:

a) ixtyoriy ravishda o'z arizasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

b) davlat subsidiyalari summasi;

v) davlat obligasiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

g) to'lov manbaida soliq to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatlar (ma'lumotnoma) mavjudligida dividendlar va foizlar.

Yagona soliq to'lovi har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisob-kitobni topshirish muddatidan kechiktirmay to'lanadi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schotida yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»

Qishloq xo'jaligi korxonalarini budjetga yagona soliq to'lovi bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Umumbelgilangan soliqlar

Yagona yer solig'ini hamda yagona soliq to'lovini to'lovchilari maqomiga mos kelmaydigan qishloq xo'jaligi korxonalari quyidagi umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilari hisoblanadilar:

*QQS;

*foyda solig'i;

*mol-mulk solig'i;

*yer solig'i;

*suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov;

*ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Qishloq xo'jaligi korxonalari to'laydigan ushbu umumbelgilangan soliq to'lovlari soliq qonunchiligi hujjatlarida keltirilgan tartiblarda hisoblanadi va budjetga o'tkazib beriladi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

QQS. Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar, bajarilgan ish,

ko'rsatilgan xizmatlar, mulkni ijaraga berish, ularni sotish, bepul berish va boshqa sotish operatsiyalari bo'yicha QQS to'lovchi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishdan olingan QQS summasi belgilangan stavka (20 foiz) bo'yicha ikkita usulda quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

(1) - usul. Soliqqa tortiladigan aylanma QQSsiz belgilanganda:

Sqqs = Say x S / 100 (1)

bunda: **Sqqs** - buyurtmachilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

(2)-usul. Soliqqa tortiladigan aylanmada QQS ham hisobga olinganda:

Sqqs = Tq x S / (S + 100) (2)

bunda: **Tq** - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan aylanma.

Misol: *Xaridorlarga sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymati QQS bilan birgalikda schot-faktura bo'yicha 72 mln so'm, deylik.*

Ushbu misol bo'yicha sotishdan olingan QQS summasi (2)-formulaga asosan topiladi va u 12 mln. so'mni (72 * 20 % / 120 %) tashkil etadi. Bu holda sotilgan mahsulotning QQSsiz sotish qiymati 60 mln. so'mdan (72-12) iborat bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida sotishdan olingan QQS summasi QQSsiz sotish qiymatidan (1)-formula bo'yicha hisoblanganda ham 12 mln. so'mni (60 * 20% / 100 %) tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida naqdsiz pulga sotilgan tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlarga to'g'ri keladigan QQS summasi xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan schot-fakturalarda alohida ustunchada ko'rsatiladi. QQS summasi xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlarning jami summasiga kiritiladi.

Hisoblangan QQS summasiga schot-fakturalar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 4010 «Olinadigan schotlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Naqd pulga sotilgan tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlarga to'g'ri keluvchi QQS summasi buyurtmachidan kassaga kirim qilingan jami tushum tarkibida o'z aksini topadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Qishloq xo'jaligi korxonalarida budjetga to'lanadigan QQS summasi sotishdan olingan QQS summasidan ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar hamda schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasini ayirish yo'li bilan topiladi.

21-son BHMSga muvofiq ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar va schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasi hisobot davri mobaynida 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'planadi. Bunda 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar», Ajratilgan 6100 « bo'linmalar, shuba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» schotlari kreditlanadi.

Hisobot davri tugagandan keyingi oyning 25 sanasigacha qishloq xo'jaligi korxonalari davlat soliq organlariga QQS hisob-kitobini belgilangan shaklda taqdim etishlari lozim. Shuningdek, ular soliq idoralariga QQS hisob-kitobiga ilova tariqasida soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha schot- fakturalar reestrini taqdim etishlari lozim.

QQS hisob-kitobi, shuningdek unga ilova qilinadigan reestr va taqsimot asosida 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'plangan summaning kamaytirishga olib borilgan qismiga buxgalteriyada quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Kamaytirishga olib borilmagan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga mutanosib usul bo'yicha aniqlangan hamda kiritilgan QQS summasiga quyidagicha quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Oldingi hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan QQS summasining hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan soliq summasidan ortiq bo'lgan summasi vujudga kelgan hollarda ko'rsatilgan ortiqcha summa hisobot davridan keyingi davrda kamaytirishga olib boriladi. Kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi hisoblangan QQS

summasidan ortiq bo'lganida, unda bunday ortiqcha summa (manfiy saldo) qishloq xo'jaligi korxonasiga uning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda qaytariladi. Bunda ushbu ortiqcha summa qishloq xo'jaligi korxonasining shaxsiy schotida ortiqcha to'lov sifatida emas, balki manfiy saldo sifatida hisobga olinadi. Ortiqcha to'langan QQS summasining qishloq xo'jaligi korxonasiga qaytarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Qishloq xo'jaligi korxonalarini Budjetga QQS bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Foyda solig'i. Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqa xo'jalik yuritish subyektlaridagi kabi foyda solig'ini hisob-kitob qilish uchun «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»da nomlari keltirilgan foyda (zarar) ko'rsatkichlaridan tashqari yana quyidagi ikkita foyda ko'rsatkichi hisoblash yo'li bilan topiladi. Bular:

- Soliqqa tortiladigan daromad (Std)

$$Std = Fst\ (Zst) + Stx + Sbx + Bom - Gr - Schx - D - F$$

Bu yerda: **Fst (Zst)** – soliq tortilgungacha bo'lgan foyda yoki zarar

Stx – soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar;

Sbx – hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar;

Schx – soliq bazasidan hisobot davrida chegiriladigan xarajatlar;

Bom – beg'araz olingan mulk;

Gr – olingan grant va subsidiyalar;

D – olingan dividendlar; **F** – olingan foizlar

-Soliqqa tortiladigan foyda (Stf) – bu soliqqa tortiladigan daromaddan foyda solig'ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foyda summasi, ya'ni :

$$Stf = Std - I$$

bu yerda: **I** – imtiyoz sifatida soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar hamda soliqdan ozod etilgan foyda summasi.

Soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar deganda Soliq kodeksi va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga muvofiq moliyaviy natijalarni shakllantirishda soliqqacha foyda summasini kamaytirishga olib borilgan, hisobotda sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tarkibida aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlar tarkibiga, chunonchi me'yordan ortiq ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, me'yordan ortiq vakillik xarajatlari, moddiy yordam va kompensasiyalar, qishloq xo'jaligi korxonasining asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotish va boshqa chiqimlaridan ko'rilgan zararlar va boshqa shu kabi xarajatlar kiradi. Ularning to'liq ro'yxati Soliq kodeksining 147-moddasida keltirilgan. Soliq qonunchiliga asosan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni mustaqil hisoblashlari, ular summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar deganda 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schotda aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlarning to'liq ro'yxati Soliq kodeksidaning 146-moddasida keltirilgan. Ushbu xarajatlar ham foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi.

Soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar deganda Nizomga keltirilgan 2-ilovaga muvofiq o'tgan hisobot yilida soliq bazasidan chegirilmagan, lekin keyingi hisobot davridan boshlab 10 yil muddat mobaynida soliq bazasidan chegirilib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Soliq qonunchiligi hujjatlariga asosan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlarni Soliq kodeksi va Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq maxsus hisob-kitob yordamida mustaqil hisoblashlari va ma'lumotnoma bilan tasdiqlashlari, ularning summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Beg'araz olingan mulk deganda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan haqi to'lanmaslik sharti bilan olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatishga mo'ljallangan jihozlar, materiallar) tushuniladi.

Grantlar deganda qishloq xo'jaligi korxonasiga davlat (xukumat) hamda nodavlat, chet el, xalqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum

maqsadlar uchun berilgan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi tushuniladi. Grant mablag'lari qat'i belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.

Olingan dividendlar va foizlar Soliq qonunchiligiga muvofiq alohida 10 foizlik dividend solig'iga tortilishi munosabati bilan foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadi. Shuning uchun ularning summalari foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi. Ushbu daromadlardan dividend solig'ini undirilganligi to'g'risida ma'lumotlar ularni bergan yuridik shaxslarning ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanishi lozim.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar sifatida soliqqa tortiladigan daromad summasidan chegirib tashlanadigan xarajatlar, soliqdan ozod etilgan foydaning turlari hamda imtiyoz me'yorlari Soliq kodeksida (158,159-moddalar) ochib berilgan.

Foyda solig'i (Nf) summasi qishloq xo'jaligi korxonasining soliqqa tortiladigan foydasi summasini **(Stf)** soliq me'yoriga **(Sm)** ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi, ya'ni:

Nf = Stf *Sm : 100%

Hisob-kitob asosida hisoblangan foyda solig'i summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9810 «Daromad(foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Qishloq xo'jaligi korxonalarini Budjetga daromad (foyda) solig'i bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

15.3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi

Umumdavlat soliqlarini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari soliq to'lovlaridan tashqari davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga quyidagi ajratmalar, to'lovlar va ushlanmalarni amalga oshiradilar (15.2-jadval).

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning hisob-kitoblari tasdiqlangan shakllarda tuziladi va belgilangan muddatlarda davlat soliq idoralariga taqdim etiladi. Ushbu hisob-kitob ma'lumotlari davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi.

15.2-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalari to'laydigan majburiy ajratmalar, to'lovlar va ushlanmalar (2010-yil uchun)

Maqsadli fondlar turi	Majburiy ajratma turi		Majburiy ushlanma turi	
	Ajratma bazasi	Stavka	Ushlanma bazasi	Stavka
Pensiya fondi	1. Sotishdan olingan sof tushum 2. Hisoblangan ish haqi fondi	1 % 25%	1. Hisoblangan ish haqi fondi	4,0 %
Yo'l fondi	1. Sotishdan olingan sof tushum	1,5 %	1. Sotib olingan va vaqtinchalik olib kirilgan avtotransport vositalarining sotib olish narxi 2. Sotib olingan va vaqtinchalik olib kirilgan 40 tagacha o'tirish joylari bo'lgan avtobuslar va 10 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtotransport vositalarining sotib olish narxi	Eng kamida 6 %* Eng kamida 20 %*
Maktab ta'limini rivojlantirish fondi	1. Sotishdan olingan sof tushum	1 %		

Pensiya fondi, respublika yo'l fondi va maktab ta'limini rivojlantirish fondiga bajarilgan ishlardan olingan sof tushumga nisbatan mos ravishda belgilangan stavkalarda hisoblangan majburiy ajratmalar summasi hisobot oyida hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Pensiya fondiga hisobot davrida hisoblangan ish haqi fondiga nisbatan belgilangan stavkada hisoblangan majburiy ajratma summasi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet Xarajat schotlari (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9210, 0810);

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Xodimlarga hisoblangan ish haqidan pensiya fondiga 4 foizlik majburiy ushlanmaning ushlab qolinishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6710 «Xodim bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

* Yengil avtomobillarning foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan bedgilangan foizda hisoblangan summadan kichik bo'lgan taqdirda.

* 40 tagacha o'tirish joylari bo'lgan avtobuslar va 10 tonnagacha yuk ko'taradigan avtomobillarning foydalanish muddatiga qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan bedgilangan foizda hisoblangan summadan kichik bo'lgan taqdirda.

Respublika yo'l fondiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari uchun to'langan majburiy yig'im summasi 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq ularning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi va hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0820 «Asosiy vositalarni sotib olish»

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar»

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning o'tkazib berilishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Tayanch iboralar

Sotishdan olingan daromad - qishloq xo'jaligi korxonalarida yyetishtirilgan mahsulotlarni davlatga hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga qat'i belgilangan va erkin narxlarda sotishdan olingan tushum.

Sotish tannarxi – sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga sarflangan haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari.

Sotish xarajatlari - qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq barcha turdagi xarajatlar, chunonchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarka va ko'rgazmalarini tashkil etishga, ularni reklama qilishga, kontraktlarni tuzishga, omborxonalarni saqlashga, sotish bilan shug'ullanuvchi xodimlarga mehnat haqi va ijtimoiy to'lovlarga sarflangan hamda shu kabi boshqa xarajatlar.

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari - qishloq xo'jaligi korxonalarini boshqaruv apparatini saqlashga doir xarajatlar, chunonchi, boshqaruv apparati xodimlariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy to'lov, amortizatsiya ajratmalari, xizmat safarlari, gazeta va jurnallarga obuna, kanselyariya tovarlari va boshqa shu kabi xarajatlar.

Boshqa operasion xarajatlar - qishloq xo'jaligi korxonalarining turli xayriya sifatida berilgan mulkini hisobdan chiqarilishi, to'langan penya va jarimalar, ko'rsatilgan moddiy yordamlar, bank xizmatlari uchun to'lovlar, auditorlik tekshiruvlari va turli konsalting xizmatlari uchun to'lovlar, sotish hajmiga nisbatan pensiya fondiga, maktab ta'limini rivojlantirish fondiga va avtoyo'l fondiga majburiy ajratmalar, sud xarajatlari, voz kechilgan debitorlik qarzlari va shu kabi boshqa xarajatlar.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar - asosiy vositalar va boshqa aktivlar (nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, materiallar)ni

sotishdan olingan foyda, joriy ijaradan olingan foyda, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalardan tushumlar, voz kechilgan kreditorlik qarzlari, beg'araz olingan moliyaviy yordam, inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar va boshqa shu kabi qo'shimcha daromadlar.

Moliyaviy faoliyatga doir daromadlar - dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar, uzoq muddatli ijaradan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar, xorijiy valutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar - olingan kredit va qarzlar uchun to'langan foizlar, uzoq muddatli ijara bo'yicha foiz to'lovlari, qimmatli qog'ozlarni chiqarishga doir xarajatlar, xorijiy valutada ifodalangan balans moddalari bo'yicha salbiy kurs farqlari.

Sof foyda – jami daromadlardan barcha xarajatlar va soliq to'lovlari ayirib tashlangandan keyin qolgan summa.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar - qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar; qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushini realizasiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymatini yagona yer solig'i belgilangan stavkasiga ko'paytirish orqali topilgan summa.

Yagona soliq to'lovi - Soliq Kodeksining 362-moddasida belgilangan shartlarga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab

chiqaruvchilari maqomiga mos kelmaydigan, asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar toifasiga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan to'lanadigan soliq to'lovi.

Umumbelgilangan soliqlar - yagona yer solig'ini hamda yagona soliq to'lovini to'lovchilari maqomiga mos kelmaydigan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan to'lanadigan umumbelgilangan soliqlar (QQS; foyda solig'i; mol-mulk solig'i; yer solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov; ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i).

Majburiy ajratmalar va to'lovlar - umumdavlat soliqlarni to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan soliq to'lovlaridan tashqari davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga qilinadigan majburiy ajratmalar, to'lovlar va ushlanmalar.

Nazorat uchun test savol – javoblari

Xo'jalik holati

«Sahovat» fermer xo'jaligi (tarmoq kodi 21120), xodimlarining jami soni 46 kishi, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchisi sifatida yagona yer solig'i, boshqa faoliyat turlaridan yagona soliq to'lovini to'lovchisi hisoblanadi. Yer uchastkalari maydoni 242 ga, yer uchastkasining normativ qiymati 42050 ming so'm, yagona yer solig'i stavkasi 3,5 % (yer uchastkasi normativ qiymatiga nisbatan).

2009-yilda erishilgan natijalar:

*o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan sof tushum 600 mln. so'm;

*chetdan olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan olingan omuxta yemni sotishdan olingan tushum 200 mln. so'm;

*chetdan sotib olingan yemlarni ulgurji sotishdan olingan tushum 150 mln. so'm;

*sotish tannarxi jami 771 mln. so'm, shundan:

- o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotish tannarxi 500 mln. so'm;

- chetdan olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan olingan omuxta yemning sotish tannarxi 156 mln. so'm;

- chetdan sotib olingan yemlarni sotish tannarxi 115 mln. so'm;

*davr xarajatlari – 80 mln. so'm, shundan sotish xarajatlari 12,5 mln. so'm, boshqaruv xarajatlari 27,5 mln. so'm, boshqa operasion xarajatlar 40 mln. so'm ;

*olingan dividendlar (dividend solig'i ushlangan) – 2 mln. so'm;
*to'langan foizlar 3 mln. so'm;
*favquloddagi zararlar 6 mln. so'm;
*beg'araz olingan mulk - 10 mln. so'm;
*voz kechilgan kreditorlik qarzlar - 4 mln.so'm.

Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati 8 % lik, ulgurji savdo faoliyati 5 % lik YASTga tortiladi. Fermer xo'jaligining boshqa faoliyatdan olingan daromadlari uning tarmoq kodiga mos ravishda soliqqa tortiladi.

Ushbu xo'jalik holatida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1. Fermer xo'jaligining yagona yer solig'iga tortiladigan sof tushumi teng:

a) 600 mln. so'm; b) 750 mln. so'm;
v) 950 mln. so'm; g) 200 mln. so'm.

2. Fermer xo'jaligining 8 %lik yagona soliq to'loviga tortiladigan sof tushumi teng:

a) 600 mln. so'm; b) 750 mln. so'm;
v) 950 mln. so'm; g) 200 mln. so'm.

3. Fermer xo'jaligining 5 %lik yagona soliq to'loviga tortiladigan sof tushumi teng:

a) 600 mln. so'm; b) 150 mln. so'm;
v) 950 mln. so'm; g) 200 mln. so'm.

4. Fermer xo'jaligining yagona yer solig'i summasi teng:

a) 21 mln. so'm; b) 1,47mln. so'm;
v) 4,74 mln. so'm; g) 2,47 mln. so'm.

5. 1 %lik Pensiya fondiga ajratma summasi teng:

a) 6 mln. so'm; b) 7,5 mln. so'm;
v) 9,5 mln. so'm; g) 2,0 mln. so'm.

6. 1 %lik maktab ta'limini rivojlantirish fondiga ajratma summasi teng:

a) 6 mln. so'm; b) 7,5 mln. so'm;
v) 9,5 mln. so'm; g) 2,0 mln. so'm.

7. 1,5 %lik yo'l fondiga ajratma summasi teng:

a) 7,5 mln. so'm; b) 6,5 mln. so'm;
v) 9,0 mln. so'm; g) 3,0 mln. so'm.

8. Fermer xo'jaligining 2009-yil yakuni bo'yicha olgan sotishdan olgan foydasi teng:

a) 100 mln. so'm; b) 179 mln. so'm;
v) 115 mln. so'm; g) 156 mln. so'm.

9. Fermer xo'jaligining 2009-yil yakuni bo'yicha asosiy faoliyatdan olgan foydasi teng:

a) 103 mln. so'm; b) 113 mln. so'm;
v) 115 mln. so'm; g) 111 mln. so'm.

10. Fermer xo'jaligining 2009-yil yakuni bo'yicha umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi teng:

a) 102 mln. so'm; b) 103 mln. so'm;
v) 113 mln. so'm; g) 105 mln. so'm.

11. Fermer xo'jaligining 2009- yil yakuni bo'yicha soliqqacha foydasi teng:

a) 97 mln. so'm; b) 96 mln. so'm;
v) 107 mln. so'm; g) 99 mln. so'm.

12. Fermer xo'jaligining 2009 -yil yakuni bo'yicha 8 %lik YaST summasi teng:

a) 23,5 mln. so'm; b) 16 mln. so'm;
v) 7,5 mln. so'm; g) 48 mln. so'm.

13. Fermer xo'jaligining 2009- yil yakuni bo'yicha 5 % lik YaST summasi teng:

a) 23,5 mln. so'm; b) 16 mln. s'm;
v) 7,5 mln. so'm; g) 48 mln. so'm.

14. Fermer xo'jaligining 2009- yil yakuni bo'yicha olgan sof foydasi teng:

a) 72,5 mln. so'm; b) 73,5 mln. so'm;
v) 42,5 mln. so'm; g) 75,5 mln. so'm.

15. Budjetga to'lanadigan yagona yer solig'i summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9810 Kredit 6410 23,5 mln. so'mga;
b) Debet 9430 Kredit 6410 1,47 mln. so'mga;
v) Debet 9430 Kredit 6410 16 mln. so'mga;
g) Debet 9810 Kredit 6410 7,5 mln. so'mga.

16. Budjetga to'lanadigan yagona soliq to'lovi summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9810 Kredit 6410 23,5 mln. so'mga;

b) Debet 9430 Kredit 6410 1,47 mln. so'mga;
v) Debet 9430 Kredit 6410 16 mln. so'mga;
g) Debet 9810 Kredit 6410 7,5 mln. so'mga.

17. Budjetdan tashqari fondlarga majburiy ajratmalar summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9810 Kredit 6410 23,5 mln. so'mga;
b) Debet 9430 Kredit 6410 21 mln. so'mga;
v) Debet 9430 Kredit 6410 16 mln. so'mga;
g) Debet 9810 Kredit 6410 7,5 mln. so'mga.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3.Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008- yil 21- yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008- yil 26- martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.

4.O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

5.«Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5- fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

6.BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 474

7.BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zR AV tomonidan 1998- yil 28- avgustda ro'yxatga olingan, № 486

8.Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. Sanayev N.S. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi, nazorat va moliyalashtirishning dolzarb masalalari. –T.: Mehnat, 1991.- 104 b.

10. Sanayev N. S. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2006. - 145 b.

11.Do'stmurodov R., Masharipov O.Fermer xo'jaligidabuxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma. – T., 2007. - 94 b.

12. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

16-bob. QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT SHAKLLARINI TO'LDIRISH XUSUSIYATLARI

16.1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari

Qishloq xo'jaligi korxonalarida, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari, hisob jarayonining yakuniy bosqichi bo'lib moliyaviy hisobotni tuzish hisoblanadi. Respublikamizning «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» qonuni (16-modda)ga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy hisoboti o'z ichiga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot, xususiy kapital to'g'risida hisobot, izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarni oladi.

Kichik biznes subyektlari hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalariga moliyaviy hisobotni ixchamlashtirilgan tarzda tuzish va taqdim etishga ruxsat etiladi. Ushbu ixchamlashtirilgan moliyaviy hisobot o'z ichiga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma hamda tushuntirish xatini oladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlaridagidek hisobot davri taqvim yilning 1-yanvaridan 31-dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Taqvim yilining 1-oktabridan keyin davlat ro'yxatidan o'tgan qishloq xo'jaligi korxonalari uchun birinchi hisobot yili bo'lib davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan kelgusi yilning 31-dekabrigacha bo'lgan davr hisoblanadi. Ushbu davrda yuz bergan xo'jalik jarayonlari birinchi hisobot yiliga doir, deb tan olinadi va mos ravishda shu davrning moliyaviy hisobotiga kiritiladi.

Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari qishloq xo'jaligi korxonalarining tashkiliy-huquqiy maqomiga bog'liq. Chunonchi, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qishloq xo'jaligi korxonalari faqat yillik yillik moliyaviy hisobotni tuzadilar va uni keyingi yilning 25 martigacha taqdim etadilar. Shirkatlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, Shuningdek aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat va xususiy korxonalar maqomidagi qishloq xo'jaligi korxonalari yillik moliyaviy hisobotni keyingi yilning 15 fevraligacha taqdim etishlari lozim.

Kichik biznes subyektlariga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy hisobotni faqat hisobot yili yakuni bo'yicha taqdim etadilar. Ushbu maqomga ega bo'lmagan boshqa turdagi tashkilotlar (xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalardan tashqari) yillik hisobotdan

tashqari choraklik hisobotlarni ham tuzishlari va ularni choraklikdan keyingi oyning 25- sanasigacha tegishli organlarga taqdim etishlari kerak.

16.2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya balansini to'ldiish xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar kabi buxgalteriya balansini to'lg'azishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002- yil 27- dekabrda 140-son buyruq bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha tartib»ga asoslanishlari lozim. Quyida ushbu tartibga asoslanilgan holda qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya balansining alohida moddalarini to'ldirish xususiyatlariga to'xtalamiz.

012-satr «Asosiy vositalarning qoldiq qiymati»da qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan asosiy vositalarning qoldiq qiymati aks ettiriladi. Ushbu satrda, chunonchi quyidagilar ko'rsatiladi:

- asosiy vositalarning mos ravishda boshlang'ich qiymatini hamda jamlangan eskirishini aks ettiruvchi schotlar (0110-0199 va 0210-0290)ning davr oxiridagi qoldiqlari summalarining farqi;
- belgilangan tartibga ko'ra asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarning, chunonchi lizing bo'yicha sotib olinadigan traktorlar, kombaynlar va boshqa qishloq xo'jaligi texnikalarining qoldiq qiymati (mos ravishda 0310 va 0299 schotlar qoldiqlari o'rtasidagi farq summasi).

100-satr «Kapital quyilmalar»da qishloq xo'jaligi korxonalarining o'z maqsadlarida xo'jalik yoki pudrat usullarida olib borgan tugallanmagan kapital investisiyalarining qiymati ko'rsatiladi.

150-satr «Ishlab chiqarish zaxiralari»da omborlarda saqlanayotgan urug'liklar, o'g'itlar, dori-darmonlar, yem-xashak, yoqilg'i, qurilish materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallarning korxonada belgilangan hisob baholaridagi qiymati aks ettiriladi. Ushbu satr summasi 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochilgan barcha schotlar qoldiqlarining yig'indisiga, Shuningdek barcha moddiy javobgar shaxslarning hisobot davri oxiriga tuzgan material hisoboti qoldiqlari yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Agar materiallarni sotib olish va tayyorlash alohida olingan 1510 schotda, ular qiymatidagi farqlar maxsus 1610 schotda yuritilgan bo'lsa, ushbu schotlarning qoldiqlari mos ravishda balansning bu satri summasida hisobga olinishi kerak.

160-satr «Tugallanmagan ishlab chiqarish»da qishloq xo'jaligi korxonalarining hisobot yili oxirida kelgusi yil hosili uchun qilingan sarf-xarajatlar summasi ko'rsatiladi.

170-satr «Tayyor mahsulotlar»da yyetishtirilgan, lekin hali sotilmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining haqiqiy tannarxi ko'rsatiladi.

190-satr «Kelgusi davr xarajatlari»da qishloq xo'jaligi korxonalarining hisobot davrida asosiy ishlab chiqarish va davr xarajatlariga tegishli bo'lmagan xarajatlari aks ettiriladi. Ushbu satrda qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining quyidagi xarajatlarini aks ettiradi:

- kelgusi davrda bajariladigan ishlar uchun to'lovlar;
- kelgusida joriy etilishi mumkin bo'lgan loyihalarni ishlab chiqarishga doir xarajatlar;
- kelgusi yilda chop etiladigan maxsus me'yoriy-texnik adabiyotlar uchun qilingan sarflar;
- kelgusi yil uchun o'tkazib qo'yilgan ijara to'lovlari;
- mavsumiy xarakterga ega bo'lgan ishlar uchun oldindan to'lovlar, chunonchi, qishloq xo'jaligi mashinalari va uskunalarini konservasiya qilish xarajatlari;
- yangi ishlab chiqarish turlari uchun kadrlarni jalb etish va tayyorlash xarajatlari;
- oldindan hisoblangan mehnat ta'tili xarajatlari;
- kelgusi yil uchun gazeta va jurnallar obunasi uchun to'lovlar;
- boshqa kelgusi davr xarajatlari.

210-satr «Jami debitorlik qarzlar»da qishloq xo'jaligi korxonalariga hisobot davri oxiriga qarzdor shaxslarning jami qarzlari ko'rsatiladi. Jami debitorlik qarzlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (220, 240, 250, 260, 270, 290, 300, 310) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib debitorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

450-satr «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)»da qishloq xo'jaligi korxonalarining yil oxiridagi jami taqsimlamagan foydasi (qoplanmagan zarari) ko'rsatiladi. Ushbu summa o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) va hisobot yilning sof foydasi (qoplanmagan zarari) summalaridan tashkil topadi. Qoplanmagan zararlar balansning ushbu satrida minus ishorasi bilan ko'rsatiladi.

Maqsadli tushumlar (460-satr)da qishloq xo'jaligi korxonalarining turli maqsadlarda olingan grantlari, dotasiyalari, subsidiyalari hamda soliqlar bo'yicha maqsadli imtiyozlar summalari aks ettiriladi.

Jami uzoq muddatli majburiyatlar (490-satr)da qishloq xo'jaligi korxonalarining bir yildan ko'p muddatga olgan kreditlari va qarzlari bo'yicha majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami uzoq muddatli majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (500-590) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

600-satr «Jami joriy majburiyatlar»da qishloq xo'jaligi korxonalarining bir yildan kam bo'lgan muddatga olgan kreditlari, qarzlari va boshqa majburiyatlarining jami summasi ko'rsatiladi. Jami joriy majburiyatlar ularning alohida turlari bo'yicha balansning mos satrlarida (610-760) ko'rsatiladi. Ushbu satrlarni to'ldirishga asos bo'lib joriy kreditorlik qarzlarning alohida turlarni aks ettiruvchi schotlarning oxirgi qoldiqlari hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari balans valutasining jami summasi aktivda va passivda alohida satrlarda (mos ravishda 390-satr va 780-satr) ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining o'zlariga tegishli bo'lmagan aktivlar va passivlar balansda «Balansdan tashqari schotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to'g'risida malumot»da 790-920-satrlarda ko'rsatiladi. Bunday aktiv va passivlarga, chunonchi quyidagilar kiradi:

- qisqa muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar (790-satr);
- qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (810-satr);
- o'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (830-satr);
- ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (890-satr);
- kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (900-satr);
- vaqtinchalik soliq imtiyozlari (910-satr);
- foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (920-satr).

16.3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni to'ldirish xususiyatlari

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tuzishga asos bo'lib qishloq xo'jaligi korxonalarining barcha daromadlari va xarajatlari, foyda, uning ishlatilishi hisobi uchun mo'ljallangan vaqtinchalik (tranzit) schotlarning ma'lumotlari hisoblanadi. Hisobotning alohida satrlari quyidagi tartibda shakllantiriladi.

Satr kodi	Satr nomi	Satrni to'ldirish tartibi
010	Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan sof tushum	Yyetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum hisobi uchun mo'ljallangan 9010, 9020, 9030 schotlarning kredit aylanmai summalari yig'indisidan qaytarilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) summalarini, berilgan chegirmalar summalarini (9040 va 9050 schotlarning debet aylanma summalari) ayirish orqali topiladi va daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi.
020	Sotilgan mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larning tannarxi	Yyetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar, ish va xizmatlarning sotish tannarxi hisobi uchun mo'ljallangan 9110, 9120, 9130, 9140, 9150 schotlarning debet aylanmai summalari yig'indisi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi.
030	Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	010 va 020-satrlar summalarining farqi yoziladi. Ijobiy farq olingan foydani ko'rsatadi va u daromadlar ustunchasiga yoziladi. Salbiy farq sotishdan ko'rilgan zararni ifodalaydi va u xarajatlar ustunchasiga yoziladi.
040	Davr xarajatlari, jami	050, 060, 070, 080- satrlarning summalari yig'indisi ko'rsatiladi
	Shu jumladan:	
050	Sotish xarajatlari	Sotish xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9410 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
060	Ma'muriy xarajatlar	Ma'muriy xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9420 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
070	Boshqa operasion xarajatlar	Boshqa operasion xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9430 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
080	Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	Kelgusida soliqqaa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan 9440 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
090	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	Asosiy faoliyatga doir boshqa daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9310 – 9390 schotlarning kredit aylanma summalari yig'indisi daromadlar ustunchasida ko'rsatiladi
100	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	030 satr – 040 satr + 090 satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
110	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	120, 130, 140, 150, 160-satrlar summalarining yig'indisi

	Shu jumladan:	
120	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar	Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9520 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
130	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar	Foizlar ko'rinishidagi daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9530 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
140	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar	Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9550 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
150	Valuta kursi farqidan daromadlar	Valuta kursi farqidan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9540 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga yoziladi
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari hisobi uchun mo'ljallangan 9510, 9560, 9590 schotlarning kredit aylanma summalari yig'indisi daromadlar ustunchasiga yoziladi
170	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	180, 190, 200, 210 satrlar summalarining yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
	Shu jumladan:	
180	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
190	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9610 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
200	Valuta kursi farqidan zararlar	Valuta kursi farqidan zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9620-schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
210	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar hisobi uchun mo'ljallangan 9630, 9690 schotlarning debet aylanma summalari yig'indisi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
220	Umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari)	100–satr+110-satr–170-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
230	Favquloddagi foyda va zararlar	Favquloddagi foyda hisobi uchun mo'ljallangan 9710 schotning kredit aylanma summasi daromadlar ustunchasiga va favquloddagi zararlar hisobi uchun mo'ljal-langan 9720 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi

240	Daromad(foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	220-satr (+\ -) 230-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi
250	Foyda solig'i	Foyda solig'i (yagona soliq to'lovi) hisobi uchun mo'ljallangan 9810 schotning debet aylanma summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi
260	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar hisobi uchun mo'ljallangan 9820,9830 schotlarning debet aylanma summalari xarajatlar ustunchasiga yoziladi
270	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	240 –satr – 250-satr – 260-satr. Foyda summasi daromadlar ustunchasida, zarar summasi esa xarajatlar ustunchasida ko'rsatiladi

Nazorat uchun test savol – javoblari

1. Kelgusi davr xarajatlari qoldig'i qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

2. Qishloq xo'jaligi korxonasining sof tushumi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

3. Qishloq xo'jaligi korxonasining hisobot davrdagi sof foydasi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

4. Qishloq xo'jaligi korxonasiga xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;
b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;
v) xususiy kapital to'g'risida hisobotda;
g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

5. Qishloq xo'jaligi korxonasida muddati o'tib ketgan debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?

a) buxgalteriya balansida;

b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotda;

v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnomada;

g) pul oqimlari to'g'risida hisobotda.

6. Kichik biznes subyekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy hisobotni topshiradilar:

a) har oyda;

b) har chorakda;

v) yil yakuni bo'yicha;

g) ikki yilda bir marta.

7. Kichik biznes subyekti hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalari topshiradigan moliyaviy hisobot tarkibiga kirmaydi:

a) buxgalteriya balansi;

b) moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot;

v) debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma;

g) pul oqimlari to'g'risida hisobot.

8. Qishloq xo'jaligi korxonasi buxgalteriya balansi asosida uning joriy to'lov qobiliyati darajasi (koeffitsiyenti) qanday topiladi?

a) balans valutasi summasi majburiyatlar summasiga bo'linadi;

b) joriy aktivlar summasi joriy majburiyatlari summasiga bo'linadi;

v) pul mablag'lari joriy majburiyatlar summasiga bo'linadi;

g) balans aktivi 2-bo'limi summasini balans passivi 2-bo'limi summasiga bo'lish yo'li bilan.

9. Qishloq xo'jaligi korxonasi o'z moliyaviy hisobotlarini majburiy topshirmaydi:

a) davlat soliq inspeksiyasiga;

b) davlat statistika organlariga;

v) xizmat ko'rsatuvchi bankka;

g) auditolrlik tashkilotiga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011 yil.

3. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 - yil 21 - yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 26 -martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan.

4. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zR AV tomonidan 1998- yil 14- avgustda ro'yxatga olingan, № 475.

5. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 14 -avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

6. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR AV tomonidan 1998- yil 26- avgustda ro'yxatga olingan, № 484.

7. BHMS № 9 «Pul oqimlari to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 4- noyabrda ro'yxatga olingan, № 519.

8. BHMS № 14 «Xususiy kapital to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 2004- yil 1- martda ro'yxatga olingan, № 36.

9. BHMS № 15 «Buxgalteriya balansi». O'zR AV tomonidan 2003 -yil 20- martda ro'yxatga olingan, № 1226.

10. BHMS № 9 «Pul oqimlari to'g'risida hisobot». O'zR AV tomonidan 1998- yil 4 -noyabrda ro'yxatga olingan, № 519.

11. «Choraklik va yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatlari to'g'risida nizom». O'z.R AV tomonidan 2000- yil 3- iyulda ro'yxatga olingan, № 942 (keyingi o'zgartirishlar bilan).

12. «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldiriish bo'yicha tartib». O'zR AV tomonidan 2003- yil 24 -yanvarda ro'yxatga olingan, № 1209 (keyingi o'zgartirishlar bilan).

13. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: Moliya, 2002.

14. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

15.Do'stmurodov R., Mashari pov O.Fermer xo'jaligidabuxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'quv qo'llanma. –T., 2007. - 94 b.

16. Ochilov I.K., Qurbonboyev J.E. Moliyaviy hisob. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.

17. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

III bo'lim. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI XUSUSIYATLARI

17-bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

17.1.Avtotransport korxonalarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Respublikamiz xalq xo'jaligini rivojlantirishda transport tarmog'i muhim ahamiyatga ega. Bu tarmoq o'z ichiga temir yo'l, havo yo'llari, daryo, dengiz, yer osti va yer usti yo'llari transportlarini oladi.

Respublikamizning geografik o'rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti, uni dunyoning boshqa mamlakatlari bilan bog'lovchi daryo va dengiz yo'llarining yo'qligi, Shuningdek boshqa obyektiv va subyektiv sharoitlar sababli mamlakatimiz transport tarmog'ida avtotransport o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunonchi, respublikamizda tashilayotgan yuk hajmining 85 foizi, yo'lovchi tashish hajmining 96 foizi aynan avtotransportga to'g'ri keladi. Bu, o'z navbatida, avtotransport xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarni xalq xo'jaligida katta ahamiyat kasb etishi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobining muhim subyektlaridan biri ekanligini bildiradi.

Avtotransport korxonalarini buxgalteriya hisobi subyekti sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflash va tavsiflash mumkin.

Mulkiy shakliga ko'ra avtotransport korxonalari davlat, nodavlat hamda aralash mulk shaklidagi korxonalarga bo'linadi.

Tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra avtotransport korxonalari ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, xususiy korxona hamda davlat unitar korxonasi kabi turlarga bo'linadi. Bu turdagi korxonalarni tuzish va ular faoliyatini yuritish tartibi respublikamizning maxsus qonunlari va davlat korxonalari to'g'risida Nizom bilan belgilangan.

Ta'sischilarning tarkibiga ko'ra avtotransport korxonalari mahalliy va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarga bo'linadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi avtotransport korxonalari ustav kapitalining miqdori boshqa turdagi xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar singari

eng kamida 150000 AQSH dollari miqdorida bo'lishi, shuningdek uning kamida 30 foizi xorijiy ta'sischilar mablag'laridan tashkil topishi lozim.

Faoliyat yuritish doirasiga ko'ra avtotransport korxonalari xalqaro va mahalliy miqiyosda faoliyat yurituvchi korxonalar hisoblanadi. Mahalliy miqyosdagi avtotransport korxonalari, o'z navbatida, faoliyatini shaharlararo va shahar miqyosida yurituvchi korxonalarga bo'linadi.

Ixtisoslashganligiga ko'ra avtotransport korxonalari yuk tashish hamda yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan korxonalarga bo'linadi. Ushbu turdagi korxonalar mos ravishdagi avtotransport vositalariga ega bo'ladi. Mos ravishdagi transport vositalariga egalik qilish ushbu korxonalarning nomlanishida ham o'z aksini topadi. Misol uchun «Avtobus parki», «Taksomotor parki», «Avtobaza», «Avtojamg'arma» kabi nomlardan ushbu korxonalarning qaysi xizmat turiga ixtisoslashganligini bilish mumkin.

Xodimlarning soniga ko'ra avtotransport korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari mikrofirmalar, kichik korxonalar, o'rta va yirik korxonalarga bo'linadi. Respublikamiz qonun hujjatlariga muvofiq avtotransport sohasida xodimlarning soni mikrofirmalar uchun ko'pi bilan 10 tagacha, kichik korxonalar uchun ko'pi bilan 25 tagacha bo'lishi lozim.

Tanlagan soliq rejimiga ko'ra avtotransport korxonalari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq tartiblarida ishlovchi korxonalarga bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalari ixchamlashtirilgan soliq to'lovlari rejimida ishlashlari mumkin. Yirik va o'rta korxonalar hisoblangan avtotransport korxonalari, odatda, umumbelgilangan soliqlarni to'laydilar.

Respublikamizning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq avtotransport korxonalarining faoliyati asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga bo'linadi. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyati avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hisoblanadi. Ularning asosiy bo'lmagan faoliyatiga moliyaviy, investisiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) deganda avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) tushuniladi. Avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmining pul birligidagi qiymati mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o'z aksini topadi.

Avtotransport vositalari tomonidan bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) hajmini ifodalovchi soniy hamda sifat ko'rsatkichlar avtotransport korxonasining ma'lum davrlar uchun tuziladigan biznes reja (transmoliya reja)sida o'z aksini topadi. Buxgalteriya hisobi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha biznes reja (transmoliya reja)da ko'rsatilgan marralarni bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarining yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari qat'i lisenziyalanadigan faoliyat hisoblanadi. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqi avtotransport korxonalariga O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan beriladi.

Avtotransportda yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ular bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs xodimlari va yakka tartibdagi tadbirkorlardan maxsus malakaviy talablarga javob berishni taqozo etadi. Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 28-iyunda 1377-sonli raqam b'ilan ro'yxatga olingan «Avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar xodimlari va individual tadbirkorlarga qo'yiladigan malakaviy talablar to'g'risida Nizom»da to'liq keltirilgan.

17.2. Avtotransport korxonalari hisob siyosatining xususiyatlari

Avtotransport korxonalari hisob siyosatida boshqa turdagi korxonalar singari tanlab olingan buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishini tashkil qilish, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar o'z aksini topishi lozim.

Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda ularning katta-kichikligi, maqomi, hujjatlar soni va boshqa jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, yirik avtoxo'jaliklarda bajariladigan hisob-kitob ishlarining ko'pligi maxsus buxgalteriya'ni tashkil qilishni, Shuningdek uning tarkibida alohida bo'limlarni (masalan, transport vositalari ish faoliyati hisobi bo'limi, moddiy boyliklar hisobi bo'limi, mehnat va unga haq to'lash hisob-kitobi bo'limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo'limi va boshqalar) ochishni taqozo etadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalarida maxsus hisob bo'linmasi tashkil

qilinmasligi, ushbu ishlar shartnoma asosida ishga qabul qilingan yakka buxgalter yoki maxsus buxgalterlik firmalari tomonidan yuritilishi mumkin.

Avtotransport korxonasida buxgalteriya hisobining to'g'ri tashkil etilganligiga uning rahbari bevosita javobgar va mas'uldirlar. Chunonchi, rahbar buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va yuritilishini ta'minlash maqsadida buxgalteriya to'g'risida Nizom, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablar, buxgalterlar o'rtasida funksional majburiyatlarning taqsimoti, mehnat shartnomalari va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni o'z buyrug'i bilan tasdiqlashi lozim. Ushbu ichki me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish avtoxo'jaliklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilinishi va yuritilishi muhim omillardan hisoblanadi.

Avtotransport korxonalari hisob siyosatida avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlar, ularga doir sarf-xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tan olish va hisobini yuritish usullari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Chunonchi, hisob siyosatida naqd pul asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni kassa usulida, naqdsiz pul asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni esa hisoblash usulida tan olish hamda hisobga olish tartibini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari haydovchilar tomonidan yo'lovchilardan terib olingan naqd pul hisobidan qilingan sarf-xarajatlar (masalan yo'lda olingan yoqilg'i, ehtiyot qismlar, ta'mirlashga sarflangan pul mablag'lari)ni daromad sifatida tan olish va tegishli schotlarda aks ettirish tartibi hisob siyosatida aniq ifodalanishi lozim.

Avtotransportda naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlarni tan olishda hisob-kitob hujjatlarini taqdim etish bo'yicha belgilangan tartib muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shartnomalarda belgilangan tartibga ko'ra naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlar schot – fakturalar asosida har kuni, har oy oxirida, ish (xizmat)lar to'liq yoppasiga tugagandan so'ng tan olinishi mumkin. Avtotransport korxonasi tomonidan daromadlarni tan olish va hisobini yuritishning ushbu usullardan qaysi biri tanlab olinganligi yoki ularning har birini qaysi turdagi ishlar uchun qo'llanilishi hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ular bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish

mavjud bo'lmaydi, ya'ni hisobot davri davomida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga qilingan barcha sarf-xarajatlar shu hisobot davrida ushbu ish (xizmat)lar tannarxi sifatida tan olinadi va hisobdan chiqariladi. Respublikamizda qabul qilingan tartiblarga muvofiq transport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan sarf-xarajatlar hisoblash usuli bo'yicha, shuningdek hisobot davrlari daromadlari va xarajatlarining mosligi, muhimlilik kabi tamoyillar asosida tan olinishi hamda hisobda aks ettirilishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini aniqlashda turli kalkulasiya birliklari qo'llaniladi. Chunonchi, yuk tashish avtotransportlari uchun tannarx kalkulasiyasi ularning turlari bo'yicha 1 soatlik ish, 1 tonna yuk, 1 tonna-kilometrga tuziladi. Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan avtotransportlar uchun tannarxni kalkulasiya qilish birligi sifatida transport vositalarining turlari bo'yicha 1 soatlik ish, 1 ta yo'lovchi yoki 1 kishi-kilometr olinadi. Avtotransport korxonalari ushbu kalkulyatsiya birliklari bo'yicha bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar tannarxi hisobini hisobot davrida normativ tannarx, reja tannarxi yoki haqiqiy tannarx usullaridan biri bo'yicha olib borishlari mumkin. Ushbu usullarning qaysi biri tanlab olinganligi avtotransport korxonasining hisob siyosatida o'z aksini topishi lozim. Normativ tannarx va reja tannarxi usullarini tanlab olgan korxonalar hisob siyosatida mos ravishda normativ va reja tannarxidan chetlanishlarni hisobga olishning aniq tartibi belgilanishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning tannarxi, shuningdek avtotransport korxonasi tomonidan olinadigan foyda summasi ularga sarflangan materiallar (yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) qiymatini baholash usullariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq avtotransport korxonalari o'z moddiy boyliklari qiymatini FIFO, AVECO, identifikasiyalash usullari bo'yicha hisobini yuritishlari mumkin hisoblanadi. Belgilangan tartibga ko'ra, ushbu usullarning barchasini qo'llash ta'qiqlanmagan. Biroq, avtotransport korxonalarida boshqa korxonalardagi kabi bir xil nomdagi TMZlar bo'yicha bir vaqtning o'zida baholashning turli usullarini qo'llash mumkin emas. Shu bois ham, avtotransport korxonalari o'zlarining hisob siyosatida TMZlar qiymatini baholashning tanlangan usullarini ularning turlari bo'yicha aniq ko'rsatishlari hamda unga amal qilishlari lozim.

Avtotransport korxonalari faoliyatida avtotransportga qo'yiladigan avtoshinalar, akkumulyator va shu kabi boshqa agregatlar muhim o'rin

tutadi. Ushbu ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning belgilangan tartibi ham bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Chunonchi, ularni avtomashinalarga qo'yilgan vaqtida hisobdan chiqarish aynan shu davrga to'g'ri keluvchi tannarx summasini keskin oshib ketishiga olib keladi. Ushbu aktivlarni belgilangan xizmat muddatlarida bir maromda hisobdan chiqarib borish tartibini qo'llash tannarxni keskin oshib ketishi oldini oladi. Shuning uchun ham avtotransport korxonalarida ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning rasional usulini tanlab olish va unga amal qilish ular hisob siyosatining muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bozor munosabatlari avtotransport korxonalarida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardagi kabi dargumon debitorlik qarzlarni bevosita yoki tashkil qilinadigan maxsus rezerv evaziga hisobdan chiqarish usullaridan birini hisob siyosatida aniq belgilash talabini qo'yadi.

Avtotransport yordamida bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar avtotransport korxonalarida turli xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi xo'jaliklar (masalan, dispetcherlik bo'limi, ta'mirlash sexlari, avtomobil yoqilg'ilarini quyish shoxobchalari, garaj, omborxona, tibbiy ko'rik bo'limi va shu kabilar) faoliyatini uzluksiz kuzatish hamda hujjatli asosda hisobga olib borishni ta'qozo etadi. Ushbu xususiyatlar avtotransport korxonalarida o'ziga xos boshlang'ich hujjatlar tizimini shakllantirishni, ularni tuzilishidan tortib, to arxivga topshirilishiga qadar bo'lgan aylanish grafigini aniq belgilashni, shuningdek boshlang'ich hujjatlar asosida tegishli hisob registrlarini yuritish talabini qo'yadi.

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari buxgalteriya hisobi jurnal-order, memorial-order, bosh-jurnal va ixchamlashtirilgan shakllardan biri bo'yicha qo'lda yoki zamonaviy kompyuterli texnologiyalarga asoslanilgan holda yuritilishi mumkin. Tanlangan hisob shakli, unga mos hisob registrlarini yuritish taqsimoti va tartibi avtotransport korxonasi hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Avtotransport korxonalari faoliyatining xususiyatlari ularda o'ziga xos ishchi schotlar rejasini ishlab chiqishni hamda uni qo'llashni talab qiladi. Chunonchi, avtotransport yordamida bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)larning naqd pul va naqdsiz pulga amalga oshirilishi, ularni qo'shilgan qiymati solig'iga tortilishidagi xususiyatlar, tovar-moddiy boyliklarni xizmat muddati davomida bir maromda hisobdan chiqarib borishning muhim

ahamiyat kasb etishi va boshqa jihatlar ishchi schotlar rejasida alohida maxsus schotlarni nazarda tutishni zarurat qilib qo'yadi. Ishchi schotlar rejasida nazarda tutilishi lozim bo'lgan bunday schotlar va ularning yuritilish tartibiga keyingi ma'ruzalarda alohida to'xtalamiz.

17.3. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari buxgalteriya hisobining obyektlari bo'lib asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va operatsiyalar, faoliyat turlarining olib borilishini ta'minlovchi aktivlar, aktivlarni tashkil topish manbalari, shuningdek erishilgan moliyaviy natijalar hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ushbu obyektlari avtotransport korxonalarida, bir tomondan, o'ziga xos xususiyatlarga, ikkinchi tomondan esa, barcha korxonalardagi umumiy jihatlarga ega.

Avtotransport korxonalari asosiy faoliyatini bevosita avtotransport vositalari bilan bog'liqligi buxgalteriya hisobidan avvalambor ushbu vositalarning mavjud holati va harakati, ular yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar, olingan daromad va qilingan xarajatlar, avtotransport xizmatidan erishilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash kabi funksiyalarni bajarishni taqozo etadi. Bundan tashqari hisob xodimlari avtotransport vositalari ish faoliyatini soniy va sifat jihatdan ifodalovchi ko'rsatkichlarni doimiy nazorat va tahlil qilish, nazorat va tahlil natijalarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida rahbariyatga hamda boshqa foydalanuvchilarga o'z vaqtida yetkazib berish kabi funksiyalarni ham bajarishlari lozim.

Avtotransport tomonidan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar naqd hamda naqdsiz pulga amalga oshiriladi. Avtotransport korxonalari tomonidan naqd pulga ko'rsatilgan xizmatlar aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu pullik xizmatlarning hajmi avtotransport korxonalarining kassasiga topshirilgan pul miqdori bilan, shuningdek sotilgan yo'l chiptalari, talonlar hamda haydovchilar tomonidan yo'lda yoqilg'i sotib olish uchun sarflangan yo'l puli miqdoridan iborat bo'ladi. Naqdsiz pulga avtotransport xizmatlari tuzilgan shartnomalar asosida ko'rsatiladi. Ushbu xizmatlar hajmi buyurtmachilarga taqdim etilgan va ular tomonidan to'lov uchun qabul qilingan schot-fakturalar asosida aniqlanadi. Ushbu xususiyatlar avtoxo'jaliklarda bajarilgan ish

(ko'rsatilgan xizmat)lar hajmini hisob-kitob va to'lov turlari bo'yicha alohida-alohida hisobga olish zarurati borligidan darak beradi.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larni qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ga tortishda ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Chunonchi, birgina avtotransport yordamida yo'lovchi tashishda shahar ichi marshrutlaridan tushgan tushumlar QQSga tortilmaydi. Shaharlararo va shahar hududidan 10 kilometrdan ortiq masofadagi manzillarga yo'lovchi tashishdan tushgan tushumlar QQSga tortiladi. Yuk tashishdan tushumlar ularning shahar ichi yoki shaharlararo qatnovidan qat'i nazar QQS to'lovchi avtotransport korxonalarida QQSga tortiladi. Avtotransport tomonidan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)larni QQSga tortishdagi ushbu xususiyatlar buxgalteriya hisobi oldiga avtotransport korxonalarida QQSga tortiladigan hamda unga tortilmaydigan daromadlarni alohida hisobga olish talabini qo'yadi.

Avtotransport korxonalari faoliyatida transport vositalarining muhim ahamiyatga molikligi haydovchilar hamda boshqa texnik xodimlar mehnati va ular mehnatiga haq to'lashni tashkil qilishda o'ziga xos yondashishni talab qiladi. Chunonchi, avtotransport vositalarini ekspluatasiya qilish hamda ular butligini va ishga loyiqligini ta'minlash zarurati, avtotransportning turlari, markalari, ularning yuk tashish imkoniyatlari, boshqarish darajasining murakkabligi, maxsus razryadlarni talab qilishligi yoki qilmasligi, ishlash rejimlari va shu kabi boshqa omillar avtoxo'jaliklarda mehnatni tashkil qilishning mos ravishda moddiy javobgarlikning yakka hamda brigada shakllaridan keng foydalanishni, shuningdek mehnatga haq to'lashning ishbay va vaqtbay turlarini keng qo'llashni taqozo etadi. Ushbu xususiyatlar avtoxo'jaliklarda mehnat va mehnatga haq to'lash hisobini tashkil qilishda maxsus yondashishni zarurat qilib qo'yadi.

Avtotransport vositalarining ish faoliyati ularni harakatga keltiruvchi yoqilg'i, yog'lash materiallari, ehtiyot qismlar va shu kabi boshqa moddiy boyliklarning tegishli miqdorda mavjudligiga, ularning butligi, sifati va boshqa jihatlariga bog'liq. Shu bois ham ushbu aktivlar hisobini to'g'ri tashkil qilish avtoxo'jaliklar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobi oldida turgan asosiy vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- avtotransport vositalari holati hamda harakatini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish, ular asosida transport vositalarining tahliliy va sintetik hisobini yuritish;

- avtotransport vositalarining ish faoliyati, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni hisobot davrlari bo'yicha hisobga olish, ularni tasdiqlovchi hujjatlarni o'z vaqtida to'g'ri rasmiylashtirish;

- avtotransport vositalarini ekspluatasiya qilishga doir xarajatlarning tizimli hisobini yuritish, hisob ma'lumotlari asosida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxini aniqlash;

- avtotransport vositalari faoliyatini uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish zaxiralari (yoqilg'i, yog'lash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) holati hamda harakatiga doir boshlang'ich hujjatlar, moddiy hisobotlar, shuningdek hisob registrlarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzilishini ta'minlash;

- avtotransport yordamida naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar bo'yicha hisob-kitoblarni barcha buyurtmachilar bo'yicha o'z vaqtida va to'g'ri olib borish;

- ko'rsatilgan avtotransport xizmatlaridan olingan naqd pul tushumlarini korxona kassasiga kirim qilinishini, naqd pul hisobidan haydovchilar tomonidan avtomobil yoqilg'ilarining xarid qilinishi, pul mablag'larining bank muassasasiga topshirishini to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish;

- avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan erishilgan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish, ularni buxgalteriya schotlari va hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish;

- mehnat haqi, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri hamda o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash.

Tayanch iboralar

Transport – bu o'z ichiga temir yo'l, havo yo'llari, daryo, dengiz, yer osti va yer usti yo'llari transportlarini oluvchi xalq xo'jaligining maxsus tarmog'i.

Avtotransport - transport tarmog'ining avtomobillar yordamida yuk va yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan sohasi.

Avtotransport korxonasi - avtomobillar yordamida yuk va yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan yuridik shaxs.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) - avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk

tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar).

Avtotransport korxonasining hisob siyosati – avtotransport korxonasi rahbari tomonidan tanlab olingan buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishini tashkil qilish, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar majmuasi.

Nazorat uchun test savol-javoblari

1. Avtotransport - bu:

a) transport tarmog'ining sohasi;
b) jarayon;
v) faoliyat turi;
g) oldingi barcha javoblarning barchasi to'g'ri.

2. Avtotransport korxonalari:

a) aksiyador jamiyatlari bo'lishi mumkin emas;
b) kichik korxona bo'la olmaydi;
v) mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lishi mumkin emas;
g) oldingi barcha javoblar noto'g'ri.

3. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobi obyektlariga kiradi:

a) aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital;
b) xo'jalik faoliyati turlari;
v) xo'jalik faoliyati natijalari;
g) yuqoridagi javoblarda keltirilganlarning barchasi.

4. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyatiga kiradi:

a) yuk tashish;
b) yo'lovchi tashish;
v) xizmatlarni reklama qilish;
g) yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi.

5. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyati:

a) lisenziyalashtiriladi;
b) lisenziyalashtirilmaydi;
v) ruxsatnoma olinadi;
g) ayrim ishlar lisenziyalashtiriladi.

6. Avtotransport korxonasi hisob siyosatini belgilaydi:

a) Vazirlar Mahkamasi;

b) O'zavto va daryo transporti agentligi;

v) korxonaning rahbariyat organi;

g) bosh buxgalter.

Xo'jalik holati

Avtotransport korxonasi ixtiyorida mavjud: yoqilg'i – 4000000 so'm; avtoshinalar – 6000000g so'm; transport vositalari (qoldiq qiymatida) – 120000000 so'm; pul mablag'lari – 7000000 so'm; debitorlik qarzlar – 15000000 so'm; ustav kapitali – 75000000 so'm; rezerv kapitali – 5500000 so'm; kreditorlik qarzlar – 67000000 so'm; taqsimlanmagan foyda – 3500000 so'm; maqsadli tushumlar – 6000000 so'm; boshqa ehtiyot qismlar – 5000000 ming so'm.

Xo'jalik holati shartida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga javoblarni toping.

1. Korxona balansi valutasi summasi teng:

a) 120000000 so'mga;

b) 156000000 so'mga;

v) 157000000 so'mga;

g) To'g'ri javob yo'q.

2. Korxonaning joriy aktivlari summasi teng:

a) 0 so'm so'm;

b) 37000000 so'm;

v) 36000000 so'm;

g) To'g'ri javob yo'q.

3.Korxonaning ishlab chiqarish zaxiralari summasi teng:

a) 15000000 so'm;

b) 130000000 so'm;

v) 135000000 so'm;

g) To'g'ri javob yo'q.

4.Korxonaning xususiy kapitali summasi teng:

a) 84000000 so'm;

b) 75000000 so'm;

v) 90000000 so'm;

g) 3500000 so'm.

5. Korxonaning joriy to'lov qobiliyati darajasi necha foiz?

a) 179 foiz;

b) 55 foiz;

v) 41 foiz;

g) 74 foiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Transport sohasida alohida faoliyat turlarini lisensiyalashtirish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida», 2003-yil 21-avgust, № 360-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2004-yil 10-mart, 118-son.

5. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot. O'zR AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

6. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

18-bob. AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULAR ISH FAOLIYATINING HISOBI

18.1. Avtotransport vositalarining tasnifi, tavsifi va baholanishi

Avtotransport korxonalari moddiy-texnika bazasida avtotransport vositalari (ATV) bosh rolni o'ynaydi. Ularsiz avtotransport korxonalari o'zlarining yuk tashish, yo'lovchi tashish hamda boshqa ish (xizmat)lardan iborat bo'lgan asosiy faoliyatini yurita olmaydilar. Shu bois ham avtotransport korxonalarida ATVlarning yetarli miqdorda mavjudligi, ularning butligi, ishga yaroqligi, yangilanib turishi, shuningdek har bir avtomobil ish faoliyati qat'i hisobini yuritish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtotransport korxonalari ixtiyoridagi ATVlarni buxgalteriya hisobi obyekti sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

Ishlatilish maqsadiga ko'ra avtotransport korxonalari ATVlari yo'lovchi tashish, yuk tashish va maxsus ishlarga mo'ljallangan bo'ladi.

Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ATVlarga avtobuslar, mikroavtobuslar hamda taksi sifatida ishlatiladigan yengil avtomobillar kiradi.

Yuk tashishga mo'ljallangan ATVlarga bortli, furgonli, o'zi to'kgich (samosval), tortgichli avtomashinalar, shuningdek ularning tirkamalari va yarimtirkamalari misol bo'ladi.

Maxsus ish (xizmat)larni bajarishga mo'ljallangan ATVlarga suv, sut, yoqilg'i, non va boshqa turdagi yuklarni tashuvchi, shuningdek maxsus ishlarni, masalan qurilish moslamalari va konstruksiyalarini ko'tarish, sindirish, yanchish mashinalari, yong'in o'chirish, axlat tashish, asfalt yo'llarni qor va muzlardan tozalash, supirish, suv sepish kabi ishlarni bajaruvchi avtomobillar kiradi. Barcha turdagi ushbu ATV ishlab chiqilgan joyi, nomi, markasi, iste'mol qiladigan yoqilg'i turiga ko'ra bir biridan farqlanadi.

Ishlab chiqilgan joyiga ko'ra ATV xorijiy mamlakatlarda hamda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarga bo'linadi. Chunonchi, respublikamiz avtotransport korxonalarida Rossiya, Belorussiya, Germaniya, Yaponiya va dunyoning boshqa mamlakatlarida, shuningdek respublikamizning o'zida ishlab chiqilgan 100 dan ortiq nomdagi va turli markalardagi ATVlar ishlatilmoqda.

Iste'mol qiladigan yoqilg'i turiga ko'ra ATVlar benzin (B), dizel yoqilg'isi (D), shuningdek suyultirilgan gaz (SG) hamda siqilgan tabiiy gaz (TG)da ishlaydigan avtomibillarga bo'linadi.

Nomi bir xil, lekin markasi turlicha bo'lgan ATVlar ularga sarflanadigan yoqilg'ining asosiy me'yorlari bo'yicha ham bir-biridan farqlanadi (18.1-jadvalga qarang).

Avtotransport korxonalari ixtiyoridagi ATVlar uzunligi, dvigatelining ish hajmi, og'irligi bo'yicha ham turlicha bo'ladi. Masalan, avtobuslar uzunligi bo'yicha mini (5,5 metrgacha), kichik (6,0 metrdan 7,5 metrgacha), o'rta (8,5 metrdan 10 metrgacha), katta (11 metrdan 12 metrgacha) hamda superkatta (16,5 metrdan 24 metrgacha) avtobuslarga bo'linadi.

18.1-jadval

Avtotransport vositalarining ayrim turlari bo'yicha har 100 km masofaga sarflanadigan yoqilg'ining asosiy me'yorlari

Transport turi, modeli, markasi va modifikatsiyasi	Asosiy me'yor, l/100 km	Yoqilg'i turi
1. Yuk tashish avtomobillari		
GAZ		
GAZ- 52, -52A, -52-01, -52-03, -52-04, -52-05, -52-54, -52-74, -53F	22,0	B
GAZ-52-07, -52-08, -52-09	30,0	SG
GAZ -52-27, -52-28	21 (22)	TG
GAZ-53,-53A, -53-12, -52-12-016 va b.	25,0	B
GAZ-63,- 63A	26,0	B
GAZ-66, -66A, -66AE, -66-01, -66-02, -66-04, -66-05, -66-11	28	B
GAZ-3309, GAZ -5441	17	D
ZIL		
ZIL-130, -130A1, -130G, -130GU, -130S, -130-76, -130G-76 va boshqalar	31,0	B
ZIL-131, -131A	41,0	B
ZIL-133G, -133G1,-133G2, -133GU	38,0	B
ZIL-133GYA	25,0	D
ZIL-138	42,0	SG
ZIL-138A, 138AG	31 (32)	TG
ZIL-150, ZIL -151, -151A	39,0	B
ZIL-5301PO	15,0	D
KamAZ		
KamAZ-4310,-43105	31,0	D
KamAZ-5320	25,0	D
KamAZ-53219	22,0	TGQ6,5D YOki 26,0 D
KrAZ		
KrAZ-255B,-255B1	42,0	D
KrAZ-257,- 257B1	38,0	D
MAZ		
MAZ-514	25,0	D
MAZ -543	98,0	D

UAZ		
UAZ-451, -451D, -451DM,-451M	14,0	B
UAZ-452, -452D, -452DM	16,0	B
UAZ -33032, -3332-01	21,5	B
UAZ-3909	17,0	B
BelAZ		
BelAZ-540, -540A	135	D
BelAZ-548A	160,0	D
BelAZ-548GD	200,0	SG
BelAZ-549, -7509	270,0	D
Boshqa mamlakatlar yuk mashinalari		
Tatra 111 R	33,0	D
Iveco-190.33	25,0	D
Mersedes-bens-1635S, -1926, -1928, -1935	23,0	D
Mersedes-bens-1834LS	18,5	D
Mersedes-bens-1840	17,0	D
Mersedes-bens-2232S	27,0	D
Volvo-1033	22,0	D
Volvo FH-12/380	15,0	D
Volvo FL 10	27,0	D
Ford Transit FT 150/150L	10,0	D
Ford Transit FT 150/150L 2.01	13,0	B
2. Avtobuslar		
LAZ-695 (B, E, J, M, N modif.)	41,0	B
LAZ-699R	28,1	D
PAZ-672, -672A,- 672G va boshqalar	34,0	B
Ikarus-55	28,0	D
Ikarus-280,-280,01	43,0	D
Mersedes-bens-308D	10,8	D
Mersedes-bens-0302	32,0	D
Volsvagen 2,0	11,5	B
Volsvagen 2,5D	9,4	D
Otayo'l M-24	17,8	D
Otayo'l M-24	44,6	TG
3. Yengil avtomobillar		
GAZ-24,-24-10, 24-60	13,0	B
GAZ-24-07	16,5	SG
GAZ-3102, 3102-12	12,5	B
GAZ-3105	13,7	B
Audi 80 1.6	13,1	B
BMV M3	11,0	B
BMV 725	10,1	D
Mersedes-bens E 200	9,5	B
Meresedes-bens Vito 110D	9,6	D
Nissan Almera 1.5	7,6	B
Nissan Patrol GD 3.0D	12,5	D
Neksiya	9,0	B
Matiz	7,5	B

Yengil avtomobillar dvigatellarining ishchi hajmiga ko'ra juda kichik (1,1 litrgacha), kichik (1,1 litrdan 1,8 litrgacha), o'rta (1,8 litrdan 3,5 litrgacha), katta (3,5 litrdan ortiq) turlarga bo'linadi.

Yuk tashish avtomobillari og'irligiga (massasiga) ko'ra quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi:

- 1-guruh - 1,2 tonnagacha;
- 2-guruh - 1,2 tonnadan 2,0 tonnagacha;
- 3- guruh -2,0 tonnadan 8,0 tonnagacha;
- 4-guruh – 8,0 tonnadan 14,0 tonnagacha;
- 5-guruh - 14 tonnadan 20,0 tonnagacha;
- 6-guruh – 20,0 tonnadan 40,0 tonnagacha;
- 7-guruh – 40,0 tonnadan yuqori.

Xalqaro amaliyotda ATVlarning BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining ichki transport qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatori keng qo'llaniladi. Ushbu klassifikatorda ATVlarni tasniflash uchun 6 xonali kodlar asos qilib olingan. Bu kodlarning alohida razryadlari quyidagilarni ifodalaydi:

1-son ATVning toifasi va sinfi;

2-son ATVning tipi;

3-va 4-sonlar ATVning modeli tartib raqami;

5-son ATVning modifikasiyasi;

6-son qaysi iqlimga mo'ljallanganligi.

Xalqaro klassifikatorga muvofiq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ATVlar 3 ta toifaga (M1, M2, M3) bo'linadi. Shundan, birinchi toifa (M1)ga faqat yengil avtomobillar kiritiladi. Ikkinchi va uchinchi toifa (M2, M3)larga turli uzunlik va o'rindiqlar soniga ega bo'lgan avtobuslar kiritiladi. M2 va M3 – toifalarga kiritilgan avtobuslar quyidagi sinflarga ajratiladi:

1-sinf – shahar ichida harakatlanuvchi avtobuslar;

2-sinf- shaharlararo harakatlanuvchi avtobuslar;

3-sinf – turistlarni tashishga mo'ljallangan avtobuslar.

Shahar ichi va shaharlararo qatnovlarni bajaruvchi hamda 22 tadan kam bo'lgan yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan avtobuslar A sinfga (turib va o'tirib ketuvchi yo'lovchilar uchun) hamda V sinfga (faqat o'rindiqlarga o'tirib ketuvchi passajirlar uchun) ajratiladi.

Xalqaro klassifikatorga muvofiq yuk tashishga mo'ljallangan ATVlar og'irligiga (massasiga) ko'ra 3 ta toifaga (№1, №2, №3) ajratiladi.

Chunonchi, № 1 toifaga og'irligi (massasi) 3,5 tonnagacha bo'lgan yuk tashuvchi va maxsus avtomobillar, № 2 toifaga og'irligi 3,5 tonnadan 12,0 tonnagacha bo'lgan yuk tashuvchi va maxsus avtomobillar, № 3 toifaga og'irligi (massasi) 12,0 tonnadan ortiq bo'lgan yuk tashuvchi va maxsus avtomobillar kiradi.

Avtomobillarning tirkamalari (yarimtirkamalari) og'irligi (massasi)ga ko'ra 4 ta toifaga (01, 02, 03, 04) bo'linadi. Chunonchi, 01 toifaga og'irligi (massasi) 0,75 tonnagacha bo'lgan tirkamalar, 02 toifaga og'irligi 0,75 tonnadan 3,5 tonnagacha bo'lgan tirkama va yarimtirkamalar, 03 toifaga og'irligi 3,5 tonnadan 10,0 tonnagacha bo'lgan tirkama va yarimtirkamalar, 04 toifaga esa og'irligi (massasi) 10,0 tonnadan ortiq bo'lgan tirkama va yarimtirkamalar kiradi.

ATVlarning nomlari, alohida belgilari, toifasi, sinfi, modelining tartib raqamlari, modifikasiya raqamlari ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'yiladi. Masalan, Vengriyada ishlab chiqarilgan avtomobilga berilgan «Ikarus-260,01» belgilarda 2 raqami uning avtobus ekanligini, 60 – avtobus modeli tartib raqamini, 01- modifikasiya raqamini bildiradi.

Hozirgi paytda barcha MDH mamlakatlarida, shu jumladan bizning respublikamizda ham, ATVlarni tasniflash va ularga beriladigan milliy davlat raqami belgilarini xalqaro talablar va standartlarga muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 27-iyundagi «Avtomototransport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining yangi namunalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 131-son qaroriga asosan mamlakatimizda 2007-2010yillar mobaynida barcha turdagi avtomototransport vositalariga yangi namunadagi davlat raqamlari belgilari beriladi. Yuridik shaxs maqomidagi avtotransport korxonalari ATVlariga davlat raqamlari belgilari tasdiqlangan I tip, XII tip, IA tip, IIIA tipdagi shakllarda ajratiladi.

ATVlar avtotransport korxonalari balansiga ularning **boshlang'ich qiymati** bo'yicha kirim qilinadi.

ATVlarning boshlang'ich qiymati respublikamizning 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ATVning sotib olish qiymati (QQS bilan birga);
- ATVni tashib keltirish xarajatlari;
- ATV bo'yicha bojxona to'lovlari (import qilingan ATVlarga tegishli);

-ATVni korxonaga yetkazib kelishga safarbar qilingan xodimlarga to'langan safar xarajatlari;

- brokerlik xizmati uchun to'lovlar;

- ATVni davlat ro'yxatidan o'tkazish xarajatlari (schot-ma'lumotnoma, texnik pasport, yo'l fondiga sotib olish qiymatidan 6 foiz miqdoridagi to'lov);

- ATVni sotib olish va yetkazib kelish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

ATVning boshlang'ich qiymati avtotransport korxonasi buxgalteriyasi tomonidan yuqorida keltirilgan tartibda hisob-kitob qilinishi, ushbu hisob-kitob korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

ATVlarning boshlang'ich qiymati ular foydalanishga qabul qilingandan keyingi davrda qayta baholanishi, shuningdek qilingan qo'shimcha kapital investisiyalar evaziga ko'payishi mumkin. ATVlarning ushbu sabablarga ko'ra keyingi davrlarda vujudga kelgan yangi qiymati ularning **tiklangan qiymati** deb ataladi. Tiklangan qiymat vujudga kelgan vaqtdan boshlab, ATVlarning yangi boshlang'ich qiymatini tashkil etadi.

ATVlarga qilingan qo'shimcha kapital investisiyalarga ularni modernizasiya qilish, qayta jihozlash, tarkibiy tuzilishini o'zgartirishga ketgan sarf-xarajatlar kiradi.

ATVlar modernizatsiyasi deganda, odatda, ularning texnik-ekspluatasion xususiyatlari (quvvati, foydali xizmat muddati va boshqa jihatlari)ni yaxshilashga, qo'llash sohasini o'zgarishiga olib keladigan ishlar tushuniladi. Modernizasiya ishlariga, chunonchi, ATVning eski dvigatelining quvvati katta bo'lgan boshqa dvigatelga almashtirish, uning bortini uzaytirish yoki qayta jihozlash, qo'shimcha ressorlar qo'yish kabi ishlar misol bo'ladi. Ushbu maqsadlardagi xarajatlar ATVlar boshlang'ich qiymatiga qo'shiladi.

ATVlar shinalari va boshqa ehtiyot qismlarini almashtirish, eski motor o'rniga aynan shu quvvatdagi yangi motorni qo'yish kabi ishlarga ketgan sarf-xarajatlar kapital investisiya sifatida tan olinmaydi, ular ATVlarning ta'mirlash xarajatlari sifatida hisobdan chiqariladi.

ATVlarni ta'mirlash uchta turga, ya'ni joriy, o'rta va kapital ta'mirlashga bo'linadi.

Joriy ta'mirlanish ishlari profilaktik nuqtai nazaridan doimiy tarzda o'tkaziladi. Joriy ta'mirlashlar, odatda, har chorakda, shuningdek nosozlik holatlari yuz bergan paytlarda o'tkaziladi.

O'rta ta'mirlanish ishlari yiliga kamida bir marotaba o'tkaziladi. Uning joriy ta'mirlashdan farqi shundaki, bunda ATVning ayrim qismlari va agregatlari almashtiriladi.

Kapital ta'mirlash ishlari avtotransport korxonalarining biznes rejalariga muvofiq turli muddatlarda amalga oshiriladi. Chunonchi, ATVlar texnik holati va ekspluatasiya qilish intensivligiga qarab bir necha yillar ichida bir marta ta'mirlanishi mumkin. Kapital ta'mirlashning joriy va o'rta ta'mirlashdan farqi shundaki, bunda ATVning motori, borti va boshqa qismlari to'liq yechib olinadi va qaytadan taxlanadi, shuningdek yaroqsiz holga kelgan agregatlar to'liq almashtiriladi.

Avtotransport korxonalari balansida ATVlar qoldiq qiymatida aks ettiriladi. **ATVlarning qoldiq qiymati** deganda ularning boshlang'ich (tiklangan) qiymati va jamlangan eskirishi summalari o'rtasidagi farq tushuniladi.

18.2. Avtotransport vositalari holati va harakatining hisobi

Avtotransport korxonalarida ATVlar holati va harakatining sintetik hisobi bosh kitobda ochiladigan 0160 «Transport vositalari» schotida yuritiladi. ATVlar holati va harakatining tahliliy hisobi ularning har biriga ochilgan hisob kartochkalarida yoki «Asosiy vositalar hisob-kitobi»da olib boriladi. Hisob kartochkalari avtotransport korxonasida har bir ATVga davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng ochiladi. Ushbu kartochkada ATVning barcha texnik ma'lumotlari, uning sotib olinishi (bepul olinishi)ni tasdiqlovchi hujjatning tartib raqami, sanasi, shuningdek boshlang'ich qiymati, tiklangan qiymati, jamlanib boruvchi eskirish summasi, qoldiq qiymati hisobot davrlari bo'yicha aks ettiriladi. Hisob kartochkasi ATVning korxonada foydali xizmat muddatida to'liq saqlanadi. Korxona balansidan chiqarilgan sanaga ATVga ochilgan hisob kartochkasi yopiladi.

Avtotransport korxonalarida ATVlar asosan sotib olish, bepul olish, ta'sischilar badali sifatida kiritish evaziga ko'payadi.

ATVlarni sotib olinishi buxgalteriya hisobida tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlar asosida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi (18.2-jadval).

ATVlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul olinishi tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra va schot-fakturalar asosida avtotransport korxonasi balansiga kirim qilinadi. Buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyaga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 8530 «Bepul olingan mulk».

Avtotransport korxonalarida, chunonchi, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda, xususiy korxonalarda ATVlar ta'sischilar tomonidan ularning

badallari evazi hisobidan ham shakllantirilishi mumkin. Ta'sischilar tomonidan korxona balansiga kiritilgan ATV qiymatiga ta'sis shartnomasi, baholar kelishuvi bayonnomasi, schot-fakturalar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallari bo'yicha qarzi».

18.2-jadval

ATVlarning sotib olinishini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATV ning sotib olish bahosidagi qiymatiga (QQS bilan birga)	15000000	0820	6010	Schot-faktura, bojxona yuk deklarasiyasi (BYUD)
2.	ATV bo'yicha bojxona to'lovlari summasiga	9000000	0820	6990	BYUD
3.	Sotib olishdagi vositachilik haqi summasiga	150000	0820	6990	Schot-faktura
4.	Sotib olish bo'yicha safar xarajatlari summasiga	750000	0820	6970	Bo'nak hisoboti
5.	Transport xarajatlari summasiga	200000	0820	6990	Schot -faktura
6.	Davlat avtonazoratiga to'lovlar summasiga	15525	0820	6990	Schot-faktura
7.	Yo'l fondiga sotib olish qiymatidan 6 foizlik to'lov summasiga	900000	0820	6520	Schot, to'lov topshiriq-nomasi
8.	ATVni boshlang'ich qiymati bo'yicha kirimiga	28015525	0160	0820	Hisob-kitob

ATVlarning boshlang'ich qiymati, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ular qiymatini qayta baholash, shuningdek avtomobillarni modernizasiya qilish evaziga ko'payishi mumkin. Avtotransport korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari har yilning 1-yanvar holatiga o'zlarining barcha asosiy vositalari, shu jumladan ATVlarni qayta baholashlari lozim. Qayta baholash belgilangan tartibga muvofiq indeks yoki to'g'ridan-to'g'ri baholash usullaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Qayta baholash korxona rahbari tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan yoki shartnoma asosida mulkni baholash huquqi bo'lgan maxsus korxona tomonidan amalga oshiriladi. Qayta baholash natijalari «Qayta baholash dalolatnomasi» bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomaga asosan ATVlar boshlang'ich qiymatini oshirilishiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

Bir vaqtning o'zida ATVlar bo'yicha ularning jamlangan eskirishi summasini oshirilishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»;

Kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi».

8510 «Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schotining krediti va debetida aks ettirilgan summalarning ijobiy farqi ATVlarni qayta baholash evaziga vujudga kelgan rezerv kapitalini bildiradi. Qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali avtotransport korxonasi balansida xususiy kapital elementi sifatida aks ettiriladi.

ATVlar boshlang'ich qiymatini modernizasiya qilish evaziga ko'payishi maxsus «Modernizasiya qilish dalolatnomasi» asosida hisobga olinadi. Ushbu dalolatnoma maxsus komissiya tomonidan tuziladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi. ATVlar modernizasiyasiga ketgan barcha sarf-xarajatlar dastlab 0890 «Boshqa kapital quyilmalar» schotining debetida to'planadi. Dalolatnoma asosida modernizasiya xarajatlari summasini ATVlarning boshlang'ich qiymatiga kiritilishiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar».

Avtotransport korxonalari ATVlarni shartnomalar asosida joriy va uzoq muddatli ijaraga olishlari ham mumkin.

Joriy ijaraga (1 yilgacha muddatgacha) olingan ATVlar avtotransport korxonalari balansiga kirim qilinmaydi. Bunday ATVlar balansdan tashqari 001 «Joriy muddatli ijara bo'yicha olingan asosiy vositalar» schotining debetida hisobga olinadi. Joriy ijara muddati tugagach, ATVlar ijara beruvchiga qaytariladi. Bunda ochilgan 001 «Joriy muddatli ijara bo'yicha olingan asosiy vositalar» schoti kreditlanadi va shu yo'l bilan ushbu schot yopiladi.

Uzoq muddatli ijaraga (1 yildan ko'p muddatga) olingan ATVlar avtotransport korxonalarining balansiga kirim qilinadi va mos ravishda 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar» schotida hisobga olinadi. ATVlarni uzoq muddatli ijaraga olish operatsiyalari buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- ATVning kelishuv qiymatiga:

Debet 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar»;

Kredit 7910 «To'lanadigan uzoq muddatli ijara bo'yicha qarz».

- Uzoq muddatli ijara bo'yicha qarzning joriy qismiga:

Debet 7910 «To'lanadigan uzoq muddatli ijara bo'yicha qarz»;

Kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi».

- Uzoq muddatli ijara majburiyatining joriy qismiga doir to'lovni amalga oshirilishiga:

Debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

- Uzoq muddatli ijaraga olingan ATVni asosiy vositalar tarkibiga olinishiga ular bo'yicha (ijara muddati tugab, majburiyatlar to'liq to'langandan so'ng):

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 0310 «Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar».

Avtotransport korxonalari ixtiyoridagi ATVlar turli sabablarga ko'ra, jumladan tugatish, sotish, bepul berish, ta'sis badali sifatida kiritish hollarida hisobdan chiqariladi. Shuningdek, ATVlarning boshlang'ich qiymati ularni qayta baholash evaziga ham kamaytirilishi mumkin.

ATVlar foydali xizmat muddatini o'taganda, yaroqsiz holga kelganda tugatiladi. Tugatish ishlari maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Uning natijalari komissiya tomonidan «Tugatish dalolatnomasi»da aks ettiriladi. Ushbu dalolatnoma rahbar tomonidan tasdiqlangach, u tugatish natijalarini hisobda aks ettirishga asos bo'ladi.

ATVlarni tugatish natijalari buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuvlar bilan aks ettiriladi (18.3-jadval).

ATVlarning sotilishi turli sabablarga ko'ra yuz beradi, masalan avtotransport korxonasi bankrotga uchraganda, eski avtomobillarga zarurat bo'lmaganda, yangi avtomobillarning sotib olinishini mablag' bilan ta'minlash maqsadida va boshqa hollarda. Avtotransport korxonalari tomonidan ATVlarni sotish shartnomalar asosida amalga oshiriladi va schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Avtotransport korxonalari ATVlarni qoldiq qiymatdan yuqori narxlarda, qoldiq qiymatida va undan past bo'lgan qiymatlarda sotishlari mumkin. ATVlarni sotish va undan olingan natijalar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi (18.4-jadval).

18.3-jadval

ATVlarning tugatilishini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Tugatish dalolatnomasi
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	5000000	0260	9210	Tugatish dalolatnomasi
3.	Tugatishdan olingan ehtiyot qismlar va metallolomning baholangan qiymatiga	100000	1040, 1090	9210	Tugatish dalolatnomasi
4.	Tugatish xarajatlariga	25000	9210	6710, 6520, 6990	Tugatish dalolatnomasi
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Tugatish dalolatnomasi
6.	Tugatishdan olingan moliyaviy natijaga: -olingan foyda summasiga; -ko'rilgan zarar summasiga.	575000 -	9210 9430	9310 9210	Tugatish dalolatnomasi

18.4-jadval

ATVlarning sotilishini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schot-faktura, ma'lumotnoma
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schot-faktura, ma'lumotnoma
3.	ATVning sotish qiymatiga	3000000	4010	9210	Schot-faktura,
4.	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq summasidan) (3000000- 1000000)*20%/120%)	333333	9210	6410	Schot-faktura , hisob-kitob
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
6.	Sotishdan olingan moliyaviy natijaga: - foyda summasiga; - zarar summasiga.	2166667 -	9210 9430	9310 9210	Hisob-kitob

Respublikamizning Soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq umumsoliqlarni to'lovchi avtotransport korxonalari ATVlarni qoldiq qiymati

va qoldiq qiymatidan past narxlarda sotganlarida QQS to'lovchi hisoblanmaydilar. Shuningdek, yagona soliq to'lovini to'lovchi avtotransport korxonalari ATVlarni sotganda QQS to'lamaydi.

ATVlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga bepul berilishi faqat tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

ATVlarni bepul berilishi va uning natijalarini schotlarda aks ettirish ATVlarni sotish bo'yicha yuqorida keltirilgan tartibga to'liq o'xshaydi. Faqat, bepul berishdan ko'rilgan zarar summasini hisobdan chiqarish ATVlarni bepul berishda kelishilgan narxga, avtotransport korxonasining QQS to'lovchi yoki to'lovchi emasligiga, shuningdek qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalining summasiga bevosita bog'liq. Ushbu xususiyatni quyidagi misol asosida ko'rib chiqamiz.

Misol. *Aytaylik, avtotransport korxonasi boshlang'ich qiymati 5000000 so'm, jamlangan eskirishi 4000000 so'm bo'lgan avtomobilni 2000000 so'm miqdorida hadya shartnomasi asosida nogironlar uyiga berdi. Avtomobilni qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali 500000 so'm. Avtoxo'jalik QQS to'lovchi hisoblanadi.*

18.5-jadval

ATVlarning bepul berilishini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000	9210	0160	Schot-faktura, ma'lumotnoma
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000	0260	9210	Schot-faktura, ma'lumotnoma
3.	ATVni bepul berishdagi shartnoma qiymatiga	2000000	4010	9210	Schot-faktura,
4.	QQS summasiga (agar korxona ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq summasidan) (2000000- 1000000)*20%/120%)	166667	9210	6410	Schot-faktura , Hisob-kitob
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
6.	Bepul berilgan ATV bo'yicha 9210 schotning yopilishiga (2000000-1000000+ 500000-166667)	1333333	9210	4010	Hisob-kitob
7.	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga (2000000-1333333)	666667	9430	4010	Hisob-kitob

Avtomobilni bepul berish va undan ko'rilgan zarar yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra hisobda quyidagicha aks ettirilishi lozim (18.5-jadval).

Agar, avtotransport korxonasi yuqoridagi misolda keltirilgan avtomobilni qoldiq qiymati bo'yicha hadya qilganda edi, u holda ushbu operatsiya bo'yicha QQS to'lanmaydi. Korxonaning bepul berishdan ko'rilgan zarari qayta baholash summasiga kamaytirilgandan so'ng 500000 so'mni (1000000- 500000) tashkil etadi.

Respublikamizning Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra, yagona soliq to'lovchi avtotransport korxonalarining ATVlari qoldiq qiymati bo'yicha bepul berilganda ularga soliq yuki faqatgina qayta baholash summasining qoldiq qiymatdan ortiq bo'lgan qismigagina tushadi. Masalan, qoldiq qiymati 1000000 so'm bo'lgan ATV shu qiymatda bepul berilgan holda, uning qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali 1500000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, u holda o'rtadagi 500000 so'mlik farq summasi avtotransport korxonasida yagona soliq to'lovi bazasiga kiritiladi.

Avtotransport korxonalari o'z ATVlarini boshqa yuridik shaxslarga ta'sis badali sifatida ham kiritishlari mumkin. Bunday operatsiyalarni amalga oshirishga tuzilgan shartnomalar asos bo'ladi. ATVlarni ta'sis badali sifatida berilishi qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, schot-fakturalar hamda buxgalteriyaning tegishli ma'lumotnomalari asosida hisobga olinadi. Ushbu mazmundagi operatsiyalarni hisobga olishda respublikamizda belgilangan quyidagi tartiblarga amal qilinishi lozim:

birinchidan, ta'sis badali sifatida berilgan ATVlar ularning boshlang'ich qiymatida, shuningdek ular bo'yicha jamlangan eskirish summasi korxonaning balansidan yuqorida keltirilgan yozuvlar asosida chiqariladi.

ikkinchidan, ta'sis badali sifatida kiritilgan ATVlar avtotransport korxonalarida moliyaviy investisiyalar sifatida tan olinadi va mos ravishda 0600 «Uzoq muddatli investisiyalar» schotida aks ettiriladi.

uchinchidan, ATVlarni ta'sis badali sifatida kiritish, ularning kelishuv qiymatidan qat'i nazar, QQSga tortilmaydi.

to'rtinchidan, ATVlarni ta'sis badali sifatida kiritishdan olingan foyda yoki ko'rilgan zarar mos ravishda 9310 «Asosiy vositalar chiqimidan foyda» va 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» schotida aks ettiriladi.

Avtotransport korxonalari ATVlarni joriy va uzoq muddatli ijaraga berishlari ham mumkin. Ushbu operatsiyalar hisobi respublikamizning 6-

son BHMS «Ijara hisobi»ga muvofiq olib borilishi lozim. Chunonchi, ATVlarni joriy (1 yil muddatgacha) ijaraga berishda ular avtotransport korxonalarining balansidan chiqarilmaydi. Avtotransport korxonasining hisob siyosatiga ko'ra bunday ATVlar hisobi ishchi schotlar rejasida nazarda tutilgan alohida schotda, masalan 0161 «Joriy ijaraga berilgan transport vositalari» schotida hisobga olinishi mumkin. Bu holda ATVlarni joriy ijaraga berilishi ushbu schotning debetida, ularning qaytarilishi esa uning kreditida aks ettiriladi.

ATVlarni uzoq muddatli (1 yildan ko'p muddatga) ijaraga berish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi (18.6-jadval).

Avtotransport korxonalarida ATVlar boshqa asosiy vositalar singari ikki yilda kamida bir marotaba inventarizatsiya qilinishi lozim. ATVlar inventarizatsiyasi, uning natijalarini hujjatli rasmiylashtirish hamda hisobga olish respublikamizning 19-son BHMS «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisobdan chiqarilgan, biroq inventarizatsiya paytida ekspluatasiya qilinayotganligi aniqlangan ATVlar avtotransport korxonasi balansiga qayta kirim qilinadi va unga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 9390 «Boshqa operasion daromadlar».

ATVlar inventarizatsiyasida kamomadlar aniqlanganda, dastlab, ularning boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirishi, shuningdek ular bo'yicha oldingi davrlarda qayta baholash evaziga shakllangan rezerv kapitali hisobdan chiqariladi. Ushbu operatsiyalar buxgalteriya hisobida yuqorida keltirilgan yozuvlarga o'xshash tarzda aks ettiriladi. Shundan so'ng, mavjud bo'lmagan ATVning qoldiq qiymati aybdor shaxslar aniqlangunga qadar kamomad sifatida tan olinadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar»;

Kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqimi».

ATVlarning kam chiqishi aybdor shaxs bo'yniga avtotransport korxonasi rahbariyati tomonidan belgilangan miqdorda qo'yiladi. Ushbu miqdor kamomad sifatida tan olingan ATVning qoldiq qiymatiga, qayta baholash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali summasi chegirilib topilgan qoldiq qiymatda, qoldiq qiymatdan past hamda undan yuqori qiymatlarda belgilanishi mumkin. Misol uchun, aytaylik kamomad chiqqan ATVning qoldiq qiymati 500 ming so'm, qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitali summasi 300 ming so'mni tashkil etadi. Korxona rahbariyati,

kamomadni 1-holatda 200 ming so'm, 2-holatda 500 ming so'm, 3-holatda 100 ming so'm miqdorida undirib olishga qaror qilgan bo'lsa, mos ravishda, bu holatlar bo'yicha buxgalteriyada quyidagi yozuvlar berilishi lozim.

18.6-jadval

ATVlarning uzoq muddatli ijaraga berilishini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	15000000	9210	0160	Ijara shartnomasi, schot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	14000000	0260	9210	Ijara shartnomasi, schot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
3.	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatiga	3000000	0920	9210	Ijara shartnomasi, schot-faktura,
4.	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatining joriy qismiga (misol uchun ijara 5 yilga berilgan bo'lsa, joriy yilga doir ijara haqi 600000 so'mni tashkil etadi – 3000000/5)	600000	4810	0920	Ijara shartnomasi, schot-faktura , hisob-kitob
5.	Uzoq muddatli ijara to'lovi summasining kelib tushushiga	600000	5110	4810	Bank ko'chirmasi
6.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000	8510	9210	Buxgalteriya ma'lumot-nomasi
7.	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni kechiktirilgan summasiga	2500000 -	9210	7230	Hisob-kitob
8.	Kechiktirilgan daromadning joriy qismiga (2500000/5)	500000	7230	6230	Hisob-kitob
9.	Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadni hisobot davr daromadiga qo'shilishiga	500000	6230	9390	Hisob-kitob

1-holatda *(ATV bo'yicha kamomad summasini 200 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda):*

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzlari»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar».

2-holatda *(ATV bo'yicha kamomad summasini 500 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda):*

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzlari» - 500000 so'm;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar» - 200000 so'm;

Kredit 9310 «Asosiy vositalar chiqimidan foyda» - 300000 so'm.

3-holatda *(ATV bo'yicha kamomad summasini 100 ming so'm miqdorida undirishga qaror qilinganda):*

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zarar bo'yicha qarzlari» - 100000 so'm;

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» - 100000 so'm;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklar buzilishidan yo'qotishlar» - 200000 so'm.

18.3. Avtotransport vositalari ish faoliyati ko'rsatkichlarining hisobi

Avtotransport korxonalarida har bir ATV ish faoliyati alohida yuritiladi. Buning uchun ATVlarning har biriga maxsus «Avtotransport ish faoliyati hisobi kartochkasi» ochiladi. Bu kartochkalarda ATVlar ish faoliyatini ifodalovchi soniy va sifat ko'rsatkichlar davrlar bo'yicha aks ettiriladi hamda jamlab boriladi.

ATVlar ish faoliyati hajmini ifodalovchi soniy ko'rsatkichlar bo'lib tashilgan yuk hajmi va yuk aylanmasi (yuk aylanmai) hisoblanadi. Chunonchi, tashilgan yuk hajmi tonnada, yuk aylanmasi (yuk aylanmai) tonna-kilometrda, yo'lovchi tashish hajmi esa kishi sonida, yo'lovchi aylanmasi (yo'lovchi aylanmai) kishi-kilometrda hisobga olinadi.

Tonna-kilometr (t/km) – transport tomonidan 1 tonna yukni 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik. Transport tomonidan bajarilgan jami ishning tonna-kilometr (t/km)dagi hajmi tashilgan yuk miqdorini (tonna) jami yuk bilan bosib o'tilgan masofa (km)ga ko'paytirish orqali topiladi.

Kishi-kilometr (k/km) – transport tomonidan 1 kishini 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik. Transport tomonidan bajarilgan jami ishning kishi-kilometr (k/km)dagi hajmi tashilgan yo'lovchilar sonini (kishi) jami yo'lovchilar bilan bosib o'tilgan masofa (km)ga ko'paytirish orqali topiladi.

ATVlar ish faoliyati turli sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Ularning asosiylari bo'lib, chunonchi, quyidagilar hisoblanadi:

-1 **tonna-kilometr (t/km) yuk aylanmasining tannarxi**. Bu ko'rsatkich yuk tashish avtomobil transportini ekspluatasiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmi, ya'ni yuk aylanmasi (t/km) miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

- **1 kishi-kilometr (k/km) yo'lovchi aylanmasining tannarxi.** Bu ko'rsatkich yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportini ekspluatasiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmiga, ya'ni yo'lovchi aylanmasi (k/km) miqdoriga bo'lish orqali topiladi.

- **avtomobillarning texnik tayyorgarlik koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkich ma'lum davrda jami texnik soz hamda yuk tashish (yo'lovchi tashish) uchun yaroqli bo'lgan avtomobillar sonini ularning shu davrda jami ro'yxatdagi soniga bo'lish orqali topiladi.

- **avtomobillarni ishga chiqish koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkich ma'lum davrda jami ishga chiqqan avtomobillar sonini shu davrda xo'jalikda mavjud bo'lgan jami avtomobillar soniga bo'lish orqali topiladi.

- **ishdagi avtomobil-kunlar soni.** Bu ko'rsatkich ma'lum davrdagi jami avtomobil-kunlar sonini shu davrdagi avtomobillarni ishga chiqish koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali topiladi.

- **ishda bo'lmagan avtomobil-kunlar soni.** Bu ko'rsatkich ma'lum davrda xo'jalikdagi jami avtomobil-kunlar sonidan jami ishdagi avtomobil-kunlar sonini ayirish orqali topiladi. Avtoxo'jaliklarda ishda bo'lmagan avtomobil-kunlar soni obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra yuz beradi. Chunonchi, dam olish hamda bayram kunlariga, shuningdek rejadagi texnik ko'rik va ta'mirlash ishlariga to'g'ri keladigan avtomobil-kunlari soni obyektiv sabablar hisoblanadi. Yo'lga chiqib, turli tasodifiy holatlarga ko'ra ish vaqtini to'liq o'tamasdan xo'jalikka qaytgan, shuningdek haydovchining berilgan topshiriqni bajarmaganligi va shu kabi boshqa holatlarga ko'ra ishda bo'lmagan avtomobillarga to'g'ri keluvchi avtomobil-kunlari soni subyektiv sabablar hisoblanadi. Bunday sabablarga ko'ra vujudga kelgan avtomobil-kunlar soni tuzilgan maxsus dalolatnomalar asosida hisobga olinadi.

- **Naryaddagi avtomobil-soatlar soni.** Bu ko'rsatkich ma'lum davrda xo'jalikdagi jami avtomobil-kunlar sonini avtomobillarning naryadda bo'lgan o'rtacha sutkalik soatlari soniga ko'paytirish orqali topiladi.

- **Avtomobillar ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkich avtomobillarning harakatdagi vaqtini naryadda bo'lgan vaqtiga bo'lish orqali topiladi.

- **Bosib o'tilgan masofaning foydalilik koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkich avtomobillarning ma'lum davrda yuk bilan bosib o'tgan masofasini jami yuk bilan va yuksiz bosib o'tgan masofasiga bo'lish orqali topiladi.

- **Yuk ko'tarish imkoniyatidan foydalanish koeffitsiyenti.** Bu ko'rsatkich avtomobillar tomonidan ma'lum davrda haqiqatda tashilgan yuk hajmini ularning shu davrga to'g'ri keladigan jami yuk tashish imkoniyatiga bo'lish orqali topiladi.

ATVlar ish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisobini yuritishga asos bo'luvchi boshlang'ich hujjatlardan biri bo'lib yo'l varaqalari hisoblanadi. Ushbu hujjatning turlari, shakllari, ularni tayyorlash, hisobga olish, to'lg'azish va ishlovdan o'tkazish tartiblari O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2004-yil 3-iyundagi 83-buyrug'i bilan tasdiqlangan «Tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'lg'azish va ishlovdan o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma» bilan belgilangan.

Yo'l varaqasi ATV ish faoliyatini aniqlash va hisobga olish uchun mo'ljallangan belgilangan namunadagi huquqiy hujjatdir. Yo'riqnomada turli maqsadlar va yo'nalishlar uchun yo'l varaqalarining quyidagi namunaviy shakllari tasdiqlangan:

№ 4-s (ishbay) shakl - ATVlarda yuk tashishda ular haydovchilariga mehnat haqi ishbay shaklda shartnoma asosida belgilangan tariflarda hisob-kitob qilinganda qo'llaniladi.

№ 4-p (vaqtbay) shakl – ATVlarda yuk tashishda ular haydovchilariga mehnat haqi vaqtbay shaklda shartnoma asosida belgilangan tariflarda hisob-kitob qilinganda qo'llaniladi.

№ 4-m (shaharlararo) shakl – ATVlarda yuk tashish shaharlararo yo'nalishda amalga oshirilganda qo'llaniladi. Ushbu shaklning yuza qismida bosmaxona usulida qizil rangli katakcha ichida «Shaharlararo tashish» yozuvi bo'ladi.

№ 1 (xalqaro) shakl – ATVlarda yuk tashish xalqaro yo'nalishlarda amalga oshirilganda qo'llaniladi.

Yo'l varaqalari ATV haydovchilariga avtotransport korxonasining maxsus bo'limi (dispetcherlik bo'limi) yoki ushbu funksiya yuklatilgan

xodim tomonidan har bir ish kuniga (smenaga) beriladi. Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish uchun yo'l varaqalari bir ish kunidan ortiq muddatga berilishi mumkin. Haydovchilar keyingi ish kuni (smena)ga yo'l varaqalarini olishlari uchun oldingi ish kuni (smena)ga berilgan yo'l varaqalarini topshirishlari shart. Ular yo'l varaqalarini olganliklari to'g'risida dispetcherlik bo'limida yuritiladigan «Berilgan yo'l varaqalarini qayd etish kitobi»ga imzo chekadilar. Berilgan yo'l varaqalari avtotransport korxonasining burchak shtampi va muhriga ega bo'lishi lozim.

Avtotransport korxonalariga, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, yo'lovchi va yuk tashish avtomobillarini belgilangan shakldagi yo'l varaqalarisiz yo'lga chiqarish qat'ian man etiladi. Yo'l varaqalarining tasdiqlangan har bir shaklini to'lg'azish tartibi yo'riqnomada keltirilgan.

4-s (ishbay) shakldagi yo'l varaqalari yuza va orqa qismlardan, ushbu qismlar esa alohida bo'limlardan iborat bo'lib, ularda ATV ish faoliyatiga doir ma'lumotlar ko'rsatiladi. Chunonchi, yo'l varaqasining yuza qismida uning tartib raqami, berilgan sanasi, ish rejimi, haydovchi familiyasi, ismi-sharifi, toifasi, ATVning markasi, davlat belgisi raqami, tipi, tirkama yoki yarim tirkamaning markasi, davlat belgisi raqami, haydovchi bilan yo'lga chiqayotgan shaxslar (ekspeditor, yuk tashuvchi va tushiruvchi, stajer)ning familiyasi, ismi-sharifi alohida belgilangan qatorlarda ko'rsatiladi.

Yo'l varaqasining «Haydovchi va avtomobilning ishi» bo'limida (2-va 3-ustunlar) avtomobilning naryadga chiqish va undan qaytib kelish sanasi (kun, oy, yil) hamda vaqti (soat, daqiqa) aks ettiriladi.

Yo'l varaqasining «Haydovchiga berilgan topshiriq» bo'limida (15-22-ustunlar) buyurtmachi tashkilotning nomi, unga yetib borish vaqti, yuk olish va yukni yetkazib berish joylari, tashiladigan yukning nomi, yuk bilan borib kelish qatnovlar soni, bosib o'tiladigan masofa, tashiladigan yuk miqdori (tonnada) ko'rsatiladi.

Yo'l varaqasining maxsus «Yoqilg'i berilsin» bo'limida dispetcher mashina bakida mavjud bo'lgan yoqilg'ini hisobga olgan holda berilishi lozim bo'lgan yoqilg'i miqdorini so'z bilan ko'rsatadi.

Avtomobil naryadga chiqqanicha yo'l varaqasining boshqa qismlari ham to'ldiriladi. Chunonchi, yoqilg'i quyish shohobchasi mudiri avtomobilga quyilgan yoqilg'ining turi, miqdorini ko'rsatib, uni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Haydovchining yo'lga chiqishdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tganligi va uni ish qobiliyatiga egaligi avtotransport korxonasi vrachining

imzosi bilan tasdiqlanadi. Avtomobilning naryadga chiqishi navbatchi mexanikning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Buning uchun navbatchi mexanik yo'l varaqasining maxsus bo'limida avtomobilning naryadga chiqishdan oldin spidometr ko'rsatkichini, uni nazorat punktidan haqiqatda chiqib ketayotgan vaqtini, bakda mavjud bo'lgan yog'ilg'i miqdorini, avtomobilning texnik sozligini o'z imzosi va shtampi bilan tasdiqlaydi. Yo'l varaqasining «Haydovchi imzosi» qatoriga haydovchi avtomobilni navbatchi mexanikdan texnik soz holatda qabul qilib olganligi to'g'risida imzo chekadi. Haydovchining imzosi berilgan topshiriqni bajarishga kirishganligini ham tasdiqlaydi.

Yo'l varaqasining maxsus bo'limi haydovchi tomonidan ATV yordamida naryadda bo'lgan vaqtda haqiqatda bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni aks ettirishga mo'ljallangan. Bunday ma'lumotlar yo'l varaqasida buyurtmachi tashkilotning mas'ul xodimi tomonidan yoziladi, shuningdek imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Chunonchi, yo'l varaqasining 23-ustunida qatnovlarning tartib raqamlari, 24-ustunda TTNlarning tartib raqamlari, 25-ustunda har bir qatnovda bo'lgan vaqt (soat, daqiqa) ko'rsatiladi, 26-ustunda yuk jo'natuvchining imzosi va muhri qo'yiladi.

Yo'l varaqasining maxsus bo'limida (27-29-ustunlar) avtomobilning buyurtmachi ixtiyoriga jo'natilgan kunida bo'sh turgan vaqtlari va sabablari ko'rsatiladi. 30-ustunda avtomobilning bo'sh turgan vaqti va sabablarini tasdiqlovchi shaxslarning imzosi va buyurtmachi-tashkilotning muhri qo'yiladi. Avtomobil naryaddan avtotransport korxonasiga qaytgach, haydovchi uni navbatchi mexanikka topshiradi. Haydovchi avtomobilni soz holatda topshirganligi va navbatchi mexanik uni soz holatda qabul qilib olganligi to'g'risida yo'l varaqasiga imzo chekadilar. Bundan tashqari navbatchi mexanik haydovchining yo'l varaqasida avtomobilning spidometr ko'rsatkichini, korxonaga qaytgan haqiqiy vaqtini (soat, daqiqa), bakda qolgan yog'ilg'i miqdorini tegishli kolonkalarga yozadi, ularni o'z imzosi va shtampi bilan tasdiqlaydi.

Haydovchilar ATVlar navbatchi mexanik tomonidan qabul qilingandan so'ng yo'l varaqalarini barcha ularga ilova qilinadigan hujjatlar bilan birga dispetcherlik bo'limiga imzo qo'yib topshiradi. Ushbu bo'lim xodimi yo'l varaqalariga qo'shimcha ma'lumotlarni, masalan avtomobilning garajdan birinchi xizmat joyigacha hamda oxirgi xizmat joyidan garajgacha yuksiz bosib o'tgan masafasini, bajargan ishining xarakteriga ko'ra yog'ilg'i sarfi

koeffitsiyentini, ilova qilingan hujjatlar sonini va boshqa shu kabilarni aks ettiradi hamda ularni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

4-p (vaqtbay) shakldagi yo'l varaqalari boshqa shakldagi yo'l varaqalaridan farqli o'laroq maxsus kesib olinadigan talon qismiga ega. Bu talonda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar buyurtmachi tomonidan to'ldiriladi, imzolanadi va shtamp bilan tasdiqlanadi. Talon transport korxonasi tomonidan buyurtmachiga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun schot-faktura taqdim etishga asos bo'ladi.

№ 1 (xalqaro) hamda 4-m (shaharlararo) shakllardagi yo'l varaqalarining asosiy qismlarini to'lg'azish tartibi 4-s (ishbay) va 4-p (vaqtbay) shakllardagi yo'l varaqalarini to'lg'azish tartibiga o'xshaydi. Faqat ¹ 1(xalqaro) shakldagi yo'l varaqalarida qo'shimcha tarzda bosib o'tilgan yo'l uzunligi (km), tashilgan yuk (tonna), yuk aylanmasi hajmi (t/km), avtomobilning bo'sh turgan vaqtlari (soat, daqiqa) kabi ko'rsatkichlar mos ravishda O'zbekiston maydoni hamda chet el mamlakatlari maydonlari bo'yicha ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu yo'l varaqasining «Yoqilg'i» bo'limida mos ravishda respublikamiz hamda chet el mamlakatlari maydonida olingan yoqilg'ining miqdori va sarfining hisob-kitobi alohida-alohida ko'rsatiladi. Bu bo'limning alohida ustunlarida avtomobilning chiqib ketish va qaytib kelish sanasiga bo'lgan yoqilg'ining qoldig'i, uning norma bo'yicha sarfi va haqiqiy sarfi, qilingan tejam va ortiqcha sarflar ko'rsatiladi. ¹ 1(xalqaro) shakldagi yo'l varaqasida «Ish haqi hisob-kitobi» bo'limi bo'lib, uning alohida ustunlarida ish turlari va ularga hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Yo'l varaqalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun avtotransport korxonasi rahbari hamda ularni rasmiylashtirishga mas'ul xodimlar shaxsan javobgar hisoblanadi. Yo'l varaqalarini rasmiylashtirish funksiyasi yuklatilgan mas'ul xodim yo'l varaqalari blankalarining sarfi to'g'risida oylik hisobot tuzishi va uni buxgalteriyaga taqdim etishi lozim. Yo'l varaqalarini rasmiylashtirishda bo'yab yozishga va tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Avtotransport korxonalarida yuqorida keltirilgan tartibga muvofiq to'ldirilgan barcha yo'l varaqalari ularga ilova qilingan hujjatlar bilan birga dispetcherlik bo'limi tomonidan buxgalteriyaga topshiriladi. Avtotransport korxonasi buxgalteriyasida yo'l varaqalariga ishlov beriladi, ya'ni ular asosida avtomobillarning ish faoliyati, bajarilgan ish (ko'rsatilgan

xizmat)lardan olingan daromad, buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, haydovchilar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar hisobi yuritiladi.

Yo'riqnomaga muvofiq yo'l varaqalariga ishlov berish quyidagi usullarning biri bo'yicha amalga oshiriladi – kompyuterlar yordamida yoki qo'lda. Yo'l varaqalariga kompyuterlar yordamida ishlov berishda barcha ma'lumotlar «Avtotransport ish faoliyati hisobi kartochkasi»ning elektron menyu shakliga har bir rekvizitning kodi orqali kiritiladi. Hisob-kitob qilinadigan ko'rsatkichlarni kompyuter o'zi hisoblaydi hamda kartochkaning tegishli qatorlari va ustunlariga yozadi. Shu yo'l bilan to'ldirilgan elektron kartochkalarni kompyuterning ekraniga yoki bosmaga mos ravishdagi rejimlar orqali chiqarib olish mumkin. Kompyuter xotirasida to'plangan elektron kartochkalar unda ATVlar ish faoliyatiga doir ma'lumotlarni turli shakl va mazmundagi mashinogrammalar ko'rinishida olish imkonini beradi. Ushbu mashinogrammalar ma'lumotlari avtotransport korxonasi boshqaruv apparati bo'linmalari tomonidan ATVlar ish faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini nazorat qilish, tahlil etish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda keng foydalaniladi.

ATVlar ish faoliyati hisobini yuritishga asos bo'luvchi yana bir boshlang'ich hujjat bo'lib tovar-transport nakladnoyi (TTN) hisoblanadi.

Tovar-transport nakladnoyi (TTN) yuk tashish jarayoni qatnashchilari uchun yagona shaklda tasdiqlangan boshlang'ich hujjat bo'lib, u tovar-moddiy boyliklarning bir joydan boshqa joyga ATVlar yordamida ko'chishidagi harakatini hisobga olish uchun mo'ljallangan.

Nomi yuqorida zikr etilgan Yo'riqnomaga asosan respublikamizda avtotransport korxonalari uchun TTNning uchta turdagi namunaviy shakllari tasdiqlangan:

№ 1-t shakl – shaharichi va shahar atrofida yuk tashish uchun;

№ 2-tm shakl – shaharlararo yo'llarda yuk tashish uchun;

SMR shakl – xalqaro yo'llarda yuk tashish uchun.

TTNning barcha shakllari yuk jo'natuvchilar tomonidan yo'riqnomada keltirilgan tartiblarga qat'i amal qilingan holda tuzilishi lozim. Yuk jo'natuvchilar tomonidan tuzilgan TTNlarning ikki nusxasi avtoransport korxonasiga taqdim etiladi. Avtotransport korxonasida TTNning bir nusxasi yuk jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun taqdim etiladigan schot-fakturaga ilova qilinadi, ikkinchisi esa yo'l varaqasiga ilova qilinadi va ATV ish faoliyati hisobini yuritishga asos bo'ladi.

ATVlarda naqd pul to'lash sharti bilan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar yo'l varaqalari hamda ularga ilova qilinadigan hujjatlar (kirim kassa orderi kvitansiyasi, chek va boshqalar) bo'yicha amalga oshiriladi. Avtotransport korxonalari buxgalteriyasining muhim vazifalaridan biri ATVlar ish faoliyatidan olingan daromadlarning pul birligidagi hisobini yuritish hisoblanadi.

ATVlar ish faoliyatidan olingan daromadlar deganda boshqa yuridik shaxslar (buyurtmachilarga) tuzilgan shartnomalar asosida, shuningdek jismoniy shaxslarga naqd pulga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan sof tushum tushuniladi. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyatidan olingan sof tushum ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan yalpi tushum hamda ularga to'g'ri keluvchi qo'shilgan qiymat solig'i summalari o'rtasidagi farqdan tashkil topadi. Yagona soliq to'lovi rejimida ishlovchi avtotransport korxonalarida ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan jami tushum ularning sof tushumi bo'lib hisoblanadi.

18.7-jadval

ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	5000000	5010	9030	Kirim kassa orderi
2.	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	1000000	5010	6410	Kirim kassa orderi
3.	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	30000000	4010	9030	Schot-faktura
4.	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	6000000	4010	6410	Schot-faktura
5.	Yo'lovchi tashish avtotransporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan yoqilg'iga	500000	1040	9030	NKM cheki, Kvitansiya
6.	Yo'lovchi tashish avtotransporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga qilingan ta'mirlash ishlariga	300000	2010	9030	Kvitansiya, dalolatnoma, rahbar buyrug'i (qarori)
7.	ATV ish faoliyatidan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schotning yopilishiga	35800000	9030	9910	Buxgalteriya hisob-kitobi

Respublikamizning 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash

bo'yicha yo'riqnoma»ga muvofiq avtotransport korxonalarida ATVlar ish faoliyatidan olgan daromadlari 9030 «Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan daromadlar» schotida hisobga olinadi. Chunonchi, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning to'lov shakliga ko'ra olingan daromadlar ushbu schotda quyidagicha aks ettiriladi (18.7-jadval).

ATVlar ish faoliyatidan olingan daromadlarning tahliliy hisobi har bir avtomobil bo'yicha maxsus registr (mashinogramma)da yuritiladi.

Tayanch iboralar

Yo'lovchi tashish avtotransporti - avtobuslar, mikroavtobuslar hamda taksi sifatida ishlatiladigan yengil avtomobillar.

Yuk tashish avtotransporti - bortli, furgonli, o'zi tortgich (samosval), tortgichli avtomashinalar, shuningdek ularning tirkamalari va yarimtirkamalari..

Maxsus avtotransport - suv, sut, yoqilg'i, non va boshqa turdagi yuklarni tashuvchi, shuningdek maxsus ishlarni, masalan qurilish moslamalari va konstruksiyalarini ko'tarish, sindirish, yanchish mashinalari, yong'in o'chirish, axlat tashish, asfalt yo'llarni qor va muzlardan tozalash, supurish, suv sepish kabi ishlarni bajaruvchi avtomobillar.

«Avtotransport ish faoliyati hisobi kartochkasi» - bu ATVlar ish faoliyatini ifodalovchi soniy va sifat ko'rsatkichlarni davrlar bo'yicha aks ettirishga mo'ljallangan hisob registri.

Tonna-kilometr (t/km) – transport tomonidan 1 tonna yukni 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik.

Yuk aylanmasi (aylanmai) - transport tomonidan bajarilgan jami ishning tonna-kilometr (t/km)dagi hajmi.

Kishi-kilometr (k/km) – transport tomonidan 1 kishini 1 km masofaga tashish bo'yicha bajarilgan ishni hisobga olish uchun qabul qilingan shartli birlik.

Yo'lovchi aylanmasi (aylanmai) - transport tomonidan bajarilgan jami ishning kishi-kilometr (k/km)dagi hajmi.

1 tonna-kilometr (t/km) yuk aylanmasining tannarxi - yuk tashish avtomobil transportini ekspluatasiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmi, ya'ni yuk aylanmasi (t/km) miqdoriga nisbati.

1 kishi-kilometr (k/km) yo'lovchi aylanmasining tannarxi - yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportini ekspluatasiyasi uchun sarflangan jami xarajatlarni jami bajarilgan ish hajmiga, ya'ni yo'lovchi aylanmasi (k/km) miqdoriga nisbati.

Avtomobillarning texnik tayyorgarlik koeffitsiyenti - ma'lum davrda jami texnik soz hamda yuk tashish (yo'lovchi tashish) uchun yaroqli bo'lgan avtomobillar sonini ularning shu davrda jami ro'yxatdagi sonidagi hissasini ifodalovchi ko'rsatkich.

Avtomobillarni ishga chiqish koeffitsiyenti - ma'lum davrda jami ishga chiqqan avtomobillar sonini shu davrda xo'jalikda mavjud bo'lgan jami avtomobillar sonidagi hissasini ifodalovchi ko'rsatkich.

Ishdagi avtomobil-kunlar soni - ma'lum davrdagi jami avtomobil-kunlar sonini shu davrdagi avtomobillarni ishga chiqish koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Ishda bo'lmagan avtomobil-kunlar soni – ma'lum davrda xo'jalikdagi jami avtomobil-kunlar sonidan jami ishdagi avtomobil-kunlar sonini ayirish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Naryaddagi avtomobil-soatlar soni - ma'lum davrda xo'jalikdagi jami avtomobil-kunlar sonini avtomobillarning naryadda bo'lgan o'rtacha sutkalik soatlari soniga ko'paytirish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Avtomobillar ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti – avtomobillarning harakatdagi vaqtini naryadda bo'lgan vaqtiga bo'lish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Bosib o'tilgan masofaning foydalilik koeffitsiyenti - avtomobillarning ma'lum davrda yuk bilan bosib o'tgan masofasini jami yuk bilan va yuksiz bosib o'tgan masofasiga bo'lish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Yuk ko'tarish imkoniyatidan foydalanish koeffitsiyenti – avtomobillar tomonidan ma'lum davrda haqiqatda tashilgan yuk hajmini ularning shu davrga to'g'ri keladigan jami yuk tashish imkoniyatiga bo'lish orqali topiladigan ko'rsatkich.

Yo'l varaqasi – avtotransport vositasi ish faoliyatini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi huquqiy hujjat.

Tovar-transport nakladnoyi (TTN) – yuk tashish jarayoni qatnashchilari uchun yagona shaklda tasdiqlangan hamda tovar-moddiy boyliklarning bir joydan boshqa joyga avtotransport vositalari yordamida

ko'chishidagi harakatini hisobga olish uchun mo'ljallangan boshlang'ich hujjat.

Avtotransport vositalari ish faoliyatidan olingan daromadlar - boshqa yuridik shaxslar (buyurtmachilarga) tuzilgan shartnomalar asosida, shuningdek jismoniy shaxslarga naqd pulga yuk tashish hamda yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan sof tushum.

Nazorat uchun test savollari

1. Avtotransport vositalariga kirmaydi:

a) avtobus; b) buldozer;
v) Gaz 53; g) Damas.

2. Quyidagi ATVlarning qaysi birida yo'lovchi tashish man etiladi:

a) Matiz; b) Gaz-3102;
v) Tirkamali traktor; g) Avtobus.

3. Tirkama va yarimtirkamalar:

a) alohida davlat raqami belgisiga ega bo'lmaydi;
b) alohida davlat raqami belgisiga ega bo'ladi;
v) besh xonali davlat raqami belgisiga ega;
g) davlat raqami belgisiz ishlatiladi.

4. ATVlar hisobi yuritiladi:

a) qoldiq qiymatda; b) boshlang'ich qiymatda;
v) bozor qiymatida; g) ekspert baholagan qiymatda.

5. Quyidagi sarf-xarajatlarning qaysi biri ATVning boshlang'ich qiymatini oshiradi:

a) texnik ko'ruvga to'lov;
b) o'rnatilgan avtoshinalar qiymati;
v) bortni kengaytirish va yangicha jihozlash xarajatlari;
g) o'rnatilgan yangi akkumulyator qiymati.

6. Quyidagilarning qaysi biri ATV ish faoliyatini son jihatdan ifodalovchi ko'rsatkich:

a) ATV yuk aylanmasi 500000 t/km;
b) avtobusda hisobot yilida 400000 kishi tashildi;
v) ATVda yuk tashishdan olingan daromad 3000000 so'm;
g) yuqoridagi ko'rsatkichlarning barchasi.

7. Quyidagilarning qaysi biri yo'l varaqasida ko'rsatilmaydi:

a) haydovchiga berilgan topshiriq;
b) ATVning yuksiz bosib o'tgan yo'li;
v) bosh hisobchining familiyasi;
g) garajdan chiqib ketilgan vaqt.

8. Quyidagilarning qaysi biri ATV ish faoliyatini sifat jihatdan ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi:

a) ATV yuk aylanmasi 1500000 t/km;
b) avtobus parkining quvvati 60 foizga ishlatildi;
v) yo'lovchilarni tashishdan tushum 10000000 so'mni tashkil etdi;
g) yuqoridagi ko'rsatkichlarning barchasi.

9. Avtotransport korxonalarida tashilgan yuk hisobini yuritishga asos bo'ladi:

a) schot-faktura;
b) tovar-transporti nakladnoyi;
v) kirim kassa orderi;
g) dalolatnoma.

10. Yuk tashishdan olingan yalpi tushum 120000000 so'm (QQS bilan). Yuk tashishdan olingan sof tushum teng:

a) 120000000 so'mga;
b)100000000 so'mga;
v) 20000000 so'mga;
g) to'g'ri javob yo'q.

11. 10-testda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha sof tushum summasi quyidagi yozuvlarning qaysi birida to'g'ri aks ettirilgan:

a) Debet 4010 Kredit 9030 120000000 so'mga;
b) Debet 4010 Kredit 9030 100000000 so'mga;
v) Debet 4010 Kredit 9030 20000000 so'mga;
g) Debet 4010 Kredit 6410 20000000 so'mga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Transport sohasida alohida faoliyat turlarini lisensiyalashtirish to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida», 2003- yil 21- avgust, № 360-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2004-yil 10 mart, 118-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «Avtomototransport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining yangi namunalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2007-yil 27-iyun, 131-son.

6. «Tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'ldirish va ishlovdan o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma». O'zR avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2004-yil 3-iyundagi 83-buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'zR AV tomonidan 2004-yil 2-iyulda ro'yxatga olingan, № 1382.

7. BHMS № 1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot. O'zR AV tomonidan 1998- yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

19-bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAXIRALARINING HISOBI

19.1. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobini tashkil qilish asoslari

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralariga quyidagilar kiradi:

- **yoqilg'i** - benzin, solyarka, suyultirilgan gaz, siqilgan tabiiy gaz;
- **yog'lash materiallari** - aftol, solidol, litol va boshqalar;
- **ehtiyot qismlar va agregatlar** – dvigatel, akkumulyator, avtoshina, ressorlar, porshin, gilza va boshqalar;
- **xo'jalik inventarlari** – turli o'lchamli kalitlar, domkratlar, maxsus kiyim-kechaklar, xalatlar, poyafzal va boshqalar;
- **boshqa materiallar** – temir-tersaklar, simlar, bo'yoqlar, doka, bo'z va boshqa xilma-xil materiallar.

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobini to'g'ri va o'z vaqtida yuritishning muhim shartlaridan biri bo'lib ombor xo'jaligi, ustaxona (sex), garaj, avtomobillarga yoqilg'i qo'yish shoxobchasi (AYOQSH) va boshqa yordamchi bo'linmalar ishini rasional tashkil qilish hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarining **ombor xo'jaligi** deganda ehtiyot qismlar va agregatlar, xo'jalik inventarlari hamda boshqa materiallarning saqlash joylari tushuniladi.

Ustaxona (sex)lar – ATVlarni ta'mirlash, ularga turli agregatlarni yasash va o'rnatishga ixtisoslashgan yordamchi bo'limlar.

Garaj –ATVlarning turishi va saqlanishi uchun mo'ljallangan joy yoki qurilmalar. Avtotransport korxonada garajlar ochiq, yarim ochiq (ayvon) hamda yopiq ko'rinishli bo'lishi mumkin. Har bir garaj o'zining tartib raqamiga ega bo'ladi, chunonchi, ularning peshtaxtasiga ATVning davlat belgisi raqami yozib qo'yiladi.

AYOQSH deganda avtotransport korxonasi maydonida alohida ajratilgan yer maydonida joylashgan hamda maxsus qurilmalar (yer osti va yer ustidagi sisternalar, yoqilg'i quyuvchi avtomatlar va boshqalar) bilan jihozlangan yordamchi xo'jalik tushuniladi. Bu xo'jalik belgilangan barcha tegishli xavfsizliklar, chunonchi, inson hayoti xavfsizligi, ATVlarning texnik xavfsizligi talablariga to'liq javob berishi lozim. AYOQSHlarga o'rnatilgan

sisternalar va bochkalarning hajmlari, ularga ketadigan yoqilg'ining sig'imlari individual tarzda maxsus shkala (jadval) bilan belgilanadi. Ushbu shkala (jadval) korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Sisternalar va bochkalarning sig'imiga doir ma'lumotlar ularga ochilgan inventar kartochkalarda ko'rsatiladi.

Avtotransport korxonalari rahbarlari ishlab chiqarish zaxiralari saqlanadigan va ishlatiladigan barcha xo'jaliklar bo'yicha qat'i moddiy javobgarlikni o'rnatishlari, chunonchi, ombor mudirlari, ustaxona (sex) boshliqlari, AYOQSH mudiri va boshqalar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzishi lozim.

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining soniy va summaviy hisobi yuritiladi. Chunonchi, ishlab chiqarish zaxiralarining saqlash joylarida (ombor, ustaxona, sex, AYOQSH) ularning soniy hisobi olib boriladi. Buning uchun turli hisob registrlari (kartochkalar, jurnallar, qaydnomalar)ning namunaviy shakllaridan foydalaniladi.

Avtotransport korxonalarining buxgalteriyasi barcha ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik va tahliliy hisobini yuritadi.

Respublikamizning 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga muvofiq avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik hisobi 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarda olib boriladi. Bunday schotlar, chunonchi, 1020 «Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar», 1030 «Yoqilg'i», 1040 «Ehtiyot qismlar», 1080 «Inventar va xo'jalik buyumlari» 1090 «Boshqa materiallar» schotlari hisoblanadi. Ushbu doimiy aktiv schotlarning debetida tegishli nomdagi ishlab chiqarish zaxiralarining davr boshi va oxiridagi qoldig'i hamda ularning turli manbalardan kelib tushishi evaziga ko'payishi aks ettiriladi. Bu schotlarning kreditida ishlab chiqarish zaxiralarining ishlatilishi va boshqa chiqimlari ko'rsatiladi.

Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq avtotransport korxonalarining barcha turdagi ishlab chiqarish zaxiralari yuqorida nomlari keltirilgan schotlarda ularning tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Ushbu BHMSga asosan ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxi ularning sotib olish baholaridagi qiymatini hamda sotib olish va tashib keltirishga doir barcha qo'shimcha xarajatlarni oladi.

Sotib olishda ta'minotchilarga to'langan QQS summasini ishlab chiqarish zaxiralarining tannarxiga kiritilishi yoki kiritilmasligi avtotransport korxonalari ishlayotgan soliq rejimiga bog'liq. Chunonchi, umumdavlat soliqlarini to'lovchi avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olishda ta'minotchilarga to'langan QQS summasi ularning tannarxiga kiritilmaydi, balki budjet bilan hisob-kitoblarda kamaytirishga olib boriladi. Bundan faqatgina shahar yo'lovchi transporti xizmatlariga sarflangan ishlab chiqarish zaxiralariga to'g'ri keluvchi QQS summasi istisnodir. Bu turdagi avtotransport xizmatlariga sarflangan yoqilg'i moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallarga to'g'ri keluvchi QQS summasi budjet bilan hisob-kitoblarda kamaytirishga olib borilmaydi, aksincha ularga to'g'ri keluvchi QQS summasi ishlab chiqarish zaxiralari tannarxiga hamda mos ravishda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovi rejimida faoliyat yurituvchi avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarini sotib olishda ta'minotchilarga to'langan QQS summasi to'lig'icha ishlab chiqarish zaxiralari tannarxiga kiritiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari hisobini yuritishda ular qiymatini hisobdan chiqarishning tanlab olingan usuli muhim rol o'ynaydi. Chunonchi, FIFO (birinchi tushum – birinchi chiqim) usulda ishlab chiqarish zaxiralari qanday qiymatda kirim bo'lgan bo'lsa, o'sha qiymatda kelib tushish ketma-ketligi bo'yicha hisobdan chiqarib boriladi. Agar avtotransport korxonasida AVECO usuli tanlab olingan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish zaxiralarining hisobdan chiqarilishida dastlab ularning o'rtacha qiymati (tannarxi) topib olinadi va o'sha qiymat (tannarx) bo'yicha ular hisobdan chiqariladi.

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari ishlab chiqarish zaxiralarining hisobdan chiqarilishida LIFO usulini qo'llash respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq ta'qiqlangan.

Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining tahliliy hisobi moddiy javobgar shaxslar, ushbu boyliklarning tasdiqlangan nomenklaturalari, ularning kirim qiymatlari (baholari) bo'yicha yuritiladi.

19.2. Avtomobil yoqilg'ilarining hisobi

Avtotransport korxonalari ishlab chiqarish zaxiralari tarkibida yoqilg'i - moylash materiallari alohida o'rin tutadi. Chunonchi, ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxida yoqilg'i va moylash materiallari xarajatlarining hissasi 45-55 foizni tashkil qiladi. Shu bois ham,

avtotransport korxonalarida yoqilg'i -moylash materiallarini tejab-tergab sarflash, ularning norasional chiqimlariga yo'l qo'ymaslik avtotransport xizmatlari tannarxini kamaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Avtotransport korxonalari hisob tizimi avtomobil yoqilg'ilari va yog'lash materiallarini turgan joylari hamda turlari bo'yicha aks ettirish talablariga javob berishi lozim. Buning uchun buxgalteriya hisobi ishchi schotlar rejasida quyidagi maxsus schotlarni ochish maqsadga muvofiq:

1030 «Ombordagi yoqilg'i»;

1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i».

Ushbu schotlarni yuritish avtotransport korxonalarida ularni yoqilg'i - moylash materiallari bilan ta'minlashning tanlab olingan usuliga bevosita bog'liq. Hozirgi paytda avtotransport korxonalarida ATVlarni yoqilg'i hamda yog'lash materiallari bilan ta'minlashning ikkita usuli qo'llanilmoqda. Bular:

1. O'zida tashkil qilingan AYOQSH orqali.

2. Boshqa yuridik shaxslarning AYOQSHlari orqali.

Birinchi usulni qo'llayotgan avtotransport korxonalarida avtomobil yoqilg'ilari- moylash materiallari asosan neft mahsulotlari bo'yicha ta'minot-sotish bilan shug'ullanuvchi maxsus korxonalardan (neftebazalardan) tuzilgan shartnomalar asosida sotib olinadi. Shuningdek, avtomobil yoqilg'ilari va moylash materiallari boshqa tashkilotlardan beg'araz olinishi, ta'sischilar tomonidan ta'sis badali sifatida kiritilishi ham mumkin. Shaharlararo transport qatnovlarini amalga oshirayotgan ATVlar bo'yicha ularning haydovchilari zarurat bo'lganda yoqilg'i - moylash materiallarini o'z hisobidan yoki berilgan bo'nak hisobidan hamda yo'lovchi tashishdan tushgan tushum hisobidan naqd sotib olishlari ham mumkin.

Ta'minot-sotuvchi korxonalardan avtomobil yoqilg'ilari va moylash materiallari AYOQSH xo'jaligi mudiri yoki ekspeditorlari tomonidan ularga berilgan ishonchnomalar asosida olib kelinadi. Yoqilg'i - moylash materiallari olib kelinganligiga guvohlik beruvchi asosiy hujjatlar ta'minot-sotuvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan schot-fakturalar va tovar-transport nakladnoylari hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda yoqilg'i - moylash materiallarining nomi, markasi, sig'imi, temperaturasi, miqdori (kilogramm va litrlarda), kelishuv bahosi, kelishuv bahosidagi qiymati, QQS summasi, jami to'lov summasi aks ettiriladi.

QQS to'lovchi avtotransport korxonalarida ta'minotchi-sotuvchi tomonidan berilgan schot-fakturalar asosida kelib tushgan avtomobil yoqilg'ilariga buxgalteriyada quyidagi yozuvlar qilinadi:

a) yoqilg'ining sotib olish qiymatiga (QQSsiz):

Debet 1030 « Ombordagi yoqilg'i»;

Kredit 6010 «Tovar yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar»;

b) ta'minotchilarga to'lanadigan QQS summasiga:

Debet 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari»;

Kredit 6010 «Tovar yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar».

Agar yoqilg'i bo'yicha ta'minotchilarga to'langan QQS summasi kelib tushganda to'liq 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotning debetiga olingan bo'lsa, u holda oy oxirida shahar yo'lovchi transporti uchun ishlatilgan yoqilg'i hisob-kitobi asosida ularga to'g'ri keluvchi QQS summasi yoqilg'i tannarxiga tiklanadi. Ushbu tiklangan summaga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 1030 «Ombordagi yoqilg'i»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Ixchamlashtirilgan soliq rejimida ishlovchi avtotransport korxonalarida ta'minotchilardan kelib tushishi yoqilg'ining qiymati yuqorida keltirilgan yozuvda QQS summasi bilan birgalikda aks ettiriladi.

ATVlarni yoqilg'i bilan boshqa yuridik shaxslarning AYOQSHlari orqali ta'minlash ham shartnoma asosida amalga oshiriladi. Ushbu usulda avtotransport korxonasi shartnoma tuzilgan yuridik shaxsga oldindan to'lov summasini o'tkazadi. Yoqilg'ini olish uchun avtotransport korxonasi o'z ekspeditoriga yuridik shaxs bo'lgan AYOQSH nomiga ishonchnoma hamda rasmiy xat bilan yoqilg'i quyiladigan ATVlarning ro'yxatini beradi.

Yuridik shaxs bo'lgan AYOQSHda berilgan ishonchnoma hamda yoqilg'i quyiladigan ATVlarning ro'yxati asosida avtotransport korxonasi nomiga har oyga alohida tarqatish qaydnomasi ochiladi. Unda yoqilg'i berilgan sana, ATVning davlat belgisi raqami, yo'l varaqasi raqami, berilgan yoqilg'i turi, uning miqdori, summasi, haydovchining familiyasi, ismi ko'rsatiladi. Olingan yoqilg'i miqdorini haydovchilar qaydnomada o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

Oy oxirida tarqatish qaydnomasida berilgan yoqilg'ining miqdori va summasi jamlanadi. U yuridik shaxs bo'lgan AYOQSH boshlig'i, bosh hisobchisi va yoqilg'ini bergan operator tomonidan imzolanadi hamda muhr bilan tasdiqlanadi. Tarqatish qaydnomasining bir nusxasi schot-faktura bilan birgalikda avtotransport korxonasiga taqdim etiladi.

Avtotransport korxonasida yuridik shaxs bo'lgan AYOQSHdan bevosita haydovchilar javobgarligiga olingan yoqilg'i taqdim etilgan schot-faktura va tarqatish qaydnomalari asosida buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i»;

Kredit 6010 «Tovar yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar».

Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan AYOQSHlar savdo korxonalari sifatida QQS to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydilar. Shu bois ham, ulardan olingan yoqilg'i bo'yicha avtotransport korxonasida QQSga doir buxgalteriya yozuvlari bo'lmaydi.

Haydovchilar tomonidan safar davrida o'z hisobidan olingan yoqilg'i summasiga yuridik shaxs hisoblangan AYOQSH nazorat-kassa mashinasi cheki asosida buxgalteriyada quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i»;

Kredit 6970 «Hisobdor shaxslarga qarzlar».

Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ATV haydovchilari tomonidan yoqilg'ini yo'lda yo'lovchi tashishdan terilgan tushum hisobidan sotib olinishiga yuridik shaxs hisoblangan AYOQSH nazorat-kassa mashinasi cheki asosida buxgalteriyada quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i»;

Kredit 9030 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar».

Avtotransport korxonalarida boshqa shaxslardan beg'araz yordam sifatida kelib tushgan yoqilg'i tuzilgan shartnoma va schot-faktura asosida buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 1030 «Ombordagi yoqilg'i» yoki;

1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i»;

Kredit 8530 «Beg'araz olingan mulk».

Avtotransport korxonalari balansiga ularning ta'sischilari tomonidan ta'sis badali sifatida kiritilgan yoqilg'i summasi buxgalteriya hisobida ta'sis shartnomasi, baholar kelishuvi bayonnomasi, kirim dalolatnomasi yoki schot-faktura asosida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 1030 «Ombordagi yoqilg'i»;

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallari bo'yicha qarzlari».

Avtotransport korxonalarida AYOQSHlarga kirim qilingan yoqilg'i asosan haydovchilarga ATVlar yordamida ish bajarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida yo'l varaqalarida dispetcher tomonidan ko'rsatilgan miqdorda beriladi. Yoqilg'ini haydovchilarga berilishi tarqatish qaydnomasi yoki limit-qo'yish qaydnomasi (varag'i) bilan rasmiylashtiriladi. Haydovchilarning qaydnomalardagi imzosi ular tomonidan olingan yoqilg'i miqdorini tasdiqlaydi. Bu qaydnomalar ikki nusxada tuziladi. Uning bir nusxasi AYOQSH mudirida qoladi, ikkinchi nusxasi esa u tomonidan tuzilgan «Yoqilg'i harakati to'g'risida hisobot» bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi.

Yoqilg'ini haydovchilarga berilishi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i»;

Kredit 1030 «Ombordagi yoqilg'i».

Yoqilg'ining ichki almashishi nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi va ular asosida buxgalteriyada quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 1030 «Ombordagi yoqilg'i» (oluvchi shaxs);

Kredit 1030 «Ombordagi yoqilg'i» (beruvchi shaxs).

Avtotransport korxonalarida AYOQSHga kirim qilingan yoqilg'i zarur hollarda tuzilgan shartnoma hamda rahbarning ruxsati asosida boshqa yuridik shaxslarga sotilishi, bepul berilishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi mumkin. Yoqilg'ining bunday chiqimlari schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi. Schot-fakturalar asosida yoqilg'ining chiqib ketish yo'nalishiga ko'ra buxgalteriyada quyidagi yozuvlar qilinadi:

1. Yoqilg'i sotilganda:

a) sotish qiymatiga (QQSsiz)

Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».

b) QQS summasiga

Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar».

v) yoqilg'ining sotib olish qiymatida hisobdan chiqarilgan summasiga

Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»;

Kredit 1030 «Ombordagi yoqilg'i».

g) sotishdan olingan foyda summasiga

Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»;
Kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda».
d) sotishdan ko'rilgan zarar summasiga
Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;
Kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».
2. Yoqilg'i bepul (beg'araz) berilganda:
a) kelishuv qiymatiga (QQSsiz)
Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;
Kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».
b) QQS summasiga
Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;
Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar».
v) yoqilg'ining sotib olish qiymatida hisobdan chiqarilgan summasiga
Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»;
Kredit 1030 «Ombordagi yoqilg'i».
g) bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga
Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;
Kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».
3. Yoqilg'i ta'sis badali sifatida kiritilganda:
a) kelishuv qiymatiga (QQSsiz)
Debet 0600 «Uzoq muddatli investisiyalarni hisobga oluvchi schotlar»;
Kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».
b) QQS summasiga
Debet 0600 «Uzoq muddatli investisiyalarni hisobga oluvchi schotlar»;
Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar».
v) yoqilg'ining sotib olish qiymatida hisobdan chiqarilgan summasiga
Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»;
Kredit 1030 «Ombordagi yoqilg'i».
g) ta'sis badali sifatida kiritishdan olingan foyda summasiga
Debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»;
Kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda».
d) ta'sis badali sifatida kiritishdan ko'rilgan zarar summasiga
Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;
Kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan yoqilg'i - moylash materiallari sarfi buxgalteriyada haydovchilarning yo'l varaqalari asosida har bir ATV bo'yicha uning tipi, markasi, bosib o'tgan yo'li, tashilgan yuk miqdori, shuningdek har 100 km masofaga yoqilg'i sarfining belgilangan asosiy me'yorlariga ko'ra aniqlanadi. Yoqilg'ining ushbu maqsadlarda ishlatilishi va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilish tartibiga keyingi bobda alohida to'xtalamiz.

19.3. Avtomobillar uchun ehtiyot qismlarning hisobi

Avtomobillar uchun juda ko'p turdagi ehtiyot qismlar ishlatiladi. Ularni turli belgilari, masalan, nomlari, markalari, modeli, turgan joyi, kelib tushish manbalari, ishchi holati, yaroqlilik darajasi, xizmat muddatlari hamda boshqa jihatlari bo'yicha tasniflash mumkin. Ehtiyot qismlarning ushbu belgilari bo'yicha tavsifi, odatda, avtotransport korxonalarida qo'llaniladigan «Ehtiyot qismlar klassifikatori»da keltiriladi.

Turgan joyiga ko'ra ehtiyot qismlar ombordagi va foydalanishdagi ehtiyot qismlarga bo'linadi.

Ombordagi ehtiyot qismlar, o'z navbatida, ***yaroqlilik darajasiga ko'ra*** quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- yangi ehtiyot qismlar;
- oldin foydalanishda bo'lgan, lekin yaroqli holdagi ehtiyot qismlar;
- foydalanishga yaroqsiz ehtiyot qismlar.

Avtotransport korxonalari yangi ehtiyot qismlarni turli korxonalardan, masalan, ularni bevosita ishlab chiqaruvchi, ta'minot-sotuvchi korxonalardan tuzilgan shartnomalar asosida sotib oladilar. Shuningdek, ular boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan beg'araz olinishi, hisobdor shaxslar hamda haydovchilar tomonidan naqd pulga sotib olinishi, ta'sischilar tomonidan kiritilishi ham mumkin.

Kelib tushgan yangi ehtiyot qismlar avtotransport korxonalarining omborlariga sotib olish qiymati (tannarxi) bo'yicha kirim qilinadi.

Oldin foydalanishda bo'lgan, lekin yaroqli holdagi ehtiyot qismlar, odatda, ATVlarni tugatishdan, qayta jihozlashdan va modernizasiyasidan keyin omborlarga komissiya tomonidan baholangan qiymatlarda kirim qilinadi.

ATVlarni tugatish, ta'mirlash, modernizasiya qilishda yaroqsiz deb topilgan ehtiyot qismlar omborlarga metallolom sifatida bahosiz kirim qilinadi.

Omborlarda kirim qilingan ehtiyot qismlarning hisobi «Ombor hisobi kartochkasi» yoki «Ombor hisobi kitobi»da soniy ko'rinishda yuritiladi. Ombor hisobi kartochkasi ehtiyot qismlarning har bir turi, ularning kirim baholari bo'yicha ochiladi. Ombor hisobi kitobida ehtiyot qismlarning har bir turiga, kirim baholariga qarab alohida varaqlar ajratiladi.

Ehtiyot qismlar avtotransport korxonalarida ATVlarning joriy va kapital ta'mirlanishiga, shuningdek ularni qayta jihozlash hamda modernizasiya qilinishiga ishlatiladi. Ehtiyot qismlar omborlardan bunday maqsadlarda ustaxonalarga, sexlarga, garajlarga avtotransport korxonasi rahbari (bosh injeneri)ning ruxsati bilan beriladi. Ushbu operatsiyalar ikki nusxada talabnomalar, ichki nakladnoylar, limit-zabor varaqalari bilan rasmiylashtiriladi. Ehtiyot qismlarning ATVlarga qo'yilishi, ta'mirlashga, modernizasiya va qayta jihozlash ishlariga sarflanishi tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Ehtiyot qismlarning avtotransport korxonasidan chetga chiqib ketishi, masalan, zarurat yuzasidan sotilishi, bepul berilishi, ta'sis badali sifatida kiritilishi tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu mazmundagi operatsiyalar schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Avtotransport korxonalarida moddiy javobgar shaxslar (ombor mudirlari, ustaxona boshliqlari, garaj mudiri) o'zlarining moddiy javobgarligidagi ehtiyot qismlar bo'yicha hisob siyosatida belgilab qo'yilgan muddatlarda ularning holati va harakati to'g'risida ikki nusxada hisobot tuzadi. Hisobotning birinchi nusxasi barcha boshlang'ich hujjatlar bilan birgalikda buxgalteriyaga topshiriladi. Uning qabul qilib olinganligi to'g'risida buxgalter tomonidan imzolangan ikkinchi nusxasi moddiy javobgar shaxsga qaytariladi.

Avtotransport korxonalari amaliyotida ehtiyot qismlar holati va harakati to'g'risida hisobotni soniy ko'rinishda tuzish usuli keng qo'llaniladi. Ushbu usulda moddiy javobgar shaxslar hisobotda ehtiyot qismlar holati va harakatini faqat soniy ko'rinishda aks ettiradi. Buxgalteriyada moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari asosida ehtiyot qismlarning holati va harakati bo'yicha soniy-summaviy ko'rinishda aylanma qaydnomalar tuziladi. Ushbu aylanma qaydnomalar ehtiyot qismlar bo'yicha tahliliy hisob registrlari hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida ombordagi ehtiyot qismlarning sintetik hisobi 1040 «Ehtiyot qismlar» schotida yuritiladi. Ehtiyot qismlarning omborlarga kirimi, shuningdek ularning omborlardan foydalanishga berilishi,

sotilishi va boshqa chiqimlari ushbu schotda quyidagicha aks ettiriladi (19.1-jadvalga qarang).

19.1-jadval

Ehtiyot qismlar harakatini schotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schot	Kredit schot	Asos bo'luvchi hujjat
1.	QQS to'lovchi avtotransport korxonalarida ehtiyot qismlar ta'minotchilardan kirim qilinganda: -sotib olish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga	 1000000 200000	 1040 4410	 6010 6010	Shartnoma, schot-faktura
2.	Yagona soliq to'lovchi avto-korxonalarda ehtiyot qismlarning ta'minotchilardan kirim qilinishiga (QQS bilan birga)	1200000	1040	6010	Shartnoma, schot-faktura
3.	Shahar yo'lovchi transporti uchun ishlatilgan ehtiyot qismlar bo'yicha ta'miontchilarga to'langan QQS summasining ular tannarxiga kiritilishiga	200000	1040	4410	Dalolatnoma va buxgalteriya hisob-kitobi
4.	Ehtiyot qismlarning bepul kelib tushishiga	300000	1040	8530	Shartnoma, schot-faktura
5.	Ehtiyot qismlarning ta'sischilar tomonidan ustav kapitaliga badal sifatida kiritilishiga	600000	1040	4610	Shartnoma, schot-faktura
6.	Yo'lovchi tashish avtotransporti haydovchilari tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan va omborga kirim qilingan ehtiyot qismlar summasiga	50000	1040	9030	NKM cheki, Kvitansiya
7.	ATV haydovchilari tomonidan berilgan bo'nak hisobidan sotib olingan va omborga kirim qilingan ehtiyot qismlar summasiga	30000	1040	4230	Kvitansiya, NKM cheki, schot-faktura
8.	ATV haydovchilari tomonidan o'z hisobidan sotib olingan va omborga topshirilgan ehtiyot qismlar summasiga	35000	1040	6990	Kvitansiya, NKM cheki, schot-faktura
9.	Ehtiyot qismlarni ustaxona, sexlar va boshqa yordamchi xo'jaliklarga berilishiga (ichki almashuv)	1500000	1040	1040	Talabnoma, limit-zabor varag'i, nakladnoy
10.	Ehtiyot qismlarning zarur hollarda sotilishiga: -sotish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga -tannarxiga	 400000 80000 400000	 4010 4010 9220	 9220 6410 1040	Shartnoma, schot-faktura
11.	Ehtiyot qismlarning bepul berilishiga: -berish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga -tannarxiga -zarar summasiga	 400000 80000 400000 480000	 4010 4010 9220 9430	 9220 6410 1040 4010	Shartnoma, schot-faktura
12.	Ehtiyot qismlarning ta'sis badali sifatida kiritilishiga: -kelishuv qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga -tannarxiga	 400000 80000 400000	 0600 0600 9220	 9220 6410 1040	Shartnoma, schot-faktura

Avtotransport korxonalarida ayrim ehtiyot qismlar ATVlarga o'rnatilganda birdaniga emas, balki bir maromda ularning foydali xizmat muddati mobaynida hisobdan chiqarib boriladi. Bu, chunonchi, akkumulyatorlar va avtoshinalarga tegishlidir. Ushbu ehtiyot qismlar ATVlarga o'rnatish uchun ombordan berilganda ombor mudiri javobgarligidan soqit qilinadi. Bir vaqtning o'zida ular uchun moddiy javobgarlik foydali xizmat muddati tugaguncha haydovchilar zimmasiga o'tkaziladi.

Buxgalteriyada ATVlarga o'rnatilgan yangi akkumulyatorlar va avtoshinalar ish faoliyatini nazorat qilish maqsadida mos ravishda «Akkumulyator ish faoliyati hisobi kartochkasi» va «Avtoshinalar ish faoliyati hisobi kartochkasi» ochiladi. Ushbu kartochkalarda yangi akkumulyator va avtoshinalarning markasi, modeli, kafolatli xizmat muddati me'yori, o'rnatilgan ATVning davlat belgisi raqami, haydovchining familiyasi, ismi-sharifi, ularni o'rnatish sanasi ko'rsatiladi. Shuningdek, uning alohida ustunlarida hisobot davrlari bo'yicha akkumulyator va avtoshinalar tomonidan bajarilgan ish (tashilgan yuk hajmi, ishlagan oylar soni, bosib o'tilgan yo'l), ularni hisobdan chiqarish sanasi va sabablari aks ettiriladi. Akkumulyatorlar va avtoshinalarning foydali xizmat muddatini o'taganda va yaroqsiz holga kelganda ular ATVdan yechib olinadi hamda omborga metallolom sifatida kirim qilinadi. Bunda, mos ravishda, ularga ochilgan hisob kartochkalari ham yopiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» asosida O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan ishlab chiqilgan shu nomdagi tarmoq nizomiga muvofiq ATVlarga o'rnatilgan yangi akkumulyator va avtoshinalar hisobi 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schotida yuritiladi. Chunonchi, ATVlarga o'rnatilgan akkumulyatorlar va avtoshinalar qiymatiga «O'rnatish dalolatnomasi»ga muvofiq buxgalteriyada quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari»;

Kredit 1040 «Ehtiyot qismlar».

Akkumulyatorlar va avtoshinalarning qiymati ular ATVlarga o'rnatilgan kundan boshlab foydali xizmat muddati mobaynida bir maromda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga maxsus hisob-kitoblar asosida kiritib

boriladi. Ushbu hisob-kitoblarni tuzish hamda ular asosida o'rnatilgan akkumulyatorlar va avtoshinalar qiymatini hisobdan chiqarib borish tartibiga keyingi bobda alohida to'xtalamiz.

19.4. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiyasining xususiyatlari

Avtotransport korxonalarida yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqa ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiyasini o'tkazish, uning natijalarini rasmiylashtirish respublikamizning 19-son BHMS «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish»da keltirilgan tartiblarga mos ravishda ushbu aktivlarning transportirovka qilinishi, saqlanishi, ishlatilishi hamda boshqa jihatlaridagi xususiyatlari e'tiborga olingan tarzda amalga oshirilishi lozim. Chunonchi, inventarizatsiya boshlanishi oldidan, moddiy javobgar shaxslar o'zlarining javobgarligidagi ishlab chiqarish zaxiralarining holati va harakati to'g'risida hisobot berishlari, ushbu hisobotga barcha boshlang'ich hujjatlarning kiritilganligi, qayta sanoq o'tkazilishiga e'tirozi yo'qligi to'g'risida tilxat beradilar.

Inventarizatsiyani belgilangan muddatlarda o'tkazilishini ta'minlash uchun turli tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Chunonchi, omborlarda saqlanayotgan ehtiyot qismlar dastlab yangi ehtiyot qismlar, oldin foydalanishda bo'lgan yaroqli ehtiyot qismlar hamda yaroqsiz ehtiyot qismlarga ajratiladi. Nomi, markasi va modeli bir xil bo'lgan, lekin bahosi turlicha bo'lgan yangi ehtiyot qismlar alohida saralanadi. Sanoq ishlarini osonlashtirish maqsadida inventarizatsiya varaqasida guruhlarga ajratilgan ehtiyot qismlarning nomlari va ombor hisobi bo'yicha miqdori oldindan qo'yib chiqiladi. Shundan so'ng, har bir guruh bo'yicha ombordagi ehtiyot qismlarning mavjud miqdori sanash, o'lchash, tortish va shu kabi boshqa usullar asosida aniqlanadi hamda inventarizatsiya varaqasining tegishli ustunchasiga yoziladi.

Katta sig'imli sisterna va bochkalarda saqlanayotgan yoqilg'i va moylash materiallarining haqiqiy miqdorini topish uchun inventarizatsiya komissiyasi maxsus o'lchov asboblaridan, chunonchi, temir lineykalar, indikatorlardan foydalanadi. Temir lineyka yoki indikatorlar yordamida, dastlab, sisterna (bochka)ning yoqilg'i va moylash materiallarining haqiqatda band bo'lgan balandligi tegishli o'lchov birliklarida (masalan, metrda, desimetrda, santimetrda) aniqlanadi. Shundan so'ng, har bir sisterna va bochka bo'yicha ularning topilgan balandlik o'lchamiga mos keluvchi yoqilg'ining miqdori maxsus tasdiqlangan shkala (jadval) asosida topiladi.

Misol uchun, hajmi 16 kub metrlik (4x2x2) sistemaga 13120 litr solyarka ketishi belgilangan, deylik. Demak, 1 kub metrga 820 litr solyarka to'g'ri keladi. Inventarizatsiyada sistemaning yoqilg'i bilan band bo'lgan balandligi 1,25 metr ekanligi aniqlandi. U holda tasdiqlangan shkalaga ko'ra ushbu sistemadagi yoqilg'ining miqdori 8200 litrni (4m * 2m * 1,25m * 820 l) tashkil qiladi.

Inventarizatsiya varaqasi o'tkazilayotgan Inventarizatsiyaning turiga hamda maqsadiga ko'ra turli nusxada rasmiylashtiriladi. Chunonchi, moddiy javobgar shaxslar almashayotganda inventarizatsiya varaqasi uchta nusxada tuziladi. Uning bir nusxasi buxgateriyaga topshiriladi, ikkinchi nusxasi moddiy javobgarlikni oluvchi shaxsda, uchinchi nusxasi esa moddiy javobgarlikni topshirayotgan shaxsda qoladi.

Avtotransport korxonasi buxgalteriyasida komissiya tomonidan taqdim etilgan inventarizatsiya varaqasi asosida «Taqqoslama qaydnoma» tuziladi. Ushbu qaydnomaga faqat chetlanishlar (ortiqchalar yoki kamomadlar) mavjud bo'lgan ishlab chiqarish zaxiralari kiritiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalari avtotransport korxonasi rahbarining qaroriga asosan boshqa daromadlar tarkibiga kiritiladi. Buxgalteriyada aniqlangan ortiqchalar summasiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (yoqilg'i, ehtiyot qismlar va boshqa materiallarni aks ettiruvchi tegishli schotlar);

Kredit 9390 «Boshqa operasion daromadlar».

Inventarizatsiya natijasida ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha kamomadlar, shuningdek ularning yaroqsiz holga kelganligi aniqlanganda quyidagi tartiblarga amal qilish lozim.

Birinchidan, yoqilg'i hamda moylash materiallari bo'yicha ularning saqlash va ATVlarga quyishdagi tabiiy kamayishi (bug'lanishi, to'kilishi) belgilangan me'yorlar asosida hisobdan chiqariladi.

Ikkinchidan, me'yordagi tabiiy kamayishlar miqdoridan ortiq bo'lgan yoqilg'i va moylash materiallari miqdori kamomad sifatida tan olinadi.

Uchinchidan, moddiy javobgar shaxslar aybi bilan zanglagan, singan va boshqa sabablarga ko'ra yaroqsiz holatga kelgan ehtiyot qismlar ularga yetkazilgan zarardan hosil bo'lgan yo'qotishlar sifatida e'tirof etiladi.

To'rtinchidan, nomi, markasi, modeli bir xil bo'lgan, lekin kirim qiymati turlicha bo'lgan ehtiyot qismlar bo'yicha aniqlangan kamomad va ortiqchalarni o'zaro bir-biri bilan qoplashga rahbarning ijozati bilan ruxsat etiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarining belgilangan me'yorlardagi tabiiy kamayishi ularning kirim qiymati bo'yicha avtotransport korxonalarining xarajatlariga kiritiladi. Buxgalteriyada tabiiy kamayish summasiga quyidagi yozuvlar qilinadi:

Debet Xarajat schotlari (2010, 2310, 2510, 9400);

Kredit 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (yoqilg'i, ehtiyot qismlar va boshqa materiallarni aks ettiruvchi tegishli schotlar).

Kamomad va yo'qotishlar sifatida tan olingan ishlab chiqarish zaxiralariga ularning kirim qiymati bo'yicha quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 5910 «Kamomadlar va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar»;

Kredit 1000 «Materiallarni hisobga oluvchi schotlar» (yoqilg'i, ehtiyot qismlar va boshqa materiallarni aks ettiruvchi tegishli schotlar).

Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha kamomad va yo'qotishlarning aybdor shaxslar bo'yniga qo'yilishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzlari»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar».

Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha kamomad va yo'qotishlarning aybdor shaxslar bo'yniga ularning kirim qiymatidan ko'p summaga qo'yilishida o'rtadagi farq summasiga buxgalteriyada quyidagi yozuv beriladi:

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzlari»;

Kredit 9390 «Boshqa operasion daromadlar».

Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha aniqlangan kamomad va yo'qotishlarning korxona hisobidan qoplanishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar».

Tayanch iboralar

Yoqilg'i - benzin, solyarka, suyultirilgan gaz, siqilgan tabiiy gaz.

Yog'lash materiallari - aftol, solidol, litol va boshqalar.

Ehtiyot qismlar va agregatlar – dvigatel, akkumulyator, avtoshina, ressorlar, porshin, gilza va boshqalar.

Xo'jalik inventarlari – turli o'lchamli kalitlar, domkratlar, maxsus kiyim-kechaklar, xalatlar, poyafzal va boshqalar.

Boshqa materiallar – temir-tersaklar, simlar, bo'yoqlar, doka, bo'z va boshqa xilma-xil materiallar.

Ombor xo'jaligi - ehtiyot qismlar va agregatlar, xo'jalik inventarlari hamda boshqa materiallarning saqlash joylari.

Ustaxona (sex)lar – bu ATVlarni ta'mirlash, ularga turli agregatlarni yasash va o'rnatishga ixtisoslashgan yordamchi bo'limlar.

Garaj – ATVlarning turishi va saqlanishi uchun mo'ljallangan joy yoki qurilmalar.

AYOQSH - avtotransport korxonasi territoriyasida alohida ajratilgan yer maydonida joylashgan hamda maxsus qurilmalar (yer osti va yer ustidagi sisternalar, yoqilg'i quyuvchi avtomatlar va boshqalar) bilan jihozlangan yordamchi xo'jalik.

Yoqilg'i tarqatish qaydnomasi - haydovchilarga yoqilg'ini ATVlar yordamida ish bajarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida yo'l varaqalarida dispetcher tomonidan ko'rsatilgan miqdorda berishni rasmiylashtiruvchi hujjat.

Limit-zabor varag'i - ATVlar yordamida ish bajarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida yo'l varaqalarida dispetcher tomonidan ko'rsatilgan miqdorda yoqilg'i hisobot davrining ma'lum kunlari mobaynida berilishini rasmiylashtiruvchi hujjat.

O'rnatish dalolatnomasi - ehtiyot qismlarning ATVlarga qo'yilishida tuziladigan hujjat.

Akkumulyator ish faoliyati hisobi kartochkasi - ATVlarga o'rnatilgan yangi akkumulyatorlar ish faoliyatini nazorat qilish maqsadida yuritiladigan reestr bo'lib, unda yangi akkumulyatorning markasi, modeli, kafolatli xizmat muddati me'yori, o'rnatilgan ATVning davlat belgisi raqami, haydovchining familiyasi, ismi-sharifi, ularni o'rnatish sanasi, shuningdek, hisobot davrlari bo'yicha akkumulyatorlar tomonidan bajarilgan ish (tashilgan yuk hajmi, ishlagan oylar soni, bosib o'tilgan yo'l), ularni hisobdan chiqarish sanasi va sabablari aks ettiriladi.

Avtoshinalar ish faoliyati kartochkasi - ATVlarga o'rnatilgan yangi avtoshinalar ish faoliyatini nazorat qilish maqsadida yuritiladigan reestr bo'lib, unda yangi avtoshinaning markasi, modeli, kafolatli xizmat muddati me'yori, o'rnatilgan ATVning davlat belgisi raqami, haydovchining familiyasi, ismi-sharifi, ularni o'rnatish sanasi, shuningdek, hisobot davrlari bo'yicha avtoshina tomonidan bajarilgan ish (bosib o'tilgan yo'l), ularni hisobdan chiqarish sanasi va sabablari aks ettiriladi.

Nazorat uchun test savollari

1. Ishlab chiqarish zaxirasiga kiradi:

a) benzin;

b) rosser;

v) porshen;

g) yuqoridagilarning barchasi.

2. Quyidagilarning qaysi biri ehtiyot qismga kirmaydi:

a) gilza;

b) sim;

v) aftol;

g) avtoshina.

3. Avtomashina sotib olinganda unga zavod tomonidan o'rnatilgan akkumulyator qiymati:

a) alohida hisobga olinadi;

b) birdaniga hisobdan chiqarib yuboriladi;

v) avtomashinaning boshlang'ich qiymatiga kiradi;

g) haydovchidan undirib olinadi.

4. Ehtiyot qismlarning ombordan avtomashinalarga o'rnatishga berilishi rasmiylashtiriladi:

a) talabnomalar bilan;

b) limit-zabor varaqasi bilan;

v) nakladnoy bilan;

g) yuqorida keltirilgan javoblardagi hujjatlarning biri bilan.

5. Sisternada saqlanayotgan yoqilg'i massasini hisobga olayotganda havo harorati darajasining o'zgarishi:

a) ta'sir o'tkazmaydi;

b) e'tiborga olinadi;

v) ehtiborga olinmaydi;

g) farq qilmaydi.

6. Ta'minotchilardan keltirilgan A-80 markali benzinning miqdori schot-faktura bo'yicha 4500 kg. Avtobazada benzin hisobi litrda yuritiladi. Benzinning zichlik koeffitsiyenti 0,75. Bir litr benzinning sotib olish bahosi (QQSsiz) 500 so'm. Benzinning litrdagi miqdori va kirim bahosidagi qiymati teng:

a) 4500 l, 2250000 so'm;

b) 6000 l, 3000000 so'm;

v) 3375 l, 1687500 so'm;
g) 4500 l, 2700000 so'm.

7. 6-testda keltirilgan ma'lumotlar asosida kirim qilingan benzinga quyidagi yozuvlarning qaysi biri berilishi kerak?

a) Debet 1010 Kredit 6010 2250000 so'm;
b) Debet 1010 Kredit 6010 3000000 so'm;
v) Debet 1010 Kredit 6010 1687500 so'm;
g) Debet 1010 Kredit 6010 2700000 so'm.

8. 6-testda keltirilgan ma'lumotlarga asosan kirim qilingan benzinga to'g'ri keluvchi QQS summasi (20 %)ga ushbu soliqni to'lovchi korxonalarda qanday yozuv beriladi?

a) Debet 1010 Kredit 6010 450000 so'm;
b) Debet 4410 Kredit 6010 600000 so'm;
v) Debet 4410 Kredit 6010 337500 so'm;
g) Debet 1010 Kredit 6010 540000 so'm.

9. M-24.9 «Otayo'l» avtobusiga har birining qiymati 100000 so'mlik 4 ta avtoshina o'rnatildi. Avtoshinalarning xizmat muddati me'yori 55 ming km. Avtobusga qo'yilgan avtoshinaga quyidagi yozuvlarning qaysi biri beriladi?

a) Debet 1040 Kredit 6010 400000 so'm;
b) Debet 2010 Kredit 1040 400000 so'm;
v) Debet 3190 Kredit 1040 100000 so'm;
g) Debet 3190 Kredit 1040 400000 so'm.

Xo'jalik holati

AYOQSH mudirining bergan hisobotiga ko'ra hajmi 20 kub (4*2,5*2) bo'lgan sisternada 13100 litr solyarka mavjud. Inventarizatsiyada sisternaning 1,30 metrlik balandligida yoqilg'i turgani aniqlandi. Yoqilg'i zichligi koeffitsiyenti 0,832, ya'ni 1 kub metrga 832 kg yoqilg'i ketishi belgilangan. Bir litr solyarkaning o'rtacha kirim bahosi 400 so'm. Korxona rahbari kamomad summasini 20 foizlik jarima bilan naqd pul bilan undirib olishga buyruq bergan.

Xo'jalik holati shartida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1. Sisternada haqiqatda mavjud solyarkaning miqdori teng:

a) 13100 litr; b) 10816 kg;

v) 8320 kg; g) 13100 kg.

2. Sisternada haqiqatda mavjud solyarkaning litrdagi miqdori teng:

a) 13100 litr; b) 13000 litr;
v) 10000 litr; g) 10816 litr.

3. Solyarka bo'yicha kamomad miqdori teng:

a) 0 litr; b) 100 litr;
v) 3000 litr; g) 2184 litr.

4. Aniqlangan kamomad summasi teng:

a) yo'q; b) 40000 so'm;
v) 1200000 so'm; g) 873600 so'm.

5. Kamomad summasiga quyidagi yozuvlarning qaysi biri berilishi kerak?

a) Debet 5910 Kredit 1030 40000 so'm;
b) Debet 3190 Kredit 1030 40000 so'm;
v) Debet 9430 Kredit 1030 40000 so'm;
g) Debet 4790 Kredit 1030 40000 so'm.

6. Korxona rahbarining buyrug'iga ko'ra kamomad summasini AYOQSH mudiri bo'yniga qo'yilishiga quyidagi yozuvlarning qaysi biri berilishi kerak?

a) Debet 9430 Kredit 5910 40000 so'm;
b) Debet 4730 Kredit 1030 40000 so'm;
v) Debet 4730 Kredit 5910 40000 so'm;
g) Debet 4790 Kredit 5910 40000 so'm.

7. AYOQSH mudiridan kamomad uchun undiriladigan jarima summasiga quyidagi yozuvlarning qaysi biri berilishi kerak?

a) Debet 5910 Kredit 1030 8000 so'm;
b) Debet 4730 Kredit 9330 8000 so'm;
v) Debet 5010 Kredit 9330 8000 so'm;
g) Debet 4790 Kredit 9330 8000 so'm.

8. AYOQSH mudiridan naqd pul bilan undirilgan summasiga quyidagi yozuvlarning qaysi biri berilishi kerak?

a) Debet 5010 Kredit 5910 48000 so'm;
b) Debet 5010 Kredit 4730 48000 so'm;
v) Debet 5010 Kredit 9330 48000 so'm;
g) Debet 5010 Kredit 4790 48000 so'm.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimız taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2004-yil 10-mart, 118-son.

4. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. «Tashuvchilarning yuk avtomobillari uchun yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylarini tayyorlash, hisobga olish, to'ldirish va ishlovdan o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma». O'zR avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining 2004-yil 3-iyundagi 83-buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'zR AV tomonidan 2004-yil 2-iyulda ro'yxatga olingan, № 1382.

6. BHMS №1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». O'zR AV tomonidan 1998-yil 14-avgustda ro'yxatga olingan, № 474.

7. BHMS № 4 «Tovar moddiy zaxiralar». O'zR AV tomonidan 2006-yil 17-iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

8. BHMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish». O'zR AV tomonidan 1999-yil 2-noyabrda ro'yxatga olingan, № 833.

9. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. — T.: Sharq, 2002.

10. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

11. Ochilov I.K., Qurbonboyev J.E. Moliyaviy hisob. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.

12. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. — T.: O'qituvchi, 2004.

20-bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI

20.1. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi va tavsifi

Avtotransport korxonalarida ATVlar yordamida yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida tan olinadi. Ushbu xarajatlar bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning tannarxini tashkil etadi.

Avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin.

Ishlab chiqarish turiga ko'ra avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari asosiy, yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlariga bo'linadi.

Avtotransport korxonalarida **asosiy ishlab chiqarish xarajatlari** deganda ATVlar yordamida yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) uchun ketgan sarf-xarajatlar tushuniladi. Ushbu xarajatlarning hisobi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotida olib boriladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga avtotransport korxonalarining ta'mirlash ustaxonalari, turli agregatlar va moslamalarni yasash sexlari, ATVlarni yuvish kompleksi, dispetcherlik bo'limi, garaj, AYOQSH va boshqa yordamchi xo'jaliklarga ketgan xarajatlar kiradi. Bu xarajatlarning hisobi 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotida yuritiladi.

Avtotransport korxonalarining **umumxo'jalik xarajatlari** bo'lib ularni gaz, suv, elektr quvvati va par bilan ta'minlash, ATVlarni qo'riqlash, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'linmalarining xarajatlari hisoblanadi. Bunday xarajatlar hisobi 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida olib boriladi. Barcha ishlab chiqarish xarajatlari ularning tannarxga kiritilish usuliga ko'ra bevosita va bilvosita xarajatlarga bo'linadi.

Bevosita xarajatlarga yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan xarajatlar kiradi. Bunday xarajatlarga, chunonchi, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)ga bevosita sarflangan yoqilg'i, ATVlar haydovchilariga hisoblangan mehnat haqi va boshqalar misol bo'ladi.

Bilvosita xarajatlar deganda yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga maxsus hisob-kitoblar

asosida taqsimlash yo'li bilan kiritiladigan xarajatlar tushuniladi. Odatda, aksariyat yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish xarajatlari bilvosita xarajat hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida ayrim ishlab chiqarish xarajatlari yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmining o'zgarishiga qarab mos ravishda o'zgaradi, ularning ayrimlari esa o'zgarishsiz qoladi. O'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlariga yoqilg'i - moylash materiallari, ehtiyot qismlar, hisoblangan ishbay mehnat haqi va boshqa xarajatlar kiradi. O'zgarmas xarajatlarga, misol uchun, qat'i summada belgilangan ijara to'lovlari, maoshlar, majburiy ajratmalar, bir xil maromda asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan hisoblanadigan amortizatsiya (eskirish) summasi va boshqalar misol bo'ladi.

Avtotransport korxonalarida, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardagi kabi, ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy moddalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»ga asosan tartibga solinadi.

Ushbu Nizomga muvofiq avtotransport korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy moddalari iqtisodiy mazmuniga ko'ra beshta guruhga bo'linadi. Bular:

- **material xarajatlari** – yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun sarflangan yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar xo'jalik buyumlari, maxsus jihozlar va boshqa turdagi materiallar qiymati;

- **mehnat haqi xarajatlari** - yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun ATVlar haydovchilariga hisoblangan mehnat haqi;

- **ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar** - yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun ATVlar haydovchilariga hisoblangan mehnat haqiga nisbatan davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga belgilangan stavkalardagi majburiy to'lovlari;

- **amortizatsiya xarajatlari** - bu yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha ishlarni bajarish (xizmatlarni ko'rsatish)ga bevosita aloqador bo'lgan asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati;

- **boshqa ishlab chiqarish xarajatlari** – yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun sarflangan boshqa yordamchi va umumishlab chiqarish maqsadlaridagi xarajatlar, masalan gaz, suv, elektr quvvati, bug' ta'minoti, joriy va kapital ta'mirlash xarajatlari, shuningdek turli xizmatlar uchun hisoblangan to'lovlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari har bir moddasini hisobga olishning, Shuningdek ularni yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tannarxiga kiritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Quyida ularning asosiylariga to'xtalamiz.

20.2. Yoqilg'i sarfining hisobi

Yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga yoqilg'i qiymati ularning belgilangan me'yoriy sarfiga asosan kiritiladi. Yoqilg'ining me'yoriy sarfi avtomobillarning turlari bo'yicha quyidagi algoritmlar asosida topiladi:

1. Yuk tashishga mo'ljallangan bortli avtomobillar bo'yicha:

Yom = 0,01*(Yb*Mt + Bi*Mi)* (1+0,01*Kt)

bu yerda: **Yom** – yoqilg'ining me'yoriy sarfi, litrda;

Yb – avtomobilning bosib o'tgan yo'li, km;

Mt – yuksiz holda har 100 km masofa uchun yoqilg'i sarfining me'yori, l/100 km;

Bi – transport bajargan ish hajmi, t/km;

Mi – bajarilgan har 100 t/km ish uchun yoqilg'i sarfining me'yori, l/100 t/km;

Kt - tuzatish koeffitsiyenti (me'yorga qo'shimcha yoki uni kamaytirilishi), foizlarda.

O'z navbatida, yuksiz holda har 100 km masofa uchun yoqilg'i sarfining me'yori (Mt) hamda transport bajargan ish hajmi (Bi) quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

Mt = Bm + Tm*To

Bi = Yuh*Mb

bu yerda: **Bm** – har 100 km masofa uchun yoqilg'i sarfining asosiy me'yori, l/100 km;

To – tirkama yoki yarim tirkamaning xususiy og'irligi, tonnada;

Tm – tirkama yoki yarim tirkamaning qo'shimcha og'irligi uchun yoqilg'i sarfining me'yori, l/100 t/km;

Yuh – tashilgan yuk miqdori, tonna;

Mb – yuk bilan bosib o'tilgan masofa, km.

Bortli yuk tashish avtomobillari bo'yicha yoqilg'i sarfi me'yori har bir tonna yukni 100 km masofaga tashishda quyidagi miqdorgacha oshiriladi: benzinda – 2 litrgacha; dizel yoqilg'isida -1,3 litrgacha; suyultirilgan gazda -2,64 litrgacha; tabiiy gazda – 2 kub metrgacha.

Misol 1. *Aytaylik, KamAz-5320 markali bortli yuk tashish mashinasi GKB 8350-markali tirkamasi bilan yo'l varaqasi ma'lumotlariga ko'ra 10000 t/km miqdorida ish bajargan. Bosib o'tilgan yo'l – 500 km. 1 litr dizel yoqilg'isining kirim qiymati o'rtacha 1000 so'm. Ushbu avtomashina bo'yicha:*

- har 100 km masofaga yoqilg'i sarfining asosiy me'yori 25,0 litr;

- bajarilgan har 100 t/km ish uchun yoqilg'i sarfining me'yori 1,3 litr;

-tirkamaning har 1 tonna og'irligi uchun qo'shimcha yoqilg'i sarfi me'yori 1,3 litr;

-tirkamaning og'irligi 4,0 tonna;

- qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg'i sarfi me'yoriga qo'shimcha 10 foiz.

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlarga ko'ra:

- har 100 km masofaga yoqilg'i sarfi me'yori

$$Mt = Bm + Tm*To = 25 + 4*1,3 = 30,2 \text{ l.}$$

- avtomashinaning bajargan ishiga to'g'ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining miqdori

$$Yom = 0,01*(Yb*Mt + Bi*Mi)*(1+0,01*Kt) = 0,01*(500*30,2+10000*1,3)*(1+0,01*10) = 309,1 \text{ litr}$$

- bajarilgan ish tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining qiymati 309100 so'm (309,1 l * 1000 so'm).

2.O'zi tortkich yuk tashish mashinalari (samosvallar) bo'yicha:

$$Yom = 0,01*Yb*Bm*(1+0,01*Kt) + Qs*Qm$$

bu yerda: **Yom** – yoqilg'ining me'yoriy sarfi, litrda;

Yb – avtomobilning bosib o'tgan yo'li, km;

Bm – har 100 km masofa uchun yoqilg'i sarfining asosiy me'yori, l/100 km;

Kt - tuzatish koeffitsiyenti (me'yorga qo'shimcha yoki uni kamaytirilishi), foizlarda;

Qs- qatnovlar soni;

Qm – yuk bilan har bir qatnov uchun sarflanadigan yoqilg'ining qo'shimcha me'yori, litrda.

Misol. *Aytaylik, KamAZ -5511 markali yukni o'zi to'kadigan (samosval) avtomashinasi yo'l varaqasi ma'lumotlariga ko'ra, bir kunda 10 qatnovda yuk tashigan va jami 200 km masofani o'tagan. Har 100 km masofaga yoqilg'i sarfining asosiy me'yori 34,0 litr; kar yerda ishlaganlik uchun yoqilg'i sarfi me'yoriga qo'shimcha 12 foiz, yuk bilan har bir qatnov uchun yoqilg'i sarfining qo'shimcha me'yori 0,35 litr. 1 litr dizel yoqilg'isining kirim qiymati o'rtacha 1000 so'm.*

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlarga ko'ra avtomashinaning bajargan ishiga to'g'ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining miqdori

Yom = 0,01*Yb*Bmt *(1+0,01*Kt) + Q* Qm = 0,01* 200*34,0* (1+0,01*12)+10*0,35 = 79,66 litr

Bajarilgan ish tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining qiymati ushbu misol shartiga ko'ra 79660 so'm (79,66 l * 1000 so'm)ni tashkil qiladi.

3. Avtobuslar bo'yicha

Yom = 0,01*Yb*Bm * (1+0,01*Kt) + Iv*Qm

bu yerda: **Yom** – yoqilg'ining me'yoriy sarfi, litrda;

Yb – avtomobilning bosib o'tgan yo'li, km;

Bm – har 100 km masofa uchun yoqilg'i sarfining asosiy me'yori, l/100 km;

Kt - tuzatish koeffitsiyenti (me'yorga qo'shimcha yoki uni kamaytirilishi), foizlarda;

Iv – isitish uskunalarining ish vaqti, soat;

Qm – isitish uskunalarining 1 soatlik ish vaqtiga sarflanadigan yoqilg'ining qo'shimcha me'yori, litrda.

Misol. *Aytaylik, Ikarus-260.01 markali avtobusning yo'l varaqalari bo'yicha bosib o'tgan yo'li dekabr oyida 20000 km, har 100 km masofaga yoqilg'i (solyarka) sarfining asosiy me'yori 40,0 litr; qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg'i sarfi me'yoriga qo'shimcha 10 foiz. 1 litr dizel yoqilg'isining kirim qiymati o'rtacha 1000 so'm. Isitish uskunasining ish vaqti shu oyda 100 soat, isitish uskunasining har soatlik ish vaqtiga yoqilg'i sarfining qo'shimcha me'yori 0,25 litr.*

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlarga ko'ra avtobusning bajargan ishiga to'g'ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining miqdori

Yom = 0,01*Yb*Bmt *(1+0,01*Kt) + Iv* Qm = 0,01* 20000*40,0* (1+0,01*10)+100*0,25 = 8825 litr

Bajarilgan ish tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining qiymati ushbu misol shartiga ko'ra 8825000 so'm (8825 l * 1000 so'm)ni tashkil qiladi.

4. Yengil avtomobillar bo'yicha:

Yom = 0,01*Bm*Yb* (1+0,01*Kt)

bu yerda: **Yom** - yoqilg'ining me'yoriy sarfi, litrda;

Bm - har 100 km uchun yoqilg'i sarfining asosiy miqdori, l/100 km;

Yb - avtomobilning bosib o'tgan yo'li, km;

Kt - tuzatish koeffitsiyenti (me'yorga qo'shimcha yoki uni kamaytirilishi), foizlarda.

Misol. *Aytaylik, taksi sifatida ishlatilayotgan GAZ-3102 markali avtomobilning yo'l varaqalari bo'yicha bosib o'tgan yo'li hisobot oyida 10000 km, har 100 km masofaga yoqilg'i (benzin) sarfining bazoviy me'yori 13,0 litr; qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg'i sarfi me'yoriga qo'shimcha 10 foiz. 1 litr benzinning kirim qiymati o'rtacha 1100 so'm. Isitish uskunasidan foydalanilganlik uchun yoqilg'i sarfining qo'shimcha me'yori 15 foiz.*

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlarga ko'ra, avtobusning bajargan ishiga to'g'ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining miqdori

Yom = 0,01*Yb*Bmt *(1+0,01*Kt) = 0,01* 10000*13,0* (1+0,01*15) = 1495 litr

Bajarilgan ish tannarxiga kiritilishi lozim bo'lgan yoqilg'ining qiymati ushbu misol shartiga ko'ra, 1644500 so'm (1495 l * 1100 so'm)ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar asosida ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga sarflangan yoqilg'i qiymatiga avtotransport korxonalarida quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i».

Hisobot davrida haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'ining me'yordan ortiq yoki kam sarflanganligi quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi (20.1-jadval).

Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'ining hisobot davri oxiridagi haqiqiy miqdori ATVlar bakidagi yoqilg'ini inventarizatsiya qilish yo'li bilan aniqlanadi. Inventarizatsiya varaqalarida aks ettirilgan qoldiqni (jadvalning 9-ustunchasi ma'lumotlari) yoqilg'ining me'yoriy sarflar hisobdan chiqarib topilgan qoldig'I (jadvalning 8-ustunchasi ma'lumotlari) bilan taqqoslash asosida yoqilg'i bo'yicha erishilgan tejam yoki me'yordan ortiq sarflar aniqlanadi. Chunonchi,

yoqilg'ining haqiqiy qoldig'ini me'yoriy sarflar asosida topilgan qoldiqdan kam bo'lishi yoqilg'i bo'yicha ortiqcha sarflarga yo'l qo'yilganlikni, aksincha holat esa ular bo'yicha tejamkorlikka erishilganlikni bildiradi.

20.1-jadval

Avtotransport vositalari bo'yicha yoqilg'i sarfini belgilangan me'yordan chetlanishlarining hisob-kitobi (litrda)

№	ATV davlat belgisi raqami	Haydov-chining F.I.SH.	Hisobot davri boshidagi qoldiq	Hisobot davridaberilgan yoqilg'i	Jami yoqilg'i (4+5)	Me'yor bo'yicha sarflangan yoqilg'i	Hisobot davri oxiridagi qoldiq		Chetlanish	
							me'yor bo'yicha (6-7)	Haqiqatda	ortiqcha sarf (9<8)	tejam (9>8)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	10 AG' 401	Usarov	20	300	320	285	35	30	5	-
2.	10 AG' 402	Xolov	40	400	440	430	10	12	-	2
3.	10 AG' 403	Toshev	25	375	400	380	20	20	-	-
Xuddi shu tarzda barcha boshqa ATVlar bo'yicha										
Jami:			700	4500	5200	4800	400	345	85	30

Haydovchilar tomonidan yoqilg'i sarfi bo'yicha yo'l qo'yilgan me'yordan ortiqchalar kamomad sifatida tan olinadi va mos ravishda hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 5910 «Kamomad va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar»;

Kredit 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i».

Ushbu kamomad aybdor shaxs, ya'ni ATV haydovchisi bo'yniga qo'yilganda:

Debet 4730 «Xodimlarning moddiy zararni qoplash bo'yicha qarzlari»;

Kredit 5910 «Kamomad va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar».

Yoqilg'ining me'yordan ortiq sarfi korxona hisobidan qoplanganda :

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 5910 «Kamomad va boyliklarga yetkazilgan zarardan yo'qotishlar».

Haydovchilar tomonidan yoqilg'i sarfi bo'yicha tejamkorlikka erishilganda tejalgan yoqilg'i summasiga qizil yozuv bilan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 1031 «Haydovchilar javobgarligidagi yoqilg'i».

Ushbu yozuv ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini yoqilg'i tejami evaziga kamayganligini, shuningdek tejalgan yoqilg'ining haydovchi javobgarligida qolganligini bildiradi.

20.3. Ehtiyot qismlar sarfining hisobi

Avtotransport korxonalarida ATVlarga o'rnatilgan ehtiyot qismlar qiymatini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritish ikkita usulda amalga oshiriladi: (1) usul – bu ehtiyot qismlar qiymatini ular ATVlarga o'rnatilganda foydali xizmat muddati mobaynida tannarxga bir maromda yoki bajarilgan ish hajmiga qarab kiritib borish usuli; (2) usul – ehtiyot qismlar qiymatini ular ATVlarga o'rnatilganda tannarxga to'lig'icha kiritish usuli.

Birinchi usul ATVlarga o'rnatiladigan yangi avtoshinalar va akkumulyatorlar qiymatini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritishda qo'llaniladi. Ikkinchi usul qolgan ehtiyot qismlar qiymatini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritishda ishlatiladi.

ATVlarga o'rnatilgan avtoshinalar qiymatini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Birinchidan, o'rnatish dalolatnomasiga muvofiq ATVga o'rnatilgan avtoshinalar qiymati topib olinadi.

Ikkinchidan, yo'l varaqalari hamda avtoshinalar ish faoliyati hisobi kartochkalari asosida ATVlar tomonidan o'rnatilgan yangi avtoshinalarda bosib o'tilgan masofaning uzunligi aniqlanadi.

Uchinchidan, o'rnatilgan yangi avtoshinalar bo'yicha ular qiymatining bir birlik ishga to'g'ri keladigan me'yori topiladi. Bunday me'yor avtoshinalar qiymatining 1 km bosib o'tilgan masofaga to'g'ri keluvchi o'rtacha summasi hisoblanadi. Ushbu o'rtacha summa o'rnatilgan avtoshinalar qiymatini ular bo'yicha ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilangan yo'l bosib o'tish me'yoriga bo'lish orqali topiladi.

To'rtinchidan, har oyda ATV tomonidan bosib o'tilgan masofani 1 km bosib o'tilgan masofaga to'g'ri keladigan summaga (me'yorga) ko'paytirish orqali o'rnatilgan avtoshinalarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan summasi topiladi.

Misol. *Aytaylik, 2007-yil 1-may kuni M-50 «O'zotoyo'l» avtobusiga har birining kirim bahosi 110 ming so'mlik jami qiymati 440 ming so'mlik to'rtta balon o'rnatildi. Balonlarning zavod tomonidan*

belgilangan masofa o'tish me'yori 55 ming km. Demak, ularning 1 km masofani bosib bosib o'tishida hisobdan chiqariladigan o'rtacha qiymati 8 so'm (440000/55000). Avtobusning yo'l varaqalari bo'yicha bosib o'tgan yo'li oylar bo'yicha quyidagicha: may - 6000 km; iyun - 6200 km; iyul – 5500 km; avgust – 6400 km; sentabr– 7000 km.

Avtoshinalar qiymatini har oyda ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga bajarilgan ish hajmiga, ya'ni bosib o'tgan yo'liga ko'ra hisobdan chiqarib borilishi quyidagicha hisob-kitob qilinadi (20.2-jadvalga qarang).

ATVlarga o'rnatilgan yangi avtoshinalarning har oyda hisobdan chiqarib boriladigan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritib boriladigan qiymati buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

20.2-jadval

Avtoshinalar qiymatini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritish hisob-kitobi

Oy	Bosib o'tilgan yo'l (km)	1 km bosib o'tilgan yo'l uchun belgilangan me'yor, (so'm)	Avtoshinalarning tannarxga kiritiladigan summasi
May	6000	10	60000
Iyun	6200	10	62000
Iyul	5500	10	55000
Avgust	6400	10	64000
Sentabr	7000	10	70000
Shu tarzda boshqa oylar bo'yicha			

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari».

Ushbu buxgalteriya yozuvi avtoshinalarning belgilangan xizmat muddati to'liq tugagunga qadar berib boriladi. Avtoshinalarning xizmat muddati tugagan hisobot davrida (oyda) ularning 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schotida hisobda turgan summasi nolga aylanadi va mos ravishda ushbu schot yopiladi.

Avtoshinalar belgilangan xizmat muddatidan keyingi davrda foydalanishga yaroqli bo'lganligi uchun ishlatilsa, u holda ular bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan summa mavjud bo'lmaydi. Agar, avtoshinalar xizmat muddatidan keyin restavrasiya qilingan holda ishlatilsa, u holda ularning restavrasiya qiymati keyingi belgilangan xizmat muddati mobaynida yuqorida keltirilgan tartibda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritib boriladi.

ATVlarga o'rnatilgan yangi akkumulyatorlarning har oyda hisobdan chiqarib boriladigan summasi ularning sotib olish qiymatini belgilangan foydali xizmat oylari soniga bo'lish orqali topiladi. Akkumulyatorlarning xizmat muddati ularning markalari bo'yicha tayyorlovchi zavod tomonidan belgilanadi. Misol uchun, M-24.9 «O'zotoyo'l» avtobuslariga o'rnatiladigan 2x2V-88 markali akkumulyatorlarning foydali xizmat muddati ularni ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan 24 oy miqdorida belgilangan. Misol uchun, aytaylik, ushbu akkumulyatorlarning sotib olish qiymati 120 ming so'm. Demak, bu akkumulyator ATVga o'rnatilganda, uning har oyda hisobdan chiqarib boriladigan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan qiymati 5000 so'mni (120000/24) tashkil qiladi.

ATVlarga o'rnatilgan akkumulyatorlar xuddi avtoshinalar singari o'rnatilgan sanadan boshlab 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schotida hisobga olinadi. Ularning har oyda hisobdan chiqarib boriladigan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan qiymatiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari».

Akkumulyatorlarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan har oylik qiymatini xuddi avtoshinalar kabi bosib o'tgan yo'li bo'yicha ham hisob-kitob qilish mumkin. Buning uchun, dastlab, yangi o'rnatilgan akkumulyatorning foydali xizmat muddati mobaynida 1 km bosib o'tiladigan yo'lga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymati me'yor sifatida topiladi. So'ngra, har oyda ATV tomonidan bosib o'tilgan yo'l uzunligi akkumulyatorning 1 km bosib o'tiladigan yo'lga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatiga ko'paytiriladi. Topilgan summa hisobot oyida akkumulyator qiymatining bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan qismini bildiradi.

Misol. *Aytaylik, qiymati 120000 so'mlik 2x2V-88 markali akkumulyator hisobot yilining 15 sentabrida ATVga o'rnatildi. Akkumulyatorning foydali xizmat muddati 80 ming km. Demak, 1 km bosib o'tiladigan masofa uchun akkumulyatorning hisobdan chiqariladigan qiymati o'rtacha 1,50 so'm (120000/80000)ni tashkil etadi. Hisobot yilining oylari bo'yicha ATV tomonidan bosib o'tilgan yo'l quyidagicha: sentabrda -4000 km; oktabrda -7500 km; noyabrda -8000 km; dekabrda -6000 km.*

Yuqoridagi shartli ma'lumotlarga ko'ra, akkumulyatorning hisobot yili oylari bo'yicha hisobdan chiqariladigan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan qiymatini quyidagicha hisob-kitob qilish mumkin (20.3-jadval).

20.3-jadval

Akkumulyator qiymatini hisobot yili oylari bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritish hisob-kitobi

Oylar	Bosib o'tilgan yo'l, km	Hisobdan chiqarish me'yori, so'm	Hisobdan chiqarish summasi, so'm	Buxgalteriya yozuvi	
				Debet	Kredit
Sentabr	4000	1,5	6000	2010	3190
Oktabr	7500	1,5	11250	2010	3190
Noyabr	8000	1,5	12000	2010	3190
Dekabr	6000	1,5	9000	2010	3190
Jami hisobot yilida			**38250**		

Foydali xizmat muddati belgilanmagan boshqa ehtiyot qismlar ATVlarga o'rnatilgan kuni tegishli dalolatnomalar (masalan, kapital yoki joriy ta'mirlash dalolatnomasi, o'rnatish dalolatnomasi) asosida dastlab yordamchi yoki umumishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga, keyin esa bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladi. Buxgalteriya hisobida ushbu operatsiyalar mos ravishda quyidagicha aks aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlar qiymatini yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritilishiga:

Debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari;

Kredit 1040 «Ehtiyot qismlar».

- yordamchi va umum ishlab chiqarish xarajatlarini bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilishiga:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

20.4. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga majburiy ajratmalar bo'yicha xarajatlarning hisobi

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga yuk tashish yoki yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan ATVlar haydovchilariga, yordamchi ishlab chiqarish va umum ishlab chiqarishga

bevosita aloqador xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasi, shuningdek mos ravishda hisoblangan mehnat haqi summasiga nisbatan belgilangan stavkalarda ijtimoiy sug'urtaga qilingan ajratmalar kiritiladi.

Avtotransport korxonalarida xodimlarga mehnat haqi ishbay va vaqtbay shakllarda, tarifli hamda tarifsiz tizimlarda hisoblanadi. Hisoblangan mehnat haqi asosiy hamda qo'shimcha mehnat haqlaridan tashkil topadi.

Asosiy mehnat haqiga ATVlar haydovchilariga, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish va umum ishlab chiqarishga bevosita aloqador xodimlarga haqiqatda bajargan ishi (ko'rsatgan xizmati) yoki ishlagan vaqti uchun hisoblangan mehnat haqi kiradi. Ushbu xodimlarga turli xizmatlari, unvonlari va toifalari uchun qo'shimcha haqlar, berilgan topshiriqni bajarganligi yoki oshirib bajarganligi, materiallarni tejab-tergab sarflanishiga erishganligi uchun hisoblangan mukofotlar, moddiy yordamlar, kompensasiyalar, vaqtinchalik mehnatga layoqasizligi uchun berilgan nafaqalar, mehnat ta'tili haqi hamda shu kabi boshqa to'lovlar qo'shimcha mehnat haqini tashkil etadi.

Ishbay shaklda ishlovchi xodimlarga asosiy ish haqini hisoblashga asos bo'lib ular bajargan ish (ko'rsatgan xizmat) hajmi, shuningdek bir birlik ish yoki xizmat uchun belgilangan tarif (rasenka) hisoblanadi. Chunonchi, yuk yoki yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan ATV haydovchilari uchun bajargan ish hajmi tashilgan yuk miqdori yoki tashilgan yo'lovchilar soni, yuk (yo'lovchi) aylanmasi, bosib o'tilgan masofa, naryadda bo'lgan vaqt miqdori kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlardan biri bo'yicha ifodalangan ish hajmi miqdorini bir birlik ish hajmi uchun belgilangan tarif (rasenka)ga ko'paytirish yo'li bilan haydovchilarning asosiy mehnat haqi topiladi. Bunda bajarilgan ish hajmini tasdiqlovchi asosiy hujjatlar yo'l varaqalari, tovar-transport nakladnoylari hisoblanadi.

Vaqtbay shaklda ishlovchi xodimlarga asosiy ish haqini hisoblashga asos bo'lib ularga avtotransport korxonasining tasdiqlangan shtat jadvali bo'yicha belgilangan maosh miqdori, shuningdek xodimlarning haqiqatda ishlagan vaqti hisoblanadi. Xodimlarning haqiqatda ishlagan vaqti miqdorini (kunlar yoki soatlarda) tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'lib «Ishga kelish hisobi tabeli» hisoblanadi. Belgilangan maoshni hisobot davridagi ish kunlari (soatlari) soniga bo'lish hamda topilgan summani xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (soatlari) miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan ularning asosiy mehnat haqi topiladi.

ATV haydovchilari, yordamchi va umumishlab chiqarishga bevosita aloqador barcha boshqa xodimlarning toifalari va razryadlari uchun to'lanadigan qo'shimchalar, shuningdek kechki (tungi) smenalarda, bayram hamda dam olish kunlarida ishlaganlik uchun qo'shimchalar, mukofotlar tuzilgan mehnat shartnomalarida belgilangan yoki transport korxonasi rahbari buyrug'i bilan tasdiqlangan me'yorlar asosida hisoblanadi. Mehnatga yaroqsiz kunlar uchun nafaqa, mehnat ta'tili haqi kabi qo'shimchalar xodimlarga umumbelgilangan tartiblarda mos ravishda tasdiqlovchi hujjatlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun ATV haydovchilariga hisoblangan asosiy va qo'shimcha mehnat haqlari summasiga hisob-to'lov qaydnomalari yoki mehnat haqi hisobi kitobi asosida quyidagicha buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 6710 «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar».

ATV haydovchilariga hisoblangan mehnat haqi summasiga nisbatan belgilangan stavkalarda ijtimoiy sug'urtaga qilingan majburiy ajratma summasiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish xodimlariga hisoblangan barcha turdagi mehnat haqi summalari buxgalteriya hisobida mos ravishda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari»;

Kredit 6710 «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar».

Mos ravishda ushbu xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasiga nisbatan belgilangan stavkalarda ijtimoiy sug'urtaga qilingan majburiy ajratma summasiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari.

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish xarajatlariga olib borilgan mehnat haqi hamda ijtimoiy sug'urtaga majburiy to'lovlarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilishiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;
Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;
2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxga kiritiladigan mehnatga haq to'lash xarajatlarining tahliliy hisobi avtotransport korxonalarining alohida olingan javobgarlik markazlari (garaj, ustaxona, AYOQSH, yuvish kompleksi va boshqalar) bo'yicha 10 jurnal-orderda olib boriladi.

20.5. Amortizatsiya xarajatlarining hisobi

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga bevosita ularning yuritilishiga aloqador bo'lgan asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya (eskirish) summalari kiritiladi. Ushbu aktivlarga amortizatsiya (eskirish) hisoblash respublikamizning 5-son BHMS «Asosiy vositalar» hamda 7-son BHMS «Nomoddiy aktivlar»da nazarda tutilgan usullarga, ya'ni bir maromda hisoblash usuli, bajarilgan ish hajmiga mutanosib hisoblash usuli, kumulyativ usul hamda kamayib boruvchi qoldiq qiymatdan hisoblash usuliga asosan amalga oshiriladi.

Quyida amortizatsiya (eskirish) hisoblash usullarini avtotransport korxonalarida qo'llashdagi xususiyatlarni, ularning afzalliklari va kamchiliklarini avtotransport vositalari misolida ko'rib chiqamiz.

Bir maromda amortizatsiya (eskirish) hisoblash usulini barcha turdagi avtotransport vositalariga qo'llash mumkin. Bu usulda avtotransport vositalarining yillik amortizatsiya summasi ularning amortizatsiyalanadigan qiymatini belgilangan yillik amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish, oylik amortizatsiya summasi esa yillik amortizatsiya summasini 12 ga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Misol. *Aytaylik, M-24.9 «O'zotoyo'l» avtobusining boshlang'ich qiymati 18000000 so'm. Tugatish qiymati 1-holatda 5 foiz miqdorida belgilangan, 2-holatda esa ko'zda tutilmagan. Yillik amortizatsiya me'yori – 15 foiz.*

Demak, ushbu avtobusning amortizatsiyalanadigan qiymati 1-holatda 17100000 so'mni (18000000- 18000000*5%), 2-holatda esa 18000000 so'mni tashkil etadi. Yillik amortizatsiya summasi 1-holatda 2565000 so'mni (17100000*15%), 2-holatda esa 2700000 so'mni (18000000*15%) tashkil qiladi. Oylik amortizatsiya summasi 1-holatda

213750 so'mdan (2565000/12), 2-holatda esa 225000 so'mdan (2700000/12) iborat bo'ladi.

Hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, bir maromda amortizatsiya (eskirish) hisoblash usuliga ko'ra avtotransport korxonasida avtobusning foydali xizmat muddati oxiriga kelib 1-holatda 17100000 so'mlik boshlang'ich qiymati to'liq tiklanadi, 900000 so'mlik qiymati tiklanmasdan qoladi. 2-holatda esa avtobusning boshlang'ich qiymati foydali xizmat muddati oxirida to'liq tiklanadi.

ATVlarga bir maromda amortizatsiya (eskirish) hisoblash usuli ayrim kamchiliklardan holi emas. Chunonchi, ushbu usulda amortizatsiya (eskirish) ATVlar haqiqatda ishlagan yoki ishlamaganligidan qat'i nazar hisoblanadi. Ishchi holatda bo'lmagan ATVlarga amortizatsiya (eskirish)ni bir maromda hisoblab borish avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini oshishiga olib keladi. Shu bois ham, bu usul faqat ATVlar foydali xizmat muddati mobaynida doimiy holda ishchi holatda ushlab turilganda tegishli samarani beradi.

Amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib hisoblash usulida avtotransport vositalari amortizatsiyasi (eskirishi) ularning bir birlik ish faoliyatiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yorini haqiqatda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Bunda bir birlik bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) sifatida turli ko'rsatkichlar, chunonchi 1 km, 1 soat, 1 tonna, 1 t/km, 1 kishi/km kabi ko'rsatkichlar olinishi mumkin. Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning ushbu birliklariga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yorlari quyidagicha topiladi:

- 1 km bosilgan masofaga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davrida bosib o'tilishi oldindan belgilangan jami masofa uzunligiga bo'lish yo'li bilan topiladi;
- 1 soatlik ish faoliyatiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davrida ish vaqtining oldindan belgilangan jami soniga bo'lish yo'li bilan topiladi;
- 1 tonna tashiladigan yuk hajmiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davrida tashiladigan yukning oldindan belgilangan jami hajmiga bo'lish yo'li bilan topiladi;

- 1 t/km yuk aylanmasiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davrida yuk aylanmasining oldindan belgilangan jami miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi;

- 1 kishi/km yo'lovchi aylanmasiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davrida yo'lovchi aylanmasining oldindan belgilangan jami miqdoriga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Ish faoliyati tashilgan yuk hajmiga qarab hisobga olinadigan avtotransport vositalari bo'yicha bajarilgan ish tannarxiga kiritiladigan amortizatsiya (eskirish) summasi hisobot davrida haqiqatda tashilgan yuk miqdorini 1 tonna tashiladigan yuk hajmiga to'g'ri keluvchi amortizatsiya (eskirish) me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Misol. *Aytaylik, yuk tashishga mo'ljallangan KamAz-55102 o'zi to'kgich (samosval)ning boshlang'ich qiymati 20000000 so'm. Tugatish qiymati 1-holatda 10 foiz, ya'ni 2000000 so'm belgilangan, 2-holatda esa u ko'zda tutilmagan. Ushbu ATV yordamida uning foydali xizmat muddatida (8 yil) tashiladigan yuk hajmi 100000 tonna miqdorida belgilangan. Hisobot oyida ATVda tashilgan yuk miqdori yo'l varaqalari va TTNlar bo'yicha 1000 tonna.*

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida KamAz-55102 o'zi tortgich (samosval) bo'yicha amortizatsiya quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

Birinchi holatda. (1) tashiladigan 1 tonna yukka to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori 180 so'm (18000000/100000); (2) hisobot davrida hisoblanadigan amortizatsiya summasi 180000 so'm (180*1000).

Ikkinchi holatda. (1) tashiladigan 1 tonna yukka to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yori 200 so'm (20000000/100000); (2) hisobot davrida hisoblanadigan amortizatsiya summasi 200000 so'm (200*1000).

ATVlarga amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib hisoblash usuli yuqorida keltirilgan tartibga o'xshash tarzda boshqa o'lchov birliklarida ifodalangan ish (xizmat)larga ham qo'llaniladi. Chunonchi:

- ish faoliyati bosib o'tilgan masofa uzunligi bilan o'lchanadigan ATVlar bo'yicha hisobot davrida tannarxga olib boriladigan amortizatsiya xarajatlari summasi yo'l varaqalari asosida topilgan jami bosib o'tilgan

yo'l uzunligini 1 km bosib o'tiladigan yo'lga to'g'ri keluvchi amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi;

- ish faoliyati naryadda bo'lgan vaqt bilan hisobga olinadigan ATVlar bo'yicha hisobot davrida tannarxga olib boriladigan amortizatsiya xarajatlari summasi yo'l varaqalari asosida topilgan jami naryadda bo'lgan vaqt miqdorini 1 soatlik ishga to'g'ri keladigan amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi;

- ish faoliyati yuk aylanmasi (t/km) hajmi bilan hisobga olinadigan ATVlar bo'yicha hisobot davrida tannarxga olib boriladigan amortizatsiya xarajatlari summasi yo'l varaqalari hamda TTNlar asosida topilgan jami yuk aylanmasi miqdorini 1 t/km yuk aylanmasiga to'g'ri keladigan amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi;

- ish faoliyati yo'lovchi aylanmasi (kishi/km) bilan hisobga olinadigan ATVlar bo'yicha hisobot davrida tannarxga olib boriladigan amortizatsiya xarajatlari summasi yo'l varaqalari hamda «ATV ish faoliyati hisobi kartochkasi» asosida topilgan jami yo'lovchi aylanmasi miqdorini 1 kishi/km yo'lovchi aylanmasiga to'g'ri keladigan amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Yuqorida keltirilgan tartibdan ko'rinib turibdiki, amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish hajmiga mutanosib hisoblash usulida amortizatsiya xarajatlari faqat ATVlar yordamida ma'lum ish bajarilganda vujudga keladi hamda ular mos ravishda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladi. Ish bajarmagan ATVlar bo'yicha ushbu usulga muvofiq amortizatsiya (eskirish) hisoblanmaydi. Bunday tartib bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini, shuningdek mos ravishda moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini aniq hisob-kitob qilishga imkon beradi. Bundan tashqari amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish hajmiga mutanosib hisoblash usuli ATVlarni foydali xizmat muddati mobaynida doimiy holda ishchi holatda ushlab turishga, ularning texnik-ekspluatasion imkoniyatlaridan samarali foydalanishga undaydi.

ATVlarga amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib hisoblash usuli ham ayrim kamchiliklardan holi emas. Chunonchi, ushbu usul bo'yicha amortizatsiya (eskirish) hisoblashda ATVlarning zarurat yuzasidan joriy va kapital ta'mirlashda bo'lishi, shuningdek ularning vaqt o'tishi bilan ma'naviy eskirishi e'tibordan chetda qoladi. Bundan tashqari, daromad (foyda) solig'i to'lovchi

avtotransport korxonalarida amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib hisoblash tartibi respublikamizning Soliq kodeksida nazarda tutilgan me'yorlardan ortiq yoki kam hisoblangan eskirish summalarini ushbu soliq bazasiga qo'shish yoki undan chegirishga doir qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish talabini qo'yadi.

Amortizatsiya (eskirish) hisoblashning kumulyativ usulida ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan amortizatsiya xarajatlari quyidagicha hisob-kitob qilinadi. Dastlab, ATVning foydali xizmat muddati yillari sonlarining yig'indisi topib olinadi. So'ngra, har bir xizmat yili soni jami xizmat yillari sonlarining yig'indisiga nisbat (proporsiya) qilib olinadi. Ushbu nisbat (proporsiya) amortizatsiya me'yori hisoblanadi. Faqat ushbu nisbat (proporsiya) qo'llanishda teskari holda ishlatiladi. Hisobot yilida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tannarxiga kiritiladigan amortizatsiya (eskirish) summasi amortizatsiya me'yori sifatida belgilangan nisbat (proporsiya)ni ATVning amortizatsiyalanadigan qiymatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

Misol. *Aytaylik, taksi sifatida ishlatilayotgan «Matiz» avtomashinasining boshlang'ich qiymati 7500000 so'm. Tugatish qiymati 1-holatda 500000 so'm belgilangan, 2-holatda esa u ko'zda tutilmagan. «Matiz» avtomobilining foydali xizmat muddati 5 yil. Xizmat yillari sonlari yig'indisi 15 (1+2+3+4+5), mos ravishda amortizatsiya hisoblashda me'yor sifatida olingan sonlar nisbati: 1-yil uchun 5/15; 2-yil uchun 4/15, 3-yil uchun 3/15, 4-yil uchun 2/15 va 5-yil uchun 1/15.*

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida taksi sifatida ishlatilayotgan «Matiz» bo'yicha amortizatsiya quyidagicha hisob-kitob qilinadi.

Birinchi holatda. 1-yil uchun 2333333 so'm (7000000*5/15); 2-yil uchun 1866667 so'm (7000000*4/15), 3-yil uchun 1400000 so'm (7000000*3/15), 4-yil uchun 933333 so'm (7000000*2/15), va 5-yil uchun 466667 so'm (7000000*1/15).

Ikkinchi holatda. 1-yil uchun 2500000 so'm (7500000*5/15; 2-yil uchun 2000000 so'm (7500000*4/15), 3-yil uchun 1500000 so'm (7500000*3/15), 4-yil uchun 1000000 so'm (7500000*2/15) va 5-yil uchun 500000 so'm (7500000*1/15).

Kumulyativ usulda hisobot oylari bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tannarxiga kiritiladigan ATVlarning amortizatsiya (eskirish) summasi yillik amortizatsiya summasini 12 ga bo'lish orqali aniqlanadi.

Ko'rinib turibdiki, kumulyativ usul yuqorida keltirilgan ikkita usuldan farqli o'laroq ATVlarni tezlashtirilgan holda amortizatsiya qilinishiga olib keladi. Bu, bir tomondan ATVlar ma'naviy eskirishining oldini oladi, ikkinchi tomondan esa, ularning texnik-ekspluatasion imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni obyektiv zarurat qilib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq daromad (foyda) solig'i to'lovchi avtotransport korxonalarida ATVlarga kumulyativ usul bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi bir maromda hisoblash usulida hisoblangan eskirish summasidan katta bo'lsa, u holda o'rtadagi farq summasi daromad (foyda) solig'i bazasiga qayta qo'shiladi.

Kumulyativ usulning kamchiliklaridan biri shundaki, u bir maromda hisoblash usuli singari ATVlar amortizatsiyasi (eskirishi)ni hisobot davrlarida haqiqatda keltirgan daromadiga mos holda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilishiga imkon bermaydi.

Amortizatsiya (eskirish)ni qoldiq qiymatdan hisoblash usuli ham tezlashtirilgan usulga kiradi. Ushbu usulda avtotransport vositalarining amortizatsiyalanadigan qiymati bo'lib ularning boshlang'ich qiymati hisoblanadi. Amortizatsiya (eskirish) me'yori ATVlarning Soliq kodeksida ko'zda tutilgan me'yorini belgilangan koeffitsiyentga ko'paytirgandan keyin topilgan miqdorda qo'llaniladi. Masalan, Soliq kodeksiga muvofiq yillik amortizatsiya me'yori 20 foiz bo'lgan ATV bo'yicha avtotransport korxonasi hisob siyosatida o'rnatilgan me'yorga nisbatan 1,5 koeffitsiyent qo'llanilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda ushbu ATVning yillik amortizatsiya me'yori 30 foizni (20*1,5), agar bu koeffitsiyent 2 bo'lsa, u holda yillik amortizatsiya me'yori 40 foizni (20*2) tashkil etadi. Yillik amortizatsiya me'yorining 1/12 qismi oylik amortizatsiya me'yori hisoblanadi.

Amortizatsiya (eskirish)ni qoldiq qiymatdan hisoblash usulida amortizatsiya (eskirish) summasi ATV sotib olingan oydan keyingi oydan boshlab boshlang'ich qiymatdan, undan keyingi oylardan boshlab esa oldingi oylar oxiriga qolgan qoldiq qiymatdan hisoblanadi.

Misol. *Aytaylik, avtotransport korxonasi 15 sentabr kuni taksi sifatida ishlatish maqsadida 10 dona «Volga 31105» rusumli avtomobillarni sotib oldi. Ular har birining boshlang'ich qiymati 15000000 so'm. Korxona hisob siyosatida ATVlarning tugatish qiymati nazarda tutilmagan. ATVlarning xizmat muddati 5 yil, yillik amortizatsiya me'yori 20 %. Korxona yillik amortizatsiya me'yorini*

1,5 baravar, ya'ni 30 foiz miqdorida qo'llash tartibini belgilagan. Demak, ATVlar bo'yicha oylik amortizatsiya me'yori 2,5 foiz (30/12).

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida avtotransport korxonasida ushbu avtomobillar amortizatsiyasi ular sotib olingan hisobot yilida kamayib boruvchi qoldiq usulida quyidagicha hisob-kitob qilinadi (20.4-jadval).

20.4-jadval

Kamayib boruvchi qoldiq usulida avtotransport vositalariga hisoblanadigan amortizatsiya (eskirish) summasining hisobot oylari bo'yicha hisob-kitobi

Oylar	Amortizatsiya-lanadigan qiymat	Oylik amortizatsiya me'yori, %	Oylik amortizatsiya summasi	Jamlangan amortizatsiya summasi	Qoldiq qiymat
Oktabr	15000000	2,5	375000	375000	14625000
Noyabr	14625000	2,5	365625	740625	14259375
Dekabr	14259375	2,5	356484	1097109	13902891

Amortizatsiya (eskirish)ni kamayib boruvchi qoldiqdan hisoblash usulini tugatish qiymati ko'zda tutilgan ATVlarga ham qo'llash mumkin. Bunda, ko'zda tutilgan tugatish qiymatiga amortizatsiya hisoblanmaydi. Ushbu summa ATVning amortizatsiyalanadigan davr oxirida qoldiq qiymat sifatida qoladi.

ATVlar bo'yicha amortizatsiya summasini ularning kamayib boruvchi qoldiq qiymatidan hisob-kitob qilish avtotransport korxonalarida dastlabki yillarda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini keskin oshishiga, keyingi yillarda esa uni kamayib borishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, avtotransport korxonalari oldiga dastlabki yillarda ATVlardan maksimum darajada samarali foydalanishni, ular yordamida ko'proq ish bajarish (xizmat ko'rsatish)ni, mos ravishda ko'proq daromad olishni ta'minlashdek muhim vazifalarni qo'yadi.

ATVlarga amortizatsiya (eskirish) hisoblash barcha usullarda amortizatsiyalanadigan qiymat miqdoriga yetgan hisobot davrida to'xtatiladi. Ushbu davrdan keyin ishga yaroqli ATVlar amortizatsiya hisoblanmasdan foydalaniladi.

Avtotransport korxonalarida yuk tashish yoki yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan ATVlarga hisoblangan amortizatsiya (eskirish) summasiga har oyda quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

Kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi».

Yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarishga doir amortizatsiya (eskirish) xarajatlari buxgalteriya hisobida mos ravishda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;
2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari.
Kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi».
Mos ravishda ushbu xarajatlarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilishiga quyidagi yozuv beriladi:
Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;
Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;
2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».
Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan amortizatsiya xarajatlarining tahliliy hisobi 13-jurnal–orderda, shuningdek asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarga ochilgan inventar kartochkalarda yuritiladi.

20.6. Avtotransport korxonalarida boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va taqsimoti

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan boshqa ishlab chiqarish xarajatlari asosan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va umumishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga avtotransport korxonalarida quyidagi bo'linmalarning xarajatlari kiritiladi:

(1) ATVlarga o'rnatiladigan turli detallar, konstruksiya va moslamalarini tayyorlash ustaxonalari;

(2) ATVlar saqlanadigan garaj xo'jaligi;

(3) ATVlarni yoqilg'i va moylash materiallari bilan ta'minlash bo'linmalari;

(4) ATVlarni ta'mirlash bo'linmalari;

(5) ATVlarni yuvish va profilaktika qilish bo'linmalari;

(Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyatiga doir xarajatlar hisobi 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotida olib boriladi. Ushbu schotning debetida yordamchi ishlab chiqarishga ketgan material, ish haqi, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya, turli xizmatlar va boshqa sarf-xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi. Bunda mos ravishdagi xarajat moddalarini aks ettiruvchi schotlar (masalan, (1000, 6710, 6520, 0200, 6000, 6990 va boshqalar) kreditlanadi. 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotining kreditida yordamchi ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning hisobdan chiqarilishi, ya'ni ushbu schotning yopilishi aks ettiriladi.

Avtotransport korxonalarida 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schotining yopilishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

(1)yordamchi ishlab chiqarishdan olingan turli detallar, konstruksiyalar, moslamalar, xo'jalik jihozlari qiymatiga:

Debet 1000 «Materiallar»;

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

(2) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining kapital investisiya sifatida tan olingan summasiga:

Debet 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar»;

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

(3) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilgan summasiga:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»

(4) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining davr xarajatlari hisobi schotlariga o'tkazilgan qismiga:

Debet 9400 «Davr xarajatlarini hisobga olib boruvchi schotlar»

Kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va ular taqsimotining tahliliy hisobi avtotransport korxonalari yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'linmalari bo'yicha 10 jurnal-orderda yuritiladi.

Avtotransport korxonalarida umumishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan xarajatlar hisobi 2500 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotida yuritiladi. Ushbu schotda quyidagi xarajatlar aks ettiriladi:

a) ombor xo'jaliklarini saqlash hamda ularni ekspluatasiya qilish xarajatlari;

b) ishlab chiqarish maqsadidagi mol-mulkni sug'urtalash xarajatlari;

v) ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish va saqlash xarajatlari;

g) ATVlar yordamida ish (xizmat)larni yurituvchi xodimlarga maishiy, tibbiy, sanitariya-gigiyena, ovqatlanishni tashkil qilish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish bo'linmalari.

d) ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga olish xarajatlari;

e) umumishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga hisoblangan mehnat haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

j) umumishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Hisobot oyi mobaynida 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotining debetida va mos ravishdagi boshqa schotlarning kreditida nomlari yuqorida zikr etilgan xarajat moddalari bo'yicha ma'lumotlar jamlanadi. Oy oxirida ushbu schotning debetida to'plangan xarajatlar avtotransport korxonasi hisob siyosatida keltirilgan tartibga muvofiq asosiy ishlab chiqarish (2010 schot), yordamchi ishlab chiqarish (2310 schot) hamda davr xarajatlari (9400 schot)ga taqsimlanadi.

Avtotransport korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining tahliliy hisobi umumishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'linmalari bo'yicha 10 jurnal-orderda yuritiladi.

20.7. Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi

Avtotransport korxonalarida ularning ixtisoslashganligiga ko'ra har bir mashina tomonidan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)larning rejali yoki normativ tannarxi oldindan kalkulyatsiya qilinadi. Bunda kalkulyatsiya qilish birligi sifatida turli ko'rsatkichlar, masalan 1 tonna tashiladigan yuk, 1 km bosib o'tiladigan masofa yoki ATVning 1 soatlik ish faoliyati olinadi. Reja yoki normativ tannarxni kalkulyatsiya qilish, odatda, bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)larning avtotransport korxonasi uchun qanchaga tushishini, shuningdek erishiladigan moliyaviy natijalarni oldindan chamalash maqsadida amalga oshiriladi.

Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi hisobot davrlari (oy, chorak, yil) oxirida 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotining ma'lumotlari, shuningdek ATVlarning ish faoliyati hisobi kartochkalari asosida hisob-kitob qilinadi. Bunda, jami sarflangan xarajatlarni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga bo'lish yo'li bilan ularning bir birligiga to'g'ri keladigan summasi, ya'ni tannarxi topiladi. Bir birlik ish (xizmat)ga to'g'ri keladigan haqiqiy tannarx hamda reja (normativ) tannarx o'rtasidagi farq avtotransport korxonasida xarajatlar bo'yicha belgilangan me'yorlarga qanchalik darajada amal qilinayotganligiga baho berishga asos bo'ladi.

Reja yoki me'yoriy tannarx ATVlarning har bir turi bo'yicha maxsus kalkulyatsiya kartochkalarini tuzish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi. Ushbu kalkulyatsiya kartochkalarida tannarxga kiruvchi xarajatlarning moddalari, ularning bir birlik ish (xizmat) uchun belgilangan miqdorlari (me'yorlari), ular asosida topilgan jami tannarx summasi o'z aksini topadi. Kalkulyatsiya kartochkalari avtotransport korxonasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Ular ATVlar yordamida ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha buyurtmachilar bilan shartnomalar tuzishda shartnoma qiymatini belgilashga xizmat qiladi.

ATVlar yordamida bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda shartnoma baholarini aniqlash tartibi ko'rgazmali tarzda 20.5-jadvalda yuk tashishga mo'ljallangan ATV bo'yicha, 20.6-jadvalda esa yo'lovchi tashishga mo'ljallangan ATVlar bo'yicha keltirilgan.

ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi turli usullarda kalkulyatsiya qilinishi mumkin. Amaliyotda eng keng tarqalgan usullar yaxlit hamda buyurtmali usullar hisoblanadi.

Yaxlit usulda ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi yaxlit tarzda avtotransport korxonasi bo'yicha bosh kitobda ochilgan 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti ma'lumotlari asosida topiladi. Ushbu schotning debetida alohida korrespondensiyalanuvchi schotlar bo'yicha to'plangan yig'ma ma'lumotlar bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxini bildiradi. Hisobot oyi oxirida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9130 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi»;

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish».

Yaxlit usulda 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotining debetida alohida korrespondensiyalanadigan schotlar bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar avtotransport korxonasi bo'yicha «Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi to'g'risida hisobot»ni tuzishga asos bo'ladi. Ushbu hisobotda har bir xarajat moddasi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni tasdiqlangan reja (normativ) tannarx ma'lumotlari bilan taqqoslash bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larni to'g'ri rejalashtirilganligi yoki ular bo'yicha normativlarning to'g'ri belgilanganligiga baho berishga, reja yoki normativlardan chetlanishlarning sabablari, aybdorlari va boshqa jihatlarini aniqlashga, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi.

Buyurtmali usulda buyurtmachilar uchun ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxi ularning har biri bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Bunday hisob-kitob har bir buyurtmachi bo'yicha 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schoti qoshida ochilgan tahliliy schotlarda to'plangan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

20.5-jadval

Yuk tashish transportida bajariladigan ish(ko'rsatiladigan xizmat) reja tannarxi hamda shartnoma baholarining hisob-kitobi

ATV markasi – GAZ-53.
Yuk ko'tarish me'yori – 5 tonna.
Yoqilg'i turi – suyultirilgan gaz.
Kalkulyatsiya birligi - 1 soatlik ish.
ATVning ish vaqti - 8 soat.
Bosib o'tiladigan yo'l -120 km.

№	Xarajat moddalari	Summa
1.	Mehnat haqi b) tarif bo'yicha (8×100,46) b) mashinani ishga tayyorlash (23×1,67) v) toifa uchun, 25 % g) mukofot, 40 % d) boshqa qo'shimchalar, 9 %	803,68 38,41 200,92 417,20 131,41
	Jami ish haqi xarajatlari	1591,62
2.	Ijtimoiy sug'urtaga ajratma (24 %)	382,0
3.	Yoqilg'i (27×120/100×241,37)	7820,38
4.	Moylash materiallari (872,89×1,09×1,2×0,324)	369,92
5.	Avtoshina eskirishi (151250×6×120/(1000×1,17)/(100×1,1))	846,15
6.	Ta'mirlash fondiga ajratma (120×28,60)	3432,0
7.	Amortizatsiya	3844
8.	Gidrovlika suyuqligi (15×0,87×1,5×2×95,49×8)	23,93
9.	Boshqa xarajatlar (jami xarajatdan 15%)	2746,50
10.	Jami ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx)	21056,5
11.	Davr xarajatlari (tannarxdan 25%)	5264,12
12.	Jami xarajatlar	26320,62
13.	Rentabellik (jami xarajatlardan 20%)	5264,12
14.	Jami xizmat qiymati (QQSsiz)	31584,74
15.	1 soatlik ishning: -tannarxi -sotish qiymati (QQSsiz)	 2632,06 3948,09

20.6-jadval

Yo'lovchi tashish transportida bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat) tannarxi hamda shartnoma baholarining hisob-kitobi

Kalkulyatsiya birligi - 1 soatlik ish.

ATVning ish vaqti -8 soat.

Bosib o'tiladigan yo'l -150 km.

№	Xarajat moddasi	LAZ- 695 (benzin)	LAZ- 695 (gaz)	M 24.9 (dizel)
1.	Haydovchining ish haqi	2284,80	2284.80	2450
2.	Ijtimoiy sug'urtaga ajratma	548.35	548.35	588
3.	Yoqilg'i summasi: a) 150 km ga xarajat, litr b) 1 litr yoqilg'ining qiymati, so'm	25277 61,5 411	15312 63.8 240	6968 24 290,33
4.	Moylash materiallari	458	258	209
5.	Avtoshinalarning eskirishi	2192	2192	2054
6.	Amortizatsiya	-	-	17098
7.	Boshqa xarajatlar a) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari b) boshqa xarajatlar	14520 10120 4400	11088 7728 3360	20196 14076 6120
8.	Jami ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx)	45280,15	31683,15	49563
10.	Davr xarajatlari	11320	7920	12390
11.	Jami xarajatlar	56600,15	39603,15	61953
12.	Foyda (20 %)	11320	7920	12390
13.	Jami sotish qiymati (QQSsiz)	67920,15	47523,15	74343
14.	1 soatning: a) tannarxi b) sotish bahosi (QQSsiz)	5660 8490	3960 5940	6195 9293

Tayanch iboralar

ATV yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxi – ATVlar yordamida yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan jami xarajatlar.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari - ATVlar yordamida yuk tashish yoki yo'lovchi tashish bo'yicha bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) uchun ketgan sarf-xarajatlar

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari - avtotransport korxonalarining ta'mirlash ustaxonalari, turli agregatlar va moslamalarni yasash sexlari, ATVlarni yuvish kompleksi, dispetcherlik bo'limi, garaj, AYOQSH va boshqa yordamchi xo'jaliklarga ketgan xarajatlar.

Umumishlab chiqarish xarajatlari - gaz, suv, elektr quvvati va bug' bilan ta'minlash, ATVlarni qo'riqlash, xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'linmalarining xarajatlari.

Yoqilg'ining me'yoriy sarfi – yoqilg'ining yilning mavsumiga qarab ATV bosib o'tgan yo'li, tashigan yuki, tirkamasi, isitilishi, yo'lga chiqqanicha qizitilishini hisobga olgan holda maxsus hisob-kitob asosida aniqlangan me'yoriy sarfi.

Yoqilg'ining haqiqiy sarfi - – yoqilg'ining yilning mavsumiga qarab ATV bosib o'tgan yo'li, tashigan yuki, tirkamasi, isitilishi, yo'lga chiqqanicha qizitilishini hisobga olgan holda maxsus hisob-kitob asosida aniqlangan haqiqiy miqdori.

Avtoshinaning hisobdan chiqariladigan summasi - ATV tomonidan bosib o'tilgan masofani 1 km bosib o'tilgan masofaga to'g'ri keladigan summaga (me'yorga) ko'paytirish orqali o'rnatilgan avtoshinalarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan summasi.

Akkumulyatorning hisobdan chiqariladigan summasi - ATV tomonidan bosib o'tilgan yo'l uzunligini akkumulyatorning 1 km bosib o'tiladigan yo'lga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatiga ko'paytirish orqali akkumulyator qiymatining bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan summasi.

Haydovchilar mehnat haqi xarajatlari – haydovchilar tomonidan bajarilgan ish hajmi miqdorini bir birlik ish hajmi uchun belgilangan tarif (rasenka)ga ko'paytirish yo'li bilan topiladigan summa.

Bir maromda amortizatsiya (eskirish) hisoblash usuli – ularning yillik amortizatsiya summasini amortizatsiyalanadigan qiymatni belgilangan yillik amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish, oylik amortizatsiya summasi esa yillik amortizatsiya summasini 12 ga bo'lish orqali topish usuli.

Amortizatsiya (eskirish)ni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib hisoblash usuli - avtotransport vositalari amortizatsiyasi (eskirishi) summasini ularning bir birlik ish faoliyatiga to'g'ri keladigan amortizatsiya (eskirish) me'yorini haqiqatda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga ko'paytirish orqali topish usuli.

Avtotransport sohasida tannarxni kalkulyatsiya qilish birligi - 1 tonna tashiladigan yuk, 1 km bosib o'tiladigan masofa, 1 soatlik ish faoliyati, 1 t/km.

Tannarx kalkulyatsiyasining yaxlit usuli - ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxini yaxlit tarzda avtotransport korxonasi bo'yicha hisob-kitob qilish usuli.

Tannarx kalkulyatsiyasining buyurtmali usuli - ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxini har bir buyurtma bo'yicha hisob-kitob qilish usuli.

Nazorat uchun test savol-javoblari

1. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlariga kiradi:

a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlari;
b) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari;
v) umumishlab chiqarish xarajatlari;
g) yuqoridagilarning barchasi.

2. Avtotransport korxonasida bilvosita xarajatlarga kiradi:

a) yoqilg'i sarfi;
b) ehtiyot qismlar sarfi;
v) elektr quvvati sarfi;
g) haydovchilarga hisoblangan mehnat haqi.

3. Avtotransport vositalariga sarflangan yoqilg'i hisobdan chiqariladi:

a) belgilangan me'yorlar asosida;
b) haqiqatda sarflangan yoqilg'i miqdorida;
v) rahbar ijozat bergan miqdorda;
g) dispetcher ijozat bergan miqdorda.

4. Yoqilg'ining me'yoriy sarfi belgilanadi:

a) ATVning turi bo'yicha;
b) hamma ATV bo'yicha bir xilda;
v) rahbar xohishiga ko'ra;
g) yuqoridagi shartlarning biri bo'yicha.

5. Avtotransport korxonalarida yuk tashish mashinalariga hisoblangan 15000000 so'mlik amortizatsiya ajratmalariga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Debet 2010 Kredit 0260 1500000 so'm;

b) Debet 3190 Kredit 0260 1500000 so'm;
v) Debet 9420 Kredit 0260 1500000 so'm;
g) Debet 2310 Kredit 0260 1500000 so'm.

6. Avtotransport korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari summasi hisobot yilida 15526000 so'mni tashkil etdi, bu xarajatlarning bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritilishiga buxgalteriya yozuvini bering.

a) Dt 3190 Kt 2310 15526000 so'm;
b) Dt 9420 Kt 2310 15526000 so'm;
v) Dt 2010 Kt 2310 15526000 so'm;
g) Dt 9130 Kt 2310 15526000 so'm.

1-xo'jalik holati

Transport korxonasida 12 ta ZiL, 14 ta KamAZ, 10 ta KrAZ, 1 ta Damas, 1 ta Tiko va 1 ta Neksiya mavjud. Hisobot yilida ZiL mashinalari jami 400000 km, KamAZlar 300000 km, KraZlar 200000 km, Damas 10000 km, Tiko 5000 km, Neksiya 15000 km yo'l bosgan.

Barcha yuk tashish mashinalari suyultirilgan gazda, yengil avtomobillar esa benzinda yuradi. Har 100 km yo'lga gaz sarfi yuk mashinalari bo'yicha o'rtacha 17 kg, 1 kg gazning o'rtacha narxi 300 so'm. Har 100 km yo'lga Tiko 6 litr, Damas 7 litr va Neksiya 8 litr sarflaydi. 1 litr benzinning o'rtacha narxi 550 so'm (yengil avtomobillarning barchasi yordamchi ishlab chiqarishga xizmat qiladi).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, quyidagi savollarga javoblarni toping.

1. Hisobot yilida yuk tashish tannarxiga kiritiladigan suyuqlashtirilgan gaz xarajatlari summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Dt 2010 Kt 1050 30000000 so'm;
b) Dt 3190 Kt 1050 32000000 so'm;
v) Dt 2010 Kt 1050 33000000 so'm;
g) Dt 2010 Kt 1050 35000000 so'm.

2. Hisobot yilida yengil avtomobillarga sarflangan benzin qiymati qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Dt 2010 Kt 1050 1365000 so'm;
b) Dt 3190 Kt 1050 2235000 so'm;
v) Dt 9420 Kt 1050 1182500 so'm;
g) Dt 2310 Kt 1050 1182500 so'm.

2-xo'jalik holati

2-yanvar kuni 4 ta akkumulyator har birining qiymati 60000 so'mdan yuk tashish avtotransport vositalariga qo'yildi. Xizmat muddati – 2 yil. Shulardan bittasi oktabr oyi oxirida yaroqsiz deb topildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1. ATVlarga 2-yanvar kuni qo'yilgan akkumulyatorlarning qiymati qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi qilinadi?

a) Dt 2010 Kt 1040 240000 so'm;
b) Dt 3190 Kt 1040 180000 so'm;
v) Dt 3190 Kt 1040 240000 so'm;
g) Dt 9420 Kt 1040 60000 so'm.

2. Har oyda akkumulyatorlarning hisobdan chiqariladigan summasi qancha?

a) 7500 so'm;
b) 60000 so'm;
v) 10000 so'm;
g) 2500 so'm.

3. Hisobot yilida akkumulyatorlarning hisobdan chiqariladigan summasini qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi qilinadi?

a) Dt 2010 Kt 1040 125000 so'm;
b) Dt 2010 Kt 3190 115000 so'm;
v) Dt 2010 Kt 3190 114000 so'm;
g) Dt 9420 Kt 1040 112500 so'm.

4. Oktabr oyi oxirida yaroqsiz deb topilgan akkumulyatorning qoldiq summasini toping:

a) 12500 so'm;
b) 35000 so'm;
v) 25000 so'm;
g) 45000 so'm.

5. Yaroqsiz deb topilgan akkumulyatorning qoldiq qiymati korxona xarajatlariga olib borilganda, qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Dt 4730 Kt 1040 35000 so'm;
b) Dt 9430 Kt 3190 35000 so'm;
v) Dt 2010 Kt 5910 35000 so'm;
g) Dt 2310 Kt 2010 35000 so'm.

3-xo'jalik holati

Avtotransport korxonalarida yuk tashish mashinalari haydovchilari ish vaqti tartib bo'yicha o'rtacha 8 soat, 1 soatlik o'rtacha tarif 400 so'm, jami ish kuni 255 kun, haydovchilar soni – 42 kishi. Ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma – 24 %.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javobni toping.

1. Hisobot yilida hisoblangan ish haqi summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Dt 2010 Kt 6710 32272000;
b) Dt 3190 Kt 6710 35272000;
v) Dt 9420 Kt 6710 33272000;
g) Dt 2010 Kt 6710 34272000.

2. Hisobot yilida yuk tashish mashinalari haydovchilari ish haqiga nisbatan ijtimoiy sug'urtaga 24 foizlik ajratma summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) Dt 2010 Kt 6520 8125280;
b) Dt 3190 Kt 6520 8215280;
v) Dt 9420 Kt 6520 8235280;
g) Dt 2010 Kt 6520 8225280.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. —T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002-yil 23- oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

6. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: Moliya, 2002.

7. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

21-bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR KO'RSATKICHLARINING HISOBI

21.1. Avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari hisobi

Avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar sotishdan olingan sof tushum, sotish tannarxi, sotishdan olingan foyda yoki zarar, davr xarajatlari, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisobga olishda avtotransport korxonalari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar singari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ga, shuningdek respublikamizning 1-son "Moliyaviy hisobot va hisob siyosati», 2-son BHMS «Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar», 3-son BHMS «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» va 21- son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga amal qilishlari lozim.

Avtotransport korxonalarida sotishdan olingan sof tushum deganda ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlar tushuniladi. Hisobot davri (oy, chorak, yil) davomida sotishdan olingan sof tushum 9030 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan daromadlar» schotining kreditida aks ettiriladi. Hisobot davr oxirida ushbu schotning kreditida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Avtotransport korxonalarida sotish tannarxi deganda ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan barcha ishlab chiqarish maqsadidagi sarf-xarajatlar tushuniladi. Ushbu ko'rsatkichning hisobi hisobot davri (oy, chorak, yil) davomida 9130 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schotida yuritiladi. Hisobot davr oxirida ushbu schotning debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Sotishdan olingan foyda yoki zarar. ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan sof tushum hamda ularning sotish

tannarxi summalarining farqidan tashkil topadi. Sof tushumning sotish tannarxidan ko'p bo'lishi avtotransport korxonasining bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan foyda olganligini, aksincha sof tushumning sotish tannarxidan kam bo'lishi esa avtotransport korxonasining bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan zarar ko'rganligini bildiradi. Buxgalteriya hisobida sotishdan olingan foyda yoki zarar summasi 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti ma'lumotlari asosida arifmetik yo'l bilan topiladi.

Avtotransport korxonalarida davr xarajatlari deganda ular tomonidan bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larni sotish, ma'muriy-boshqarish va boshqa operasion faoliyatga doir xarajatlar tushuniladi. Ushbu xarajatlarning hisobi mos ravishda 9410 «Sotish xarajatlari», 9420 «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari», 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» va 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotlarida olib boriladi.

Avtotransport korxonalarida sotish xarajatlariga reklama xarajatlari, ish va xizmatlarni bajarish bo'yicha shartnomalarni tuzish xarajatlari, sotish bilan bog'liq safar xarajatlari va boshqalar kiradi. Sotish xarajatlari 9410 «Sotish xarajatlari» schotining debetida va bu xarajatlarning aniq turini ifodalovchi boshqa schotlarning (masalan, 100,0, 5010, 5110, 6710, 6520, 6990 va shu kabilar) kreditida aks ettiriladi. Hisobot davri oxirida ushbu schotning debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Avtotransport korxonalarining ma'muriy-boshqaruv xarajatlariga boshqaruv apparati xodimlariga hisoblangan ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, safar xarajatlari, yuqori tashkilotni saqlash uchun ajratmalar, telefon aloqasi, kanselyariya jihozlarini hisobdan chiqarish va boshqa shu kabi boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari 9420 «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari» schotining debetida va aniq xarajatlarni ifodalovchi boshqa schotlarning (0200, 0500, 1000, 5010, 5110, 6710, 6520, 6990) kreditida aks ettiriladi. Hisobot davr oxirida ushbu schotning debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Avtotransport korxonalarida boshqa operasion xarajatlarga xodimlarga ko'rsatilgan moddiy yordamlar, kompensasiya to'lovlari, turli otaliq va hayriya maqsadlarida qilingan xarajatlar, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv

solig'i, pensiya fondiga, yo'l fondiga, maktablarni rivojlantirish fondiga majburiy ajratmalar, mulkni sotishdan va berishdan ko'rilgan zararlar va boshqa shu kabi operasion xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlar 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» schotining debetida aks ettiriladi. Bunda operasion xarajatlarning aniq moddalarini ifodalovchi boshqa schotlar (1000, 5010, 5110, 6400, 6710, 6520, 6990, 9210, 9220) kreditlanadi. Hisobot davr oxirida ushbu schotning debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Avtotransport korxonalarida 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotining debetida ularning kelgusida faoliyatni rivojlantirish maqsadida sarflagan xarajatlari, chunonchi yangi ishlab chiqarishni va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga, boshqaruv tizimini yaxshilashga sarflangan va boshqa shu kabi operasion xarajatlar aks ettiriladi. Bu turdagi xarajatlar respublikamizning soliq qonunchiligiga ko'ra kelgusi 10 yil ichida bir maromda soliq bazasidan maxsus hisob-kitob asosida chiqarib boriladi. Kelgusida soliq bazasidan chegirib boriladigan xarajatlar bu schotning debetida va boshqa schotlarning (masalan, 1000, 5110, 5010, 6010, 6710, 6520, 6990 va shu kabilar) kreditida aks ettiriladi. Hisobot davr oxirida ushbu schotning debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan u yopiladi.

Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlarini o'zgarishi avtotransport korxonalarida boshqa yuridik shaxslardagi kabi balansdan tashqari 012 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari» schotida belgilangan muddatda ko'rsatib borilishi lozim.

Avtotransport korxonalarining **asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlariga** quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalarni sotish va boshqa chiqimlaridan olingan foyda;
- nomoddiy aktivlar, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- undirilgan jarimalar;
- voz kechilgan kreditorlik qarzlar;
- qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar;
- beg'araz olingan moliyaviy yordam;
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olingan daromadlar;
- inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillarning foydasi va boshqalar.

21-son BHMSga muvofiq avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarning kreditida aks ettiriladi. Bunda asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning aniq turlarini ifodalovchi schotlar, chunonchi, 1000, 5010, 5110, 6400, 6710, 6520, 6990, 9210, 9220 va boshqalar debetlanadi. Hisobot davr oxirida 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarning kreditida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan ular yopiladi.

Avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) sotishdan olingan foyda (zarar) summasiga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar summasini qo'shish hamda davr xarajatlari summasini ayirishdan keyin hosil bo'lgan summadan tashkil topadi. Buxgalteriya hisobida asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar summasi 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti ma'lumotlari asosida arifmetik yo'l bilan topiladi.

21.2. Avtotransport korxonalarida umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalarning hisobi

Avtotransport korxonalari, oldingi mavzularda ta'kidlab o'tganimizdek, asosiy faoliyatdan tashqari boshqa asosiy bo'lmagan faoliyat turlari bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Bunday faoliyat turlariga, jumladan ularning investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyati, emissiya faoliyati va boshqalar kiradi. Ushbu faoliyat turlari bo'yicha erishilgan moliyaviy natijalar ham mos ravishda ularga doir daromad, xarajat hamda foyda yoki zarar ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bu ko'rsatkichlar bilan birgalikda topilgan moliyaviy natijalar avtotransport korxonalarining umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalarini ifodalaydi.

Avtotransport korxonalarida umumxo'jalik faoliyatidan olingan daromadlarga boshqa yuridik shaxslarga kiritilgan moliyaviy investisiyalardan dividend, royalti va foiz ko'rinishida olingan daromadlar, shuningdek uzoq muddatli ijaradan, valuta kurslarini ijobiy tomonga o'zgarishidan, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar kiradi. Ushbu daromadlar hisobot davrida 9500 «Moliyaviy faoliyatdan

daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarning kreditida aks ettiriladi. Bunda asosiy bo'lmagan faoliyat turlaridan olingan boshqa daromadlarning aniq turlarini ifodalovchi schotlar, chunonchi 4010, 4310, 4810, 4820, 4830, 4840, 4850, 5210, 5220, 5810, 6230 va boshqalar debetlanadi. Hisobot davr oxirida 9500 «Moliyaviy faoliyatdan daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarning kreditida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan ular yopiladi.

Avtotransport korxonalarining umumxo'jalik faoliyatiga doir xarajatlarga olingan kredit va qarzlar uchun to'lanadigan foizlar, valuta kurslarini salbiy tomonga o'zgarishidan, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar kiradi. Ushbu xarajatlar va zararlar hisobot davrida 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida schotlarning debetida aks ettiriladi. Bunda asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga doir xarajat va zararlarning aniq turlarini ifodalovchi schotlar, chunonchi 6010, 6310, 6910, 6920, 6990, 5020, 5210, 5220, 5810 va boshqalar kreditlanadi. Hisobot davr oxirida 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» tizimida ochiladigan alohida debetida to'plangan summa 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan ular yopiladi.

Umumxo'jalik faoliyatiga doir daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq avtotransport korxonalarining umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydasi yoki undan ko'rilgan zararini bildiradi. Ushbu foyda yoki zarar arifmetik yo'l bilan 9500 «Moliyaviy faoliyatdan daromadlarni hisobga oluvchi schotlar» hamda 9600 «Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar»ning 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining mos ravishda kredit va debet tomonlariga o'tkazilgan ma'lumotlar asosida topiladi.

Avtotransport korxonalarining umumxo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari **soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda (zarar) va daromad (foyda) solig'iga tortiladigan foyda (zarar)** ko'rsatkichlari ham kiradi.

Avtotransport korxonalarining **soliq to'lagunga qadar bo'lgan foydasi (zarari)** ularning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) summasiga favquloddagi foyda summasini qo'shish hamda favquloddagi

zarar summasini ayirish yo'li bilan topiladi. 21-son BHMSga muvofiq avtotransport korxonalarida favquloddagi daromadlar 9710 "Favquloddagi foyda" schotining kreditida hisobga olinadi. Bunda favqulodda olingan yoki hisoblangan foydaning turlarini ko'rsatuvchi schotlar, masalan 0100, 0400, 0700, 1000, 4890, 5010, 5110 va boshqa schotlar debetlanadi. Favquloddagi zararlar hisobi 9720 "Favquloddagi zararlar" schotining debetida yuritiladi. Bunda favquloddagi hodisalardan ko'rilgan zararlarning aniq moddalarini ko'rsatuvchi schotlar, masalan, 0100, 0400, 0700, 1000, 5010, 5110, 6990 va boshqa schotlar kreditlanadi. Hisobot davri oxirida 9710 "Favquloddagi foyda" schotining kreditida hamda 9720 "Favquloddagi zararlar" schotining debetida to'plangan summalar mos ravishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi va shu yo'l bilan ushbu schotlar yopiladi.

Daromad (foyda) solig'iga tortiladigan foyda (zarar) ko'rsatkichi soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda (zarar) summasiga «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida nizom»ning 1-ilovasida keltirilgan doimiy farqlar va beg'araz olingan mulk summalarini qo'shish, shuningdek ushbu nizomning 2-ilovasida keltirilgan vaqtinchalik farqlar, olingan dividendlar hamda daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan imtiyozlar summalarini chegirish yo'li bilan topiladi.

21.3. Avtotransport korxonalarida sof foyda va uni ishlatilishining hisobi

Avtotransport korxonalarining hisobot davr (chorak, yil)dagi **sof foydasi (qoplanmagan zarari)** ularning tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra turlicha aniqlanadi. Chunonchi, umumdavlat soliqlarni to'lovchi avtotransport korxonalarida sof foyda (qoplanmagan zarar) soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda (zarar) summasidan hisoblangan daromad (foyda) solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirish solig'i summasini ayirish orqali topiladi. Yagona soliq to'lovida ishlovchi avtotransport korxonalarining sof foydasi ularning soliq to'lagunga qadar bo'lgan foyda (zarar) summasidan hisoblangan yagona soliq to'lovi summasini ayirish orqali topiladi.

Avtotransport korxonalarining sof foydasi (zarari) 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotida barcha daromad va xarajatlar, daromaddan

undiriladigan soliqlar to'liq aks ettirib bo'lingach, uning yopilishiga qadar kredit hamda debet aylanmasi summalari o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi. Ushbu schotning yopilishiga qadar bo'lgan kredit aylanmasi summasining debet aylanmasi summasidan katta bo'lishi transport korxonasida sof foydaga erishilganlikni, uning debet aylanmasi summasining kredit aylanmasi summasidan katta bo'lishi esa transport korxonasining hisobot davrni zarar bilan yakunlaganligini bildiradi. Erishilgan sof foyda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»;

Kredit 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)».

Avtotransport korxonasining hisobot yilida faoliyatni zarar bilan yakunlashi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija».

Avtotransport korxonalari o'zlarining sof foydasini ularning tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra qonun hujjatlari hamda ta'sis hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartiblarda turli maqsadlarda ishlatadilar. Chunonchi, aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi avtotransport korxonalarida hisobot yilning sof foydasi kelgusi yilda aksiyadorlar yig'ilishi qaroriga muvofiq taqsimlanadi. Aksiya egalariga sof foydanining dividend sifatida taqsimlanishiga buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 6610 «Hisoblangan dividendlar».

Sof foydadan rezerv kapitaliga qilingan ajratma summasiga:

Debet 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 8520 «Rezerv kapitali».

Hisobot yilning taqsimlanmay qolgan sof foydasining o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasiga o'tkazilishiga:

Debet 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 8720 «O'tgan yillarning taqsimlamagan foydasi (qoplanmagan zarari)».

Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi avtotransport korxonalarida hisobot yilning sof foydasi ustav shartlariga muvofiq taqsimlanadi hamda yuqorida keltirilgan yozuvlarga o'xshash yozuvlar asosida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Respublikamizning xususiy korxonalar to'g'risidagi qonuniga muvofiq ushbu maqomdagi avtotransport korxonalarida olingan sof foyda ular egalarining mulki hisoblanadi hamda dividend solig'iga tortilmaydi.

Davlat unitar korxonalari maqomidagi avtotransport korxonalarida hisobot yilning sof foydasi taqsimlanmaydi. Ushbu turdagi korxonalarda hisobot yilning sof foydasi ularning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltiriladi va unga quyidagicha buxgalteriya hisobi qilinadi:

Debet 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

Kredit 8300 «Ustav kapitali».

Davlat unitar korxonalari maqomidagi avtotransport korxonalarida hisobot yilning qoplanmagan zarari ustav kapitalini kamaytirishga olib boriladi va u yuqoridagi yozuvga teskari bo'lgan yozuv asosida aks ettiriladi.

21.4. Avtotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotda aks ettirish xususiyatlari

Avtotransport korxonalari moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ular tomonidan tuziladigan «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» (2-shakl)da o'z aksini topadi. Ushbu hisobotni tuzishga asos bo'lib avtotransport korxonalarining barcha turdagi daromad va xarajatlari, foyda hamda foydaning ishlatilishi hisobi uchun mo'ljallangan vaqtinchalik (tranzit) schotlarning ma'lumotlari hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotning alohida satrlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

010-satr «Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan sof tushum»da ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan tushgan sof tushum aks ettiriladi. Bu satrni to'ldirishga asos bo'lib ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan 9030 schotning kredit aylanmasi summasi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich hisobotning «Daromadlar» ustunchasida ko'rsatiladi.

020-satr «Sotilgan mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larning tannarxi»da ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning sotish tannarxi aks ettiriladi. Bu satrni to'ldirishga asos bo'lib ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxi hisobi uchun mo'ljallangan 9130 schotning debet aylanmasi summasi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich hisobotning «Xarajatlar» ustunchasida ko'rsatiladi.

030-satr «Mahsulot (tovarlar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)da hisobotning 010 va 020-satrlarida ko'rsatilgan summalarning farqi yoziladi. Bunda, ijobiy farq ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan foydani ko'rsatadi va u «Daromadlar» ustunchasiga yoziladi. Salbiy farq esa ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan ko'rilgan zararni ifodalaydi va u hisobotning «Xarajatlar» ustunchasiga yoziladi.

040-satr «Davr xarajatlari, jami»da avtotransport korxonasi davr xarajatlarining umumiy summasi ko'rsatiladi. Bu satrda ko'rsatilgan summa mos ravishda 050-satr «Sotish xarajatlari», 060-satr «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari», 070-satr «Boshqa operasion xarajatlar» va 080-satr «Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari»da ko'rsatilgan summalarning yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Hisobotning 050-080-satrlarini to'ldirishga davr xarajatlarini alohida turlari hisobi uchun mo'ljallangan mos ravishdagi 9410 «Sotish xarajatlari», 9420 «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari» 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» 9440 «Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari» schotlarning debet aylanmasi summalari asos bo'ladi. Davr xarajatlari summalari hisobotning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

090-satr «Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari»da avtotransport korxonalarining asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari aks ettiriladi. Bu satrni to'ldirishga asos bo'lib asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi uchun mo'ljallangan schotlarning (9310-9390 schotlar) kredit aylanmasi summalari hisoblanadi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobotning «Daromadlar» ustunchasida ko'rsatiladi.

100-satr «Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)»da avtotransport korxonasining asosiy faoliyatdan olgan foydasi yoki ko'rgan zarari ko'rsatiladi. Hisobotning ushbu satri summasi uning 030-satri summasidan 040-satrdagi summani ayirish, shuningdek 090 satrda ko'rsatilgan

summani qo'shish orqali topiladi. Avtotransport korxonasining asosiy faoliyatdan olgan foydasi hisobotning «Daromadlar» ustunchasida, ko'rgan zarari esa uning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

110-satr «Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami»da avtotransport korxonasining hisobot davrida moliyaviy va investisiya faoliyat turlaridan olgan daromadlarining umumiy summasi ko'rsatiladi. Bu satrda ko'rsatilgan summa mos ravishda 120-satr «Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar», 130-satr «Foizlar ko'rinishidagi daromadlar», 140-satr «Uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar», 150-satr «Valuta kursi farqidan daromadlar» va 160-satr «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari»da ko'rsatilgan summalarning yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Hisobotning 120-160-satrlarini to'ldirishga moliyaviy faoliyatga doir daromadlarning alohida turlari hisobi uchun mo'ljallangan mos ravishdagi schotlarning (9510-9590 schotlar) kredit aylanmasi summalari asos bo'ladi. Moliyaviy faoliyatga doir daromadlar hisobotning «Daromadlar» ustunchasida aks ettiriladi.

170-satr «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami»da avtotransport korxonasining hisobot davrida moliyaviy faoliyatiga doir xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatiladi. Bu satrda ko'rsatilgan summa mos ravishda 180-satr «Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar», 190-satr «Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar ko'rinishidagi xarajatlar», 200-satr «Valuta kursi farqidan zararlar» va 210-satr «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar»da ko'rsatilgan summalarning yig'indisiga teng bo'lishi lozim. Hisobotning 180-210-satrlarini to'ldirishga moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarning alohida turlari hisobi uchun mo'ljallangan mos ravishdagi schotlarning (9610-9690 schotlar) debet aylanmasi summalari asos bo'ladi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobotning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

220-satr «Umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari)»da avtotransport korxonasining umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi yoki ko'rgan zarari ko'rsatiladi. Hisobotning ushbu satri summasi uning 100-satri summasiga 110-satrda ko'rsatilgan summani qo'shish hamda 170-satrdagi summani ayirish orqali topiladi. Avtotransport korxonasining umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi hisobotning «Daromadlar» ustunchasida, ko'rgan zarari esa uning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

230-satr «Favquloddagi foyda va zararlar»da avtotransport korxonasining hisobot davrida olgan favquloddagi foydasi hamda ko'rgan zarari aks ettiriladi. Ushbu satrda favquloddagi foyda hisobi uchun mo'ljallangan 9710 schotning kredit aylanmasi summasi daromadlar ustunchasiga va favquloddagi zararlar hisobi uchun mo'ljallangan 9720 schotning debet aylanmasi summasi xarajatlar ustunchasiga yoziladi.

240-satr «Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)da avtotransport korxonasining hisobot davrdagi daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) ko'rsatiladi. Hisobotning ushbu satri summasi uning 220-satri summasiga 230-satrda ko'rsatilgan favquloddagi foyda summasini qo'shish hamda favquloddagi zararlar summasini ayirish yo'li bilan topiladi. Avtotransport korxonasining daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar bo'lgan foyda summasi hisobotning «Daromadlar» ustunchasida, daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar bo'lgan zarar summasi esa uning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

250-satr «Daromad (foyda) solig'i umumdavlat soliqlarini to'lovchi avtotransport korxonalari tomonidan to'ldiriladi. Ushbu satrni to'ldirishga «Daromad (foyda) solig'i hisob-kitobi» asosida hisoblangan hamda 9810 «Foydaning daromad (foyda) solig'i uchun ishlatilishi» schotining debet aylanmasida ko'rsatilgan summa asos bo'ladi. Hisoblangan daromad (foyda) solig'i summasi hisobotning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

260-satr «Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar» satri turli maqomdagi avtotransport korxonalarida turlicha to'ldiriladi. Chunonchi, umumdavlat soliqlarini to'lovchi avtotransport korxonalari ushbu satrda hisobot davrida hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini «Xarajatlar» ustunchasida ko'rsatadilar. Ixchamlashtirilgan soliq rejimida faoliyat yurituvchi avtotransport korxonalari bu satrda yagona soliq to'lovini aks ettiradilar. Satrni to'ldirishga asos bo'lib umumdavlat soliqlarini to'lovchi avtotransport korxonalarida «Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisob-kitobi», ixchamlashtirilgan soliq rejimida ishlovchi avtotransport korxonalari esa «Yagona soliq to'lovi hisob-kitobi» ma'lumotlari, shuningdek mos ravishda ushbu soliq turlarining hisobi uchun mo'ljallangan schotlarning (9820, 9830 schotlar) debet aylanmasi summalari hisoblanadi. Hisobotda hisoblangan soliq summalari uning «Xarajatlar» ustunchasida aks ettiriladi.

270-satr «Hisobot davrining sof foydasi (zarari)da avtotransport korxonalarining hisobot davrda olgan sof foydasi (zarari) aks ettiriladi. Hisobotning ushbu satri summasi uning 240-satri summasidan 250-satrda hamda 260-satrda ko'rsatilgan soliqlar summalarini ayirish yo'li bilan topiladi. Avtotransport korxonasining hisobot davrida erishgan sof foydasi hisobotning «Daromadlar» ustunchasida, qoplanmagan sof zarar summasi esa uning «Xarajatlar» ustunchasida ko'rsatiladi.

Nazorat uchun test savol-javoblari

Xo'jalik holati

Avtobus parki hisobot yilida yo'lovchilarni tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan tushumlar: shahar ichi marshrutlaridan (QQSsiz) – 450 mln. so'm; shaharlararo qatnovlardan (QQS bilan) - 600 mln. so'm; yakka tartibdagi buyurtmachilarga shaharlararo ko'rsatilgan xizmatlardan (QQS bilan) – 60 mln. so'm. Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi jami – 750 mln. so'm. Voz kechilgan kreditorlik qarzlar – 0,8 mln.so'm. Davr xarajatlari – 100 mln. so'm, shundan soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar - 15 mln. so'm, olingan dividendlar (dividend solig'i ushlangan) – 2 mln. so'm, to'langan foizlar 4 mln. so'm, favquloddagi zararlar 6 mln. so'm, beg'araz olingan mulk - 15 mln.so'm.

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlar asosida quyidagi test savollariga to'g'ri javoblarni toping.

1. Ko'rsatilgan avtotransport xizmatlaridan olingan sof tushum teng va aks ettiriladi:

a) Debet 5010,4010 Kredit 9030 - 1110 mln. so'm;
b) Debet 5010, 4010 Kredit 9030 - 1050 mln. so'm;
v) Debet 5010, 4010 Kredit 9030 -1000 mln. so'm;
g) Debet 5010, 4010 Kredit 9030 -1200 mln. so'm.

2. Avtotransport xizmatlaridan olingan yalpi foyda teng va u aks ettiriladi:

a) 250 mln. so'm, maxsus schotda aks ettirilmaydi;
b) 360 mln. so'm, 9030 schotda aks ettiriladi;
v) 300 mln. so'm, 9910 schotda aks ettiriladi;
g) 450 mln. so'm, 8710 schotda aks ettiriladi.

3. Asosiy faoliyatdan olingan foyda teng va u aks ettiriladi:

a) 250 mln. so'mga, 9910 schotda aks ettiriladi;
b) 360,8 mln. so'mga, 9910 schotda aks ettiriladi;

v) 150,8 mln. so'mga, maxsus schotda aks ettirilmaydi;
g) 300,8 mln. so'mga, 8710 schotda aks ettiriladi.

4. Avtotransport korxonasi moliyaviy faoliyatdan:

a) 2 mln. so'mlik foyda olgan;
b) 2 mln. so'mlik zarar ko'rgan;
v) 13 mln. so'mlik foyda olgan;
g) 30 mln. so'mlik zarar ko'rgan.

5. Avtotransport korxonasining umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi teng:

a) 148,8 mln. so'm;
b) 358 mln. so'm;
v) 263,8 mln. so'm;
g) 448 mln. so'm.

6. Avtotransport korxonasining soliq tortilgunga qadar foydasi teng:

a) 142,8 mln. so'mga;
b) 257,8 mln. so'mga;
v) 352 mln. so'mga;
g) 442 mln. so'mga.

7. Avtotransport korxonasining soliqqa tortiladigan foydasi teng:

a) 155,8 mln. so'mga;
b) 270,8 mln. so'mga;
v) 380 mln. so'mga;
g) 470 mln. so'mga.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR AV tomonidan 1998-yil 26- avgustda ro'yxatga olingan, № 484.

6. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002 yil 23 oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

7. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob. - T.: Moliya, 2002.

8. Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. To'laxo'jayeva M.M. va boshqalar. Moliyaviy hisob: Pragma korporatsiyasi, 2004.

10. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

11. Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, SBX gazetasi kutubxonasi, № 6, 2003.

22- bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA SOLIQLAR, MAJBURIY AJRATMALAR VA TO'LOVLARNING HISOBI

22.1. Avtotransport korxonalarida soliqlarning hisobi

Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq ko'ra avtotransport korxonalari o'zlarining tashkiliy-huquqiy maqomiga ko'ra, umumdavlat soliqlarini yoki ixchamlashtirilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadilar. Ixchamlashtirilgan yagona soliq rejimida faoliyat ko'rsatishi uchun avtotransport korxonalari ularni kichik biznes subyektlariga kiritish mezonlari talablariga mos kelishi lozim. Kichik biznes subyektlariga kiruvchi avtotransport korxonalari umumdavlat soliqlarini to'lovchilari sifatida ham faoliyat ko'rsatish huquqiga egadirlar.

Avtotransport korxonalari to'laydigan barcha soliq to'lovlari soliq qonunchiligi hujjatlarida keltirilgan tartiblarda hisoblanadi va budjetga o'tkazib beriladi. Aksariyat soliq to'lovlari, chunonchi mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslari uchun soliq, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish soliqlari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlaridagi kabi umumbelgilangan tartiblarda hisob-kitob qilinadi. Avtotransport korxonalari tomonidan to'lanadigan QQS, foyda solig'i va yagona soliq to'lovini hisob-kitob qilish hamda ularni hisobga olish o'ziga xos ayrim xususiyatlarga ega. Quyida ushbu xususiyatlarga to'xtalamiz.

QQS hisob-kitobi va hisobi

Avtotransport korxonalari ATV yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar, mulkni ijaraga berish, ularni sotish, bepul berish va boshqa sotish operatsiyalari bo'yicha QQS to'lovchi hisoblanadi. 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksiga muvofiq (208-modda) QQSdan shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari ozod qilingan. Bunda shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Soliq kodeksi ushbu moddasida belgilangan qoidalar umumiy foydalanishdagi shahar yo'lovchilar tashish

transporti yoki temir yo'l va avtomobil transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, yuridik va jismoniy shaxslar buyurtmalari asosida shahar atrofida tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bundan tashqari, Soliq kodeksining 216-moddasiga muvofiq xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizasiya qilish aylanmasiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish. Tranzit yuklarni tashish jumlasiga yukning tranzitini amalga oshirish uchun chet ellik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar yoki xalqaro (idoralararo) transport bitimlari hamda bojxona organlarining mazkur tranzit yuklar haqiqatda olib kirilganligi va olib chiqilganligi to'g'risida belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet el tranzit yuklarini tashish va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi;
- yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish. Agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, xalqaro yo'nalishlarda tashish hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keladigan QQS summasi belgilangan stavka (20 foiz) bo'yicha ikkita usulda quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

(1) - usul. Soliqqa tortiladigan aylanma QQSsiz belgilanganda:

Sqqs = Say x S / 100 (1)

bunda: **Sqqs** - buyurtmachilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

(2)-usul. Soliqqa tortiladigan aylanmada QQS ham hisobga olinganda:

Sqqs = Tq x S / (S + 100) (2)

bunda: **Tq** - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan avtotransport xizmatlari qiymati.

Misol: *Buyurtmachiga ATV yordamida yuk tashish bo'yicha bajarilgan ishlarning qiymati QQS bilan birgalikda schot-faktura bo'yicha 600 ming so'm, deylik.*

Ushbu misol bo'yicha sotishdan olingan QQS summasi (2)-formulaga asosan topiladi va u 100 ming so'mni (600 * 20 % / 120 %) tashkil etadi.

Bu holda bajarilgan ishning QQSsiz sotish qiymati 500 ming so'mdan (600-100) iborat bo'ladi.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasi QQSsiz sotish qiymatidan (1)-formula bo'yicha hisoblanganda ham 100 ming so'mni (500 * 20% / 100 %) tashkil etadi.

Avtotransport korxonalarida naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keladigan QQS summasi buyurtmachilarga taqdim etilgan schot-fakturalarda alohida ustunchada ko'rsatiladi. QQS summasi buyurtmachilardan olinadigan schotlarning jami summasiga kiritiladi. Hisoblangan QQS summasiga schot-fakturalar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 4010 «Olinadigan schotlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Naqd pulga ko'rsatilgan avtotransport xizmatlariga to'g'ri keluvchi QQS summasi buyurtmachidan kassaga kirim qilingan jami tushum tarkibida o'z aksini topadi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 5010 «Kassadagi milliy valutadagi pul mablag'lari»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Avtotransport korxonalarida budjetga to'lanadigan QQS summasi bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasidan ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar hamda schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasini ayirish yo'li bilan topiladi. Bundan, yuqorida ta'kidlanganidek, faqat QQSdan ozod etilgan shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari mustasno. Ushbu xizmat turlari QQSdan ozod etilganligi tufayli ularga to'g'ri keluvchi ta'minotchilarga tovar-moddiy boyliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan QQS summasi kamaytirishga olib borilmasdan, balki bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladi.

Soliq kodeksiga muvofiq (221-modda) avtotransport korxonalarida kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi to'lovchining tanloviga binoan alohida-alohida yoki mutanosib usulda aniqlanadi. Belgilangan

tartibga ko'ra kamaytirishga olib boriladigan QQS summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo'llanilganda kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi soliq solinadigan aylanmaning umumiy aylanma summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Masalan, *avtotransport korxonasi hisobot davrida 60 mln. so'mlik (QQSsiz) ish bajargan, shundan, QQSga tortiladigan ish hajmi 36 mln. so'm, QQSga tortilmaydigan ish hajmi esa 24 mln. so'm. Ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar hamda schot-fakturalar asosida to'langan QQS jami 5 mln. so'm.* Demak, ushbu misolda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra QQSga tortiladigan avtotransport xizmatlarining hissasi 60 foizni (36/60*100) va QQSga tortilmaydigan xizmatlarning hissasi esa 40 foizni (24/60*100) tashkil etadi.

Mutanosib usulga ko'ra kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi yuqoridagi misolda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha 3 mln so'mni (5*60%), kamaytirishga olib borilmaydigan, balki bajarilgan ish (xizmat)lar tannarxiga olib boriladigan QQS summasi esa 2 mln. so'mni (5*40%) tashkil qiladi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda QQS to'lovchi avtotransport korxonasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan aylanma maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda QQS summalari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

21-son BHMSga muvofiq ta'minotchilarga tovar-moddiy resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ma'lumotnomalar va schot-fakturalar asosida to'langan QQS summasi hisobot davri mobaynida 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'planadi. Bunda 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar», 6100 «Ajratilgan bo'linmalar, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan schotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» schotlari kreditlanadi.

Hisobot davri tugagandan keyingi oyning 25-sanasigacha avtortransport korxonalari davlat soliq organlariga QQS hisob-kitobini belgilangan shaklda taqdim etishlari lozim. Shuningdek, ular soliq idoralariga QQS hisob-kitobiga ilova tariqasida soliq davri mobaynida olingan tovarlar

(ishlar, xizmatlar) bo'yicha schot-fakturalar reestrini hamda kamaytirishga olib borilishi va tannarxga kiritilishi lozim bo'lgan QQS summasi taqsimoti hisob-kitobini ham taqdim etishlari lozim.

QQS hisob-kitobi, shuningdek unga ilova qilinadigan reestr va taqsimot asosida 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» schotining debetida to'plangan summaning kamaytirishga olib borilgan qismiga buxgalteriyada quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Kamaytirishga olib borilmagan va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga mutanosib usul bo'yicha aniqlangan hamda kiritilgan QQS summasiga quyidagicha quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish»;

2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari».

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Oldingi hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan QQS summasining hisobot davri uchun kamaytirishga olib borilgan soliq summasidan ortiq bo'lgan summasi vujudga kelgan hollarda ko'rsatilgan ortiqcha summa hisobot davridan keyingi davrda kamaytirishga olib boriladi. Kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi hisoblangan QQS summasidan ortiq bo'lganida, unda bunday ortiqcha summa (manfiy saldo) avtotransport korxonasiga uning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda qaytariladi. Bunda ushbu ortiqcha summa avtotransport korxonasining shaxsiy schotida ortiqcha to'lov sifatida emas, balki manfiy saldo sifatida hisobga olinadi. Ortiqcha to'langan QQS summasining avtotransport korxonasiga qaytarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4410 «Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari».

Avtotransport korxonalarini budjetga QQS bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Foyda solig'i hisob-kitobi va uning hisobi

Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra avtotransport korxonalarida boshqa xo'jalik yuritish subyektlaridagi kabi foyda solig'ini hisob-kitob qilish uchun «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»da nomlari keltirilgan foyda (zarar) ko'rsatkichlaridan tashqari yana quyidagi ikkita foyda ko'rsatkichi hisoblash yo'li bilan topiladi. Bular:

· **Soliqqa tortiladigan daromad (Std)**

Std = Fst (Zst) + Stx + Sbx + Bom -Gr - Schx -D - F

bu yerda: **Fst (Zst)** – soliq tortilgungacha bo'lgan foyda yoki zarar

Stx – soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar;

Sbx – hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar;

Schx – soliq bazasidan hisobot davrida chegiriladigan xarajatlar;

Bom – beg'araz olingan mulk;

Gr – olingan grant va subsidiyalar;

D – olingan dividendlar;

F – olingan foizlar.

- Soliqqa tortiladigan foyda (Stf) – bu soliqqa tortiladigan daromaddan foyda solig'ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foyda summasi, ya'ni :

Stf = Std –I

bu yerda: **I** – imtiyoz sifatida soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar hamda soliqdan ozod etilgan foyda summasi.

Soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar deganda Soliq kodeksi va «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»ga muvofiq moliyaviy natijalarni shakllantirishda soliqqacha foyda summasini kamaytirishga olib borilgan, hisobotda sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tarkibida aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlar tarkibiga, chunonchi me'yordan ortiq ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar, me'yordan ortiq vakillik xarajatlari, moddiy yordam va kompensasiyalar, avtotransport korxonasining asosiy vositalari va boshqa aktivlarini sotish va boshqa chiqimlaridan ko'rilgan zararlar va boshqa shu kabi xarajatlar kiradi. Ularning to'liq ro'yxati Soliq kodeksining 147-moddasida keltirilgan. Soliq qonunchiliga asosan avtotransport

korxonalari soliq solish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlarni mustaqil hisoblashlari, ular summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, lekin kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar deganda 9440 «Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar» schotda aks ettirilgan xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlarning to'liq ro'yxati Soliq kodeksining 146-moddasida keltirilgan. Ushbu xarajatlar ham foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi.

Soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar deganda Nizomga keltirilgan 2-ilovaga muvofiq o'tgan hisobot yilida soliq bazasidan chegirilmagan, lekin keyingi hisobot davridan boshlab 10 yil muddat mobaynida soliq bazasidan chegirilib boriladigan xarajatlar tushuniladi. Soliq qonunchiligi hujjatlariga asosan avtotransport korxonalari soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlarni Soliq kodeksi va Nizomda keltirilgan tartibga muvofiq maxsus hisob-kitob yordamida mustaqil hisoblashlari va ma'lumotnoma bilan tasdiqlashlari, ularning summasini foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatishlari lozim.

Beg'araz olingan mulk deganda boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan haqi to'lanmaslik sharti bilan olingan mulk (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o'rnatishga mo'ljallangan jihozlar, materiallar) tushuniladi.

Grantlar deganda avtotransport korxonasiga davlat (xukumat) hamda nodavlat, chet el, xalqaro tashkilot va fondlar tomonidan ma'lum maqsadlar uchun berilgan beg'araz, gumanitar pul mablag'lari yoki moddiy texnik yordam summasi tushuniladi. Grant mablag'lari qat'i belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.

Olingan dividendlar va foizlar Soliq qonunchiligiga muvofiq alohida 10 foizlik dividend solig'iga tortilishi munosabati bilan foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanadi. Shuning uchun ularning summalari foyda solig'i hisob-kitobining alohida satrida ko'rsatiladi. Ushbu daromadlardan dividend solig'ini undirilganligi to'g'risida ma'lumotlar ularni bergan yuridik shaxslarning ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanishi lozim.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar sifatida soliqqa tortiladigan daromad summasidan chegirib tashlanadigan xarajatlar, soliqdan ozod etilgan foydaning turlari hamda imtiyoz me'yorlari Soliq kodeksida (158,159-moddalar) ochib berilgan. Chunonchi, Soliq kodeksining 158-moddasiga muvofiq avtotransport korxonalarining shahar yo'lovchilar

transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olgan foydasi foyda solig'ini to'lashdan to'liq ozod qilingan. Foyda solig'i bo'yicha berilgan ushbu imtiyoz yo'lovchi tashishga ixtisoslashgan avtotransport korxonalarida shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foyda ko'rsatkichini maxsus hisob-kitob qilishni hamda uni foyda solig'i hisob-kitobiga ilova qilishni taqozo etadi.

Foyda solig'i (Nf) summasi avtotransport korxonasining soliqqa tortiladigan foydasi summasini **(Stf)** soliq me'yoriga **(Sm)** ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi, ya'ni:

Nf = Stf *Sm : 100%

Hisob-kitob asosida hisoblangan foyda solig'i summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9810 «Daromad(foyda) solig'i bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Avtotransport korxonalarini budjetga daromad (foyda) solig'i bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi va hisobi

Mikrofirma va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalari uchun yagona soliq to'lovi yagona soliq, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash o'rniga joriy etilgan. Ushbu soliqni to'lovchi avtotransport korxonalarida materiallar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinganda ta'minotchi tashkilotlarga to'langan QQS summasi material boyliklar (ishlar, xizmatlar) qiymatiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi avtotransport korxonalari ixtiyoriy tarzda ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga navbatdagi chorak boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmay, yangi barpo etilayotgan mikro va kichik korxona maqomidagi avtotransport korxonalari esa faoliyatni amalga oshirishni boshlashga qadar topshiriladigan ariza asosida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari mumkin. Yagona soliq to'lovi to'lovchilari tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan bosh tortish navbatdagi yil boshlanishiga qadar bir oydan kechiktirmasdan ro'yxatdan

o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan ariza asosida navbatdagi yilning boshidangina amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash obyekti avtotransport korxonalarining barcha faoliyat turlaridan olgan yalpi tushumi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi summasi yalpi tushum summasini ushbu soliqning belgilangan me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Bunda, ixtiyoriy tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi budjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, biroq yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdoriga kamayadi.

Yagona soliq to'loviga tortiladigan yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Naqd pulga va naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning hajmi.

2. Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar, chunonchi:

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalar, neustoykalar hamda xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari;

b) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar daromadlari;

v) renta daromadi, avtotransport korxonasi huzuridagi oshxonalardan tushumlar, boshqa xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tushumlar;

g) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni sotishdan daromadlar;

d) kreditorlik va deponentlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar-moddiy boyliklarini qo'shimcha baholash;

j) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan, tekinga olingan mol-mulk;

z) qisqa muddatli ijaradan daromadlar;

i) ilgari chiqarib tashlangan xarajatlarni qoplash tariqasida olingan daromadlardan tashqari boshqa operasion daromadlar.

3. Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, chunonchi:

a) olingan royalti va kapital transferti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja);

g) chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar (musbat va manfiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo), bunda manfiy kurs farqi summasi musbat kurs farqi summasidan oshib ketgan

holda oshib ketish summasi yagona soliq to'lovini hisoblab chiqayotganda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi;

d) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;

e)moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

4. Favqulodda daromadlar.

Soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushumdan chiqarib tashlanadi:

a) ixtyoriy ravishda o'z arizasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

b) davlat subsidiyalari summasi;

v) davlat obligasiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

g) to'lov manbaida soliq to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatlar (ma'lumotnoma) mavjudligida dividendlar va foizlar.

Yagona soliq to'lovi har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan hisob-kitobni topshirish muddatidan kechiktirmay to'lanadi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schotida yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz».

Avtotransport korxonalarini budjetga yagona soliq to'lovi bo'yicha qarzlarining to'lanishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

22.2. Avtotransport korxonalarida majburiy ajratmalar, yig'imlar va ushlanmalarning hisobi

Umumdavlat soliqlarini to'lovchi avtotransport korxonalari boshqa tarmoq korxonalari singari soliq to'lovlaridan tashqari davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarni amalga oshiradilar.

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning hisob-kitoblari tasdiqlangan shakllarda tuziladi va belgilangan muddatlarda

davlat soliq idoralariga taqdim etiladi. Ushbu hisob-kitob ma'lumotlari davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi.

Pensiya fondi, respublika yo'l fondi va maktab ta'limini rivojlantirish fondiga bajarilgan ishlardan olingan sof tushumga nisbatan mos ravishda belgilangan stavkalarda hisoblangan majburiy ajratmalar summasi hisobot oyida hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Pensiya fondiga hisobot davrida hisoblangan ish haqi fondiga nisbatan belgilangan stavkada hisoblangan majburiy ajratma summasi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet Xarajat schotlari (2010, 2310, 2510, 9410, 9420, 9210, 0810);

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Xodimlarga hisoblangan ish haqidan pensiya fondiga belgilangan stavkada majburiy ushlanmaning ushlab qolinishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6710 «Xodim bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Respublika yo'l fondiga sotib olingan yangi avtotransport vositalari uchun to'langan majburiy yig'im summasi 5-son BHMS «Asosiy vositalar»ga muvofiq ularning boshlang'ich qiymatiga kiritiladi va hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0820 «Asosiy vositalarni sotib olish»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Davlatning maqsadli fondlariga majburiy ajratma va ushlanmalarning o'tkazib berilishi hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Yagona soliq to'lovi rejimida faoliyat ko'rsatayotgan avtotransport korxonalari yuqorida nomlari keltirilgan ushbu majburiy ajratmalarning to'lovchilari hisoblanmaydilar.

Nazorat uchun test savol-javoblari

Xo'jalik holati

Yo'lovchilarni tashishga ixtisoslashgan 2209-sonli avtobus parkining hisobot davrida bajargan ish hajmi (sof tushum) 600 mln. so'm, shundan

shahar ichi va uning tevaragidagi marshrutlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar 120 mln. so'm (QQSsiz), shaharlararo qatnovlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar 480 mln. so'm (QQSsiz). Ta'minotchilarga to'langan QQS summasi 60 mln. so'm. Sotish tannarxi – 420 mln. so'm, davr xarajatlari – 80 mln. so'm, shundan soliq bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar - 12 mln. so'm, olingan dividendlar (dividend solig'i ushlangan) – 2 mln. so'm, to'langan foizlar 3 mln. so'm, favquloddagi zararlar 6 mln. so'm, beg'araz olingan mulk - 10 mln.so'm, voz kechilgan kreditorlik qarzlar - 4 mln.so'm.

Soliq qonunchiligi hujjatlariga ko'ra foyda solig'i stavkasi – 10 %, obodonlashtirish solig'i stavkasi – 8 %, yagona soliq to'lovi stavkasi – 8 %.

Ushbu xo'jalik holatida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping.

1.Bajarilgan ishga to'g'ri keladigan QQS summasi teng:

a) 120 mln. so'm;
b) 96 mln. so'm;
v) 80 mln. so'm;
g) 100 mln. so'm.

2. Budjetga to'lanadigan QQS summasi teng:

a) 48 mln. so'm;
b) 60 mln. so'm;
v) 20 mln. so'm;
g) 40 mln. so'm.

3. Sotishdan olingan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9030 Kredit 6410 96 mln. so'mga;
b) Debet 4010 Kredit 6410 96 mln. so'mga;
v) Debet 4010 Kredit 6410 80 mln. so'mga;
g) Debet 9030 Kredit 6410 120 mln. so'mga.

4. Ta'minotchilarga to'langan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 6410 Kredit 5110 100 mln. so'mga;
b) Debet 4410 Kredit 6010 60 mln. so'mga;
v) Debet 4410 Kredit 6410 60 mln. so'mga;
g) Debet 6410 Kredit 5110 40 mln. so'mga.

5. Kamaytirishga olib boriladigan QQS summasi aks ettiriladi:

a) Debet 6410 Kredit 4410 40 mln. so'mga;
b) Debet 6410 Kredit 4410 48 mln. so'mga;
v) Debet 6410 Kredit 5110 60 mln. so'mga;

g) Debet 6410 Kredit 4410 12 mln. so'mga.

6. Avtotransport korxonasida yalpi tushum teng:

a) 600 mln. so'mga;
b) 696 mln. so'mga;
v) 480 mln. so'mga;
g) 120 mln. so'mga.

7. Avtotransport korxonasining sotishdan olgan foydasi teng:

a) 600 mln. so'mga;
b) 480 mln. so'mga;
v) 120 mln. so'mga;
g) yo'q.

8. Avtotransport korxonasining asosiy faoliyatdan olgan foydasi teng:

a) 180 mln. so'mga;
b) 100 mln. so'mga;
v) 104 mln. so'mga;
g) 114 mln. so'mga.

9. Avtotransport korxonasiining umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydasi teng:

a) 100 mln. so'mga;
b) 114 mln. so'mga;
v) 103 mln. so'mga;
g) 97 mln. so'mga.

10. Avtotransport korxonasining soliqqacha foydasi teng:

a) 97 mln. so'mga;
b) 103 mln. so'mga;
v) 114 mln. so'mga;
g) 100 mln. so'mga.

11. Avtotransport korxonasida soliqqa tortiladigan foyda summasi teng:

a) 123 mln. so'mga;
b) 110 mln. so'mga;
v) 124 mln. so'mga;
g) 107 mln. so'mga.

12. Avtotransport korxonasida foyda solig'i summasi teng:

a) 3,9 mln. so'mga;
b) 4,3 mln. so'mga;

v) 4,4 mln. so'mga;
g) 4,0 mln. so'mga.

13. Budjetga to'lanadigan foyda solig'i summasi aks ettiriladi:

a) Debet 9810 Kredit 6410 3,9 mln. so'mga;
b) Debet 9810 Kredit 6410 4,3 mln. so'mga;
v) Debet 9810 Kredit 6410 4,4 mln. so'mga;
g) Debet 9810 Kredit 6410 4,0 mln. so'mga.

14. Avtotransport korxonasining yo'l fondiga 2,5 foizlik ajratmasi summasi teng:

a) 9 mln. so'm;
b) 7,5 mln. so'm;
v) 6,0 mln. so'm;
g) 15,0 mln.so'm.

15. Avtotransport korxonasining pensiya fondiga 1,0 foizlik ajratmasi summasi teng:

a) 4,2 mln. so'm;
b) 3,5 mln. so'm;
v) 2,8 mln. so'm;
g) 6,0 mln. so'ma.

16. Avtotransport korxonasining maktab ta'limini rivojlantirish fondiga 1,0 foizlik ajratmasi summasi teng:

a) 6 mln. so'm;
b) 5,0 mln. so'm;
v) 4,0 mln. so'm;
g) 1,0 mln. so'm.

17. Avtotransport korxonasida 9300 «Boshqa operasion daromadlar» schotida aks ettiriladi:

a) 5 mln. so'm;
b) 6 mln. so'm;
v) 4 mln. so'm;
g) 1 mln. so'm.

18. Avtotransport korxonasida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining kredit aylanma summasi teng:

a) 500 mln. so'm;
b) 501 mln. so'm;
v) 506 mln so'm;

g) To'g'ri javob yo'q.

19. Avtotransport korxonasida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet aylanma summasi teng:

a) 400 mln. so'm;

b) 470 mln. so'm;

v) 480 mln. so'ma

g) To'g'ri javob yo'q.

20. Avtotransport korxonasining hisobot yili sof foydasi aks ettiriladi:

a) Debet 9910 Kredit 8710 28 mln. so'mga;

b) Debet 9910 Kredit 8710 26 mln. so'mga;

v) Debet 9910 Kredit 8710 24 mln. so'mga

g) To'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zR VMning 1999- yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR .AV tomonidan 1998-yil 26-avgustda ro'yxatga olingan, № 484.

6. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

7. Bobojonov O., Jumaniyazov K. Moliyaviy hisob.- T.: Moliya, 2002.

8.Voxidov S.V. va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlari. - T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004.

9. To'laxo'jayeva M.M. va boshqalar. Moliyaviy hisob.– Pragma korporatsiyasi, 2004.

10. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

IV bo'lim. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI

23-bob. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

23.1. Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi tasnifi, tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. U ishlab chiqarish sohasini iste'mol sohasi bilan bog'lovchi bo'g'indir. Savdosiz yaratilgan mahsulotlar o'z iste'molchilariga yetib bormaydi. Demak, savdo makon va zamonda takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Savdo tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotining maxsus tarmog'i darajasida harakat qilishiga olib keladi.

Savdo faoliyatini turli belgilari bo'yicha guruhlash mumkin.

Amal qilish hududiga ko'ra savdo faoliyati ichki va tashqi savdoga bo'linadi.

Ichki savdo – bir mamlakat hududi chegarasida amalga oshiriladigan savdo faoliyati.

Tashqi savdo – mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati. Tashqi savdo faoliyati, boshqachasiga, **eksport** deb ham ataladi.

Tovarlarni savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob-kitoblarning shakliga ko'ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo'yicha, uni tijorat tadbirkorlik faoliyati maqsadida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo'ljallayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ulgurji savdo ham ichki, ham tashqi savdo faoliyati bo'lishligi mumkin.

Mayda ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Mayda ulgurji savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi. Ushbu savdo faoliyati chakana savdo korxonalari, ulgurji savdo korxonalari va yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan turg'un savdo shohobchalari hamda iste'mol buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiriladi.

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ushbu savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi.

Chakana savdo yurituvchi shaxslarning statusiga ko'ra savdo faoliyati jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdoga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs maqomisiz mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday xususiy tadbirkorlar savdo faoliyatini o'zlarining xususiy savdo do'konlari yoki buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiradilar.

Yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs sifatida mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday korxonalar savdo faoliyatini o'zlarining savdo do'konlari, shoxobchalari, bazalari, omborlari yoki buyum bozorlarida ajratilgan savdo tarmoqlari orqali amalga oshiradilar. Yuridik shaxslar savdoning barcha turlarini olib boradilar.

Yurituvchilarning mulkiy shakliga ko'ra savdo davlat, nodavlat va aralash mulkdagi korxonalar tomonidan olib boriladigan savdoga bo'linadi. Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat korxonalari respublikamizda hozirgi davrda ixtisoslashgan «Mudofaa savdo» tizimi tasarrufidagi korxonalar hisoblanadi.

Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat va aralash mulkdagi korxonalar bo'lib respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa maqomdagi xususiy korxonalar hisoblanadi.

Tovarlarning guruhlariga ko'ra savdo oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosiga, guruhlar ichida esa alohida quyi guruh tovarlari savdosiga, masalan, non va non mahsulotlari savdosi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi, alkogol va alkogolsiz ichimliklar savdosi, xo'jalik mollari savdosi, qurilish materiallari savdosi, avtomobillar savdosi, avtomobillar yoqilg'isi savdosi, aralash mollar savdosi, dori-darmonlar savdosi, tibbiy texnika va optika tovarlari savdosi, tilla buyumlar savdosi va shu kabi boshqa turlarga bo'linadi.

Savdo faoliyatining barcha turlari, ularni amalga oshirish shartlari va tartibi respublikamizda davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan qat'i tartibga solinadi[12]. Respublikamizda ulgurji savdo lisenziyalashtiriladigan, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish esa lisenziyalashtirilmaydigan faoliyat turiga kiradi. Alohida olingan tovarlarning, masalan, alkogolli ichimliklarning sotilishi maxsus ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Savdo faoliyatining turlariga va davlat statistika organlari beradigan tarmoq (faoliyat) ko'diga ko'ra savdo korxonalari quyidagilarga bo'linadi:

- ulgurji savdo (71100);
- chakana savdo (71200);
- umumiy ovqatlanish (71300).

Ulgurji va chakana savdo korxonalariga, o'z navbatida, mulkiy shakli, sotadigan tovarlarining turlari bo'yicha maxsus ichki savdo tarmog'i kodlari beriladi.

Xodimlarning soniga ko'ra savdo korxonalarini yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalarga ajratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30- avgustdagi Farmoni[13] va uni bajarishga doir Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yil 11-oktabrda qabul qilingan «Kichik tabdirkorlik (biznes) subyektlariga kiradigan korxona va tashkilotlarni klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 439-son qaroriga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanishda:

mikrofirmalar – band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 5 kishigacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

---

[12]«Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tqazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»; «O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari»; «O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish qoidalari».

[13] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF – 1987-son Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida.

kichik korxonalar - band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 6 kishidan 25 kishigacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

Savdo faoliyatini yurituvchi subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning mulkiy va tashkiliy shakliga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» gi 357- son qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagi davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinadi:

- Toshkent shahrida tashkil etiladigan ulgurji va chakana bozorlar, xorijiy investisiya ishtirokidagi savdo korxonalari, shuningdek qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda boshqa savdo tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan;

- xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar va tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etiladigan bozorlar, ochiq aksiyadorlik jamiyatlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar adliya boshqarmalari tomonidan;

- mas'uliyati cheklangan jamiyat, xususiy firma (korxona), xo'jalik jamiyati, shu'ba xo'jalik jamiyati va boshqa shakllardagi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari – ular joylashgan joydagi tuman va shahar hokimliklari huzuridagi «Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari» tomonidan.

Savdo korxonalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi mezonlardan biri belgilangan ustav fondini o'z vaqtida (davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab bir yil muddatda) shakllantirish hisoblanadi. Ustav fondining chegaralangan miqdori faqat xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarga, shuningdek, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga taalluqlidir. Jumladan, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSH dollarini, ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanishni mo'ljallagan mahalliy korxonalar uchun esa eng kam ish haqining kamida 3500 baravarini, shundan eng kam ish haqining kamida 1200 baravaridagi miqdori pul mablag'larini tashkil etishi lozim.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish bilan shug'ullanuvchi mahalliy yuridik shaxslar uchun ustav fondining chegaralangan miqdori davlat tomonidan belgilanmagan. Faqat qonun hujjatlariga muvofiq ularning muassislari korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazishgacha ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining 30 foizidagi miqdorini pul mablag'lari bilan oldindan kirishlari va bu bank hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Agar tadbirkorlik subyekti ustav fondi yoki uning bir qismi mulkiy ulush (ko'chmas mulk, asbob-uskunalar va boshqalar) yoki intellektual mulk hisobiga shakllantirilgan taqdirda bank ma'lumotnomasi talab qilinmaydi.

23.2. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari

Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tovar aylanmasining miqdorini hujjatli asosga ega bo'lishligini ta'minlash, uni hisob registrlari va hisobotlarda to'g'ri aks ettirish;
- tuzilgan shartnomalarni bajarilayotganligini, tovarlarni kirim va chiqimiga tegishli bo'lgan boshlang'ich hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash;
- tovarlarning sotish, baholarini to'g'ri shakllanganligini nazorat qilish;
- tovarlarni xaridorlarga yetkazishgacha bajarilgan transportirovka, saqlash, o'rash, qadoqlash, saralash va shu kabi qo'shimcha jarayonlar majmuasini hujjatlarda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, ularga sarflangan mablag'larni aniq summasini ifodalash;
- tovar –pul munosabatlari orqali pul mablag'larini to'plash.
- savdo korxonalarida yuz beradigan tovar-pul operatsiyalarini o'z vaqtida, to'g'ri hujjatlashtirish, guruhlash va jamlanishini ta'minlash;
- amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining qonuniyligi va tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlash;
- tovar-moddiy boyliklarning saqlanish joylarida ombor hisobini belgilangan usul va shakllarda, shuningdek hisob registrlari hisoblangan kitob, kartochka yoki qaydnomalarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishini ta'minlash;
- barcha moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan qat'i nazoratni olib borish, moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar shartlariga to'liq amal qilinayotganligi to'g'risida rahbariyatga haqqoniy axborotlarni berib borish;

- tovar-moddiy boyliklar bo'yicha baho siyosatini to'g'ri shakllantirish va ushbu siyosatni to'g'ri amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni olib borish;

- savdo shoxobchalari va omborlardagi tovar-moddiy boyliklarni real holatini belgilangan muddatlarda inventarizatsiyasini o'tkazib turish.

Savdo korxonalari bir-birlaridan tovar operatsiyalarini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish bo'yicha ham farq qiladi. Jumladan, ulgurji savdo korxonalaridagi tovar operatsiyalarining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bironta tovar-moddiy boylikning kirim va chiqimi bu yerda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, aksincha, har bir tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo'lmaydi. Omborlardan tovarlar faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotiladi, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda esa tovarlar asosan naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqdsiz sotilishi mumkin.

O'zbekiton Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS), shu jumladan 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»iga, muvofiq tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning ikkita tizimini, ya'ni davriy tizim va uzluksiz tizimini qo'llash mumkin.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining yuqorida tavsiflangan xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tovar-moddiy boyliklar hisobini uzluksiz tizimini qo'llash zarurati va shart-sharoitlari mavjud. Ushbu tizimning mohiyati shundaki tovar-moddiy boyliklarning barcha kirim va chiqimining hisobi aniq boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi. Jumladan, tovarlarning sotilishi xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda ularni sotilganligiga guvohlik beruvchi schot-fakturalar asosida hisobga olib boriladi. Sotilgan tovarlarning tannarxi ularning kirim hujjatlarida ko'rsatilgan baholari bo'yicha aniq hujjatlar asosida topiladi va hisobga olinadi. Bu, o'z navbatida, sotishdan olingan daromadlarni har bir tovar bo'yicha hujjatli asosda topish imkonini beradi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida har bir tovarning sotilishini qat'i hujjatlashtirish imkoni mavjud bo'lmasligi ularda TMBlar hisobining davriy tizimini qo'llashni taqozo etadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va tahliliy hisobni yuritish hisoblanadi. 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlar

moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma» ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schotlarda olib borish nazarda tutilgan.

2910 «Ombordagi tovarlar». Ombordagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi (tayyorlov-transport va boshq a sotib olishga doir xarajatlar bilan birgalikdagi) hisoblanadi.

2920 «Chakana savdodagi tovarlar». Chakana savdo shoxobchalari (savdo do'kon, palatka, laryok, kioska va boshqalar)dagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo shoxobchalarida hisob bahosi bo'lib sotish bahosi, ya'ni savdo ustamalari bilan birgalikdagi hisoblangan chakana baho hisoblanadi.

2920 «Ko'rgazmadagi tovarlar». Ko'rgazma zallariga qo'yilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2940 « Vaqtincha foydalanishga (prokatga)berilgan tovarlar». Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2950 «Tovar ostidagi va qaytariladigan idishlar». Tovar ostidagi va qaytariladigan taralarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi yoki o'rtacha hisob bahosi hisoblanadi.

2960 «Komissiya (vositachilik) orqali sotishga berilgan tovarlar». Shartnomalar asosida boshqa korxonalarga komissiya va konsignasiya shartnomalari asosida berilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2970 «Yo'ldagi tovarlar». Guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlari asosida hisobga kiritilgan lekin oy oxirida yo'lda bo'lganligi uchun omborlarga kirim qilinmagan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi

2980 «Savdo ustamasi». Hisob bahosining tarkibiy elementi, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridagi tovarlarning sotib olish baholari ustiga qo'yilgan savdo ustamalarini qoldig'i va ko'payishi

kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida faqat chakana savdo shoxobchalaridagi tovarlar bo'yicha qo'llaniladi.

2990 «Boshqa tovarlar». Yuqoridagi schotlarda aks ettirilmay qolingan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

Savdo korxonalarida tovarlarning tahliliy hisobi 23.1-rasmda keltirilgan iyerarxik tizim bo'yicha qo'lda yoki zamonaviy kompyuterlarda yuritiladigan hisob registrlarida olib boriladi:



23.1-rasm. Savdo korxonalarida tovarlar tahliliy hisobining iyerarxik tizimi

Tayanch iboralar

Ichki savdo – bir mamlakat hududi chegarasida amalga oshiriladigan savdo faoliyati.

Tashqi savdo – mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati.

Eksport - tashqi savdo faoliyati.

Ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo'yicha, uni tijorat tadbirkorlik faoliyati maqsadida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo'ljallayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Mayda ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati - yuridik shaxs maqomisiz mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan savdo.

Yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs sifatida mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan savdo.

Tovarlar hisobining uzluksiz tizimi –tovarlar kirimi va chiqimi qat'i hujjatlar bilan rasmiylashtiriladigan korxonalardagi hisob tizimi.

Tovarlar hisobining davriy tizimi – tovarlar chiqimi qat'i hujjatlar bilan rasmiylashtirilmaydigan korxonalardagi hisob tizimi.

Nazorat uchun test savol-javoblari

1. Savdo faoliyati bilan kim shug'ullanishi mumkin?

a) sanoat korxonasi;

b) qurilish tashkiloti;

v) faqat savdo korxonasi;

g) savdo bilan shug'ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega har qanday korxona.

2. Savdo faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnomani kim beradi?

a) Moliya Vazirligi;

b) Savdo Vazirligi;

v) Mahalliy davlat hokimiyati;

g) Adliya Vazirligi.

3. Qanday korxona savdo korxonasi deb ataladi?

a) savdo bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonasini;

b) savdo bilan shug'ullanishga ruxsati bor qurilish tashkilotini;

v) tarmoq kodi «savdo» bo'lgan korxonani;

g) savdo bilan shug'ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega har qanday korxona.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi 125- son qarori.

5. «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407- son qarori.

6. Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27- noyabrdagi 407- son qarori bilan tasdiqlangan.

7. «O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75- son qarori bilan tasdiqlangan.

8. «O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish Qoidalari». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75- son qarori bilan tasdiqlangan.

9. Abdullayev A., Qayumov I. Buxgalteriya hisobi. – T.: Minhoj, 2002.
10. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. - T.: Moliya, 2002.
11. Vohidov S., Maxamadiyev A., Voxidov T. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. – T.: «O'YOUAJ» nashriyoti, 2004.
12. Zavalishina I.A. Yangicha buxgalteriya hisobi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004.
13. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004.
12. Urazov K.B.Buxgalteriya hisobi va audit. Oliy o'quv yurtlari uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.

24-bob. ULGURJI SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARINING HISOBI

24.1. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirish shartlari

Ulgurji savdo korxonalarining asosiy funksiyasi chakana savdo korxonalariga, Shuningdek tovarlarni o'zlarining xo'jalik maqsadlarida ishlatadigan boshqa tarmoq xo'jalik yurituvchi subyektlariga naqd pulsiz shaklda sotish hsoblanadi. Buning uchun ularning o'zlari oldin tovarlarni turli ishlab chiqarish korxonalari va boshqa manbalardan sotib oladilar. Tovarlarni sotishgacha ulgurji savdo korxonalari ularni o'zlarining omborlarida saqlaydilar va xaridorlarga tuzilgan shartnomalarga muvofiq sotadilar.

Tovar operatsiyalarini olib borish uchun ulgurji savdo korxonalarida barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim. Bunday shart-sharoitlar, jumladan, quyidagilar hisoblanadi:

- tovar-moddiy boyliklarni but va sifatli saqlanishiga imkon beruvchi barcha kommunikasiya vositalarga, tushirish va yuklash, saralash, o'lchash, o'rash, qadoqlash, transportirovka qilinishiga imkon beruvchi, tegishli ravishdagi parametrlardagi maydonlarga, shuningdek maxsus jihozlangan asbob-uskunalar, texnik hamda texnologik vositalarga va shu kabilarga ega bo'lgan ombor xo'jaligining mavjudligi;
- tovar-moddiy boyliklar bo'yicha moddiy javobgarlikni o'rnatilishi;
- tovar- moddiy boyliklarning kirimi va chiqimini tegishli ravishda hujjatli rasmiylashtirilishi;
- tovar- moddiy boyliklarning holati va harakatini soniy va summaviy jihatdan aniq, o'z vaqtida tavsiflovchi ombor va buxgalteriya hisobining yuritilishi.

Ulgurji savdoni amalga oshirish shartlari va tartibi O'zbekiston Respubliikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 125- son qaror[14] va 2002-yil 27-noyabrdagi «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish

[14] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining iste'mol tovarlari olib kelish va sotish masalalari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va ularning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida» 2003-yil 16-oktyabrdagi 446-son qarori 1-ilovasining 5-bandiga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar bilan)

chora-tadbirlari to'g'risida» 407- son qaror va «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom» bilan belgilangan.

Ushbu me'yoriy hujjatlarga asosan 2002-yil 1-dekabrdan boshlab ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasini olgan taqdirda naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha faqat tuzilgan shartnomalar asosida nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg'un savdo tarmog'iga ega bo'lgan yuridik shaxslarga, maxsus iste'molchilarga, davlat ta'minoti muassasalariga, davlat ta'minoti muassasalarini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan savdo firmalariga, o'z ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati uchun yuridik shaxslarga ulgurji sotadilar.

Ulgurji savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi guvohnomasini olish uchun yuridik shaxslar quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- tovarlarning saqlanishini, turkumlanishini, sortlarga ajratilishini va butligini ta'minlovchi o'z omborlari va asbob-anjomlari mavjud bo'lgan moddiy-texnika bazasiga ega bo'lishi lozim;
- ustav jamg'armasini shakllantirgan bo'lishi lozim.

Ulgurji savdoga ruxsat guvohnomasini olish uchun yuridik shaxslar soliq to'lovchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tuman (shahar) hokimligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari zarur:

- ariza;
- yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma nusxasi;
- ustavning «ulgurji savdo» faoliyat turi ko'rsatilgan, notarial tasdiqlangan nusxasi;
- yuridik shaxsda tegishli moddiy-texnik bazasining mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- ustav jamg'armasining Nizomda talab qilingan pul mablag'lari to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi.

24.2. Tovar - moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannarxi) va sotish baholarini aniqlash tartibi

Respublikamizning 4-son BHMS «Tovar-moddiy zaxiralar»ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi (Tt), o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1.Sotib olishda tovar yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan baho (SHb);

2.*Sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlar (Sx).* Bularga sotib olish bilan bog'liq brokerlik xizmatlari, komission (vositachilik) xarajatlar, tashib keltirish xarajatlari (temir yo'l, suv, havo yo'llari va boshqa transport tashkilotlarning yuklash, tushurish va yetkazib berish xarajatlari), tovarlarni sertifikatlash xarajatlari va shu kabilar kiradi;

3.Bojxona to'lovlari (Bt). Bojxona to'lovlariga aksiz solig'i (A), qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), bojxona boji (Bb), bojxona yig'imi (By) kiradi. Bu xarajatlar chet eldan import qilingan tovarlarga taalluqli bo'lib, ularning summalari bojxona yuk deklarasiyalarida (BYUD) ko'rsatiladi.

Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati (tannarxi)ni aniqlashning matematik qurilmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mathbf{Tt = SHb + Sx + Bt}$$

bu yerda: $\mathbf{Bt = A + QQS + Bb + By}$

Ushbu matematik qurilma bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymatini (tannarxini) belgilash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Birinchidan, kelib tushgan tovarlarning sotib olish bahosi boshlang'ich hujjatlarga (schot fakturalar, BYUD) asosan aniqlanadi. Ushbu baholar tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga mos bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, boshlang'ich hujjatlarga (schot fakturalar, BYUD) asosan ta'minotchilarga har bir tovar bo'yicha to'langan QQS summasi topiladi. QQS summasi uni sotib olish bahosini 20 foizga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi.

Uchinchidan, tovarlarni sotib olinishiga bevosita aloqador bo'lgan turli xizmat xarajatlari (tashib keltirish, brokerlik, vositachilik, sertifikatlash va boshqalar) summasi ushbu xizmatlarni ko'rsatgan tashkilotlarning taqdim etgan schotlari bo'yicha aniqlanadi. Topilgan summa jami kelib tushgan tovarlarning sotib olish qiymatiga (QQS siz) bo'linadi va natija 100 foizga ko'paytirilib, bir so'mlik tovarga to'g'ri keladigan xizmat xarajatlarining o'rtacha foizi aniqlanadi. Ushbu o'rtacha foizni har bir tovarning sotib olish narxiga (QQS siz) ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali uning sotib olish bahosiga kiritiladigan xizmat turlari xarajatlarining o'rtacha summasi aniqlanadi.

To'rtinchidan, import tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlarining har bir birlik tovarning sotib olish narxiga qo'shiladigan mos ravishdagi aksiz solig'i, QQS solig'i, bojxona boji va bojxona yig'imlari summasi topiladi.

Ushbu sanab o'tilgan muolajalar amalga oshirilgandan so'ng kelib tushgan har bir birlik tovarning o'rtacha sotib olish qiymati (tannarxi) yuqoridagi matematik qurilma asosida topiladi.

1-misol. Ulgurji savdo korxonasida 2008-yil 15-yanvar kuni 25-son schot faktura bilan gilam to'qish fabrikasidan quyidagi tovarlar qabul qilindi.

№	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Soni	Bahosi	Jo'natish qiymati	QQS, 20 %	To'lov summasi
1.	Gilam 1,4*1,8	Dona	100	7500	750000	150000	900000
2.	Gilam 1,8*2,6	Dona	200	9000	1800000	360000	2160000
3.	Gilam 2*3	Dona	300	12500	3750000	750000	4500000
	Jami				6300000	1260000	7560000

Qo'shimcha axborotlar: *1. Tashib keltirish xarajatlari - 93000 so'm, sertifikat xarajatlari -126000 so'm, brokerlik xizmati –63000 so'm.*

Hisob-kitoblarga izohlar:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida bir birlik gilam mahsulotlarining sotib olish qiymati ularning turlari bo'yicha quyidagicha hisob-kitob qilinadi (24.1-jadval).

24.1-jadval

Bir birlik gilam mahsulotlarini sotib olish qiymati (tannarxi)ning hisob-kitobi

№	Tovarning nomi	Shartnoma bahosi	QQS, 20%	Xizmat xarajatlari		Sotib olish qiymati (tannarx)
				%	Summa	
1	2	3	4*	5**	6***	7****
1.	Gilam 1,4*1,8	7500	1500	4,48	336	9336
2.	Gilam 1,8*2,6	9000	1800	4,48	403	11203
3.	Gilam 2*3	12500	2500	4,48	560	15560

**4-ustuncha bo'yicha har bir tovarga to'g'ri keladigan QQS summasi 3- ustunchada ko'rsatilgan shartnoma bahosini 20 foizga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi.*

***5 –ustunchada 1 so'mlik tovarga to'g'ri keladigan sotish bilan bog'liq jami xarajatlarning o'rtacha foizi tovarlarni sotib olishga ketgan jami sotib olish xarajatlarini ularning jami shartnoma baholaridagi qiymatiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali topiladi. Bizning misolimizda ushbu foiz - 4,48% (93000+63000+126000) / 6300000 *100 %).*

****6-ustuncha 3-ustunchadagi summalarni 5-ustunchada foiz miqdoriga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish orqali topiladi.*

***** 7-ustuncha summasi har bir tovar bo'yicha 3, 4,6 – ustunchalar summalarini qo'shish orqali topiladi.*

Bitta hujjat bilan ko'p sonli tovarlar sotib olinganda tovarlarni sotib olishga doir boshqa xarajatlarni har bir tovarning sotib olish qiymati (tannarxi)ga kiritishda alohida tovarlarning sotib olish (shartnoma) baholardagi qiymatining barcha tovarlarning sotib olish (shartnoma) baholardagi jami qiymatidagi hissalari topiladi. Shundan so'ng ushbu hissalarga qarab barcha tovarlarni sotib olishga ketgan jami qo'shimcha xarajatlar tovarlar o'rtasida bo'lib chiqiladi. Har bir tovarga tegishli sotib olishga doir jami qo'shimcha xarajatlarni ushbu tovarlarning soniga bo'lish orqali bir birlik tovarga to'g'ri keladigan va uning sotib olish qiymati (tannarxi)ga kiritiladigan summasi topiladi. Yuqoridagi misolimiz bo'yicha ushbu hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi (24.2-jadval).

24.2-jadval

Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarni tovarlar o'rtasida taqsimlash va ularning sotib olish qiymati (tannarxi)ga kiritishning hisob-kitobi

№	Tovarning nomi	Soni	Shartnoma baholari-dagi qiymati	Xizmat xarajatlari		Bir birlik tovar tannarxiga kiritiladigan qo'shimcha sotib olish xarajatlari
				%	Summa	
1	2	3	4	5*	6**	7***
1.	Gilam 1,4*1,8	100	750000	11,9	33600	336
2.	Gilam 1,8*2,6	200	1800000	28,6	80600	403
3.	Gilam 2*3	300	3750000	59,5	168000	560
	Jami		6300000	100	282000	X

Hisob-kitoblarga izohlar:

**5-ustuncha bo'yicha har bir tovarga to'g'ri keladigan qo'shimcha sotib olish xarajatlarining barcha tovarlarni sotib olishga ketgan jami qo'shimcha xarajatlardagi hissasi 4-ustunchaning har bir satridagi summani ushbu ustunchaning jami summasiga bo'lish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi.*

***6 –ustunchada har bir tovar guruhiga to'g'ri keladigan jami sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar 5-ustunchaning har bir satrida keltirilgan hissani 6-ustunchada keltirilgan jami sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarning jami summasiga ko'paytirish va 100 foizga bo'lish yo'li bilan topiladi.*

****7-ustunchada bir birlik tovarning tannarxiga kiritiladigan sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarni topish uchun 6-ustunchadagi har bir satr summasi 3-ustunchada keltirilgan ushbu tovarlarning jami soniga bo'linadi.*

Tovarlar chet el mamlakatlaridan import qilingan taqdirda ularning sotib olish qiymatiga (tannarxiga), yuqorida aytib o'tganimizdek, bojxona to'lovlari ham kiritiladi.

2-misol. Aytaylik, 1-chi misolda keltirilgan gilamlar Turkiya davlatidan sotib olingan, deylik. BYUD ga muvofiq tovarlarning bojxona qiymati quyidagicha: a) gilam 1,4* 1,8 – 2,65 AQSH dollari; b) gilam 1,8* 2,6-3,20 AQSH dollari; v) gilam 2*3 –5 AQSH dollari. Sotib olishga doir xarajatlar xuddi 1-misoldagidek. Tovarlarni sotib olish qiymati (tannarxi) ga bojxona to'lovlari ham kiritiladi, jumladan gilam mahsulotlari uchun to'lovlar quyidagicha belgilangan deylik: a) aksiz solig'i – 90 %, QQS – 20 %; bojxona boji – yo'q, bojxona yig'imi – bojxona qiymatidan 25%. Sotib olish sanasiga kurs –980 so'm.

Ushbu misolga asosan bir birlik import gilam mahsulotlarining sotib olish qiymati ularning turlari bo'yicha quyidagicha hisob-kitob qilinadi (24.3-jadval).

24.3-jadval

Import tovarlar tannarxining hisob-kitobi

№	Sotib olish qiymati (tannarxi) elementlari	Tovar guruhlari bo'yicha summa		
		1,4*1,8	1,8*2,6	2*3
1.	Tovar qiymati, A)AQSH dollarida B) So'mda	 2,65 2600	 3,20 3140	 5,0 4900
2.	Bojxona to'lovlari, jami	4810	5809	9065
	Shu jumladan			
2a.	Aksiz solig'i (90%)*	2340	2826	4410
2b.	QQS (20%)**	988	1193	1862
2v.	Bojxona boji ***	-	-	-
2g.	Bojxona yig'imi (bojxona qiymatidan 25%)****	1482	1790	2793
3.	Bir birlik tovarni sotib olishga sarflangan qo'shimcha xarajatlar:			
3a.	Foizlarda *****	12,0	12,0	12,0
3b.	So'mda (3a x 1b/100)	312	376	588
4.	Bir birlik tovarni jami sotib olish qiymati (tannarxi), so'mda (1+2+3b)	7722	9325	14553

Hisob-kitoblarga izohlar:

**Aksiz solig'i summasi tovar qiymatidan belgilangan foizlar bo'yicha hisoblanadi, ya'ni 2a-satr summasiga 1 b satr x 90 /100;*

***QQS summasi tovar qiymati va aksiz solig'i birgalikda olingan summadan belgilangan foizlar bo'yicha hisoblanadi, ya'ni (1b + 2a) x20 /100;*

**** Bojxona boji gilam bo'yicha mavjud emas, chunki Turkiya Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida bojxona boji undirilmasligi bo'yicha xalqaro shartnoma mavjud;*

*****Bojxona yig'imi summasi tovarlarning bojxona qiymatidan (tovar qiymati + aksiz solig'i + QQS) belgilangan foizlarda hisoblanadi, ya'ni (1b+2a+2b) x 25/100;*

****** 1 so'mlik tovarga to'g'ri keladigan sotish bilan bog'liq xarajatlarning o'rtacha foizi tovarlarni sotib olishga ketgan jami sotib olish xarajatlarini ularning jami shartnoma baholaridagi qiymatiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali topiladi. Bizning misolimizda ushbu foiz -10,7 % ni tashkil qiladi.*

(93000+63000+126000) / (100x 2600 + 200 x3140 + 300 x 4900) x100%.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga muvofiq topilgan sotib olish qiymati (tannarxi) asosida tovarlar omborlarga kirim qilinishi lozim.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar xaridorlarga sotish baholarida sotiladi. Tovarlarni sotish bahosi (Sb) o'z ichiga, asosan, quyidagi ikkita elementni oladi:

1.Tovarlarni sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi (T) – ushbu element, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z ichiga tovarlarni shartnomaviy baholardagi sotib olish qiymati hamda ularni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarni oladi.

2. Savdo ustamasi (Su).

Demak, tovarlarni sotish bahosini matematik qurilma sifatida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Sb = T + Su$$

Savdo ustamalari ulgurji savdo korxonalarining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Savdo ustamalari ko'rinishida olingan daromad (D) ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning sotish baholaridagi qiymati (Sq) va sotish tannarxi (St) o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi, ya'ni

$$D = Sq - St$$

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning sotish baholarini belgilashda quyidagi tartiblarga amal qilinishi lozim.

1. Savdo ustamalarining chegaralari davlat tomonidan belgilanmagan tovarlar bo'yicha sotish baholari kelishuv shartnomalariga muvofiq belgilanadi. Bunday tovarlar bo'yicha ularning sotish baholari shartnomalarda qat'i summada yoki baza deb olingan sotib olish qiymati (tannarx) ustiga kelishilgan savdo ustamalari foizini ko'rsatish yo'li bilan belgilanadi.

2. Savdo ustamalari me'yorlarining chegaralari davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlarining alohida turlari (bunday harakt yerdagi iste'mol tovarlari sifatida respublikamizda un, o'simlik yog'i va shakar hisoblanadi) bo'yicha sotish baholari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-

oktabrdagi "Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlari bilan savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 433-son qarori va ushbu qarorga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi va Davlat Soliq Qo'mitasining qo'shma qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2001-yil 13-noyabrda 1083- son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlarining alohida turlari (un, o'simlik yog'i va shakar)ga savdo tashkilotlari tomonidan cheklangan savdo ustamalarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizom» ga asosan baza deb olingan sotib olish qiymatidan ulgurji va chakana savdo ishtirokchilarining sonidan qat'i nazar 25 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni e'tiborga olgan kelishuv shartnomalariga muvofiq belgilanadi. Ushbu Nizomda belgilangan tartibga ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlarining alohida turlari (un, o'simlik yog'i va shakar) bo'yicha savdo ustamalarining belgilangan eng ko'p miqdori ulgurji-chakana savdo bo'g'inlari o'rtasida ularning sonidan qat'i nazar bo'linishi, shuningdek sotish jarayonida qatnashayotgan har bir ishtirokchi (bo'g'in) o'zining schot-fakturasini to'ldirishda belgilangan tartibga amal qilishi shart.

3. Savdo ustamalari me'yorlarining chegaralari davlat tomonidan belgilangan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bo'yicha sotish baholari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi "Dori – darmon vositalari va tibbiyot buyumlari sotishni tartibga solish to'g'risida" gi 1-son qarori, 2000-yil 5-avgustdagi "Ichki bozorni dori – darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 307-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2000-yil 29-sentabrda 974- son raqam bilan ro'yxatga olingan "Dori – darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini sotishda savdo ustamalarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq ularning keltirish manbalariga ko'ra baza deb olingan sotib olish qiymatidan ulgurji va chakana savdo ishtirokchilarining sonidan qat'i nazar kelishuv shartnomalarida quyidagicha belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining lisenziyasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan import bo'yicha sotib olingan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bo'yicha – 20 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni e'tiborga olgan holda;

- Qolgan dori – darmonlar bo'yicha esa 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni e'tiborga olgan holda.

Savdo ustamalarini savdo bo'g'inlari o'rtasida to'g'ri taqsimlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu taqsimot shunday bo'lishi kerakki, u tovarlarni, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol tovarlari, dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini, iste'molchilarga yetkazuvchi barcha savdo bo'g'inlarini daromad olishiga va buning evaziga o'zlarining xarajatlarini qoplashi va ma'lum miqdordagi foydani olinishiga imkon yaratishi kerak. Savdo ustamalarini birinchi bo'g'inlarda katta me'yorda qo'yilishi va belgilangan chegaraviy me'yorni to'liq ishlatilib qo'yilishi oxirgi savdo bo'g'inida tovarlarni savdo ustamasi bilan sotish huquqini yo'qolishiga, buning evaziga ularni sotishdan daromad emas, balki zarar ko'rishga olib kelishi mumkin.

24.3. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hujjatlashtirilishi

Ulgurji savdo korxonalariga tovarlar tuzilgan shartnomalar asosida quyidagi manbalardan kelib tushadi:

- turli mulk shaklidagi ishlab chiqarish korxonalari;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi va tayyorlovchi korxonalari;
- chet el importyorlari.

Tovarlarning sotib olinishi va kirimini hujjatlashtirish ularning yuqorida keltirilgan kelib tushish manbalariga hamda ularni tashib keltirish transportining turiga bog'liq. Ulgurji savdo korxonalariga tovarlar chet el mamlakatlaridan, respublikamizning boshqa shahar va tumanlaridan, shuningdek mahalliy ta'minotchilardan turli transport vositalarida (temir yo'l, suv va havo yo'llari transporti, ixtisoslashgan avtotransport korxonalarining transport vositalari va savdo korxonasining xususiy avtotransporti) tashib keltirilishi mumkin.

Chet mamlakatlardan iste'mol tovarlarini olib kelinishining alohida shartlari va tartibi mavjud. Ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 20- avgustdagi «Lisenziyalarni bekor qilish hamda iste'mol tovarlarini olib kelish va O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida sotishni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 295-son qarori va ushbu qarorga muvofiq ishlab chiqilgan «Yuridik va

jismoniy shaxslar tomonidan iste'mol tovarlarini olib kelish va sotish tartibi to'g'risida Nizom»[15] da keltirilgan. Ushbu qaror va Nizomga muvofiq chet eldan import qilingan barcha iste'mol tovarlari respublikamiz hududida erkin muomalaga faqat bojxona rasmiylashtiruvidan keyin chiqariladi. Chet eldan keltirilgan iste'mol tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Bojxonaga iste'mol tovarlarini qabul qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan belgilangan tartibda tuzilgan va ro'yxatga olingan xorijiy kontraktlar mavjud bo'lishi kerak:

- bojxona chegerasi orqali iste'mol tovarlarini olib kelishda bojxona to'lovlari va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiy to'lovlar va yig'imlar o'z vaqtida va to'liq to'lanishi lozim;
- olib kelinayotgan iste'mol tovarlariga ta'minotchilarning muvofiqlik sertifikatlari mavjud bo'lishi lozim.
- sotib oluvchi ulgurji savdo korxonalari bojxona rasmiylashtiruvida bojxona yuk deklarasiyasi (BYuD) bilan birga o'zining rasmiy distribyuterlarining ro'yxatini belgilangan shaklda taqdim etishlari shart.

Bojxonadan import tovarlar savdo korxonasi vakili (ekspeditori) tomonidan BYuD asosida qabul qilib olinadi. Ombor mudirlari ekspeditorlardan import tovarlarni tasdiqlangan shakllardagi «Kirim orderi» (M-3, M-4) tuzish yo'li bilan qabul qilib oladilar.

Boshqa shaharlarda joylashgan ta'minotchilardan tovarlar asosan temir yo'l va yo'l avtotransporti orqali, bir shaharda joylashgan ta'minotchilardan ular asosan yo'l avtotransporti bilan tashib keltiriladi.

Ta'minotchilar tovarlarni ulgurji savdo korxonalariga jo'natishni tuzilgan shartnomalarga asosan oldindan to'lovni kamida 15 foizi o'tkazib berilgan taqdirda amalga oshiradilar. Tovarlarni jo'natishda ta'minotchilar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- yuklash hujjatlari – bular temir yo'l nakladnoyi, tovar-transport nakladnoyi;
- tovarlarni sifat jihatlarini tasdiqlovchi hujjatlar – bular muvofiqlik sertifikati, spesifikasiyalar, laboratoriya tahlili dalolatnomasi, o'lchov tahlili dalolatnomasi, o'rov yorliqlari;
-hisob-kitob hujjatlari – bular belgilangan shakllarda tuzilgan schot-fakturalar va to'lov talabnomasi.

[15] O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2002- yil 31-avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan, № 1169.

Tovarlarni bevosita ta'minotchilardan yoki temir yo'l transporti stansiyasidan qabul qilish va olib kelish uchun ulgurji savdo korxonalari o'zlarining vakillarini safarbar etadilar va ularning nomlariga ishonchnomalar beradilar. Tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2003-yil 7-maydagi 62-son bo'yrug'i bilan tasdiqlangan «Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalarni berish va ishonchnomalar bo'yicha ularning berish tartibi to'g'risida Nizom» va unga Moliya Vazirligining 2003-yil 28- oktabrdagi 121-son buyrug'i bilan kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ishonchnoma berilgan vakil boyliklarni olganidan so'ng korxona buxgalteriyasiga topshiriq bajarilganligi to'g'risidagi va olingan tovar-moddiy boyliklarni omborxonaga yoki tegishli moddiy javobgar shaxsga topshirganligi to'g'risidagi hujjatlarni taqdim etishi (topshirishi) shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar amal qilish muddati tugagan kundan keyingi kun uni bergan korxonaga qaytarilishi kerak.

Tovar-moddiy boyliklarni olish va olib chiqib ketish uchun berilgan ishonchnomalar ularni yetkazib beruvchilarda qoladi. Yetkazib beruvchida ishonchnomaning tartib raqami va berilgan sanasi tovarlarni jo'natish hujjatlarida (schot-faktura, tovar-transport nakladnoyi, temir yo'l nakladnoyi, yuk kvitansiyasi va shu kabi yuklab jo'natilgan tovarlarga guvohlik beruvchi hujjatlarda) ko'rsatiladi. Yetkazib beruvchida tovarlarni yuklab jo'natish tugagach ishonchnomalar moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hujjatlari bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

Temir yo'l stansiyalariga vagonlarda (konteynerlarda) yetkazib keltirilgan tovarlarni qabul qilib olish ulgurji savdo korxonalarining ishonchnoma, farmoyish va yuk kvitansiyalariga ega bo'lgan vakillari (odatda, ekspeditorlar) tomonidan amalga oshiriladi. Vagonlarda plombalar buzilmagan bo'lsa, bu to'g'risida ekspeditor temir yo'l nakladnoyi va yuk kvitansiyasiga imzo chekadi, shuningdek tovarlarni nakladnoy bo'yicha qabul qilib oladi.

Agar vagon (konteyner) plombalarida, tovarlar joylashtirilgan idishlar va o'rovlarda buzilish hollari bo'lsa, shuningdek tovarlar miqdori, og'irligi va soni bo'yicha temir yo'l nakladnoyida ko'rsatilganidan chetlanishlar aniqlansa, u holda ekspeditor barcha tovarlarni tortishni, sanashni, shuningdek aniqlangan chetlanishlar bo'yicha tasdiqlangan shakldagi «Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma»ni (M-7) tuzishni talab qiladi. Ushbu dalolatnoma uch nusxada tuziladi, uning bir

nusxasi transport tashkilotiga, ikki nusxasi–ulgurji savdo korxonasi ekspeditoriga beriladi. Dalolatnomaga stansiya boshlig'i, ulgurji savdo korxonasining vakili (ekspeditor) va tovarlarni qabul qilishda ishtirok etgan boshqa shaxslar imzo chekadilar. Dalolatnomada tovarning nomi, uning haqiqiy soni va og'irligi, yetkazib beruvchining hujjatiga muvofiq soni va og'irligi, shuningdek son va og'irlik bo'yicha aniqlangan farq ko'rsatiladi.

Temir yo'l stansiyasida tovarlar kamomadining miqdori tabiiy kamayish me'yorlari doirasida aniqlansa, u holda M-7 shaklli dalolatnoma tuzilmaydi, balki aniqlangan kamomad to'g'risida temir yo'l nakladnoyida yozuvlar qilinadi. Agar tovarlar og'irligi aniqlanmasdan qabul qilinsa, bu haqda temir yo'l nakladnoyiga yozuvlar qilinishi lozim.

Qabul qilishda kamomad yoki tovarlar buzilishi aniqlanmagan bo'lsa, u holda ekspeditor yuk kvitansiyasiga, temir yo'l nakladnoyiga tovarlarni qabul qilib olganligi to'g'risida imzo chekadi, temir yo'l stansiyasi vakili tovarlarni topshirganligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Agar, tovarlar temir yo'l stansiyasidan ulgurji savdo korxonasiga avtotransport tashkilotining transporti bilan yetkazilsa, u holda ekspeditor uch nusxada tovar-transport nakladnoyi tuzadi, uning bir nusxasini tovarlarni qabul qilgan shaxsning imzosi bilan o'zida qoldiradi, qolgan tovarlarni topshirganligi to'g'risida imzo chekilgan ikki nusxasini yetkazib beruvchi avtotransport tashkiloti vakiliga beradi. Temir yo'l stansiyasidan ulgurji savdo korxonasiga tovarlarni yetkazib berishga va ularning butligiga ushbu vaqtdan boshlab avtotransport tashkiloti vakili javob beradi. Agar, avtotransport tashkiloti vakili bilan tovarlarni ekspeditorning o'zi ulgurji savdo korxonasigacha kuzatib borsa, u holda tovar-transport nakladnoyining bir nusxasi avtotransport tashkiloti vakiliga ko'rsatgan xizmati uchun to'lov hujjatlarini taqdim etish uchun beriladi.

Tovarlar ta'minotchilarning avtotransporti orqali jo'natilganda, shuningdek savdo korxonasining o'z avtomashinasida yuborilganda ekspeditorga bir nusxa tovar-transport nakladnoyi (TTN) va bir nusxa schot-faktura taqdim etiladi. Bu holda ham ombor mudiri tovarlarni ekspeditordan M-4 shaklli kirim orderi tuzish orqali qabul qilinadi. Qabul qilishda chetlanishlar aniqlansa, shuningdek hujjasiz tovarlar kelib tushganda ombor mudiri transport tashkiloti yoki ta'minotchi vakili, ekspeditor va boshqa xodimlar ishtirokida M-7 shaklli «Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma»sini tuzadi va u bo'yicha tovarlarni moddiy javobgarlikka qabul qiladi.

Ekspeditorlar qabul qilingan va omborlarga topshirilgan tovarlar bo'yicha belgilangan shakl (MX-21) va tartibda hisobot topshiradilar.

Ekspeditorlarning tashib keltirgan va omborga topshirgan tovarlari bo'yicha tuzilgan hisobotlari asosida savdo korxonasining buxgalteriyasi yoki marketing bo'limi tasdiqlangan shakldagi «Kelib tushayotgan yuklarni hisobga olish jurnali»ni (M-1) yuritadi. Ushbu jurnalga yozuvlar TTN, temir yo'l nakladnoylari, schot-fakturalar, kirim orderlari, tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olish to'g'risida dalolatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ulgurji savdo korxonalari tomonidan tovarlarni tuzilgan shartnomalar asosida xaridorlarga sotilishi Soliq kodeksiga muvofiq tasdiqlangan shakldagi schot-faktura bilan rasmiylashtiriladi. Xaridorlarning talablariga ko'ra tovarlar o'zga transport tashkiloti avtotransporti bilan olib ketilayotgan holda schot-fakturaga qo'shimcha tarzda TTN ham tuzilishi mumkin. Tovarlarni vositachilik yoki konsignasiya yo'li bilan komissioner yoki konsignatorga sotishga berish ham schot-faktura bilan rasmiylashtiriladi, bu holda schot-fakturaning predmet qismida «Vositachilikka berish» yoki «Konsignasiyaga berish» degan yozuvlar bo'lishi lozim.

Tovarlarni bir ombordan ikkinchi omborga yoki boshqa saqlash joylariga, shuningdek omborlardan xususiy chakana savdo do'konlariga berilishi ichki almashuv nakladnoylari bilan rasmiylashtiriladi. Bunday ichki almashuv operatsiyasini amalga oshirish va rasmiylashtirishga asos bo'lib rahbarning farmoyishi hisoblanadi.

Omborlarda tovarlar saqlanish vaqtida to'kilishi, sinishi, qurib qolishi, buzilishi mumkin. Misol tariqasida, shakarning to'kilishi, shisha buyumlarning sinishi, bo'yoqning, aseton va boshqa suyuqliklarning qurib qolishi, to'kilib ketishi va boshqalarni keltirish mumkin. Ushbu holatlar sababli tovarlarning haqqoniy holati hisob ma'lumotlaridan kam bo'lib qolishi mumkin. Tovarlarni bunday sabablarga ko'ra kamayishi ikki turga bo'linadi:

- Me'yordagi tabiiy kamayishlar – tovar-moddiy boyliklarni oldingi va keyingi inventarizatsiya qilish vaqti ichidagi tabiiy kamayishining belgilangan me'yorlardagi miqdori.

- Me'yordan ortiq kamayishlar - tovar-moddiy boyliklarni oldingi va keyingi inventarizatsiya qilish vaqti ichidagi tabiiy kamayishining belgilangan me'yorlardan ortiq bo'lgan, shuningdek sinish, yaroqsiz holga kelish va buzilishi evaziga vujudga kelgan yo'qotishlar miqdori.

Tovarlarni tabiiy kamayishini har oyda dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra aniqlab borish va hisobdan chiqarish mumkin emas. Uni faqatgina inventarizatsiya tugagach tovarlar sanog'ida kamomadlar chiqqan holda maxsus hisob-kitob va belgilangan me'yorlar asosida aniqlash va hisobdan chiqarish lozim. Tovarlarning tabiiy kamayishi me'yorlari savdo korxonasining tabiiy-klimatik shartlariga, yilning fasllariga, tovarlarni saqlash muddatlari va sharoitlariga (masalan, muzlatkichlarda, yopiq omborlarda, ochiq ayvonlarda va boshqalar) qarab belgilanadi. Ushbu me'yorlar davlat mulki hisoblangan savdo korxonalari uchun tarmoq vazirliklarining maxsus ma'lumotnomalarida ko'rsatiladi.

Tovarlarni tabiiy kamayish hisob-kitobi quyidagi tartibda tuziladi.

Birinchidan, tovarlarning o'rtacha saqlash muddati (So'm) aniqlanadi. Buning uchun inventarizatsiya davrlari (oldingi va keyingi)dagi o'rtacha tovar zaxiralarining miqdori (Zo') o'rtacha bir kunda sotilgan tovarlar miqdoriga (To') bo'linadi.

Misol: *Yilning birinchi yarmida (oldingi va keyingi inventarizatsiya davrida) 360 tonna shakar sotildi. Ushbu davr oylari boshidagi tovar zaxiralari quyidagicha: 1.01. ga –30 tonna, 1.02. ga –25 tonna, 1.03.ga –40 tonna, 1.04.ga –50 tonna, 1.05.ga 20 tonna, 1.06.ga 10 tonna, 1.07.ga 8 tonna. 1-yarim yillikdagi kunlar soni 180 kun.* Yuqoridagi shartli ma'lumotlarga ko'ra bir kunlik sotish miqdori (To') –2 tonna (360/ 180). Shakarning 1-yarim yillik uchun o'rtacha zaxirasining miqdori

(Zo') = (30/2 + 25 + 40 + 50 + 20 + 10 + 8/2) / 6 = 168 /6 = 28 tonna

Shakarning o'rtacha saqlash muddati So'm = Zo' / To' = 28 / 2 = 14 kun.

Ikkinchidan, jami sotilgan va sotilmagan shakarning o'rtacha miqdorini topamiz. Bizning misolimizda u 388 tonnani (360+28) tashkil qiladi.

Uchinchidan, ma'lumotnomada yil fasli va saqlash muddatiga ko'ra belgilangan tabiiy kamayish me'yoriga asosan sotilgan va sotilmay qolingan o'rtacha tovarlar miqdoriga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish miqori topiladi. Misol uchun, tabiiy kamayish miqdori 0,02 % etib belgilangan, deylik. U holda bizning misolimizda tabiiy kamayish miqdori 77,6 kg ni tashkil qiladi (388000 x0,02 % /100 %).

To'rtinchidan, 1 kg shakarning sotib olish bahosi 1400 so'm deb olsak, u holda tabiiy kamayishning summasi bu tovar-moddiy boyliklarni oldingi va keyingi inventarizatsiya o'tkazish vaqti ichidagi yo'qotishlarining belgilangan me'yorlardagi miqdori 108640 so'mni (77,6*1400) tashkil qiladi.

Agar shakar bo'yicha inventarizatsiyada hisob ma'lumotlaridan chetlanish aniqlanmasa, u holda tabiiy kamayish hisob-kitobi tuzilmaydi. Agar inventarizatsiyada 100 kg shakar kamomad chiqsa, u holda uning 77,6 kg tabiiy kamayish, qolgan 22,4 kg yoki 31360 so'mi (100x1400 - 77,6 x1400) me'yordan ortiq kamayish deb tan olinishi lozim. Me'yordan ortiq kam chiqishlar kamomad deb tan olinadi va buning uchun moddiy javobgar shaxs aybdor deb topiladi. Agar, moddiy javobgar shaxs bo'yniga ushbu aybni qo'yishga asoslar yetarli deb topilmasa, u holda me'yordan ortiq kamomadlar ham korxonaning zarariga olib boriladi. Tovarlarning tabiiy kamayishi quyidagicha hisoblanadi.

Tovarlarning bunday yo'qotishlarini aniqlash va hujjatli rasmiylashtirish uchun korxona rahbari tomonidan komissiya tuziladi. Ta'minotchilardan qabul qilib olishda aniqlangan tovarlarning siniqligi, yaroqsizligi va sifat sertifikatiga mos kelmasligi natijalari M-7 shaklli «Tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish to'g'risida dalolatnoma»da aks ettiriladi. Tovarlar omborlarga qabul qilingandan so'ng ularni sotishgacha bo'lgan davrda sinishi, yaroqsiz holga kelishi va sifati pasayishi komissiya tomonidan maxsus «Tovarlarning buzilishi, sinishi to'g'risida dalolatnoma» bilan rasmiylashtiriladi.

Ulgurji savdo korxonalari ma'lum obyektiv sabablarga ko'ra (masalan, kirim qilingan tovarlar qayta ekspertiza qilinganda sifat sertifikati talablariga mos kelmaganda, hujjasiz kelgan tovarlar bo'yicha baholar bo'yicha ta'minotchilar bilan kelishuvga kelinmaganda va shu kabi boshqa sabablarga ko'ra) sotib olgan tovarlarini ta'minotchilarga qaytarib berishlari ham mumkin. Bunday hollarda tovarlarni ta'minotchilarga qaytarilishi uchun ulardan ishonchnoma talab qilinadi, haqiqatda qaytarilgan tovar schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi va ularning predmet qismida «tovarlarni qaytarish» yozuvi qo'yiladi.

24.4. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini yuritish usullari

Ulgurji savdo korxonalarida barcha moddiy–javobgar shaxslar tovarlarning ombor hisobini yuritadilar. Ombor hisobi natural (miqdor) ko'rinishda tovarlarning nomi, navi, soni va baholari bo'yicha kartochkalarda yoki maxsus kitoblarda yuritiladi. Ushbu hisob registrlariga yozuvlar tovarlarning kirimi va chiqimiga guvohlik beruvchi boshlang'ich hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Tovarlarning ombor hisobini yuritish ularni omborlarda saqlashning qabul qilingan usullariga bog'liq. Tovarlar omborlarda, odatda, har bir kelib tushgan partiyalar yoki ularning nomlari, navlari, kelib tushish baholari bo'yicha saqlanadi. Ushbu belgilariga qarab tovarlarning ombor hisobi partiyali va navli usullarda yuritilishi mumkin.

Baholarni erkinlashtirilishi, qat'i sotib olish baholarini belgilanmaganligi hozirgi sharoitda ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini asosan partiyali usulini keng qo'llashni ta'qozo etmoqda.

Tovar partiyalari deganda tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan sotib olish baholarida turli ta'minotchilardan kelib tushgan tovarlar majmuasi tushuniladi. U yoki bu nomdagi kelib tushgan tovarlar partiyasi omborda mavjud bo'lgan aynan shu nomdagi tovarlar tarkibiga kiritilmaydi, lekin kelib tushgan tovarlar partiyasi alohida saqlanadi. Bunga sabab shundaki, tovarlar nomi, artikuli, navi bo'yicha bir xil bo'lsada, lekin ular bir- biridan sotib olish baholari bilan farq qilishi mumkin. Ushbu tovarlarni bir-biriga qo'shib yuborish keyinchalik ular sotilganda sotish tannarxi va sotishdan olingan daromadni aniqlashda chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Tovarlarni partiyali hisobini yuritish uchun omborlarlarda har bir kelib tushgan partiyaga tasdiqlangan shakldagi «Partion karta» (MX-10) ochiladi. U ikki nusxada yuritiladi. Partion kartada tovar jo'natuvchining barcha kerakli rekvizitlari, tovarlar kirim hujjatining raqami va sanasi, tovarning nomi, artikuli, navi, bahosi, soni, og'irligi ko'rsatiladi. Partion kartalar kelib tushgan tovarlar partiyasi sotib bo'lguncha yuritiladi. Sotilgan tovarning soni (og'irligi) partion kartada chiqim hujjatlarining raqami va sanasi bo'yicha ko'rsatiladi. Tovar partiyasi to'liq sotib bo'lingach, partion karta yopiladi, unga ushbu partiya bo'yicha me'yordagi tabiiy kamayish, buzilish, sinish, yo'qotishlar to'g'risidagi ma'lumotlar (agar shunday holat yuz bergan bo'lsa) ham yoziladi. Partion kartani yopilishiga ombor mudiri, ombor hisobchisi, buxgalteriya xodimi imzo chekadilar. Tovar partiyalarini to'liq sotib bo'linganligi to'g'risida rahbar tomonidan tayinlangan komissiya tomonidan ikki nusxada maxsus tasdiqlangan shaklda «Tovar partiyalari bo'yicha chiqimlar to'g'risida dalolatnoma» (MX-12) tuziladi. Dalolatnomaning bir nusxasi partion kartalarning bir nusxasi bilan birgalikda buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi esa partion kartalarning ikkinchi nusxasi bilan birgalikda ombor mudirida qoladi. Omborda qolgan partion kartalar tovarlarning ombor hisobi registri hisoblanadi.

Tovarlarni saqlashning navli usulini faqat doimiy ta'minotchilardan shartnomalarga asosan bir maromda va o'zgarmas baholarda kelib tushayotgan tovarlar bo'yicha qo'llash mumkin. Ushbu usulda kelib tushgan yangi tovarlar oldindan omborda mavjud bo'lgan shu nomdagi, navdagi, bahodagi tovarlar safiga kiritiladi. Bir xil nomdagi, navdagi, bahodagi tovarlarga alohida kartochka yoki ombor kitobida ma'lum sahifalar ajratiladi. Ushbu registrlarga yozuvlar kirim va chiqim hujjatlari bo'yicha olib boriladi. Har bir yozuvdan so'ng tovarning qoldig'i chiqarib boriladi. Tovarlarning ombor hisobi kartochkalari va kitobi quyidagi shaklda yuritiladi (ilovaga qarang). Kamida bir marta har oyda ombor hisobi kartochkalari yoki kitobi ma'lumotlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanib borilishi lozim. Buning uchun ombor hisobi kartochkalarining kirim va chiqim, shuningdek davr boshi va oxiridagi qoldig'i bo'yicha jamlangan ma'lumotlar asosida tasdiqlangan shaklda «Tovar-moddiy boyliklarning saqlash joylaridagi qoldiqlari hisobi qaydnomasi» (MX-19) tuziladi. Ushbu qaydnoma ulgurji savdo korxonalari buxgalteriyasida tovar-moddiy boyliklar hisobining «operativ-buxgalterlik (qoldiq)» usulida yuritiladi, ya'ni unda har bir tovar bo'yicha bosh qoldiq, kirim va chiqim ma'lumotlari soniy va summaviy ko'rinishda jamlangan holda hisob baholari bo'yicha aks ettiriladi. Qaydnomaning bosh va oxirgi qoldiq, kirim va chiqim bo'yicha jami ma'lumotlari ombor mudirlari tomonidan tuzilgan va buxgalteriyaga topshirilgan tovar hisobotlarining mos ravishda bosh va oxirgi qoldiq, kirim va chiqim to'g'risidagi ma'lumotlariga mos bo'lishi kerak.

Konsignatsiya shartnomasiga asosan omborlarga qabul qilingan konsignasion tovarlarning ombor hisobi alohida partiyalari bo'yicha partion kartalarda yuritiladi. Ushbu partion kartalar konsignasion tovarlar to'lig'icha sotilgunga qadar yoki ushbu tovarlar egasiga qaytarilguniga qadar ombor mudirlari tomonidan ikki nusxada yuritiladi.

Omborlarga o'zga korxonalarga tegishli bo'lgan va mas'ul saqlash uchun kirim qilingan tovarlarning ombor hisobi alohida kartochkalarda partion yoki operativ buxgalteriya usullaridan birida yuritiladi.

24.5. Moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari, ularni tuzish, taqdim etish, tekshirish va tasdiqlash

Ulgurji savdo korxonalarining ombor mudirlari belgilangan muddatlarda «Tovarlar va idishlar harakati to'g'risida hisobot»ni keyingi betda keltirilgan

shaklda tuzishlari va buxgalteriyaga taqdim etishlari lozim. Tovar operatsiyalar ko'p bo'lgan ulgurji savdo korxonalarida ushbu hisobot, odatda, har kuni tuziladi. Hisobotning ko'p betlik bo'lib ketmasligi uchun unga kiritilgan tovarlar va idishlarning kirim va chiqim boshlang'ich hujjatlari bo'yicha alohida reestrlar tuzish, ushbu reestrlarning umumiy summalarini mos ravishda hisobotning kirim va chiqimida bir qatorlan aks ettirish, shuningdek ushbu reestrlar va boshlang'ich hujjatlarni hisobotga ilova qilishga ruxsat beriladi.

80-son namunaviy shakl

Tashkilot_____ *«Tasdiqlayman»*

Korxona (ombor) _____ _____

Rahbar

Moddiy javobgar shaxs _____ «__» _____20_y.

TOVAR VA IDISHLAR HARAKATI TO'G'RISIDA HISOBOT

«__» _____20_ y.

Kimdan olindi va kimga berildi	Hujjat		Summa, so'm, tiyin		Buxgalteriya belgisi
	№	Sana	Tovar	Idish	
Davr boshiga qoldiq					
KIRIM					
Jami kirim					
CHIQIM					
Jami chiqim					
Davr oxiriga qoldiq					

Ilova qilindi _____ hujjat

Hisobotni qabul qildim va tekshirdim.

Buxgalter _____ «___» _____200_ y.

(imzo)

Tuzatishlar bilan roziman. Tovarning _____ so'm, idishlarning _____ so'm ekanligini tasdiqlayman. «___» _____200_ y.

Moddiy javobgar shaxs _____ _____

(imzo) (f.i.sh.)

Tovar hisobotlari va ularga ilova qilinadigan kirim va chiqim hujjatlarining reestrlari ikki nusxada tuziladi. Tovar hisobotiga ombor mudiri (brigadir) va navbat bilan moddiy javobgar shaxslar brigadasining a'zolaridan biri imzo chekadi. Hisobotning birinchi nusxasi unga ilova qilingan ressetrlar va boshlang'ich hujjatlar bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

Ulgurji savdo korxonasining buxgalteriyasida tovar hisobotlari quyidagi tartibda tekshiriladi va ishlovdan o'tadi.

1. Hisobot davri (kuni) boshidagi tovar va idishlarning qoldig'i oldingi davr (kun) uchun tuzilgan hisobot davri (kuni) oxiridagi tovar va idishlarning qoldig'i bilan taqqoslanadi. Ular o'rtasidagi farq hisobotni noto'g'ri tuzilganligi to'g'risida guvohlik beradi.

2. Barcha kirim va chiqim hujjatlari hisobotning mos ravishda kirim va chiqim bo'limlarida to'g'ri aks ettirilganligi yoki ushbu kirim va chiqim hujjatlar kirim va chiqim hujjatlari reestrida to'g'ri aks ettirilganligi, reestrlarning umumiy summalari hisobotda to'g'ri ko'rsatilganligi tekshiriladi.

3. Hisobotning kirim va chiqimi jami summalarning to'g'riligi tekshirib chiqiladi.

4. Hisobotda davr oxiridagi tovar va taralarning qoldig'ini to'g'ri hisoblanganligi va ko'rsatilganligi tekshirib chiqiladi.

5. Hisobotga ilova qilingan boshlang'ich hujjatlar sonini to'g'ri ko'rsatilganligi tekshiriladi.

6. Hisobotning birinchi nusxasining oxirgi ustunchasida har bir hujjat qarshisiga korrespondensiyalanadigan schotning raqami qo'yib chiqiladi.

Buxgalterlik tekshiruvidan o'tgan tovar hisoboti korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan hisobot tovar va idishlarning buxgalteriyada sintetik va tahliliy hisobi registrlarini yuritishga asos bo'ladi. Hisobotning buxgalter tomonidan qabul qilib olganligi va tekshirganligi to'g'risida imzosi qo'yilgan va rahbar tomonidan tasdiqlangan ikkinchi nusxasi ombor mudiriga qaytariladi.

24.6. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar kirimining hisobi

Ulgurji savdo korxonalarida 21-son BHMSga muvofiq tovarlarning omborlarga kirimining sintetik hisobi ikki usulda olib borilishi mumkin.

1-usul. Omborlarga kirim qilingan tovarlarni bevosita 2910 «Omborlardagi tovarlar» schotida hisobga olish usuli. Ushbu schotda tovarlar uzluksiz hisob tizimi asosida sotib olish baholarida aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning tannarxiga ularni ta'minotchilardan

sotib olish baholaridagi qiymati va sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, brokerlik, bojxona, sertifikatlash va boshqa shu kabi xarajatlari) kiritiladi.

2-usul. Tovarlarni sotib olinishini maxsus schotda, ya'ni 1510 «Tovar moddiy boyliklarni sotib olinishi» schotida hisobga olish usuli. Ushbu schotda tovarlar uzluksiz hisob tizimiga muvofiq sotib olish baholarida, ya'ni tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning tannarxiga ularni ta'minotchilardan sotib olish baholaridagi qiymati va sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, brokerlik, bojxona va boshqa xarajatlar) kiritiladi. Sotib olishga doir barcha xarajatlar oldin 1510 «Tovar- moddiy boyliklarni sotib olinishi» schotida to'planadi va tovarlar omborga kirim qilingach ushbu schot 2910 «Ombordagi tovarlar» schotiga yopiladi.

Ulgurji savdo korxonalariga tovarlarni ta'minotchilardan sotib olinishi va kirim qilinishiga doir operatsiyalar ushbu usullarda schotlarda quyidagicha aks ettiriladi (24.4-jadval).

24.4-jadval

Tovarlar kirimini turli usullarda schotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa		1-usul		2-usul		Asos
		1-usul	2-usul	Debet	Kredit	Debet	Kredit	
1.	Ta'minotchilardan sotib olingan tovarlarning sotib olish qiymatidagi summasi	4000000	4000000	2910	6010	1510	6010	Schot-faktura
2.	Transport tashkilotining tovarlarni tashib keltirish bo'yicha ko'rsatgan xizmatlari summasi	100000	100000	2910	6010	1510	6010	Schot-faktura
3.	Brokerlik, vositachilik, sertifikatlash va boshqa tovarlarni sotish holiga keltirish bog'liq xarajatlar summasi	300000	300000	2910	6990	1510	6990	Schot-faktura
4.	Import tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlari (aksiz, QQS, bojxona boji, bojxona yig'imi) summasi	900000	900000	2910	6410, 6990	1510	6410, 6990	BYUD
5.	Sotib olingan tovarlarni omborlarga sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi bo'yicha kirim qilinishiga		5200000	-	-	2910	1510	Kirim dalo-latno-masi
	Jami tovar qiymati	**5200000**	**5200000**					

Yuqoridagi yozuvlardan ko'rinib turibdiki, ta'minotchilardan kelib tushgan tovarlarning sotib olish va omborlarga kirim qilish qiymati har ikkala usulda ham bir xil summani, ya'ni 5200000 so'mni tashkil etdi.

Tovarlarni omborga kirimi qilinishida son va sifat jihatdan chetlanishlar aniqlanganda ularning haqiqatda qabul qilingan summasiga yuqorida keltirilgan (1) yozuv beriladi. Tovar hujjatlaridan chetlanishlar summasiga ta'minotchilarga da'vo bildiriladi. Da'vo summasiga 21-son BHMS ga muvofiq da'vo xatiga asosan quyidagi yozuv beriladi:

Debet 4860 «Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar»;

Kredit 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar»;

6990 «Boshqa kreditorlik qarzlar»;

1520 «Tovar–moddiy boyliklarni sotib olinishi».

Kirim qilingan tovarlar turli sabablarga ko'ra ta'minotchilarga qaytarilganda yuqorida keltirilgan (1) yozuv qizil rang bilan berilishi (storno qilinishi) yoki ushbu yozuv teskari berilishi mumkin, ya'ni:

Debet 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» yoki

1520 «Tovar–moddiy boyliklarni sotib olinishi»;

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar».

Qaytarilgan tovarlar bo'yicha sotib olishda qilingan qo'shimcha xarajatlar (transport, brokerlik, bojxona to'lovlari) bo'yicha xizmat ko'rsatgan tashkilotlarga ularning aybi bo'lmaganda da'vo bildirib bo'lmaslik mumkin. Shuning uchun qaytarilgan tovarlarga to'g'ri keladigan sotib olishga tegishli bo'lgan qo'shimcha xarajatlar zarar sifatida 9430 «Boshqa operasion xarajatlar» schotiga olib borilishi lozim, ya'ni:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 1520 «Tovarlarni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar».

Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar bo'yicha da'vo bildirilganda quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 4860 «Da'volar bo'yicha olinadigan schotlar»;

Kredit 1520 «Tovarni sotib olinishiga doir qo'shimcha xarajatlar».

Ulgurji savdo korxonalariga tovarlar ta'minotchilardan tashqari boshqa manbalardan ham kelib tushushi mumkin, masalan, savdo korxonalarining ishlab chiqarish sexlaridan, shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan (agar ulgurji savdo korxonasi bosh korxona hisoblansa), ta'sischilardan, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan bepul va qarzga olinishi mumkin. Ushbu operatsiyalar schotlarda quyidagicha aks ettiriladi.

1. Xususiy ishlab chiqarish sexlaridan kirim qilingan tovarlarning ishlab chiqarish tannarxidagi qiymatiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish»;

2310 «Yordamchi ishlab chiqarish».

2. Shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan sotib olish baholaridagi qiymatiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 6110 «Alohida bo'linmalarga to'lanadigan schotlar»;

6120 «Shu'ba va qaram xo'jaliklarga to'lanadigan schotlar».

3. Ta'sischilardan kelib tushgan tovarlarning kelishuv baholaridagi qiymatiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlari».

4. Xorijiy ta'sischilardan ta'sis badali sifatida kelib tushgan tovarlar bo'yicha

a) korxona ro'yxatdan o'tgan sanadagi kurs bo'yicha hisoblangan kirim bahosidagi qiymatga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 4610 «Ta'sischilarning ustav kapitaliga badallar bo'yicha qarzlari».

b) Kelib tushish va ta'sis sanalari o'rtasida vujudga kelgan kurs farqlari summasiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqlari».

5. Bepul olingan tovarlarning kelib tushish bahosidagi qiymatiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 8530 «Bepul olingan mulk».

6. Qarzga olingan tovarlarni kelishuv baholardagi qiymatiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 6820 «Qisqa muddatli qarzlar».

24.7. Tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarining hisobi

Tovar sotilishining hisobi. Ulgurji savdo korxonalari tovarlarni o'zlarining distribyutorlariga (chakana savdo korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlarga), shuningdek boshqa tovarlarni o'z xo'jalik maqsadlarida foydalanuvchi tashkilot va muassasalarga tuzilgan shartnomalar asosida

kelishuv baholarida yirik va mayda partiyalar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotadilar. Tovarlarni ulgurji sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlar tannarxini hisobga olish uchun 21-son BHMSda 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» va 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schotlar ko'zda tutilgan. Ushbu schotlar orqali tovarlarni sotilishidan olingan daromadlar va sotilgan tovarlar tannarxini hisobga olish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Xaridorlardan kelib tushgan oldindan to'lov summasiga:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 6310 «Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar».

2. Xaridorlarga sotilgan tovarlarning sotish bahosidagi qiymatiga:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

4110 «Alohida bo'linmalardan olinadigan schotlar».

4120 «Shu'ba va qaram xo'jaliklardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar»;

3. Sotilgan tovarlarning tannarxiga:

a) tovarlarning sotib olish bahosidagi summasiga:

Debet 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi»;

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar».

b) sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar summasiga:

Debet 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi»;

Kredit 1520 «Tovarlarni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar».

4. Oldindan to'lov summasini yopilishiga:

Debet 6310 «Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar»

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»

5. Xaridorlardan qarzni kelib tushishiga:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti».

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

4110 «Alohida bo'linmalardan olinadigan schotlar»;

4120 «Shu'ba va qaram xo'jaliklardan olianadigan schotlar».

6. Tovarlarni sotishdan olingan daromadlarni hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishiga:

Debet 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar»

Kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»

7. Sotilgan tovarlar tannarxini hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishiga:

Debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija»;

Kredit 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi».

Sotilgan tovarlar xaridorlar tomonidan turli sabablarga ko'ra qaytarilishi mumkin. Bunday hollarda qaytarilgan tovarlar omborlarga son va sifat jihatdan qayta kirim qilinadi. Shuningdek, sotishdan olingan daromad va sotish tannarxi summalariga quyidagicha tuzatish yozuvlari beriladi (24.5-jadva):

24.5 -jadval

Tovarlarning qaytarilishiga doir operatsiyalarni schotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Schotlar korrespondensiyasi		Asos
			Debet	Kredit	
1.	Xaridorlardan kelib tushgan oldindan to'lov summasi qaytarilishi	300000	6310	5110	Bank ko'chirmasi
2.	Xaridorlar tomonidan qaytarilgan tovarlarning sotish bahosidagi qiymati	2000000	9040	4010, 4110, 4020	Schot-faktura
3.	Qaytarilgan tovarlar tannarxini ifodalovchi summa: a) tovarlarning sotib olish bahosidagi summasi; b) qaytarilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar summasi	1600000 150000	2910 1520	9120 9120	Schot-faktura, kirim dalolatnomasi
4.	Xaridorga kelib tushgan oxirgi to'lov qaytarilishi	1700000	4010, 4110, 4120	5110	Bank ko'chirmasi
5.	Qaytarilgan tovarlar bo'yicha sotishdan olingan daromad kamaytirilishi (9040 schotni yopilishiga)	2000000	9020	9040	Bosh kitob

Tovarlarni ichki almashuvining hisobi. Tovarlarni omborlar o'rtasidagi ichki almashuviga unga guvohlik beruvchi ichki nakladnoylar asosida quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar» (oluvchi);

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» (beruvchi).

Omborlardan tovarlarni xususiy chakana savdo do'koniga berilishida buxgalteriya va marketing bo'limi ularni chakana sotish baholarini aniqlab beradi. Chakana sotish bahosiga tovarning ta'minotchidan sotib olgan bahosi, tovarni sotib olishga sarflangan qo'shimcha xarajatlarning hissasi,

shuningdek sotib olish tannarxi ustiga qo'yiladigan savdo ustamasi kiritiladi.
Misol: *ombordan savdo do'koniga 10 dona bolalar kostyumi berildi, uning har birining sotib olish bahosi 20000 so'm, ushbu o'nta kostyumga to'g'ri keladigan sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarning summasi 5000 so'm, demak, xar bir kostyumga to'g'ri keluvchi xarajat summasi –500 so'm. Kostyumlarni savdo do'koniga berishda sotib olish tannarxi ustiga 10 % ustama qo'yildi, ya'ni har bir kostyum bahosi ustiga qo'yiladigan ustama –2050 so'm. Ichki almashuv nakladnoyida tovarlarning narxi 20000 so'm qilib ko'rsatiladi. Savdo do'koniga kirim qilish dalolatnomasida tovarning kirim bahosi 22550 so'm (20000+500+2050), jami summa 225500 so'm (22550 *10) etib ko'rsatiladi.*

Buxgalteriyada ushbu hujjatlar asosida tovarlarni ombordan savdo do'koniga kirimiga quyidagi yozuvlar qilinadi:

- tovarlarni sotib olish bahosidagi qiymatiga:

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» -200000so'm;

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» -200000so'm.

- sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarning tovarning sotish bahosiga kiritilishiga:

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» - 5000 so'm; **Kredit** 1520 «Tovarlarni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar» - 5000 so'm.

- tovarlarga qo'yilgan savdo ustamasi summasiga:

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» -20500 so'm;

Kredit 2980 «Savdo ustamasi»-20500 so'm.

Tovarlarning boshqa chiqimlarining hisobi. Ulgurji savdo korxonalari o'zlarining tovarlarini boshqa korxona va tashkilotlarga investisiya sifatida kiritishlari, bepul berishlari, xo'jalik maqsadlarida ishlatilganligi va boshqa sabablarga ko'ra hisobdan chiqarishlari ham mumkin. Harakatdagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq ushbu xarakterdagi operatsiyalar ham tovarlarni sotish va sotilgan tovarlarning tannarxi schotlari orqali quyidagicha aks ettiriladi (24.6-jadval).

Ulgurji savdo korxonalarida o'zga tashkilotlarga tegishli bo'lgan va vaqtinchalik mas'ul saqlashga shartnoma asosida qabul qilingan tovar-moddiy boyliklarning hisobi balansdan tashqari 002 «Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklar» schotida qabul qilish – topshirish

dalolatnomalari yoki schot-fakturalarda ko'rsatilgan baholarda olib boriladi. Ushbu baholarda tovar-moddiy boyliklarni mas'ul saqlashga kirim qilinishi ushbu schotning debetida, qaytarilishi esa ushbu schotning kreditida aks ettiriladi. Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy boyliklarning tahliliy hisobi korxonalar bo'yicha ularning tovar-moddiy boyliklari uchun ochilgan kartochkalarda, partion kartalarda olib boriladi.

24.6-jadval

Tovarlarning boshqa chiqimlarini schotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Schotlar korrespondensiyasi		Asos
			Debet	Kredit	
1.	Tovarlarni investisiya sifatida kiritilishi:				Ta'sis hujjatlari, schot faktura, bosh kitob ma'lumotlari
	a) kelishuv qiymati	500000	0610-0690	9020	
	b) tovarlarning tannarxi bo'yicha hisobdan chiqarilishi	450000	9120	2910, 1520	
	v)investisiyadan ko'rilgan daromad summasini hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishi	500000	9020	9910	
	g)investisiya sifatida kiritilgan tovarlar tannarxini hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishi	450000	9910	9120	
2.	Tovarlarni bepul berilishi:				Qaror, shartnoma, schot-faktura
	a)kelishuv qiymatiga	100000	4010	9020	
	b)tannarxiga	100000	9120	2910, 1520	
	v)bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga	100000	9430	4010	
3.	Xo'jalik inventarlariga aylantirilgan tovarlar tannarxi	60000	1080 9120	9010 2910	Qaror, dalolatnomasi

24.8. Ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi va uning natijalarining hisobi

19-son BHMS[16] ga muvofiq ulgurji savdo korxonalarida tovar va taralar quyidagi hollarda inventarizatsiya qilinishi lozim:

- qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o'g'rilik, o'zlashtirish va buzilishlar aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'in va boshqa favquloddagi holatlarda;
- xo'jalik yurituvchi subyektni tugatilishi, boshqa korxonalar tarkibiga qo'shilishi va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda.

[16] BHMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish». O'z.R.Adliya Vazirligi tomonidan 1999- yil 2- noyabrda ro'yxatga olingan, № 833.

Tovar va taralar inventarizatsiyasining hisobot yilida o'tkazilishi lozim bo'lgan majburiy soni, ularni o'tkazish sanalari, doimiy harakatdagi inventarizatsiya komissiyasi va bir marotabalik ishchi inventarizatsiya komissiyalarining tarkibi ulgurji savdo korxonasi rahbarining buyrug'i, farmoyishi yoki qarori bilan belgilanadi. Korxona buxgalteriyasida «Inventarizatsiyani o'tkazish to'g'risida buyruqlarni bajarilishini nazorat qilish kitobi» yuritiladi.

Tovar va taralar inventarizatsiyasini o'tkazish savdo korxonasi rahbari buyrug'iga asosan moddiy javobgar shaxslardan Inventarizatsiyani boshlash sanasiga hisobot tuzib berish, shuningdek ushbu hisobotga barcha kirim va chiqim hujjatlari kiritilganligi, Inventarizatsiyani boshlashga to'siqlik qiladigan hech qanday obyektiv sabablar yo'qligi to'g'risida tilxat olishdan boshlanadi. Inventarizatsiya komissiyasi raisi oxirgi hisobotga ilova qilingan barcha kirim va chiqim hujjatlariga «Inventarizatsiyagacha hisobotga kiritilgan» yozuvni va sanani qo'yadi hamda ularni imzolaydi. Oxirgi hisobot asosida korxona buxgalteriyasi inventarizatsiya boshlanish sanasiga tovar va taralar bo'yicha hisob ma'lumotlarini aniqlab beradi.

Omborlardagi tovar va taralarni inventarizatsiya qilishdan oldin inventarizatsiya komissiyasi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- tovar va taralar joylashgan binolardagi qo'shimcha kirish va chiqish eshiklarini plombalaydi;
- barcha tortish va o'lchash asboblarining sozligini tekshiradi;
- tovar va taralarni sanash, o'lchash oson bo'lish uchun ularning nomi, navi, o'lchami va boshqa belgilari bo'yicha alohida guruhlarga va joylarga ajratadi;
- ta'minotchilarning tara va boshqa o'rov materiallarida keltirilgan va ochilmagan (buzilmagan) holda turgan tovarlar alohida joylarga taxlanadi;
- o'zga yuridik shaxslarning mas'ul saqlashda bo'lgan tovar-moddiy boyliklarning ro'yxati olinadi va ular tekshirish uchun alohida joyga taxlanadi;

Bir nechta omborlarda saqlanayotgan tovar-moddiy boyliklar ma'lum ketma-ketlikda inventarizatsiya qilinadi. Bir xonadan ikkinchisiga o'tilganda tekshirishdan o'tkazilgan xona qulflanishi va inventarizatsiya tugaguncha plombalanishi lozim.

Tovar va taralarning inventarizatsiyasi o'lchash, tortish, sanash orqali amalga oshiriladi. Aniqlangan natijalar belgilangan shakldagi

«Inventarizatsiya ro'yxati»ga komissiya a'zolaridan biri tomonidan yozib boriladi. Tovarlarni o'lchash, tortish, sanash faqat ombor mudiri yoki moddiy javobgar shaxslar brigadasi a'zosi ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Inventarizatsiya ro'yxatida har bir tovar bo'yicha uning nomenklatura raqami, artikuli, navi, bahosi, soni ko'rsatiladi, ro'yxatning har bir beti oxirida unga yozilgan tovar-moddiy boyliklar tartib raqamining bosh va oxirgi soni ko'rsatiladi, shuningdek komissiya a'zolari o'z imzolarini qo'yadilar.

Inventarizatsiya o'tkazilayotgan vaqtda kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar moddiy javobgar shaxs tomonidan inventarizatsiya komissiyasi ishtirokida qabul qilinadi va ular bo'yicha alohida «Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida kelib tushgan tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiya ro'yxati tuziladi.

Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida rahbarning yozma ruxsati bilan ombordan chiqarilgan tovarlar bo'yicha komissiya tomonidan alohida «Inventarizatsiya o'tkazish vaqtida ombordan chiqarilgan tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiya ro'yxati tuziladi.

Omborlarda mas'ul saqlanayotgan o'zga yuridik shaxslarning tovar-moddiy boyliklari bo'yicha alohida «Mas'ul saqlashdagi tovar-moddiy boyliklar» nomli inventarizatsiya ro'yxati tuziladi. Moddiy javobgar shaxslarning bo'ynida bo'lgan, lekin boshqa joylarga mas'ul saqlashga berilgan tovarlar bo'yicha ham alohida ro'yxat tuziladi. Ushbu ro'yxatga ma'lumotlar chiqim hujjati asosida kiritiladi. Komissiya tovarlar mas'ul saqlanayotgan joydagi korxonadan ushbu tovarlar bo'yicha alohida inventarizatsiya ro'yxatini talab qilib oladi va undagi ma'lumotlarni o'zlari tuzgan inventarizatsiya ro'yxati ma'lumotlari bilan taqqoslaydi.

Inventarizatsiya varaqalari ikki nusxada tuziladi, moddiy javobgar shaxslar almashilayotganda yoki huquqni muhofaza etish organlari, auditorlik tashkilotlari ishtirokidagi hollarda esa uch nusxada tuziladi.

Qayta baholash maqsadida o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari komissiya tomonidan «Qayta baholash dalolatnomasi» bilan rasmiylashtiriladi

Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan to'liq rasmiylashtirilgan va buxgalteriyaga taqdim etilgan inventarizatsiya ro'yxati ma'lumotlari buxgalteriyada hisob ma'lumotlari bilan taqqoslanadi va inventarizatsiya natijalari aniqlanadi. Buning uchun maxsus «Taqqoslama qaydnoma»

tuziladi, unga har bir chetlanish aniqlangan tovar va tara bo'yicha quyidagi ma'lumotlar yoziladi: tovarning nomi, navi, artikuli, o'lchov birligi, bahosi, haqiqiy soni va summasi, hisobdagi soni va summasi, kamomad yoki ortiqchaning soni va summasi. Ushbu qaydnoma komissiya raisi, bosh hisobchi, ombor mudiri tomonidan imzolanadi va korxona rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etiladi

Rahbarning qarori inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishga asos bo'ladi. Inventarizatsiya natijalari hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi (24.7-jadval).

O'tkazilgan inventarizatsiya natijalari bo'yicha tovar va taralarning ombor hisobi registrlariga (kartochkalar, kitob, qaydnomalar) tuzatish yozuvlari qilinishi, shuningdek ular moddiy javobgar shaxslarning inventarizatsiyadan keyin tuzilgan birinchi tovar hisobotlarida mos ravishda kirim va chiqim qismlarda alohida qatorda aks ettirilishi lozim.

24.7-jadval

Tovarlar inventarizatsiyasi natijalarini schotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Schotlar korrespondensiyasi		Asos
			Debet	Kredit	
1.	Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar summasi (hisob baholaridagi qiymati)	10000	2910-2990	9390	Taqqoslama dalolatnoma, qaror
2.	Inventarizatsiyada tovarlarni sotish baholari oshirilishi; sotish baholarining pasaytirilishi	100000	2910-2990 3190	6230 2910-2990	Qayta baholash dalolatnomasi
3.	Inventarizatsiyada aniqlangan kamomadlar summasiga	30000	5910	2910-2990	Taqqoslama dalolatnoma, qaror
4.	Kamomadlarnining qoplanishi: a) moddiy javobgar shaxs zimmasiga b) korxona zarariga	 15000 15000	 4730 9430	 5910 5910	 Qaror, buyruq
5.	Inventarizatsiyada aniqlangan kamomad va ortiqchalar o'zaro qoplangan	30000	2910-2990	2910-2990	Dalolatnoma, qaror, buyruq

Ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklarning balans qiymati ularning egalik huquqida bo'lgan barcha tovar va taralarining haqiqiy sotib olish qiymati (tannarxi) summasidan tashkil topadi. Ushbu qiymatni balansda aks ettirish korxonada tovar va taralarning qaysi schotlarda va qaysi baholarda aks ettirilayotganligiga bog'liq. Buxgalteriya hisobida tovar

va taralar 2900 «Tovarlar hisobi schoti» da sotib olish qiymati (tannarxi) bo'yicha, unga tegishli bo'lmagan tovarlar 004 «Mas'ul saqlashdagi tovarlar» schotida aks ettirilgan bo'lsa, u holda hisob ma'lumotlari bo'yicha tovar va taralarning balans qiymati balans tuzish sanasida 24.1-chizmada keltirilgan tartibda topiladi.

Ombor (savdo do'kon)dagi tovar va taralarni inventarizatsiyada aniqlangan summasi
+
O'zga shaxslarning omborlarida mas'ul saqlashdagi tovar va taralarni inventarizatsiyada aniqlangan summasi
+
O'zga shaxslarga konsignasiya (komissiya) savdosi uchun berilgan tovar va taralarni inventarizatsiyada aniqlangan summasi
+
Tovar hisobotlariga kirim hujjatlari asosida kiritilgan yo'ldagi tovarlar va taralarning summasi
-
O'zga shaxslarning omborlarda mas'ul saqlashda bo'lgan tovar va taralarini inventarizatsiyada aniqlangan summasi
-
O'zga shaxslarning omborlardagi konsignasion (komissiya) savdosi uchun olingan tovar va taralarini inventarizatsiyada aniqlangan summasi
-
Hisobdan hujjat asosida chiqarilgan va jo'natishga tayyorlangan, lekin haqiqatda jo'natishga ulgirilmasdan inventarizatsiya paytida omborda turgan tovar va taralarning summasi

24.1-chizma. Tovar va taralarning balans qiymatini aniqlash tartibi

Agar tovar va taralar ulgurji savdo korxonasida 2900 «Tovarlar hisobi schotlari»da sotib olish xarajatlarisiz, ushbu xarajatlar esa alohida 1510 «Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar» schotida aks ettirilgan bo'lsa, u holda ularning balans qiymati yuqoridagi sxemada ko'rsatilgan elementlar summasiga 1510 «Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar» schotining balans tuzish sanasidagi qoldig'ini qo'shish yo'li bilan topiladi.

Agar tovar va taralar ulgurji savdo korxonasida 2900 «Tovarlar hisobi schotlari»da sotish baholarida (sotib olish qiymati, sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar va savdo ustamasi summalari birgalikda) aks ettirilgan bo'lsa, u holda ularning balans qiymati yuqoridagi sxemada ko'rsatilgan elementlar summasidan 2980 «Savdo ustamalari» schotining balans tuzish sanasidagi qoldig'ini ayirish yo'li bilan topiladi.

Tayanch iboralar

Ulgurji savdoni amalga oshirish shartlari - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 125- sonli qaror va «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom» bilan belgilangan shartlar va tartiblar.

Tovarni sotib olish qiymati (tannarxi) – bu tovarlarning sotib olinishi, tashib keltirilishi, bojxona boji, vositachilik haqi hamda boshqa qo'shimcha sarflar bilan birgalikda aniqlangan qiymati.

Tovarni ulgurji sotish bahosi – sotib olish qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamalari bilan birgalikda belgilangan qiymat.

Tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish – tovarlar kirimi va chiqimini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Tovar va taralar harakati to'g'risida hisobot- tovar-moddiy boyliklarning davr boshi va oxiridagi qoldig'i hamda ularning shu davrdagi kirimi va chiqimi to'g'risida axborotlarni pul birligida ifodalaydigan, moddiy javobgar shaxslar tomonidan belgilangan vaqtda tuziladigan va buxgalteriyaga topshiriladigan rasmiy hujjat.

Tovarlarning ombor hisobi – tovar-moddiy boyliklarning holati va harakatini son va summaviy ko'rinishda belgilangan hisob registrlarida yuritish.

Tovarlarning ulgurji sotilishi – tovarlarni katta miqdorda ularga egalik huquqini boshqalarga o'tkazish hamda hisob-kitoblarni naqdsiz amalga oshirish sharti bilan berilishi.

Schot-faktura – tovarlarning ulgurji sotilishiga guvohlik beruvchi yagona boshlang'ich hujjat.

Tovarlar kamomadi – tovarlarning inventarizatsiyada aniqlangan haqiqatdagi soni va summasini ularning hisob registrlarida aks ettirilgan soni va summasidan kam chiqishi.

Tovarlarning boshqa chiqimlari– bu tovarlarni o'z maqsadlarida ishlatilishi, sinishi, qurishi, yo'qotilishi va shu kabi sotishdan tashqari boshqa chiqimlari.

Tovar va taraning balans qiymati - bevosita xo'jalik yurituvchi subyekt mulki hisoblangan tovarlar qoldig'ining balans tuzish sanasida tannarx bo'yicha aniqlangan qiymati.

Nazorat uchun test savol -javoblari

1. Ulgurji savdo faoliyati bilan kim shug'ullanishi mumkin?

a) sanoat korxonasi;

b) xususiy do'kon;

v) faqat savdo korxonasi;

g) ushbu savdo turi bilan shug'ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega bo'lgan har qanday korxona.

2. Ulgurji savdo – bu:

a) tovarlarni katta partiyada naqd pulga sotish;

b) tovarlarni katta partiyada naqd va naqd pulsiz sotish;

v) tovarlarni katta va kichik partiyalarda naqd pulsiz sotish;

g) To'g'ri javob yo'q.

3. Quyidagilarning qaysi biri tovarning sotib olish qiymati (tannarxi) kirmaydi?

a) savdo bilan shug'ullanish ruxsatnoma uchun to'lov summasi;

b) ta'minotchiga to'langan tovar qiymati;

v) bojxona to'lovlari;

g) avtobazaga tashib keltirish uchun to'langan summa.

4. Quyidagilarning qaysi biri tovarning sotib olish qiymati (tannarxi) kiradi?

a) savdo bilan shug'ullanish ruxsatnoma uchun to'lov summasi;

b) ombor mudiri ish haqi;

v) tovarni sertifikatlash uchun to'langan to'lovlar;

g) avtobus haydovchisiga berilgan moddiy yordam.

5. Quyidagilarning qaysi biri to'g'ri?

a) tovarlar sanoat korxonasidan nakladnoy asosida kirim qilinadi;

b) tovarlar ta'minotchilarning schot-fakturalari va kuzatuvchi hujjatlari asosida kirim qilinadi;

v) faqat schot –faktura asosida kirim qilinadi;

g) sifat guvoh nomasi asosida kirim qilinadi.

6. Tovarlar kirimida kamomad aniqlansa:

a) tovarlar schot – fakturadagi qiymati bo'yicha kirim qilinadi;

b) tovarlar haqiqiy miqdori bo'yicha kirim qilinadi;

v) tovarlar kelishilgan holda kirim qilinadi;

g) to'g'ri javob yo'q.

7. Quyidagilarning qaysi biri tovarning sotib olish hujjatiga kirmaydi

a) Schot-faktura;

b) Kirim dalolatnomasi;

v) BYUD;

g) Inventarizatsiya ro'yxati.

8. Quyidagilarning qaysi birida tovarlarni sotilishiga oid hujjatlar to'liq berilgan?

a) Schot –faktura, BYUD;

b) Schot –faktura, BYUD, sifat sertifikati, TTN;

v) TTN, sifat sertifikati, shartnoma;

g) TTN, sifat sertifikati.

9. Tovarlar ombor hisobining partion usulida:

a) har bir kelib tushgan partiya oldingi partiyaga qo'shiladi;

b) har bir kelib tushgan partiyaga alohida partion karta ochiladi;

v) schot –fakturada ko'rsatilgan har bir tovarga alohida partion karta ochiladi;

g) To'g'ri javob yo'q.

10. Tovarlar kirimida aniqlangan kamomad:

a) ombor hisobi kartochkasining chiqimida aks ettiriladi;

b) partion kartada ko'rsatiladi;

v) kamomadga alohida kartochka ochiladi;

g) to'g'ri javob yo'q.

11. Ulgurji savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisoboti

a) tovar- pul hisoboti deb nomlanadi;

b) tovar hisoboti deb nomlanadi;

v) material hisoboti deb nomlanadi;

g) qaydnoma deb ataladi.

12. Ulgurji savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisobotiga:

a) ombor mudiri imzo chekadi;

b) ombor mudiri va buxgalter imzo chekadi;

v) ombor mudiri va brigada a'zolaridan biri navbat bilan imzo chekadi;

g) to'g'ri javob yo'q.

13. Ta'minotchilarga qaytarilgan tovarlar hisobotning

a) kirim qismida ko'rsatiladi;

b) kirim qismida qizil yozuv bilan ko'rsatiladi;
v) chiqim qismida ko'rsatiladi;
g) kirim va chiqimda ham ko'rsatilmaydi.

14. Tovar hisobotida taralar harakati:

a) alohida qismda ko'rsatiladi;
b) alohida ustunchada kirim va chiqimi bo'yicha ko'rsatiladi;
v) ko'rsatilmaydi;
g) to'g'ri javob yo'q.

15. Tovar hisobotida kamomadlar to'g'risida dalolatnoma ma'lumotlari:

a) ko'rsatilmaydi;
b) chiqim qismida ko'rsatiladi;
v) bosh qoldiqdan chegirib tashlanadi;
g) To'g'ri javob yo'q.

16. Tovarlar qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamasi:

a) hisobotning kirimida ko'rsatiladi;
b) ko'rsatilmaydi;
v) hisobotning chiqimida ko'rsatiladi;
g) to'g'ri javob yo'q.

17. Tovar hisobotiga kim ishlov beradi?

a) rahbar;
b) ombor mudiri;
v) bosh hisobchi;
g) ushbu funksiya yuklatilgan buxgalter

18. Tovar hisoboti qaysi muddatlarda tuziladi?

a) xohlagan paytda;
b) hisob siyosati bo'yicha belgilangan muddatda;
v) rahbarga ma'qul kelgan kun;
g) har kuni.

19. Qaytarib bermaslik sharti bilan moliyaviy yordam sifatida kelib tushgan tovarning kirimiga:

a) Debet 2910 Kredit 6010;
b) Debet 2910 Kredit 8530;
v) Debet 2910 Kredit 9020 ;
g) To'g'ri javob yo'q.

20. Tovar hisobotiga kiritilgan buzilishdan ko'rilgan zarar summasiga:

a) buxgalteriya yozuvi qilinmaydi;

b) Debet 9120 Kredit 2910;

v) Debet 5910 Kredit 2910;

g) Debet 6010 Kredit 2910.

21. Tovarlar qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamasiga:

a) Debet 1510 Kredit 9010;

b) Debet 2910 Kredit 6010;

v) Debet 2920 Kredit 2980 ;

g) to'g'ri javob yo'q.

22. Tovarlarni sotilishidan olingan daromadga:

a) Debet 1510 Kredit 9020;

b) Debet 4010 Kredit 9020;

v) Debet 5010 Kredit 9020;

g) to'g'ri javob yo'q.

23. Sotilgan tovarlar tannarxiga:

a) Debet 9120 Kredit 1510;

b) Debet 9020 Kredit 2910;

v) Debet 9120 Kredit 2910;

g) to'g'ri javob yo'q.

24. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning tahliliy hisobi:

a) davriy tizim asosida yuritiladi;

b) uzluksiz tizim asosida yuritiladi;

v) rahbarga ma'qul kelgan kun yuritiladi;

g) kun ora yuritiladi.

1-xo'jalik holati

Tovarning sotish bahosidagi qiymati 4000000 so'm, sotib olish qiymati (tannarxi) jami 3100000 so'm, shundan: brokerlik xizmati 40000 so'm, transport xarajati 60000 so'm, QQS –20 % tovarning sotib olish qiymatidan.

Quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping:

1. Tovarning sotib olish qiymati qancha?

a) 2600000so'm;

b) 3100000 so'm;

v) 2470000 so'm;
g) to'g'ri javob yo'q.

2. Tovar qiymatiga kiritilgan QQS summasini toping:

a) 200000 so'm;
b) 500000 so'm;
v) 630000 so'm ;
g) to'g'ri javob yo'q.

3. Tovarni sotishdan olingan daromad summasini toping:

a) 800000 so'm;
b) 900000 so'm;
v) 600000 so'm ;
g) to'g'ri javob yo'q.

4. Tovarni sotishdan olingan daromadlik darajasi qancha?

a) 20 % ;
b) 22,5 %;
v) 15 % ;
g) to'g'ri javob yo'q.

5. Tovarning sotib olish qiymatiga qanday buxgalteriya yozuvi qilinishi kerak?

a) Debet 2910 Kredit 6010 3100000;
b) Debet 2910 Kredit 6010 2600000;
v) Debet 2910 Kredit 6010 4000000;
g) to'g'ri javob yo'q.

6. Tovar qiymatiga kiritilgan QQS summasiga qanday yozuv qilinadi?

a) Debet 2910 Kredit 6010 620000 so'm;
b) Debet 2910 Kredit 6010 500000 so'm;
v) Debet 2910 Kredit 6010 800000 so'm;
g) to'g'ri javob yo'q.

7. Tovarni sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar necha so'm va unga qanday yozuv qilinadi?

a) Debet 4410 Kredit 6010 – 500000 so'm ;
b) Debet 2910 Kredit 6010 – 600000 so'm ;
v) Debet 2910 Kredit 6010 – 100000 so'm ;
g) Debet 2910 Kredit 6010 – 500000 so'm.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi 125- son qarori.

4. «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407- son qarori.

5. Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 27-noyabrdagi 407- sonli qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS №4 "Tovar-moddiy zaxiralar". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 28-avgust 486- sonli raqam bilan ro'yxatga olingan.

7. BXMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jaligi buxgalteriya hisobining schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zR Adliya Vazirligidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatdan o'tgan, № 1181.

8. Voxidov S., Maxamadiyev A., Voxidov T. Boshqa tormoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. -T.: «O'YOUAJ» 2004.

9. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishi - T.:«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004. 41-77 betlar.

25-bob. CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI HISOBI

25.1. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilish xususiyatlari

Chakana savdo korxonalarining asosiy funksiyasi turli ishlab chiqarish korxonalari tomonidan yaratilgan va turli vositachilar orqali yetkazib berilgan tovarlarni oxirgi iste'molchilarga yetkazish, ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini qondirish hisoblanadi. Chakana savdo aylanmasi davlat g'aznasini real pul mablag'lari bilan to'ldirish, pul muomalasini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Qanchalik tovarlar naqd pulga ko'p sotilsa, shunchalik banklarga kirim bo'ladigan pul mablag'lari ko'p bo'ladi. Bu o'z navbatida banklardan naqd pullarni olish, ish haqi, nafaqa va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham chakana tovar aylanmasi xalq xo'jaligini rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Chakana savdo ulgurji savdodan turli jihatlaridan farq qiladi, ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, ulgurji savdodan o'laroq chakana savdo tovarlarni mayda turkumlarda (donalab, metrlab, kilolab) sotishni bildiradi;

Ikkinchidan, chakana savdo tovarlarni asosan naqd pulga sotishni ifodalaydi. Bu o'z navbatida chakana savdo korxonalari oldiga nafaqat tovarlar bo'yicha, balki pul mablag'lari bo'yicha ham mas'uliyat yuklaydi;

Uchinchidan, chakana savdo shoxobchalari katta – kichikligiga qarab, tovarlarni asosan kichik partiyalarda saqlanishi, sotilishiga mos ravishda moddiy javobgarlikni yakka tartibdagi shaklini tashkil etishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, chakana savdo ma'lum qonun-qoida, tartiblarga asosan olib boriladigan maxsus faoliyat hisoblanadi. Ushbu tartib-qoidalar Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-noyabrdagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom»da keltirilgan. Nizomda belgilangan tartibga ko'ra chakana savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ular faqat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tumanlar (shahar) hokimliklarida chakana savdoni amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasini olgan taqdirda shug'ullanishlari mumkin.

Tovarlarni chakana sotish yuridik shaxslar tomonidan faqat turg'un savdo shoxobchalari orqali, nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llangan holda amalga oshiriladi. Chakana savdoni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tovarlarning sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarga, qonun hujjatlarida belgilangan holda sotish joylarida sotilayotgan tovarlarning muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lishlari shart. Sotiladigan tovarlar rastalarga qo'yilgan bo'lishi va kelib chiqqan mamlakati, ishlab chiqaruvchisi va narxi ko'rsatilgan narxnomalarga ega bo'lishi kerak. Yaroqlilik muddatiga ega bo'lgan tovarlarni sotish chog'ida narxnomalarda yaroqlilik muddati ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Chakana savdo korxonalarida tovarlarni sotib olish qiymati (tannarxi) xuddi ulgurji savdo korxonalaridagidek ushbu boyliklarni sotib olish baholari, tashib keltirishga doir transport xarajatlari, bojxona to'lovlari va boshqa sotib olishga doir xarajatlar majmuasidan iborat bo'ladi. Odatda, tovarlarning sotib olish qiymati (tannarxi)ga kiritiladigan ushbu elementlar turli tashkilotlardan olinadigan boshlang'ich hujjatlarda ko'rsatiladi, masalan, transport-tashib keltirish xarajatlari transport tashkiloti bergan schot-fakturada, vositachilik yoki brokerlik xarajatlari ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlarning schot-fakturalarida, bojxona to'lovlari (aksiz solig'i, QQS, bojxona boji va yig'imlari) bojxona organi yoki «bojxona ombori», «erkin ombor» rejimlarida ishlovchi ombor egalarining hisob hujjatlarida.

Tovarlar chakana savdo korxonalari orqali asosan ikki turdagi baholarda sotilishi mumkin:

1. Qat'iy belgilangan sotish baholarida.

2. Erkin sotish baholarida.

Qat'i belgilangan sotish baholari davlat organi tomonidan ma'lum ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlar uchun belgilanadi, masalan, un, non, non mahsulotlari, o'simlik yog'i, shakar, dori-darmonlarning ayrim turlari, benzin, avtomobillar va shu kabilar uchun.

Erkin sotish baholari davlat organi tomonidan baholari belgilanmaydigan boshqa tovarlar uchun qo'llaniladi, masalan, ust-bosh kiyimlari, poyafzal, konfetlar, qandolat va shu kabilar.

Ulgurji savdo korxonalaridan o'laroq chakana savdo korxonalarida tovarlar faqat sotish baholarida hisobga olinadi. Ushbu sotish baholari o'z ichiga tovarlarni sotib olish qiymati (tannarxi) va savdo ustamalarini

oladi. Tovarlarning sotib olish qiymati chakana savdo korxonalarida xuddi ulgurji savdo korxonalaridagidek tartibda guvohlik beruvchi hujjatlar asosida hisob-kitob qilinadi. Savdo korxonasining marketing bo'limi kelib tushgan tovarlar bo'yicha sotish baholarini qayd etish kitobini yuritadi. Ushbu kitob quyidagi shaklda yuritiladi:

Tovarlarning chakana baholarini qayd etish reestri

№	Tovarning nomi	Sotib olish bahosi	Savdo ustamasi		Tovarning sotish bahosi	Yangi baho	Kiritish sanasi	Yangi savdo usta masi summasi
			Foiz	Summa				
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Ko'k choy, № 95	1200	10	120	1320	1400	1.03. 2009	200

Chakana savdo korxonalari kelib tushgan tovarlar bo'yicha keyingi davrlarda ularning chakana sotish baholarini talab va taklifga muvofiq oshirishlari hamda pasaytirishlari ham mumkin. Bunday hollarda yuqoridagi chakana sotish baholarini qayd etish kitobida qayta baholangan chakana narxlar to'g'risidagi yozuvlar 7-9 –ustunchalarda ko'rsatiladi.

Savdo ustamalari chakana savdo korxonalari foyda olishlarining asosiy manbai hisoblanadi. Tovarlar bo'yicha turli savdo ustamalari qo'llanilishi sababli sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasi summasi ularning o'rtacha foizi asosida topiladi.

Chakana savdo korxonalarida ulgurji savdo korxonalaridan farqli o'laroq har kuni aynan qanday tovarni va qancha miqdorda sotilganligini bilish qiyin, ya'ni kassaga kirim qilingan savdo pulini chakana savdo shoxobchasida saqlanayotgan u yoki bu tovarga tegishli ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Bunga sabab shundaki har bir tovarning sotilishi chakana savdo shoxobchalarida bevosita hujjat bilan rasmiylashtirilmaydi. Shuning uchun chakana savdo korxonalarida tovarlar hisobining davriy tizimi qo'llaniladi. Ushbu tizimga muvofiq oldingi va keyingi inventarizatsiya ma'lumotlari, shuningdek tovarlarning kirimiga oid ma'lumotlar asosida haqiqatda sotilgan tovarlarning miqdori aniqlanadi va topilgan summa chakana tovar aylanmasi hisoblanadi. Davriy tizimga asosan sotilgan tovarlar summasi quyidagicha topiladi:

Hisobot davri boshiga tovarlar summasi [+] **Hisobot davrida kirim qilingan tovarlar summasi** [-] **Hisobot davri oxiriga tovarlar qoldig'i** [=] **Sotilgan tovarlar summasi**

Ushbu tartibda aniqlangan sotish hajmini kassaga kirim qilingan pul mablag'lari summasi bilan taqqoslash moddiy javobgar shaxs tomonidan savdo pulining yashirilganligi yoki yashirilmaganligini aniqlash imkonini beradi.

Chakana savdoning ulgurji savdodan farqli jihatlaridan yana biri shundaki, davriy tizimni qo'llanilishi chakana savdo korxonalarida har bir tovar harakatini son jihatdan hisobga olish imkonini bermaydi. Shuning uchun chakana savdo korxonalarida ulgurji savdo korxonalaridan o'laroq tovarlarning qiymat jihatdan hisobi olib boriladi. Tovarlarning haqiqiy qoldig'i son jihatdan faqatgina inventarizatsiya o'tkazilganda aniqlanadi va inventarizatsiya ro'yxatida aks ettiriladi.

Chakana savdo korxonalarida tovarlarning bevosita iste'molchilar tomonidan qo'ldan qo'lga olish, o'lchab ko'rish, baholash, sinab ko'rish va boshqa shu kabi holatlari ko'p bo'ladi. Bu o'z navbatida chakana savdo korxonalarida ulgurji savdo korxonalaridan o'laroq tovarlarning sinish, to'kilish, buzilish va shu kabi sabablarga ko'ra kamayish ehtimolini katta qilib qo'yadi. Shuning uchun chakana savdo korxonalarida tovarlarning tabiiy kamayish me'yori ulgurji savdo korxonalaridan o'laroq balandroq bo'ladi.

Chakana savdo korxonalariga tovarlar bilan kelgan aylanma idishlar (masalan, butilkalar, xaltalar, karton yashiklar va boshqalar)ni yig'ish va ta'minotchilarga topshirish vazifasi ham yuklanadi. Bu, o'z navbatida, chakana savdo korxonalarida idishlar harakati hisobining to'g'ri tashkil qilishni, ular bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida olib borishni taqozo etadi.

Chakana savdo korxonalari o'zlari sotib olgan tovarlarni sotishdan tashqari konsignasion hamda komission tovarlarni sotib berish bo'yicha vositachilik xizmatlarini ham ko'rsatishlari mumkin. Sotib berish uchun olingan konsignasion va komission tovarlar chakana savdo korxonalarining balansiga kiritilmaydi. Bunday tovarlar balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» schotida hisobga olinadi.

25.2. Chakana savdo korxonalariga tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish

Tovarlar kirimini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalariga tovarlar bevosita ishlab chiqarish korxonalaridan, ulgurji savdo korxonalaridan, tayyorlov-ulgurji savdo korxonalaridan, xususiy tadbirkorlardan va boshqa manbalardan kelib tushadi. Tovarlarni kirim

qilinishini hujjatlashtirilishi ularni qabul qilib olish joyiga, kim tomonidan keltirilganganligiga, qanday ko'rinishda keltirilganligiga, transport turiga va boshqa omillarga bog'liq. Tovarlar savdo do'konlariga ekspeditorlar orqali yoki savdo do'kon mudirining o'zi orqali ta'minotchilarning omborlaridan, temir yo'l stansiyalaridan qabul qilinishi mumkin. Bundan tashqari tovarlar ulgurji savdo korxonalari tomonidan markazlashtirilgan tarzda ham yetkazib berilishi mumkin. Tovarlar taralarda, masalan, xaltalarda, bochkalarda, shishalarda va boshqa idishlarda yoki taralarsiz kelib tushishi mumkin.

Chakana savdo korxonalariga markazlashtirilgan holda ulgurji savdo korxonalari tomonidan yetkazib berilgan tovarlar ombor mudiri yoki savdo do'koni mudiri tomonidan son va sifat jihatdan qabul qilinadi. Qabul qilish vaqtida son va sifat jihatdan chetlanishlar aniqlansa "Qabul qilishda son va sifat jihatdan aniqlangan chetlanishlar to'g'risida dalolatnoma" ikki nusxada tuziladi, bunday chetlanishlar aniqlanmaganda ombor mudiri tovarlarni kuzatish hujjatiga (schot-faktura, TTN) qabul qilib olganligi to'g'risida imzo chekadi.

Savdo korxonasiga ekspeditorlar orqali keltirilgan tovarlar oldin markaziy omborga topshiriladi yoki korxona rahbarining farmoyishi asosida bevosita savdo do'konlariga tarqatiladi. Markaziy omborlarga kelib tushgan tovarlarni ombor mudiri ekspeditordan son va sifat jihatdan qabul qilib oladi.

Chakana savdo korxonasining markaziy omboriga keltirilgan tovarlarga savdo bo'limi savdo ustamalarini belgilaydi va ular sotish baholarida kirim qilinadi. Korxona rahbarining farmoyishiga ko'ra tovarlar savdo do'konlariga sotish baholarida yuk xatlari orqali tarqatiladi. Bunday yuk xatlari ikki nusxada yoziladi, unga savdo korxonasi rahbari va bosh hisobchisi qo'l qo'yadi, shuningdek ombor mudiri tovarni topshirganligi, savdo do'kon mudiri esa tovarni olganligi to'g'risida imzo chekadi. Bevosita savdo do'kon mudirining o'zi tomonidan ta'minotchilardan olib keltirilgan tovarlar savdo do'konga chakana savdo korxonasi savdo bo'limi belgilab bergan savdo ustamalari bilan kirim qilinadi.

Chakana savdo korxonalariga kelib tushgan tovarlar bo'yicha schot-fakturalarga ularni kuzatuvchi transport hujjatlari (TTN, temir yo'l nakladnoylari, yuk kvitansiyasi, invoys, tortish-tahlil dalolatnomalari, tovar yorliqlari va boshqalar), sifat sertifikatlari va boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Barcha kirim hujjatlari savdo do'kon mudirlarining hisobotlari bilan birgalikda chakana savdo korxonasining buxgalteriyasiga topshiriladi.

Chakana savdo korxonalariga kirim qilingan tovarlar naqd pulga, kreditga, mayda ulgurji tarzda sotilishi mumkin, shuningdek turli sabablarga ko'ra hisobdan chiqarilishi mumkin.

Tovarlarning naqd pulga sotilishini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalari savdo do'konlarida tovarlarni naqd pulga sotish davlat soliq inspeksiyasidan ro'yxatdan o'tgan nazorat – kassa mashinalarini (NKM) qo'llash orqali amalga oshiriladi. Savdo do'konlarda «NKM schotchigi ko'rsatkichlarini qayd etish kitobi» yuritiladi. Ushbu kitobda har kuni schot ko'rsatkichining bosh summasi, kirimi, qaytarilgan cheklar va schot ko'rsatkichining oxirgi summasi yozib boriladi. NKM schot ko'rsatkichini bosh va oxirgi summalari yig'indisi jami savdo tushumining miqdorini ifodalaydi. Qaytarilgan tovarlar bo'yicha savdo puli xaridorga NKM cheki asosida qaytariladi. Kun oxirida barcha qaytarilgan cheklar varaqqa yopishtirib chiqiladi va savdo do'kon mudirining hisobotiga ilova qilinadi. Ko'p sonli NKM lardan foydalanayotgan katta savdo shoxobchalarida (Supermarket, MUM, BUM va boshqalar)da ishlatilmagan cheklar bo'yicha kun oxirida savdo do'koni direktori va kassirlar ishtirokida dalolatnoma tuziladi, barcha qaytarilgan cheklar alohida varaqlarga yopishtiriladi va kassirlarning hisobotlari bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

Chakana savdo shoxobchalari orqali tovarlarni sotishdan tushgan savdo pullari korxona kassasiga kirim kassa orderi asosida kirim qilinadi. Ushbu orderning kvitansiyasini savdo do'koni mudiri o'zining tovar-pul hisobotiga ilova qiladi.

Tovarlarning kreditga sotilishini hujjatlashtirish. Nooziq-ovqat tovarlari kreditga respublika rezidentlari hisoblangan jismoniy shaxslarga tovarlarni belgilangan ro'yxatga muvofiq 2 yil muddatgacha sotiladi.

Tovarlarni kreditga olish uchun xaridor chakana savdo korxonasi rahbari nomiga ariza, ish joyi va oxirgi uch oydagi ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etadi. Shu bilan bir vaqtda ma'lum bir mulkini garovga qo'yadi. Savdo korxonasi rahbarining ruxsati bilan kreditga sotilayotgan tovarning eng kamida 60 % sotish qiymatini kassaga kirim qilinadi va xaridorga chek yoki kvitansiya taqdim etiladi. Shundan so'ng savdo bo'limi va xaridor o'rtasida belgilangan shakldagi «Topshiriqnoma-majburiyat» tuziladi. Ushbu hujjatda xaridor kreditga necha so'mlik tovarni olgani, qancha naqd to'laganligi, tovar qiymati to'lovining qanchasi kechiktirilganligi, o'rtacha oylik to'lov summasi, necha foizda kreditga sotilgan tovar uchun to'lov to'langanligi, to'lovni qaysi sanadan qaysi

sanagacha to'lanishi, qaysi tashkilotning schotidan ish haqidan ushlash sharti bilan o'tkazib berilishi, ushbu tashkilotning rekvizitlari, tovarni sotib olgan shaxsning pasport ma'lumotlari va boshqalar ko'rsatiladi. «Topshiriq-majburiyat» ikki nusxada tuziladi va sotib oluvchi, savdo do'kon mudiri hamda bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Chakana savdo korxonasining buxgalteriyasida «Topshiriq – majburiyat»lar ro'yxati tuziladi. Ro'yxat asosida chakana tovar aylanmasiga kiritilgan naqd pul tushumi, olingan topshiriq summasi, olingan foiz summasi hisobga olinadi.

Korxona buxgalteriyasi kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha tuzilgan «Topshiriqnoma- majburiyat» lar asosida ikki turdagi kartochkalarni ochadi:

-1-kartochka «To'lov muddati o'tmagan topshiriq- majburiyatlar». Ushbu kartochkada kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha to'lov muddati o'tmagan topshiriqlar -majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

-2-kartochka «To'lov muddati o'tib ketgan topshiriq- majburiyatlar». Ushbu kartochkada kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha to'lov muddati o'tib ketgan topshiriqlar-majburiyatlar bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlar xaridordan har bir kechiktirilgan kun uchun olinadigan penya summasini hisoblashga asos bo'ladi. To'lov muddati o'tib ketgan topshiriq-majburiyatlar bo'yicha qarzlar naqd yo'l bilan sud orqali undirib olinadi.

Tovarlarni mayda ulgurji tarzda sotishni hujjatlashtirish. Respublikamizda chakana savdo tashkilotlari orqali tovarlarni naqd pulsiz sotish shartlari va tartibi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-noyabrdagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom» va unga kiritilgan o'zgartirishlarda o'z aksini topgan. Ushbu Nizomga ko'ra savdo korxonalari tomonidan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha sotish o'tgan oy mobaynidagi oylik tovar aylanmasi umumiy hajmining 10 foizi doirasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda sotilishini hisoblab chiqish har bir oy bo'yicha alohida amalga oshiriladi. Tovarlarni oldingi oylar hisobiga sotilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Chakana savdo korxonalari shoxobchalaridan tovarlar mayda ulgurji tarzda tovar aylanmasi umumiy hajmining 10 foizida faqat ijtimoiy soha tashkilotlari va muassasalari davlat budjeti muassasalariga tuzilgan shartnomalar asosida naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitoblar bilan ham sotilishiga ruxsat etiladi. Mayda ulgurji tovar aylanmasi chakana tovar aylanmasi tarkibiga kiradi va tovar hisobotida alohida ko'rsatiladi.

Chakana savdo shoxobchasidan tovarlarni mayda ulgurji tarzda sotish oldindan to'lov bo'lganda ishonchnomalar asosida beriladi. Tovarni naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida berish schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi. Har kuni ma'lum sondagi tovarlarni oluvchi davlat budjetidagi muassasalarga tovarlar zabor varag'i orqali berilishi ham mumkin. Bunday holda oyning oxirida zabor varag'iga kiritilgan tovarlarning umumiy miqdoriga bitta schot-faktura taqdim etiladi va u o'zaro hisob-kitoblarni yuritishga asos bo'ladi.

Tovarlarning plastik kartochkalar orqali sotilishini hujjatlashtirish. Plastik kartochkalar orqali tovarlarni sotishda ularning umumiy summasi savdo do'konlarida o'rnatilgan maxsus terminalga kiritib boriladi va ikki nusxada chek uriladi. Ushbu cheklarning bir nusxasi xaridorga beriladi, ikkinchi nusxasi esa kassirda qoladi. Kun oxirida kassir plastik kartochkalarga sotilgan tovarlar bo'yicha terminalga kiritilgan cheklar reestrini tuzadi. Ushbu reestrning umumiy summasi plastik kartochkalar orqali sotish hajmini, ya'ni savdo pulini ifodalaydi. Plastik kartochkalarga sotilgan tovarlar bo'yicha cheklar reestri tovar-pul hisobotiga ilova qilinadi. Reestrning umumiy summasi tovar-pul hisobotining chiqim qismida alohida qatorda ko'rsatiladi.

Tovarlarning bepul berilishini va ta'sis badali sifatida kiritilishini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalari o'z tovarlarini xayriya sifatida yoki qaytarilmaydigan moliyaviy yordam sifatida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berishlari hamda yangi ta'sis etilgan korxonalarga ta'sis badali sifatida ham kiritishi mumkin. Bunday operatsiyalarga asos bo'lib tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, chakana savdo korxonasi rahbariyatining qarori va boshqa hujjatlar hisoblanadi. Tovarlarni bepul yoki ta'sis badali sifatida berilishi schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi.

Tovarlarning o'z maqsadlarida ishlatilishini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalari o'zlarining tovarlarini turli xo'jalik maqsadlarida ishlatishlari ham mumkin. Masalan, savdo do'kondagi tovarlar korxona idorasiga xo'jalik inventari sifatida berilishi mumkin. Bunday operatsiyalarga asos bo'lib chakana savdo korxonasi rahbariyatining qarori va boshqa hujjatlar hisoblanadi. Tovarlarni xo'jalik inventarlariga aylantirilishi ichki yuk xati bilan rasmiylashtiriladi.

Tovarlarning ichki almashuvini hujjatlashtirish. Tovarlarni bir savdo shoxobchasidan ikkinchisiga (bir moddiy javobgar shaxsdan ikkinchisiga) berish korxona rahbarining yozma farmoyishi bilan yuk xatlari orqali rasmiylashtiriladi.

Tovarlarning qaytarilishini hujjatlashtirish. Chakana savdo korxonalaridan tovarlarni turli sabablarga ko'ra, masalan, sifatining tez buzilganligi uchun, almashtirish uchun va boshqa sabablarga ko'ra ta'minotchilarga qaytarilishi mumkin. Bunday qaytarishlar schot-fakturalar bilan rasmiylashtiriladi. Schot-fakturaning predmet qismida «tovarlarning qaytarilishi» so'zi yozib qo'yiladi.

Tovar nobudgarchiliklarini hujjatlashtirish. Chakana savdo shoxobchalarida tovarlar tushirish, saqlash va sotish jarayonlarida nobud bo'lishlari mumkin. Bunday nobudgarchiliklar ikki turga bo'linadi:

1. Me'yordagi nobudgarchiliklar.
2. Me'yordan ortiq nobudgarchiliklar.

Me'yordagi nobudgarchiliklarga tovarlarning tabiiy kamayishi, me'yordagi sinishi (shisha tovarlar va shisha idishdagi tovarlar) va chiqindilari kiradi.

Tabiiy kamayish deganda tovarlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishi evaziga ularning massasi (og'irligi)ni yoki hajmi kamayishi tushuniladi. Tabiiy kamayish me'yorlari tovarlarning chakana sotish baholaridagi qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi, ular tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtiriladi. Tabiiy kamayish me'yorlari tarmoq vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Tabiiy kamayish faqatgina inventarizatsiyada tovarlar bo'yicha kamomadlar aniqlanganda hisoblanadi. Ushbu kamayishni oldindan hisoblashga yo'l qo'yilmaydi. Chakana savdo shoxobchalarida tabiiy kamayish faqat sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan maxsus hisob-kitob asosida aniqlanadi (keyingi betga qarang). Ushbu hisob-kitob asosida sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish summasi quyidagicha aniqlanadi:

Oldingi inventarizatsiyada aniqlangan tovarlar qoldig'iga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish
+
Oldingi inventarizatsiyadan keyingi inventarizatsiyaga bo'lgan davrda kelib tushgan tovarlarga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish
-
Tovarlarning hujjatli chiqimiga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish
-
Oxirgi inventarizatsiyada aniqlangan qoldiq tovarlarga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish
=
Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan tabiiy kamayish

Tovar aylanmasi tarkibi nisbatan doimiy xarakat yerda bo'lgan chakana savdo korxonalarida tabiiy kamayishni tovar guruhlarining guruhlari bo'yicha belgilangan me'yorlarining o'rniga o'rtacha me'yor ham qo'llanilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»

Rahbar _____

_____savdo do'kon bo'yicha _____dan _____ga bo'lgan davr uchun tabiiy kamayish hisob-kitobi

№	Tovarning nomi	__ga tovar qoldig'i summasi	__dan __gacha kelib tushgan tovarlar summasi	Hisobdan chiqarilgan tovarlar summasi	Mayda ulgurji sotilgan tovarlar summasi
1	2	3	4	5	6
1	Shakar	90000	1000000	-	50000

Boshqa tashkilotlarga sotilgan tovarlar summasi	___ ga tovar qoldig'i summasi	Naqd sotilgan tovarlar summasi	Tabiiy kamayish		Izoh
			Me'yor, % da	Summa, so'm va tiyin	
7	8	9	10	11	12
150000	150000	740000	0.15	1110	

Jami tabiiy kamayish summasi me'yor bo'yicha *Bir ming bir yuz o'n* so'm

Buxgalter _____ Moddiy javobgar shaxs _____

Shisha tovarlar va shisha idishlarda keladigan tovarlar (o'simlik yog'i, yaxna ichimliklar va boshqalar)ning sinishiga doir me'yordagi va me'yordan ortiq nobudgarchiliklar maxsus «Tovarlarning buzilishi, sinishi va chiqindilari to'g'risida dalolatnoma»ni tuzish asosida topiladi.

Me'yordagi tabiiy kamayish, sinish, buzilish va chiqindilar savdo korxonalarida sotish xarajatlariga, me'yordan ortiq nobudgarchiliklar esa moddiy javobgar shaxslar bo'ynida olib boriladi. Me'yordan ortiq nobudgarchiliklar bo'yicha javobgar shaxsni aniq belgilashning imkoni bo'lmagan hollarda bunday nobudgarchiliklar savdo korxonalarining zararlariga olib boriladi.

Me'yordan ortiq nobudgarchiliklar, odatda, tovarlarni saqlanishini to'g'ri tashkil etmaslik, ularni tushirish, tashish va sotishda ehtiyotkorsizlikka yo'l qo'yilganligi sababli vujudga keladi. Tovarlarning bunday nobudgarchiliklari tabiiy kamayishdan o'laroq yuz bergan vaqtida savdo korxonasi rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan komissiya tomonidan tegishli ravishda rasmiylashtirilishi lozim.

Tovar nobudgarchiliklari yog'och idishlar (bochkalar)da keltirilgan suyuq tovarlar vazni (hajmi)ni ushbu idishlarga ma'lum darajada singishi evaziga ham yuz berishi mumkin. Suyuqlikni o'ziga singdiradigan yog'och idishlar massasi ulardagi tovarlar sotib bo'lingach, tortib ko'rilganda kelib tushgan vaqtidagi massasidan ortiq kelsa, o'rtada vujudga kelgan ortiqcha massa ***«idish massasini oshishi»*** deb ataladi. Ushbu massa shu miqdordagi tovar kamayganligini, ya'ni uning nobud bo'lganligini bildiradi.

Misol uchun, kirim hujjati bo'yicha yog'och bochkada keltirilgan margarinning sof vazni (netto) 100 kg, bochkaning vazni 8 kg. Margarin sotib bo'lingach bo'shagan yog'och bochka tortib ko'rilganda uning vazni 10 kg ekanligi aniqlandi. Demak, 2 kg margarin bochkaga singib ketganligi uchun kam chiqqan. Agar 1 kg margarinning sotish narxini 5200 so'm desak, u holda 10400 so'mlik (2kg x5200so'm) tovar nobudgarchiligiga yo'l qo'yilgan hisoblanadi. Ushbu nobudgarchilikni moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilish uchun korxona rahbari tuzgan komissiya tomonidan bir nusxada «Idish massasini oshishi to'g'risida dalolatnoma» tuziladi. Ushbu dalolatnoma moddiy javobgar shaxs hisobotining chiqim qismiga kiritiladi va u bilan buxgalteriyaga topshiriladi.

25.3. Chakana savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish, taqdim etish va ularga buxgalteriya ishlovini berish

Chakana savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslar kirim va chiqim hujjatlari asosida o'zlarining javobgarligida bo'lgan tovar va taralar bo'yicha hisobot tuzadilar. Ushbu hisobot turlicha nomlanib, «Tovar hisoboti», «Tovar-pul hisoboti» deb ataladi.

Hisobotlarning taqdim etish muddatlari savdo korxonalari rahbarlari tomonidan turli sharoitlarni e'tiborga olgan holda (korxonaning katta-kichikligi va ixtisoslashganligi, tovar operatsiyalarining soni, savdo pulining miqdori va boshqa shu kabi) belgilanadi. Amaliyotda yuqoridagi shart-

sharoitlarga qarab hisobotlarni savdo korxonalari har kuni, har uch kunda, har haftada, har o'n kunda yoki oyda bir marta tuzadilar.

Chakana savdo korxonalari moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari titul, predmet va rasmiylashtirish qismlaridan iborat bo'ladi.

Hisobotning titul qismida savdo korxonasining nomi, savdo shoxobchasining nomi va tartib raqami, moddiy javobgar shaxsning familiyasi, ismi va sharifi, hisobotning tartib raqami, tuzilgan davrining bosh va oxirgi sanasi, tovar zaxiralarining limiti ko'rsatiladi.

Hisobotning predmet qismi kirim va chiqim bo'limlarga bo'linib, ushbu bo'limlar hisobotning yuza va orqa tomonlarida joylashtiriladi. Hisobotning yuza tomonidagi kirim bo'limida birinchi qatorda tovar va taralarning hisobot davri boshidagi qoldig'i, shuningdek tovar va taralarning kirimi ko'rsatiladi. Tovar va taralarning davr boshidagi qoldiq summalari oldingi hisobotning oxirgi qoldiq summalaridan iborat bo'ladi. Agar hisobot inventarizatsiya o'tkazilgandan keyingi birinchi hisobot hisoblansa, u holda tovar va taralarning bosh qoldiq summalari inventarizatsiya varag'idan olinadi. Hisobotning kirim bo'limida tovar va taralarning kimlardan olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar xronologik tarzda alohida qatorlarda yoziladi. Barcha kirim hujjatlari yozilgach, alohida qatorda tovar va taralar kirimining jami summalari ko'rsatiladi. Hisobotning chiqim bo'limida tovarlarning chiqimi (sotilishi, ta'minotchilarga qaytarilishi, tovar nobudgarchiliklari, kamomadlar va boshqalar) har bir guvohlik beruvchi hujjat asosida xronologik tarzda ko'rsatiladi. Barcha chiqim hujjatlari yozilgach, alohida qatorda tovar va taralar chiqimining jami summalari ko'rsatiladi.

Kirim va chiqim summalari jamlangach, alohida qatorda tovar va taralarning hisobot davri oxiridagi sanasiga bo'lgan qoldiq summalari ko'rsatiladi. Ushbu qoldiq summalar bosh qoldiq summaga jami kirim summasini qo'shish va undan jami chiqim summasini ayirish orqali topiladi.

Hisobotning orqa tomonida idishlarning hisobot davridagi harakati ularning alohida turlari bo'yicha natural-qiymat ifodasida aks ettiriladi.

Hisobotning rasmiylashtirish qismida unga ilova qilingan kirim va chiqim hujjatlarining soni, moddiy javobgar shaxsning imzosi, hisobotni qabul qilib olgan va tekshirgan buxgalterning familiyasi, ismi-sharifi, imzosi, shuningdek moddiy javobgar shaxsning hisobotga kiritilgan tuzatishlarga rozi ekanligi va ularni to'g'riligini tasdiqlash haqida imzosi ko'rsatiladi.

Moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari ikki nusxada tuziladi, birinchi nusxasi barcha tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlar bilan buxgalteriyaga topshiriladi. Buxgalter hisobotni qabul qilib olganligi va tekshirganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxsga qaytariladigan ikkinchi nusxasiga imzo chekadi.

Chakana savdo korxonasi buxgalteriyasi tovar hisobotlarini topshirilgan kuni tekshirishdan o'tkazishi shart. Tekshirishda hisobotning bosh qoldiq summalarini oldingi hisobotdan to'g'ri ko'chirilganligi, har bir kirim va chiqim yozuvlariga doir hujjatlar mavjudligi, ularni to'g'ri rasmiylashtirilganligi, hisobotdagi kirim va chiqim summalarini, shuningdek qoldiq summalarni to'g'ri hisoblab yozilganligi aniqlanadi. Aniqlangan xato va kamchiliklar hisobotlarning har ikkala nusxasida tuzatiladi va imzolanadi. Buxgalteriyada tekshirilgan hisobotlar korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi va shundan so'ng ular tovar va taralarning sintetik hamda tahliliy hisobini yuritishga asos bo'ladi.

25.4. Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi

Tovarlar kirimining hisobi. 21-son BHMS ga muvofiq chakana savdo korxonalarida tovarlar harakatining sintetik hisobi 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotida olib boriladi. Ushbu schotning debetida tovarlarning ta'minotchilardan sotib olinishi va boshqa manbalar hisobidan ko'payishi, kreditida esa tovarlarning sotilishi va boshqa chiqimlari aks ettiriladi.

2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotining yuritilishi 2910 «Omborlardagi tovarlar» schotiga to'liq o'xshaydi, faqatgina farq shundaki, uning debet va kreditida tovarlar sotish baholarida, ya'ni savdo ustamalari bilan birgalikda aks ettiriladi.

Chakana savdo korxonalarida, xuddi ulgurji savdo korxonalaridagidek, tovarlarni ta'minotchilardan sotib olinishi va ular bilan hisob-kitoblarni quyidagi usullardan birida olib borish mumkin.

1-usul. Chakana savdo shoxobchalariga kirim qilingan tovarlarni bevosita 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotida hisobga olish usuli. Ushbu schotda tovarlar uzluksiz hisob tizim asosida sotish baholarida, ya'ni savdo ustamalari bilan birgalikda aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning sotish baholariga ularni ta'minotchilardan sotib olish

baholaridagi qiymati, sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, brokerlik, bojxona, sertifikatlash xarajatlari) va savdo ustamasi kiritiladi.

2-usul. Tovarlarni sotib olinishini maxsus schotda, masalan 1510 «Tovar moddiy boyliklarni sotib olinishi» schotida, hisobga olish usuli. Ushbu schotda tovarlar uzluksiz hisob tizimiga muvofiq sotib olish baholarida, ya'ni tannarxi bo'yicha, aks ettiriladi. Qiymat tamoyiliga muvofiq tovarlarning tannarxiga ularni ta'minotchilardan sotib olish baholaridagi qiymati va sotib olishga doir barcha qo'shimcha xarajatlar (tashib keltirish, brokerlik, bojxona va boshqa xarajatlar) kiritiladi. Sotib olishga doir barcha xarajatlar oldin 1510 «Tovar- moddiy boyliklarni sotib olinishi» schotida to'planadi va tovarlar savdo shoxobchalariga kirim qilingach, ushbu schot 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotiga yopiladi. Tovarlarning sotib olish qiymati ustiga qo'yiladigan savdo ustamalari alohida 2980 «Savdo ustamalari» schotining kreditida va 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotining debetida aks ettiriladi.

Tovarlar kirimining tahliliy hisobi moddiy javobgar shaxslar (savdo shoxobchalari mudirlari) bo'yicha olib boriladi.

Tovarlarni naqd pulga sotilishining hisobi. Tovarlarni naqd pulga sotish va undan olingan daromadning hisobi savdo pulini qayerga topshirilganligiga bog'liq. Savdo puli korxona kassasiga topshirilganda quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 5010 «Kassadagi pul mablag'lari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Savdo do'kon mudirlari tomonidan bevosita savdo pullarini inkassatorlarga yoki bankning kassasiga topshirilishiga kuzatish qaydnomalari va kvitansiyalar asosida quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 5710 «Pul o'tkazmalari», 5110 «Hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari», 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Tovarlarni plastik kartochkalar orqali sotilishining hisobi. Tovarlarni plastik kartochkalar orqali sotilishining hisobi savdo do'konlariga o'rnatilgan plastik kartochkalar terminallarining bank muassasalarida o'rnatilgan kompyuterlar bilan bevosita bog'langanligiga bog'liq. Agar ushbu bog'liqlik mavjud bo'lsa, plastik kartochkalar orqali sotish to'g'risidagi ma'lumotlar kun oxirida kompyuter tarmog'i orqali bank

muassasasiga uzatiladi. Agar ushbu bog'liqlik mavjud bo'lmasa, kassaga o'rnatilgan terminal plastik kartochkasi kelishilgan muddatlarda bank muassasasiga olib boriladi va u yerda plastik kartochka schotidan korxonaning asosiy hisob raqamiga o'tkaziladi. Tovarlarni plastik kartochkalar sotilishiga quyidagi buxgalteriya yozuvlari qilinadi:

1. Tovarlar plastik kartochkalar orqali sotilgan kunda:

Debet 5710 «Yo'ldagi pul mablag'lari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

2. Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan savdo pullari korxonaning hisob-raqamiga tushgan kunda:

Debet 5110 ««Hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari»;

Kredit 5710 «Yo'ldagi pul mablag'lari».

Tovarlarning kreditga sotilishining hisobi. «Topshiriqnoma-majburiyat»lar asosida kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari qilinadi:

-Kreditga sotilgan tovarlar uchun naqd topshirilgan savdo pullari va kreditga sotish bo'yicha undirilgan foiz summasiga:

Debet 5010 «Kassadagi pul mablag'lari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

-Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xaridorning qarziga:

Debet 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi»,
4890 «Boshqa debitorlarning qarzi»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha qarzni debitorlar naqd pul bilan, shuningdek ish haqidan qaytarishlari mumkin. Naqd pul bilan qarz qaytarilganda Debet 5010 Kredit 4710, ish haqi hisobidan qarz qaytarilganda Debet 6710 Kredit 4710 yozuvlari beriladi. Da'vo muddati o'tgan qarzlarni korxona hisobidan qoplanishiga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 4710«Kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi»,
4890 «Boshqa debitorlarning qarzi».

Tovarlarning mayda ulgurji sotilishining hisobi. Tovarlarning mayda ulgurji sotilishi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

-Kelib tushgan bo'nak summasiga:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 6310 «Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar».

-Sotilgan tovarlarning sotish qiymatiga:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar»

-Olingan bo'nakni yopilishiga:

Debet 6310 «Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar»;

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

-Oxirgi to'lov kelib tushishiga:

Debet 5110 «Hisob-kitob schoti»;

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

Chakana savdo korxonalarida tovarlar xodimlarning arizasiga muvofiq ish haqi hisobidan ham berilishi mumkin. Tovarlarning ish haqi hisobidan sotilishi va undan olingan daromad quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 6710 «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Chakana savdo korxonalaridagi tovarlar rahbarning buyrug'i yoki farmoyishi bilan xo'jalik inventarlariga ham aylantirilishi mumkin. Tovarlarni ushbu maqsadlarda berilishi ham sotishdan olingan daromadga kiritiladi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

Debet 1080 «Xo'jalik inventarlari va jihozlari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Ta'sis badali sifatida kiritilgan tovarlar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 0600 «Uzoq muddatli investisiyalar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Bepul berilgan tovarlar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

-Bepul berilgan tovarlarning sotish qiymatiga:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

-Bepul berilgan tovarlar bo'yicha qarzni hisobdan chiqarilishiga:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

Tovarlarning chakana savdo shoxobchalari o'rtasidagi ichki almashuviga unga guvohlik beruvchi ichki yuk xatlari (nakladnoylar) asosida **Debet** 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» (oluvchi) **Kredit 2920** «Chakana savdodagi tovarlar» (beruvchi) yozuvi qilinadi.

25.5. Chakana savdo korxonalarida idishlar hisobining xususiyatlari

Chakana savdo korxonalarida idishlarning hisobi maxsus 2950 «Tovarlar ostidagi va bo'sh idishlar» schotida olib boriladi. Ushbu aktiv schotning debetida idishlarning ta'minotchilar va boshqa manbalardan kelib tushishi, kreditida esa ularning ta'minotchilarga qaytarilishi, sotilishi va boshqa chiqimlari aks ettiriladi. Idishlarning hisobi ushbu schotda sotib olish baholarida yoki o'rtacha baholarda olib boriladi.

Idishlarga doir operatsiyalar hisobda quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi (25.1-jadval):

25.1-jadval

Idishlarga doir operatsiyalarni schotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Schotlar korrespondensiyasi		Asos
			Debet	Kredit	
1.	Ta'minotchilardan tovarlar bilan birgalikda olingan idishlarning sotib olish qiymati	200000	2950	6010	Schot-faktura
2.	Shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan kelib tushgan idishlarning sotib olish qiymati	1000000	2950	6110, 6120	Schot-faktura
3.	Ta'sischilardan kelib tushgan idishlarning kelishuv baholaridagi qiymati	50000	2950	4610	Ta'sis hujjatlari, schot-faktura, kirim dalolatnomasi
4.	Xorijiy ta'sischilardan ta'sis badali sifatida kelib tushgan idishlar bo'yicha:				
	a) korxona ro'yxatdan o'tgan sanadagi kurs bo'yicha hisoblangan kirim bahosidagi qiymat:	5000000	2950	4610	Ta'sis hujjatlari, BYUD, kirim dalolatnomasi
	b) kelib tushish va ta'sis sanalari o'rtasida vujudga kelgan kurs farqlari summasi	300000	2950	8420	BYUD, kirim dalolatnomasi, maxsus hisob-kitob
5.	Bepul olingan idishlarning kelib tushish bahosidagi qiymati	500000	2950	8530	Shartnoma, schot-faktura
6.	Qarzga olingan idishlarni kelishuv baholardagi qiymati	6000000	2950	6820	Shartnoma, schot-faktura
7.	Kirim qilingan idishlar qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamasi	1440000	2950	2980	Savdo ustamalari reestri
9.	Aholidan sotib olingan idishlarning sotib olish baholaridagi qiymati	30000	2950	9020	Dalolatnoma
10.	Idishlarni ta'minotchilarga qaytarilishi	500000	6010	2950	Schot-faktura
11.	Idishlarning sinishi, nobudgarchiliklariga	20000	5910	2950	Dalolatnoma
12.	Idishlarning sotilishi	600000	4010, 5010	9020	Schot-faktura, KKO

Idishlarning tahliliy hisobi moddiy javobgar shaxslar bo'yicha ularning turlari, guruhlari, baholari bo'yicha natural-pul birligida yuritiladi.

25.6. Chakana savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uning natijalari hisobi

Chakana savdo korxonalaridagi tovar va idishlarning inventarizatsiyasini tashkil qilish va o'tkazish 19-son BHMS «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish» ga asosan amalga oshiriladi. O'zining xarakteri, rasmiylashtirilishi, natijalarni aniqlash tartibiga ko'ra chakana savdo korxonalaridagi tovar-moddiy boyliklarning inventarizatsiyasi ulgurji savdo korxonalaridagi tartibga asosan o'xshaydi, lekin quyidagi jihatlari bilan ularni farqlash mumkin:

Birinchidan, chakana savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi savdo do'kon kassasidagi pul mablag'larini sanashdan boshlanadi. Naqd pul mablag'larining sanog'i alohida dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Ikkinchidan, pul mablag'laridan keyin savdo do'kondagi tovarlar sanoqdan o'tkaziladi, shundan so'ng yordamchi bino va maydonchalardagi tovarlar qayta ro'yxatga olinadi.

Uchinchidan, inventarizatsiya minimal muddatlarda o'tkaziladi, chunki uni cho'zilib ketishi tovar aylanmasiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

To'rtinchidan, inventarizatsiya o'tkazish vaqtida tovarlarni bevosita savdo do'konidan sotilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Beshinchidan, tovarlarning qayta sanog'i ularning alohida xususiyatlari, saqlanayotgan idishlarning turlari va boshqa jihatlari e'tiborga olinib amalga oshiriladi, masalan bochkadagi paxta yog'i bochkaning hajmi va sig'imiga qarab aniqlanadi, bir xildagi tovarlar sotish baholariga qarab guruhlanadi.

Oltinchidan, tovarlar kamomadi aniqlanganda tabiiy kamayish hisob-kitobi, idish vazni oshishi dalolatnomalari tuziladi.

Yettinchidan, inventarizatsiya natijasida moddiy javobgar shaxs tomonidan savdo pullarini to'g'ri va o'z vaqtida kassaga topshirilganligi aniqlanadi.

Sakkizinchidan, tovarlarni qayta baholashga doir inventarizatsiyalar soni chegaralanmaydi.

Chakana savdo korxonalarida tovarlarning qayta sanog'i inventarizatsiya ro'yxati, inventarizatsiya natijalari esa taqqoslama qaydnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Chakana savdo korxonalarida tovarlarning inventarizatsiyada aniqlangan kamomadlari, saqlash va sotish jarayonida yuz bergan buzilishlari, sinishlari, chiqindilari, yog'och idishlarga singishi natijasidagi

yo'qotishlari tuzilgan dalolatnomalar asosida hisobdan chiqariladi. Dalolatnomalar asosida aniqlangan kamomad va yo'qotishlar summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi:

-Jami aniqlangan yo'qotishlar summasiga:

Debet 5910 «Kamomadlar va boyliklarni buzilishidan ko'rilgan yo'qotishlar»;

Kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar».

-Me'yordagi va me'yordan ortiq yo'qotishlar summasining korxona xarajatlariga olib borilishiga:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarni buzilishidan ko'rilgan yo'qotishlar».

-Me'yordan ortiq yo'qotishlar summasining moddiy javobgar shaxslar bo'yniga qo'yilishiga:

Debet 4730 «Xodimlar bilan moddiy zararlar bo'yicha hisob-kitoblar»;

Kredit 5910 «Kamomadlar va boyliklarni buzilishidan ko'rilgan yo'qotishlar».

Tovar va idishlarning inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha summalari chakana savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan olingan daromadlariga olib boriladi va unga **Debet** 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» **Kredit**» 9390 «Boshqa operasion daromadlar» yozuvi qilinadi.

Tayanch iboralar

Qat'i belgilangan sotish baholari - davlat organi tomonidan ma'lum ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlar, masalan, un, non, o'simlik yog'i, shakar, dori-darmonlarning ayrim turlari, benzin, avtomobillar va shu kabilar uchun belgilanadigan sotish baholari.

Erkin sotish baholari - davlat organi tomonidan miqdori qat'i belgilanmaydigan baholar.

Chakana savdo aylanmasi - tovarlarni naqd pulga, plastik kartochkalar orqali, kreditga va mayda ulgurji tarzda sotishning pul birligidagi miqdori.

Nazorat kassa apparati - tovarlarni naqd pulga sotilishida qo'llaniladigan texnik vosita.

Plastik kartochka – tovarlarni sotishda qo'llaniladigan to'lov vositasi.

Tovarlarni kreditga sotish – tovarlarni kredit shartnomasiga muvofiq ular qiymatini ma'lum muddatgacha belgilangan miqdorda qo'shimcha foizlar bilan birga to'lab borish sharti bilan sotish.

Savdo ustamasi – tovarlarni chakana sotishda ular qiymati ustuga qo'yiladigan qo'shimcha to'lov.

Tovar – pul hisoboti – chakana savdo korxonalarida tovarlar va idishlar harakati hamda ularni naqd pulga, kreditga, plastik kartochkalarga va mayda ulgurji tarzda sotilganligi to'g'risida moddiy javobgar shaxslar tomonidan belgilangan muddatda tuziladigan hujjat.

Nazorat test savol -javoblari

1. Chakana savdo – bu:

a) tovarlarni katta partiyada naqdsiz pulga sotish;
b) tovarlarni katta partiyada naqd va naqd pulsiz sotish;
v) tovarlarni kichik partiyalarda naqd pulga sotish;
g) to'g'ri javob yo'q.

2.Chakana savdo korxonalarida tovarlar hisobi yuritiladi:

a) sotib olish baholarida;
b) ulgurji baholarda;
v) sotish baholarida;
g) to'g'ri javob yo'q.

3.Chakana savdo korxonalarida idishda kelgan tovarlarning qiymatiga:

a) idishlar qiymati kiradi;
b) idishlar qiymati kirmaydi;
v) to'g'ri javob yo'q;
g) idishlar qiymati alohida hisobga olinadi.

4. Tovarlar sotib olish qiymatiga qo'shiladi:

a) direktor oyligi;
b) transport xarajatlari;
v) kredit foizi;
g) to'g'ri javob yo'q.

5. Chakana savdo korxonalarida tovarlarning sotish bahosi qanday aniqlanadi?

a) kirim dalolatnomasi orqali;
b) chakana baholar reestri orqali;

v) ta'minotchining schot-fakturasi asosida;
g) barcha javoblar to'g'ri.

6.Tovarlarni naqd sotilishi qaysi hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

a) schot-faktura bilan;
b) dalolatnoma bilan;
v) kassa cheki yoki kassa kirim orderi bilan;
g) to'g'ri javob yo'q.

7. Qanday tovarlar qancha muddatga kreditga sotiladi?

a) hamma tovarlar xohlagan muddatga;
b) oziq-ovqat mahsulotlari 1 yil muddatga;
v) transport vositalari 10 yil muddatga;
g) nooziq-ovqat mahsulotlari 2 yil muddatga.

8. Chakana savdo korxonalari uchun tovar-pul hisobotini topshirish muddatini kim belgilaydi?

a) korxona rahbari;
b) hokimiyat;
v) tarmoq vazirligi;
g) Vazirlar Mahkamasi.

9. Chakana savdo korxonalarida tovarlar hisobi 2920 schotda yuritiladi:

a) uzluksiz tizim bo'yicha;
b) xohlagan tizim bo'yicha;
v) davriy tizim bo'yicha;
g) barcha javoblar to'g'ri.

10.Tovarlar 2920- schotda:

a) sotish baholarida aks ettiriladi;
b) sotib olish baholarida aks ettiriladi;
v) inventarizatsiya baholarida aks ettiriladi;
g) savdo ustamalarisiz aks ettiriladi.

11.Sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasiga yozuv qilinadi:

a) Debet 9020 Kredit2980;
b) Debet 2980 Kredit 9120;
v) Debet 2980 Kredit 9020;
g) Debet 2980 Kredit 2920.

12. Tabiiy kamayish summasiga yozuv qilinadi:

a) Debet 9430 Kredit 2980;

b) Debet 9410 Kredit 2920;
v) Debet 2980 Kredit 2920;
g) Debet 9420 Kredit 2920.

13. Ish haqi evaziga berilgan tovarga yozuv qilinadi:

a) Debet 9020 Kredit 2980;
b) Debet 6710 Kredit 9020;
v) Debet 6710 Kredit 2920;
g) Debet 6710 Kredit 2980.

14. Mayda ulgurji sotilgan tovarlarga yozuv qilinadi:

a) Debet 4010 Kredit 2920,2980;
b) Debet 4010 Kredit 9020;
v) Debet 9020 Kredit 2920;
g) Debet 4010 Kredit 9120.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi 125-sonli qarori.

4. «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407-sonli qarori.

5. Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 -yil 27-noyabrdagi 407-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

6.BHMS №4 "Tovar-moddiy zaxiralar". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 28-avgust 486-sonli raqami bilan ro'yxatga olingan.

7. BXMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jaligi buxgalteriya hisobining schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zR. Adliya Vazirligidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatdan o'tgan, № 1181.

8. Voxidov S., Maxamadiyev A., Voxidov T, Boshqa tormoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari-T.: «O'YOUAJ» nashriyoti, 2004.

9. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004., 41-77 betlar.

26-bob. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI HISOBINING XUSUSIYATLARI

26.1. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil etish xususiyatlari

Umumiy ovqatlanish korxonalarini tashkil etish va umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish va ular tomonidan savdo faoliyatini amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 16-noyabrdagi 407-son qarori bilan tasdiqlangan «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom», Shuningdek 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qaror bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (xizmatlari)ni ishlab chiqarish va sotish qoidalari» bilan tartibga solingan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari chakana va ulgurji savdo korxonalaridan o'laroq ayrim xarakterli xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlarning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, umumiy ovqatlanish korxonalari ishlab chiqarish, savdo va ovqatlanishni tashkil etish funksiyalarini bevosita birga olib boradi. Ishlab chiqarish korxonalari singari umumiy ovqatlanish korxonalari tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaradilar. Lekin ushbu mahsulotlar umumiy ovqatlanish korxonasining savdo shoxobchalari orqali shu kunning o'zidayoq asosan naqd hisob-kitoblar asosida iste'molchilarga (aholiga) sotiladi. Umumiy ovqatlanish korxonalari nafaqat o'zlari ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan birga, chetdan olgan tovarlarni ham qayta ishlovsiz sotishlari mumkin. Bundan tashqari umumiy ovqatlanish korxonalari o'zlari ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarni, yarim tayyor mahsulotlarni boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ulgurji hamda mayda ulgurji tarzda ham sotadilar. Boshqa savdo korxonalariga naqd pulsiz hisob-kitoblar yo'li bilan sotilgan tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlarning hajmi umumiy ovqatlanish korxonalarining ulgurji tovar aylanmasi, mayda ulgurji tarzda naqd va naqdsiz hisob-kitoblar yo'li bilan turli muassasalarga (masalan, bolalar bog'chalariga, shifoxonalarga va boshqalarga) oxirgi iste'mol uchun sotilgan mahsulotlar chakana tovar aylanmasi hisoblanadi. Demak, umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi tovar aylanmasi o'z ichiga chakana hamda ulgurji tovar aylanmalarini oladi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarish umumiy ovqatlanish korxonalarida turli javobgarlik markazlarini tashkil qilishni taqozo etadi. Bunday javobgarlik markazlariga omborlar, oshxona, savdo zali, bufetlar kiradi.

Omborlarning asosiy funksiyasi ishlab chiqarish va sotish uchun zaxiralarni sifatli saqlash, ularni o'z vaqtida ishlab chiqarishga yetkazib berish hisoblanadi. Ombordagi tovar-moddiy boyliklar uchun ombor mudiri moddiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Oshxonaning asosiy funksiyasi korxonaning taomlar tayyorlash, ularni savdo zallari hamda bufetlarga buyurtma asosida yetkazib berish va sotish hisoblanadi.

Bufetlarning asosiy funksiyasi oshxonada tayyorlangan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, chetdan sotib olingan tovarlarni sotish hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida ularning turiga, faoliyatining katta-kichikligiga qarab moddiy javobgarlikning yakka va brigada shakllaridan foydalaniladi. Umumiy ovqatlanish korxonasi rahbariyati barcha moddiy javobgar shaxslar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzishi, ular faoliyati ustidan nazorat olib borishi lozim.

Uchinchidan, umumiy ovqatlanish korxonalari tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun masalliq va boshqa tovarlarni turlicha baholarda shartnomalar tuzish orqali turli ta'minotchilardan sotib olish. Aksariyat tovarlarni, jumladan, non va non mahsulotlari, go'sht, sut, qatiq, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dehqon bozorlaridan kelishuv baholarida naqd pulga sotib olish zaruratini qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining maxsus yo'riqnomasiga muvofiq umumiy ovqatlanish korxonalariga ularning mulk shaklidan qat'i nazar savdo tushumining oylik miqdorini 60 foizigacha bo'lgan qismini ushbu maqsadlarda ishlatishga ruxsat etiladi. Savdo tushumi hisobidan masalliqlarni bozorlardan sotib olish korxona rahbari tomonidan tayinlangan hisobdor shaxs orqali amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining asosiy daromadi savdo ustamalaridan iborat bo'ladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo ustamalari ikki turga bo'linadi:

-sotib olingan tovarlarga qo'yilgan savdo ustamalari. Ushbu ustamalar miqdorini umumiy ovqatlanish korxonalari talab va taklifga ko'ra

o'zlari mustaqil belgilaydilar. Barcha sotib olinadigan masalliq va tovarlar sotib olish qiymatida (tannarxida) ushbu savdo ustamalari bilan birgalikda omborlarga qabul qilinadi va hisobga olinadi;

- *tayyorlangan ovqatlarga qo'yilgan ustamalar.* Ushbu ustamaning miqdori umumiy ovqatlanish korxonalarining turlari, tabaqalariga qarab turlicha bo'ladi. Eng yuqori umumiy ovqatlanish ustamalari lyuks va oliy tabaqali umumiy ovqatlanish korxonalarida (restoranlarda), eng past miqdordagi ustamalar esa III- tabaqali zavod va fabrikalarning, ta'lim dargohlarining oshxonalarida qo'yiladi.

Shunday qilib, umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar va tayyor mahsulotlarning sotish baholari quyidagi elementlardan tashkil topadi:

$$Sb = T + Su + Uou$$

Bu yerda, **Sb** - sotish bahosi;

T - tannarx, ya'ni sotib olingan tovarlarning sotib olish bahosi;

Su - savdo ustamasi;

Uou - umumiy ovqatlanish ustamasi.

Sotib olingan tovarlarning sotish baholari ularning sotib olish baholari ustiga ma'lum foizdagi savdo ustamalarini qo'yish yo'li bilan aniqlanadi.

Umumiy ovqatlanish korxonasi tayyor mahsulotining (ovqatlarining) sotish baholari ovqatlarga sarflangan tovarlarning sotish baholari ustiga ma'lum miqdordagi umumiy ovqatlanish ustamasini qo'yish yo'li bilan topiladi.

Misol uchun: Sotib olingan bir dona tuxumning tannarxi 100 so'm, unga qo'yilgan savdo ustamasi 20 foiz, umumiy ovqatlanish foizi 25 foiz deylik. 2ta tuxumdan tayyorlangan omletning sotish bahosi 300 so'mdan iborat bo'ladi, ya'ni:

$$[(2*100 + 200*20/100) * 1,25] = 300 \text{ so'm}$$

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tayyor ovqatlarning sotish baholarini aniqlash kalkulyatsiya varaqlarini tuzish yo'li bilan topiladi. Kalkulyasion varaqa quyida keltirilgan shakl va mazmunda tuziladi.

Tashkilot – *«Istiqlol» firmasi*

Bo'linma -*kafe «Tamilla»*

Sonli kalkulyatsiya varaqchasi

Taom nomi - **palov**

Menyu to'plamining raqami *94/2007*

Mahsulot chiqishi - *50/300 gr.*

T/r	Masalliq nomi	O'lchov birligi	Me'yor	Bahosi	Summa
1.	Qora mol go'shti	Kg	11,3	6000	67800
2.	Guruch	Kg	10	1825	18250
3.	Piyoz	Kg	3	425	1275
4.	Sabzi	Kg	10	400	4000
5.	O'simlik yog'i	Kg	3	1500	4500
6.	Tuz, ziravorlar	Kg	0,5	200	100
	Jami 100 birlikka				**95925**
	1 birlikning o'rtacha sotish bahosi				***959,25***

«O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish qoidalari»ga muvofiq tayyor ovqatlarga kalkulyatsiya varaqlarini tuzish majburiy hisoblanmaydi. Kalkulyasion varaqlarni o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish baholarini chamalash uchun tuzadilar. Kalkulyasion varaqlar odatda, taomlarning turlari bo'yicha ularning 100 birligiga tuziladi. Kalkulyatsiya varaqlarini tuzishga 100 porsiya taomning menyusi, uning chiqish foizi, sarflanadigan masalliqlarning savdo va umumiy ovqatlanish ustamalari bilan birgalikda topilgan sotish baholari asos bo'ladi. Kalkulyatsiya varaqlari asosida topilgan sotish baholari umumiy ovqatlanish korxonasi tomonidan tuziladigan menyuda ko'rsatiladi.

26.2. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobotni tuzish

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish ushbu korxonlarning ichki tuzilmalariga, ular bo'yicha belgilangan moddiy javobgarlikka va boshqa omillarga bog'liq. Maxsus omborlar, muzlatkich xonalari, oshxonalari, savdo zallari va bufetlari bo'lgan yirik umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish ushbu bo'linmalar bo'yicha alohida-alohida amalga oshiriladi. Kichik umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari korxona bo'yicha umumiy holda amalga oshiriladi, jumladan barcha ichki almashuv operatsiyalari bitta moddiy javobgar shaxs tomonidan turli hujjatlarsiz olib boriladi, masalan tovarlarni ombordan oshxonaga yoki bufetga berilishi va shu kabi boshqa operatsiyalar.

Ta'minotchilardan tovarlar schot-fakturalar, kuzatuv va sifat hujjatlari asosida son va sifat jihatidan kirim qilinadi. Hisobdor shaxslarga

mahsulotlarni bozordan sotib olish uchun oldindan bo'nak kassadan beriladi. Olingan bo'nak va sotib olingan mahsulotlar bo'yicha hisobdor shaxslar bo'nak hisoboti tuzadilar. Bo'nak hisobotiga bozordan xarid qilingan mahsulotlarni xarid dalolatnomasi, bozor ma'muriyatining narxlar to'g'risidagi ma'lumotnomalari ilova qilinadi. Hisobdor shaxslar xarid qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini omborga yoki oshxonaga topshiradilar.

Ombor xo'jaligi mavjud korxonalarda kirim qilingan tovar moddiy boyliklarning ombor hisobi sotib olish baholarida savdo ustamalari bilan birgalikda olingan baholarda ombor hisobi varaqachalarida yoki kitobida yuritiladi. Ombordan tovarlar oshxonaga va bufetga "Olish varaqasi" yoki ichki yukxati bilan beriladi. Ombor xo'jaligi bo'lmagan va korxona bo'yicha yagona moddiy javobgar shaxs belgilangan hollarda bunday hujjatlarni tuzish zarurati bo'lmaydi. Ombordan tovarlar oshxonaga bosh oshpazning talabnomasiga ko'ra kerakli miqdorda beriladi. Ombor mudiri o'z mas'uliyatida bo'lgan tovar-moddiy boyliklarlar uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

Korxona rahbariyati ombor mudiri javobgarligida bo'lgan boyliklar butligini nazorat qilish maqsadida belgilangan muddatlarda ularning inventarizatsiyasini o'tkazib turishi lozim. Ombordagi tovar - moddiy boyliklarning inventarizatsiyasini o'tkazish tartibi va rasmiylashtirilishi ulgurji savdo korxonalaridagi tartibga to'liq o'xshaydi. Inventarizatsiya natijasida kamomadlar aniqlanganda tovarlarning buzilishi, tabiiy kamayishi hisob-kitoblari tuziladi. Ombor mudirlari korxonada belgilangan muddatlarda ikki nusxada tovar hisobotini tuzadilar. Bu hisobot ham xuddi ulgurji savdodagiga to'liq o'xshaydi. Tovar hisobotiga barcha kirim va chiqim hujjatlar ilova qilinadi va buxgalteriyaga topshiriladi. Tovar hisoboti va unga ilova qilingan hujjatlar ombor bo'yicha tovar operatsiyalari hisobini yuritishga asos bo'ladi.

Oshxonalarga tovar - moddiy boyliklar omborlardan, shuningdek bevosita hisobdor shaxslardan kirim qilinadi. Oshxonaga ovqat tayyorlash uchun kerak bo'lgan masalliqlar, mahsulotlar bosh oshpaz talabnomasiga qarab berilishi lozim. Ombordan bosh oshpazning talabnomasi asosida berilgan yoki bevosita hisobdor shaxslardan kirim qilingan tovar-moddiy boyliklariga yuk xati to'ldiriladi. Oshxonada qozonlarda tayyorlanayotgan ovqatlar hisobga olinmaydi, ya'ni ishlab chiqarish va tugallanmagan ishlab chiqarish alohida hisobga olinmaydi.

Tayyor mahsulotlar oshxonadan xizmat zaliga buyurtma, schot yoki ofisiant varag'i, chek, chiptalar bilan beriladi. Kun oxirida oshxonadan zalga berilgan ovqatlar miqdori yuqoridagi hujjatlar asosida topiladi. Oshxonada suyuq bo'lmagan ovqatlar bufetlarga yuk xati yoki olish varaqalari orqali beriladi. Oshxonadan o'z xodimlariga berilgan ovqatlar tarqatish qaydnomasi bilan rasmiylashtiriladi, oy tugagach tarqatish qaydnomasi bosh oshpazning hisobotiga ilova etilib buxgalteriyaga topshiriladi. Oshxonada tayyor ovqatlar mayda ulgurji tarzda ham sotilishi mumkin (bolalar muassasalari, o'quv yurtlari, shifoxonalar va boshqalarga). Mayda ulgurji tarzda sotilgan tayyor ovqatlarga xaridor tomonidan berilgan ishonch qog'ozi asosida schot-faktura rasmiylashtiriladi.

Tayyorlangan, lekin sotilmasdan qolgan va iste'molga yaroqsiz bo'lib qolgan ovqatlar keyingi kunda sotilishi mumkin emas. Bunday ovqatlar "Tayyor taomlarni hisobdan chiqarish dalolatnomalari" bilan rasmiylashtiriladi va sotilmagan ovqatlardan ko'rilgan ziyon korxona zarariga olib boriladi.

Bosh oshpaz belgilangan muddatlarda barcha kirim va chiqim hujjatlari asosida tuzilgan tovar hisoboti yoki tovar - pul hisobotini ikki nusxada tuzadi va bir nusxasini birlamchi hujjatlar bilan birga korxona buxgalteriyasiga taqdim etadi.

Bufetga tovarlar ombordan va oshxonadan beriladi. Ombordan va oshxonadan kirim qilingan mahsulotlarga yuk xati to'ldiriladi. Bufetdan tovarlar faqat naqd sotiladi. Sotish hajmi, cheklar, schotlar, chiptalar bilan tasdiqlanadi. Bufetchi ham belgilangan muddatlarda tovar-pul hisobotini ikki nusxada tuzadi. Oshxona va bufet bo'linmalari ajratilmaganda tovar hisoboti yoki tovar-pul hisoboti umumiy holda tuziladi.

26.3. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi

Umumiy ovqatlanish korxonalari omborlarida tovar - moddiy boyliklarning hisobi 2910 «Ombordagi tovarlar»da hisobga olinadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari omborlaridagi tovarlar umumiy ovqatlanish ustamalarisiz hisobga olinadi. Ta'minotchilardan, hisobdor shaxslardan kirim qilingan tovarlarning sotib olish bahosidagi qiymatiga quyidagi yozuv beriladi:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar», 4230 «Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar».

Kirim qilingan tovarlar qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamasi summasiga:

Debet 2910 «Ombordagi tovarlar»;

Kredit 2980 «Ombordagi tovarlarga qo'yilgan savdo ustamalari».

Tovarlarni ombordan oshxonaga berilishiga ichki yukxati, olish varaqalari asosida ularning savdo ustamalari bilan birgalikdagi hisob qiymatiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 2920 «Oshxonadagi tovarlar»;

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar».

Umumiy ovqatlanish korxonalari oshxonalaridagi tovar-moddiy boyliklarning hisobi 2920 «Oshxonadagi tovarlar» da hisobga olinadi.

Oshxonaga yuk xatiga asosan omborlardan va hisobdor shaxslardan kirim qilingan tovarlar qiymati ustiga qo'yilgan umumiy ovqatlanish ustamasi summasiga:

Debet 2920 «Oshxonadagi tovarlar»;

Kredit 2981 «Umumiy ovqatlanish ustamasi.

Oshxonalardan tayyor ovqatlar sotilishi va turli chiqimi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- *naqd pulga sotilganda:*

Debet 5010 «Kassa»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

- *ovqatlar plastik kartochkalar orqali sotilganda:*

Debet 5710 «Yo'ldagi pul mablag'lari»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

- *xodimlarga tarqatilgan ovqatlarni sotish qiymatiga:*

Debet 6710 «Ish haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

- *tovarlarning chiptalar bo'yicha sotilishiga:*

Debet 4030 «Buyurtmachilar bilan chiptalar bo'yicha hisob-kitoblar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

- *mayda ulgurji tarzda boshqa muassasalarga berilgan tovarlarga*:

Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

- *tayyor ovqatlarning bepul berilishiga:*

Debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar»;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar».

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar».

Bufetlarga omborlardan va oshxonadan kirim qilingan tovarlar qiymatiga:

Debet 2921 «Bufetdagi tovarlar»;

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar», 2920 ««Oshxonadagi tovarlar».

Bufetga kirim qilingan tovarlar qiymati ustiga qo'yilgan umumiy ovqatlanish ustamasi summasiga:

Debet 2921 «Bufetdagi tovarlar»;

Kredit 2981 «Umumiy ovqatlanish ustamasi».

Umumovqatlanish korxonalarida xuddi chakana savdo korxonalari singari har bir sotilgan tovarlarning, ovqatning tannarxini sotish paytida aniqlab bo'lmaydi. Sotilgan tovarlarning tannarxini aniqlash uchun oy oxirida sotilgan va qoldiq tovarlarga to'g'ri keladigan savdo va umumiy ovqatlanish ustamalari hisob-kitobi tuziladi. Ushbu hisob-kitob shakl va mazmuni jihatdan chakana savdo korxonalarida tuziladigan hisob-kitobga to'liq o'xshaydi. Hisob-kitob asosida topilgan sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo va umumiy ovqatlanish ustamasi summasi sof tushumdan chegirilgach, qolgan summa sotish tannarxini beradi, ya'ni:

$$St = Sst - Stu$$

bu yerda: St- sotish tannarxi;

Sst- sotishdan tushgan sof tushum;

Stu- sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi ustama.

Sotilgan tovarlarning tannarxi quyidagicha hisobdan chiqariladi:

Oshxona bo'yicha:

- sotilgan tovarlarning sotish qiymatiga:

Debet 9120 «Oshxonadan sotilgan tovarlar tannarxi»;

Kredit 2920 «Oshxonadagi tovarlar».

- sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasiga:

Debet 2981 «Umumiy ovqatlanish ustamasi»;

Kredit 9120 «Oshxonadan sotilgan tovarlar tannarxi».

Bufet bo'yicha:

-sotilgan tovarlarning sotish qiymatiga:

Debet 9121 «Bufetdan sotilgan tovarlar tannarxi»;

Kredit 2921 «Bufetdagi tovarlar».

- sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan umumiy ovqatlanish ustamasiga:
Debet 2981 «Umumiy ovqatlanish ustamasi»;
Kredit 9121 «Bufetdan sotilgan tovarlar tannarxi».

Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar va idishlarning tahliliy hisobi har bir moddiy javobgar shaxs bo'yicha yuritiladi.

Tayanch iboralar

Umumiy ovqatlanish ustamasi – bu tovar va masalliqlarning chakana bahosi ustiga qo'yiladigan qo'shimcha haq.

Tayyor ovqat chakana sotish bahosini kalkulyatsiya qilish – bu tayyor ovqatlar bir birligini sotish bahosini aniqlash.

Umumiy ovqatlanish korxonasining yalpi tovar aylanmasi – bu tovarlarni chakana va ulgurji sotishning pul birligidagi hajmi.

Tovar va idishlar harakati to'g'risida hisobot – ombor mudirlari tomonidan tovar va idishlarning davr boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek ularning kirimi va chiqimi to'g'risida pul birligida tuziladigan hisobot.

Tovar-pul hisoboti - savdo zali mudiri va bufet mudiri tomonidan tovarlar, idishlar va savdo tushumi to'g'risida pul birligi to'g'risida tuziladigan hisobot.

Nazorat uchun test savol - javoblari

1. Kolbasaning sotib olish bahosidagi qiymati (tannarxi) – 4000 so'm, savdo ustamasi 25 %, umumiy ovqatlanish ustamasi 30 %. Kolbasaning sotish bahosi qiymati qancha?

a) 6500 so'm; b) 6100 so'm;
v) 6200 so'm; g) to'g'ri javob yo'q.

2. Ombordan tovarlarning oshxonaga berilishi qanday hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

a) schot-faktura tuziladi;
b) talabnoma tuziladi;
v) ichki yuk xati tuziladi;
g) to'g'ri javob yo'q.

3. Oshxona va bufetlardan mahsulotlarning naqd sotilishi qaysi hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

a) schot-faktura bilan; b) dalolatnoma bilan;
v) to'g'ri javob yo'q; g) kassa cheki yoki kassa kirim orderi bilan.

4. Oshxona va bufetlardan mahsulotlar kreditga:

a)) sotilmaydi;

b) 1 yil muddatga sotiladi;

v) 1 yil muddatgacha sotiladi;

g) to'g'ri javob yo'q.

5. Moddiy javobgar shaxslarga hisobot topshirish muddatini kim belgilaydi?

a) korxona rahbari;

b) hokimiyat;

v) tarmoq vazirligi;

g) Vazirlar Mahkamasi.

6. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlar hisobi 2920 schotda yuritiladi:

a) uzluksiz tizim bo'yicha

b) xohlagan tizim bo'yicha;

v) davriy tizim bo'yicha;

g) barcha javoblar to'g'ri.

7. Sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi umumiy ovqatlanish savdo ustamasiga yozuv qilinadi:

a) Debet 2980 Kredit 9020;

b) Debet 2980 Kredit 9120;

v) Debet 9020 Kredit 2980;

g) Debet 2980 Kredit 2920.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi 125- sonli qarori.

4. «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407- sonli qarori.

5. Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 27-noyabrdagi 407- sonli qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS №4 "Tovar-moddiy zaxiralar". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 28-avgust 486- son raqam bilan ro'yxatga olingan.

7. BXMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jaligi buxgalteriya hisobining schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zR Adliya Vazirligidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatdan o'tgan, № 1181.

8. Voxidov S., Maxamadiyev A., Voxidov T, Boshqa tormoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. - T.: «O'YOUAJ» nashriyoti, 2004.

9. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish-T.:«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004, 41-77 betlar.

27-bob. SAVDO KORXONALARIDA DAROMADLAR, XARAJATLAR VA YAKUNIY MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

27.1. Savdo korxonalarida daromadlar hisobi

Sotishdan olingan daromadlarning hisobi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining tovarlarni sotishdan olingan daromadlari 21-son BHMSga muvofiq 9020 "Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar" schotining kredit aylanmasidan 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytarilishi" va 9050 "Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schotlarining debet aylanmalari summalarini ayirish yo'li bilan topiladi.

Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va xaridorlarga berilgan chegirmalar ular yuz bergan hisobot davrida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytarilishi";

9050 "Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar";

Kredit 4010 «Xaridorlardan olinadigan schotlar».

Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va xaridorlarga berilgan chegirmalarni hisobga oluvchi schotlarning yopilishi hisobot davri oxirida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»;

Kredit 9040 "Sotilgan tovarlarning qaytarilishi";

9050 "Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar".

Hisobot davri oxirida sotishdan olingan sof tushumning yakuniy moliyaviy natijalar schotiga yopilishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromad»;

Kredit 9910 "Yakuniy moliyaviy natija".

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarning hisobi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari 21-son BHMSga muvofiq quyidagi schotlarda hisobga olinadi:

9310 "Asosiy vositalarning chiqimidan olingan foyda" – bu schotda savdo korxonalari o'zlarining asosiy vositalarini sotishdan va boshqa chiqimlaridan olgan foydasini hisobga olishda foydalanadilar. Schotning kreditida olingan foyda yil mobaynida to'planib boradi. Ushbu foyda asosiy vositalarning sotish qiymatidan ularning qoldiq qiymatini ayirgandan qolgan summa, shuningdek oldingi davrlarda amalga oshirilgan qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitali summasidan iborat bo'ladi. Ushbu foyda summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

Debet 9210 "Asosiy vositalarning chiqimi";

Kredit 9310 "Asosiy vositalarning chiqimidan olingan foyda".

9320 "Boshqa aktivlarni chiqimidan olingan foyda" - bu schotda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari o'zlarining turli boshqa aktivlarini (materiallar, xo'jalik inventarlarini, nomoddiy aktivlari va shu kabilar) sotishdan va boshqa chiqimlaridan olgan foydasini hisobga olishda foydalanadilar. Schotning kreditida olingan foyda yil mobaynida to'planib boradi. Ushbu foyda boshqa aktivlarning sotish qiymatidan ularning tannarxini (qoldiq qiymatini) ayirgandan qolgan summadan iborat bo'ladi va unga buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 9220 "Boshqa aktivlarning chiqimi;

Kredit 9320 "Boshqa aktivlarni chiqimidan olingan foyda".

9330 " Undirilgan jarimalar, penyalar va boqimandalar" - ushbu schotning kreditida turli xo'jalik shartnomalari shartlarini buzilishi natijasida, Shuningdek ko'rsatilgan zararlarni qoplanishi evaziga olingan daromad (foyda) summasi aks ettiriladi.

9350 "Qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar" – ushbu schotning kreditida qisqa muddatli ijaradan olingan daromad summasi 4820 "Qisqa muddatli ijara bo'yicha olinadigan to'lovlar" schoti bilan korrespondensiyalashgan holda aks ettiriladi

9360 "Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarilishidan olingan daromadlar" – ushbu schotning kreditida muddatida (3 yildan oshiq muddatda) undirib olinmagan qarzlarni korxona foydasiga o'tkazishdan olingan daromadlar mos ravishda kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi schotlar (6010,6110,6710,6720, 6910-6990 va boshqalar) bilan korrespondensiyalangan holda aks ettiriladi.

9380 "Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam" - ushbu schotning kreditida turli yuridik va jismoniy shaxslardan qaytarib bermaslik sharti bilan olingan moliyaviy yordam summalari aks ettiriladi. Bunda olingan yordamning turini aks ettiruvchi schotlar, masalan, 5010 "Kassa", 5110 "Hisob-kitob schoti", 0100 "Asosiy vositalar schoti", 1000 "Materiallar schoti" va boshqa schotlar debetlanadi.

9390 "Boshqa operasion daromadlar"- ushbu schotning kreditida yuqorida keltirilgan schotlarga olib borilmagan boshqa operasion daromadlar, masalan inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar, turli qoplama summalar va boshqalar aks ettiriladi. Bunda mos ravishda TMZ

va pul mablag'larini aks ettiruvchi schotlar (0100,1000, 2800, 2900, 5000 va boshqalar) debetlanadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning hisobi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlari 21-son BHMSga muvofiq quyidagi schotlarda hisobga olinadi:

- **9510** "Royalti ko'rinishidagi daromadlar";
- **9520** "Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar";
- **9530** "Foizlar ko'rinishidagi daromadlar";
- **9540** "Valuta kurslari farqlaridan olingan daromadlar";
- **9550** "Uzoq muddatli ijaradan olingan daromadlar";
- **9560** "Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar";
- **9590** " Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar".

Ushbu schotlarning kreditida nomlari yuqorida zikr etilgan daromadlarning turlari hisoblash tamoyiliga muvofiq oldingi boblarda aks ettirilgan tartiblar singari aks ettiriladi.

Favquloddagi daromadlarning hisobi. 21-son BHMSga muvofiq favquloddagi daromadlarning hisobi 9710 "Favquloddagi foyda" schotining kreditida hisobga olinadi. Bunda favqulodda olingan yoki hisoblangan foydaning turini ko'rsatuvchi schotlar (0100, 0400, 0700, 1000, 2900 va boshqa schotlar) debetlanadi.

Barcha daromadlarni hisobga oluvchi schotlar hisobot davri oxirida 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining kreditiga yoziladi va shu asosda ular yopiladi.

27.2. Savdo korxonalarida xarajatlar hisobi

Sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar hisobi. Savdo korxonalarida sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar deganda sotilgan tovarlar tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar tushuniladi. Bu ko'rsatkichni aniqlash tartibi ulgurji savdo va chakana savdo korxonalarida bir-biridan farq qiladi.

Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar sotib olish tannarxi bo'yicha uzluksiz tizim asosida hisobga olinishi sababli sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlarni har bir sotish bo'yicha aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Schot-fakturalar asosida sotilgan tovarlarni ombor mudirlari javobgarligidan sotib olish qiymati (tannarxi)da chiqariladi hamda unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi»

Kredit 2910 «Ombordagi tovarlar».

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlarni savdo ustamalari bilan birgalikda hisobga olinishi, shuningdek tovarlarning uzluksiz tizimini sotish jarayonida qo'llashning imkoniyati bo'lmaganligi sababli sotish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, ya'ni sotilgan tovarlar tannarxini sotish paytida aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun oy oxirida sotilgan tovarlarning tannarxi (St) tovarlarni sotishdan olingan daromad (Sd) summasidan sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo va umumiy ovqatlanish ustamalari (Su)ni ayirish orqali topiladi, ya'ni:

$$St = Sd - Su$$

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar yoki sotilgan tovarlarning tannarxi quyidagi ketma-ketlikda topiladi: **Birinchidan,** 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schotining kredit aylanmasi asosida naqd pulga, kreditga, mayda ulgurji tarzda, ish haqi hisobidan va boshqa sotish turlaridan olingan daromad summasi aniqlanadi. **Ikkinchidan,** 2980 «Savdo ustamasi»

27.1-jadval

Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamalarining hisob- kitobi

№	Savdo do'kon	Savdo ustamasi (2980-schot)			Sotilgan tovarlar summasi (9020-schotning kredit aylanmasi)
		Bosh qoldiq (kredit)	Kirim qilingan tovarlarga qo'yilgan ustama (kredit aylanmasi)	Jami (1+2)	
A	B	1	2	3	4
1.	«Xo'jalik tovarlari»	60000	300000	360000	1600000
2.	«Oziq –ovqatlar»	50000	500000	550000	2800000
	Shu kabi boshqalar				
	Jami	110000	800000	910000	4400000

Oy oxiridagi tovarlar summasi (2920-schotning qoldig'i)	Jami tovarlar summasi (4+5)	Savdo ustamasi-ning o'rtacha foizi (3/6*100)	Qoldiq tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasi (7*5/100	Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasi (3-8)
5	6	7	8	9
400000	2000000	18 %	72000	288000
500000	3300000	16,7 %	83500	466500
900000	5300000	17,28 %	155500	754500

schotining kreditida aks ettirilgan qoldiq tovarlarga to'g'ri keluvchi va kirim qilingan tovarlarga qo'yilgan savdo ustamalari asosida sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasining miqdori maxsus hisob-kitob orqali topiladi. Ushbu hisob-kitob barcha savdo shoxobchalari bo'yicha quyidagi tarzda amalga oshiriladi (27.1-jadvalga qarang).

Uchinchidan, sotishdan olingan daromad summasidan sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasini ayirish orqali sotilgan tovarlarning tannarxi aniqlanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha ushbu summa 3645500 so'mni tashkil qilgan (4400000- 745500).

27.1-jadvalda keltirilgan hisob- kitoblarga asosan sotilgan tovarlarning tannarxi 21- son BHMS ga muvofiq schotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

- *Sotilgan tovarlarni sotish baholarida hisobdan chiqarilishiga:*

Debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» - 4400000;

Kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» - 4400000.

- *Sotilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi savdo ustamasi summasiga:*

Debet 2980 «Savdo ustamasi» -754500;

Kredit 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» - 754500.

9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schotining debet va kredit aylanmalari farqi (bizning misolda 3645500 so'm) jami sotilgan tovarlarning tannarxini bildiradi va ushbu summa korxonaning oxirgi moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» schotga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» -3645500;

Kredit 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» - 3645500.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida sotish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, ya'ni sotilgan tovarlar tannarxi davriy hisob tizimida boshqacha tartibda ham aniqlanishi mumkin. Ushbu tartibga ko'ra savdo korxonasida 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi" qo'llanilmaydi, uning o'rniga 9140 "Davriy hisob usulida TMB ni sotib olish" va 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar" vaqtinchalik schotlaridan foydalaniladi. Tovarlarni sotib olinishi tannarxi bo'yicha dastlab 9140 "Davriy hisob usulida TMB ni sotib olish" schotining debetida va 6010 «Ta'minotchilarga to'lanadigan schotlar» schotining kreditida aks ettiriladi. Oy oxirida inventarizatsiya qilish yo'li bilan tovarlarning haqqoniy qolgan qoldig'i topiladi. Topilgan oxirgi qoldiq summasi 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schotining bosh qoldig'i bilan taqqoslanadi va aniqlangan farq

9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar" schotida aks ettiriladi. Chunonchi, oxirgi qoldiq summasi bosh qoldiq summasidan ko'p bo'lsa, u holda farq summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar»;

Kredit 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar".

Agar oxirgi qoldiq summasi bosh qoldiq summasidan kichik bo'lsa, u holda farq summasiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar";

Kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar».

Hisobot davri oxirida 9140 "Davriy hisob usulida TMB ni sotib olish" schotining debetida to'plangan, shuningdek 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar" schotining debeti yoki kreditida to'plangan summa to'lig'icha 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotiga o'tkaziladi. Bunda **Debet** 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» **Kredit** 9140 "Davriy hisob usulida TMB ni sotib olish" va 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar" yozuvlari summalarining yig'indisi jami sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar ya'ni sotilgan tovarlar tannarxi summasini ifodalaydi. Agar tovarlarning oy oxiridagi qoldig'i oy boshidagi qoldig'idan katta bo'lsa, bu holda sotilgan tovarlar tannarxi **Debet** 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» **Kredit** 9140 "Davriy hisob usulida TMB ni sotib olish" yozuvi summasidan **Debet** 9150 "Davriy hisob usulida TMB bo'yicha tuzatishlar" **Kredit** 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» yozuvining summasini ayirish orqali topiladi.

Davr xarajatlarining hisobi. Savdo korxonalarida davr xarajatlariga tovarlarni sotishga, ma'muriy-boshqaruviga va boshqa operasion faoliyatiga doir xarajatlar kiradi.

21-son BHMS ga muvofiq savdo korxonalarining davr xarajatlari hisobi boshqa korxonalar singari quyidagi schotlarda olib boriladi:

9410 "Sotish xarajatlari"- ushbu schotning debetida yil mobaynida sotishga doir xarajatlar (reklama xarajatlari, sotish bilan bog'liq xodimlarning ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, tashish va boshqa shu kabi sotish bilan bog'liq xarajatlar) aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (5110, 5010, 6710, 6520, 6990 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

9420 "Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari"- ushbu schotning debetida yil mobaynida boshqaruvga doir xarajatlar (ish haqi, ijtimoiy sug'urtaga

ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, safar xarajatlari, telefon aloqasi va boshqa shu kabi boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar) aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (0200, 0500, 1000, 5110, 5010, 6710, 6520,6990 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

9430 "Boshqa operasion xarajatlar" - ushbu schotning debetida yil mobaynida savdo korxonalarining sotish va boshqaruvdan tashqari umumfaoliyatiga doir davr xarajatlari (moddiy yordam, kompensasion to'lovlar, mulkni sotishdan va berishdan ko'rilgan zararlar, turli xizmatlar va boshqa shu kabi operasion xarajatlar) aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (1000, 5110, 5010, 6400, 6710, 6520, 6990, 9210, 9220 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar hisobi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining moliyaviy faoliyatga doir xarajatlariga qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish, valuta operatsiyalari, kredit va qarzlarni olish, uzoq muddatli ijaraga doir va boshqa moliyaviy faoliyatga taalluqli xarajatlar kiradi. 21-son BHMS ga muvofiq savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining moliyaviy faoliyatga doir xarajatlari hisobi quyidagi schotlarda olib boriladi:

9610 "Foiz ko'rinishidagi xarajatlari"- ushbu schotning debetida yil mobaynida savdo korxonalari tomonidan olingan qarzlar va kreditlarga doir hisoblangan xarajatlar, shuningdek uzoq muddatli ijara uchun to'lovlar aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va 6920 "Hisoblangan foizlar" schotining kreditida aks ettiriladi.

9620 "Valuta kurs farqlaridan ko'rilgan zararlar"- ushbu schotning debetida yil mobaynida savdo korxonalari balansining valuta moddalarini ifodalovchi schotlarga doir operatsiyalar bo'yicha kurslar o'rtasidagi salbiy farqlardan ko'rilgan zararlar aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu zararlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (4010, 4310, 5020, 5210, 5220, 6010, 6310 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

9630 "Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish bo'yicha xarajatlar" - ushbu schotning debetida yil mobaynida savdo korxonalarida aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi. Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning

debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (1000, 5110, 5010, 6710, 6520, 6990 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar"- ushbu schotning debetida yil mobaynida savdo korxonalarining moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlari, masalan moliyaviy investisiyalarni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar va boshqa xarajatlar aks ettiriladi Xarajatlarning aniq turlari ushbu schotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schotlarning kreditida (0600, 5800, 6990 va boshqa schotlar) aks ettiriladi.

Favquloddagi zararlar hisobi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida favquloddagi zararlar hisobi 21-son BHMSga muvofiq 9720 "Favquloddagi zararlar" schotining debetida hisobga olinadi. Bunda favquloddagi hodisalardan ko'rilgan zararlarni ko'rsatuvchi schotlar, masalan, 0100, 0400, 0700, 1000, 2900 va boshqa schotlar kreditlanadi.

Yil oxirida sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatdan olingan xarajatlar, favquloddagi zararlar hisobi schotlarining debetida to'plangan summa ularning kreditiga va 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining debetiga yoziladi va shu asosda ular yopiladi.

27.3. Savdo korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi

Savdo korxonalari faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi foyda (zarar)lar ko'rsatkichlari boshqa turdagi korxonalardagidek «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida Nizom»ga muvofiq aniqlanadi. Faqat, har bir foyda ko'rsatkichini topishda bevosita savdo faoliyatiga doir ko'rsatkichlar asos qilib olinadi. Chunonchi, savdo korxonalarida tovarlarni sotishdan olingan foyda (Fs) yoki zarar (Zs) sof tushumdan (St) sotilgan tovarlar tannarxini (S) ayirish orqali topiladi, ya'ni:

Fs (Zs) = St –S, mos ravishda

Fs = agar St > S , Zs = agar St< S

Savdo korxonalarining asosiy va umumxo'jalik faoliyati turlaridan olgan foydasi (zarari), shuningdek soliqqacha foydasi (zarari) barcha tarmoq korxonalaridagi singari yaxlit belgilangan tartibda aniqlanadi. Ularning sof foydasi (Sf) yoki sof qoplanmagan zarari (Sz) soliqqacha foyda (Fst) yoki zarar (Zst) summasidan yagona soliq to'lovi (Yast) summasini ayirish orqali topiladi, ya'ni:

Sf (Sz) = Fst (Zst) –YAst

21-son BHMS ga muvofiq savdo korxonalarida hisobot yilning soliq to'lagunga qadar foydasi (zarari)ni topish barcha daromad va xarajatlarni 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotida aks ettirish va ushbu schotning debet va kredit aylanmalari summasini taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Jumladan, daromadlarni aks ettiruvchi barcha schotlar (9010-9030, 9310-9390, 9510-9590, 9710) ning kreditida to'plangan summa yil oxirida 9910 schotning kreditiga, xarajatlarni aks ettiruvchi barcha schotlar (9110-9130, 9410-9430, 9610-9690, 9720)ning debetida to'plangan summa yil oxirida 9910 schotning kreditiga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet 9020, 9310-9390, 9510-9590 , 9710 **Kredit** 9910;

Debet 9910 **Kredit** 9120, 9410-9430, 9610-9690, 9720.

Agar, 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining kredit aylanmasi debet aylanmasidan katta bo'lsa, u hisobot yilida savdo korxonasi soliq to'lagunga qadar foydaga, debet aylanmasi kredit aylanmasidan katta bo'lsa, u holda savdo korxonasi soliq to'lagunga qadar zararga erishgan hisoblanadi.

Foydani ishlatilishining hisobi. 21-son BHMS ga asosan savdo korxonalarida hisobot yili foydasining ishlatilishi 9800 "Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydani ishlatishni hisobga oluvchi schotlar"da aks ettiriladi. Ushbu schotning debetida yil mobaynida hisoblangan yagona soliq to'lovi aks ettiriladi. Bunda ushbu soliq bo'yicha budjet oldidagi qarzlarni ifodalovchi 6400 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar hisobi schotlari" kreditlanadi.

Yil oxirida 9800 "Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydani ishlatishni hisobga oluvchi schotlar"ning debetida to'plangan yagona soliq to'lovi summasi uning kreditida va 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining debetida aks ettiriladi va shu asosda foydaning ishlatilishi hisobi schoti yopiladi.

Hisobot yilining sof foydasi (zararlari) taqsimlanishining hisobi. 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotiga foydani ishlatilishi hisobi schotini, ya'ni 9800 schotni yopilishi bilan savdo korxonasining hisobot yil yakuni bo'yicha sof foydasi (qoplanmagan zarari)ni aniqlash imkoni bo'ladi. Buning uchun 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining debet va kredit aylanmalari taqqoslanadi. Ushbu schotning kredit aylanmasini debet aylanmasidan katta bo'lishi savdo korxonasining sof foydasi, kredit aylanmasidan debet aylanmasini katta bo'lishi savdo korxonasining qoplanmagan sof zararini bildiradi.

Aniqlangan sof foyda summasi 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotining debetiga va 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotining kreditiga o'tkaziladi. Yil yakuni bo'yicha

zarar bilan chiqilgan bo'lsa, ushbu zarar summasi 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schotning kreditiga va 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotining debetiga o'tkaziladi. Ushbu yozuv bilan 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schoti to'lig'icha yopiladi.

Hisobot yili oxirida 8710 «Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotida aks ettirilgan sof foyda (qoplanmagan zarar) taqsimlanishi yoki taqsimlanmay qolishi mumkin. Bunday taqsimotni amalga oshirish savdo korxonalarining mulkiy va tashkiliy shakliga bevosita bog'liq hisoblanadi. O'rtoqchilik jamiyatlaridagi savdo korxonalarida, masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda, qo'shma korxonalarda, xususiy korxonalarda ularning ustavi va ta'sis shartnomalari talablaridan kelib chiqqan holda hisobot yilning sof foydasi (qoplanmagan zarari) ta'sischilar yig'ilishining qaroriga asosan taqsimlanishi yoki taqsimlanmasdan korxona ixtiyorida jamlangan foyda (qoplanmagan zarar) hisobiga qoldirilishi mumkin. Bu turdagi savdo korxonalarida ta'sischilar yig'ilishi qaroriga asosan hisobot yilning sof foydasini taqsimlash quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

-Ta'sischilarga dividend (foiz) ko'rinishida taqsimlangan sof foyda summasiga:

Debet 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)";

Kredit 6610 "To'lanadigan dividendlar".

-Korxonaning rezerv kapitaliga ajratma summasiga:

Debet 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)";

Kredit 8520 "Rezerv kapitali".

-Hisobot yilning taqsimlanmay qolingan sof foydasi o'tgan yillarning jamlangan foydasiga qo'shilsa:

Debet 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)";

Kredit 8720 "Jamlangan foyda (qoplanmagan zarar)".

Agar o'rtoqchilik jamiyati hisobot yili yakuni bo'yicha zarar bilan chiqqan bo'lsa, ushbu zarar summasi 8720 "Jamlangan foyda (qoplanmagan zarar" schotining debetiga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet 8720 "Jamlangan foyda (qoplanmagan zarar)";

Kredit 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)".

Shunday qilib, o'rtoqchilik jamiyatlarida hisobot yilning oxiriga 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" schoti to'liq yopiladi va ushbu vaqtinchalik (tranzit) schot qoldiqqa ega bo'lmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlari maqomidagi savdo korxonalarida 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) " schotida to'plangan foyda yoki zarar summasini aksiyadorlar yig'ilishi qarorisiz taqsimlab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari kelgusi yilda o'tkaziladi. Shu sababli savdo aksiyadorlik jamiyatlarida 8710 "Hisobot davrning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) " schotida to'plangan foyda yoki zarar summasi kelgusi yilga qoldiq sifatida o'tkaziladi, u faqat hisobot yili foydasi (zarari) taqsimlangach yopiladi.

Nazorat uchun test savol -javoblari

1. Quyidagilarning qaysi biri savdo korxonasining asosiy faoliyatidan olingan daromadga olib boriladi?

a) ta'sis badali;
b) inventarizatsiyada aniqlangan ortiqchalar;
v) tovarlarni sotishdan olingan daromad;
g) mulkni qayta baholashda vujudga kelgan qo'shimcha qiymat.

2. Quyidagilarning qaysi biri savdo korxonasida moliyaviy faoliyatdan olingan daromadga kiritiladi?

a) kreditorlarning voz kechgan qarzlari;
b) xodimlarning voz kechgan qarzlari;
v) bepul kelib tushgan mulk;
g) hech qaysisi kirmaydi.

3. Valuta kurslaridagi ijobiy farqlar?

a) moliyaviy faoliyatdan olingan daromad;
b) qo'shilgan kapital;
v) rezerv kapitaliga olib boriladi;
g) to'g'ri javob yo'q.

4. Quyidagilarning qaysi biri to'g'ri?

a) sotish tannarxi - bu moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zarar;
b) to'langan foizlar –bu asosiy faoliyatga taalluqli xarajatlar;
v) davr xarajatlari - bu asosiy faoliyatga taalluqli xarajatlar;
g) materialni sotishdan ko'rilgan zararlar – bu favquloddagi zararlar.

5. Uch yilga oldindan to'langan ijara haqi

a) davr xarajati hisoblanadi;

b) asosiy faoliyatga doir daromadlarni kamaytiradi;

v) kelgusi davr xarajati hisoblanadi;

g) moliyaviy faoliyatga doir xarajatdir.

6. Quyidagilarning qaysi biri to'g'ri?

a) sotishdan olingan foyda-daromad va davr xarajatlari o'rtasidagi farq;

b) sotishdan olingan foyda-sotishdan olingan daromad va sotish tannarxi o'rtasidagi farq;

v) sotishdan olingan foyda-sotishdan olingan yalpi tushum va QQS o'rtasidagi farq;

g) sotishdan olingan foyda - sotish tannarxi va davr xarajatlarining yig'indisi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy–huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. «Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-martdagi 125- sonli qarori.

4. «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407- son qarori.

5. Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 407- son qarori bilan tasdiqlangan.

6. BHMS № 4 "Tovar-moddiy zaxiralar". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 28-avgust 486- son raqami bilan ro'yxatga olingan.

7. BXMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jaligi buxgalteriya hisobining schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zR. Adliya Vazirligidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatdan o'tgan, № 1181.

8. Voxidov S., Maxamadiyev A., Voxidov T, Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. -T.: «O'YOUAJ» nashriyoti 2004.

9. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish - T.:«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004., 41-77 betlar.

28-bob. SAVDO KORXONALARIDA SOLIQ TO'LOVLARI, MAJBURIY AJRATMALAR VA USHLANMALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

28.1. Savdo korxonalarida soliq to'lovlarining hisobi

Savdo korxonalari davlatimizning soliq qonunchiligiga ko'ra, maqomi va yuritayotgan faoliyat turlari bo'yicha har xil soliqlar, majburiy ajratmalar, to'lovlar, ushlanmalar va yig'imlarni to'laydilar. Chunonchi, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, ulgurji savdo korxonalari (ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalaridan tashqari), joylashgan joyi va aholisining soniga qarab, belgilangan stavkalarda soliqqa tortiladigan bazadan yagona soliq to'lovini to'laydilar.

Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari belgilangan stavkalarda yalpi daromad solig'ini va budjetdan tashqari maqsadli fondlarga ajratmalarni to'lovchilari hisoblanadi. Savdo korxonalari hisoblanadigan avtomobillarga yoqilg'i quyush shoxobchalari (AYOQSH) belgilangan stavkalarda yog'ilg'i iste'moli solig'i hamda soliqqa tortiladigan bazadan yagona soliq to'lovini to'laydilar. Komissiyaga qabul qilingan tovarlar va konsignasiya tovarlari bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi savdo korxonalari vositachilik haqidan belgilangan stavkalarda yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadilar.

Yagona soliq to'lovining hisobi

Soliq solish obyekti. Savdo korxonalarida yagona soliq to'lovining obyekti yalpi tushum hisoblanadi. Savdo korxonalarining yalpi tushumi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) tovarlarni realizasiya qilishdan sof tushum, ya'ni sof tovar aylanmasi;

2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar:

a) undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari;

b) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;

v) ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni realizasiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan, xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi xizmatlardan tushumlar sifatidagi boshqa daromadlar;

g) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni chiqib ketishidan daromadlar;

d) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

e) tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash (tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash summasi ular realizasiya qilinishiga qarab soliq solinadigan yalpi tushumga kiritiladi;

j) boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk;

z) boshqa shaxslardan tekinga olingan moliyaviy yordam;

i) qisqa muddatli ijaradan daromadlar;

k) boshqa operasion daromadlar, quyidagi olingan daromadlardan tashqari (yetkazib beruvchilardan chegirmalar ko'rinishidagi; ilgari chiqarib tashlangan xarajatlarni qoplash ko'rinishidagi; asosiy vositalarni tugatishda ilgarigi narxini arzonlashtirish summasidan oshadigan qo'shimcha baholash summasi hisobiga);

3) moliyaviy faoliyatdan daromadlar:

a) olingan royaltilar va kapital transferti;

b) O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligasiyalar hamda xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;

v) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan olingan daromadlar (marja);

g) chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar. Bunda, balansning valuta moddalarini qayta baholashda kursdagi farqdan daromad, musbat va manfiy kurs farqlari o'rtasidagi saldo hisoblanadi. Manfiy kurs farqi summasi musbat kurs farqi summasidan oshib ketgan holda oshgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi;

d) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;

e) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

4) favqulodda daromadlar.

Yagona soliq to'lovi stavkalari. Respublikamizning soliq siyosatiga muvofiq savdo korxonalari yagona soliq to'lovini turli stavkalarda to'laydilar. Chunonchi, 2009-yil uchun quyidagi soliq stavkalari belgilangan (28.1-jadval).

28.1- jadval

Savdo korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkalari (2009-yil uchun)

№	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkasi, % da
1.	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	Ulardan:	
	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2.	Chakana savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari):	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda joylashgan	1
3.	Ulgurji savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)*	5
4.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	Boshqa aholi punktlarida	2
	Borish qiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda joylashgan	1
5	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastik kartalarni qo'llagan holda haqi to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	Belgilangan stavka 10 % ga pasaytiriladi

** Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari bundan mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-iyundagi "Ixtisoslashtirilgan ulgurji bazakontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida" PQ-374-son qarorining amal qilishi saqlab qolinadi.*

Yagona soliq summasining hisob-kitobi va hisobi. Yagona soliq to'lovi summasi soliq qonunchiligi hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitob qilinadi. Chunonchi, ushbu hisob-kitobga soliq solish obyektiga kiruvchi barcha tushum va daromadlar tafsilotni ifodalovchi jadvallar ilova qilinadi.

Yagona soliq to'lovi summasini topish uchun hisob-kitobda maxsus «Soliq solish bazasi» ko'rsatkichi (070-qator) ko'zda tutilgan. Ushbu ko'rsatkich jami sof yalpi tushum (050-qator) summasidan yalpi tushumdan chiqarib tashlanadigan summalarni (060-qator) ayirish orqali topiladi.

Yalpi tushumdan chiqarib tashlanadigan summalarga savdo korxonalarida quyidagilar kiradi:

* davlat subsidiyalari;
* davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
*to'lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo'lgan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

* dividendlar ko'rinishida olingan hamda dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondi (kapitali)ga yo'naltirilgan daromadlar;

*o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini ustav kapitalini oshirishga yo'naltirishda aksiyadorlar qo'shimcha aksiyalarning qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tarzida olgan daromadlari;

*hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda. Mazkur daromadlar qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq shu davrdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni o'tkazishni hisobga olgan holda soliqqa tortiladi;

* olingan grantlar.

* ko'p aylanmali qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni realizasiya qilishdan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

* qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa chegirmalar.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida ushbu chegirmalardan tashqari soliq solish bazasi quyidagilarga kamaytiriladi:

- jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

- mahalliy budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun belgilangan yuqori ustamasidan oshadigan chakana va xarid narxlari o'rtasidagi farq summasiga.

Yagona soliq to'lovi bazasini aniqlashda chegirib tashlanadigan daromad turlari tafsiloti ushbu soliq to'lovi hisob-kitobiga ilova qilinadi. Yagona soliq to'lovi summasi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan olib borilgan savdo faoliyati turlari bo'yicha ular uchun belgilangan soliq stavkasini har bir faoliyat turiga to'g'ri keluvchi soliq solish bazasi summasiga ko'paytirish orqali topiladi. Plastik kartochkalar bo'yicha olingan tushumga to'g'ri keluvchi yagona soliq to'lovi summasi ular bo'yicha tuzatilgan stavkada, ya'ni belgilangan stavkaning 10 foizga kamaytirilgan miqdorida topiladi.

Yagona soliq to'lovi summasi yil boshidan boshlab o'sish tartibida hisob-kitob qilinadi. Jami hisoblangan soliq summasi va oldingi hisob-kitob summasi o'rtasidagi farq oxirgi hisobot davriga (chorakka) to'g'ri keladigan soliq summasini bildiradi. Ushbu summaga buxgalteriyada quyidagi yozuv beriladi:

Debet 9810 «Daromad (foyda)dan soliqlar bo'yicha xarajatlar»

Kredit 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar".

Yagona soliq to'lovining Budjetga o'tkazib berilishiga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar"

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

AYOQShlarda yoqilg'i iste'moli uchun soliq va yagona soliq to'lovi hisob-kitobi hisobining xususiyatlari

2002-yil 1-yanvardan boshlab respublikamizda jismoniy shaxslarga benzin, dizel yoqilg'isi va suyuqlashtirilgan gazlar naqd pulga transport solig'i o'rniga joriy etilgan yoqilg'i iste'moli uchun undiriladigan soliq bilan sotiladigan bo'ldi. Chunonchi, 2009-yil 1-yanvardan boshlab, yoqilg'i iste'moli uchun soliq sotilgan 1 litr benzin va dizel yoqilg'isiga hamda 1 kg suyultirilgan gazga 120 so'm miqdorida belgilangan.

AYOQShlarda yoqilg'ilarning hisobi ularning sotish baholarida (iste'mol solig'isiz) yuritiladi. Yoqilg'ining iste'mol solig'isiz topilgan sotish bahosi va uning sotib olish bahosi o'rtasidagi farq savdo ustamasini tashkil qiladi. AYOQShlarda yoqilg'ining sotilishi nazorat kassa apparatlari va tovar cheklarida qayd etiladi. Ushbu cheklarda sotilgan yoqilg'ining miqdori, jami sotish qiymati, shu jumladan sotishda xaridordan olingan yoqilg'i iste'moli uchun soliq summasi ko'rsatiladi.

Ushbu xususiyatlar AYOQShda yoqilg'i kirimi, uning sotilishi, sotishdan olingan jami tushum, sotilgan yoqilg'iga to'g'ri keladigan iste'mol solig'i, yagona soliq to'lovi, sotish tannarxi va sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamalari hisobini yuritishda o'ziga xos xususiyatlar borligidan darak beradi. Bu xususiyatlarni quyidagi misol asosida ko'rib chiqamiz:

Misol. AYOQSh 10000 litr A-80 benzinni sotib oldi, 1 litr benzinning sotish bahosi iste'mol solig'i bilan birga 1040 so'm, iste'mol solig'isiz sotish bahosi 920 so'm, sotib olish narxi 790 so'm, bu benzin to'liq sotilgan, deylik. 1 litr A-80 benzinga to'g'ri keladigan savdo ustamasi summasi 130 so'mni (920-790) tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, AYOQShda yoqilg'ining kirimiga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

1. Sotib olish qiymatiga, ya'ni 7900000 so'mga:

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» 7900000;

Kredit 6010 "Ta'minotchilarga to'lanadigan schotlar" 7900000.

2. Yoqilg'iga qo'yilgan savdo ustamasiga, ya'ni 1300000 so'mga 10000 (920-790):

Debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» 1300000;

Kredit 2980 "Savdo ustamalari" 1300000.

Kassa apparati ko'rsatkichlari yoki tovar cheklari asosida AYOQShlarda sotishdan olingan sof tushum, shuningdek sotishda olingan yoqilg'i iste'moli solig'i hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

-Sotishdan olingan sof savdo tushumi summasiga;

Debet 5010 «Kassa» 9200000;

Kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» - 9200000.

-Sotilgan yoqilg'iga to'g'ri keladigan soliq summasiga:

Debet 5010 «Kassa» -1200000;

Kredit 6410 «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar» 1200000.

AYOQShlarda iste'mol solig'i ayirib tashlangandan keyin qolgan savdo tushumi yagona soliq to'loviga tortiladi. AYOQShning joylashgan joyi va xizmat ko'rsatayotgan hududidagi aholi soniga ko'ra yagona soliq to'lovi belgilangan stavkada hisoblanadi. Misol uchun, ushbu soliq stavkasi 3 foiz, deylik. Bu holda AYOQShning yoqilg'i sotishdan olgan sof tushumidan to'laydigan yagona soliq to'lovi summasi 276000 so'mni (9200000x3%) tashkil etadi. Ushbu soliq summasi yuqorida keltirilgan tartibdagidek, **Debet** 9810 «Daromad (foyda)dan soliqlar bo'yicha xarajatlar» **Kredit** 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar" yozuv bilan hisobda aks ettiriladi.

AYOQShlarda yoqilg'i iste'moli uchun soliq va yagona soliq to'lovining budjetga o'tkazib berilishiga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar" (soliq turi);

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

AYOQShLarda sotilgan yoqilg'i sotish bahosida (iste'mol solig'isiz) moddiy javobgar shaxs bo'ynidan chiqariladi va unga qo'yidagicha yozuv qilinadi:

Debet 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» 9200000;

Kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» 9200000.

Sotilgan yoqilg'ining tannarxi 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schotining debetida to'plangan summadan ushbu schotning kreditiga olib borilgan sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasini (bizning misolimizda 1300000 so'm) ayirish orqali topiladi. Savdo ustamasining hisobdan chiqarilishi quyidagicha schotlarda aks ettiriladi:

Debet 2980 "Savdo ustamalari" 1300000;

Kredit 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» 1300000.

Demak, jami sotilgan sotilgan yoqilg'ining tannarxi bizning misolimizda 7900000 so'mni (9200000-1300000) tashkil etadi.

Hisobot davri oxirida yoqilg'ining sotilishidan olingan sof tushum va sotish tannarxi yakuniy moliyaviy natijalar schotiga o'tkaziladi va ularga quyidagicha yozuvlar qilinadi:

**yoqilg'ini sotishdan olingan sof savdo tushumini moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishiga:*

Debet 9020 «Tovarlarni sotilishidan olingan daromadlar» 9200000;

Kredit 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» 9200000.

**sotish tannarxini moliyaviy natijalar schotiga o'tkazilishiga:*

Debet 9910 «Oxirgi moliyaviy natija» 7900000;

Kredit 9120 « Sotilgan tovarlarning tannarxi» 7900000.

Yoqilg'ini sotishdan olingan foyda summasi sof savdo tushumidan sotish tannarxini ayirishdan keyin qolgan summadan iborat bo'ladi. Bizning misolimizda u 1300000 so'mni tashkil qiladi (9200000-7900000).

AYOQSh bo'yicha moddiy javobgar shaxs kunning oxirida tovarlar (yoqilg'i) harakati bo'yicha tovar hisobotini tuzadi. Ushbu hisobotda tovarlarning bosh qoldig'i, kirimi, chiqimi, oxirgi qoldig'i miqdor va pul ifodasida ko'rsatiladi.

Yalpi daromad solig'i hisob-kitobining xususiyatlari va uning hisobi

Yuqorida ta'kidlanganidek, ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 8-iyundagi "Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralarni soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida" PQ-374-son qaroriga asosan 2009-yilning 1-iyuligacha yalpi daromad solig'ini to'lash tartibi saqlab qolingan.

Ushbu soliq to'lovining yagona soliq to'lovidan farqli jihatlariga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, soliq bazasi elementi hisoblangan sotishdan olingan daromad deganda sof tushum emas, balki tovarlarning sotish va sotib olish baholaridagi qiymatlari o'rtasidagi farq tushuniladi. Soliq bazasiga kiruvchi boshqa elementlar tarkibida farq mavjud bo'lmaydi;

Ikkinchidan, yalpi daromad solig'i davlat tomonidan belgilangan alohida stavka bo'yicha undiriladi;

Uchinchidan, yalpi daromad solig'i summasi sotilgan tovarlar tannarxi summasiga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli ushbu ko'rsatkichni aniq

hisob-kitob qilishga talab katta bo'ladi.

Yalpi daromad solig'i summasi yil boshidan boshlab o'sish tartibida hisob-kitob qilinadi. Jami hisoblangan soliq summasi va oldingi hisob-kitob summasi o'rtasidagi farq oxirgi hisobot davriga (chorakka) to'g'ri keladigan soliq summasini bildiradi. Ushbu summaga buxgalteriyada quyidagi yozuv beriladi:

Debet 9810 «Daromad (foyda)dan soliqlar bo'yicha xarajatlar»;

Kredit 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar".

Yalpi daromad solig'ining Budjetga o'tkazib berilishiga buxgalteriyada quyidagicha yozuv beriladi:

Debet 6410 "Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar";

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

28.2. Savdo korxonalarida majburiy ajratmalar va ushlanmalarning hisobi

Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo korxonalari davlatning maqsadli fondlari (pensiya fondi, yo'l fondi, maktab ta'limini rivojlantirish fondi)ga majburiy ajratmalarni qilmaydilar. Yalpi daromad solig'ini to'lovchi ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari esa ushbu majburiy ajratmalarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. 2009-yil 1-yanvardan boshlab ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari davlatning maqsadli fondlarining har biriga majburiy ajratmalarni sof tovar aylanmasidan 1 foiz miqdorida to'laydilar. Barcha savdo korxonalari, ularning qaysi soliq to'lovini to'lovchilari bo'lishlaridan qat'i nazar, xodimlarga hisoblangan ish haqi ko'rinishidagi barcha daromadlardan (imtiyozlardan tashqari) belgilangan foiz miqdorida pensiya fondiga ajratmani, shuningdek undan belgilangan foiz miqdorida ushlanmani amalga oshirishlari lozim. Bundan tashqari, barcha savdo korxonalari o'z maqsadlarida sotib olgan avtomobillar uchun ularning sotib olish qiymatidan belgilangan stavkada yo'l fondiga to'lovlarni amalga oshiradilar.

Savdo korxonalarida boshqa korxonalar singari davlatning maqsadli fondlariga ajratmalar tasdiqlangan shakllarda hisob-kitob qilinadi va ushbu hisob-kitoblar asosida hisoblangan ajratmalar summasiga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 9430 «Boshqa operasion xarajatlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Xodimlarga hisoblangan ish haqi ko'rinishidagi barcha daromadlardan (imtiyozlardan tashqari) belgilangan foiz miqdorida pensiya fondiga ajratmaga quyidagi yozuv qilinadi:

Debet 9400 «Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Xodimlarga hisoblangan ish haqi ko'rinishidagi barcha daromadlardan (imtiyozlardan tashqari) belgilangan foiz miqdorida ushlanma summasiga:

Debet 6710 «Ish haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

O'z maqsadlarida sotib olgan avtomobillar uchun ularning sotib olish qiymatidan belgilangan stavkada yo'l fondiga to'lovlar ushbu avtomobillarning boshlang'ich qiymatiga kirtiladi va unga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 0160 «Transport vositalari»;

Kredit 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar».

Majburiy ajratmalar, ushlanmalar va to'lovlarning davlatning maqsadli fondlariga o'tkazib berilishiga quyidagicha yozuv qilinadi:

Debet 6520 «Davlatning maqsadli fondlariga to'lovlar»;

Kredit 5110 «Hisob-kitob schoti».

Tayanch iboralar

Yalpi tushum–ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning viloyat, viloyatlararo va tumanlararo bazalaridan tashqari savdo korxonalarining barcha faoliyat turlaridan olgan yalpi daromadi.

Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalarining yalpi daromadi–ushbu turdagi korxonalarning sotishdan olgan savdo ustamalari va boshqa faoliyat turlaridan olgan daromadlarining majmuasi.

Sotish xarajatlari – tovarlarni sotishga oid muomala xarajatlari.

Yagona soliq to'lovi -savdo korxonalarining (ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning viloyat, viloyatlararo va tumanlararo bazalaridan tashqari) yalpi tushumidan belgilangan stavkalarda to'lanadigan soliq.

Yalpi daromad solig'i - ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari yalpi daromadidan belgilangan stavkalarda to'lanadigan soliq.

Yoqilg'i iste'moli uchun soliq - jismoniy shaxslarga benzin, dizel yoqilg'isi va suyuqlashtirilgan gazlar naqd pulga sotishda sotilgan har 1 litr benzin va dizel yoqilg'isi hamda 1 kg suyultirilgan gaz uchun belgilangan miqdorida undiriladigan soliq

Nazorat uchun test savol –javoblari

Xo'jalik holati

Samarqand shahrida joylashgan ko'p tarmoqli «Nur» savdo korxonasining (tarmoq kodi 71100 «Ulgurji savdo») yillik yalpi tushumi quyidagilardan iborat: ulgurji savdo aylanmasi – 2,5 mlrd. so'm; chakana savdo aylanmasi 800 mln. so'm; olingan dividendlar 2 mln. so'm; asosiy vositalarni sotishdan olgan foydasi 1,2 mln. sum; ijobiy kurs farqlari 3 mln. so'm, salbiy kurs farqlari 3,5 mln. so'm; avtotransport xizmatlaridan tushum 10 mln. so'm. Savdo korxonasi har bir faoliyat turi bo'yicha alohida hisob yuritadi va yagona soliq to'lovini ulgurji savdo bo'yicha 5 foizda, chakana savdo bo'yicha 3 foizda, boshqa xizmat turlari bo'yicha 8 foizda to'laydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra quyidagi savollarga to'g'ri javoblarni toping:

1. Ulgurji savdo bo'yicha yagona soliq to'loviga tortiladigan baza summasi qancha?

a) 2501,2 mln. so'm;
b) 2504,2 mln. so'm;
v) 2502 mln. so'm;
g) 2510 mln. so'm.

2. Ulgurji savdo bo'yicha yagona soliq to'lovi summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) 125,06 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
b) 125,21 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
v) 125,1 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
g) 125,5 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410.

3. Chakana savdo bo'yicha yagona soliq to'loviga tortiladigan baza summasi qancha?

a) 3,3 mlrd so'm;

b) 800 mln. so'm;
v) 802 mln. so'm;
g) 810 mln. so'm.

4. Chakana savdo bo'yicha yagona soliq to'lovi summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) 24 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
b) 99 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
v) 24,06 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
g) 24,3 mln. so'm, Debet 9810 Kredit 6410.

5. Transport xizmatlari bo'yicha yagona soliq to'lovi summasi qancha va unga qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

a) 800000 so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
b) 960000 so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
v) 1116000 so'm, Debet 9810 Kredit 6410;
g) to'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. — T.: O'zbekiston, 2010.

2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. "Norma" iqtisodiy—huquqiy ro'znoma №3 (288) 25 - yanvar 2011-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. —T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2008.

4. «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom». O'zR VMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. BHMS № 3 «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. O'zR AV tomonidan 1998-yil 26-avgustda ro'yxatga olingan, № 484.

6. BHMS № 21 «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». O'zR AV tomonidan 2002-yil 23-oktabrda ro'yxatga olingan, № 1181.

7. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. -T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2004.

MUNDARIJA

KIRISH 3
I-bo'lim. QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....6
1-bob.Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari.....6
1.1.Qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....6
1.2.Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari.....14
1.3.Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari.....16
2-bob.Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobining xususiyatlari.....24
2.1.Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi.....24
2.2.Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar holati va harakatining hisobi.....28
2.3.Qurilish mashinalari va mexanizlari ish faoliyatining hisobi.....34
2.4.Qurilish mashinalari va mexanizlarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining hisobi.....36
2.5.Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblash usullarini qo'llash xususiyatlari.....39
3-bob.Qurilish tashkilotlarida materiallar hisobining xususiyatlari.....48
3.1.Qurilish tashkilotlarida ishlatiladigan materiallarning tasnifi, tavsifi va baholanishi.....48
3.2.Qurilish tashkilotlarida materiallar harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi.....52
3.3.Qurilishga sarflangan materiallar to'g'risida hisobotni tuzish va unga ishlov berish tartibi.....55
3.4.Qurilish tashkilotlarida materiallarning sintetik va tahliliy hisobi.....58
3.5.Qurilish tashkilotlarida materiallar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uni natijalarining hisobi.....63
4-bob.Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hisobining xususiyatlari.....70
4.1.Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari.....70
4.2.Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarning sintetik va tahliliy hisobi.....73
4.3.Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lash xarajatlarining taqsimoti...75
5-bob.Qurilish tashkilotlarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning xususiyatlari.....81

5.1.Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi.....81
5.2.Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi.....84
5.3.Qurilish tashkilotlarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimoti.....86
5.4.Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari.....87
6-bob.Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning hisobi.....92
6.1.Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlar hisobi.....92
6.2.Qurilish ishlari bo'yicha buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi.....95
6.3.Qurilish ishlarini bajarishda bosh pudratchi va subpudratchilar o'rtasidagi hisob-kitoblar hisobi.....97
7-bob.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy natijalar, soliqlar va majburiy to'lovlarning hisobi.....102
7.1.Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi.....102
7.2.Qurilish tashkilotlarini soliqqa tortishning xususiyatlari va ularning hisobi.....111
7.3.Qurilish tashkilotlarida majburiy ajratmalar, yig'imlar va ushlanmalarning hisobi.....120
8-bob.Qurilish tashkilotlarida hisobot.....129
8.1.Qurilish tashkilotlarida hisobotlarning turlari va ularni taqdim etish muddatlari.....129
8.2.Qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlari.....131
II-bo'lim.QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....144
9-bob.Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari.....144
9.1.Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....144
9.2.Qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari.....149
9.3.Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari.....154
10-bob.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobining xususiyatlari.....159
10.1.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarning tasnifi, tavsifi va baholanishi.....159

10.2.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobi.....161
10.3.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy podani shakllantirish va ular kirimining hisobi.....163
10.4.Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning xususiyatlari va hisobi.....165
11-bob.Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobining xususiyatlari.....173
11.1.Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining tasnifi, tavsifi va baholanishi.....173
11.2.Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombor hisobi.....176
11.3.Ishlab chiqarish zaxiralarining sintetik hisobi.....177
11.4.O'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi.....180
12-bob.Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.....187
12.1.Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi.....187
12.2.Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi.....190
12.3.Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va tahliliy hisobi.....192
12.4.Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.....195
13-bob.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.....203
13.1.Chorvachilik xarajatlarining tasnifi, tarkibi va tavsifi.....203
13.2.Chorvachilik xarajatlari va mahsulot kirimining dastlabki hisobi.....205
13.3.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va tahliliy hisobi.....206
13.4.Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash usullari.....208
14-bob.Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi.....218
14.1.Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning taqsimlanishi.....218
14.2.Qishloq xo'jaligi korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimlanishi.....221
15-bob.Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari, soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi.....228

15.1.Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari va ularning hisobi....228
15.2.Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosati va soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi....235
15.3.Qishloq xo'jaligi korxonalarida majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi....248
16-bob.Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish xususiyatlari....256
16.1.Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy hisobotning turlari, tarkibi va uni taqdim etish muddatlari....256
16.2.Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya balansini to'ldiish xususiyatlari....257
16.3.Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni to'ldirish xususiyatlari....259
III-bo'lim.AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI....265
17-bob.Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari....265
17.1.Avtotransport korxonalarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari....265
17.2.Avtotransport korxonalari hisob siyosatining xususiyatlari....267
17.3.Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari....271
18-bob.Avtotransport vositalari va ular ish faoliyatining hisobi....277
18.1.Avtotransport vositalarining tasnifi, tavsifi va baholanishi....277
18.2.Avtotransport vositalari holati va harakatining hisobi....283
18.3.Avtotransport vositalari ish faoliyati ko'rsatkichlarining hisobi....292
19-bob.Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralarining hisobi....305
19.1.Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari hisobini tashkil qilish asoslari....305
19.2.Avtomobil yoqilg'ilarining hisobi....307
19.3.Avtomobillar uchun ehtiyot qismlarning hisobi....313
19.4.Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiyasining xususiyatlari....317
20-bob.Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish....325
.1.Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi va tavsifi....325
20.2.Yoqilg'i sarfining hisobi....327
20.3.Ehtiyot qismlar sarfining hisobi....332

20.4.Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy sug'urtaga majburiy ajratmalar bo'yicha xarajatlarning hisobi....335
20.5.Amortizatsiya xarajatlarining hisobi....338
20.6.Avtotransport korxonalarida boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va taqsimoti....345
20.7.Avtotransport korxonalarida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi....347
21-bob.Avtotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning xususiyatlari....356
21.1.Avtotransport korxonalarida asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarining hisobi....356
21.2.Avtotransport korxonalarida umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalarning hisobi....359
21.3.Avtotransport korxonalarida sof foyda va uni ishlatilishining hisobi....361
21.4.Avtotransport korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotda aks ettirish xususiyatlari....363
22-bob.Avtotransport korxonalarida soliqlar, majburiy ajratmalar va to'lovlarning hisobi....370
22.1.Avtotransport korxonalarida soliqlarning hisobi....370
22.2.Avtotransport korxonalarida majburiy ajratmalar, yig'imlar va ushlanmalarning hisobi....379
IV-bo'lim.SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI....385
23-bob.Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari....385
23.1.Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi tasnifi, tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari....385
23.2.Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari....389
24-bob.Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi....396
24.1.Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining mohiyati va ularni amalga oshirish shartlari....396
24.2.Tovar - moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannarxi) va sotish baholarini aniqlash tartibi....397
24.3.Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hujjatlashtirilishi....404
24.4.Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini yuritish usullari....410

24.5.Moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari, ularni tuzish, taqdim etish, tekshirish va tasdiqlash....412
24.6.Ulgurji savdo korxonalarida tovarlar kirimining hisobi....414
24.7.Tovarlar sotilishi va boshqa chiqimlarining hisobi....417
24.8.Ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi va uning natijalarining hisobi....421
25-bob.Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining hisobi....433
25.1.Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil qilishning xususiyatlari....433
25.2.Chakana savdo korxonalariga tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish....436
25.3.Chakana savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarini tuzish, taqdim etish va ularga buxgalteriya ishlovini berish....443
25.4.Chakana savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya

25.5.Chakana savdo korxonalarida idishlar hisobining xususiyatlari....449
25.6.Chakana savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi xususiyatlari va uning natijalari hisobi....450
26-bob.Umumiy ovqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari....455
26.1.Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalari hisobini tashkil etish xususiyatlari....455
26.2.Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarini hujjatlashtirish va ular bo'yicha hisobotni tuzish....458
26.3.Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi....460
27-bob.Savdo korxonalarida daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar hisobining xususiyatlari....466
27.1.Savdo korxonalarida daromadlar hisobi....466
27.2.Savdo korxonalarida xarajatlar hisobi....468
27.3.Savdo korxonalarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi....473
28-bob.Savdo korxonalarida soliq to'lovlari, majburiy ajratmalar va ushlanmalar hisobining xususiyatlari....478
28.1.Savdo korxonalarida soliq to'lovlarining hisobi....478
28.2.Savdo korxonalarida majburiy ajratmalar va ushlanmalarning hisobi....485
MUNDARIJA....489

Komil Baxramovich Urazov,
Sodiq Valiyevich Vaxidov

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Darslik

Nashr uchun mas'ul:
"ADIB NASHRIYOTI" MЧЖ
*direktori Qurbanmurot **JUMAEV***

Muharrirlar:
Vahobova M.M., Mirboboyeva S.A.
Texnik muharrir:
Mirhidoyatova D.M.
Musahhih:
Xurramova D.Q.

"ADIB NASHRIYOTI" MЧЖ. 100027, Toshkent sh.,
O'zbekiston ko'chasi 16 A - uy.

LITSENZIYA AI №181, 08.12.2010 y. Bosmaxonaga topshirildi: 10.05.2011 y.
Bosishga ruxsat etildi:20.05.2011 y. Bichimi 60x84 1/16.
Ofset qog'ozida ofset usulida bosildi.
Hajmi 31 b.t., Adadi 500 dona. BuyurtmaN№ 11.
Bahosi kelishilgan narxda.

«START-TRAKT PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent sh., 8-mart ko'chasi. 57 uy.